O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI NTM

INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT

INNOVATION AND PROGRESS

Ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy
JURNAL

Scientific-methodological, social, spiritual-educational
JOURNAL

2026-yil, 6,7,8-sonlar
2026, Issue 6,7,8

Bosh muharrir v.v.b.:
A.Matnazarov – Fizika matemetika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.
Mas’ul kotib:
U.Bekmuhammad – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
Tahrir hay’ati:
G.Durdieva – Arxitektura fanlari doktori, professor.
M.Isxoqov – Tarix fanlari doktori, professor.
F.Maqsudov – Tarix fanlari doktori, professor.
G‘.Boboyorov – Tarix fanlari doktori, professor.
S.Hoshimov – Tarix fanlari doktori, professor.
O.Komilov – Tarix fanlari doktori, professor.
D.Jamalova– Tarix fanlari doktori, dotsent.
F.Boboyev – Tarix fanlari doktori, professor.
D.N.Abdullayev – Tarix fanlari doktori, professor.
X.X.Matyaqubov– Tarix fanlari doktori, dotsent.
O.Radjabov – Tarix fanlari doktori, dotsent.
N.Matyaqubov – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.
T.R.Xamrayeva – Tarix fanlari nomzodi, professor.
M.Alixojiev – Tarix fanlari nomzodi, dotsent.
M.R.Xo‘jamov – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.
Z.Do‘simov – Filologiya fanlari doktori, professor.
Ulug‘bek Hamdam – Filologiya fanlari doktori, professor.
Jabbor Eshonqul – Filologiya fanlari doktori, professor.
M.Qo‘chqorova – Filologiya fanlari doktori, professor.
Q.Ergashev – Filologiya fanlari doktori, professor.
A.D.O‘razboyev – Filologiya fanlari doktori, professor.
D.Q.G‘ayipov – Filologiya fanlari doktori, professor.
A.I.Primov – Filologiya fanlari doktori, professor.
M.Pirnazarova – Filologiya fanlari doktori, dotsent.
S. Samandarova – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.
D.T.Yuldashev – Filologiya fanlari doktori, professor.
I.Ismoilov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.
Sh.Norboyeva – Filologiya fanlari doktori, dotsent.
M.Tillayeva – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.
R.Y.Xudoyberganov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.
O‘.X.Rajabov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.
F. Kenjayev – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.
Sh.Alimova – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.
M.K.Yuldasheva – Filologiya fanlari nomzodi.
Qozoqboy Yo‘ldosh – Pedagogika fanlari doktori, professor.
F.R.Madrahimova – Pedagogika fanlari doktori, professor.
I.A.Ishonxanova – Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.
G.Sharipova – Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori.
S.K.Salayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
I.Abdullayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

A.M.Sodikov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
S.S.Zokirov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
A.A.Urinov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
U.A.Otajonov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
B.T.Bayxonov– Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
B.B.Mullaboyev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
D.Xudayberganov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
A.Matnazarov – Fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent.
M.Xoshimxonov – Falsafa, pedagogika, filologiya fanlari doktori, professor.
M.S.Xajiyeva – Falsafa, pedagogika fanlari doktori, professor.
O.N.Naumenko – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).
Y.A.Naumenko – Psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya).
Y.M.Gancharov – Tarix fanlari doktori, professor(Rossiya).
K.V.Karpinskiy – Psixologiya fanlari doktori, professor (Belorus).
L.S.Zelensova – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya).
V.A.Barmin – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).
A.A.Veryayev – Pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya).
A.G.Abdullin– Psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya).
Almaz Ulviy – Filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon).
Azizullah Aral - Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (AQSH).
H.H.Tadjiyev – Turkologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (Qozog‘iston).
O.I.Xudoyberganov – kimyo fanlari falsafa doktori, katta ilmiy xodim

Hamkor tashkilotlar:
Xorazm viloyat turizm boshqarmasi.
Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi Xorazm viloyat bo‘limi.
“Jaloliddin Manguberdi” fondi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 24-sentabrdagi № 375/5 qaroriga ko‘ra “Innovatsiya va taraqqiyot” jurnali Tarix va filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

ISSN 3030-3206
Innovatsiya va taraqqiyot: ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnal. №6,7,8 (43), Urganch innovatsion universiteti, 2026-yil

MUNDARIJA:

TARIX

F.J.Jumaniyazova. Mustaqillik yillarida xorazm viloyati mahalliy matbuotida ikkinchi jahon urushi tarixining konseptual talqini 8

I.A.Qorjovov. Turkiston hududida sud tizimi: qozilar va qozixonalar tarixi 14

I.A.Qorjovov. Xiva xonligida davlat boshqaruvi tizimi va ma'muriy-diniy mansablar 21

R.D.Abduvohidova. Madaniyat homiysi, mashhur temuriy malika – Gavharshodbegim 27

O.E.Ruzmetova. Xiva xonligida ichki bozorlar infratuzilmasi (XVIII asr oxiri – XX asr boshlari) 34

I.A.Ibragimov. Quyi Xorazm vohasi aholisi hunarmandchiligi tarixnavisligi bo'yicha mulohazalar 41

O.B.Aliyeva. Qadimgi Xorazm xududida antik davr ibodatxonalari (To'proq qa'la, qalali gir2, Tagisken) 47

X.X.Raximbayev. Saljuqiylar davlati vujudga kelishida Xorazm 52

S.Samandarov. O'zbekistonda tashqi migratsiya oqimlari va asosiy yo'nalishlar 59

S.J.Mirzaxalov. Tadbirkorlikda kadrlar tayyorlash tizimi (O'zbekiston misolida) 68

J.Iminov. Xorazmdagi jadidchilik harakati a'zosining ayanchli taqdiri 73

SH.Parmanov. Munchoqlitepa yodgorligining qurilish texnikasi xususida (Arxeologik materiallar asosida) 81

G.I.Mamuraliyeva. Arjumand Bonu – jahon tarixida o'chmas iz qoldirgan boburiy malika 88

N.O.Sharifova. Amir Temur davrida masjidlar qurilishiga berilgan e'tibor 93

Sh.Sh.Qadamboyev. Toshkent voxasi neolit davri o'zlashtirilishi bosqichlari 98

G.B.Matnazarova. Xorazm vohasi ilk o'rta asr geografik xolati antropologik landshafti xususida 102

F.Vapayeva. Zarafshon vodiysi bronza asri jamiyatida kechgan iqtisodiy munosabatlar xususida 106

S.S.Suyunov. Zarafshon vohasining suv manbalari va sug'orilish tarixiga doir tahliliy ma'lumotlar 110

G.R.Xolboyeva. O'zbekiston SSRda mashina-traktor stansiyalari va kolxozlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning institutsional xususiyatlari (1949-1954 yy.) 131

H.Kenjayev. Vosifiyning "Badoye' Ul-Vaqoye" asarida Firdavsiy va "SHohnoma" zikri 140

E.A.Matyaqubov. XIX-asr oxiri xx-asr boshlarida xiva xonligida tibbiy hizmat 157
D.Sh.Rajabova. Ilk Sharq renessansi davrida xorazmda ta’lim va ilm-fanning institusional infratuzilmasi: madrasalar va vaqf tizimi 166
D.Sh.Rajabova. Xorazm Ma’mun akademiyasi («Dorul-Hikma»): ilmiy muhit va fundamental fanlar rivojining tanqidiy-qiyosiy tahlili 172
R.Q.Otaboyeva. Xorazm vohasi oilaviy marosimlari tizimida beshik to‘yining o‘rni 178
M.A.Yuldasheva, Q.O‘.Qadamova. Tarix darslarida raqamli muzey pedagogikasi va virtual sayohatlarni qo‘llash metodikasi 186
S.S.Matniyozov. Qurbon Bereginning “Xorazm okrugida mehnatsiz xo‘jaliklarni tugatish yakunlari” risolasi - muhim tarixiy manba sifatida 192
F.J.Jumaniyazova. 1939-2025 yillarda Xorazm viloyati davriy matbuotida ikkinchi jahon urushi mavzusi yoritilishining manbashunoslik tahlili 200
O.Sh.Ibadullayeva. Xiva xonligi savdogarlari va turli millat vakillari o‘rtasidagi hamkorlik: totuvlikni shakllantiruvchi omillar 206
Sh.Nasriddinov. Qirqhujra – Shimoliy Farg’ona hududidagi ilk urbanizatsiya markazi 211
M.S.Abdullayeva. XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida xiva xonligida mennonit nemislari: migratsiya sabablari va joylashuv bosqichlari 220
S.K.Razzoqov. 1945–1991-yillarda Xorazm viloyatida ilm-fan sohasidagi o‘zgarishlar 230
E.D.Isomiddinov. 1917-yil fevral inqilobidan keyingi davrda Turkiston sanoatida ishchilar nazoratining o‘rnatilishi 238
M.Abdullayev. XX asr 20-yillari boshida Turkistondagi iqtisodiy inqirozning ijtimoiy hayotga ta’siri 247
J.G‘.Iskandarov. Amir Temur qo‘shinining oziq-ovqat ta’minoti 257
R.Djurayev. O’zbekiston SSR chorvachiligida zooveterenariya holati 265
M.T.Jumaniyozova. “Non” etimologiyasi 277

FILOLOGIYA

O.I.Aslanova. Morfologik paradigmalar va funksional-semantik maydon munosabatining nazariy-metodologik asoslari 282
O.I.Aslanova. Morfologik paradigma va funksional-semantik maydon o‘rtasidagi dialektik munosabat shakllari 288
A.A.Atajanova. Speech acts and their functions in everyday communication 294
J.Mahmudov. Xalq kitoblarida javonmardlar toifasi xususida 302
J.Mahmudov. Navoiy devonidagi bir bayt xususida 310

N.S.Salomov. Ingliz va o‘zbek tillarida xushmuomalalik kategoriyasining qiyosiy-lingvopragmatik tadqiqiga doir 319
N.S.Salomov. Xushmuomalalik konsepti va uni o‘rganishning asosiy nazariy yondashuvlari 326
M.Qodiriy. Leksik-stilistik va pragmalingvistik aktlarning tarjimalarda uzatilishi 333
F.R.Matkarimova. Ergonimlarning nazariy tadqiqi xususida 339
O.R.Matkarimova. Antonomaziyalarni tarjima qilishda konnotatsiyani saqlash muammolari 348
D.Rustamova. Ogahiy she’riyatida ma’naviy san’atlar 359
N.A.Ergasheva. O‘zbek toponimikasining ilmiy-nazariy asoslari va paxtachi tumani toponimlarini tahlil etishning metodologik yondashuvlari 364
N.A.Ergasheva. Paxtachi tumani mikrotoponimlarini o‘rganishda tadqiqot metodlarining samaradorligi 372
G.M.Saparbaeva. Lexical diffusion and semantic fields in english: a historical and contemporary analysis 380
Sh.Sh.Sanaqulova. Neyrosetlarni lingvodidaktikaga integratsiya qilish: imkoniyatlar va xavf-xatarlar 390
D.Y.Karimova. Xorazm shevalarida fe’llarning o‘rganilishi 397
D.T.Yuldashev. Qo‘zi davlatning “Ko‘ngil chiroyi” devonidagi sifatlashlar lingvopoetikasi 402
Z.U.Yuldashev. Nabi Jaloliddinning “CHo‘lpon” romanida tarixiy shaxslar portretining badiiy talqini 411
G.K.Kazakova. Esse janri genezisi va poetik xususiyatlari 418
N.G.Boboyozova. Ingliz tilida murojaat shakllarining lingvistik va lingvomadaniy xususiyatlari 423
N.A.Azatova. Lingvokulturemalarning folklor asarlaridagi o‘rni 430
Y.M.Xasanova. Zamonaviy ingliz motivatsion diskursida persuaziv lingvopragmatik mexanizmlar: S.R. Kovey, J. Klir, B. Braun va K. Dvek asarlari materialida qiyosiy tahlil 436
D.K.Rustamova. Qurbon Muhammadrizoning “Bir siqim tuproq” asarida peyzaj qahramon ruhiy olamini aks ettirish vositasi sifatida 442
D.X.Jumaniyazova. Qo‘zi davlat nasridagi troplarning lingvopoetik tahlili 446
R.A.Cho‘liyev. Badiiy asarlarda xalq madaniy dunyoqarashi va milliy mentallik 455
D.I.Pardayeva. Ambivalentlikning semantik va pragmatik xususiyatlari 461
Z.M.Raximova. Milliy mentalitetni aks ettiruvchi verbal birliklarning qiyosiy tahlili 470

B.M.Fazilkarimova. Empatiya tushunchasining badiiy va psixologik talqini: nazariy yondashuvlar 476
I.M.Abdullayeva. A.P. Chexov so‘nggi davr ijodida qadriyatlar inqirozi holatidagi adabiy qahramon 482
F.B.Bo‘riyeva. Substandart mental fe’llarda inferensial ma’no hosil bo‘lishi: implikatura va kommunikativ relevantiya nazariyalari asosida qiyosiy tahlil 488
G.U.Bekbergenova. Farmatsevtik ergonimlarning semantik va lingvokulturologik xususiyatlari 503
B.M.Polvonova. Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonlarida ayollar nutqida milliy-madaniy qadriyatlar va gender stereotiplarining o‘ziga xosligi 510
T.J.Purxanova. The pedagogical significance of developing freelancing skills among school students 521
M.B.Mirzayeva. Ingliz va o‘zbek bolalar nutqida nominatsiya vositalarini lingvokognitiv tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari 527
N.Jumaxo’ja. Ilohiyot va dunyoviylikni muvofiqlashtirgan ta’limot 535
B.A.Muxtorova. O‘zbek, rus va ingliz madaniyatlarida “Boylik” konseptining lingvomadaniy metaforalari 542
I.X.Pardaeva. O‘zbek tilida quloqqa taqiladigan zargarlik zeb – ziynat buyumlari nomlari 549
Z.T.Umarova. Tursunboy Adashboyev she’riyatida vatan va milliy qadriyatlar tasviri 555
G.B.Otaxonova. Badiiy matnlarda milliy-madaniyatga xos leksikaning berilishi: nemis, ingliz va o‘zbekcha tarjimar qiyosida 563
M.R.Pulatova. Abdurahmon Jomiyning “Arba’in” asari qo‘lyozma nusxalarining qiyosiy-matniy tadqiqi 568
M.R.Pulatova. Abdurahmon Jomiyning “Arba’in” asari qo‘lyozma nusxalarining qiyosiy-matniy tadqiqi 576
Г.Р.Ишанкулова. Эволюция государственности Захириддина Мухаммада Бабура: от кабульского удела к формированию государства бабуридов в Индии 586

TARIX

MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZM VILOYATI MAHALLIY MATBUOTIDA IKKINCHI JAHON URUSHI TARIXINING KONSEPTUAL TALQINI

Jumaniyazova Firuza Jumanazarovna, Xorazm Ma'mun akademiyasi Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'limi katta ilmiy xodimi, t.f.f.d (PhD), jumanazarovafiruza8485@gmail.com. ORCID:0009-0009-4929-3143.

UO'K 94(575.1)

Annotatsiya: *Mazkur maqolada mustaqillik yillarida respublika mahalliy matbuotida Ikkinchi jahon urushi tarixining yangi konseptual talqini tahlil qilingan. Xususan, Xorazm viloyatida nashr etilgan "Shovot istiqboli", "Gurlan hayoti" va "Yangibozor ko'zgusi" gazetalari materiallari asosida urush mavzusining yoritilish xususiyatlari, tarixiy xotira siyosati, insonparvarlik tamoyillari, milliy tarixiy xotira va vatanparvarlik g'oyalarining matbuotdagi ifodasi o'rganilgan. Tahlillar natijasida mustaqillik davri matbuotida Ikkinchi jahon urushi tarixini sovet mafkuraviy talqinidan farqli ravishda inson taqdiri, mahalliy tarix, shaxsiy xotira va milliy qadriyatlar asosida qayta konseptuallashtirish tendensiyasi shakllanganligi asoslanadi. Shuningdek, mahalliy matbuotning tarixiy xotirani shakllantirish, davlatning tarix siyosati mazmunini jamoatchilikka yetkazish hamda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi o'rni ilmiy jihatdan baholangan.*

Kalit so'zlar: *Ikkinchi jahon urushi, mahalliy matbuot, tarixiy xotira, konseptual talqin, milliy tarix, vatanparvarlik, insonparvarlik, "Shovot istiqboli", "Gurlan hayoti", "Yangibozor ko'zgusi", Xorazm viloyati.*

Kirish. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy tarixni xolisona o'rganish va sovet davrida shakllangan mafkuraviy qarashlarni qayta ko'rib chiqish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu jarayon Ikkinchi jahon urushi tarixi talqinida ham o'z ifodasini topdi. Sovet davri matbuotida ikkinchi jahon urushi asosan kommunistik mafkura va "Ulug' Vatan

urushi” konsepsiyasi doirasida yoritilgan bo‘lsa, mustaqillik yillarida uni milliy manfaatlar, tarixiy haqiqat, inson taqdiri va tarixiy xotira nuqtai nazaridan, shuningdek, respublikaning g‘alabaga qo‘shgan hissasini yoritishga e’tibor qaratildi. Shu tariqa ommaviy axborot vositalari nafaqat tarixiy voqealarni yorituvchi axborot manbai, balki jamiyatning tarixiy xotirasini shakllantiruvchi muhim ijtimoiy institut sifatida ham namoyon bo‘ldi.

1991-2025 yillar davomida respublika, jumladan mahalliy matbuotda ham Ikkinchi jahon urushiga oid materiallarning mazmun-mohiyati va konseptual yo‘nalishida sezilarli o‘zgarishlar kuzatildi. Jumladan, O‘zbekiston xalqining front va front ortida g‘alabaga qo‘shgan hissasi, urushning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari, evakuatsiya qilingan aholi va bolalarga ko‘rsatilgan g‘amho‘rlik masalalari, mehnat armiyasiga jalb etilganlar taqdiri hamda insonparvarlik va bag‘rikenglik an’analariga bag‘ishlangan maqolalar ko‘paydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning tashabbusi va qo‘llab-quvvatlashi bilan 2018-yildan boshlab tarixchi olimlar tomonidan Ikkinchi jahon urushi davrida O‘zbekistonning g‘alabaga qo‘shgan hissasi masalalarining arxiv hujjatlari asosida o‘rganilishi va yangi ma’lumotlarning ilmiy muomalaga kiritilishi, ko‘plagan yangi tadqiqotlarni olib borilishi hamda davlat siyosatida tarixiy xotiraga berilgan e’tibor matbuotda Ikkinchi jahon urushi tarixini yangicha konseptual asoslarda talqin qilish imkonini yaratdi.

Adabiyotlar tahlili. Tarixshunoslikda shu kungacha olib borilgan tadqiqotlarda Ikkinchi jahon urushi tarixiga oid materiallarni yoritishda mahalliy davriy matbuot materiallari manba sifatida o‘rganilmagan. Shuningdek, “Shovot istiqboli”, “Gurlan hayoti”, “Yangibozor ko‘zgusi” gazetalari sahifalarida ikkinchi jahon urushi tarixini yorituvchi manba ekanligi hamda mustaqillik yillarida mahalliy davriy matubotda yangicha qarashlar asosida yozilgan maqolalarning yoritilishiga oid shu kunga qadar biron maqola nashr qilinmagan. Shu nuqtai – nazardan ushbu maqolani manbaviy asosini “Shovot istiqboli”, “Gurlan hayoti”, “Yangibozor ko‘zgusi” gazetalarining 1991-2025-yillarga oid sonlari tashkil qiladi.

Metodlar. Maqolada “Shovot istiqboli”, “Gurlan hayoti”, “Yangibozor ko‘zgusi” gazetalari sahifalarida keltirilgan ikkinchi jahon urushi frontlarida bo‘lgan urush faxriylarining hayoti va faoliyatiga tegishli ma’lumotlarga aniqlik kiritish va arxiv hujjatlari bilan taqqoslash uchun tarixiy-xronologik hamda qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Mustaqillik yillarida mahalliy matbuot organlari mamlakatda shakllangan yangi tarixiy xotira siyosatini aholi ongiga singdirishda muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo‘ldi. Bu jarayon, ayniqsa, Ikkinchi jahon urushi tarixi talqinida yaqqol kuzatilib, mahalliy gazetalar sahifalarida sovet davriga xos mafkuraviy yondashuv o‘rnini milliy qadriyatlar, insonparvarlik tamoyillari va tarixiy xotirani tiklashga qaratilgan yangi konseptual yondashuv egalladi. Xorazm viloyatining mahalliy nashri hisoblangan “Shovot istiqboli” [1], “Gurlan hayoti” [2], “Yangibozor ko‘zgusi”[3] kabi gazetalarning materiallari mazkur transforma-siyaning o‘ziga xos xususiyatlarini yorituvchi muhim manba hisoblanadi.

Mustaqillik yillariga kelib respublika, jumladan viloyat va tuman gazetalari sahifalarida Ikkinchi jahon urushi davri tarixini yoritishda asosan urush qatnashchilariga davlat tomonidan berilgan yordam, rag‘batlantirish masalalari, urush frontlarida bo‘lgan faxriylar hayoti va faoliyati, ko‘chirib keltirilganlarning urushdan keyingi taqdiri kabilarga oid materiallar berib borilgan. Jumladan, Xorazm viloyati Shovot tumanining nashri hisoblangan “Shovot istiqboli” gazetasining 2007-yil 15-24-mayda chop qilingan 9-10-sonlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, nashrda Ikkinchi jahon urushi tarixi harbiy operatsiyalar yoki g‘alaba xronikasi sifatida emas, balki tarixiy xotira va inson taqdiri bilan bog‘liq ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida talqin qilingan. Xotira va qadrlash kuniga bag‘ishlangan materiallarda asosiy e’tibor urush qatnashchilarini davlat va jamiyat tomonidan e’zozlash, ularning jasoratini yosh avlod uchun ma’naviy namuna sifatida targ‘ib qilish hamda tinchlik qadrini anglatishga qaratilgan. Bu holat mustaqillik davri tarixiy diskursida urush mavzusining mazmunan qayta konseptuallashtirilganini anglatadi[4].

Gazetada e’lon qilingan materiallarning tahlilidan ma’lum bo‘ladiki, sovet davri matbuotiga xos bo‘lgan g‘alaba mafkurasi va harbiy qahramonlik obrazlari ustuvorligi o‘rniga inson hayoti, shaxsiy xotira va mahalliy tarixga murojaat qilish tendensiyasi kuchaygan. Xususan, “Shovot istiqboli” gazetasining 2007-yil 24-maydagi sonida “Ularning bir nechtasi qahramonlarcha halok bo‘lishdi” rukni osida berilgan “Faxriy bilan uchrashuv” sarlavhasi ostidagi maqolada urush qatnashchisi Karriboy Masharipov bilan o‘tkazilgan suhbatda frontdagi janglar tavsifidan ko‘ra urushning inson taqdiriga ko‘rsatgan ta’siri, jismoniy va ma’naviy yo‘qotishlar, tinch hayotning qadri hamda kelajak avlodning Vatan oldidagi mas’uliyatiga urg‘u berilgan[5]. Mazkur yondashuv urush tarixini siyosiy voqealar yig‘indisi sifatida emas, balki inson taqdiri orqali anglashga

qaratilgan antropotsentrik konsepsiyaning mahalliy matbuotda shakllanganligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, gazetada ta’lim muassasalarida tashkil etilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar haqidagi materiallar salmoqli o‘rin egallaydi. Ularda urush qatnashchilari bilan uchrashuvlar, xotira maydonlaridagi tadbirlar, o‘quvchilar tomonidan ijro etilgan she’r va adabiy-kompozitsiyalar haqida so‘z yuritilar ekan, ushbu tadbirlar tarixiy voqelikni qayta hikoya qilish vositasi sifatida emas, balki milliy tarixiy ong va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning muhim mexanizmi sifatida talqin qilingan. Demak, mahalliy matbuot tarixiy xotirani ommalashtirish bilan bir qatorda, uning tarbiyaviy funksiyasini ham bajargan.

Gazetaning 2018-yil 15-maydagi 9-soni[6], 2019-yil 25-maydagi 7-sonlari[7] tahlili mazkur tendensiyaning izchil davom etganini ko‘rsatadi. Bu davrda Xotira va qadrlash kuniga bag‘ishlangan materiallarda davlat rahbariyati tashabbusi bilan urush va mehnat faxriylarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish, ta’lim muassasalarida vatanparvarlik mazmunidagi tadbirlarni tashkil etish masalalari keng yoritilgan. Bunday materiallar orqali tarixiy xotira davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida reprezentatsiya qilinib, urush ishtirokchilarini e’zozlash milliy o‘zlikni anglash va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash vositasi sifatida asoslangan.

“Gurlan hayoti” gazetasining 2013-yil 9-maydagi 17-sonida e’lon qilingan **“Jasorat unitilmaydi”** nomli maqola mustaqillik davri mahalliy matbuotida Ikkinchi jahon urushi tarixini yoritishning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Maqolada Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan tumanda tashkil etilgan tantanali tadbirlar, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag‘batlantirish, Xotira maydoniga gul qo‘yish marosimi hamda keng jamoatchilik ishtirokida o‘tkazilgan yig‘ilish haqida ma’lumot berilgan. Biroq mazkur materialning ahamiyati faqat axborot berish bilan cheklanmaydi, balki u mustaqillik davri tarixiy xotira siyosati va uning mahalliy matbuotdagi ifodasini o‘zida mujassam etganligi bilan ham ahamiyatlidir[8].

“Yangibozor ko‘zgusi” gazetasining 2011-yil 6-maydagi 10-sonida “Jangchi xotiralari” rukni ostida e’lon qilingan “O‘q parchalari hamon tanamda” nomli maqola mustaqillik davri mahalliy matbuotida Ikkinchi jahon urushi ishtirokchilarining shaxsiy xotiralarini ommalashtirish orqali tarixiy xotirani shakllantirishga qaratilgan materiallar qatoriga kiradi. Maqolada 1942-yilda Yangibozor tumanidan frontga safarbar etilgan Soliy Matyusupovning Riga

shahrini fashistlardan ozod qilish bo‘yicha janglarda qatnashgani hamda og‘ir yaralanib, tanasining o‘n yetti joyiga sochma o‘q parchalari tekkani haqidagi ma’lumotlar keltirilgan**[9].**

Mazkur material tahlili shuni ko‘rsatadiki, maqolada harbiy operatsiyalarning strategik jihatlarini yoritishdan ko‘ra, urushning inson taqdiriga ko‘rsatgan ta’sirini ochib berishga alohida e’tibor qaratilgan. Soliy Matyusupovning shaxsiy xotiralari va boshidan kechirgan voqealari orqali front hayotining murakkabligi, urushning inson salomatligi va taqdiriga yetkazgan og‘ir oqibatlari yoritilgan. Bu esa mustaqillik davri matbuotida Ikkinchi jahon urushi tarixini harbiy-siyosiy voqealar yig‘indisi sifatida emas, balki inson taqdiri va shaxsiy tajriba prizmasi orqali talqin qilish tendensiyasi kuchayganligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, maqolada mahalliy aholi vakillarining urushdagi ishtiroki haqidagi biografik ma’lumotlarning keltirilishi tarixiy xotirani lokal darajada shakllantirishga ham xizmat qiladi. Bunday yondashuv xar bir xalqni o‘z yurti va ajdodlari tarixi bilan faxrlanish tuyg‘usini shakllantirish hamda milliy tarixiy ongni rivojlantirishga xizmat qilgan.

Xulosa. “Shovot istiqboli”, “Gurlan hayoti” va “Yangibozor ko‘zgusi” gazetalarida e’lon qilingan Ikkinchi jahon urushiga oid materiallar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mustaqillik yillarida mahalliy matbuotda mazkur tarixiy voqelikni yoritishda sovet davriga xos mafkuraviy yondashuvdan voz kechilib, insonparvarlik, milliy tarixiy xotira va vatanparvarlik tamoyillariga asoslangan yangi konseptual talqin shakllangan. Gazeta materiallarida asosiy e’tibor harbiy harakatlar yoki g‘alaba xronikasiga emas, balki urush qatnashchilarining hayot yo‘li, shaxsiy xotiralari, frontdagi fidoyiligi, urushning inson taqdiriga ko‘rsatgan ta’siri hamda ularning xotirasini abadiylashtirish masalalariga qaratilgan. Shu bilan birga, Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan o‘tkazilgan tadbirlar, urush va mehnat faxriylarini e’zozlash, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan materiallarning muntazam yoritilishi mahalliy matbuotning davlat tarixiy xotira siyosatini jamoatchilikka yetkazishdagi muhim o‘rnini namoyon etadi. Ayniqsa, mahalliy urush qatnashchilari haqidagi biografik ma’lumotlar va ularning xotiralarini keng yoritish orqali Ikkinchi jahon urushi tarixi milliy va mahalliy tarixiy xotiraning tarkibiy qismi sifatida reprezentatsiya qilinib, jamoaviy tarixiy ongni mustahkamlashga xizmat qilgan. Demak, tahlil qilingan gazetalar mustaqillik davri matbuotida Ikkinchi jahon urushi tarixining yangi konseptual talqinini shakllantirish, tarixiy haqiqatni milliy manfaatlar

nuqtai nazaridan yoritish, inson taqdirini tarixiy tahlil markaziga olib chiqish hamda tinchlik, inson qadri va vatanparvarlik g‘oyalarini keng targ‘ib qilishda muhim axborot-kommunikativ va ma’naviy-ma’rifiy vazifani bajargan, degan ilmiy xulosaga kelish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Yangibozor tumani davlat arxivi (YTDA). 465-fond, 1-ro‘yhat, 19-yig‘ma jild, 44-varaq.
2. YTDA. 122-fond, 1-ro‘yhat, 138-yig‘ma jild, 92-varaq.
3. YTDA. 391-fond, 1-ro‘yhat, 36-yig‘ma jild, 86-varaq,
4. “Shovot istiqboli” gazetasi. 2007-yil 15-may. - №9. – B.2.
5. “Shovot istiqboli” gazetasi. 2007-yil 24-may. - №10. – B.7.
6. “Shovot istiqboli” gazetasi. 2018-yil 15-may. - №9. – B.1.
7. “Shovot istiqboli” gazetasi. 2019-yil 25-may. - №7. – B.2.
8. “Gurlan hayoti” gazetasi. 2013-yil 9-may. - №17. – B.1.
9. “Yangibozor ko‘zgusi” gazetasi. 2011-yil 6-may. - №10. – B.2.

TURKISTON HUDUDIDA SUD TIZIMI: QOZILAR VA QOZIXONALAR TARIXI

Qorjovov Islom Asliddin o'g'li,
Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi

UO'K 94(575.1)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O'rta Osiyoda islom huquqiga asoslangan sud tizimining shakllanishi va rivojlanishi, qozilik mahkamalarining faoliyati hamda qozilarning jamiyatdagi huquqiy mavqei tahlil etiladi. Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklarida qozilar faoliyati, ularning vakolatlari va sudlov jarayonidagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, Rossiya imperiyasining Turkiston hududidagi mustamlakachilik siyosati va uning an'anaviy sud tizimiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Maqolada qozilik va qozixona tizimining mahalliy huquqiy an'analarni saqlashdagi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratiladi.*

Kalit so'zlar: *qozi, qozilik, qozixona, qozikalon, shariat, islom huquqi, sud tizimi, Buxoro amirligi, Qo'qon xonligi, Xiva xonligi, Turkiston, Rossiya imperiyasi.*

Abstract. *This article examines the formation and development of the judicial system in Central Asia based on Islamic law, the activities of qadis and qadi courts, and their legal status in society. It explores the functions, powers, and role of qadis in judicial proceedings in the Emirate of Bukhara, the Kokand Khanate, and the Khiva Khanate. Particular attention is paid to the impact of the colonial policy of the Russian Empire on the traditional judicial system of Turkestan. The article also analyzes the significance of qadi courts and traditional legal institutions in preserving local legal norms and judicial traditions.*

Keywords: *qadi, qadi courts, qadi administration, qadi al-quzzat, Sharia, Islamic law, judicial system, Emirate of Bukhara, Kokand Khanate, Khiva Khanate, Turkestan, Russian Empire.*

Аннотация. *В статье рассматриваются становление и развитие судебной системы Центральной Азии, основанной на нормах*

исламского права, деятельность казыев и казийских судов, а также их правовое положение в обществе. Освещается деятельность казиев, их полномочия и роль в судебном процессе в Бухарском эмирате, Кокандском и Хивинском ханствах. Особое внимание уделяется влиянию колониальной политики Российской империи на традиционную судебную систему Туркестана. Анализируется значение казийских судов и традиционных правовых институтов в сохранении местных правовых норм и судебных традиций.

Ключевые слова: *казий, казийство, казийский суд, казикалан, шариат, исламское право, судебная система, Бухарский эмират, Кокандское ханство, Хивинское ханство, Туркестан, Российская империя.*

Yurtimiz hududida faoliyat olib borgan Buxoro amirligi, Qo’qon va Xiva xonliklari boshqaruv tizimida islom dini alohida o‘ringa ega edi. Jamiyatni tartibga solishda din va islomiy odob-axloq me’yorlaridan qozilar va qozixona vakillari unumli foydalanishgan. Ma’lumki, qozi lavozimi islom huquq tizimida muhim va o‘ziga xos mansablardan biri bo‘lgan. “Qozi” atamasi arab tilidagi “qazo” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, lug‘aviy jihatdan “kesish”, “ajratish” hamda “hukm chiqarish” kabi ma’nolarni anglatadi. Hanafiy ulamolari talqinida “qazo” muayyan tartib va usul asosida tomonlar o‘rtasidagi nizolarni hal etish, xusumatlarni ajratish va bahsli masalalarga hukm chiqarish jarayonini ifodalagan. Hozirgi tadqiqotlarda esa “qozilik” tushunchasi, avvalo, mahkama yoki sud muassasasi bilan bog‘liq holda qo‘llanadi[1].

Islom dinining O‘rta Osiyoga kirib kelishi natijasida jamiyat hayotining turli sohalari shariat qoidalari asosida tartibga solina boshladi. Mazkur jarayon hududda qozilik mahkamalarining shakllanishiga ham zamin yaratdi. Qozilik mahkamalari jamiyatda adolatni ta’minlash va nizolarni huquqiy asosda hal

[1] Burxanuddin Marginani. Xidoya. Kommentarii musulmanskogo prava. V dvux chastyax. Chetryox tomax. Chast 1. https://www.worldislamlaw.ru/?p=1343).

etishning muhim vositalaridan biriga aylandi. Qozilar faoliyat olib boradigan maskanlar esa asrlar davomida “qozixona” yoki “dor-ul quzzot”, ya’ni adolat dargohi sifatida tanilgan.

O‘rta Osiyo xonliklarida qozilar, odatda, sudlov ishlarini olib borish uchun o‘zlariga qulay bo‘lgan joyni belgilaganlar. Shu sababli sud ishlari ko‘pincha masjid, madrasa yoki qozining xonadonida amalga oshirilgan. Vaqt o‘tishi bilan sudlov jarayonlari uchun maxsus binolar ajratilib, alohida qozixonalar tashkil etila boshlagan. Buxoro amirligida qozixonalar faoliyati Amir Shohmurod (1785–1800) hukmronligi davrida yanada kengaydi. Amir Shohmurod mamlakatda adolatni qaror toptirish maqsadida Minorai Kalon yaqinidagi o‘z hovlisida fuqarolarning arz va shikoyatlarini qabul qilish hamda ularni hal etish tartibini yo‘lga qo‘ygan[1]. Bu davrda qozilik bilan bog‘liq sudlov ishlarining boshqaruvida amirning o‘zi ham faol ishtirok etgan. Sud ishlarini tartibga solish uchun maxsus sudlov qonunlari majmuasi ishlab chiqilgan va mamlakat hududidagi qozilar o‘z faoliyatini mazkur qoidalar asosida olib borganlar[2]. Mazkur davrda Buxoro amirligining asosiy sud idoralarini qozilik mahkamalari tashkil etgan bo‘lib, mamlakatdagi bosh qozi qozikalon hisoblangan. Sud jarayonlari nisbatan sodda tartibda amalga oshirilgan. Fuqarolar qoziga o‘z murojaatlarini og‘zaki yoki yozma shaklda bildirishlari mumkin bo‘lgan. Sud jarayonida ayblov yoki aybni isbotlashda shariat talablariga muvofiq yashaydigan, rostgo‘y va halol kishilarning guvohligi muhim dalil sifatida qabul qilingan. Bunday guvohlarning soni kamida ikki nafar bo‘lishi talab etilgan. Jazo tayinlash jarayonida esa qozilar aybdorning moddiy sharoiti, qilmishining darajasi, sodir etgan ishidan chin dildan pushaymonligi, yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda qoplashi va jabrlanuvchidan uzr so‘rashi kabi holatlarni ham hisobga olganlar[3].

Qo‘qon xonligida ham qozilik asosiy sud organlaridan biri bo‘lib, qozilar xon tomonidan tayinlangan. Ularning vakolatlari faqat diniy masalalar bilan cheklanib qolmay, fuqarolik ishlarini ko‘rib chiqishni ham qamrab olgan. Ayrim holatlarda qozilar o‘lim jazosi to‘g‘risida hukm chiqarish vakolatiga ham ega bo‘lgan. Xonlikdagi eng yuqori martabali qozi “Qozi ul-kuzzot”, ya’ni “qozilar qozisi” yoki adliya vaziri sifatida faoliyat yuritgan. Shuningdek, sud va diniy boshqaruv tizimida “Qozi kalon” — poytaxt hamda viloyat markazlaridagi qozilar

[1] https://yuz.uz/news/buxoroning-qadimiy-qozixonalari-qayta-tiklanmoqda

[2] Vohidov Sh. Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligida unvon va mansablar. – Toshkent: Fan,1996-yil. 79-bet.

[3] Toshev S. Buxoro amirligida amir Shohmurod islohotlari// Academic research in educational sciences. Volume I. Issue 3. 2020-yil.

va qozixonalar faoliyatini nazorat qiluvchi mansabdor, “Qozi mutlaq” — bosh qozi, “Qozi askar” — qo‘shin qozisi va “Qozi rais” — qo‘shinlarda askariya muftisi tomonidan berilgan fatvolarning ijrosini nazorat qiluvchi mansabdor kabi lavozimlar mavjud bo‘lgan.

Qo‘qon xonligida qozi kalon o‘z xizmatlari uchun yiliga 800 botmon g‘alla va 1200 tanga miqdorida haq olgan. Diniy va sud tizimida xizmat qilgan mansabdorlarning asosiy daromad manbalari davlat tomonidan beriladigan maosh hamda turli xayr-ehson va to‘lovlardan iborat bo‘lgan. Jumladan, nikohona, tarakona, merosdan olinadigan haq va boshqa turdagi to‘lovlar ular daromadining muhim qismini tashkil etgan[1].

Qo‘qon xonligining mahalliy boshqaruv tizimida qozilar boshqa xonliklardagi singari muhim mavqega ega bo‘lgan. Ularning zimmasiga fuqarolarning arz, shikoyat va talablarini shariat qoidalariga muvofiq ko‘rib chiqish hamda sudlov ishlarini amalga oshirish vazifasi yuklatilgan. Qo‘qon xonligida viloyat va shahar qozilari Buxoro va Xiva xonliklaridan farqli ravishda xon yorlig‘i asosida shahar hokimlari tomonidan tayinlangan. Ko‘pincha qozilik lavozimiga nomzod tanlashda uning qozilar avlodiga mansubligi ham inobatga olingan. Mahalliy boshqaruv tizimida faoliyat olib borgan qozilar o‘z faoliyati yuzasidan hokim va beklar oldida javobgar bo‘lgan. Fuqaro qozining chiqargan hukmidan norozi bo‘lgan taqdirda esa oliy hukmdor — xon yoki tegishli hokimga murojaat qilish huquqiga ega edi.

Xiva xonligida ham davlat boshqaruvi tizimining muhim mafkuraviy asoslaridan biri islom dini bo‘lgan. Mamlakatdagi qonun-qoidalar shariat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. Xonlikdagi eng yuqori diniy mansablardan biri shayx ul-islom hisoblangan. U diniy marosimlarning belgilangan tartibda ado etilishini nazorat qilgan. Musulmon huquqi va shariat qonunlarining bajarilishini nazorat qiluvchi asosiy mansabdorlardan biri “Qozi ul-quzot”, ya’ni qozi kalon bo‘lgan. Qozi kalon poytaxtda o‘z devoni va mahkamasiga ega bo‘lgan, viloyat markazlarida esa hududiy qozilar faoliyat yuritgan. Bunday sud muassasalari “Dorul qazo” deb atalgan. Xiva xonligida harbiy sohada ham maxsus sudlov mansabi mavjud bo‘lib, qozi askar qo‘shin tarkibidagi qonun-qoidalar va shariatga oid masalalarni nazorat

[1] Xudoyqulov T.D. Markaziy osiyo davlatlarining boshqaruv tarixi (markaziy, mahalliy, harbiy, diniy hokimiyat (XVIII –XX asr boshlari)).-Shahrisabz: 2023-yil. 144-bet.

qilgan. Bundan tashqari, muftilar qozilarning huquqiy masalalar bo‘yicha maslahatgo‘yi sifatida faoliyat yuritgan. Ular sud ishlari ko‘rib chiqilayotgan vaqtda ishtirok etish, hukmona tuzish hamda chiqarilgan hukmlarning to‘g‘riligini tasdiqlash maqsadida tegishli hujjatlarga muhr bosish vazifalarini bajargan. Xivada yetti nafar bosh mufti mavjud bo‘lib, ularning barchasi xon huzurida muayyan mavqega ega bo‘lgan. Lashkar tarkibida esa alohida mufti lashkar faoliyat yuritgan. Mazkur tizimda a’lam muftilarning rahbari hisoblangan. Uning asosiy vazifasi fatvolarda keltirilgan shariatga oid rivoyat va dalillarning to‘g‘riligini tekshirishdan iborat edi[1]. Rivoyatlarning asl manbaga muvofiqligi aniqlangach, a’lam ularga o‘z muhrini bosgan. Raislar esa jamiyatda shariat tartib-qoidalarining bajarilishi, diniy marosimlar, jumladan, ro‘za, besh vaqt namoz, tahorat hamda xayriya ishlarining belgilangan tartibda ado etilishini nazorat qilgan. Har bir shahar va yirik qishloqda o‘z raisi bo‘lib, ular qozi kalon tavsiyasiga binoan xon tomonidan tayinlangan[2].

Rossiya imperiyasi tomonidan O‘rta Osiyo hududlari bosib olinguniga qadar mintaqada yuqorida qayd etilgan an’anaviy sud tizimi faoliyat yuritgan. Sudlov jarayonlarining huquqiy asoslarini Qur’oni Karim oyatlari, hadislar, ulamolar va diniy arboblarning asarlari tashkil etgan. Adolatli sudlov va huquqiy munosabatlarga oid qoidalar diniy-huquqiy manbalarda o‘z ifodasini topgan. Bunga Burhoniddin Marg‘inoniyning “Hidoya” asarini misol sifatida keltirish mumkin. Xususan, mazkur asarning 16-bobi oldi-sotdi munosabatlariga, 18-kitobi esa shartnomalar tuzishda kafolat berish masalalariga bag‘ishlangan. Ana shu kabi huquqiy va diniy manbalar XIX asrda Turkiston o‘lkasida faoliyat yuritgan qozilik hamda biylik sudlarining huquqiy asosini tashkil etgan.

Imperiya harbiy ma’muriyati Turkistondagi diniy va etnik omillarning murakkabligini hisobga olgan holda, turli xalqlar yashaydigan hududlarni yagona ma’muriy-hududiy birlikka birlashtirish masalasiga ehtiyotkorlik bilan yondashgan. Ayrim sharqshunos olimlarning fikricha, o‘sha davrda nafaqat bosib olingan hududlarda, balki Rossiyaning o‘zida ham musulmon aholining ko‘pligi imperiya uchun muayyan xavf sifatida baholangan. Shu bois XIX asrning ikkinchi yarmida imperiya hukumatining diniy siyosati islom dinining keng tarqalishini cheklash va uning jamiyatdagi ta’sirini kamaytirishga yo‘naltirilgan.

[1] http://xorazmiy.uz/uz/pages/view/576

[2] Muhammad Alixon G‘afur. Xorazm safari kundaligi. – Toshkent.: FAN, 2005-yil.117-bet.

Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyo xalqlarining sud tizimini qayta tashkil etish orqali ham islom dinining aholi orasidagi ta’sirini susaytirishga intilgan. Shu bilan birga, imperiyaning hukmron doiralarida shariat sudlari va qozilar faoliyatiga nisbatan yagona qarash mavjud bo‘lmagan. Turkiston viloyati harbiy gubernatori M.G. Chernyayev O‘rta Osiyo hukmdorlari vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha keng huquqlarga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, shariat sudlari faoliyatiga aralashmagan. Imperiya rasmiylari esa uning bunday siyosatidan norozilik bildirganlar. Mazkur holat oxir-oqibat Chernyayevning lavozimidan chetlashtirilishiga sabab bo‘lgan[1]. Chernyayev o‘rniga kelgan D.I. Romanovskiy Toshkent shahrida mahkama tashkil etish haqida buyruq bergan. Yangi tashkil etilgan mahkamaga rais sifatida rus amaldori tayinlangan. Mahalliy aholiga tegishli masalalarni ko‘rib chiqishda ularning mazmuniga oydinlik kiritish maqsadida qozining ham mahkama majlislarida ishtirok etishi belgilangan. Mahkamaning yana uch nafar a’zosi esa Toshkentning e’tiborli va nufuzli kishilari orasidan fuqarolar tomonidan tanlab olingan.

Toshkent mahkamasining tarkibida ko‘chmanchi va o‘troq aholiga oid masalalarni ko‘rib chiqadigan ikki bo‘lim faoliyat yuritgan. Sudlov jarayonida ishlar shariat qoidalari asosida ko‘rib chiqilgan. Agar biror masala yuzasidan e’tiroz yoki bahsli holat paydo bo‘lsa, mahkama a’zolarining qaroriga muvofiq ishni harbiy gubernator ko‘rib chiqishi uchun uning ixtiyoriga yuborish tartibi qo‘llanilgan.

Tarixiy tadqiqotlarda Toshkentdagi ushbu mahkamaning faoliyati tugatilishiga bir necha omillar sabab bo‘lgani qayd etiladi. Jumladan, shariat peshvolari o‘rtasidagi kelishmovchiliklar va mahalliy aholining mazkur muassasaga nisbatan ishonchsiz munosabati uning faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Dastlab imperiya vakillari tomonidan mahalliy aholining rus sudlariga murojaat qilishi haqidagi taxmin ham o‘zini oqlamagan. Chunki aholi avvalgidek, o‘z muammolari va nizolarini shariat qoidalari asosida hal qilishni ma’qul ko‘rgan.

Umuman olganda, Turkiston hududida sud tizimi va u bilan bog‘liq qozixonalar faoliyati o‘ziga xos tarixiy sharoitda shakllangan va rivojlangan.

---

[1] Vasilyev D.V. russkiy Turkestan: sudba i vlast (Turkestanskiye general-gubernatorы v 1865-1886gg.) //Aziatskaya Rossiya: lyudi i strukturы imperii: sbornik nauchnыx statey. K 50-letiyu so dnya rojdeniya professora A.V. Remneva / Pod red.N.G. Suvorovoy. -Omsk: Izd-vo OmGU, 2005.– 377-bet.

O‘rta Osiyo xonliklari davrida Qur’on, hadislar, diniy-huquqiy soha vakillarining asarlari hamda boshqa manbalar sudlov tizimining asosiy huquqiy manbalari sifatida xizmat qilgan. Qozixonalar masjidlar qoshida tashkil etilishi lozim bo‘lgan bo‘lsa-da, amaliyotda ko‘plab sudlov ishlari qozilarning uylarida, bozor kunlarida esa bozorlarda ko‘rib chiqilgan. O‘rta Osiyo Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingach, sud tizimida ham ruslashtirish siyosati amalga oshirila boshlandi. Bu jarayon an’anaviy qozixonalar faoliyatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatib, ularning avvalgi mavqei va faoliyat doirasining o‘zgarishiga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Burxanuddin Marginani. Xidoya. Kommentarii musulmanskogo prava. V dvux chastyax. Chetryox tomax. Chast 1. https://www.worldislamlaw.ru/?p=1343).

2. https://yuz.uz/news/buxoroning-qadimiy-qozixonalari-qayta-tiklanmoqda

3. Vohidov Sh. Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligida unvon va mansablar. – Toshkent: Fan, 1996-yil. 79-bet.

4. Toshev S. Buxoro amirligida amir Shohmurod islohotlari// Academic research in educational sciences. Volume I. Issue 3. 2020-yil.

5. Xudoyqulov T.D. Markaziy osiyo davlatlarining boshqaruv tarixi (markaziy, mahalliy, harbiy, diniy hokimiyat (XVIII –XX asr boshlari)).-Shahrisabz: 2023-yil. 144-bet.

6. http://xorazmiy.uz/uz/pages/view/576

7. Muhammad Alixon G‘afur. Xorazm safari kundaligi. – Toshkent.: FAN, 2005-yil.117-bet.

8. Vasilyev D.V. russkiy Turkestan: sudba i vlast (Turkestanskiye general-gubernatorы v 1865-1886gg.) //Aziatskaya Rossiya: lyudi i strukturы imperii: sbornik nauchnых statey. K 50-letiyu so dnya rojdeniya professora A.V. Remneva / Pod red.N.G. Suvorovoy. -Omsk: Izd-vo OmGU, 2005.– 377.

XIVA XONLIGIDA DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMI VA MA’MURIY-DINIY MANSABLAR

Qorjovov Islom Asliddin o’g’li,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Tarix fakulteti
2-bosqich talabasi

UO‘K 94(575.1)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xiva xonligining XIX asrdagi davlat boshqaruvi tizimi, saroy va ma’muriy mansablar hamda diniy lavozimlarning faoliyati yoritilgan. Unda Xiva xonligining hududiy-ma’muriy tuzilishi, shuningdek, xonlikdagi asosiy mansabdorlar — inoq, naqib, otaliq, qo‘shbegi, vazir, mehtar, devonbegi, yasovulboshi, mahrem, mingboshi, yuzboshi va o‘nboshilarning vazifalari tahlil qilingan. Xiva xonligidagi davlat va diniy mansablar haqidagi ma’lumotlar Vamberi, Muravyov, kabi sayyoh va tadqiqotchilarning asarlari asosida yoritilgan. Tadqiqot Xiva xonligida siyosiy, ma’muriy va diniy boshqaruvning o‘zaro bog‘liqligini hamda xon hokimiyatining davlat tizimidagi markaziy o‘rnini ko‘rsatib beradi.*

Kalit so‘zlar: *Xiva xonligi, davlat boshqaruvi, xon hokimiyati, ma’muriy mansablar, diniy mansablar, inoq, qo‘shbegi, mehtar, naqib, qozi, muftiy.*

Abstract: *This article examines the system of state administration in the Khiva Khanate in the 19th century, the activities of court and administrative officials, as well as religious officials. It considers the territorial and administrative structure of the Khiva Khanate and analyzes the functions of its main officials, including inoq, naqib, ataliq, qushbegi, vizier, mehtar, divanbegi, yasavulboshi, mahram, mingboshi, yuzboshi, and onboshi. Information on the state and religious positions in the Khiva Khanate is presented on the basis of the works of travelers and researchers, particularly Vambery and Muravyov. The study demonstrates the interrelationship between political, administrative, and religious governance in*

the Khiva Khanate, as well as the central role of the khan's authority in the state system.

Keywords: *Khiva Khanate, state administration, khan's authority, administrative positions, religious positions, inoq, qushbegi, mehtar, naqib, qazi, mufti.*

Аннотация: *В данной статье освещаются система государственного управления Хивинского ханства в XIX веке, деятельность дворцовых и административных должностных лиц, а также религиозных деятелей. Рассматривается территориально-административное устройство Хивинского ханства, а также анализируются функции основных должностных лиц ханства — инака, накиба, аталыка, кушбеги, визиря, мехтара, диванбеги, ясавулбаши, махрама, мингбаши, юзбаши и онбаши. Сведения о государственных и религиозных должностях Хивинского ханства освещаются на основе трудов путешественников и исследователей, в частности Вамбери и Муравьёва. Исследование демонстрирует взаимосвязь политического, административного и религиозного управления в Хивинском ханстве, а также центральную роль ханской власти в государственной системе.*

Ключевые слова: *Хивинское ханство, государственное управление, ханская власть, административные должности, религиозные должности, инақ, кушбеги, мехтар, накиб, кази, муфтий.*

Xiva — O‘rta Osiyodagi eng qadimiy qal’alardan biridir. U Xiva xonligining poytaxti hisoblangan. Xiva xonligi XII asrdagi buyuk Xorazmshohlar davlatining o‘rnini egallagan. XIX asrning ikkinchi yarmida Xiva xonligi janubda Eron, sharqda Buxoro amirligi bilan chegaradosh bo‘lgan, g‘arbda Kaspiy dengiziga tutashgan, shimolda esa qozoq juzlari yerlari bilan qo‘shni bo‘lgan.

Xiva xonligi tarkibiga Qo‘yat (Kat), Yangi Urganch, Hazorasp, Qo‘ng‘irot va Xo‘jayli shaharlari kirgan bo‘lib, ular bekliklarning markazlari hisoblangan.

Xiva xonligi 18 ta beklik va 2 ta noiblikka bo‘lingan. Ularni xon tomonidan tayinlangan bek va to‘ralar (mansabdorlar) boshqargan.

Xiva xonligi Qo‘ng‘irotlar sulolasi tomonidan boshqarilgan. Oliy hukmdor xon hisoblangan. Xon cheklanmagan ma’muriy va harbiy hokimiyatga ega bo‘lgan. Oliy hukmdorning qarorgohi Xivada joylashgan. Shahar ikki qismga bo‘lingan: ichki qism — Ichan qal’a bo‘lib, uning maydoni 26 gektar va u YuNESKOning Jahon me’rosi ro‘yxatiga kiritilgan yirik ochiq osmon ostidagi muzeyqo‘riqxona hisoblanadi. Tashqi, mudofaa devori bilan o‘ralgan qism esa — Dishan qal’a deb atalgan. Ichan qal’ani tashqi dushmanlardan qo'riqlash va himoya qilish uchun qurilgan. U 1842-yilda Xorazm xoni Olloqulixon tomonidan uch yil mobaynida barpo etilgan. Dishan qal’ani aslida 10 ta darvozasi bo‘lgan (jumladan Hazorasp, Qo‘sh, Gandumiyon va boshqalar), ulardan bugungi kunga kelib faqat ayrimlari saqlanib qolgan.

Xonlik muayyan mansab va lavozimlar asosida boshqarilgan. Xivada bo‘lgan ko‘plab rus sayyohlari o‘z asarlarida xonlikdagi mansabdorlar lavozimlarini sanab o‘tganlar. Masalan, 1863–1864-yillarda Xivada bo‘lgan vengriyalik sayyoh Vamberi ma’lumotlariga ko‘ra, davlatda quyidagi hukmron tabaqa va ma’muriy tizim mavjud bo‘lgan[1]:

1. Xon yoki podsho (padshoh);
2. Inoq;
3. Naqib;
4. Bi(y);
5. Otaliq;
6. Qo‘shbegi yoki vazir;
7. Mehtar;
8. Yasovulboshi;
9. Mahramlar;
10. Mingboshi;
11. Yuzboshi;
12. O‘nboshi.

[1] Tillaboyev S., Zamonov A. O‘zbekiston tarixi (XIX asrning ikkinchi yarmi — XX asr boshlari). Toshkent: “Sharq”, 2019-yil. 38-bet.

Vamberining so‘zlariga ko‘ra, ulamolar yoki ruhoniylar, ularning oliy rahbari naqib bo‘lib, quyidagi toifalarga bo‘lingan:

- Qozi kalon — butun xonlikdagi oliy sudya va sud ishlarining boshlig‘i;
- Qozi o‘rdu — yurishlar vaqtida xonga oliy sudya sifatida hamrohlik qiluvchi shaxs;
- A’lam — besh nafar muftiyning boshlig‘i;
- Rais — maktablarni tekshirgan va diniy qonunlarga rioya qilinishini nazorat qilgan;
- Muftiy — har bir yirik shaharda bittadan bo‘lgan;
- Oxund — boshlang‘ich maktab professori yoki o‘qituvchisi.

Muallifning ta’kidlashicha, dastlabki uchta mansabdor yuqori martabali amaldorlar qatoriga kirgan va lavozimga kirishganlarida xondan katta miqdorda mablag‘ olganlar. Keyingi uch nafari esa vaqfdan (xayriya maqsadlari uchun ajratilgan mulk) yetarli miqdorda maosh, mahsulot va pul olganlar[1].

Xiva xonligida shunday odat mavjud bo‘lgan: xon har yili Qurbon hayiti (musulmonlarning diniy bayrami) va Navro‘z (21-mart) bayramlarida ularga turli xil sovg‘alar bergan. Muallif Xiva ulamolarini Buxoro ulamolari bilan taqqoslaydi va Xiva ulamolari Buxoro ulamolarichalik ilmli ekanligi bilan mashhur bo‘lmasa-da, ular unchalik mag‘rur va kibrli emasligini ta’kidlaydi. Ularning ko‘pchiligi o‘z yurtdoshlarini imkon qadar ma’rifatli qilishga va ularning jangovar qonun-qoidalaridagi qo‘pollikni yumshatishga chin dildan intilgan[2].

1841-yilda Xivada bo‘lgan rus elchisi Nikiforov Xiva xonligidagi mansabdorlarning lavozimlarini tasvirlab bergan. Uning so‘zlariga ko‘ra, xonlikdagi eng muhim lavozim mehtar bo‘lgan. U xonlikning janubiy qismini boshqargan va tashqi ishlar bilan shug‘ullangan. Nikiforovning Xivada bo‘lgan davrida Qo‘shbegi xonlikning shimoliy qismini boshqargan. N. Zalesovning aytishicha, qo‘shbegi va mehtar lavozimlari avloddan-avlodga o‘tgan[3].

Xonlikdagi yana bir mansab — Devonbegi edi. Alloqulixon hukmronligi davrida bu mansab egalari xon uchun juda muhim shaxslarga aylangan.

[1] Vamberi A. O‘rta Osiyo bo‘ylab sayohat. Moskva: “Vostochnaya literatura”, 2003-yil 69-bet.

[2] Blankenagel. 1793–1794-yillarda Orenburgdan Xivaga qilgan safaridan keyingi qaydlar. Sankt-Peterburg: Harbiy-dengiz vazirligi bosmaxonasi, 1858-yil.

[3] Ivanin M. I. Xiva va Amudaryo. Sankt-Peterburg, 1873-yil 153-bet.

Devonbegi, shuningdek, xonga soliq to‘lovchi savdogarlar va chet elliklar orasida ham muhim shaxs bo‘lgan.

Rus sayyohlaridan biri bo‘lgan M. Ivanin xonlikdagi mansablar va mansabdorlar haqida yanada batafsil ma’lumot bergan. Xonlikdagi birinchi amaldor vazir yoki qo‘shbegi deb atalgan. U kanallarni tozalash ishlarini tashkil qilgan va ishchilarni boshqargan. Shuningdek, u xonlikning shimoliy qismida — Qo‘ng‘irotdan Xiva va Yangi Urganch shaharlarigacha bo‘lgan hududda soliqlarni yig‘gan.

Zalesov Xivada bo‘lgan paytda mehtar xonlikning janubiy qismini boshqargan. Biroq Ivanin Xivaga kelganida, xonlikning bu qismi inoqlar tasarrufida bo‘lgan. Bu vaqtda mehtar maoshlarni taqsimlagan, qo‘shin uchun xizmat vazifalarini belgilagan va qo‘shin hisobini yuritgan.

Odatda inoqlar to‘rt nafar bo‘lgan. Ularning ikkitasi xonning eng yaqin qarindoshlari, qolgan ikkitasi esa xon bilan bir urug‘dan bo‘lishi kerak edi. Mahram (ya’ni ikkinchi darajali mahram yoki mahramning yordamchisi) lavozimida o‘tirgan shaxs Xivaga olib kelinadigan karvonlardan hamda bozorlarda sotiladigan tovarlardan boj yig‘gan[1]. Biylar tinchlik davrida o‘zlariga topshirilgan shahar va hududlarni boshqarganlar. Qo‘shbegi buyrug‘iga binoan ular ushbu shahar va hududlar aholisidan soliqlarni yig‘ganlar.

Bojmon — shaharlarda va bozorlarda boj yig‘ish bilan shug‘ullangan mansabdor bo‘lgan.

Yasovulboshi xonlik kanallaridagi ishlarni nazorat qilgan.

Naqib — ruhoniylarning boshlig‘i bo‘lib, u doimo sayyidlar, ya’ni Muhammad payg‘ambarning avlodlaridan saylangan[2]. N. Muravyov Xiva xonligi saroyidagi mansablar soni juda ko‘p bo‘lganini aytadi. Uning yozishicha, saroydagi mansabdorlar soni xonga saroy amaldorlarining qanchalik yoqishiga bog‘liq bo‘lgan[3].

---

[1] Bazinep. Sayohat, 1822, II qism, 26-bet; 2006-yil. 72-bet.

[2] O‘rta Osiyodagi qo‘shnilarimiz. Xiva va Turkmaniston. Sankt-Peterburg: “Obshchestvennaya polza” bosmaxonasi, 1873-yil. Tegishli bet.

[3] Muravyov N. 1819 va 1820-yillarda Turkmaniston va Xivaga sayohat. Muzokaralar olib borish uchun ushbu mamlakatlarga yuborilgan Gvardiya Bosh shtabi kapitani Nikolay Muravyovning safar xotiralari. I qism. Moskva: Avgust Semyon bosmaxonasi, 1822-yil.

Sartlar orasidan birinchi vazir etib Yusuf Mehtar Og‘a tayinlangan. U birinchi vazir sifatida xon xazinasini boshqargan, daromad va xarajatlarni nazorat qilgan. U hatto chet el elchilarini ham qabul qilgan.

Muravyovning so‘zlariga ko‘ra, xon Yusuf Mehtarni o‘zbeklar va sartlar o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilash maqsadida vazir etib tayinlagan. O‘sha vaqtda o‘zbeklar sartlar ustidan hukmronlik qilishga intilganlar.

Ikkinchi vazir Medraim Qo‘shbegi bo‘lgan. U kelib chiqishiga ko‘ra o‘zbek edi. Albatta, u xon bilan bir xil urug‘dan, ya’ni Qiyot-Qo‘ng‘irot urug‘idan bo‘lgan.

Xiva xonligi saroyidagi mansab va lavozimlarni o‘rganganimizda, ularning soni 100 dan ortiq bo‘lganini ko‘ramiz. Albatta, ularning barchasini bitta maqolada tasvirlab berish ancha murakkab.

Xulosa qilib aytganda, Xiva xonligida davlat boshqaruvi xon hokimiyati atrofida shakllangan bo‘lib, ma’muriy va diniy mansablar uning muhim tarkibiy qismini tashkil etgan. Har bir mansabdor davlat boshqaruvi, sud-huquq ishlari, soliq yig‘imi va diniy hayotning muayyan yo‘nalishlarida faoliyat yuritgan. Ushbu mansablar tizimi Xiva xonligining siyosiy va ijtimoiy hayotini boshqarishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tillaboyev S., Zamonov A. O‘zbekiston tarixi (XIX asrning ikkinchi yarmi — XX asr boshlari). Toshkent: “Sharq”, 2019-yil. 38-bet.

2. Vamberi A. O‘rta Osiyo bo‘ylab sayohat. Moskva: “Vostochnaya literatura”, 2003-yil 69-bet.

3. Blankenagel. 1793–1794-yillarda Orenburgdan Xivaga qilgan safaridan keyingi qaydlar. Sankt-Peterburg: Harbiy-dengiz vazirligi bosmaxonasi, 1858-yil.

4. Ivanin M. I. Xiva va Amudaryo. Sankt-Peterburg, 1873-yil 153-bet

5. Bazinep. Sayohat, 1822, II qism, 26-bet; 2006-yil. 72-bet.

6. O‘rta Osiyodagi qo‘shnilarimiz. Xiva va Turkmaniston. Sankt-Peterburg: “Obshchestvennaya polza” bosmaxonasi, 1873-yil. Tegishli bet.

7. Muravyov N. 1819 va 1820-yillarda Turkmaniston va Xivaga sayohat. Muzokaralar olib borish uchun ushbu mamlakatlarga yuborilgan Gvardiya Bosh shtabi kapitani Nikolay Muravyovning safar xotiralari. I qism. Moskva: Avgust Semyon bosmaxonasi, 1822-yil.

MADANIYAT HOMIYSI, MASHHUR TEMURIY MALIKA – GAVHARSHODBEGIM

Abduvohidova Ruxshona Doniyorbek qizi,
Namangan davlat universiteti, Tarix yo‘nalishi talabasi
E-mail: ruxshona01062005@gmail.com

Ilmiy rahbar:
Madraximov Zoxid Sharofovich,
Namangan davlat universiteti, Tarix kafedrasi professori, t.f.n.

UO‘K 94(575.1)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mashhur temuriy malika Gavharshodbegimning siyosiy, ma'rifiy va bunyodkorlik faoliyati tahlil qilinadi. Uning davlat boshqaruvidagi ishtiroki, ilm-fan va madaniyat rivojiga qo‘shgan hissasi hamda bunyodkorlik faoliyati haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so’zlar: *Temuriylar, Gavharshodbegim, Shohruh Mirzo, G’iyosiddin Tarxon, Hirot, Balx, Ermitaj muzeyi, “Dorushshifo”, “Dorulhadis”, sayyid, “Samarqand tarixidan tomchilar”.*

Аннотация: *В данной статье анализируется политическая, образовательная и творческая деятельность знаменитой тимуридской принцессы Гавхаршодбегим. Рассматриваются её участие в государственном управлении, вклад в развитие науки и культуры, а также творческая деятельность.*

Ключевые слова: *Темуриды, Гавхаршодбегим, Шахрух Мирзо, Гийосиддин Тархан, Герат, Балх, Эрмитаж, «Дорушифи», «Дорулхадис», сайид, «Капли из истории Самарканда».*

Abstract: *This article analyzes the political, educational and creative activities of the famous Timurid princess Gavharshodbegim. Her participation in state administration, contribution to the development of science and culture, and creative activities are discussed.*

Keywords: *Temurids, Gavharshodbegim, Shahrukh Mirzo, Ghiyosiddin Tarkhan, Herat, Balkh, Hermitage Museum, "Dorushshifo", "Dorulhadis", sayyid, "Drops from the history of Samarkand".*

Onamning ismi-yu ko'zlarigina gavhar
emas, balki aqli ham gavhar edi!
Mirzo Ulug'bek

Kirish. Ko'hna moziydan xabar beruvchi tarix zarvaraqlarini varaqlar ekanmiz, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida erkaklar bilan qatorda buyuk jasorat sohibalarining nomlari ham tarannum etib kelinganini guvohi bo'lamiz. Ya'ni, ayollar orasidan shavkatli hukmdorlar, oqila maslahatgo'ylar, yetuk donishmandlar, zabardast olimalar, suxandonu-shoiralar va zukko san'atshunoslar yetishib chiqqan.

Ma'lumki, temuriylar davri O'zbek davlatchiligi tarixida, umuman, XV asr O'rta Sharq xalqlari ijtimoiy-siyosiy hayotida yorqin iz qoldirgan. Bu davrda mamlakat markazlashgan, ijtimoiy-iqdisodiy, madaniy hayot taraqqiy etgan, buni natijasi o'laroq ko'plab davlat arboblari, buyuk sarkardalar, ilm-fan vakillari yetishib chiqqan. Temuriylar davrida faoliyat olib borgan taniqli tarixiy shaxslardan biri, shubxasiz, Gavharshodbegimdir. Gavharshodbegim buyuk Amir Temurning sevimli rafiqasi Saroymulkxonim darajasida bo'lmasada, ammo o'z zamonasi nuqtai nazaridan hukm qilganda tom ma'noda yirik davlat arbobi sifatida baholanish va qadrlanishga loyiqdir. (2)

Gavharshodbegim temutiy hukmdor Shohruh Mirzo (1377 – 1447)ning birinchi xotini bo'lib, Chig'atoy zodagonlaridan G'iyosiddin Tarxonning qizi edi. Rivoyat qilinishicha, G'iyosiddin Tarxonning bobokaloni – Qushlik bir vaqtlar Chingizxon xizmatida bo'lib, jang asnosida uni o'limdan saqlab qolgan ekan. Ana shundan buyon bu avlod Chig'atoy ulusida maxsus e'tiborga sazovor bo'lgan ekan. (3)

Gavharshodbegimning tug'ilgan sanasi aniq emas. Biroq uning umr yo'ldoshi Shohrux Mirzo va o'g'li Mirzo Ulug'bekning tavallud sanalariga qarab, Gavharshodbegim 1377 – 1380-yillar oralig'ida dunyoga kelgan deya taxmin qilinadi. (2)

Gavharshodbegimning ikki akasi – Ali Tarxon, Xasan Sufi va bir ukasi Muhammad Sufi hamda ikki singlisi – Nigor Og'o, Saodat Sulton bo'lgani ma'lum. G'iyosiddin Tarxon va Ali Tarxonlarning taqdirlari qanday xotima topganligi haqida hozirgacha ma'lumotlar yo'q. So'nggi bor G'iyosiddin Tarxon nomi Amir Temurning Misr sultoniga qarshi harbiy yurishi ishtirokchisi sifatida tilga olinadi. Ali Tarxonning Sheroz hokimligi lavozimiga tayinlanganidan keyingi faoliyati esa noma'lum. Xasan Sufi esa Shohrux hukmronligi yillarida

oliy devonda amirlashkar vazifasida faoliyat ko’rsatib, 1424-yilda vafot etgan va Hirotdagi Gavharshodbegim madrasasi hududiga dafn qilingan. Muhammad Sufi esa 1457-yil Hirotda tarxon amirlariga qarshi uyushtirilgan ommaviy qirg’indan omon qolganidan keyingi faoliyati haqida ham ma’lumotlar yo’q. (2)

Gavharshodbegim 1393-yilda Shohrux Mirzo nikohiga kirgan. Undan uch o’g’il-u ikki qiz ko’rgan. To’ng’ich o’g’li – Mirzo Ulug’bek (1394 – 1449), o’rtancha o’g’li – Boysung’ur Mirzo (1397 – 1433) va kichik o’g’li – Muhammad Jo’ki Mirzo (1401 – 1445)lardir. (1)

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Gavharshodbegim yuksak did farosatli, oqila tadbir, suxandon, bir so‘zli, qat’iyatli, husn bobida ham benazir ayol bo‘lgan. Tabiatdan dindor bo‘lgan Shohrux Mirzo ko‘p vaqtini toat-ibodat va kitob mutolaasiga sarflardi. Saltanat, devon ishlarini o‘ktam va tadbirli xotini Gavharshodbegim boshqargan. Bu ziyrak ayol qaynotasi Amir Temur vafotidan so‘ng, sekin asta saltanat ishlarini o‘z qo‘liga oladi. Zotan, Shohrux Mirzoning o‘zi ham xotini Gavharshodbegimning donoligiga tan berar, saltanatni boshqarishda oqilona va tadbirli maslahatlariga ehtiyoj sezardi. Shu bois saltanatga doir ko‘pgina ishlar malika nazar-e’tiboriga havola etilardi. Viloyatlarga hokim tayinlash, qo‘shinga sarkarda belgilash, hatto kimga qanday in’om va kimga qanday jazo berish masalalari ham malikaning inon-ixtiyorida edi. Masalan, 1440-yil 6-mayda mashhur Hirot tarixchisi (keyinchalik saroy tarixchisi) Fasih Ahmad ibn Jaloliddin Muhammad Havofiy (1375 – 1442) malika Gavharshodbegimning g‘azabiga uchrab, ikki marotaba qisqa muddatli qamoqqa hukm qilingan.

Tarixchi olim Amriddin Berdimurodov o‘zining “Samarqand tarixidan tomchilar” nomli maqolalar to‘plamida Gavharshodbegimning hatto shaxsiy muhrga ega bo‘lganligini aytib o‘tadiki, bu malikaning ayrim davlat ishlarida o‘zi shaxsiy qaror qabul qilib, uning ijrosini kuzatganini, tasdiqlaganini ko‘rsatadi. Muhr to‘q yashil mohtobdan, to‘q yashil rangda, (nefritdan) bodomsimon shaklda yasalgan bo‘lib, sirtiga suls yozuvida arabcha xat bilan “Gavharshodbegim G‘iyosiddin Tarxonning qizi” deb yozilgan. Malikaning juda katta siyosiy kuchga ega bo‘lgan mazkur muhri bugungacha yetib kelgan, u tosh o‘ymakorligining go‘zal namunasidir. Bu noyob yodgorlik hozirda Sankt-Peterburgdagi Ermitaj muzeyida CA-13650 raqami ostida saqlanadi. (4)

Gavharshodbegim Shohruh Mirzoning harbiy yurishlarida ishtirok etgan, o’z navbatida shahzodalarning fe’l-atvorilari va harbiy boshliqlarning hatti

harakatidan voqif bo‘lib turgan. Taxtga valiahd tayinlash masalasida ham Gavharshodbegim o‘z irodasini o‘tkazishga uringan. Chunonchi, Shohrux Mirzo o‘zining kenja o‘g‘li Muhammad Jo‘ki Mirzoni valiahd qilib tayinlashga harakat qilgan. Biroq Shohrux Mirzoning bu rejasi malikaga yoqmagan. Malika o‘z o‘g‘li Muhammad Jo‘ki Mirzoga nisbatan nabirasi Aloudddavla Mirzo (1417 – 1461)ni valiahdlikka munosib, deb bilgan. Ammo o‘rtancha o‘g‘li marhum Boysung’ur Mirzoning o‘g‘li Aloudddavla Mirzoni oshkora valiahd etib tayinlashga to‘ng‘ich o‘g‘li Ulug‘bek Mirzo Ko’ragondan hayiqar, bu masalani Shohrux Mirzo qo‘li bilan amalga oshirishga uringan. (1) 1444-yilda Hirotda Shohrux Mirzo og‘ir kasal bo‘lib, o‘lim to‘shagiga yotib qolgan. Saroy ahli tez orada hukmdorning olamdan ko‘z yumushiga imonlari komil edi. Binobarin, Balx viloyatining hukmdori Muhammad Jo‘ki Mirzoga xabar yuboradilar. Ammo Muhammad Jo‘ki Mirzo tezlik bilan Hirotga yetib kelganda, onasini malika Gavharshodbegimning buyrug‘iga binoan harbiy qo‘shinlar sardori Jaloliddin Feruzshohning valiahd Aloudddavla Mirzoga bay’at qilib, qasamyod qilgani xabarini eshitadi. Biroq Shohrux Mirzo tez kunda yana sog‘ayadi va malikaning bu rejasi bir necha yilga orqaga suriladi.

Shohrux Mirzo hukmronligining so‘nggi yillarida mamlakatning ichki va tashqi siyosati deyarli malika Gavharshodbegimning qo‘lida edi. Shohrux Mirzo o‘limidan keyingi shahzodalar orasida vujudga kelgan taxt uchun o‘zaro qonli kurashlarning boshida ham Gavharshodbegim turardi. (3)

1445-yilda shahzoda Muhammad Jo‘ki Mirzo kasallanib vafot etadi. Shundan so‘ng Shohrux Mirzo o‘ziga valiahd tayinlash masalasida umrining oxirigacha bir qarorga kelolmaydi.

Shohrux Mirzo davrida Xuroson siyosiy-ijtimoiy va madaniy jihatdan ancha gurkirab o‘sgan. Mamlakat poytaxti Hirot iqtisodiy va madaniy yuksalishda Sharqning eng nufuzli shaharlaridan biriga aylangan. Tabiiyki, mamlakatning bunday yuksalishida “amaliy hukmdor” malika Gavharshodbegimning hissasi beqiyos bo’lgan. Bu davrda Hirotda va mamlakatning boshqa viloyatlarida ko’plab qurilish ishlari avj olgan. Masjid-madrasalar, xonaqoh, maqbara, dahma, musofirxona, shifoxona, ravot, ko‘nrik va sardobalar qurib bitkazilgan.

Shohrux Mirzoning Xurosonda hukmronlik qilaboshlagan ilk yillaridayoq, u Hirot qal’asining janubiy tomonidan madrasa va xonaqoh (1410 – 1411) bino qildirgan edi. Ana shundan so‘ng Shohrux Mirzo avlodiga mansub shahzodalar va malikalar ham madrasa, masjid, xonaqoh, shifoxona va shunga o‘xshash imoratlar bunyod etish bilan shahar obodonchiligiga o‘z hissalarini qo‘shadilar.

Tabiatdan vatanparvar, bilimdon va zukko Gavharshodbegim mamlakat ravnaqi yo‘lida tinmay g‘amxo‘rlik qiladi. Uning dasturida madaniy va ma’rifiy hayot birinchi o‘rinda bo‘lgan. Shu boisdanmi, farzandlari hamda barcha nabiralari ilm-fan muhlislari bo‘lib, ualrning aksariyati hatto g‘azallar ham bitganlar.

Gavharshodbegim Hirotdagi ko‘plab bunyodkorlik ishlariga rahnomalik qilgan. Uning o‘zi ham Hirotda ikkita katta madrasa qurdirgan. Gavharshodbegimning kundoshi malika Milkat Og‘o (bu malikaning asli nomi Mulk Og‘o bo‘lib, Amir Temurning ikkinchi o‘g‘li Umar Shayx Mirzoning xotini edi. 1394-yilda Umarshayx Mirzo vafotidan so‘ng, qaynotasi Amir Temurning irodasiga bo‘ysunib, Shohruh Mirzo nikohiga kirgan) Hirot shahrida bir madrasa, “Dorushshifo” nomli kasalxona, “Dorulhadis” nomli xonaqoh, ikkita hammom va shahardan sakkiz farsax (tosh) chetroqda bitta madrasa, kutubxona va maqbara, shahzoda Aloud Davla Mirzo esa bitta kasalxona qurdirgan. Ayni vaqtda, xususiy mulkdor, davlatmand kishilarga xayriya tariqasida qurilishlar bunyod etishiga ijozat berilgan va rag‘batlantirib turilgan.

1446-yilda qarib qolgan Shohrux Mirzo o‘z nabirasi – Qazvin, Ray va Qum viloyatlarining hukmdori Sulton Muhammad Mirzoga (Boysung’ur Mirzoning o‘g‘li) qarshi g‘arbga yurish boshlagan. Bu yurishdan maqsad o‘zboshimcha, yosh shahzodaning adabini berib qo‘yish edi. O’z bobosiga qarshi bosh ko‘targan shahzoda Hamadon bilan Isfaxonni bosib olib, Sherozni qamal qilgan edi. Qo‘shinda malika Gavharshodbegim va Abdul Latif Mirzo (Ulug‘bek Mirzo Ko‘ragonning o‘g‘li) Shohrux Mirzo bilan birga edilar. Shohrux Mirzo g’arbiy Eronda hech qanday qarshilikka uchramagan. Chunki, shahzoda Sulton Muhammad Mirzo bobosining kelayotganini eshitgach, Sherozni qamaldan bo‘shatib, o‘zi toqqa qochib ketgan edi. Shohrux Mirzo Sherozga kirgach, shahzodaning barcha yaqin kishilarini jazoga hukm qiladi. Xatto, Gavharshodbegimning qat’iy talabi bilan bir necha sayyidlar ham qatl etiladi. Ajablanarli joyi shundaki, o‘ta taqvodor, xudojo‘y saltanat sohibi Shohrux Mirzo ham xotini Gavharshodbegimning irodasiga bo‘ysunib, sayyidlarni qatlga hukm qiladi. Sayyidlar ustidan bunday jazo hukmini chiqarishga na Amir Temur va keyinchalik Ulug‘bek Mirzo ham botina olmagan edi. Davlatshoh Samarqandiyning yozishicha, sayyidlar Shohrux Mirzodan “...adolat yuzasidan taftish o‘tkazish”ni yolvorib so‘raydilar. Ammo Shohrux Mirzo malika Gavharshodbegimning xohishini qaytarolmaydi va hukm ijro etiladi. Nihoyat,

sayyidlar dor ostida turib, Shohrux Mirzoni “duoyi bad” qiladilar. Binobarin, ko‘p o‘tmay Shohrux Mirzo avlodi qirilib ketish sababini mazkur sayyidlar qarg‘ishiga uchraganligining oqibatidir, deb yozadi Davlatshoh Samarqandiy.

Shohrux Mirzo Sherozdan Hirotga qaytayotganda yo‘l asnosida betoblanib, 1447-yil 12-martda vafot etadi. Gavharshodbegim qo‘shin qo‘mondonligini Abdul Latif Mirzoga topshiradi. Ammo Hirotga – Aloud-Davla Mirzoga “poytaxtni mustahkamlash” haqida maxfiy maktub yozib, uni maxsus chopar orqali jo‘natadi. Bundan ogoh bo‘lgan Abdulatif Mirzo buvisi Gavharshodbegimni mahbuslikda saqlab, Amudaryo tomon yo‘l oladi hamda bobosi Shohrux Mirzoning o‘limi haqida o‘z otasi Ulug‘bek Mirzoga xabar yuboradi. Amakisi Ulug‘bek Mirzodan hayiqqan Aloud-Davla Mirzo o‘zini podshoh deb e’lon qilishga jur’at etmaydi va avvalgidek juma kunlari masjidlarda bobosi Shohrux Mirzo nomini xutbaga qo‘shib o‘qitadi. Biroq, Abdulatif Mirzoning kirdikorlari, ayniqsa, buvisi Gavharshodbegimga nisbatan qo‘llagan jazosini eshitgach, taxtni o‘z tasarrufiga kiritadi va xazinadan qo‘shinga, qo‘shin boshliqlariga in’omlar ulashib, Abdulatif Mirzoga qarshi qo‘shin yo‘llaydi. 1447-yil 29-aprel shanba kuni Abdulatif Mirzo Nishopur yaqinida to‘satdan Aloud-Davla Mirzo qo‘shiniga duch kelib, mag‘lubiyatga uchraydi va o‘zi asir olinadi. Mahbuslikdan ozod qilingan malika Gavharshodbegim maxbus Abdulatif Mirzoni o‘zi bilan birga olib, Hirot tomon yo‘lga tushadi. Malikani Jom shahrining yaqinidagi Sa’dobod mavzeida Aloud-Davla Mirzo kutib oladi. Abdulatif Mirzoni Hirotga keltirib, Ixtiyoriddin qal’asiga qamab qo‘yiladi. Shohrux Mirzoning jasadi Boysung‘ur maqbarasiga dafn qiladilar. 1447-yilda Ulug‘bek Mirzo Hirotni vaqtincha qo‘lga kiritganda, otasining jasadini Samarqandga keltirib, Go‘ri Amirga dafn etdiradi.

Shohrux Mirzo vafotidan keyin taxt uchun boshlanib ketgan qonli mojarolar tepasida Gavharshodbegim turardi. U nevarasi Aloud-Davla Mirzoni taxt sohibi qilish uchun makr-hiylalar ishlatsa-da, biroq o‘z maqsadiga erisholmaydi, qaytangga aka-uka shahzodalar orasida qonli to‘qnashuvlarni vujudga keltiradi. 1450-yilda esa temuriylar taxtini Aloud-Davlaning ukasi Abulqosim Bobur Mirzo (1422 – 1457) qo‘lga kiritadi. 1457-yilda Abulqosim Bobur Mirzo Mashhadga keladi. Saroyda katta shohona ziyofat beriladi. Bazm asnosida sharob ichib o‘tirgan hukmdorning ahvoli o‘zgarib, behol yiqiladi. Tabiblar muolajasi foyda bermaydi va u 36 yoshida to‘satdan vafot etadi. Shundan so‘ng taxt uchun yana o‘zaro kurash boshlanadi. Shahzodalarning noittifoqligidan

foydalangan Samarqand hukmdori Sulton Abusayid Mirzo (1424 – 1469) Xurosonni bosib oladi.

Sulton Abusayid Mirzo Samarqand taxtini o‘zining katta o‘g‘li Sulton Ahmad Mirzoga (1451 – 1493) berib, Hirotni o‘z davlatining poytaxti deb e’lon qiladi. Bu vaqtda malika Gavharshodbegim 80 yoshga yaqinlashib, ancha qarib qolgan edi. Biroq qarib qolgan malika Xuroson taxtidan hali ham voz kechmagan edi. Binobarin, chevarasi Sulton Ibrohim Mirzoni (1440 – 1460) hukmdor Sulton Abusayid Mirzoga qarshi isyon ko‘tarishga undaydi. Malikaning bu harakatidan xabar topgan Sulton Abusayid Mirzo malikani chopib tashlashga farmon beradi. Farmonga muvofiq, 1457-yilda Gavharshodbegim chopib o‘ldiriladi va o‘zi qurdirgan madrasa yonidagi Boysung‘ur dahmasiga dafn etiladi. (5)

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Gavharshodbegim Temuriylar davrining eng nufuzli va bunyodkor ayol arboblaridan biri sifatida tarixda alohida o‘rin egallaydi. U nafaqat Shohrux Mirzoning sadoqatli hamrohi, balki davlat boshqaruvi, ilm-fan, madaniyat va me'morchilik rivojiga katta hissa qo‘shgan tarixiy shaxsdir. Uning tashabbusi bilan bunyod etilgan masjid, madrasa va boshqa me'moriy obidalar bugungi kunda ham Temuriylar davri me'morchiligining yuksak namunasi sifatida e'tirof etiladi. Gavharshodbegimning olimlar, shoirlar va san'at ahlini qo‘llab-quvvatlashi Hirotning o‘z davrining yirik ilmiy va madaniy markazlaridan biriga aylanishiga xizmat qilgan. Uning bunyodkorlik va homiylik faoliyati nafaqat o‘sha davr taraqqiyotiga, balki keyingi avlodlarning ma'naviy va madaniy merosiga ham sezilarli ta'sir ko‘rsatgan. Shu bois Gavharshodbegimning hayoti va faoliyatini tarixiy manbalar asosida chuqur o‘rganish Temuriylar davri tarixini yanada to‘liq anglash, ayollarning davlat va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini yoritish hamda milliy tarixiy merosni keng targ‘ib etishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Fayziyev Turg’un. Temuriy malikalar. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. 8 - 9 betlar.

2. Azamat Ziyo. O’zbek ayollari tarix sahnasida. – T.: Fan nashriyoti, 2002. - 32 -33 betlar.

3. Fayziyev Turg’un. Temuriylar shajarasi. – T.: Yozuvchi, 1995. 300 - bet.

4. https://oyina.uz/uz/article/2017

5. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/tarix/temuriy-malikalar/gavhar-shod-begim.

XIVA XONLIGIDA ICHKI BOZORLAR INFRATUZILMASI (XVIII ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI)

Ruzmetova Oydinoy Erkinboy qizi,
UrDU tayanch doktoranti

UO‘K 94(575.1)

Annatatsiya. *Mazkur maqolada XVIII asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligidagi ichki bozorlar infratuzilmasining shakllanishi, tarkibiy tuzilishi va faoliyati tadqiq etilgan. Xonlik iqtisodiy hayotida muhim o‘rin tutgan bozorlarning moddiy-texnik bazasi, jumladan karvonsaroylar, timlar, rastalar, do‘konlar, omborxonalar hamda ularga xizmat ko‘rsatuvchi institutlarning faoliyati tahlil qilingan. Shuningdek, ichki bozorlar infratuzilmasining savdo munosabatlarini rivojlantirish, tovar ayirboshlash jarayonlarini tartibga solish va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashdagi o‘rni yoritilgan.*

***Kirish so`zlar.*** *Bozor infratuzilmasi, do`kon, yopiq ko`chalar, chorsu, tim, karvonsaroy, rastalar.*

Аннотация. *В данной статье исследуются формирование, структурное устройство и деятельность инфраструктуры внутренних рынков Хивинского ханства в конце XVIII – начале XX вв. Проанализирована материально-техническая база рынков, занимавших важное место в экономической жизни ханства, в частности деятельность караван-сараев, тимов, торговых рядов, лавок, складов, а также институтов, обслуживавших их функционирование. Кроме того, освещена роль инфраструктуры внутренних рынков в развитии торговых отношений, регулировании процессов товарообмена и укреплении экономических связей.*

Ключевые слова: *рыночная инфраструктура, лавка, крытые торговые улицы, чорсу, тим, караван-сарай, торговые ряды.*

Annotation. *This article examines the formation, structural organization, and functioning of the infrastructure of internal markets in the Khiva Khanate during the late eighteenth and early twentieth*

centuries. It analyzes the material and technical base of markets that played a significant role in the economic life of the khanate, including caravanserais, trading domes (tims), market rows, shops, warehouses, and the institutions that supported their operation. The study also highlights the role of internal market infrastructure in the development of trade relations, the regulation of commodity exchange processes, and the strengthening of economic ties.

Keywords: *market infrastructure, shop, covered market streets, Chorsu, tim, caravanserai, market rows.*

Kirish. O‘rta Osiyo mamlakatlari o‘rtasida jadal savdo ayirboshlash jarayoni natijasida dastlab savdo yo'llarida joylashgan savdo markazlari, bora-bora ma`lum bir hududda va hatto ma`lum bir kunlarda bo`ladigan bozorlarga aylana bordi. Ushbu jarayon bilan birgalikda paydo bo`ladigan ehtiyojlar – hunarmandchilikni, ishlab chiqarishni, sotishni qo'llab-quvvatlaydigan, karvonlar uchun vaqtinchalik boshpana va xavfsizlikni ta'minlaydigan tegishli binolarning qurilishiga sabab bo'ldi (do`konlar, omborlar, karvonsaroylar). Xiva oxonligi davrida bu binolarning strukturasi o'rta asrlar xarakterini saqlab qolgan. Ya’ni, o`rta asr shaharlarining xususiyatlaridan biri savdo majmualari shaharning eng markazida, asosiy magistrallar chorrahasida joylashganligi edi. Bu davrga oid binolarni yozma manbalar va hozirgi kundagi holatiga ko`ra izohlash mumkin. Ushbu tadqiqotning maqsadi qo`ng`irotlar davrida mavjud bo`lgan ichki bozorlar infratuzilmasi, strukturasi hamda joylashuvini tadbiq etishdan iborat.

Metodologiya. Qo`ng`irotlar davri bozor infratuzilmasini yoritishda asosan xorijlik sayyoh va elchilar asarlari, kundaliklari, sayohatnomalaridan foydalanildi. Jumladan, A.Vamberi, Mak-gahan, L.Kostenko, Kalmikov, savdogarlar Rukavkin, Abrosimov xotiralari, Burnaby, Schuyler sayohatlarida muhim ma’lumotlarni yozib qoldirganlar.

Mazkur tadqiqotda tarixiylik, xolislik va tizimlilik tamoyillariga asoslanildi. Xiva xonligidagi ichki bozorlar infratuzilmasining shakllanishi va rivojlanishini yoritishda tarixiy-qiyosiy, tarixiy-tahliliy hamda tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Tarixiy-qiyosiy metod yordamida Xiva xonligidagi

bozor infratuzilmasining o‘ziga xos jihatlari Markaziy Osiyoning boshqa siyosiy tuzilmalari tajribasi bilan solishtirildi. Shuningdek, bozor infratuzilmasi elementlarining iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalarini aniqlashda tizimli tahlil usulidan foydalanildi.

Natijalar. Katta shaharlarda savdo qatorlarining katta maydoni yopiq ko'chalar, maxsus binolar (chorsu, tim) bilan, ichki bozorlarda esa do'konlar va hunarmandchilik ustaxonalari bilan o'ralgan hovlilar shaklida tashkil etilgan. Bundan tashqari, mehmonxona tipidagi savdo binolari bo`lmish karvonsaroylar ham mavjud bo'lgan. Rivojlangan so`ngi davrlarda ma’lum bo‘lgan savdo binolarining Xiva xonligida me’moriy jihatdan tashkil etilishi asosan bir xonali yoki bir necha xonali, hovlili tarzda ifodalangan bo‘lib, shahar va yo‘l chetidagi savdo binolari uchun umumiydir. Shunga asosan, savdo inshootlarini tuzilishiga qarab bir qancha turlarga bo`lish mumkin. Birinchisi, xonlik bozorlarida, asosan, bir xonali do`konlar mavjud bo`lib, ular — tekis tomli qurilgan ishlab chiqarish va savdoni uyg‘unlashtiruvchi yoki faqatgina hunarmandchilik ustaxonasi, yoxud oddiy savdo nuqtasi hisoblangan. Ko‘plab tarixiy manbalarda bozor do‘konlari o`z ayvonlariga egaligi haqida ma’lumotlar uchraydi. 9 ta qalpoq sotadigan bozordagi ayvonchaning mavjudligi to`g`risidagi ma’lumotlar buni tasdiqlaydi [10.5]. Demak, do`kon ayvonchasiga ega bir xonali inshootdir. Yozda issiq paytlari ayvonchada savdo amalga oshirilgan. Ular savdo obyektlari bo`lgan rastalar- ikki qavatli, kichik hajmli do`konlar bilan qo`shilib ketgan. Misol tariqasida, yopiq ko‘cha yoki karvonsaroy ichiga joylashtirilgan do‘konlarning kirish joyida ayvoni (nishasi) bo‘lgan xona ko‘rinishida bo‘lgan Ollaqulixon karvonsaroyini keltirish mumkin. Do`konlarni Makgahan shunday tasvirlaydi: „do'konlar oddiygina bir tomoni bo'ylab ko'tarilgan maydonchadir, unda odamlar to'planib o'tirishadi va ularning orasida ko'rinadigan chegara chizig'i yo'q. Ko‘chaning narigi tomonida sartaroshlar, ustalar, eski poyabzal ta’mirchilari, mayda savdogarlar bor” - deydi[1.222].

Ikkinchisi, ko`p xonali savdo majmualari bo`lib, ularga *yopiq ko`chalar*dagi savdodan tashqari, *tim, toqilar va chorsular* kiradi. Ikki qavatli, yorug‘lik bilan yoritilgan gumbazli yopiq ko‘chalar, ikki tomonda joylashgan do‘konlar bilan birga, butun shaharni kesib o‘tgan bozor hududi ayniqsa shahar markazlarida ko`plab uchragan. Shaharlar ijtimoiy-iqtisodiy hayotida *ko`chalar* muhim ahamiyat kasb etgan. Shaharlarda uzun, kalta, keng va tor ko‘chalar mavjud bo‘lib, ularning joylashish tizimi muayyan tartibga ega edi. Aksariyat hollarda asosiy ko‘chalar shahar bozorlarida kesishgan, bu esa savdo oqimlarini

bir nuqtada jamlash imkonini bergan. Bozor bilan tutashgan asosiy ko`chalar odatda keng yo‘laklar ko‘rinishida bo‘lib, ular shaharlarni shaharlarga, qo`shni qishloqlar hamda boshqa mamlakatlarga olib boruvchi yo`llar bilan bog‘lab turgan. Shahar darvozalaridan boshlanuvchi asosiy ko`chalar transport, karvon va savdo yo‘llarining tabiiy davomiga aylangan. Ular shahar ichkarisida turli tarmoqlarga ajralib, kichikroq ko‘chalar va mahalla yo‘llariga ulanib ketgan. Natijada, shahar ichki tuzilmasi iqtisodiy faoliyatni, ayniqsa bozor infratuzilmasining shakllanishini qulaylashtirgan.

Bozorlardagi ko‘chalarning ba’zilarining usti yopiq bo‘lgan. Ko‘chalarning ustini turli usullarda yopish va ulardan savdo rastalari sifatida foydalanish an’anaviy xarakterga ega bo`lib, buni Xivaga tashrif buyurgan sayohatchilar ham tasdiqlaydi. Masalan, XVI asr o‘rtalarida Antoni Jenkinson Urganch haqida yozar ekan, "bitta uzun ko‘cha usti yopilgandir, u bozor vazifasini o‘taydi"[2.177] - deb ko‘rsatadi. Bu borada arxeologlar ham ko‘chalardan birining usti yopiq bo‘lganligi extimoldan holi emasligini qayd etadilar. XVIII asr o‘rtalarida D. Rukavkin ham “har bir ko‘cha bitta tom bilan yopilganligini” ta’kidlab o‘tadi[3.389]. Bozorga olib boradigan ko‘chalar haqida XIX asr o‘rtalarida Xivada bo‘lgan savdogar Abrosimov: "Shaharga kirganimizdan so‘ng dastlab biz keng ko‘chadan, so‘ngra tuya zo`rg`a qator bo‘lib yura oladigan juda tor ko`chadan yurdik" - deb qayd etadi[4.32]. Berilgan ma’lumotlar savdoning asosiy qismi yopiq ko`chalarda bo`lganligini xarakterlaydi. Buni tasdiqlaydigan boshqa manbalar ham bor. Kalmikov bozorga shunday ta’rif beradi: “bozorlar turli joylarda uchraydi. Ular devor bilan o`ralgan, ichkarida yopiq ko`cha va ikki tomonida do`konlari bo`lgan mustahkam binolardir” – deydi[5.145]. Xivada bo`lgan Mak-gahan bozorni shunday ta`riflaydi: “Bozor shunchaki ko'chadan iborat. Butun struktura ibtidoiy tarzda qurilgan. Tom tor ko'cha bo'ylab bir devordan ikkinchisi ustiga tashlangan bostirma bilan qoplangan. Bostirmalarga kichik yog'och bo'laklari mahkam yotqizilgan va butun loy bilan qoplangan. Biroq, bu struktura o'z maqsadiga javob beradi va yorqin nur va issiqlikdan mukammal himoya qilishini” ta`kidlaydi[1.223]. Yana, xonlikda bo`lgan chet ellik sayyohlardan Fred Bernabi bozorlar strukturasiga shunday baho bergan: “Xivada bozorlar tor ko`chalarda tashkil etilib, xaridorlarni quyosh nuridan himoya qilish uchun usti yog`och to`sinlar va somon bilan qoplanganligini aytadi”[6.237]. Yana u o‘z sayohatnomasida devordagi tokchalar bozor rastalari

vazifasini o‘tashini, ularda uzum, quritilgan mevalar va tarvuzlar sotuvda turishini keltirgan.

Bozor infratuzilmasining yana bir turi chorsular bo`lib, asosan, shahar yo`llari kesishgan joyda joylashgan inshoot sifatida savdo joyi vazifasini bajaradi. **Toq** va **chorsu** binolarining asosiy belgisi — ularning **markaziy qismi gumbaz** bilan yopilgan bo‘lishidir. Xiva shahrida toqi tipidagi savdo inshootlari mavjud bo‘lgan bo‘lib, ular hunarmandlar va savdogarlarning maxsus ixtisoslashgan do‘konlari joylashgan yopiq savdo yo‘laklari sifatida faoliyat yuritgan. Xiva toqilari o‘lchami jihatdan Buxoro toqilaridan kichik bo‘lsa-da, bozor infratuzilmasining tarkibiy qismi bo‘lgan. Chorsular haqida keltirilgan ma`lumotlarga ko`ra XIX asrning 60- yillarida Xiva shahrida 15 ga yaqin chorsu faoliyat yuritgan[7.32-34]. Ularning har birida uchtadan o`ttiztagacha savdo do`kon mavjud bo`lib, ularda kundalik ehtiyoj uchun zarur mahsulotlar, tovarlar savdosi amalga oshirilgan. T**im** — savdo joyining bir chiziqda bo`lmalarga bo`linishi va yaxlit holda yagona savdo makonini ifodalashi bilan xarakterlidir. XIX asr boshlarida shaharning sharqiy darvozasi — Ichan-qalaning Palvon-darvozasi yaqinida joylashgan uzun savdo yo‘lagi loyihasini ishlab chiqilgan. Bu yo‘lak shahar devoridan chiqib turgan qismda joylashgan bo‘lib, o‘tish yo‘li bo‘ylab ketma-ket gumbazlar bilan yopilgan ikki tomonda kamonli ravoqlarga ega kichik do‘konlar joylashgan edi. Shu tarzda karvonsaroy tuzilishi tim kabi tarzda shakllangan. L.Kostenko “tim” haqida gapirar ekan, uni **ravoqlar va gumbazlar bilan qurilgan ancha katta g‘ishtin bino** bo‘lib, bu gumbazlarning uchida **yorug‘lik o‘tkazuvchi olti qirrali va doira shaklidagi tuynuklari"** borligini, yana uning devorlarining ich tomonida, yog`och shkaflar va kichkina do`konlari ham mavjud bo`lib, u yerda savdogarlar savdo qilishini tasvirlagan[8.328]. Bu yerdagi do'konlar olti yoki sakkiz fut (1 fut = 30,48 sm) kvadrat maydon bo`lgan oddiy xonalar yoki rastalardan iborat bo'lib, har xil turdagi tovarlarni uchratish mumkin bo`lgan. Shunday xonalarda choy, qand, ipak va paxta materiallari, xalat, etiklar, tamaki, umuman aytganda, Markaziy Osiyoda topilishi mumkin bo'lgan barcha narsani topish mumkin bo`lgan. Olloqulixon timi o‘zida yopiq bozorni, shahar darvozasini va karvonsaroyni birlashtirgan.

Keyingi turdagi savdo obyekti karvonsaroylar bo`lib, Xivadagi hozirgi kunda saqlanib qolgan Olloqulixon karvonsaroyi tim bilan birga yaxlit ansamblni tashkil qiladi. Karvonsaroy mehmonxona tipida qurilgan bo`lib, unda do'konlardan tashqari, shahar karvonsaroyi ishlab chiqarish va savdo bilan

birgalikda vaqtinchalik turar joy va yotoqxona vazifalarini bajaruvchi obyekt sifatida tanilgan. Tashqi iqtisodiy aloqalarning kuchayishi natijasida Olloqulixon 1833-yilda Xiva shahrida katta karvonsaroy qurilishini boshlab berdi. 1835-yilda ishga tushirilgan, bozor devori yaqinida qad rostlagan ikki qavatli Olloqulixon karvonsaroyi yonida yana bir keng savdo maydoni shakllangan.

Muhokama. Xiva bozor infratuzilmasi faqat moddiy obyektlar majmui bo'lmasdan, ijtimoiy jamiyat hayotining zaruriy ehtiyojlarini qondiruvchi makon hamda shu orqali omma hayotining bir qismiga aylanib, madaniy ma’naviy hayot an`analarini o`zida mujassamlashtirgan. Shuningdek, savdo jarayonini tashkil qiluvchi institut sifatida faoliyat yuritgan. Bu holat bevosita savdo munosabatlari va ishtirokchilariga ham ta’sir ko`rsatib, qulay geografik nuqtalar, aholi gavjum hududlarda shakllangan. Karvonsaroy, tim va rastalar ijtimoiy-iqtisodiy muhitni yaratishga xizmat qilgan. Buxoro va Qo'qon bozorlariga o'xshash hamda farqli jihatlariga qiyoslaganda horijlik sayyoh E.Schuyler Qo`qondagi bozorni ta’riflar ekan, “barcha ko'chalar bir-biri bilan to'g'ri burchak ostida kesishgan va ko'plab do'konlar pishgan g'ishtdan qurilgan. Ko'chalar keng va butun uylar ustidagi yog'ochlarga o'rnatilgan tom bilan qoplangan” ligini va Buxorodagi bozorni ham yopiq va qattiq qoplama yotqizilgan ko`chadan iborat“- ekanligini ta’riflaydi[9.14-79]. Ushbu fikrlar uchala xonlikda ham yopiq ko`chalar asosiy bozorlar vazifasini o`tashi hamda haftalik bozorlar doimiy faoliyat ko`rsatganligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Xiva xonligi ichki bozorlari rivojlangan infratuzilmaga ega bo'lgan. Buni yopiq ko`chalar, do`konlar, chorsu, tim va karvonsaroy kabi turlari misolida uchratish mumkin. Rastalar va do'konlarning ixtisoslashuvi savdo samaradorligini oshiribgina qolmay, joylashuviga ham ta`sir o`tkazgan. Karvonsaroy va timlar infratuzilmaning markaziy unsurlari sifatida tashqi savdo munosabatlarida muhim o`rin tutgan. Bozor infratuzilmasi ichki iqtisodiy integratsiyani kuchaytirib, aholining barcha qatlamlarini ehtiyojini ta`minlovchi makon bo`lib, mazkur infratuzilma bozorning ijtimoiy institut sifatida shakllanishiga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мак-Гахан. Военные действия на Оксусе и падение Хивы. -М., 1875. –С. 222

2. Дженкинсон.А. Путешествие в Среднюю Азию 1558-1560 гг. // Английские путешественники в Московском государстве в XVI веке. -Л., 1937. –С.177.

3. Путешествие из Оренбурга в Хиву самарского купца Рукавкина в 1753 году с приложением разных известий о Хиве в отдельные времена донные // Туркестанский сборник. Т. 386. -Спб., 1883. -С. 389.

4. Рассказ торговца Абросимова о поездке его в Хиву... С.32

5. Кал***мы***ков А. Хива // Туркестанский сборник. – Ташкент, 1908. Т. 471. – С. 145.

6. Burnaby F. G. A Ride to Khiva: Travels and Adventures in Central Asia. – London: Cassell, Petter & Galpin, 1876. – P.237

7. Абдурасулов А. Хива(тарихий-этнографик очерклар). – Т.: “O`zbekiston”,1997. –С. 32-34

8. Костенко Л. ***Город Хива в 1873 г.*** — С. 328

9. Schuyler Eugene. Turkistan. Notes of a Journey in Russian Turkistan, Khokand, Bukhara, and Kuldja. Vol. II. New York, 1877. –С.14- 79.

10. O`zR MDA, I-125 jamg`arma, 2-ro`yhat, 499-yig`ma jild, 5-hujjat.

QUYI XORAZM VOHASI AHOLISI HUNARMANDCHILIGI TARIXNAVISLIGI BO‘YICHA MULOHAZALAR

СООБРАЖЕНИЯ К ИСТОРИЧЕСКОМУ АНАЛИЗУ РЕМЕСЛЕННОГО ДЕЛА НИЖНЕГО ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА

REMARKS ON THE HISTORICAL ANALYSIS OF THE CRAFTSMANSHIP OF THE LOWER KHOREZM OASIS

Ibragimov Ibragim Axmedovich,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti o‘qituvchisi
E-mail: ibragim.dilfuzagmail.com
Orcid: 0009-0008-6443-1180

UO‘K 94(045)(575.1)

Annotasiya: *Maqolada Quyi Xorazm hududi aholisining hunarmandchilik tarixnavisligi tahlil qilingan. Amudaryo o‘ng va so‘l sohili hududlarida tosh asridan boshlab o‘rnashgan ibtidoiy ovchilarning tabiiy manbalardan foydalanib, kundalik faoliyatlarida hunarmandchilik bilimini kashf qilib, uni yanada rivojlantirib takomillashgan mehnat qurollari ishlatib, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va etnik-madaniy munosabatlarni olib borishida erishgan natijalarini o‘rganiladi. Quyi Xorazm vohasining tosh davri madaniyatini boshqa mintaqalar bilan solishtirib, uning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar*: O‘zbekiston, Qoraqum, Qizilqum, Oqchadaryo, Dovdon, Daryoliq, Sulton Uvays, Burli-3, Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspedisiyasi, tarixiy geografiya, nukleus, Jonbas-4, flora va fauna, ovchilik, baliqchilik.*

Аннотация: *В статье анализируется историография ремесел населения Нижнего Хорезмского региона. Изучаются результаты деятельности первобытных охотников, поселившихся на правом и левом берегах Амударьи с каменного века, которые использовали природные ресурсы, открывали и развивали знания о ремеслах в своей повседневной жизни, применяли усовершенствованные орудия труда и вели социально-экономические и этнокультурные отношения общества. Культура каменного века Нижнего Хорезмского оазиса сравнивается с*

другими регионами, анализируются её специфические особенности.

Ключевые слова: *Узбекистан, Каракумы, Кызылкумы, Акчадарья, Довдон, Дариолик, Султан Увайс, Бурли-3, Хорезмская археолого-этнографическая экспедиция, историческая география, ядро, Джонбас-4, флора и фауна, охота, рыболовство.*

Abstract: *This article analyzes the historiography of crafts among the population of the Lower Khorezm region. It examines the activities of primitive hunters who settled on the right and left banks of the Amu Darya River beginning in the Stone Age. They utilized natural resources, discovered and developed knowledge of crafts in their daily lives, employed improved tools, and maintained socioeconomic and ethnocultural relations within their society. The Stone Age culture of the Lower Khorezm oasis is compared with other regions, and its specific features are analyzed.*

Key words: *Uzbekistan, Karakum, Kyzylkum, Akchadarya, Dovdon, Dariolik, Sultan Uvays, Burli-3, Khorezm archaeological and ethnographic expedition, historical geography, core, Jonbas-4, flora and fauna, hunting, fishing.*

Kirish. Xorazm ekspeditsiyasi nashrida qayd qilingan tarixiy ma'lumotlarga ko‘ra, tosh davrining oxirgi bosqichi bo‘lgan so‘nggi tosh davrida (40-12 ming yilliklar) Sulton Uvays tog‘i atrofida Burli-3 manzilgohida o‘rnashgan ibtidoiy ovchilar Sulton Uvays tog‘i kon ashyosi-kvarsit va chaqmoqtoshdan Burli shaxtasida ishlov berilgan. Tosh mehnat qurollaridan foydalanib (nukleuslar, plastinkalar, qirg‘ich va teshgichlar) kundalik turmush tarzini olib borganlar, pleystosen muzligi davrida ustunlik davrida tog‘ echkisi ovlanish obyekti bo‘lgan, bu esa asosiy ozuqa mahsulotlari bo‘lgan. Shu bilan birga, kvarsit va chaqmoqtoshdan mitti-mitti silindr va aylana shaklda munchoqlar zeb-ziynatlar sifatida kundalik istrmolda bo‘lgan . Loydan kulolchilik bilimini davom ettirganlar. Tadqiqotchi Burli-3 manzilgohida o‘rnashgan (so‘nggi tosh davri jamiyat tizimida boshqarish uslubi vujudga kelgan, bu jarayonga raxnomalik qilgan, hayotiy tajribasi katta, oilada aholi soni oshishi

natijasida bir qator muammolar vujudga kelganini, uni barqaror qilishni o‘ylab, uni yechimini topishga xarakat qilgan “Ona” tevarak-atrofga migratsion siyosatni olib borish zaruratini anglab etgan. Tadqiqotchi Burli-3 manzilgohi ovchilarining mil. avv. V ming yillik (ilk neolit davri) kundalik faoliyatlarini olib borganligini qayd qilgan. A.V.Vinogradov tadqiqotlari natijalariga e’tibor berilsa Jonbasqala antik davr yodgorligi yaqinida joylashgan Jonbas-4 manzilgohiga asos solgan ovchilar va termachilarga qadar loy kulolchiligi bilimini ixtiro qilib, kundalik taomnomasida kichik hajmli idish-tovoqlardan keng foydalangan. Tadqiqotchilar asarlarida Xorazm vohasi shimoliy hududning geografik holati, antropogen landshafti, Sulton Uvays tog‘ida o‘rnashgan ovchilarning kundalik ehtiyojlariga xizmat qilish, aholining joylashishi, etnik jarayonlarni olib borishiga bo‘lgan iqtisodiy omillarga e’tibor qaratmaganlar.

Sulton Uvays tog‘i hududidan yuzasini so‘nggi tosh davrida pleystosen muzligi ustunligini inobatga olish joiz. Odamzotning kundalik faoliyatlarida tabiat buhronlariga qaramligi, mehnat qurollarining kamunumlik berishi, bir qator muammolar mavjud bo‘lgan, albatta ovchilar va termachilarga muammolarni bajarishda mezolit davrida iqlim sharoit iliq va namligi imkon bergan. Xar xolda, Sulton Uvays etaklarini qoplagan Vyurm muzligi chekingandan keyin (shimoliy hudud sari) yer yuzasi mayda maysalar egallagan, yomg‘ir va qorlar suvlari bilan botiqlar suv xavzalariga aylangan, ularning iqtisodiy omillari ovchilar, termachilar va hunarmandchilik tarmoqlarini rivojlantirishiga imkon bergan.

Ye.A.Vinogradova Sulton Uvays tog‘i etagiga tutashib ketgan tekislikda joylashgan Burli-3 manzilgohida olib borgan qazishma ishlari natijasida olingan toshdan ishlangan mehnat qurollari va birnecha qo‘lda tayyorlangan loy kulolchiligi namunalarini olinishi, ibtidoiy ovchilarning ilk kasbi korlari (40-V ming yilliklar oxiri) Sulton Uvays tog‘i kon ashyosi-kvarsit va chaqmoqtoshdan bo‘laklaridan Burli-ustaxonasida ishlov berilib, nukleuslar, teshgich, plastinkalar tayyorlangan). Jamiyatning tadrijiy ravishda rivojlantirganlar.

Demak, Quyi Amudaryo havzasi shimoliy hududida Burli-3 manzilgohi geografik xususiyati, iqlim sharoitga moslashib, Sulton Uvays tog‘i resurslaridan foydalanib, Burli-ustaxonasida kvarsit va chaqmoqtoshni maydalash, ularga ishlov beradigan maxsus malakali vakillar faoliyat olib borgan, ular so‘nggi tosh davri dastlabki hunarmandlari bo‘lgan degan xulosaga kelgan. Tadqiqotchilar Burli-3 manzilgohi ovchilarining mehnat faoliyati moslashgan hududda ilk boshlanganmi yoki ularning mehnat qurollarini tayyorlashni texnologiyasi bilimi

ma’naviy dunyosida qanday shakllanganlik, masalasi ochiq qolgan. Ta’kidlash kerakki, Burli-3 manzilgohida o‘rnashgan urug‘ jamoalari (so‘nggi tosh davri jamiyat boshqarish tizimida “Ona” rahnomaligi jamiyat boshlangan) tub aholi yoki qo‘shni hududdan ekanligi muammo bo‘lib qolgan. Nazarimizcha, Ustyurt platosi janubi-sharqiy hududida o‘rta tosh davri (Churuk-12 manzilgohi) ovchilari son miqdori oshganligi sabab, bir guruh vakillari vujudga kelgan oziq-ovqat muammosini e’tiborga olib, Sulton Uvays tog‘i etaklariga kelib joylashganlar, degan xulosani qayd qilishni lozim topdik: Demak birinchi tarixiy davrda Burli-3 manzilgohi ovchilari Xorazm tekisligida etnik jarayonni olib, Sulton Uvays tog‘i Burli-ustaxonasidan foydalangan ajdodlarimiz kvarsit va chaqmoqtoshdan mehnat qurollari kundalik turmush tarzida olib borgan .

1.Mehnat qurollari tosh qurollar.

2.Nukleuslar , plastinkalar, qirg‘ichlar.

Burli-3 manzilgoh sifatida ibtidoiy odamlarga xizmat qilgan. Burli-3 manzilgohi urug‘chilik uyushmasi a’zolariga xizmat qilgan. Tosh davri so‘nggi bosqichiga kelganda ibtidoiy odamlar xilma-xil tabiiy-geografik hududlarda o‘rnashganlar. Tabiiy resurslar zahirasi turli darajada bo‘lganligi bois, tog‘ yuqori qismi va tekislikda suv havzalari sohili etagida joylashgan urug‘ jamoalari, tabiiy sharoit umummanzara, urug‘ jamoalarini kundalik faoliyati, moddiy madaniyati o‘xshash jihatlari, tosh va suyakdan ishlangan mehnat vositalarini o‘xshashliklarini kuzatish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy xolislik, tarixiy-xronologik izchillik, nazariy-qiyosiy tahlil, munozara, asoslash, umumlashtirish, yakuniy xulosa.

Tahlil va natijalar. Quyi Amudaryo havzasi shimoliy hududida Burli-3 manzilgohi geografik xususiyati, iqlim sharoitga moslashib, Sulton Uvays tog‘i resurslaridan foydalanib, Burli-ustaxonasida kvarsit va chaqmoqtoshni maydalash, ularga ishlov beradigan maxsus malakali vakillar faoliyat olib borgan, ular so‘nggi tosh davri dastlabki hunarmandlari bo‘lgan degan xulosaga kelgan. Burli-3 manzilgohida o‘rnashgan urug‘ jamoalari (so‘nggi tosh davri jamiyat boshqarish tizimida “Ona” rahnamoligi jamiyati boshlangan) tub aholi yoki qo‘shni hududdan ekanligi muammo bo‘lib qolgan. Ustyurt platosi janubi-sharqiy hududida o‘rta tosh davri (Churuk-12 manzilgohi) ovchilari soni miqdori oshganligi sabab, bir guruh vakillari vujudga kelgan oziq-ovqat muammosini e’tiborga olib, Sulton Uvays tog‘i etaklariga kelib joylashganlar, degan xulosani qayd qilishni lozim.

Natijalarni quyidagicha belgilash mumkin:

Demak birinchi tarixiy davrda Burli-3 manzilgohi ovchilari Xorazm tekisligida etnik jarayonni olib, Sulton Uvays tog‘i Burli-ustaxonasidan foydalangan ajdodlarimiz kvarsit va chaqmoqtoshdan mehnat qurollari kundalik turmush tarzida olib borgan .

Burli-3 manzilgoh sifatida ibtidoiy odamlarga xizmat qilgan. Burli-3 manzilgohi urug‘chilik uyushmasi a’zolariga xizmat qilgan. Tosh davri so‘nggi bosqichiga kelganda ibtidoiy odamlar xilma-xil tabiiy-geografik hududlarda o‘rnashganlar. Tabiiy resurslar zahirasi turli darajada bo‘lganligi bois, tog‘ yuqori qismi va tekislikda suv xavzalari sohili etagida joylashgan urug‘ jamoalari, tabiiy sharoit umummanzara, urug‘ jamoalarini kundalik faoliyati, moddiy madaniyati o‘xshash jihatlari, tosh va suyakdan ishlangan mehnat vositalarini o‘xshashliklarini kuzatish mumkin.

Mezolit davrida urug‘ jamoalari hunarmandchiligi yo‘nalishida turli soxalar ixtiro qilingan. Mehnat qurollari rang-barang bo‘lgan.

Xulosa. Tahlil va natijalardan quyidagi xulosalarni qayd qilish joiz:

-Xorazm tekisligining joylashishi o‘ziga xos xususiyatlari jihatlariga ega bo‘lganligi odamzot faqat so‘nggi tosh davridan o‘zlashtirgan, Sulton Uvays tog‘i so‘l hududi ilk etnik makon bo‘lgan.

-Burli-3 manzilgohida o‘rnashgan ovchilarning mehnat faoliyatlarini mil.avv.V ming yilliklar mobaynida kengaytirish imkoniyati cheklangan edi.

- Sulton Uvays tog‘i Turkiston tog‘i kabi doimiy muzlik qatlamiga ega emas, shuning uchun xam uning suv manbasi ovchilarning kundalik ehtiyojlariga mos kelmas edi.

-O‘zbekiston hududida mezolit davrida geografik manzara, tabiiy-muhit va ekologik jihatdan urug‘ jamoalari olib borgan xo‘jalik sohalarida yuz bergan o‘zgarishlar ma'nosida ikki xo‘jalik-tiplar shakllangan.

40 – V ming yilliklar oralig‘ida Sulton Uvays tog‘i etaklari ibtidoiy ovchilar uchun etnik makon bo‘lgan. Shu jihatlarni inobatga olib, quyidagi takliflarni qayd qilish maqsadga muvofiq:

1.Xorazm vohasi geografik o‘rnini strategik ahamiyatini izohlash;

2.Sulton Uvays tog‘i voha aholisi taqdirida tarixiy ahamiyatini oydinlashtirish;

3.Burli-3 manzilgohi urug‘ jamoalarining etnogenezi va etnik tarixini real manbalar asosida yoritish;

Iqtiboslar/Сноски/Referenc

1.Baratov P, Mamatqulov M, Rafiqov A. O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi-Toshkent, 2002.

2.Vinogradov A.V, Itina M.A, Kes A.S,Mamedov E.D. Paleogeograficheskaya obuslovlennost rasseleniya drevnego cheloveka v pustinyax Sredney Azii //Pervobitniy chelovek, ego materialnaya kultura i prirodnaya sreda v pleystosene i golosene-M:Nauka, 1974.

3. Vinogradova E.A. Pervie paleoliticheskie naxodki v Sultanuizdage (Priarale v drevnosti i srednevekove)-M, IVL RAN «Nauka», 1998.

4.Ibragimov R.Z. O‘rta Osiyo arxeologiyasi-Toshkent.2020.

5.Kabirov J, Sagdullaev A. O‘rta Osiyo arxeologiyasi-Toshkent, 1990.

6.Kes A.S. Problema drevnego techeniya Amudari v svete noveyshix geomorfologicheskix i arxeologicheskix dannix /Nizovya Amudari Sarikamish Uzboy. Istoriya formirovaniya i zaseleniya-M:Nauka 1960.

QADIMGI XORAZM XUDUDIDA ANTIK DAVR IBODATXONALARI (TO‘PROQ QA’LA, QALALI GIR2, TAGISKEN)

Aliyeva Oygul Baxramovna,
Abu Rayxon Beruni nomli Urganch davlat Universiteti tarix kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: alievaoygul653@gmail.com

UO‘K 94(575.1)

Annotatsiya: *Ushbu mqolada Xorazm xududida joylashgan eng qadimgi ibodatxonalarning tuzilishi va faoliyati to‘g‘risida so‘z boradi. Xorazmda antik davr ibodatxonalari turli davrlarda shakllangan: qishloq-shahar markazlaridagi maxalliy kultizm markazlari va katta ibodat majmualari anklavlari ham uchraydi. Bunday ibodatxonalar odatda markaziy xonali yoki alohida chashma maxkamalari bo‘lgan bino shaklida bo‘lib, unda qurbonxona, ritual idishlar (ritonlar), terrakota va zoomorf hamda antropomorf figuralar saqlangan.*

Kalit so‘zlar: *Anaxita, sajdagox, Zardusht, riton, zoomorf.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются структура и функционирование наиболее древних святилищ, расположенных на территории Хорезма. Античные культовые сооружения в Хорезме формировались в разные эпохи: встречаются как местные центры культизма в сельско-городских центрах, так и анклавы крупных культовых ансамблей. Такие святилища обычно имеют форму здания с центральным залом или отдельными культовыми нишами; в них находились жертвенники, ритуальная посуда (ритоны), терракота, а также зооморфные и антропоморфные фигуры.*

Ключевые слова*: Анахита, молельня (саждагох), Заратустра (Зардушт), ритон, зооморф.*

Abstract (English): *This article examines the structure and functioning of the most ancient sanctuaries located in the Khwarezm region. Antique cultic structures in Khwarezm developed in different*

periods: both local centers of cult activity in rural-urban settlements and enclaves of large cult ensembles are encountered. Such sanctuaries typically take the form of buildings with a central hall or separate cult niches; they contained altars, ritual vessels (rhytons), terracotta objects, as well as zoomorphic and anthropomorphic figures.

Keywords (English): *Anahita; prayer place (sajdagah); Zarathustra (Zardusht); rhyton; zoomorphic*

Insoniyat paydo bo‘la boshlagandan buyon odamzod nimagadir ishonib va o‘zining ibodat qiladigan joylarini yaratib kelgan. Eng qadimgi ibodatxonalar qa’lalarning tashqarisida emas balki qa’lalrning ichkarisida qurilgan. Dunyo bo‘yicha eng qadimgi ibodatxonalar Shummer va Akkad davlatlarida bunyod etilgan. Xorazmdagi eng qadimgi ibodatxonalarni o‘rganish mintaqaning diniy, ritual va madaniy rivojlanishini tushunish uchun asosiy manba hisoblanadi. Qadimgi ibodatxonalar turli vaqtlarda — bronza davridan to qadimiy-o‘rta asrlar davrigacha (misol: III—I ming yillikdan to miloddan keyingi bir necha asrlar) paydo bo‘lgan diniy amaliyotlarni aks ettiradi. Eng qadimgi arxeologik topilma Kalta minor madaniy qatlami hisoblanadi. Kaltaminor madaniyati arxeologik madaniy qatlamini rus arxeologlari tomonidan o‘rganilgan. Bu yerdagi topilmalar Xorazm xududining eng qadimiy tarixi xisoblanadi. Bu to‘g‘risida I. Jabborov shunday fikrni keltiradi: kaltaminorliklarning o‘troq holda hayot kechirgan liklarini tasdiqlashda Jonbos — 4 makonida topilgan ibtidoiy kulba qoldiqlari juda xarakterlidir. Kulba konus shaklida bo‘lib, katta o‘qi 24 metrga, kichkina o‘qi 17 metrga yaqin, markaziy ustunliklarning balandligi taxminan 8—10 metrcha bo‘lib, sinchbop xodalardan tiklangan va ular ustiga qamish yopilgan. Tomning chetidagi kuyib ketgan material massasining zichli gi — kulbaning uncha baland bo‘lmagan devorga tayanib turganligini ko‘rsatadi. Ikki qator ustunlar bilan o‘ralgan tor yo‘lak tomning o‘rtasida doimo yonib turadi (I, 1961).


Kaltaminorliklar kulbasining rekonstruksiyasi bo‘yicha yo‘lak markaziy o‘choqqa olib boradi. Bu o‘choqning diametri bir metrga yaqin bo‘lib, u yarim metrli kuygan qizil qum qatlami ostida, oppoq zich qalin qatlamli kul holida saqlanib qolgan. Eshikning o‘ng tomonida, markaziy o‘chaqning orqasida esa ovqat pishirish uchun juda ko‘p kichikroq o‘choqlar bor. Kundalik turmush buyumlarining ko‘pchiligi mana shu o‘choqlar atrofidan topilgan. Kiraverishda

chap tomonda asosiy turar joy bo‘limi bo‘lib, unda o‘choqlar, asbob-uskuna va buyumllar deyarli yo‘q. Bu kulbada taxminan 100—120 kishi ona urug‘i tartibida yashaganlar. Kulbaning kattaligi va unda kichkina-kichkina o‘choqlarning borligi — bu kollektivning xo‘jalik jihatdan juft-juft oilalarga bo‘lina boshlaganini ko‘rsatadi. Katta o‘choqda doimo muqaddas olov saqlanib turgan va bu o‘choq S. P. Tolstov fikricha shu kulbada yashovchi urug‘ ja 37 jamoasining diniy markazi hisoblapgan (S.P., 1962). Joibosqal’a xarobalari yaqinida topilgai hamda shu davrga oid sopoldan yasalgan xotin haykalchasi ham kaltaminor e’tiqodlari to‘g‘risida fikr yuritishga imkon beradi. Markaziy Osiyoda eng qadimgi ibodatxonalar zardushtiylik dini bilan bog‘liq. Qadimgi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullangan xalqlarining diniy tasavvurlari asosan tabiat bilan bog‘liq edi. Bu din haqida biz asosan zardushtiylikning muqaddas kitobi — Avesto orqali bilamiz, ammo u bizga faqat XIII–XIV asrlarga mansub qo‘lyozmalarda yetib kelgan. Hozirgi zamon olimlarining ko‘pchiligi fikriga ko‘ra, Avesto o‘zining boshlang‘ich shaklida miloddan avvalgi VII–VI asrlarda shakllangan, Biroq uning ayrim bo‘limlari ancha qadimroq davrlarga mansubdir (A.V, 1965). Zardushtiyliklik dinning paydo bo‘lish jarayoni juda uzoq va murakkab bo‘lgan va hozirga qadar uning barcha tafsilotlari to‘liq izlangan emas. Afsonalarga ko‘ra, afsonaviy payg‘ambar Zaratushtra (grekcha Zoroastr, shundan zoroastrizm) o‘z da’vatini boshlagan vaqtgacha Markaziy Osiyo xalqlarida turli qavmiy kultlar mavjud bo‘lib, ular tabiat qudratlari va stixiyalarini, turli muqaddas hayvonlarni ibodat qilar edi.

Zardushtiylik esa ular o‘rniga yaxshilik, nur va yaratishni timsol qiluvchi yagona oliy Xudo — Ahuramazda (Ormuzd)ning kultini o‘rnatishga harakat qilgan. Zaratushtra ta’limotiga ko‘ra dunyoda doimiy kurash mavjud: bir tarafda yaxshilik — Ahuramazda, boshqa tarafda esa yovuzlik — Angra-Maynyu (Ariman) (Smirnova, 2005). Shu bilan birga, qadimgi diniy an’analar juda yashayveradi va ko‘plab badiiy va e’tiqodiy figuralar aqida tizimiga bosqichma-bosqich kiritilgan. Shunday qadimgi kultlardan biri olovga sig‘inish edi. Zardushtiylar ko‘pincha ularni olovga sig‘inuvchilar ham deb atashgan ularga qurbonliklar keltirishgan va uning sharafiga ibodatxonalar qurilgan. Xorazmning janub tomonida arxaik davr ibodatxonalari qurilishi ancha yuksak darajada bo‘lgan. To‘proq qa’la arxeologik qazishmalar natijasida qa’laning o‘rtasida muqaddas joy ya’ni qurbonlik keltiradigan joy bo‘lgan. Uchta katta mexrob uchta asosiy xudolarga bag‘ishlangan. Shulardan birsi ayol mabudi bo‘lgan yonida

yovvoyi xayvon bilan tasvirlangan. Ular ko‘pincha ayol tasvirini Anaxita tasvirini (2 rasm)ifodalagan. Bunday tasvirlar Xorazmning o‘rta asr kumush idishlarida ham tasvirlangan. Zallardagi uyinchi ayollar ibodatxona xizmatchilari deb qaralgan. Ular o‘z navbatida ulug‘ iloxlarga xizmat qilishgan. Kalalqir 2 madaniy majmusidagi ibodatxona Tuproq qala ibodatxonasidan farq qilgan. Monumental bino qasr ichida — doira shaklidagi ibodatxona hisoblanadi. Ibodatxona sirtdagi, yashirin joyga qo‘yilgan — qasr devorlari uni to‘liq yashirar edi. Bu bino 24 m diametrda bo‘lib, qasrning o‘zi kabi ikki metrli tuproq to‘ldirilgan sokolga o‘rnatilgan. Tashqi devorlarida shinaklar mavjud bo‘lgan; shimoldan unga qo‘shilgan holda kirish darvozasiga ko‘shilib ketgan. Ichki tomonda bino devor bo‘ylab segmentga o‘xshash xonalarga bo‘lingan bo‘lib, ular to‘g‘ri to‘rtburchak markaziy zalni o‘rab turgan; so‘nggi bosqichda esa markaziy zal bir devor bilan ikki xonalik qismga ajratilgan. Ibodatxonaga barchaning kirishi taqiqlangan bo‘lib qoxinlar va saroy ayonlari bilan cheklangan (B.I., 2004). Eng iadimgi ibodatxonalar aylana shaklda bo‘lgan. Bunday sajdagohlarni Sogd, Panjikent, Jarquton majmualarida xam kuzatiladi. Aylan qilib qurilishi bu quyosh bilan bog‘liq va vaqtlarni taqsimlashdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Xorazmda ibodatxonalar turli xil bulgan va asrlar o‘tib o‘zgara borgan. Shuningdek bu xududda zardushtiylik bilan birga boshqa e’tiqodlar xam mavjud bo‘lgan. Buni arxeologik topilma xaykallardan va ibodatxona devoriy tasvirlardan xam bilsak buladi.



.

1-rasm. Tuproq qa’la majmuasidan topilgan ibodatxonadagi tasvir



2-rasm (Qalali qir ka’lasi ibodatxonasi)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ВиноградовА.В.Тысячалетие погребенные пустыней.-Минск:. Просвещение.1965. С.16-18

2. Соколова В.С. Смирнова В.А. Авеста. – Санкт Петербург:.Наука 2005. С.25-26.

3. Жабборов И. Кўхна харобалар сирлари.- Ташкент:. ЎзССР. 1961. С.36-37.

4. Толстов И.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М:. Восточная литература 1962. С.42-43

5. Вайнберг Б.И. Калагир2.Культовый центр в древнем Хорезме – М:. Восточная литература. -2004. С.17

SALJUQIYLAR DAVLATI VUJUDGA KELISHIDA XORAZM

Raximbayev Xurmat Xursand o‘g‘li,
Urgench Innovation University tarix fani o‘qituvchisi

UO‘K 94(575.1)

Maqolaning qisqacha mazmuni. *Maqola Xorazm vohasida qo`shni bo`lib yashagan hamda X-XI asrlar Xorazm tarixida muhim o`rin tutgan o`g`uzlar va saljuqiylarning Xorazm bilan munosabatlari va bu munosabatlarning shu asrlardagi siyosiy jarayonlardagi o`rni masalalariga bag`ishlangan. Xususan, maqolada shu paytgacha, manbalarda va zamonaviy tadqiqotlarda keltirilgan ma’lumotlarni keng miqyosda hamda yangicha qarashlar va yondashuvlar asosda tahlil qilish va xulosalar chiqarishga harakat qilingan.*

Kalit so‘zlar: *oltintoshlar, o‘g‘uzlar, o`g`uzlar yabg`usi, saljuqiylar, Shohmalik, turkmanlar, Ibn Xavqal, Gardiziy, Bayhaqiy, Marvaziy, Ibn al-Asir.*

Аннотация: *Статья посвящена взаимоотношениям огузов и сельджуков с Хорезмом, проживавших по соседству в Хорезмском оазисе и сыгравших важную роль в истории Хорезма в X-XI веках, а также роли этих взаимоотношений в политических процессах тех столетий. В частности, в статье предпринята попытка проанализировать представленную в источниках и современных исследованиях информацию в широком масштабе и на основе новых взглядов и подходов, а также сделать выводы.*

Ключевые слова: *алтунташиды, огузы, огузский ябгу, сельджуки, Шахмелик, туркмены, Ибн Хавкал, Гардизи, Байхаки, Марвази, Ибн аль-Асир.*

Abstract: *The article is devoted to the relations of the Oghuz and Seljuks, who lived as neighbors in the Khorezm oasis and played an important role in the history of Khorezm in the 10th-11th centuries, with Khorezm, and the role of these relations in the political processes of those centuries. In particular, the article*

attempts to analyze the information presented in sources and modern research on a large scale and on the basis of new views and approaches, and to draw conclusions.

Keywords: *Altuntashids, Oghuz, Oghuz Yabgu, Seljuqs, Shahmelik, Turkmens, Ibn Hawqal, Gardizi, Bayhaqi, Marwazi, Ibn al-Athir.*

KIRISH (INTRODUCTION). Xorazm vohasining X asrdan boshlab o`g`uz qabilalari bilan, keyinchalik mashhur saljuqiylar sulolasi ilk vakillari bilan siyosiy va iqtisodiy munosabatlari muhim ahamiyat kasb etganligi aniqki, bu munosabatlar ko`lami hamda ahamiyati qanday bo`lganligini yozma manbalar ma'lumotlari to`liq tasdiqlaydi. Xususan, kelgusida qudratli Anushteginiylar sulolasiga asos solinishida Saljuqiylar asosiy o`rin tutganligi, qolaversa, Xorazm vohasi butun o`rta asrlar davomida o'z boyliklarini ko'chmanchilar bilan bo'lgan savdodan to'plaganliklari barcha manbalarda alohida ta'kidlangan. Zero, Xorazm vohasida X – XI asrlar siyosiy va ayniqsa, madaniy taraqqiyot zamirida iqtisodiy taraqqiyot yotadi.

Shu jihatdan olganda, tadqiqotda Xorazm vohasining X – XI asrlar davomida o`g`uzlar, keyinchalik Saljuqiylar bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalari masalasiga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW). Xorazm vohasining X-XI asrlar davri siyosiy, iqtisodiy va etnomadaniy tarixi umumiy holatda yetarlicha o‘rganilmagan. Demak, bu muammo bilan bir xil darajada, Xorazmning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida ko‘chmanchi qabilalar ta'siri qay darajada bo‘lganligi masalasi nihoyatda sust o‘rganilgan masalalardan biri hisoblanadi. Bu sulolalarning nafaqat siyosiy va iqtisodiy, balki, madaniy hayotida ham ko‘chmanchi turkiy qabilalar vakillari egallagan mavqei haqidagi turli davrlarda va turli tillarda yozilgan manbalarda mazkur mavzu yuzasidan juda qisqa ma'lumotlar berib o‘tilgan xolos.

Birinchi navbatda yozma manbalarga e'tibor qaratiladigan bo`lsa, Bayhaqiy, Mahmud Qoshg`ariy, al-Idrisiy, Ibn al-Asir kabi arab-fors mualliflari asarlarida Xorazm vohasining aynan ko`chmanchi o`g`uzlar va kelgusida Saljuqiylar bilan siyosiy va iqtisodiy munosabatlari masalasi ancha sust aks etgan [1; 2, 234-309; 4,220-22; 7; 9, 309-314]. Ammo, bu manbalardagi ma'lumotlarni

arxeologik va numizmatik tadqiqotlar natijalari bilan qiyosiy tahlil qilish lozimki, shu asosda muayyan xulosalar chiqarish imkonini beradi. Shu jihatdan olganda, V.V. Bartold, S.P. Tolstov, Z.M. Buniyodov, [5; 6; 12, 55-102; 13] kabi tadqiqotchilar o`z tadqiqotlarida mazkur masalaga turli tarafdan yondashganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY). Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma’lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS).

Somoniylar hokimiyatining Xorazmdagi ta’siri yo’qolishi hamda mamlakatning g’aznaviylar ta’siriga tushishi orasidagi qisqa vaqt davomida ma’muniylar sulolasining atrofdagi turkiy urug’lar bilan aloqalarni mustahkamlashga harakat qilishiga olib kelgan. Bu to’g’rida Abulfazl Bayhaqiy ham ma’lumot beradi. Xorazmshoh Ma’mun kuchayib borayotgan g’aznaviylar davlati hukmdori Mahmud G’aznaviy siyosiy ta’siriga tushib qolmaslik uchun Turkiston xonlariga suyanishni rejalashtiradi. Biroq ma’muniylar xonadoni g’aznaviylar davlati tomonidan tugatilib, hokimiyat g’aznaviylarga qaram bo’lgan oltintoshlarga o’tadi. Ko’p o’tmay, Mahmud G’aznaviyning vafotidan so’ng Xorazmdagi oltintoshlar sulolasi siyosiy mustaqillikka erishishga harakat qiladi va bu yo’lda Xorazm atrofidagi qipchoqlar hamda o’g’uzlardan foydalanishga harakat qiladilar [1, 543-549; 584-589].

Saljuqiylar davlati asoschisi Saljuq o’z urug’doshlari bilan Sirdaryoning quyi oqimidagi Jandga o’rnashgach, Islom dinini qabul qilishga qaror qiladilar. Asli suriyalik ibroniy tarixchisi Bar Ebrey bu borada Saljuqning quyidagi so’zlarini keltiradi: “Agarda biz yashamoqchi bo’lgan yurtning dini va urf-odatlarini qabul etmasak, unda bizni bu yerda hech kim siylamas” [3].

Z. Bunyodov bu ma’lumotni quyidagicha ifodalaydi: “Saljuqlar o’zlariga yaqin joylashgan Xorazmning Zandak shahriga odam yo’llab, uning hokimidan Islom dinining qonun-qoidalarini tushuntirib bera oladigan hamda va’z va nasihat etishga uquvli odam yuborishni so’raydilar. Hokim o’z imomini dinni yangi qabul qiluvchilar uchun ko’p sonli sovg’alar bilan jo’natadi” [6, 172].

V.V. Bartold o’g’uzlarning orasida xristian jamoalarining ham bo’lganini ta’kidlaydi va xristian dini ham Islom dini kabi savdo-sotiq va madaniy markazlardan biri bo’lgan Xorazmdan kirib borganini yozadi [5, 94].

Oltintoshlar davrida saljuqiylarning Xorazmga kirib kelishi va Xorazm hukmdori Horunning da’vati bilan Xurosonga ko’chib o’tishi to’g’risida

g’aznaviylar saroyida ijod qilgan Abul Fazl Bayhaqiy o’zining “Tarixi Bayhaqiy” asarida ma’lumotlar keltiradi. U o’z asarida “Xorazm bobining mazmuni bu hodisalarning asli saljuqiylarning Xorazmdan ketishi, Xurosonga kelishi va sha’nlarining yuksalishi haqida edi” deydi [2, 234-235].

Yusuf Yabg’u boshchiligidagi o’g’uzlar Xorazm hukmdori Horun taklifiga binoan Amudaryoning o’ng sohilidagi Govho’ra irmog’i bo’yida 4 yilcha yashaydilar.

Yana boshqa bir o’g’uz guruhlari somoniylar davlati xizmatiga kirishadi. Bu vaqtda g’aznaviylar davlati hududlariga ham o’g’uz urug’lari kirib borgan edi [5, 94]. O’g’uzlarni birlashtirib imperiya darajasiga chiqargan sulola nomi saljuqiylar bo’lib, 985–986 yillarda Movarounnahrning Buxoro va Samarqand atroflariga joylashgan edilar [10, 59-66; 11, 90-98]. 400 xonadonli o’g’uzlarning qiniq urug’idan bo’lgan Saljuq 1025 yili Mahmud G’aznaviyga maktub yo’llab, Amudaryodan janubga o’tishlariga izn so’rab qilgan murojaatlariga javoban Obivard va Niso hududlariga o’rnashishga ruxsat beriladi.

1017 yili Xorazmdagi Ma’muniylar sulolasini tugatgan Mahmud G’aznaviy o’zining qo’mondonlaridan biri Oltintoshni Xorazmga noib qilib tayinlaydi. Oltintoshning o’g’li Horun Maxmud G’aznaviy o’limidan so’ng taxtga o’tirgan Mas’udga bosh egishni istamaydi va sulton Mas’udga qarshi Buxoro atrofida joylashgan Tug’rul, CHag’ri, Ibrohim Inol boshchiligidagi Saljuqiy turkmanlar bilan ittifoqchilikka kelishib oladilar [8, 37].

Ko`pgina tadqiqotchilar buyuk saljuqiylar saltanati qurilishi davrida Xorazmning roli katta bo’lganligi to’g’risida ma’lumotlar beradi. G’aznaviylar saroyida asir sifatida saqlanayotgan ukasining o’ldirilganidan so’ng Horun Xorazm mustaqilligini e’lon qiladi. Xurosonda turkmanlar tomonidan ko’tarilgan qo’zg’olon davrida Xurosonni egallashni rejalashtirgan Xorazm humdori Horun saljuqiy sardorlardan yordam so’raydi.

Saljuqiylar ham o’zlariga mehribonlik ko’rsatgan, maskan, uy-joy, oziq-ovqat bilan ta’minlagan, ko’pgina hadyalar yuborgan Horunga yordam berishga tayyor edilar. Xorazmshohning maqsadi saljuqiylar yordamida Xurosonni qo’lga kiritish edi. Biroq g’aznaviylar bilan iliq aloqada bo’lgan Jand amiri SHohmalikning saljuqiylar ustiga 1034 yildagi kutilmagan bosqini tufayli rejalari amalga oshmaydi. 1035 yili Horun saljuqiylarni bir el bo’lib yashash uchun Xorazmga chaqiradi va bu taklifga asosan To’g’rul va uning ikki qarindoshi Dovut va boshqalar Xorazmning atrofiga chodir tikadilar [7, 202].

Abul Fazl Bayhaqiy bu haqda bunday xabar beradi: “Saljuqiylar ko’p lashkar, chodir, tuya, ot va sonsiz qo’y-qo’zilar bilan va Horunning yordami ila Xorazm hududiga keldilar. Ularga Moshe raboti va SHo’roxon maskanlaridan yaxshi joylar va o’tloqlar berdi hamda ko’p hadya va ehsonlar yubordi. Keyin aytdiki, istirohat qilinglar, chunki men Xurosonga qarab yo’lga chiqyapman va tayyorgarlik ko’rmoqdaman. Men harakatlanganimda sizlar bu yerda manzilgohlaringizni o’rnatib, mening oldimda boringlar” [2, 305].

Saljuqiylar bu yerga sog’-salomat o’rnashdilar. Saljuqiylar va SHohmalik orasida eskidan gina–adovat va qon da’vosi bor edi. SHohmalik josuslari orqali saljuqiylarning Xorazmga kelganini eshitib ular ustiga kuchli qo’shin bilan saharda, bildirmasdan hujum qiladi. Hujum natijasida yetti-sakkiz ming o’g’uz o’ldiriladi va ko’pgina ot, ayol va bolalarni asir oldilar. Qochganlar esa qish bo’lgani sababli Xorazm chegarasidan Jayhunni qoplagan muz ustidan kesib o’tdilar va Namak rabotiga keldilar. Ularning faqatgina otlari bor edi. Oldlarida katta qishloq Namak raboti bor edi. Bu xabar Horunga yetgach Saljuqiylarning oldiga elchilarini jo’natib, ularga yordam berishga va qiyin vaziyatdan chiqishiga va’dalar beradi hamda o’rnashib, boshqa odamlarini ham keltirishlarini so’raydi. Ular bu xabardan taskin topishib, Namak rabotidan Horun tomonidan ajratilgan joyiga qaytib keladilar. Saljuqiylarning cho’lda qolgan boshqa xalqi ham u yerga keladi [2, 305].

Horun Jand amiri SHohmalik bilan vaqtinchalik kelishuvga erishgach, Xuroson ustiga qilinadigan yurishga jiddiyroq kirishdi. Har tarafdan uning yoniga odamlar kela boshladi. Ko’chat (ko’chmachi), CHig’roq (yig’roq) va Janjox (boshqa manbalarda Xifchoh (Qipchoq) deb kelgan)lardan katta lashkar kelib, chorva va qurol bilan Horunga qo’shildilar. Saljuqiylarga yordam berildi va ularning qudrati oshdi. Saljuqiylarga Xorazmning chegarasi Darg’onga o’rnashishlariga, o’zi Xorazmdan besh va olti manzil yurgach ulardan uch–to’rt ming suvoriy oldinda Marv tarafga qarab yo’lga chiqishlariga buyruq berdi va o’zi esa ularning izidan borishini aytdi [2, 305].

Ko’rib turganimizdek Xorazmshoh Horunning saljuqiy hukmdorlarni Xorazm atrofiga joylashtirishdan asosiy maqsadi g’aznaviylar davlatiga bo’ysunmaslik va Xuroson hududlarini egallashda ularning harbiy quvvatlariga tayanish edi. Ahamiyatli tarafi shuki, Xorazmshoh Horunning saljuqiy amirlarga: “Dam olishingiz lozim. Zero, Xurosonni zabt etishni istayman. SHu maqsadda tayyorgarlik ko’ryapman. To harakat boshlag’animizcha bu yerda ot-arava, oziq-ovqat kabilaringizni kuchaytirishingiz va mening ilg’or qismlarim sifatida boring,

ketinglar” deb murojat qilishi bu shunchaki ittifoqchilik emas, balki saljuqiylarning Horunning itoatiga kirganini ko’rsatmoqda. Ammo Horunga qarshi sulton Mas’ud tarafdorlari tomonidan 1135 yil may oyida uyushtirilgan fitna oqibatida barcha rejalar barham topadi. Xorazmdan umidini uzgan saljuqiylar Jayhundan endi o’zlari kechib o’tib, Xurosondagi kurashga kirishadilar [2, 306].

1040 yilda saljuqiylar va g’aznaviylar o’rtasida yuz bergan jangdan keyin g’aznaviylar mag’lubiyatga uchradi, shundan so’ng ularning yerlariga saljuqiylar ega bo’ldi. 1041 yildan Jand amiri SHohmalik Xorazmni bosib oladi va Oltintosh avlodlari Xurosondagi saljuqiylardan panoh topadilar [2, 308].

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Yuqorida qayd qilingan tarixiy ma’lumotlar quyidagi yakuniy xulosaga kelish imkonini beradi. O`g`uzlar bilan munosabatlar, eng avvalo Xorazm aholisining etnik tarkibi boyib va takomillashishiga olib kelgan. Jumladan, IX-XI asrlarda ko’chib kelgan talay qabilalar turgash, to’xsi, qorluq, chigil, yabg’u va o’g’uzlar o’lkaning sharqiy Eron va turk tillarida so’zlashuvchi aholisi tarkibini etnik jihatdan boyitdi. Bu davrda o’g’uz shevasi shakllanadi. Ikkinchidan, Ma’muniylar sulolasining o’g’uzlarning baroniy urug’idan kelib chiqqanligi bahsli masala bo’lib, manbalarda o’z aksini topmagan va demak, haqiqatga to’g’ri kelmaydi. Uchinchidan, Xorazm vohasining IX-XI asrlardagi siyosiy va iqtisodiy tarixida o`g`uzlar shubhasiz juda muhim ro`l o`ynaganlar. To`rtinchidan, o`g`uzlarning musulmonlashuvida ham aynan Xorazm vohasi aholisi katta ro`l o`ynaganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. Абу-л-Фазл Байхаки. История Масуда (1030-1041) / Перевод с перс., вступление и комментарии А. К. Арендса. – М.: Наука, 1969. – 1009 с.

2. Абу-л-Фазл Байхаки. Тарихи Байхаки // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. I. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича, А.Ю. Якубовского. М.-Л.: Наука, 1939. – С.234-309.

3. Абуль-Фарадж. Книга занимательных историй / Пер. с сирийского, послесл. и примеч. А. Белова и Л. Вильскера; Ред. и предисл. Н. В. Пигулевской. – М.; Л.: Гослитиздат. Ленингр. отд-ние, 1961. – 296 с.

4. Аль-Идриси. Нўзхат ал - муштак фи-ихтирак ал-афак // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. I. Арабские и персидские источники.

(VI–XV вв.) / Под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича, А.Ю. Якубовского. М.-Л.: Наука, 1939. – С.220-222.

5. Бартольд В. В. Тюрки: двенадцать лекций по истории тюркских народов Средней Азии. – Москва: Ломоносовъ, 2014. – 232, [1] с.: ил.: 22 см.

6. Буниятов З. М. Государство Хорезмшахов-ануштегинидов, 1097–1231.– М.: Главная редакция восточной литературы издательства «Наука», 1986. – 248 с.

7. Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-та’рих. Полный свод истории /Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г. Булгакова [дополнения к переводу, примечаниям и комментариям, введение и указатели Ш.С. Камолиддина]. – Ташкент; Цюрих: Изд-во АН РУз, 2005. – 595 с.

8. Иброҳим Қафес ўғли. Хоразмшоҳлар давлати тарихи. Туркчадан Назарбек Раҳим таржимаси. –Тошкент: “Наврўз”, 2016. – 316 б.

9. Махмуд Кашкарский. Диван лугат ат – Тюрк // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. I. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича, А.Ю. Якубовского. М.-Л.: Наука, 1939. – С.309-314.

10. Миклухо-Маклай Н.Д. Описание персидских и таджикских рукописей института востоковедения. Вып. 3. – С. 59-66.

11. Сборник материалов, относящихся к истории Золотой Орды, том II. Извлечения из персидских сочинений, собранные В. Г. Тизенгаузеном. – М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1941. – С. 90-99.

12. Толстов С.П. Города гузов (Историко-этнографические этюды) // СЭ., 1947, №3. – С.55-102.

13. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: Изд-во вост.лит., 1964. – 324 с.

O‘ZBEKISTONDA TASHQI MIGRATSIYA OQIMLARI VA ASOSIY YO‘NALISHLAR

Samandarov Samandar,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti tayanch doktoranti
samandarovs001@gmail.com

UO‘K 94(575.1)

Annotatsiya: *Ushbu maqola O‘zbekistondagi tashqi migratsiya oqimlari, uning asosiy yo‘nalishlari, sabablari va oqibatlarini ilmiy nuqtai nazardan tahlil etadi. Tadqiqotda mehnat migratsiyasining geografik taqsimoti, migratsiya siyosatining shakllanishi va uning iqtisodiy, ijtimoiy ta’siri ko‘rib chiqiladi. Xalqaro va mahalliy olimlarning ilmiy asarlari hamda statistik ma’lumotlarga tayanib, maqola O‘zbekistondagi migratsiya jarayonlarini har tomonlama yoritishni maqsad qiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, tashqi mehnat migratsiyasi mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli hissa qo‘shmoqda, shu bilan birga davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar migratsiya oqimlarini tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.*

Kalit so‘zlar: *tashqi migratsiya, mehnat migrantlari, pul o‘tkazmalari, migratsiya siyosati, O‘zbekiston, geografik yo‘nalishlar, xalqaro mehnat bozori.*

Abstract: *This article examines the external migration flows in Uzbekistan, their main directions, causes, and consequences from an academic perspective. The study addresses the geographical distribution of labor migration, the formation of migration policy, and its economic and social impacts. Drawing on the works of international and local scholars as well as statistical data, the article aims to provide a comprehensive analysis of migration processes in Uzbekistan. The findings demonstrate that external labor migration makes a significant contribution to the country’s economy, while state-led reforms play a crucial role in regulating migration flows.*

Keywords: *external migration, labor migrants, remittances, migration policy, Uzbekistan, geographical directions, international labor market.*

KIRISH

Migratsiya jarayonlari zamonaviy jahon iqtisodiyotining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, u turli mamlakatlarda demografik, iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston, markaziy Osiyo mintaqasidagi eng ko‘p aholiga ega davlat sifatida, so‘nggi o‘n yilliklar mobaynida tashqi mehnat migratsiyasining asosiy manba mamlakatiga aylandi. Turli xalqaro tashkilotlar va tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko‘ra, yuz minglab O‘zbekiston fuqarolari yaqin va uzoq xorijdagi mamlakatlarda faoliyat yuritmoqda [1].

O‘zbekistonda tashqi migratsiyaning jadallashuvi 1991-yilda mustaqillik qo‘lga kiritilganidan keyin boshlangan bo‘lsa-da, uning eng faol bosqichi 2000-yillarning boshlariga to‘g‘ri keladi. Iqtisodiy islohotlar, mehnat bozorida raqobatning kuchayishi, davlatlararo kelishuvlar va xalqaro integratsiya jarayonlari O‘zbekiston fuqarolarining xorijdagi ish o‘rinlariga bo‘lgan talabini oshirib bormoqda [2]. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy jihatdan ham chuqur o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi O‘zbekistondagi tashqi migratsiya oqimlarini tizimli ravishda o‘rganish, asosiy migratsiya yo‘nalishlarini aniqlash, migratsiyaning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini baholash, shuningdek, davlat migratsiya siyosatining samaradorligini tahlil qilishdan iborat.

METODOLOGIYA VA TADQIQOT USULLARI

Ushbu tadqiqotda sifatli va miqdoriy tahlil usullarining kombinatsiyasidan foydalanildi. Taqqoslama tahlil, statistik ma’lumotlarni interpretatsiya qilish, hamda mavjud ilmiy adabiyotlarni tanqidiy o‘rganish asosiy metodologik yondashuvlar sifatida qabul qilindi. Ma’lumotlar manbalari sifatida O‘zbekiston Statistika qo‘mitasi hisobotlari, Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) ma’lumotlari, Xalqaro migratsiya tashkiloti (IOM) tadqiqotlari va mahalliy hamda xalqaro olimlarning ilmiy asarlari ishlatildi [3].

Tadqiqot davomida tarixiy-qiyosiy metod orqali O'zbekistondagi migratsiya jarayonlarining dinamikasi o‘rganildi. Geografik tahlil usuli yordamida asosiy migratsiya yo‘nalishlari va ularning o‘zgarishi kuzatildi. Bundan tashqari, xalqaro tajriba asosida O‘zbekiston migratsiya siyosatining samaradorligi baholandi [4].

O‘ZBEKISTONDA TASHQI MIGRATSIYANING TARIXI VA DINAMIKASI

O‘zbekistonda tashqi migratsiyaning tarixi bir necha bosqichga bo‘linadi. Birinchi bosqich (1991–2000) mustaqillik yillarida kuzatilgan dastlabki migratsiya to‘lqinini o‘z ichiga oladi. Bu davrda asosan etnik ruslar, yahudiylar va boshqa millat vakillari tarixiy vatanlariga qaytish yoki uchinchi mamlakatlarga ko‘chish jarayonlari kuzatildi [5]. Iqtisodiy inqiroz va ishsizlikning ortishi O‘zbekiston fuqarolarini xorijdagi ish imkoniyatlarini izlashga undadi.

Ikkinchi bosqich (2000–2010) mehnat migratsiyasining jadallashuvi bilan tavsiflanadi. Bu davrda Rossiya Federatsiyasi va Qozog‘iston O‘zbekiston mehnat migrantlarining asosiy yo‘nalishiga aylandi. Xalqaro mehnat tashkilotining (ILO) ma’lumotlariga ko‘ra, 2005-yilda xorijda faoliyat yuritayotgan O‘zbekiston fuqarolarining soni 1,5 million kishiga yetgan [6]. Bu ko‘rsatkich keyingi yillarda doimiy ravishda o‘sib bordi.

Uchinchi bosqich (2010–2017) migratsiya oqimlarining yanada kengayishi va diversifikatsiyasi bilan ajralib turadi. Bu davrda Janubiy Koreya, Turkiya, BAA va boshqa mamlakatlarga yo‘naltirilgan migratsiya oqimlari sezilarli darajada o‘sdi. Rossiya iqtisodiyotidagi tebranishlar va rublning qadrsizlanishi natijasida ayrim migrantlar yo‘nalishlarini o'zgartirdi [7].

To‘rtinchi bosqich (2017-yildan hozirgi kungacha) O‘zbekistonda amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar bilan mos keladi. Yangi siyosiy yo‘nalish doirasida mehnat migratsiyasini tartibga solish, migrantlarni himoya qilish va pul o‘tkazmalarini samarali foydalanish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar qabul qilindi [8]. Xususan, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi faoliyatining kengayishi va xalqaro kelishuvlar soni ortishi muhim ahamiyat kasb etadi.

TASHQI MIGRATSIYANING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Rossiya Federatsiyasi yo‘nalishi

Rossiya Federatsiyasi O‘zbekiston mehnat migrantlarining eng asosiy qabul qiluvchi mamlakatlaridan biri bo‘lib kelmoqda. IOM tadqiqotlarining ko‘rsatishicha, 2019-yilgi ma’lumotlarga binoan, xorijda faoliyat yuritayotgan o‘zbek migrantlarning taxminan 60-65 foizi Rossiyada joylashgan [9]. Qurilish, xizmat ko‘rsatish va savdo-sotiq sohalari O‘zbekiston fuqarolarining eng ko‘p band bo‘ladigan tarmoqlari hisoblanadi.

Ikki mamlakat o‘rtasidagi geografik yaqinlik, madaniy va til faktori (MDH davlatlari hududida rus tilining keng tarqalganligi), shuningdek, MDH doirasidagi

vizasiz rejim O'zbekiston fuqarolarining Rossiyaga migratsiyasini osonlashtiruvchi omillar sifatida muhim rol o‘ynaydi [10]. Biroq Rossiyada iqtisodiy beqarorlik davrlarida (2014–2015, 2022-yillar) migrantlarning ahvoli murakkablashgan va ularning bir qismi vatanlariga qaytib kelgan.

Qozog‘iston yo‘nalishi

Qozog‘iston O‘zbekiston mehnat migrantlari uchun ikkinchi o‘rindagi muhim yo‘nalishdir. Bu mamlakatga migratsiyani rag‘batlantiradigan asosiy omillar orasida geografik yaqinlik, umumiy tarixiy va madaniy meros, shuningdek, Qozog‘iston iqtisodiyotining nisbatan barqarorligi alohida o‘rin tutadi [11]. Astana va Olmaota shaharlari o‘zbekistonlik migrantlar uchun asosiy ish joylari hisoblanadi.

Umumiy holatda Qozog‘istondagi o‘zbek migrantlari asosan qurilish, qishloq xo‘jaligi va transport sohalarida band bo‘lishadi. Bundan tashqari, savdo va kichik biznes sohasida ham o‘zbek tadbirkorlarining faolligi sezilarli darajada yuqori.

Janubiy Koreya yo‘nalishi

Janubiy Koreya O‘zbekiston fuqarolari uchun nisbatan yangi, ammo jadal o‘sib borayotgan migratsiya yo‘nalishidir. Ikki mamlakat o‘rtasidagi ikki tomonlama shartnomalar va Koreya iqtisodiyotidagi mehnat taqchilligi O‘zbekiston fuqoralariga Koreyada qonuniy ravishda ishlash imkoniyatini yaratmoqda [12]. EPS (Employment Permit System) dasturi orqali har yili 3000 dan ortiq O‘zbekiston fuqarosi Koreyaga mehnat migranti sifatida yo‘naltirilmoqda.

Boshqa davlatlarga ketayotgan o‘zbek migrantlariga qaraganda Janubiy Koreyaga ketayotgan migrantlar orasida yuqori malakali ishchi kuchi va yoshlar ulushi ayniqsa yuqoriligi bilan ajralib turadi. Maosh darajasining Rossiya va Qozog‘istonga nisbatan yuqoriligi Koreya yo‘nalishini yanada jozibali qilmoqda.

Birlashgan Arab Amirliklari va Yaqin Sharq yo‘nalishi

BAA, ayniqsa Dubay va Abu Dabi shaharlari, O‘zbekiston fuqorolari uchun yana bir muhim migratsiya yo‘nalishiga aylanib bormoqda. Qurilish, turizm va xizmat ko‘rsatish sohalari O‘zbekistonlik migrantlarni jalb etayotgan asosiy tarmoqlardir [13]. Qatarda 2022-yil futbol bo‘yicha jahon chempionati munosabati bilan ko‘plab O‘zbekiston fuqarolarini ushbu davlatdagi ish o‘rinlariga jalb etildi.

Yevropa yo‘nalishi

Germaniya, Polsha, Chexiya va boshqa Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga yo‘naltirilgan migratsiya oqimlari ham asta-sekin o‘sib bormoqda. Yevropa mamlakatlarining mehnat bozorida mavjud bo‘lgan taqchillik va nisbatan yuqori ish haqi O‘zbekiston fuqorolarini jalb etayotgan asosiy omillardir [14]. Biroq vizalar va mehnat ruxsatnomalari olishdagi qiyinchiliklar ushbu yo‘nalishni hali ham cheklangan darajada ushlab turibdi.

MIGRATSIYANING IQTISODIY TA'SIRI: PUL O'TKAZMALARI

Migrantlar tomonidan qilinayotgan pul o‘tkazmalari O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun muhim moliyaviy manba hisoblanadi. Dunyo banki ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston YaIMda pul o‘tkazmalarining ulushi sezilarli darajada yuqori bo‘lib, ayrim yillarda 15 foizdan oshib ketgan [15]. Bu ko‘rsatkich O‘zbekistonni pul o‘tkazmalari hajmi bo‘yicha dunyodagi yetakchi mamlakatlar qatoriga kiritadi.

Ratha va boshqalar (2011) tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, pul o‘tkazmalari yuboriladigan oilalarda iste'mol darajasi sezilarli darajada yuqori bo‘ladi va bu oilalar bolalarning ta’limi hamda sog‘liqni saqlashga ko‘proq sarmoya kiritadi [16]. Ushbu holat O‘zbekistondagi insoniy kapitalning rivojlanishiga ijobiy hissa qo‘shmoqda.

Biroq, umumiy jihatdan pul o‘tkazmalariga haddan tashqari bog‘liq bo‘lib qolish iqtisodiy zaiflikni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli O‘zbekiston hukumati pul o‘tkazmalarini mahalliy iqtisodiyotga samarali yo‘naltirish va investitsiyaga aylantirish uchun turli moliyaviy mexanizmlarni joriy etishga harakat qilmoqda.

MIGRATSIYANING IJTIMOIY OQIBATLARI

Tashqi migratsiya O‘zbekiston jamiyatiga ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatadigan bir qancha ijtimoiy oqibatlarni yuzaga keltirmoqda. Ijobiy tomonlari jihatidan, migratsiya orqali O‘zbekiston fuqorolari yangi kasb-hunar ko‘nikmalarini, texnologik bilimlarni va madaniyatlararo muloqot tajribasini egallab qaytishadi. Bu esa mamlakat inson kapitalining rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Massey va boshqalar (1993) ning klassik nazariyasiga ko‘ra, migratsiya tarmoqlari vaqt o‘tishi bilan mustahkamlanib, yangi migrantlar uchun axborot va ijtimoiy yordam manbasiga aylanadi [17]. O‘zbekistonda ham ushbu qonuniyat

kuzatilmoqda: Rossiya yoki Koreyada mavjud bo‘lgan migrantlar tarmoqlari yangi migrantlarga moslashishda yordam bermoqda.

Boshqa tomondan, migratsiyaning salbiy ijtimoiy oqibatlari ham mavjud: oilalarning ajralishi, bolalarning ota-onasiz o‘sishi, ijtimoiy munosabatlardagi o‘zgarishlar kabi muammolar jamiyatimizda ko‘zga ko‘rinadigan darajaga yetib kelib bo‘lgan. Shu bois migratsiya siyosatini ishlab chiqishda ijtimoiy jihatlarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘ZBEKISTON MIGRATSIYA SIYOSATI VA ISLOHOTLAR

O‘zbekiston hukumati so‘nggi yillarda migratsiya siyosatini takomillashtirish borasida bir qancha muhim qadamlar qo‘ydi. 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi (TMMA) vakolatlari kengaytirildi, migrantlarni xorijda huquqiy jihatdan himoya qilish mexanizmlari mustahkamlandi [18].

O‘zbekiston bir qator xorijiy davlatlar bilan ikki tomonlama mehnat migratsiyasi to‘g‘risida shartnomalar imzoladi. Jumladan, Rossiya, Qozog‘iston, Janubiy Koreya, Germaniya, Polsha va boshqa mamlakatlar bilan tuzilgan kelishuvlar O‘zbekiston migrantlarining qonuniy maqomini mustahkamlashga xizmat qilmoqda [19]. Hoshimov (2022) ning ta’kidlashicha, ushbu siyosiy o‘zgarishlar O‘zbekiston tashqi mehnat migratsiyasini yanada tartibli va samarali shaklga keltirmoqda.

Bundan tashqari, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida mehnat migratsiyasini boshqarish, kasbiy o‘qitishni rivojlantirish va qaytib kelgan migrantlarni mahalliy iqtisodiyotga integratsiyalash bo‘yicha aniq maqsad va vazifalar belgilangan [20]. Ushbu strategik yondashuv migratsiya jarayonlarini mamlakatning umumiy rivojlanish maqsadlari bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

XALQARO TAJRIBA VA QIYOSIY TAHLIL

Filippinning mehnat migratsiyasini boshqarish tajribasi O‘zbekiston uchun muhim o‘rnak bo‘lishi mumkin. Filippindagi xorijdagi mehnat bandligi boshqarmasi (POEA) migratsiya jarayonlarini markazlashtirilgan holda boshqarishning samarali modelini namoyish etadi. De Haas (2010) qiyosiy tahlilida ta’kidlaganidek, migratsiyani samarali boshqargan mamlakatlar pul o‘tkazmalarini iqtisodiy rivojlanishning muhim omiliga aylantira olgan.

Hindiston tajribasi ham diqqatga sazovordir. Hindistonning Non-Resident Indian (NRI) siyosati diaspora investitsiyalarini mamlakatga jalb qilish va ularni mahalliy iqtisodiyotga yo‘naltirish mexanizmlari yaratish borasida samarali

model sifatida tan olingan [21]. O‘zbekiston uchun ham diaspora potensialidan foydalanish muhim imkoniyat sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin.

MUAMMOLAR: TASHQI MIGRATSIYA XAVFLARI

Tashqi migratsiya bilan bog‘liq muammolar va xavf-xatarlar ham ilmiy jihatdan o‘rganilishni talab etadi. Inson savdosi (humantrafficking) va noqonuniy migratsiya O‘zbekiston fuqarolari duch keladigan jiddiy muammolardan biri hisoblanadi. Xalqaro mehnat tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston Markaziy Osiyodagi inson savdosidan eng ko‘p zarar ko‘ruvchi mamlakatlar qatorida turadi [22].

“Oltin miyalarning qochishi” (brain drain or golden brain escape) muammosi ham O‘zbekiston uchun dolzarb hisoblanadi. Yuqori malakali mutaxassislarning xorijga ketishi mahalliy iqtisodiyotdagi intellektual kapitalning kamayishiga olib kelishi mumkin [23]. Biroq bu jarayon bir vaqtning o‘zida xalqaro tajriba va bilimlarning O‘zbekistonga oqib kelishi bilan ham kuzatilishi mumkin.

XULOSA

O‘zbekistondagi tashqi migratsiya oqimlari murakkab va ko‘p qirrali jarayonni ifodalaydi. Tahlil natijalariga ko‘ra, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, Janubiy Koreya va Yaqin Sharq mamlakatlari O‘zbekiston mehnat migrantlari uchun asosiy yo‘nalishlar bo‘lib qolmoqda. Pul o‘tkazmalari mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli ijobiy hissa qo‘shayotgan bo‘lsa-da, bu jarayon salbiy ijtimoiy oqibatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

O‘zbekiston hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar — Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining faoliyatini kengaytirish, xalqaro shartnomalar imzolash, migrantlarni qonuniy himoya qilish mexanizmlarini mustahkamlash — migratsiya jarayonlarini yanada samarali boshqarishga zamin yaratmoqda. Kelajakda migratsiya siyosatini takomillashtirish, qaytib kelgan migrantlarni mahalliy iqtisodiyotga integratsiyalash va pul o‘tkazmalarini mahalliy sarmoyaga aylantirish ustivor vazifalar bo‘lib qolyapti.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

[1] International Organization for Migration (IOM). (2020). Migration in Uzbekistan: A Country Profile. Geneva: IOM.

[2] Castles, S., de Haas, H., & Miller, M. J. (2014). The Age of Migration: International Population Movements in the Modern World (5th ed.). New York: Guilford Press.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi. (2022). Demografik ko‘rsatkichlar to‘plami. Toshkent: Stat.uz.

[4] International Labour Organization (ILO). (2021). Labour Migration from Uzbekistan: Social and Economic Development and the Role of Remittances. Geneva: ILO.

[5] Laruelle, M. (2007). Central Asian Labor Migrants in Russia: The “Diasporization” of the Central Asian States? The China and Eurasia Forum Quarterly, 5(3), 101–119.

[6] ILO. (2010). Decent Work and Labour Migration in Central Asia. Moscow: ILO Subregional Office for Eastern Europe and Central Asia.

[7] Mansoor, A., & Quillin, B. (Eds.). (2006). Migration and Remittances: Eastern Europe and the Former Soviet Union. Washington, D.C.: World Bank.

[8] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. Toshkent.

[9] IOM. (2019). Mapping of Migration Flows from Uzbekistan to Russia: Regional Overview. Tashkent: IOM Uzbekistan.

[10] Heleniak, T. (2004). Migration Dilemmas Haunt Post-Soviet Russia. Migration Policy Institute. Washington, D.C.

[11] Sinnott, P. (2004). Population Dynamics of Post-Soviet Central Asia. Central Asian Survey, 23(2), 141–154.

[12] Korea Immigration Service. (2022). Statistics on Foreign Workers in Korea. Seoul: Ministry of Justice of Republic of Korea.

[13] Kapiszewski, A. (2006). Arab Versus Asian Migrant Workers in the GCC Countries. United Nations Expert Group Meeting on International Migration and Development in the Arab Region. Beirut.

[14] Düvell, F. (2006). Illegal Immigration in Europe: Beyond Control? Basingstoke: Palgrave Macmillan.

[15] World Bank. (2023). Migration and Development Brief 39: Remittances Brave Global Headwinds. Washington, D.C.: World Bank Group.

[16] Ratha, D., Mohapatra, S., & Scheja, E. (2011). Impact of Migration on Economic and Social Development: A Review of Evidence and Emerging Issues. World Bank Policy Research Working Paper 5558.

[17] Massey, D. S., Arango, J., Hugo, G., Kouaouci, A., Pellegrino, A., & Taylor, J. E. (1993). Theories of International Migration: A Review and Appraisal. Population and Development Review, 19(3), 431–466.

[18] O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi mehnat migratsiyasi to‘g‘risida”gi Qonuni. (2012, yangilangan 2021). Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari axborot tizimi.

[19] Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi (TMMA). (2023). Yillik hisobot. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi.

[20] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” Strategiyasi. (2023). Toshkent.

[21] Khadria, B. (2009). Adversary Analysis and the Quest for Global Development: Optimizing the Dynamic Outcomes of International Migration. Social Analysis, 53(3), 106–119.

[22] ILO & IOM. (2018). Combating Trafficking in Persons in Central Asia. Geneva: ILO.

[23] Docquier, F., & Rapoport, H. (2012). Globalization, Brain Drain, and Development. Journal of Economic Literature, 50(3), 681–730.

TADBIRKORLIKDA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMI (O‘zbekiston misolida)

Sardorbek Jamoliddinovich MIRZAXALOV,
I’soqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti dotsenti

UO‘K 94(575.1)

Annotatsiya:

Mazkur maqolada O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyati uchun kadrlar tayyorlash tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Unda dastlabki yillarda amalga oshirilgan islohotlar, kasb-hunar ta’limi tizimidagi muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy islohotlar, xalqaro tajriba va ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarning ahamiyati ochib beriladi.

Аннотация:

Данной статье анализируются этапы формирования и развития системы подготовки кадров для предпринимательской деятельности в Узбекистане. Освещаются реформы, осуществлённые в первые годы независимости, проблемы системы профессионального образования и пути их решения. Также раскрывается значение современных реформ, международного опыта и проектов, направленных на развитие женского предпринимательства.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, aholining kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etilishi orqali bandlikni ta’minlash, shuningdek, ushbu sohani rivojlantirish bilan bog‘liq vazifalarni chuqur anglash va amaliyotdagi muammolarni samarali hal etish maqsadida soha uchun kadrlar tayyorlash strategiyasini ishlab chiqish zarurati yuzaga keldi. Bundan tashqari, mustaqillikning dastlabki yillarida ko‘plab yoshlar va ayollarning ishsizligi ularni tadbirkorlikka jalb etishning eng muhim yo‘li sifatida ularni o‘qitish, kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirish va ushbu sohada o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashishni dolzarb vazifaga aylantirdi.

Shu maqsadda 1993-yildan boshlab respublika hududidagi hunar-texnika bilim yurtlari hamda Xalq ta’limi boshqarmasi bilan hamkorlikda “Band

bo‘lmagan aholini kasbga tayyorlash, qayta o‘qitish va yoshlarni milliy hunarmandchilikka o‘rgatishni muvofiqlashtiruvchi markaz” tashkil etildi.

Mazkur markaz faoliyati doirasida 1993-yilda Farg‘ona viloyati bo‘yicha o‘tkazilgan tahliliy hisobotga ko‘ra, hududda aholining tabiiy o‘sish sur’ati o‘rtacha 2,5–2,6 foizni tashkil etgan bo‘lib, mehnat resurslari soni 1106,3 ming kishiga yetgan. Shu bilan birga, maktab bitiruvchilari va muddatli harbiy xizmatdan qaytgan yoshlar hisobiga 32 600 nafar ishsiz yosh mehnat bozori tizimida ro‘yxatga olingan.

Mazkur ko‘rsatkichlar o‘sha davrda yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish, ularning bandligini ta’minlash hamda tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari naqadar dolzarb bo‘lganini yaqqol namoyon etadi[1].

Soha bo‘yicha islohotlar izchil davom ettirilib, yoshlarni tadbirkorlik faoliyatining turli yo‘nalishlariga jalb etishga xizmat qiladigan ta’lim tizimini shakllantirish hamda uni xalqaro standartlarga moslashtirishni nazarda tutuvchi qarorlar qabul qilindi[2].

Mazkur maqsadlar ijrosini ta’minlash doirasida respublikaning barcha hududlarida kasb-hunar kollejlari tashkil etildi. Bu esa malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yoshlarning kasbiy bilim hamda ko‘nikmalarini oshirishga xizmat qildi. 1995-yilning o‘zida viloyat va tumanlarda 160 ta yangi turdagi kollejlar, maxsus ixtisoslashtirilgan litseylar ochildi[3].

Kollejlarda kadrlarni hududlar ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini hisobga olmagan holda tayyorlashi bandlik bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqardi. Ko‘p hollarda bitiruvchilar hisobot uchungina, xususiy korxonalarga 3-4 oydan keyin bo‘shatib yuborish shartlari bilan ishga joylashtirildi. Masalan, 2016-yilgi hisobotlarga ko‘ra 477743 nafar bitiruvchi yigit-qizlar o‘rta-maxsus ta’lim maskanlarini bitirib chiqqan va ularning 438503 nafari yoki 91,8 foizi ish bilan ta’minlangani to‘g‘risida ma’lumot berilgan. Ma’lum vaqt o‘tgandan keyin ishga joylashganlarning 90 foizga yaqini o‘z ish joylarida ishlamayotgani ma’lum bo‘lgan[4].

Kadrlar tayyorlash tizidagi mummolarni yechish va jahon tajribasining ilog‘or usullarini qo‘llash maqsadida, 2018-yildan boshlab kollejlar faoliyatini tubdan isloh qilishga kirishildi. Ushbu maqsadda 2018-yil 25-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5313 Farmoni e’lon qilindi. Farmon tadbirkorlik sohasi, shu jumladan, kichik

biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblar bo‘yicha kadrlarni maqsadli tayyorlashni nazarda tutadi. Farmon ijrosini ta’minlash maqsadida, ko‘p tarmoqli kasb-hunar kollejlari o‘rnida, kasb-hunar maktablari qayta tashkil etildi. Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlarida 2020/2021 o‘quv yilidan boshlab, jami 93 ta shunday ta’lim maskanlari tinglovchilarni qabul qila boshladi[5].

Respublikada kasb-hunar maktablarini tadbirkorlik sohasidagi kadrlar tayyorlash tizimini yangicha usulda yondashilgani, jahon tajribasi asosida tashkil etilganini e’tirof etish joiz. Qolaversa, shunga o‘xshash kurslarni doimiy ravishda takomillashtirib borish maqsadga muvofiq. Masalan, Yaponiyada bu jarayon juda yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Yaponiya tadbirkorlari kichik va o‘rta biznesda ishlaydigan kadrlarni o‘qitish va qayta tayyorlashga katta e’tibor berishadi. Rivojlangan G‘arb mamlakatlarida ham vaziyat shunday. Kadrlarni qayta o‘qitish va malakasini oshirish zarurati jahon iqtisodiyotining globallashuvi tufayli paydo bo‘ldi. XXI asrda ilg‘or texnologiyalar jadal rivojlanmoqda. Raqobatbardosh mahsulotlarni tashqi bozorga yo‘naltirish va ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun ma’lum bir mamlakatning tashqi bozorlari, raqobatchilari, shartlari va qonunchilik bazasi to‘g‘risida tezkor va aniq ma’lumotlarga ega bo‘lish zarur. Bu o‘z navbatida, ishbilarmon kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish zarurligini keltirib chiqaradi[6].

Respublika biznes maktabi ta’lim-tarbiya jarayonlarini aniq yo‘lga qo‘yishdan tashqari, xorijiy hamkor bilan birga, har ikki tomon uchun ham foydali bo‘lgan xalqaro miqyosdagi anjumanlarda, seminarlarda faol ishtirok etib, muhim dasturlarni tatbiq etdi. Xususan, Gollandiyaning “MSR”, Daniyaning “Matador”, Vengriyaning “TEMPUS”, “TESKO”, Germaniyaning “GTS” va BMTning “YUNIDO” dasturlari 1999-2000 yillarda amalga oshirilgan bo‘lsa, 2023-2026 yillarga mo‘ljallangan “Ayollarni tadbirkorlikka o‘qitish” mavzusida Yevropa ta’limni va madaniyatni rivojlantirish agentligi tomonidan “EMPOWER” loyhasi e’lon qilingan bo‘lib, loyiha O‘zbekistonning 4 ta OTMsi va Yevropani 3 OTMisi bilan hamkorlikda bajarilmoqda. Ushbu loyiha O‘zbekiston hududida gender tengligini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi ayol fuqarolarning tadbirkorlik ko‘nikmalarini oshirishdan iborat. Dastlabki bosqichda ayollar o‘z yurtdoshlari bo‘lgan muvaffaqiyatli tadbirkor ayollarning hikoyalari orqali ruhlantiriladi. Ular O‘zbekistondagi olti nafar ayol tadbirkor bilan uchrashib, ularning muvaffaqiyat yo‘li bilan yaqindan tanishadilar.

Qiziqish bildirgan ayollar saralab olinadi va ularga tadbirkorlikning asosiy ko‘nikmalari o‘rgatiladi. Ushbu bilimlar ularning biznes sohasidagi tushunchalarini kengaytirib, mustaqil hayot sari ilk qadam bo‘lib xizmat qiladi.

Loyiha sinov tariqasida O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida amalga oshiriladi, chunki bu yerda talabalarning 80 foizdan ortig‘ini qizlar tashkil etadi. Bu esa ayollarga turli sohalarda o‘z imkoniyatlarini sinab ko‘rish hamda gender stereotiplari ta’siridagi kasblarda qolib ketishining oldini olishga yordam beradi.

Ta’lim jarayoni onlayn shaklda tashkil etilib, unda tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratiladi[7].

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda mustaqillikdan so‘ng tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va aholi bandligini ta’minlash yo‘lida kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish va takomillashtirish ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Dastlabki bosqichda tashkil etilgan muvofiqlashtiruvchi markazlar va kasb-hunar ta’limi muassasalari orqali aholini, ayniqsa yoshlar va ayollarni kasb-hunarga yo‘naltirishga alohida e’tibor qaratildi.

Shu bilan birga, amaliyotda yuzaga kelgan muammolar, xususan, kadrlar tayyorlash tizimining mehnat bozori talablariga to‘liq mos kelmasligi, bitiruvchilarning barqaror bandligini ta’minlashdagi kamchiliklar tizimni yanada isloh qilish zaruratini yuzaga keltirdi. 2018-yildan boshlab amalga oshirilgan tub islohotlar esa kasb-hunar ta’limini zamonaviy talablar asosida qayta tashkil etish, mehnat bozori ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlash hamda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratildi.

Xorijiy tajriba va xalqaro hamkorlik asosida amalga oshirilayotgan dasturlar, xususan, ayollarni tadbirkorlikka jalb etishga qaratilgan loyihalar mazkur yo‘nalishda yangi bosqichni boshlab berdi. Bu esa nafaqat gender tengligini ta’minlash, balki iqtisodiy faollikni oshirish va jamiyatda tadbirkorlik muhitini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, kadrlar tayyorlash tizimini doimiy ravishda takomillashtirib borish, uni xalqaro tajriba va mehnat bozori talablari bilan uyg‘unlashtirish O‘zbekistonda barqaror iqtisodiy rivojlanish va samarali tadbirkorlik faoliyatini ta’minlashning muhim omillaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyorlar:

1) FVDA, 1220-fond, 1-ro’yxat, 88-ish, 90-91 varaqлар;

2) 1995-yil 29-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bozor islohotlari talablarini hisobga olgan holda qishloq yoshlarining kasb-

hunar ta’limining yo‘nalishini o‘zgartirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 296-son qarori.

3) Ўзбекистоннинг янги тарихи. Мустақил Ўзбекистон тарихи. – Тошкент.: Шарқ, 2000. – Б.422.

4) Болтабоева М. М. Ўзбекистон Республикаси хотин-қизларининг кичик бизнес ва тадбиркорликни ривожлантиршдаги иштироки (1991-2019 йиллар): Т.ф.ф.д. ... дисс. – Андижон, 2019. – Б. 93

5) O‘zbekiston kollejlarida barcha xohlovchilar o’qishi mumkin, darslarni adragoglar olib boradi. (Elektron resurs), Kirish rejimi: https://sputniknews-uz.com

6) O‘z MA, M-37-fond, ro‘yxat-1, 7597-ish, 41-varaq.

7) https://kiut.uz/uz/institute/erasmus/projects/2/

XORAZMDAGI JADIDCHILIK HARAKATI A'ZOSINING AYANCHLI TAQDIRI

UO'K 94(575.1)



Iminov Jasurbek,
AndDU
tuzilmasidagi
Qatag'on qurbonlari
xotirasi muzeyi katta
ilmiy xodimi
ORCID: 0009-0005-
7477-7327

Annotatsiya

Mazkur maqolada XX asr boshlarida Xorazmda faoliyat yuritgan jadidchilik harakati vakillaridan biri Xusain Matrizaev Zargarning hayoti, ijtimoiy-siyosiy faoliyati hamda sovet qatag'on siyosati qurboniga aylanish jarayoni arxiv hujjatlari asosida tadqiq etilgan. Tadqiqotda uning "Yosh xivaliklar" harakatidagi ishtiroki, "Milliy Ittihod" tashkiloti bilan aloqalari, Xorazm Xalq Sho'ro Jumhuriyati davridagi faoliyati hamda 1937–1938-yillarda NKVD organlari tomonidan olib borilgan tergov jarayonlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *Xusain Matrizaev, Jadidchilik, Yosh xivaliklar, Milliy Ittihod, Xorazm, NKVD, siyosiy qatag'on, arxiv hujjatlari, reabilitatsiya, Katta terror.*

Аннотация

В статье на основе архивно-следственных документов исследуются жизнь, общественно-политическая деятельность и трагическая судьба одного из представителей джадидского движения Хорезма — Хусаина Матризаева Заргара. Особое внимание уделено его участию в движении «Младохивинцы», связям с организацией «Миллий Иттиход», деятельности в период Хорезмской Народной Советской Республики, а также следственному процессу, проведённому органами НКВД в 1937–1938 годах.

Ключевые слова: *Хусаин Матризаев, джадидизм, младохивинцы, Миллий Иттиход, Хорезм, НКВД, политические репрессии, архивные документы, реабилитация, Большой террор.*

Annotation

This article examines the life, socio-political activities, and tragic fate of Khusain Matrizaev Zargar,

one of the representatives of the Jadid movement in Khorezm, based on archival investigation records. Particular attention is paid to his participation in the Young Khivans movement, his connections with the Milli Ittihod organization, his activities during the Khorezm People's Soviet Republic, and the investigation conducted by the NKVD during the Great Terror of 1937–1938.

Key words: *Khusain Matrizaev, Jadidism, Young Khivans, Milli Ittihod, Khorezm, NKVD, political repression, archival documents, rehabilitation, Great Terror.*

KIRISH. XX asr boshlarida Turkiston, jumladan Xorazm hududida yuzaga kelgan jadidchilik harakati milliy uyg‘onish, ma’rifatparvarlik va davlat boshqaruvini isloh qilish g‘oyalariga asoslangan ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida O‘zbekiston tarixida muhim o‘rin egallaydi. Xorazmda shakllangan "Yosh xivaliklar" harakati mamlakatda konstitutsiyaviy boshqaruvni joriy etish, zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirish hamda jamiyatni modernizatsiya qilishga qaratilgan dasturlarni ilgari surdi. Biroq sovet hokimiyati mustahkamlangach, mazkur harakat vakillari "aksilinqilobchi", "millatchi" yoki "xorijiy razvedka agentlari" sifatida ayblanib, ommaviy siyosiy qatag‘onlarga duchor etildilar. Mustaqillik yillarida jadidlar tarixini qayta o‘rganish, ularning milliy davlatchilik va ma’rifat taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini xolis baholash borasida salmoqli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyati jadidchilik harakatining umumiy tarixiga, uning siyosiy faoliyati va yetakchilariga bag‘ishlangan bo‘lib, qatag‘on qurboniga aylangan ayrim shaxslarning hayoti va tergov hujjatlari asosidagi faoliyati yetarlicha o‘rganilmagan. Xususan, "Yosh xivaliklar" harakatining faol ishtirokchilaridan biri bo‘lgan Xusain Matrizayev Zargarning siyosiy faoliyati, unga nisbatan olib borilgan NKVD tergovi hamda qatag‘on mexanizmlarining amaliy ko‘rinishlari ilmiy muomalaga deyarli kiritilmagan.

NATIJA VA MUHOKAMA. Matrizayev Xusain Zargar XX asr boshlarida Xorazmda kechgan siyosiy, ma’rifiy va ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etgan tarixiy shaxslardan biri hisoblanadi. U 1857-yilda Xiva shahrida hunarmand oilasida tavallud topgan. Dastlab eski usuldagi maktabda, keyin Xiva madrasasida ta’lim olgan. Keyinchalik Xiva xoni Said Isfandiyorxon saroyida kotib sifatida

xizmat qilgani uning savodli, siyosiy muhitdan xabardor va jamoat hayotida ma’lum mavqega ega shaxs bo‘lganini ko‘rsatadi.

Ma’lumki, XX asr boshlariga kelib Xorazmda jadidchilik harakati keng tarqala boshlagan. Bu harakatning asosiy maqsadi ma’rifat, yangi usuldagi ta’lim, ijtimoiy adolat va boshqaruv tizimini isloh qilish g‘oyalari asosida jamiyatni yangilashdan iborat edi. Polvonniyoz Yusupov boshchiligidagi yosh ziyolilar keyinchalik “Yosh xivaliklar” nomi bilan siyosiy maydonga chiqqan [1]. Xusain Matrizayev ham mazkur harakatga qo‘shilib, uning faol ishtirokchilaridan biriga aylangan. X. Matrizayevning “Yosh xivaliklar” harakatiga qo‘shilishi tasodif emas edi. U Xiva xonligidagi mavjud ijtimoiy-siyosiy tartiblarni yaqindan bilgan, saroy muhitida xizmat qilgan va xonlik boshqaruvidagi muammolarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan edi. Shu sababli u ma’rifatparvarlik va islohotchilik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlagan.



XIVA XONI ASFANDIYORXON (1871-1918)

1920 yili Xorazmda xonlik tuzumi ag‘darilib, Xorazm xalq sho‘ro jumhuriyati e’lon qilingach, X. Matrizayev hukumat ishida faol ishtirok etgan. Tergov materiallariga ko‘ra X. Matrizayev sovet hokimiyatining Xorazmda yuritayotgan mustamlakachilik siyosatini anglab yetgach, yashirin ravishda taraqqiyparvarlar Polvonniyoz Yusupov, Davlat Rizaev, Jumaniyoz Allaqulov bilan birgalikda “Milliy Ittihod” tashkilotida faoliyat yurita boshlagan. Masalan, 1923 yili Xorazmga mashxur taraqqiyparvar Axmad Zakiy Validiy tashrif buyurganda, sovet hokimiyatining maxsus organlari uni qidirishga tushganlar. Shunda X. Matrizayev uni 5 kun davomida uyida yashirishga



AXMAD ZAKI VALIDIY (O‘NGDA) VA ABDUQODIR INON (CHAPDA). XORAZM,

muvaffaq bo‘lgan, so‘ngra Buxoroga, Buxoro Xalq Sho‘ro Jumhuriyati rahbari Fayzulla Xo‘jaev huzuriga kuzatib qo‘ygan.

1924 yil oxirida milliy hududiy chegaralanish o‘tkazilib, O‘zSSR tashkil topgach, X. Matrizayev dastlab zargarlik va savdogarlik bilan shug‘ullangan, arxiv ma’lumotlariga ko‘ra xattoki masjid qurishga ham muvaffaq bo‘lgan.

Ma’lumki, 1937-1938-yillardagi “Katta terror” davrida mustabid sovet hokimiyati tomonidan siyosiy qatag‘onlar avj olgan edi. Bu jarayon O‘zbekiston, xususan, Xorazm hududida ham keng ko‘lamda amalga oshirilib, jadidchilik harakati va milliy uyg‘onish g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlagan ziyolilar, sobiq va amaldagi davlat arboblari, diniy ulamolar hamda sobiq amaldorlar «xalq dushmani», «aksilinqilobchi», «millatchi» yoki «xorijiy razvedka agentlari» sifatida ayblanib, ommaviy ravishda ta’qib qilina boshlagan. Ichki ishlar xalq komissarligi (NKVD) organlari tomonidan olib borilgan tergov ishlarida ayblovlar ko‘p hollarda siyosiy buyurtma asosida shakllantirilib, gumondorlarning haqiqiy faoliyati emas, balki ularning ijtimoiy kelib chiqishi, jadidchilik harakatidagi ishtiroki yoki milliy mustaqillik g‘oyalariga moyilligi asosiy «ayb» sifatida baholangan [2].



DAVLAT RIZAYEV (1903-1937)

1937 yil 30 noyabrda Xusain Matrizayevga nisbatan IIXK organlari tomonidan jinoyat ishi qo‘zg‘atilib, ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Tergov materiallariga ko‘ra, u “Milliy ittihod” aksilinqilobiy millatchi tashkilot» a’zosi sifatida sovet hokimiyatiga qarshi faoliyat yuritganlikda, Eron foydasiga razvedka va josuslik ishlarini amalga oshirganlikda ayblangan. Mazkur qaror asosida Xusain Matrizayev o‘sha kuniyoq hibsga olingan, yashab turgan xonadoni tintuv qilingan hamda uning o‘zi IIXKning Xivadagi ichki qamoqxonasiga joylashtirilgan.

1937 yil 17–20 dekabr kunlari Xusain Rizaev NKVD tergov organlari tomonidan so‘roq qilingan. So‘roq bayonnomasida quyidagi savol-javoblar aks etgan:

Savol: Tergov tomonidan siz aksilsovet millatchi tashkilotning faol a’zosi ekanligingiz va hibsga olingunga qadar sovet hokimiyatiga qarshi faol kurash olib borganingiz aniqlandi. Buni tan olasizmi?

Javob: Yo‘q, tan olmayman. Aksilsovet millatchi tashkilotning a’zosi hech qachon bo‘lmaganman, shuning uchun sovet hokimiyatiga qarshi hech qachon kurash olib bormaganman.

Savol: Tergov tomonidan siz F. Xo‘jaev va Davlat Rizaevning topshirig‘i bilan ingliz razvedkasi foydasiga razvedka-josuslik ishlarini olib borganingiz aniqlandi. Bu haqda ko‘rsatma bering.

Javob: Men tasdiqlaymanki, F. Xo‘jaev va Davlat Rizaevning topshirig‘i bilan ingliz razvedkasi foydasiga razvedka-josuslik ishlarini hech qachon olib bormaganman.

Savol: Tergov tomonidan siz o‘g‘lingiz Abdulla Zargar Xusainov orqali F. Xo‘jaev va Davlat Rizaevdan josuslik materiallarini olib, ularni noqonuniy ravishda chegaradan o‘tib, Erondagi ingliz agenti Yusuf Devonovga yetkazganingiz aniqlandi. Buni tan olasizmi?

Javob: Yo‘q, tan olmayman. Men o‘z o‘g‘lim Abdulla Zargardan hech qanday josuslik ma’lumotlari va materiallarini olmaganman, shuningdek, ularni ingliz agentiga taqdim etmaganman, chunki men hech qachon noqonuniy ravishda chegarani kesib o‘tmaganman.

Savol: Siz 1935 yilda qanday maqsad bilan Toshkentga kelib, 1-Qoratom mahallasi, 47-uydagi Bobojon Otajonovning xonadonida to‘xtagansiz va u yerda Davlat Rizaev hamda Jumaniyoz Olloqulov bilan uchrashgansiz?

Javob: Men Toshkentga 1935 yil yozda Toshkentda yashab turgan o‘g‘lim Matirizani ko‘rish maqsadida kelganman. Bir kuni biznikiga Bobojon Otajanov musiqachi Qurbon Ismoilov bilan mehmonga kelgan. Ular biznikida taxminan bir soat bo‘liganlar. Suhbatlar oddiy oilaviy xarakterda edi. Toshkentga kelganimda men Bobojon Otajonovning xonadonida bo‘lmaganman, Davlat Rizaev va Jumaniyoz Olloqulov bilan uchrashmaganman.

Savol: Tergov tomonidan siz 1937 yilda Eronga, ingliz agenti Yusuf Divanovga yuborilishi lozim bo‘lgan josuslik ma’lumotlarini olish uchun maxsus ravishda Toshkentga kelganingiz aniqlandi. Buni tan olasizmi?

Javob: Yo‘q, tan olmayman. 1937 yilda men Eronga, ingliz agenti Yusuf Devonovga yuborilishi lozim bo‘lgan josuslik ma’lumotlarini olish uchun Toshkentga kelmaganman. Umuman, 1936–1937 yillarda Toshkentda bo‘lmaganman.

1937 yil 15 dekabr kuni Toshkent shahrida Xusain Rizaev bilan bog‘liq navbatdagi so‘roq bayonnomasi rasmiylashtirilgan. Ushbu so‘roqda tergov

organlari uni O‘zbekistondagi aksilinqilobiy milliy tashkilotning faol a’zosi sifatida ayblab, uning jadidchilik, “Yosh xivaliklar” va “Milliy Ittihod” harakatlari bilan aloqasi yuzasidan savollar bergan.

Savol: Tergov tomonidan siz O‘zbekistondagi aksilinqilobiy milliy tashkilotning faol a’zolaridan biri ekanligingiz aniqlandi. Buni tan olasizmi?

Javob: Men keksa odamman, inqilobgacha butun vaqt Xiva xonligi amaldorlari va oqsoqollari doirasida ishlaganman hamda jadidchilik mafkurasi ruhida tarbiya ishlari bilan shug‘ullanganman. Inqilob sodir bo‘lganidan keyin men mahalliy aksilinqilobiy “Yosh xivaliklar” harakatiga qo‘shildim va keyinchalik “Milliy Ittihod”ga kirdim. Aksilsovet harakatiga taxminan 1920 yilda qo‘shilganman va shu vaqtdan boshlab “Milliy Ittihod” faoliyatida ishtirok eta boshladim.

Savol: Sizning aksilinqilobiy millatchilik ishlaringiz aniq nimada ifodalangan?

Javob: Dastlab men xon oqsoqollaridan biri sifatida xonlikni himoya qilishni tashkil etishda ishtirok etganman. Ochiq ravishda xon Asfandiyorxonni himoya qilganman. Inqilobdan keyin men ittihodchi sifatida ishtirok etdim. 1923 yilda Xorazmga A.Z. Validiy qochib kelganida, men uni yashirdim va Buxoroga yetib borishiga yordam berdim. Junaidxon qo‘zg‘olonidan keyin hech qanday aksilinqilobiy ish olib bormaganman.

Savol: Tergovga ma’lumki, siz afg‘on razvedkasining agenti hisoblanasiz va Davlat Rizaev hamda Eshonqulov shaxsidagi rahbar aksilinqilobiy milliy guruh topshirig‘i bilan bir necha marta Eronga borgansiz.

Javob: Men Davlat Rizaevni taniyman, ammo Yusuf Devanov bilan hech qachon tanish bo‘lmaganman, ulardan hech qanday ma’lumot olmaganman. Men Eronda bor-yo‘g‘i bir marta bo‘lganman. Meni hech kim Eronga yubormagan.

1938 yil yanvar oyida O‘zbekiston SSR NKVD Davlat xavfsizligi boshqarmasi tomonidan Xusain Matrizayevga nisbatan 5294-sonli jinoyat ishi bo‘yicha ayblov xulosasi rasmiylashtirildi. Mazkur hujjatda u Xorazmdagi «Milliy Ittihod» aksilinqilobiy milliy tashkilotining faol a’zosi sifatida tavsiflanib, uning Xorazm filiali tarkibida tashkilot markazining ko‘rsatmalari asosida sovet hokimiyatiga qarshi faoliyat yuritganligi qayd etilgan.

Ayblov xulosasida Xusain Matrizayev Junaidxon qo‘zg‘olonini tayyorlashda ishtirok etgan, tashkilot topshirig‘i bilan o‘z xonadonida Zaki Validiyni yashirganligi va keyinchalik uni Buxoroga o‘tishda qo‘llab-quvvatlaganligi ta’kidlangan. Shuningdek, tergov organlari uni Davlat Rizaev,

Jumaniyoz Allaqulov hamda Fayzulla Xo‘jaev bilan yaqin aloqada bo‘lganlikda ayblab, ularning topshirig‘iga ko‘ra o‘z o‘g‘li Abdulla Zargar Xusainov orqali olingan maxfiy ma’lumotlarni Erondagi ingliz razvedkasi agenti sifatida ko‘rsatilgan Yusuf Devonovga yetkazib turgan, deb ko‘rsatgan.

Tergovchilar mazkur harakatlarni O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 60, 62 va 67-moddalarida nazarda tutilgan davlatga qarshi jinoyatlar tarkibiga kiritishgan. Ayblov xulosasida Xusain Matrizayev o‘z aybini qisman tan olganligi qayd etilgan bo‘lsa-da, uning «aybi» asosan Sa’dulla Tursunxo‘jaev, Nazir Sholikorov, Madamin Ischanov va Bobojon Otajanov kabi mazkur ish bo‘yicha javobgarlikka tortilgan shaxslarning ko‘rsatmalari bilan asoslangan.

Shu asosda tergov organi 5294-sonli jinoyat ishini O‘zbekiston SSR IIXK Davlat xavfsizligi boshqarmasining suddan tashqari vakolatga ega bo‘lgan «uchlik» (troyka)siga yuborish to‘g‘risida qaror qabul qilgan. Mazkur jinoiy ish bo‘yicha O‘zbekiston SSR NKVD “uchligi”ning 1938 yil 4 fevraldagi qaroriga asosan 80 yoshli Xusain Matrizayev Zargar otuv jazosiga hukm qilingan. Mazkur hukm 1938 yil 2 martda ijro etilgan [3]

Oradan 22 yil o‘tgach butun sobiq Sovet ittifoqida I.Stalin davrida qatag‘on qilingan shaxslarni oqlash jarayoni amalga oshirilgan. Mazkur jarayonda Matrizayev Xusain Zargar ham 1960 yil 4 iyunda O‘zSSR Oliy Sudining qarori bilan oqlangan.

XULOSA. Xusain Matrizayev Zargarning hayot yo‘li Xorazm jadidchiligi tarixidagi murakkab va fojeali sahifalardan biridir. U o‘z davrining savodli, siyosiy jarayonlardan xabardor va jamiyat taqdiriga befarq bo‘lmagan ziyolilaridan edi. Xiva xonligi davridagi xizmat faoliyati, “Yosh xivaliklar” harakatiga qo‘shilishi, keyinchalik “Milliy Ittihod” bilan bog‘liq jarayonlarda tilga olinishi uning Xorazmdagi islohotchilik va milliy uyg‘onish muhitidan chetda turmaganini ko‘rsatadi. Tadqiqot davomida ko‘rinadiki, Xusain Matrizayevga nisbatan qo‘yilgan ayblovlar ko‘proq siyosiy xarakterga ega bo‘lgan. Unga “aksilinqilobchi”, “millatchi”, “josus” kabi og‘ir ayblovlar qo‘yilgan bo‘lsa-da, tergov materiallarida bu ayblovlarni ishonchli dalillar bilan tasdiqlovchi asoslar yetarli emas. Aksincha, so‘roq bayonnomalarida uning ko‘plab ayblovlarni rad etgani, ayblov xulosasida esa asosan boshqa shaxslarning ko‘rsatmalariga tayanilgani ko‘zga tashlanadi.

Xusain Matrizayevning 80 yoshida otuv jazosiga hukm qilinishi sovet totalitar tuzumining inson taqdiriga naqadar shafqatsiz munosabatda bo‘lganini

yaqqol ko‘rsatadi. Uning jadidchilik harakati bilan bog‘liq faoliyati, ma’rifatparvarlik qarashlari va milliy taraqqiyot yo‘lidagi intilishlari keyinchalik unga qarshi ayblov vositasiga aylantirilgan. Bu holat nafaqat bir insonning, balki butun bir avlod ziyolilarining fojiasini aks ettiradi. 1960-yilda Xusain Matrizayevning oqlanishi unga qo‘yilgan ayblovlarning asossiz bo‘lganini tasdiqlaydi. Biroq bu oqlov uning hayotini qaytarib bera olmadi. Shunday bo‘lsa-da, bugungi kunda uning nomini tiklash, faoliyatini ilmiy asosda o‘rganish va tarixiy xotirada munosib o‘rin berish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, Xusain Matrizayev Zargar taqdiri orqali Xorazmdagi jadidchilik harakati vakillarining sovet qatag‘on siyosati sharoitida qanday og‘ir sinovlarga duch kelgani yaqqol namoyon bo‘ladi. Uning hayoti va fojiali qismati milliy uyg‘onish, adolat va tarixiy xotira masalalarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. P. Xojiyusupov, "“Yosh xivaliklar harakati: quvonchlar iztiroblar, fojealar”," 2006. [Online]. Available: ziyouz.com.

2. Shamsutdinov R., O'zbekistonda sovetlarning qatag'on siyosati va uning oqibatlari, Toshkent: Sharq, 2012. –B.6.

3. Shamsutdinov. R., Qatag'on qurbonlari (5-kitob), Toshkent: Sharq, 2009. –B.17.

4. Shamsutdinov R., Maxkamov A., Akbarova N. O‘rta Osiyoda jadidchilik harakati tarixidan. –Toshkent: Akademnashr, 2025. –B.276.

MUNCHOQLITEPA YODGORLIGINING QURILISH TEXNIKASI XUSUSIDA (Arxeologik materiallar asosida)



SHOKIR PARMANOV,
O‘zbekiston Milliy Universiteti,
Toshkent,
O‘zbekiston.
E-mail: sh.parmanov@nuu.uz
ORCID: 0000-0002-4209-1524

UO‘K: 94(575.1):930.85:903.2(575.152)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Chiroqchi tumani Eski Langar qishlog‘ida joylashgan Munchoqlitepa arxeologik yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqot natijalarida qurilish me’morchilik an’analari va uning turlari haqida so‘z yuritidi. Muallif tomonidan Munchoqlitepa arxeologik yodgorligi misolida mikro vohaning o‘rta asrlar qurilish va me’morchiligini rivojlanishi arxeologik manbalarni taqqoslash, tahlil qilish asosida batafsil yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Sug‘d, Kesh, Afrosiyob, Panjikent, Poykend Langardaryo, Munchoqlitepa, pishiq g‘isht, paxsa, paxsa bloklari, mudofaa inshootlari, turar joylar, ibodatxonalar.*

Abstract. *This article examines the traditions of construction architecture and their types based on the results of archaeological research conducted at the Munchoklitepa archaeological site located in the village of Eski Langar, Chirakchi district. The author, using the example of the archaeological monument Munchoklitepa, provided a detailed account of the development of medieval construction and architecture based on the comparison and analysis of archaeological sources.*

Keywords: *Sogd, Kesh, Afrasiab, Panjikent, Paykend, Langardarya, Munchaklitepa, fired brick, clay, clay blocks, defensive structures, dwellings, temples.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются традиции строительной архитектуры и их виды по результатам археологических исследований, проведенных на археологическом памятнике Мунчоклитепа, расположенном в селе Эски Лангар Чиракчинского района. Автором на примере археологического*

памятника Мунчоклитепа на основе сравнения и анализа археологических источников подробно освещено развитие средневекового строительства и архитектуры микрооазиса.

Ключевые слова: *Согд, Кеш, Афросиаб, Пенджикент, Пайкенд Лангардарья, Мунчаклитепа, жженый кирпич, пахса, пахсовые блоки, оборонительные сооружения, жилища, храмы.*

Kirish. Zarafshon tog‘ tizmasining janubiy hududlari, xususan Oqtog‘ yon bag‘ridagi qir-adirlardagi Gedaklisoy, Shovuzsoy, Qaranqulsoy, Azizlarsoy, Qo‘sharcha, Qo‘shgaza, Otquloqsoy va O‘g‘irtosh soylari suvlari birlashib Qalqama daryosiga qarab oquvchi Langarsoyga birlashadi. Ushbu barcha soylar vodiylari, bu hududa joylashgan bir nechta arxeologik yodgorliklar, zamonaviy qishloqlar hududlari birgalikda Langarsoy mikrovohasini tashkil qiladi. Mazkur hududda 2016–2022-yillarda O‘zbekiston milliy universiteti Arxeologiya va etnologiya kafedrasi professor-o‘qituvchilari tomonidan Langarsoy mikrovohasida joylashgan, Munchoqlitepa va Qo‘rg‘ontepa arxeologik yodgorligida dala qidiruvi va qazuv ishlari amalga oshirildi.

Munchoqlitepa yodgorligi Chiroqchi tumani Eski Langar qishlog‘ining shimoli-sharqiy qismida joylashgan bo‘lib, shimoli-sharq tomoni Hukaksoy soyi, shimoli-g‘arb tomoni Eski Langar daryosi va janub tomoni Eski Langar qishlog‘i bilan o‘ralgan. Munchoqlitepa yodgorligida arxeologik qazishma ishlari amalga oshirilmagan. Shuning uchun yodgorlik ikkita alohida-alohida tepalikdan iborat bo‘lganligi uchun shartli ravishda Munchoq I va Munchoq II ga yodgorliklariga ajratildi. Munchoq I ning maydoni taxminan 3,5 – 4 gektarni tashkil qiladi. Munchoq II esa taxminan 5 – 6 gektardan iborat. Har ikkala tepani sun’iy xandak ajratib turadi. Munchoqlitepa yodgorligi hududida olib borilgan dastlabki kuzatuv va qazuv ishlari natijalaridan yodgorlik o‘rta asrlar davriga oid kulolchilik markazi bo‘lganligini va yodgorlik hududidan bir qancha o‘choqlarning o‘rni va sopol qasmoq yoki sopol shlaklarni uchratish mumkin. Shuningdek, yodgorlikning yonida joylashgan Eski Langar ota tepaligining yon qismidan kulolchilik xumdoni va atrofida qizil tuproq mavjudligi bu yerda kulolchilik ustaxonasi bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Ma’lumki, paxsa va paxsa bloklar O‘rta Osiyo qurilish madaniyatida alohida o‘rin tutadi. Uzoq yillar olib borilgan arxeologik tadqiqotlar jarayonida

monumental va oddiy turar joy qurilishlarida paxsa va paxsa bloklardan foydalanilgan. Neolit, bronza va ilk temir davrida shakllangan ushbu qurilish madaniyati ilk o‘rta asrlarda yanada takomillasha boradi. Jumladan, ilk o‘rta asrlarga oid shahar va qishloq maskanlarida olib borilgan qazishmalarda barcha turdagi imoratlar barpo etishda paxsa va paxsa bloklar keng qo‘llanilganligi qayd etilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

O‘rta Osiyo qurilish madaniyatida paxsa va paxsa bloklar qo‘llanilishi borasida ilk o‘rta asr Sug‘d mudofaa inshootlari, turarjoylar, ibodatxonalar qurilish texnikasi borasida tadqiqot ishlari olib borgan V.L.Voronina[1], V.A. Nilsen[2], X.G. Axunbabayev[3] qurilishda paxsaning o‘rni haqida o‘z fikrlarini bildirib o‘tishgan. Shimoli-g‘arbiy Ustrushonaning ilk o‘rta asrlardagi qishloq qurilish me’morchiligi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan M.H.Pardayev ilk o‘rta asrlarda boshqa qurilish materiallari bilan birga paxsaning o‘rni va uning turlari, uslublari borasida aniq va atroflicha malumotlar beradi[4].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Tadqiqotlarga qaraganda paxsa bloklar yaxshi pishitilgan loydan tiklangan bo‘lib, o‘zining mustahkamligi bilan ajralib turadi. Bunday devorlar VI–VII asrlardan boshlab, ba’zi bir ta’mirlashlar bilan IX asrgacha xizmat qilgan.

O‘rta Osiyoning barcha hududlarida bo‘lgani kabi, Munchoqlitepa yodgorligida olib borilgan qazishmalar jarayonida imoratlar asosan paxsa, paxsa bloklar, xom va pishiq g‘ishtdan qurilganligini ko‘rishimiz mumkin. Munchoqlitepa yodgorligining qurilishiga e’tibor beradigan bo‘lsak, yodgorlikning qurilish qoldiqlari turli davrlarda tiklangan qismlardan iborat.

Munchoqlitepa yodgorligining Munchoq-1 tepaligida olib borilgan qazishmalarda 1 metr qalinlikda saqlanib qolgan paxsa devor ochib o‘rganildi. Qazilma sharqqa tomon kengaytirilishi natijasida birinchi devordan 2 metr sharqda ikkinchi devorning o‘rni ham ochildi. O‘z o‘rnida paxsa juda mustahkam qurilgan. Devor qurilishida bir vaqtning o‘zida xom g‘isht, paxsa, hamda paxsa bloklaridan foydalanilgan. Devorning tashqi tomoni ohak yoki ganch bilan qumsuvoq qilingan.

Sharqiy devorning shimol tomonidan paxsa bloklar ko‘zga tashlanadi. Paxsa bloklarining o‘lchamlari 80x100x50 sm. bo‘lib, uning tag qismida xom g‘ishtdan terilgan devor qoldig‘i ochildi. Ushbu xom g‘ishtning o‘lchamlari 50x25x10 sm.ga teng. Bunday devorlar qurish ilk o‘rta asrlarga kelib butun Sug‘d

hududida keng tarqala boshlaydi.

VII–VIII asrlarga kelib turarjoylar qurilishida Sug‘dning barcha hududlarida paxsa qatorlari orasiga 1-3 qator xom g‘isht terish, paxsa va xom g‘ishtni navbat bilan terish asosiy qurilish tizimiga aylangan. Bunday qurilish uslubini biz Afrosiyob, Panjikent, Poykend kabi yirik markazlardagina emas, balki deyarli barcha ilk o‘rta asr qurilishlarida ko‘rishimiz mumkin[5].

Xususan, VII-VIII asrga oid turarjoy qoldiqlari, Afrosiyobning saroy devorlari asosan paxsa bloklardan tiklanib, ular orasiga g‘isht terilganligi X.G.Axunbabayev tomonidan kuzatilgan[6]. Panjikentda VII asr oxiri – VIII asr birinchi yarmiga tegishli zodagonlar xonadoni ochilganda turarjoy kompleksi devorlarida paxsa bloklari orasiga 1-3 qator xom g‘isht terilganligini aniqlagan[7].

Shuningdek, V.L.Voronina tomonidan Panjikent turarjoylari qurilishi o‘rganilganda, xona devorlari qurama tarzda 51-52x25x10-11 sm o‘lchamdagi xom g‘ishtdan hamda balandligi 1 m, uzunligi 0,9 m bo‘lgan paxsa bloklaridan tiklanganlini aniqlangan. Ayrim xonalarning devorlari esa 48x24x9 sm o‘lchamdagi xom g‘ishtdan terilgan bo‘lib, ularda joylashgan panduslar paxsa blokdan urilgan. Shu bilan birga ba’zi bir xonalar devorlari yaxlit paxsadan qurilganligi ta’kidlanadi[8].

Munchoqlitepa yodgorligining Munchoq-2 tepaligida olib borilgan qazishmalarda ham paxsa hamda pishiq g‘ishtdan tiklangan devor qoldig‘i ochiladi. Bu yerdagi devor paxsadan yaxlit urilgan. Shuningdek, ushbu qazilma jarayonida pishiq g‘ishtdan juda mustahkam qilib terilgan devor qoldig‘i ham ochilgan. Ushbu devor 33,5x22x4 sm. hajmdagi pishiq g‘ishtdan terilgan bo‘lib, devorning ichki va tashqi tomonlari ganch bilan 3-5 sm qalinlikda silliq qilib suvalgan. Bundan tashqari, barcha qatlamlarda pishiq g‘isht bo‘laklarini uchratish mumkin. Pishiq g‘ishtlarning hajmi turlicha: 29,5x15x5,5 sm; 23x23x5 sm; 28x14x5 sm. Bundan ko‘rinib turibdiki, Munchoqlitepa yodgorligi aholisi qurilish va me’morchiligida pishiq g‘ishtlardan foydalangan.

O‘rta Osiyo hududida pishiq g‘ishtdan qurilish materiali sifatida foydalanilish VIII asr o‘rtalaridan boshlangan bo‘lib, bunga misol tariqasida al-Istahriy asarida qayd etilgan Abu Muslim tomonidan bunyod etilgan inshootni keltirib o‘tish mumkin[9]. Dastlab pishiq g‘isht faqat shaharlarda asosiy binolarni qurishda ishlatilgan, xolos. IX–X asrlardan boshlab pishiq g‘isht asosiy qurilish materialiga aylanadi. Shunga ko‘ra, Munchoq-1 yodgorligida pishiq g‘ishtlar uchramasligi, ushbu yodgorlik ilk o‘rta asrlarda qurilgan, deyishga asos beradi.

Fikrimizcha, V–VI asrlarda, ya’ni ilk o‘rta asrlarda bu hududda dastlabki qishloq maskani shakllangan bo‘lib, bu yerda hayot taxminan arablar istilosigacha davom etgan va mana shu istilo davrida bu qishloq vayronaga aylangan. Vayronaga aylangan qishloq IX–X asrdan boshlab Munchoq-2 yodgorligi hududida shakllana boshlagan. XI–XII asrlar Munchoq-2 yodgorligining gullab-yashnagan davriga to‘g‘ri keladi. Munchoq-2 yodgorligida hayot taxminan mo‘g‘ullar istilosigacha davom etgan va mana shu istilo davrida bu qishloq yoqib yuborilib, vayronaga aylangan bo‘lishi ehtimol[10].

O‘rta Osiyoning qadimgi tarixi xronologiyasida ilk o‘rta asrlar davri V–VIII asrlarni, rivojlangan o‘rta asrlar esa IX–XVI asrlarni o‘z ichiga oladi. Tarixiy jihatdan ilk o‘rta asrlar davri antik madaniyatining yakuni bilan boshlanib, rivojlangan o‘rta asrlar boshlanishi bilan tugaydi. Aksariyat tadqiqotchilar ilk o‘rta asrlar davrining boshlanish sanasini V asrdan boshlanadi deb hisoblaydilar. Ilk o‘rta asrlar davri arablar istilosi tugallanishi (VIII asr) bilan nihoyasiga yetadi[11].

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Kesh va Naxshab materiallari asosida R.X.Sulaymonov antik davr bilan ilk o‘rta asrlar oralig‘ida o‘tish davri ham bo‘lganligini ta’kidlaydi[12]. Munchoqlitepa va Qo‘rg‘ontepa arxeologik obyektlarida olib borilgan qazishmalar hamda Langarsoy mikrovohasi va Qashqadaryoning o‘rta oqimi yodgorliklarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarda hududda joylashgan qator yodgorliklarni o‘rganish, xilma-xil va boy arxeologik materiallarini tahlil etish va qiyosiy solishtirish orqali hududdagi yodgorliklar antik davrning oxirlarida vujudga kelib, ilk o‘rta asrlar davrida qishloq qiyofasiga kirganligi va arablar istilosi natijasida vayronaga aylangani, IX asr boshlaridan yodgorliklarda hayot qayta jonlanib, rivojlangan o‘rta asrlar davriga kelib rivojlanishning yuqori cho‘qqisiga chiqqanligi aniqlandi.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga asoslanib, Munchoqlitepa maskani ikki bosqichda rivojlangan degan xulosaga kelinadi:

I bosqich. Bunga Munchoq-1 yodgorligining quyi qatlamini kiritish mumkin. Bu yodgorlikdan qo‘lga kiritilgan topilmalarga asoslanib, ushbu yodgorlikni V–VII asrlar bilan chegaralash mumkin.

II bosqich. Bu bosqichga Munchoq-2 va Qo‘rg‘ontepa yodgorliklarini kiritish mumkin. Mazkur yodgorliklar aniqlangan topilmalarga asoslanib, ushbu yodgorlikni X-XII asrlar bilan davrlash mumkin.

O‘rta Osiyoning barcha hududlari singari Kesh vohasida ham ilk o‘rta asrlar davri uy-joylari qurilishida aholi paxsa va paxsa bloklardan foydalaganligini kuzatish mumkin. Rivojlangan o‘rta asrlar davriga kelib qurilishda pishiq g‘ishtlardan foydalana boshlangan. Langarsoy mikrovohasida yodgorliklar asosan V asrda qishloq ko‘rinishida vujudga kelib, XI-XII asrlarda yiriklashadi.

Ma’lumki, dastlabki qishloqlar O‘rta Osiyo hududida yashab kelgan ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholining o‘troq hayotga o‘tishi va o‘zlarining mavsumiy “qishliq”, “qishlov” joylarida muqim holatda doimiy yashab qolishlari natijasida yuzaga kelgan. Bu o‘troqlashuv jarayonida ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholining bitta xonadon istiqomat qilgan sobiq o‘tovlari o‘rnida endi alohida xonadon istiqomat qilgan bir yoki ikki xonali uylar paydo bo‘lgan. Shu tariqa Kesh vohasida ham muqim turmush tarzi kechgan “qishloq”lar shakllangan. Bularga Munchoqlitepa yodgorligini kiritish mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Xulosa qilib aytganda, ushbu yodgorliklar o‘rnidagi maskanlar V–VI asrlarda dastlab qishloqlar sifatida vujudga kelib, arablar tomonidan vayron qilingan. Ular IX–X asrdan boshlab qayta tiklanib, to mo‘g‘o‘llar istilosiga qadar faoliyat yuritgan. Mo‘g‘ullar istilosidan so‘ng Munchoqlitepa yodgorligi butunlay vayron bo‘ladi va unda hayot to‘xtaydi. Olib borilgan arxeologik qazishmalar yodgorlik o‘rnida yirik ishlab chiqarish markazi bo‘lganligidan dalolat beradi. Bunga asos sifatida ochilgan yirik xumdon qoldiqlari va yodgorlikning yana ikki joyida xumdonlar o‘rni saqlanganligini ko‘rsatish mumkin. Bundan tashqari, xumdonlar atrofida qazilgan qabrlar atroflaridan bir qancha mis toshqollar topilganligiga asoslanib yodgorlik ishlab chiqarish markazi bo‘lgan degan xulosaga kelish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References)

1. Воронина В.Л. Народные традиции архитектуры Узбекистана. – М., 1951; Древняя строительная техника Средней Азии // Архитектурное наследство. – М., 1953.

2. Нильсен В.А. Архитектура Средней Азии в V-VIII вв. – Ташкент: Изд. «Фан», 1966.

3. Ахунбабаев Х.Г. Дворец ихшидов Согда на Афрасиабе. – Самарканд, 1999.

4. Пардаев М.Х. Шимоли-ғарбий Уструшона қишлоқ қурилиш меъморчилигининг илк ўрта асрлардаги айрим хусусиятлари // ИМКУ. Вып.2 8. – Самарканд, 1997. – С. 142-148.

5. Кубаев С. Илк ўрта аср Сўғд қурилиш маданиятида пахсанинг ўрни // Ўзбекистон археологияси. – 2014. –№1 (8). – Б. 123.

6. Ахунбабаев Х.Г. Дворец ихшидов Согда на Афрасиабе. – Самарканд, 1999. – С. 12-14

7. Маршак Б.И., Распопова В.И., Шкода В.Г. Материалы Пенджикентской археологической экспедиции. Вып. 4 // Отчёт о раскопках городища древнего Пенджикента в 2001 г. – Душанбе, 2002. – С. 12-13.

8. Воронина В.Л. Древняя строительная техника Средней Азии // Архитектурное наследство. – М., 1953. – №3. – С. 110-112.

9. Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. 1. – М., 1939. – С. 172.

10. Shokir Parmanov. (2022). HISTORICAL TOPOGRAPHY OF KESH-SHAHRISABZ. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 2(06), 16–22. https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume02Issue06-04

11. Мирзалиев Г. Неглазурованная керамика Ферганы как исторический источник (по материалам городища Ахсикет VII – начало XIII вв.: Автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Самарканд, 1988.

12. Сулейманов Р.Х. Древняя культура Южного Согда (VII вв. до н.э. – VII вв. н.э.): Автореф. дис. ... докт. ист. наук. – Самарканд, 1997. – С. 18.

ARJUMAND BONU – JAHON TARIXIDA O‘CHMAS IZ QOLDIRGAN BOBURIY MALIKA

Mamuraliyeva Gulsanam Ilhomjon qizi,
Namangan davlat universiteti Tarix yo‘nalishi talabasi
E – mail: mamuraliyevikromjon8@gmail.com

Ilmiy rahbar:
Madraximov Zoxid Sharofovich
tarix fanlari nomzodi, professor

UO‘K 94(575.1)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Buyuk Boburiylar imperiyasining eng mashhur malikalaridan biri, Shoh Jahonning sevimli rafiqasi bo‘lgan Arjumand Bonu Begimning hayoti, imperiya tarixida tutgan o‘rni, adolatli ayol sifatida qilgan ishlari va o‘z nomini butun tarixga muhrlaganligi haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *Mumtoz Mahal, Jahongirshoh, Xurram, muhrdor, Qandahor, Sher Afkan, Qutbiddin, Begum, Agra, Toj Mahal.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается жизнь Арджуманд Бону Бегум, одной из самых известных королев Великой империи Великих Моголов, любимой жены Шах-Джахана, её место в истории империи, её деяния как справедливой женщины и то, как она оставила свой след в истории.*

Ключевые слова: *Мумтаз-Махал, Джахангир-шах, Хуррам, печать, Кандагар, Шер Афкан, Кутбуддин, Бегум, Агра, Тадж-Махал.*

Abstract: *This article discusses the life of Arjumand Bonu Begum, one of the most famous queens of the Great Mughal Empire, the beloved wife of Shah Jahan, her place in the history of the empire, her deeds as a just woman, and the way she left her mark on history.*

Keywords: *Mumtaz Mahal, Jahangir Shah, Khurram, seal, Kandahar, Sher Afkan, Qutbuddin, Begum, Agra, Taj Mahal.*

Kirish. Boburiylar imperiyasi (1526 – 1857) tarixi qudratli hukmdor va sarkardalar bilan bir qatorda ayollarning ham siyosiy va madaniy hayotdagi faol ishtiroki bilan ham ajralib turadi. Bu davrning eng yorqin namoyandalari orasida Arjumand Bonu Begum, ya’ni tarixda Mumtoz Mahal nomi bilan mashhur bo'lgan malika alohida o‘rin tutadi. U nafaqat Boburiylar imperiyasi hukmdori Shoh Jahonning sevimli rafiqasi, balki davlat ishlarida ham ta’sirli maslahatchi va

ishonchli hamroh sifatida tarixga kirgan. Uning nomi butun dunyoga mashhur noyob me'moriy yodgorlik – Toj Mahal bilan abadiy bog'liq bo'lib, bu mo'jizaviy inshoot har yili millionlab ziyoratchilarni o'ziga tortib kelmoqda.

Arjumandbonu tahminan 1594-yilda Mashhadda tug'ilgan. U asli eronlik bo'lib, bobosi va ota-onasi kambag'allik yuzasidan Hindistonga ko'chib kelib, Akbarshoh mulozimatiga xizmatga kiradi. 1611-yilda Arjumandbonuning ammasi Nurjahon (Mehriniso) Jahongirshohga turmushga chiqqach, Arjumand Bonuning bobosi E'timod – ud Davla bosh vazirlik mansabiga, otasi E'tiqodxon (Osafxon) esa saroy boshqaruvchisi lavozimiga ko'tariladi. (1)

Arjumandbonuning otasi Abul Hasan (keyinchalik Osifxon nisbasi bilan tarixda qolgan) asli kelib chiqi shi jihatidan tehronlik bo'lgan. Abul Hasan o'n ikki yoshda ekanida otasi Mirzo G'iyosbek oila a'zolarini Hindistonga olib kelgan. Xurosondan Hindistonga safar chog'ida Qandahor shahrida Abul Hasanning singlisi Mehriniso dunyoga kelgan. Ming azobda boburiylar davlatidan panoh izlab kelgan Mirzo G'iyosbekka Akbar podshoh muruvvat ko'rsatib, uchyuzboshi mansabini inoyat qilgan. O'zining tirishqoqligi va yaxshi xizmatlari uchun Mirzo G'iyosbekning ham amali asta-sekin oshib borgan. Mirzo G'iyosbek o'g'illarining ham saroy ayonlari qatoridan joy olishlariga erishgan. U hamisha podshoh va boshqa amaldorlar bilan yaqin munosabatda bo'lishga intilgan. Bayram, to'y va boshqa marosimlarda faol ishtirok etgan. Quda-andachilikda ham aslzodalar bilan qarindosh tutinishni afzal ko'rgan. Kichik o'g'li Abul Hasanni Xo'ja G'iyosiddin Qazviniyning Divanji ismli qiziga uylantirgan. Ana shu nikohdan Arjumandbonu tug'ilgan.

Arjumandbonuning ammasi Mehriniso Begim ham Bangola subasida istiqomat qilar edi. Mehriniso Ali Qulibek ismli amirga turmushga chiqqan. Jahongir podshoh o'zining shahzodalik paytlarida uning xizmatida bo'lgan Ali Qulibekka Bangola subasidan jogir tayin qilgan bo'lgan. Ali Qulibekning jasurligi evaziga Jahongir podshoh unga Sher Afkan (sherni yiqituvchi, o'ldiruvchi) laqabini inoyat qilgan edi. Bir so'z bilan aytganda, Qutbiddinxon ham Sher Afkan ham Arjumandbonu oilasiga qarindosh edi. Bengaliya hokimi Qutbiddinxon va favjdor Sher Afkan o'rtasida kelishmovchilik yuz beradi. Podshohning topshirig'iga ko'ra, Qutbiddinxon Sher Afkanni saroyga jo'natishi kerak edi. Buyruqqa bo'ysunmagan Sher Afkan huzuriga kelgan Qutbiddinxonni pichoqlab o'ldirganidan so'ng, soqchilar uning o'zini ham chopib tashlashgan. Sher Afkanning xotini Mehriniso va qizi Lodila Agraga keltirilib, Akbar podshohning

bosh xotini Ruqiya Begimga kanizak qilingan. Shu kabi siyosiy voqealar jarayonida bo‘yga yetgan o‘n to‘rt yoshli Arjumandbonu Jahongir podshohning uchinchi o‘g‘li Xurramga unashtirilgan. Ammo ularning nikoh to‘yi besh yilga cho‘zilib ketadi. (2)

1613 – yilda 19 yoshli Arjumandbonu 21 yoshli shahzoda Xurramga (Shoh Jahon) turmushga chiqadi. O‘tkir aql-idrok sohibasi bo’lmish Arjumandbonu tez kunda o‘zining tadbirkorligi, nozik tabiati, iffati va tengi yo‘q husni bilan saroy a’yonlari o‘rtasida kata e’tibor qozonadi. (3)

1613 – yil saroy munajjimlari tomonidan keyinchalik Hindistonning beshinchi Boburiy imperatori sifatida Tovus taxtiga o‘tirgan va Shoh Jahon I nomi bilan mashhur bo'lgan shahzoda Xurram bilan baxtli nikohni ta’minlash uchun eng qulay sana sifatida tanlandi. Arjumandbonu Shoh Jahonning uchinchi xotini edi va uning sevimlisiga aylandi. To‘y marosimlaridan so‘ng, Xurram “o‘zini o‘sha davrdagi barcha ayollar orasida tashqi ko‘rinishi va fe’l-atvori bilan tanlab olgan” va unga “Mumtoz Mahal” Begum (Saroyning tanlangani) unvonini bergan. Oradan yillar o‘tib, Xurrum yana ikkita xotin olgan. Mumtaz Mahal Shoh Jahon bilan juda chuqur va mehrli nikohga ega edi. Hatto uning hayoti davomida ham shoirlar uning go‘zalligi, nafisligi va mehr-shafqatini ulug‘lashardi. Shoh Jahonning Arjumandbonuga bo‘lgan ishonchi shunchalik katta ediki, hatto unga o‘zining imperatorlik muhri – Muhr Uzahni ham bergan. Mumtaz siyosiy hokimiyatga intilmaydigan mukammal xotin sifatida tasvirlangan. (4)

Jahongirshoh kelini Arjumandbonuni nihoyatda e’zozlagan. Ota-bola – Jahongirshoh bilan Shahzoda Xurramning oralarida chiqqan ayrim kelishmovchiliklarni Mumtoz Mahal hal qilishga kirishar va bu ishni uddasidan chiqardi ham. Shuning uchun har ikki tomonning iltifotiga sazovor bo‘lardi.

Shoh Jahon 1628-yil fevral oyida taxtga o‘tirgach, yosh malika Mumtoz Mahal begim davlat ishlarida eriga yordamlashar va doim rejalik maslahatlari bilan erini to‘g‘ri yo‘lga boshlardi. Binobarin, u saroyda shoh maslahatchisi va muhrdorlik lavozimlarini egallaydi.

Mumtoz Mahal Begim yaxshi kunlarda ham, harbiy safarlarda ham eriga vafodor hamroh va jafokash hamdard bo’lgan. (3)

Mumtoz Mahal Begim qisqa umri davomida 14 nafar farzand ko‘rgan. “Tazkirat ul-xavotin” asarida yozilishicha, Mumtoz Mahal begimning dunyoda qoldirgan farzandlari sakkiz nafar – to‘rt qiz, to‘rt o‘g‘il bo‘lib, qolgan olti nafari yoshligida nobud bo‘lgan. Uning o‘g‘illari Doro Shukuh (1616 – 1659), Shoh Shujo‘ (1617 – 1661), Avrangzeb (1618 – 1707), Murod Baxsh (1621 – 1658),

qizlari – Jahon Oro begim, Anjuman Oro begim, Dahr Oro begim va Kiti Oro begimdir.

Malika Mumtoz Mahal begim Shoh Jahon hukmronligining to‘rtinchi yili, ya’ni 1631- yil 17-iyun chorshanba kuni navbatdagi safar chog‘ida, Burhonpurda 14-farzandini tug‘ish paytida 38 yoshida vafot etgan. Mumtoz Mahal begim hayot bilan vidolasharkan, eri Shoh Jahondan farzandlariga mehribon bo‘lishni, bundan buyon boshqa uylanmaslikni va nihoyat, unga atab, dunyoda tengi yo‘q ulug‘vor, hashamatli maqbara bunyod ettirishni iltimos qilgan.

Mumtoz Mahal begim o‘lim oldidan o‘z bolalari bilan vidolasharkan, Shoh Jahonning ahvolidan xabardor bo‘lib, unga g‘amxo‘rlik qilib turishni o‘zining katta qizi – Jahon Oro begim zimmasiga yuklaydi.

Shoh Jahon sevikli rafiqasi Mumtoz Mahal begimning vasiyatlariga to‘la amal qiladi. Zotan, u keyingi 36 yillik umri davomida uylanmay o‘tadi. Munis va vafodor rafiqasining nomini abadiylashtirish maqsadida, unga atab yaltiroq oq marmardan hashamatli maqbara qurdiradi. Agra shahridagi ulkan maqbaraning qurilishiga yigirma ming mutaxassis usta va ishchilar jalb qilinib, 18 yilda qurib bitkazildi. Bu ulug‘vor obida – “sevgi va vafo” qasrining qurilishiga 40 million rupiya mablag‘ sarflangan.

Maqbara qurib bitkazilgach, marhuma Mumtoz Mahal begimning xokini ko‘chirib keltirib dafn etishdi. Ushbu ulug‘vor hashamatli maqbarani Mumtoz Mahal begim boshiga kiydirilgan toj ramzida “Toj Mahal” deb atadilar (1).

Mumtaz Mahalning dastlabki qabri Burhanpurda bo‘lib, 6 oy o‘tgach jasadi Agraga ko‘chirilgan. 1632-yildan boshlab Shoh Jahon ulug‘vor maqbara qurilishiga kirishgan. Hindiston, Markaziy Osiyo va Yevropa me’morlarining ishtiroki bilan barpo etilgan Toj Mahal 1653-yilda to‘liq yakunlangan. Taxminan 20 000 nafar usta va ishchi 22 yil davomida bu inshootni qurgan.

Toj Mahal bugun YUNESKO Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, dunyoning yetti mo‘jizasidan biri hisoblanadi. U oq marmardan ishlangan, nafis o‘ymakorlik va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan. Maqbara islom me’morchiligi bilan hind va fors uslublarini uyg‘unlashtiradi. Shoh Jahan vafotidan so‘ng (1666) o‘zi ham bu maqbaraga dafn etilgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda Arjumandbonu o‘zining teran aql-zakovati bilan imperiyani gullab-yashnashida Shoh Jahonga ko‘makchi, vafoli yor va mehrli ona bo‘la oldi. Davlat ishlarida ko‘rsatgan jasorati va adolatliligi tufayli hali hanuz tarix zarvaraqlaridan tushmay kelmoqda. Uning Boburiylar

imperiyasida o‘rni beqiyos. Ayniqsa mahobatli Toj Mahalning nomi aynan uning nomi bilan chambarchas bog‘liq ekanligi tariximizda o‘chmas mayoq kabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Файзиев Турғун. Темурий маликалар. Рисола. – Т.: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994. – 28 - 30 бетлар.

2. Yuldashev Botir. Boburiy malikalar. – Toshkent: “Ochun” nashriyoti, 2022. – 153 - bet

3. Файзиев Турғун. Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва унинг авлодлари. – Тошкент: “Ёзувчи” нашриёти, 1996. – 64 - 65 бетлар.

4. The Cause of The Taj: Mumtaz Mahal // https://share.google/ltTnV33dz00Ce1eLa

AMIR TEMUR DAVRIDA MASJIDLAR QURILISHIGA BERILGAN E'TIBOR

Sharifova Nazokat Olimboy qizi

UO'K 94(575.1)

Annotatsiya: *Amir Temurning bunyodkorlik ishlari, uning ilm-fan va madaniyatga qo'shgan ulkan hissasi bugungi kunda yoshlar uchun katta o'rnak vazifasini o'taydi. Ushbu maqolada yozma manbalar va turli tadqiqotlarni o'rganish asosida Amir Temur davrida masjidlar qurilishiga oid ma'lumotlar tahlil qilinib, umumlashtirishga harakat qilindi. Bu Amir Temurning madaniyat homiysi sifatidagi qilgan bunyodkorlik ishlarini yoritishda o'zining dolzarb ahamiyatiga ega.*

Kalit so'zlar: *Amir Temur, davlat arbobi, masjid, homiy, Bibixonim masjidi, Odina jome' masjidi, madaniyat, Mizdahkon yodgorligi, Vazir-Deskesgan, Nizomiddin Shomiy "Zafarnoma" asari.*

Аннотация: *Творчество Амира Темура, его большой вклад в науку и культуру сегодня служат прекрасным примером для молодежи. В данной статье на основе изучения письменных источников и различных исследований предпринята попытка показать внимание, которое уделялось строительству мечетей во времена Амира Темура. Он имеет свое актуальное значение в освещении творчества Амира Темура как мецената культуры.*

Ключевые слова: *Амир Темур, государственный деятель, мечеть, спонсор, мечеть Бибиханым, мечеть Одина Джаме, культура, памятник Миздахкону, Вазир-Дескесган, произведение Низамиддина Шами «Зафарнама».*

Abstract: *Amir Temur's creative works, his great contribution to science and culture serve as a great example for young people today. In this article, based on the study of written sources and various studies, an attempt was made to show the attention given to the*

construction of mosques during the time of Amir Temur. It has its actual importance in illuminating the creative work done by Amir Temur as a patron of culture.

Key words: *Amir Temur, statesman, mosque, sponsor, Bibikhanim mosque, Odina Jame' mosque, culture, Mizdahkon monument, Vazir- Deskesgan. Nizamiddin Shami's work "Zafarnama".*

Amir Temur va temuriylar madaniyati nafaqat O‘zbekiston, balki butun jahon madaniyati taraqqiyotiga katta hissa qo‘shganligi barchamizga ma’lum. Temuriylar davlatining qudrati ayniqsa me’morchilikda namoyon bo‘ldi va bu davr me’morchiligi, me’morchilik tarixida ma’lum darajada tahlil etilgan.

Buyuk sarkarda va davlat arbobi bizga davlat boshqaruvi tuzuklaridan tortib, jahon tarixiga kirgan noyob arxitektura va qadimiy me’morchilik durdonalarigacha bo‘lgan ulkan merosni qoldirdi. U yashab, mehnat qildi, yerlarni zabt etdi va o‘z tarixini – buyuk insonning tarixini yaratdi. Amir Temurning bunyodkorlik ishlari haqida gap ketganda, uning masjilar qurilishiga bo‘lgan e’tiborini ham tilga olish lozim. Amir Temurning “Temur tuzuklari” asarida ham bu xususda quyidagicha fikrlarni o‘qish mumkin: “Xarob bo‘lib yotgan yerlar egasiz bo‘lsa, davlat tomonidan obod qilinsin. Agar egasi bo‘lsa-yu, lekin obod qilishga qurbi yetmay qolsa, unga ekin-tikin uchun zarur urug‘ va asbob tayyorlab berilsin, toki o‘z yerini obod qilib olsin. Yana amr etdimki, katta-kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsinlar, faqir-u miskinlarga langarxona solsinlar, kasallar uchun shifoxonalar qursinlar. Har bir shaharda saroy va qozixona bino qilsinlar.” [1] Yuqoridagi so‘zlardan ko‘rinib turibdiki, Sohibqiron har bir qadami yetgan joyni obod qilishga, u yerlarda katta bunyodkorlik ishlarini qilishga harakat qilgan. Quyida Amir Temur tomonidan qurdirilgan masjidlar haqida bayon qilishga harakat qilindi. Amir Temurning yana bir yutug‘i bu din va siyosatni mutanosib holda yurgizganligidir. Bugungi kunda dunyoda diniy radikalizm, ekstremizm, islomofobiya kabi tahdidlar avj olgan bir paytda, davlat va din munosabatlarining to‘g‘ri modelini topish hayotiy zaruratga aylanmoqda. Amir Temur davrida din jamiyatni jipslashtiruvchi ma’naviy kuch va qonunlarni mustahkamlovchi vosita sifatida xizmat qilgan.

Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asarining XXII bobi ya’ni “Oliy hazratning Samarqand dorulmulkida bino qilingan masjidi bayoni” qismida

[1] [1] Amir Temur. Temur tuzuklari - Toshkent.: “O‘zbekiston”, 2019,145-146-bet.

yozilishicha, Amir Temur Hindiston yurishidan qaytgach, Samarqandda masjid qurishga buyruq beradi. Bir mavze tanlanib, ramazon oyida ya'ni 1399-yil 10-mayda bu ishga kirishiladi.[1] Uning asoslari asosan toshdan qurilgan bo'lib, qurilish ishlariga Sohibqironning shaxsan o'zi bosh bo'lgan.

Rui Gonzales de Klavixo o'zining "Esdaliklari"da Temur tomonidan Samarqandda qurdirilgan bir masjid to'g'risida ma'lumot beradi. Uning farmoyishi bilan xotini Saroymulkxonimning volidasi nomiga shaharda masjid qurila boshlanadi. Bu masjid shaharning eng muhim binolardan biri bo'lishi lozim edi. Biroq qurib bitkazilgandan keyin oldingi devorining past qurilganligi sababli ulug' hukmdorga yoqmaydi va buzib boshqatdan qurishni buyuradi. Qurulish davomiyligini Temurning shaxsan o'zi har kuni kelib nazorat qilib turadi. Klavixoning yozishicha, mamlakatda qurilishlar har doim qish kelishi bilan yakunlanadi. Yuqorida tilga olingan ikki tarixchi ham alohida so'z yuritgan inshoot bugungi kunda Bibixonim masjidi nomi bilan mashhurdir.

Bibixonim jome' masjidi bugungi kunda Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi tizimidagi madaniy meros obidasi hisoblanadi. 1399-1404 yillarda Amir Temur farmoni bilan katta xotini Saroymulkxonim(Bibixonim) uchun qurilgan. Poydevori harsangdan, devorlari pishiq g'ishtdan ishlangan ushbu inshootni qurgan me'mor va ustalar ma'lum emas. Ko'p yillar davomida zilzila va urushlar natijasida yemirilgan masjidning bir-biri bilan bog'langan 6 ta me'moriy bo'laklari saqlanib qolgan. Jome'ning ravoqlari ustiga "Amir Tarag'ay o'g'li buyuk xoqon Amir Temur Ko'ragon 801-yilda(milodiy 1399-yil) ushbu jome'ning solinishiga amr qildi" so'zlari, jome darvozasining naqshida esa "Ushbu jome'ni bitkazishga 806-yilda (milodiy 1404-yil) muvaffaq bo'lindi" so'zlari bitilgan.

Q. Nasriddinov va O'. Xo'jayarovlarning "Qarshi shahrining me'moriy yodgorliklari"[2] risolasida Amir Temur davrida bunyod qilingan yana bir masjidlardan biri haqida hikoya qilinadi. Qarshi shahrida joylashgan bu masjid Odina jome masjidi bo'lib, risolada yozilishicha, tarixchi olimlardan B.A. Ahmedov va M.E.Massonlar ushbu masjid qurilishini Amir Temur nomi bilan bog'laydilar.

Akademik B.Ahmedov o'zining "Amir Temur" tarixiy romanida: "...sevikli xotini Bibixonimdan Qarshi shahridagi bozor bilan karvonsaroy o'rtasida bir oliy

[1] Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma – Toshkent.: "O'zbekiston",1996, 276-277- bet.
[2] Насриддинов К., Хужаяров У. Карши шахрининг меъморий ёдгорликлари. –Т.: «Янги аср авлоди», 2011, - 34-бет.

masjid bunyod etishga qaror berganini eshitgach, Amir Temurning chehrasi faxr va g‘ururga to‘lgani holda, zavjasining bu xayrli tashabbusini ma’qullagani...”ni alohida mehr bilan tasvirlaydi.[1]

Professor M. Massonning Odina masjidi haqida quyidagi fikri diqqatga sazovor: “Amir Temur Shahrisabzdan bo‘lgani uchun asosiy diqqatini unga qaratadi. Shunday bo‘lsa-da, u quyi Qashqadaryoning maftunkor cho‘llarini ham unutmadi. Buyuk Amir Temur 1385-1386 yillardagi yurishi paytida Samarqanddan kelishda Qarshida ikkinchi marta qishladi. Garchi yozma manbalarda qayd etilgan bo‘lsa-da, mahalliy naqllarga ko‘ra, Amir Temur qal’a markazida katta jome’ masjidi qurgan. Bu masjidning qoldiqlari hozir ham saqlangan».[2]

Yuqorida keltirilgan risolada, Odina jome masjidining tuzilishi batafsil bayon etilgan. Registonda joylashgan bu inshoot, Abdullaxon madrasasi kabi “qo‘sh” usulda qurilgan bo‘lib, bo‘yi 50 metr, eni 40 metrni tashkil qiladi. Uning alohida ko‘zga tashlanadigan tomoni: kirish eshigining qulfi bo‘lib, uning kalit solib buraladigan qismining qoplamasi hamda eshikning ikki halqasi baliq shaklida ishlanganligidir. Afsuski, ushbu baliq ko‘rinishidagi halqani Chor Rossiyasi bosqini davrida ruslar olib ketishgan.

Sh.X. Yusupov o‘zining “Amir Temur va Temuriylar davrida Xorazmdagi tarixiy-madaniy jarayonlar(XIV – XV asrlar)” monografiyasida Amir Temur va Temuriylar davrida faoliyat yuritgan va barpo qilingan masjidlar to‘g‘risida ma’lumotlar keltiradi. Uning ma’lumotlariga ko‘ra, Amir Temur va temuriylar davrida Hazorasp, Xiva, Kat, Gurganj (Toshqal’a), Vazir (Devkesgan)ning shahar mudofaa devorlari, uy-joylar qayta qurilganini ta’kidlaydi. Shemaxaqal’a, Adoq, Mizdahkon, Toshqal’a, Oqqal’a, Puljoydagi temuriylar davriga oid arxeologik topilmalar bu davrning madaniy yuksalganini ko‘rsatadi. Mizdahkon yodgorligidagi shaharsozlik taraqqiyoti arxeologik qazishmalar tufayli mukammal aniqlanmoqda. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, Mizdahkon yodgorligining o‘zida o‘rganilayotgan davrda jome’ masjidi ishlab turgan. Bu katta jamoat joyida qishki va yozgi namoz zallari, mehroblar, xonaqoh, namozgoh, hujralar va oshxona joylashgan.[3]

---

[1] Б.Ахмедов. Амир Темур. Тошкент, «Ёзувчи», 1996, 361-бет.
[2] М.Е. Массон. «Столичные города в области низовьев Кашкадарьи с древнейших времен». Т., «Фан», 1973, 52-бет.
[3] Sh.X. Yusupov, Amir Temur va temuriylar davrida Xorazmdagi tarixiy-madaniy jarayonlar (XIV–XV asrlar) – Urganch.: Khwarezm travel, 2024. – 114-bet.

Monografiyada keltirilishicha, Temuriylar davrida O‘rta Osiyoda qadimgi tarixning o‘rta asrlarga qadar kechgan rivojlanish davrini aks ettirish maqsadida o‘ta shartli ravishda qo‘llanuvchi atama – antik inshootlar xarobasi qatlami ustiga qurilgan Vazir-Devkesgan shahar-qo‘rg‘onida hajmi 14x14 m. bo‘lgan 30 ustundan qad ko‘targan ark-galereyali masjid yaxshi saqlangan. Shemaxaqal’a yodgorligining shoh ko‘chasida katta namozjoydan qolgan ustunlar o‘rnatilgan masjid, shahar tashqarisida masjid-namozgoh majmuasi aniqlangan. Shemaxaqal’a temuriylar davridagi siyosiy voqealarga oid manbalarda Tersak nomi bilan tilga olinadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Sohibqiron Amir Temur o‘z hukmronlik yillarida nafaqat qurilish, bunyodkorlik ishlari balki, ilm-fan, madaniyat va san’at rivoji uchun o‘zining beqiyos homiyligini ko‘rsatdi. Dunyo tarixidan ma’lumki ilm fan taraqqiyoti, madaniyat va san’at rivoji katta sarmoya va davlat homiyligini talab etadi. Buni ma’rifatli hukmdor Amir Temur teran anglagani bois ulkan saltanatning barcha hududlarida ahli ilm, ahli ijodga homiylikni davlat siyosati darajasiga chiqardi. Bu siyosat natijasida Islom dunyosining intellektual salohiyati Turon poytaxti Samarqandga va boshqa shaharlarga oqib kela boshladi. Islom dinining barcha diniy ahkomlarini bajarishda asosiy maskan vazifasini o‘tovchi masjidlar qurilishi ham bu yo‘lda katta ish bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома – Тошкент.: ”Шарқ” нашриёт- консерни, 2017. – 383 б.

2. Низомиддин Шомий. Зафарнома – Тошкент.: “Ўзбекистон”, 1996. – 528 б.

3. Руи Гонзалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403-1406) – М .: Наука,1990.

4. Аҳмедов Б.А. Амир Темур. Тарихий роман. – Тошкент.: Халқ мероси нашриёти, 1995.

5. Насриддинов Қ., Хужаяров У. Қарши шахрининг меъморий ёдгорликлари. – Т .: «Янги аср авлоди», 2011. – 136 б.

6. Yusupov Sh.X. Amir Temur va temuriylar davrida Xorazmdagi tarixiy-madaniy jarayonlar(XIV–XV asrlar). Monografiya – Urganch.: Khwarezm travel, 2024. – 144 b.

TOSHKENT VOXASI NEOLIT DAVRI O‘ZLASHTIRILISHI BOSQICHLARI

Qadamboyev Shahriyorbek Sharifboy o‘g‘li,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

UO‘K 94(575.1)

Annotatsiya: *Maqolada Toshkent voxasida neolit davri odamlarining joylashishi jarayonlari tarixi yoritilgan.*

Kalit so‘zlar*: Baratov P, Kasimov M.R, Kabirov J, Sagdullaev A, Eshov B.J, Odilov A.A, Mirsoatov T, Mirsoatova S.G, Abdullaev U. I, Ibragimov R.Z, O‘zbekiston, Osiyo, Toshkent, Chirchiq, Oxangaron, Kulbuloq, Xo‘jakent, Obiraxmat.*

Аннотация: *В государственном анализирован истории процессов расположение населения неолитического периода Ташкентского оазиса.*

Ключевые слова: *Баратов П., Касымов М.Р., Кабиров Ж., Сагдуллаев А.С., Эшов Б.Ж., Адилов А.А., Мирсоатов И., Мирсоатова А.С., Абдуллаев У., Ибрагимов Р.З., Узбекистан, Азия, Ташкент, Чирчик, Охангарон, Кулбулак, Худжакент, Обирахмат.*

Abstract: *The article covers the history of the settlement of Neolithic people in the Tashkent region.*

Keywords: *Baratov P, Kasimov M.R, Kabirov J, Sagdullaev A, Eshov B.J, Odilov A.A, Mirsoatov T, Mirsoatova S.G, Abdullaev U. I, Ibragimov R.Z, Uzbekistan, Asia, Tashkent, Chirchik, Oxangaron, Kulbulok, Khojakent, Obiraxmat.*

Kirish: Yer tarixida kechgan paleotektonik va paleogeografiya jarayonlarning birnecha marotaba takrorlanishi munosabati bilan Osiyo materigi geomorfologik xolati rang-barang geoiqtisodiy xududlardan iborat, ular xam geografik joylashishi, xususiyatlari, tabiiy resurslari, ekologiyasi, tog‘, tog‘ - oldi xususiyatlari jixatidan bir-biridan farqlanishi geoiqtisodiy xududlardan iborat.

Shunday xududlardan biri O‘zbekiston xisoblanadi. O‘zbekistonning geografik o‘rni juda qulay bo‘lib, ular tog‘li va tekislik xududdan iborat bo‘lib, ularning vatanimizning iqtisodiy va etnik madaniy munosabatlar rivojlanishida o‘ziga xos bir necha viloyatlarda o‘rnashgan axoli jamiyatning barcha soxalarini rivojlanishida o‘zining tarixiy o‘rniga ega.

Shunday geoiqtisodiy xududlardan biri Toshkent voxasi bo‘lib geografik jixatidan Oxangaron va Chirchiq daryosi bo‘lib, ularning joylashishi xarakat yo‘nalishlari bir-biri bilan bog‘lanmaydi. Toshkent vohasi geografik xolati

jixatidan Oxangaron va Chirchiq vodiysi xududlariga bo‘lingan. Oxangaron voxasi suv zahirasiga daryolar xisobiga ko‘ra, daryolar kam. Chirchiq vodiysini geomorfologik xususiyat jixatidan shimoliy-sharqiy xududi Oqchadaryo irmog‘i xarkati uning minglab yillar mobaynida suv tarkibida mineral moddalarga serob bo‘lgan loyqalarni yotqizilishi natijasida sernam va serunum geoiqtisodiy xududlar saqlangan. Mazkur maqolada Toshkent voxasida Neolit (Golotsen) davrida axolining joylashish jarayonini yoritish maqsadga olingan.

Mavzuga oid adabiyotlarning taxlili: O‘zbekiston respublikasi O‘rta Osiyo ichki qismida (o‘rtasida) joylashishi joylashgan axoli olib borgan xo‘jalik mazmuni, uning urf-odati, tarixiy chegaraviy xususiyatlari masalalari turli nashrlardan o‘z mazmunini topgan.

Toshkent voxasi vatanimiz geoiqtisodiy munosabatlar rivojlanishida Ohangaron, Chirchiq daryolari irmoqlari Kuksuv, Pskom, Chimyon Ugom daryolari voxaning iqtisodiy munosabatlar rivojlanishiga imkon bergan bo‘lsa, uning janub tomondan Sirdaryo orqali aloxidalik xususiyati sharoitida qo‘shni geoiqtisodiy xududlar bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishni taqozo etgan. Lekin xududning shimoli-g‘arbiy, shimoliy xududlar ochiq bo‘lganligi bois etnik jarayonlarning yoyilish imkoniyati mavjud. Mazkur masalalar turli nomda adabiyotlar saxifasidan ma’lum.

Geologik jarayonlar natijasida Toshkent voxasi tog‘li va tekislik xududi bo‘lib, geografik manzarasi jixatidan ikki geoiqtisodiy geografik xududlarga bo‘lingan. Oxangaron Chirchiq xududlari [1.1996-B 178-184]. Toshkent voxasi geografik manzarasi, tabiiy resurslari iqlim sharoiti, suv zahirasi kabi iqtisodiy manbalarga ega bo‘lsada boshqa tarixiy-madaniy xududlarga qaraganda odamzot tomonidan kech o‘zlashtirilgan. Xususan XX asr 60 yil boshlaridan boshlab, Toshkent voxasi Oxangaron vodiysi Oxangaron daryosi Chotqol tog‘ tizmasi tizimida joylashgan doimo xarakatda chashma soxili xududiga ulanib ketgan tekislikda amalga oshirilgan qazishma ishlari natijasida olingan ashyolar ilk tosh davriga oid bo‘lgan. [2.1972-S.5-25].

Tadqiqotchilar nashrida qayd qilinishicha, Kulbuloq ochiq tipda manzilgoxi bo‘lib, Toshkent voxasida ilk etnik makonligi ekanligiga oid 41 madaniy qatlamdan Ashel davriga, yuqori qatlamlarida Muste va so‘nggi tosh davrlariga oid manbalar olingan. [3.1990-B.18]. 1993 yilda Ko‘lbuloqda olib borilgan qazishmalar natijasida olingan moddiy ashyolar ilmiy taxliliga ko‘ra, Kulbuloqlik ovchilar tevarak- atrofga aholi soni oshganligi sabab, qo‘shni

geoiqtisodiy xududlarga borib joylashganlar, ular G‘ishtsoy, Qizilolmasoy-2, Daryosoy, Jarsoy kabi turar-joylar etnik makon bo‘lib xizmat qilgan.

Manzilgohlarning odamzotga ibtidoiy makon bo‘lganlik tarixiy davri I million yil bo‘lgan. [5. 2014-B.34]. 2007 yilda Kulbuloq ovchilari va termachilar suv manbasi zahirasi serob bo‘lgan geoiqtisodiy xududda joylashib, Qizilolmasoy manzilgoxida qazishma ishlari natijasida olingan artefaktlar ilk tosh davri oxiri, o‘rta va so‘nggi bosqichlariga mansub bo‘lgan. [5.1972-B 35.]

Tarixiy adabiyotlarda qayd qilinishicha Kulbuloq manzilgoxi ovchilari va termachilari o‘rta tosh va mezolit davrida Chirchiq xududida, Xo‘jakent, Obiraxmat o‘rta tosh davri xamda Toshkent shaxri atrofiga Bo‘zsuv manzilgoxlarda etnik munosabatlarni olib borgan. [6. 2019 B- 119.] [7.2020-B 38].

Tadqiqotchilar asarida Toshkent voxasida mezolit davriga oid Qo‘shilish manzilgohidan olinganligi ko‘rsatib o‘tilgan. [8. 2023 B- 38].

Tadqiqot metodologiyasi quyidagicha belgilab olindi: Ilmiy xolislik, tarixiy-xronologik sintez, nazariy-qiyosiy taxlil asosida yangicha g‘oyalar, innovatsiyalar, munozara, umumlashtirish, yakuniy xulosa.

Taxlil va natijalar: O‘tgan asr adabiyotlar xamda mustaqillik yillari tadqiqotchilar asarlarida vatanimizning iqtisodiy saloxiyatida muxim axamiyatga ega bo‘lgan geoiqtisodiy xudud Toshkent voxasi bundan 1 mln yil ilgari odamzotning Oxangaron vodiysi daryosi tizimida Chotqol tog‘ tizmasida xarakatda bo‘lgan chashma-maxalliy aholi talaffuzida Ko‘lbuloq ochiq tipda geografik qiyofada bo‘lib, odamzot so‘nggi tosh davrigacha etnik makon bo‘lganligi Ko‘lbuloq ovchilar axoli soni oshganligi sabab, qo‘shni geoiqtisodiy xududlarga ko‘chishni tarix taqozo etgani bois G‘ishtsoy, Daryosoy va Jarsoylar etnik makon bo‘lgan.

Mazkur makonlarda yashagan ovchilar va termachilarni avlodlari Xujand, Obiraxmat g‘or-makonlarida istiqomat qilgan ovchilar va termachilar avlodlari axoli miqdori oshganligi tufayli Toshkent atroflariga kelib, (Mezolit davrida 12-7 ming yilliklarda axoli yashash uchun qulay bo‘lgan) Qo‘shilish manzilgoxida yashab etnik munosabatlarga doir xulosalarga kelish imkonini yaratdi. Shundan quyidagi natijalar qayd qilinadi:

Toshkent voxasi tog‘li xudud bo‘lganligi bois axoli o‘zlashtirishi tosh davri ilk bosqichiga oid bo‘lgan. Birinchi navbatda tog‘li xudud Oxangaron vodiysi tabiiy manbalarga serobligini inobatga olib, Kulbuloq chashma soxiliga ulanib ketgan tekislik urug‘ jamoalari etnik makoni Kulbuloq makoni Xorazmda ilk etnik jarayonni olib borganlar.

Xulosa va takliflar: Yuqorida zikr etilgan ma’lumotlar quyidagi yakuniy xulosaga kelib Yonbosh-4 manzilgoxida arxeologik izlanishlar ilk tosh davrigacha davom etgan.

1. Toshkent voxasi geografik o‘rni geofizika qiyofasi jixatidan bir-birini takror qilmaydigan xususiyatga ega, shu bois axoli bir xronologik davrda odamzot tomonidan o‘zlashtirilmagan. Odamzotning ilk makonlari Oxangaron vodiysida vujudga kelgan.

2. Oxangaron vodiysi xududi Chotqol tog‘ tizmasi doimo xarakatda bo‘lgan buloq-chashma soxili adog‘iga ulangan ochiq tekislikda odamzot joylashib, kundalik turmush tarzini geografik sharoitga moslashib, ilk etnik xarakatlarni boshlaganlar.

Tosh davri o‘rta bosqichidan qo‘shni xududlarga tarix taqozasiga ko‘ra, tabiiy iqtisodiy xududlarga migratsion siyosatni olib borganlar.

Mavzu bo‘yicha quyidagi takliflar qayd qilinadi:

1.Toshkent vohasining geografik xususiyati, o‘ziga xosligini o‘rganish;

2.Voxaning geofizikasi jixatidan ibtidoiy odamlarning notekis joylashishini yoritish.

3.Toshkent voxasining O‘zbekistonning ibtidoiy jamoa tuzumi tosh asri rivojlanishida tarixiy o‘rni axamiyatini taxlil qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Baratov P. O‘zbekiston tabiiy geografiyasi-Tashkent:O‘qituvchi . 1996.

2. Касымов М.Р. Кремне обращающие Мастерские и Шахты каменного века Средняя Азия-Ташкент:Фан, 1972

3. Kabirov J, Sagdullaev A. O‘rta Osiyo arxeologiyasi-Toshkent: “O‘qituvchi”. 1990.

4. Eshov B.J. Odilov A.A. O‘zbekiston tari (Eng qadimgi davrdan XIX asr o‘rtalarigacha-Toshkent, 2014. Jild-1.

5. Mirsoatov T.M. Mirsoatova S. G. O‘rta Osiyo arxeologiyasi-Farg‘ona, 2002.

6. Abdullaev O‘.I. O‘rta Osiyoda ibtidoiy jamoa tuzumi va ilk davlatchilik tarixi-Toshkent, 2019.

7. Ibragimov R.Z. O‘rta Osiyo arxeologiyasi-Tashkent, 2020.

8. O‘zbekiston tarixi-Toshkent:O‘zbekiston. 2023-Jild- II.

XORAZM VOHASI ILK O‘RTA ASR GEOGRAFIK XOLATI ANTROPOLOGIK LANDSHAFTI XUSUSIDA

Matnazarova Gulnoz Baxtiyorovna,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat Universiteti mustaqil tadqiqotchisi
Elektron pochta:mgulnoz@bk.ru

UO‘K 94(575.1)

Annotatsiya: [Abstract] *Maqolada Quyi Amudaryo hududida ilk o‘rta asr davri geografik muhiti va antropologik landshafti xususiyati tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar (Key words): *Beruniy, al-Belazuriy, Толстов С.П, Istahriy, Неразик Е.Е, Qurbonov A, O‘zbekiston, Amudaryo, To‘rtko‘l, Burli, Ayozqal’a 1,3, Angqaqal’a, Bozorqal’a, Burgutqal’a, Uyqal’a, Gurganch, Xiva, Xozorasp.*

Аннотацион: *В ситатье анализирован осебенности антропоген ландшафта и географические среда раннесредневекого периода в Низовья Амудары.*

Ключевые слова: *Беруний, Ал-Белазури, Толстов С.П, Истахрий, Неразик Е.Е, Курбанов А, Узбекистан, Амудары, Турткул, Бурли, Аёзкалья 1,3, Ангкакалья, Бозоркалья, Бургуткалья, Уйкалья, Гурганч, Хива, Хазарасп.*

Kirish. [Introduction] (Введение)

V-IX asrlar davri jamiyatini qamrab olgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlar ma’nosida antik davrda kechgan tarixiy jarayonlardan keskin farqlanishi bilan O‘zbekiston tarixida muhim davr hisoblanadi. Amudaryo o‘ng va so‘l sohili hududlarida o‘troq aholi tomonidan bunyod qilingan Xozarasp va Xiva yodgorliklarida o‘rnashgan madaniy-xo‘jalik hayot davom etgan. Bu jarayon ilk o‘rta asrlarda davom etgan. Shu bilan birga Amudaryoga suv toshqini keskin pasayishi munosabati bilan To‘rtko‘l va Beruniy hududlarida ba’zi aholi turar-joylarida xo‘jalik madaniy hayot yakun topgan. (Burli, Ayozqal’a 1,3, Angqaqal’a, Bozorqal’a) Burgutqal’a, Katta Guldursun, Uyqal’a, Dumanqal’a, Teshikqal’alarda madaniy xo‘jalik hayot davom etgan. So‘l sohil hududlarida esa bu jarayon boshqacha tarzda kechgan.

Sariqamishbo‘yi havzasi Uzboy va Tuyamo‘yin hududi atroflarida Xozorasp, Xiva, Voyangan, Kat, Shoxsanam, Ko‘na Uaz, Gurganch, Mizdaxkon yodgorliklarida ilk o‘rta asrda madaniy xo‘jalik hayot davom etgan.

Mazkur maqolada Quyi Amudaryo hududida ilk o‘rta asr geografik xolati va antropogen landshafti hamda arxeologik yodgorliklarda yuz bergan o‘zgarishlarni yoritishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili [Literature revier] O‘zbekistonning shimoli-g‘arbida geografik o‘rinni tasvir qilgan Xorazm tekisligi eng qadimdan ilk etnik jarayon kechganligiga Buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy e’tibor bergan. [1-1968-S 71]. Shuningdek, Al-Tabariy va Al-Balajuriy asarlarida (Xozarasp, Gurganch, Kat) Xorazm vohasida ilk o‘rta asr yodgorliklari Amudaryo o‘ng va so‘l sohili bo‘ylab joylashgan aholi turar-joylari to‘g‘risida tarixiy ma’lumotlarni o‘z asarlarida qayd qilgan. [2. 1939. B 180-181, 3. 1969-C 22-29, 4. 2019-B 140-144]. Xorazm vohasining S.P.Tolstov asarida Amudaryo o‘ng sohili hududida ilk o‘rta asr aholi markazlari Burgutqal’a, Yakkaparson, Uyqal’a, Qumbosganqala, Teshikqal’alar atrofida “Ko‘shk”lar topografik tasviri berilgan. [5. 1948-C 124-138, 6. 1948-C 196-212, 7. 1962-C 146-249].

Xorazm vohasi ilk o‘rta asr tadqiqotchisi E.E.Nerazik tadqiqotlarida o‘ng sohil geografik manzarasini hosil qilgan turar-joylar Burgutqal’a, Tuproqqal’a, Uyqal’a atroflarida bir-biridan 100-200 m uzoqlikda joylashgan istehkom kvadrat shaklda qad ko‘tarilgan (Mudofaa devori yaxshi saqlangan, balandligi 5-6 m) “Ko‘shk” larni topografik joylashishi, markazida kvadrat ark-inshoat) izohlagan [8. 1976-C 58-66, 9. 2013-C53-64]. A.Qurbonov tadqiqotlarida janubiy Xorazm hududi siyosiy tarixini aks ettirgan Afrig‘iylar davrida ilk o‘rta asr jamiyatining noteks rivojlanishi o‘ng va so‘l sohil hududlarida siyosiy, iqtisodiy va etno-madaniy inqirozi uning milodiy VI asr ikkinchi yarmida suv oqimi yetib borgan hududlardagi turar-joylarda etnik-madaniy munosabatlar davom etgani qayd qilingan [10. 2025-B 270]

Tadqiqot metodologiyasi [Research methodology]. Ilmiy xolislik, tarixiy-xronologik sintez, nazariy-qiyosiy taxlil, munozara, umumlashtirish, yakuniy xulosa.

Tahlil va natijalar [Analysis and results]. Mavzu mazmunini yoritishda o‘tgan asr adabiyotlar va zamonaviy tadqiqotlarda qayd qilingan tarixiy ma’lumotlarni nazariy qiyosiy ravishda tahlil qilingan natijalar izohlandi. Masalan, Xorazm ekspeditsiyasi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi ilmiy

markazlari hodimlari nashrlarida qayd qilingan natijasida ilk o‘rta asr (V-IX asr) jamiyati manzarasi antik davrda kechgan tarixiy jarayonlar bir-biridan keskin farqlanishiga oid S.P.Tolstov fikricha bu o‘zgarish o‘troq aholi ijod natijasiga bog‘liq emas, u ikki tarixiy davrda kechgan jarayonlar natijasi degan fikrga qo‘shilish mumkin. Mazkur tarixiy davrda kechgan tarixiy jarayonlar yuz bergan tarixiy jararonlar natijasini siyosiy munosabatlarda qadimgi Xorazm davlati siyosiy jihatdan yakun topishi, uning o‘rniga kelgan Afrig‘iylar davlati bilan birga Chimboy tumani hududining siyosiy manzarasini shimoli-sharqiy tomondan ko‘chib kelgan Eftaliylar Kerdar davlatini namayon qilgan. Bu siyosiy davlat VIII asr boshlarida yakun topgan. Arablar hukumronligi davrida yer egaligida munosabatlar yuz berganligi, Kadivar va Kashovarzlar tabaqalarining faoliyat olib borishi, qishloqlar hayotida yer egaligida vaqf yerlari, jamoa va iqtisodiy jihatdan qudratga ega bo‘lgan qishloq hokimi – “dehqon”lar markaziy hokimiyatga itoat etmasdan, to‘rt tomoni mudofaa devori bilan o‘rab olingan, poydevor paxsaga barpo qilingan, balandligi 5-6 m, “Ko‘shk”larda istiqomat qilib, qishloq xo‘jaligini o‘z qo‘llariga olganlar. Afrig‘iylar davlati miqdor jihatidan katta aholi markazlarini bunyod qilishdan voz kechishgan, antik davr shaharlari artofida suv oqimi yetib borgan hududlarda “kvadrat” shaklda, markazda ark bir-biridan 100-200 metr uzoqlikda “ko‘shk”, “qal’a”, “qasr” barpo qilganlar. Qishloq va shaharlarda xo‘jalik madaniy hayot kechishi masalasida esa Amudaryo suv sathi keskin kamaygan davrda o‘ng sohilda undan chiqarilgan Kaltaminor, Tozabog‘yop va Amirobod sug‘orish inshoatlari suv yetib bormagan tabiiy-iqtisodiy hududlarda aholi turar-joylarida madaniy-xo‘jalik hayot yakun topgan, antik davrda aholi markazlari mudofaa devorlari yaxshi saqlanib qolganligi bois xozirgi davrda xorijiy sayyohlarning boradigan madaniy ob’yekti bo‘lgan (Burli-1, Ayozqal’a 1, 3, Yonboshqal’a, Qo‘yqirilganqal’a). Ilk o‘rta asrda madaniy-xo‘jalik hayot, Katta Guldursin, Ayoz-2, Burgutqal’a, Uyqal’a Teshikqal’a, Tuproqqal’a To‘qqal’a) So‘l sohil hududida suv ta’minotida uzulishlar bo‘lganligi bois Tuproqqal’a (Xiva), Tuproqqal’a (Shovot) Olmaotishgan, Zamahshar kabi yodgorliklarda madaniy-xo‘jalik hayot yakun topgan bo‘lsa, Xiva, Xozarasp, Voengan, Kat (o‘ng va so‘l sohil), Mizdaxkon yodgorliklari dehqonchilik vohalari markazlari vazifasini bajargan.

Xulosa va takliflar [Conelision / Recomendutions]. Yuqorida qayd qilingan tahlil va natijalarni inobatga olib quyidagi xulosalarni qayd qilamiz:

1. Milodiy V-IX asrlar Xorazm tarixida o‘ziga xos muhim o‘zgarishlar yuz berishi muhim davr hisoblanadi.

2. Mazkur tarixiy davrda Amudaryo Amudaryo o‘ng sohili hududida ilk o‘rta asr jamiyatini qamrab olgan iqtisodiy inqiroz sug‘orish inshoatlari suv miqdorining yetib bormaganligi sabab aksariyat aholi markazlarida madaniy hayot yakun topgan.

3. Amudaryo suv oqimi barqaror bo‘lganligi bois o‘ng va so‘l sohil hududlari gidrologik xususiyati tasvir qilgan sug‘orish inshoatlari boshi, o‘rtasi va oxirida aholi markazlari faoliyatlari davom etgan.

Quyidagi takliflar izohlandi:

1. O‘tgan asr adabiyatlarida milliy mustaqillik yillari nashrlarda qayd qilingan tarixiy ma’lumotlarni nazariy-qiyosiy tarzda taxlil qilib ilk o‘rta asrda kechgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda yuz bergan ikki manzarani yoritish;

2. Ilk o‘rta asrda Amudaryo taraqqiyotida muhim o‘zgarishlar kuzatiladi, uning sabablarini oydinlashtirish;

3. Xozirgi vaqtda Xorazmda harakatda bo‘lgan sug‘orilish inshoatlari ilk o‘rta asr tarmoqlari bilan siyosiy tahlil qilish.

Foydalangan adabiyotlar.

1. Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Toshkent, 1968.T-1

2. МИТТ – материалы Туркмен и Туркмении – 1939. Т.Л – 180-181

3. Ал-Белазури. Арабские источники VII-X веков М-Л: Наука, 1969-С. 22-29

4. Толстов С.П. Древний Хорезм – М, МГУ, 1948- С-124-138

5. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации – М.Л, Наука, 1948-С 196-212

6. Толстов С.П. По древным дельтам Окса и Яксарта – М: ИВЛ РАН 1962 С 246-249

7. Istahriy. Kitob-al-masalik val-mamalik-yillar va o‘lkalar kitobi Toshkent, Fan, 2019 B 140-144

8. Неразик Е.Е Сельское жилище в Хорезме /(I-XIV вв) Из-ва Вост лит. М 1976-С 58-66

9. Неразик Е.Е Формирование раннесредневекового общество в Низовьях Амударьи – М, 2013 –С 53-64

10. Qurbonov A. Afrig‘iylar sulolasi davrida turar-joylar inshoatlari va shaharlarining rivojlanish tarixi / Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati-Urganch, 2025 -27 b

ZARAFSHON VODIYSI BRONZA ASRI JAMIYATIDA KECHGAN IQTISODIY MUNOSABATLAR XUSUSIDA

Vapayeva Fazilat,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tyutori

UO‘K 94(575.1)

Annotatsiya: *Maqolada Zarafshon vodiysi tarixiy-madaniy xududlarida iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish bosqichlari taxlil qilingan.*

Kalit so‘zlar*: Asqarov A, G‘ulomova Ya.G‘, Islomov U.I, Sarianidi V.I, Abdullaev O‘.I, Ibragimov R.Z, Juraqulov M.J, O‘rta Osiyo, O‘zbekiston, Zarafshon, Amudaryo, Qizilqum, Zomonbobo, Mo‘minobod, Siyob, Chakka, Jom.*

Аннотатсион: *В стате анализирован этапы развитие экономических отношений на истирико-культурных территории Низовя Зарафшана.*

Ключевые слова: *Аскарав А.А, Гулямов Я.Г, Исламов У.И, Сариаиди В.И, Абдуллаев У.И, Ибрагимов Р.З, Журакулов М.Ж, Средняя Азия, Узбекистан, Зарафшан, Амударе, Кызылкум, Заманбаба, Муминобад, Сиаб, Чакка, Жом.*

Annotation: *This article analyzes the stages of development of economic relations in the historical and cultural regions of the Zarafshan Valley.*

Keywords: *A. Askarov, Ya. G. G‘ulomova, U. I. Islomov, V. I. Sarianidi, O‘. I. Abdullaev, R. Z. Ibragimov, M. J. Juraqulov, Central Asia, Uzbekistan, Zarafshan, Amu Darya, Kyzylkum, Zamonbobo, Mo‘minobod, Siyob, Chakka, Jom.*

Kirish. [Infroduction]. Yer tarixining tarixida kechgan geologik jarayonlarning bir necha marotaba takrorlanishi natijasida tarkib topgan O‘zbekiston hududi geomorfologik xususiyati jahonning fizik-geografik xaritasida rang-barang holatda aks etgan.

Mazkur xususiyatni aks ettirgan bir qator tabiiy-iqtisodiy hududlar tog‘lar va tekisliklar namoyon qilgan, ular o‘zining geografik joylashishi, tabiiy resurslar, iqlim sharoiti, daryolari, osmono‘par tog‘lari, sernam va serunum ekin-tekinlikka qulay bo‘lgan tekisliklari bilan O‘rta Osiyo markazida joylashgan biz istiqomat

qilayotgan muqaddas zaminni strategiyasini belgilab bergan, mana shunday tarixiy-madaniy o‘lka Zarafshon vodiysi hisoblanadi. O‘zbekistonning iqtisodiy xaritasiga e’tibor berilsa, Zarafshon vodiysi geografik o‘rni, tabiiy manbalari geomorfologiyasi iqtisodiy omillari, aholining joylashishi, jihatlaridan farqlanishi aks etgan. Zarafshon vodiysi geografik jihatidan uch qismga Janubiy, Markaziy va G‘arbiy hududlarga bo‘lingan bo‘lib, ularda bronza davrida kechgan tarixiy jarayonlar va iqtisodiy omillarni yoritish maqsad qilingan.

Mavzuga oid adabiyotlar taxlili [Literature review).

Zarafshon vodiysi geografik manzarasi jihatidan markaziy, g‘arbiy va janubiy hududlar yuzasi tuzilishi turlichadir, aholining joylashishi xususiyati bir-biridan farqlanish alomatlari ko‘zga tashlanadi. Shunday xususiyat alomatlardan biri Quyi Zarafshon vodiysi hisoblanadi, u geografik manzarasi jihatidan Amudaryo o‘ng sohili hududiga tutashib ketgan.

XX asr 50-yillaridan boshlab, Ya.G‘.G‘ulomov rahbarligida Mahondaryo arxeologiya guruhi Quyi Zarafshon vodiysi geografik holatini tasvir qilgan Zarafshon daryosi Mahondaryo va Go‘jayli irmoqlari suv ta’minoti yuqori bo‘lganligi bois, Qizilqum to‘lqinsimon qum tepaliklari oralig‘ida botiqlarni suv havzalariga aylantirgan, ularning sohil etaklari o‘simlik va hayvonot dunyosiga serob bo‘lgan.

Mana shu iqtisodiy imkoniyatdan unumli va uddaburon Zamonbobo turar-joyida o‘rnashgan aholi uy chorvachiligi va taqir yerlarda ziroatchilikni olib borganlar. [1.1966-266 s. 2.1974-S.9-14. 3. 1979-S 23-28, 1. 1962-S. 59-65, 2. 1966- 266 s., 3. 1974-S.9-14, 4. 1979-S. 23-28, 5. 1981- S. 107-108.].

O‘.I.Abdullayev va R.Z. Ibragimov M.Juraqulov tadqiqotlarida Zarafshon vodiysining bronza davriga oid Zomonbobo, Mo‘minobod, Siyob, Chakka va Jom yodgorliklari tarixiga oid manbalarni olganlar, bu esa mazkur tarixiy davrda kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnik-madaniy munosabatlar tarixini o‘rganishiga xizmat qiladi. [6.2019-B. 180-181. 7. 2020-B 123-126, 8.2011-B. 5-22]

Tadqiqot metodologiyasi: [Research Methodology].

Ilmiy xolislik, nazariy-qiyosiy tahlil, tarixiy-xronologik tahlil, munozara, umumlashtirish, yakuniy xulosa.

Tahlil va natijalar . [Analysis and results]

O‘tgan asr adabiyotlar va milliy mustaqillik yillarida Zarafshon vodiysi madaniy-xo‘jalik hududlarda olib borilgan turli nomda harakat qilgan arxeologik

ekspeditsiya va guruhlar xodimlari tomonidan olib borilgan qazishmalar natijasida olingan ashyolarning ilmiy tahlilidan kelib chiqqan fikr-mulohazalarni nazariy-qiyosiy jihatidan tahlil qilindi, shu asosda natijalar quyidagicha qayd qilindi:

Zarafshon vodiysi geoiqtisodiy hududlarda o‘rnashgan bronza davri aholisi geografik xususiyatlari neolit davri xo‘jalik an’analari negizida rivojlanishi davom etgan. Har bir tarixiy-madaniy hududlarda iqtisodiy omillarning rivojlanishi bir maromda kechgan emas.

Quyi Zarafshon, ichki Qizilqum va o‘rta Zarafshon hududlarida bronza davrida aholi tomonidan iqtisodiy munosabatlar rivojlanish jarayonlari kechgan. Mazkur tarixiy-madaniy hududlarda aholining iqtisodiy va etnik-madaniy munosabatlarni rivojlanishida tabiat in’omlari ta’sirida Zarafshon daryosi toshqini natijasida harakatda bo‘lgan Echkiliksoy, Daryosoy, Mahondaryo, Go‘jayli va Oyoqagitmalar suv ta’minoti imkon bergan. Bu iqtisodiy va etnik jarayon Janubiy Zarafshonda kuzatilmaydi.

Xulosa va takliflar : [Conelusion /Recommendation].

Yuqorida qayd qilingan tahlil va natijalar quyidagi xulosani qayd qilish imkoni bo‘ldi:

-Zarafshon vodiysi yuzasi jihatidan tekislik-Qizilqum sharoiti va tog‘lik xususiyatlarga egaligi bilan farqlanish xususiyati, Buxoro vohasi, O‘rta Zarafshon, Janubiy Zarafshonning g‘arbiy hududi tekislik.

-Quyi Zarafshon va O‘rta Zarafshon hududlarining suv bilan ta’minlanishi Zarafshon, Vobkent va Qora daryolari.

-Janubiy Zarafshon hududida esa Qoradaryo, tog‘dan oqib tushgan jilg‘alar suvlari ta’sirida vujudga kelgan soylar.

Mil.avv.III ming yillik ikkinchi yarmi –II ming yilliklarda Quyi Zarafshon va O‘rta Zarafshonda o‘rnashgan aholi turar-joylari yarim yerto‘la, aholisi olib borgan xo‘jalik negizi uy-chorvachiligi, hunarmandchilikning kulolchiligi, tosh qurollari va taqir yerlarda “Qayr” uslubida ziroatchilik bo‘lgan. Aholining olib borgan xo‘jaligida ishlab chiqarish munosabatlari qaror topgan.

Takliflar quyidagicha izohlandi:

1.Zarafshon vodiysi O‘zbekiston hududining ekin-tekinlikka qulay qismida joylashganlik xususiyatini kengroq o‘rganish;

2.O‘zbekiston hududining bronza davri tarixida Zarafshon vodiysining strategik ahamiyatida tarixiy o‘rnini izohlash;

3.Xorazm vohasi va Zarafshon vodiysi bronza davri aholisining iqtisodiy va etnik munosabatlarini hozirgi zamon sharoitida tahlil qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1 Askarov A. Kultura Zaman-Baba v Nizovyax Zerafshana // ONU,-T.1962 № 1.

2.Gulyamov Ya.G, Islamov U.I, Askarov A. Pervobытnaya kultura i vozniknovenie oroshaemogo zemledeliya v Nizovyax Zarafshana-Tashkent. Fan. 1966.

3.Askarov A. Uspexi arxeologii Uzbekistana v izuchenii kamennogo veka //IMKU-Tashkent, 1974. Vып-II.

4.Sarianidi V.I. K datirovke o kulture Zamanbaba /Etnografiya i arxeologiya Sredney Azii-M:Nauka 1979.

5.Askarov A.A. K peredatirovke kulturы Zamanbaba // Kultura i iskusstvo drevnego Xorezma-M.:Nauka, 1981.

6.Abdullaev O‘.I. O‘rta Osiyo ibtidoiy jamoa tuzumi va ilk davlatchilik tarixi-T, 2019.

7.Ibragimov R.Z. O‘rta Osiyo arxeologiyasi-T. 2020.

8.Juraqulov M.J. Samarqand vohasining ibtidoiy madaniyat tarixi sahifasi //O‘zbekistonda arxeologiyasi-Samarqand 2011- № 1 (2).

ZARAFSHON VOHASINING SUV MANBALARI VA SUG'ORILISH TARIXIGA DOIR TAHLILIY MA'LUMOTLAR

Suyunov Samaritdin Samatovich, Samarqand arxeologiya institututi t.f.d, yet.il. xod.
(0009-0001-3695-088X) - ORCID

UO'K 94(575.1)

Annotatsiya. *Maqolada Markaziy Osiyodagi eng yirik daryolardan biri hisoblangan Zarafshon daryosining suv manbalari va sug'orilish tarixini o'rganishga doir malumotlar tahlil etilgan. Unda Zarafshon daryosining Turkiston, Hisor, Zarafshon tizmalari orasida, Matcha, Fandaryo, Kishtutdaryo va Maxandaryo irmoqlarining qo'shilishidan hosil bo'lganligi to'g'risidagi malumotlar ochiqlab berilgan. Yuqorida,Tojikistonning Panjikent shahridan 15 km g'arbda, Zarafshon daryosining suvi keng tekislikka chiqqanligi, aynan shu joydan daryo o'zanining yirik sug'orish kanallarini boshlanishi tadqiqotda ko'rsatib o'tilgan. Arab geograflari tomonidan ("Varaqsar" - "to'g'on boshi") deb nomlangan Ravotxo'ja to'g'oni shu yerda joylashgan bo'lib, qadimdan Samarqand va uning atrofini suv bilan ta'minlab kelgan Dargom kanalining boshi ham shu joyda joylashganligigi aytib o'tilgan. Bundan tashqari, Samarqanddan 7 km shimoli-sharqda, Cho'ponota tepaligi atrofida Zarafshon daryosi ikki tarmoqqa bo'lingan. Ular shimoliy Oqdaryo va janubiy Qoradaryolardir. Aynan shu joyda uch ravoqdan iborat suv ayirg'ich ko'prigi qurilganligi so'nggi o'rta asrlar manbalarda takidlab o'tilgan. Bu ikki daryo oralig'idagi joy (orol), o'rta asrlardan beri Mianqol nomi bilan ma'lum bo'lib, uning hududi qadimdan vodiyning eng rivojlangan qismi hisoblangan. Zarafshon daryosining umumiy uzunligi (Fandaryo va Matcha daryolarining qo'shilishidan toki Qorako'l daryosigacha) 576 km ga teng bo'lib, yaqin vaqtlargacha Zarafshonning ikkala tomonida joylashgan Buxoro va Qorako'l vodiysida 20 ta asosiy kanallar orqali sug'orish tizimlari suv bilan ta'minlagan. Ulardan eng kattalari Buxoro vohasidagi*

Konimeh, Shafrikon, Sultonobod, Pirmast, Harkanrud, Vobkendaryo, Shohrud, Romitan, Qalqonota, Xayrobod va Saribozor kanallari ekanligi tadqiqotda ko'rsatib o'tilgan. Zarafshon daryosi nafaqat Samarqand va Buxoro vohalarini suv bilan ta'minlabkina qolmay, balki tuproqni kimyoviy elementlar bilan ham yetarli darajada o'g'itlagan va oqizindi cho'kindilari bir vaqtlar Zarafshon vodiysining allyuvial tekisligini shakllanishida muhim rol o'ynaganligi ochiqlab berilgan. Zarafshon vohasi Markaziy Osiyo (So'g'diyona) qishloq xo'jaligi tarixida muhim rol o'ynagan bo'lib, bu yerda qadimdan qishloq xo'jaligi madaniyati rivojlana boshlagan. Vohada murakkab, mehnat talab qiladigan sug'orish tizimlari qurilgan va uning hisobidan past tekisliklar, hattoki tog' oldi yerlarigacha o'zlashtirilgan. Qolaversa vohada qishloq xo'jaligining rivojlanishi orqali iqtisodiy o'sish kuzatilganligi tadqiqotda xulosa qilingan.

Kalit so'zlar: *Zarafshon daryosi, Varaqsar, to'g'on boshi, Cho'ponota, Dargom, Konimeh, Shafrikon, Sultonobod, Pirmast, Harkanrud, Vobkendaryo, Shohrud, Romitan, Qalqonota, Xayrobod, Saribozor.*

Аннотация. *В статье анализируются данные исследования источников воды и истории орошения реки Зарафшан, одной из крупнейших рек Центральной Азии. Выясняется, что река Зарафшан образовалась между Туркестанским, Гиссарским и Зарафшанским хребтами, в месте слияния притоков Матча, Фандарья, Киштутдарья и Махандарья. Исследование показало, что вода реки Зарафшан впадает в широкую равнину в 15 км к западу от города Панджикент в Таджикистане, и именно отсюда берут начало крупные ирригационные каналы русла реки. Здесь расположена плотина Раватходжа, называемая арабскими географами («Вараксар» — «голова плотины»), а также отмечается, что здесь же находится головная часть Даргомского канала, который долгое время снабжал водой Самарканд и его окрестности. Кроме того, в 7 км к северо-востоку от Самарканда, в районе холма Чопоната, река Зарафшан разделяется на два рукава: северный Акдарья и южный Карадарья. Именно здесь, как упоминается в позднесредневековых источниках, был построен трехпролетный водораздельный мост. Место (остров) между этими двумя реками известно со Средних веков как Мянкол, и его территория долгое время считалась наиболее развитой частью долины. Общая длина реки Зарафшан (от слияния рек Фандарья и Матча до реки Каракуль) составляет 576 км, и до недавнего времени она снабжала водой ирригационные системы в Бухарской и Каракульской долинах, расположенных по обе стороны Зарафшана, через 20 основных каналов. Крупнейшими из них, как показано в исследовании, являются каналы*

Кониме, Шафрикон, Султанабад, Пирмаст, Харканруд, Вобкендарьё, Шохруд, Ромитан, Калканота, Хайрабад и Сарибазур в Бухарском оазисе. Выявлено, что река Зарафшан не только снабжала водой Самаркандский и Бухарский оазисы, но и в достаточной мере удобряла почву химическими элементами, а её отложения некогда играли важную роль в формировании аллювиальной равнины Зарафшанской долины. Зарафшанский оазис сыграл важную роль в сельскохозяйственной истории Центральной Азии (Согдианы), где сельскохозяйственная культура начала развиваться с древних времён. В оазисе были построены сложные, трудоёмкие ирригационные системы, благодаря которым развились низменные равнины, даже предгорья. Кроме того, исследование пришло к выводу, что экономический рост в оазисе наблюдался благодаря развитию сельского хозяйства.

Ключевые слова: *река Заравшан, Вараксар, исток плотины, Чопоната, Даргом, Кониме, Шафрикон, Султанабад, Пирмаст, Харканруд, Вобкендарья, Шахруд, Ромитан, Калканота, Хайрабад, Сарибазор.*

Abstract. *This article analyzes data from a study of the water sources and irrigation history of the Zarafshan River, one of the largest rivers in Central Asia. It reveals that the Zarafshan River formed between the Turkestan, Hissar, and Zarafshan ranges, at the confluence of its tributaries, the Matcha, Fandarya, Kishtutdarya, and Mahandarya. The study revealed that the Zarafshan River flows into a wide plain 15 km west of Panjakent, Tajikistan, and that it is here that the major irrigation canals of the riverbed originate. The Rawatkhoja Dam, known by Arab geographers as "Waraksar" (meaning "head of the dam"), is located here. It is also noted that the head of the Dargom Canal, which for a long time supplied water to Samarkand and its environs, is also located here. Moreover, 7 km northeast of Samarkand, near Choponata Hill, the Zarafshan River divides into two branches: the northern Akdarya and the southern Karadarya. It was here, as mentioned in late medieval sources, that a three-span bridge was built across the watershed. The area (island) between these two rivers has been known since the Middle Ages as Myankol, and its territory was long considered the most developed part of the valley. The total length of the Zarafshan River (from the confluence of the Fandarya and Matcha rivers to the Karakul River) is 576 km, and until recently, it supplied irrigation systems in the Bukhara and Karakul valleys, located on both sides of the Zarafshan, through 20 main canals. The largest of these, as shown in the study, are the Konime, Shafrikon, Sultanabad, Pirmast, Kharkanrud, Vobkendaryo, Shohrud, Romitan, Kalkanota, Khairabad, and Saribazur canals in the Bukhara oasis. It was revealed that the Zarafshan River not only supplied water to the Samarkand and Bukhara oases*

but also sufficiently fertilized the soil with chemical elements, and its sediments once played a significant role in the formation of the alluvial plain of the Zarafshan Valley. The Zarafshan oasis played a significant role in the agricultural history of Central Asia (Sogdiana), where agriculture began to develop in ancient times. Complex, labor-intensive irrigation systems were built in the oasis, which contributed to the development of lowland plains and even foothills. Furthermore, the study concluded that economic growth in the oasis was due to the development of agriculture.

Key words: *Zarafshan River, Varaksar, dam source, Choponata, Dargom, Konime, Shafrikon, Sultanabad, Pirmast, Harkanrud, Vobkendarya, Shahrud, Romitan, Kalkanota, Khairabad, Saribazor.*

Kirish. O’rta Osiyonibg uch azim daryosi Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon havzalarida shakllangan Baqtriya, Xorazm, Sug‘d va Choch hududlarida qadimgi dehqonchilik madaniyatining paydo bo‘lishi, sug‘orilish tarixi, qishloq makonlari, shaharsozlik, hunarmandchilik hamda ijtimoiy-iqtisodiy tizimi muammolariga oid bo‘lgan ilmiy izlanishlar hozirgi kunda muntazam ravishda olib borilmoqda. Ushbu ilmiy tadqiqotlar jarayonida Sug‘dning qadim va o‘rta asrlar davriga oid bo‘lgan shaharlar, markazlashgan qishloqlar, qal'a va qo‘rg‘onlar tabiiy va sun’iy suv havzalari bo‘ylab joylashganligi kuzatilgan. Ularning tarixi va moddiy madaniyatini mukammal o‘rganish esa vohada sug‘orma dehqonchilik xo‘jaligining paydo bo‘lishi va uning rivojlanish masalalarini yoritishga imkon beradi.

O’rta Osiyodagi eng yirik daryolardan biri hisoblangan Zarafshon daryosining suv manbalari va sug’orilish tarixini o’rganishga doir malumotlar ilmiy adabiyotlarda berilgan bo’lsada xavzaning qaerdan boshlanishi hamda qaysi hududdan yirik sug’orish tarmoqlariga bo’linishi haqida biror bir tizimli tushincha berilmagan. Bundan tashqari qadimgi Ravotxo’ja to’g’oni va Shayboniyxon suv ayirg’ichlarini qachon qurilganligi to’g’risida ham aniq malumotlar qayd etilmagan. Shu bilan birga Zarafshon daryosining umumiy uzunligi to’g’risida ham jo’yali tadqiqotlar o’tkazilmagan va ular to’g’risida tahliliy tushincha berilmagan. Shu sababli ham Zarfshon vohasini Markaziy Osiyo qishloq xo’jaligida qanday o’rin tutganligini aniqlashni va ular to’g’risidagi malumotlarini ochib berishga xarakat qilindi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi.

O’rta Osiyoning sug’orilish tarixini o’rganish XX boshidan rus olimlari tomonidan boshlangan bo’lib, ular yaratgan asarlar xarakteriga qarab uch gruppaga bo’lingan. Ulardan birinchi gruppasi tarixiy asarlarni o’z ichiga olib, ular orasida o’z davrining yagona buyuk asari akademik V.V. Bartoldning "Turkistonni sug’orish tarixiga doir" nomli asari ayniqsa diqqatga sazovor bo’lgan. Bu asar arab, fors va boshqa tillarda yozilgan tarixiy va geografik manbalardan to’plangan boy faktik maьlumotlar asosida yozilgan bo’lib, hozirgi kungacha o’zining ilmiy ahamiyatini yo’qotgan emas. Ikkinchi gruppaga rus xarbiy mualliflari: A.P. Fedchenko, L.F. Kostenko, L.N. Sobolev, F. Bogoslovskiy, G.A. Arandarenko, N. Letechenko, Ye. Markov, A. Shaxnazarov, N. Dingelshted, Ye.N. Pavlovskiy , V.I. Maselskiy, V.V. Radlov va boshqalarning asarlari diqqatga sazovordir. Bu asarlarda asosan Zarafshon vodiysining geografik o’rni, topografik tuzilishi va suv resurslari hamda uning iqtisodi to’g’risida maьlumotlar keltirilgan. Uchinchi gruppada Samarqand vohasining suv xo’jaligida bevosita xizmat qilgan injener-irrigator (suvchi) va texniklari asarlaridir.Z.E. Jijenskiy, I.P. Petrovskiy, M.M. Virskiy, V. Malgin, A.V. Chaplыgin va boshqalarning asarlarida Zarafshon vodiysining gidrografiyasi va irrigatsiya sistemalari batafsil tasvir eьtilib, ularda Samarqand irrigatsiyasini qayta qurish to’g’risida qator texnik ko’rgazmalar va iqtisodiy loyihalar ishlab chiqilgan.

O’zbekistonning, shu jumladan Zarafshon vodiysining sug’orish masalalarini har tomonlama chuqur o’rganish ittifoq davrida boshlangan. Keyingi yillarda bu masalaga bag’ishlangan qator yirik ilmiy asarlar nashr qilingan. Bulardan Y.G’. G’ulomov, R.X. Aminova, Yu.I. Ibragimov, A.R. Muhammadjonov, A.G. Abdunabiev, R.S. Igamberdiev, V.Ya. Nepomnin, A.M. Mamedovlarning monografiyalari O’zbekiston sug’orish tarixi tarixshunosligi asosini tashkil etgan. Xattoki O’zR FA tarix va arxeologiya institutida "O’zbekistonda sug’orish tarixi" sektori tashkil etilgan. Unda S. Jalilov, A.A. Abdulxamidov, M. Mambetullaev, S. Anorbaev, M.M. Tagiev va boshqalarning ilmiy ishlari diqqatga sazovor bo'lgan.

Tadqiqot natijalari. Zarafshon daryosi O’rta Osiyodagi yirik daryolardan biri bo'lib, qadimdan muhim iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan, qolaversa O'zbekiston xalqlarining shakllanishi va rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynagan

daryo ham hisoblagandir. Zarafshon daryosi havzasi Turkiston va Hisor tizmalari hamda Turkiston va Zarafshon tizmalarining g'arbiy yonbag'irlari (Chumqartog', Nurotatog', Karatepa, Zirabuloq va Ziadin cho'qqilari) orasida joylashgan bo'lib, u Markaziy Osiyoning ikkita eng yirik daryo havzasi- Amudaryo va Sirdaryoni bir-biridan ajratib turadi.

Daryoning suv havzasi ancha balandlikda joylashgan bo'lib, juda tik qiyaliklarga ega baland cho'qqilar, chuqur kanyonlar va tor vodiylardan iborat bo'lib, bu drenaj havzasini sezilarli eroziyaga olib keladi. Zarafshon daryosi drenajning 1 km^2 maydonidan tekislik hududiga har yili o'rtacha 421 tonnagacha tog' oqizigi cho'kindilari olib o'tiladi va o'rtacha yillik oqim miqdori deyarli 4,5 million tonnani tashkil etadi [1].

Zarafshon daryosi cho'kindilari, Amudaryo va Sirdaryo cho'kindilariga qaraganda 1,5-2 baravar ko'p fosfor va 2 baravar ko'p kaliy mavjud [2]. Vodiyning yuqori qismidagi cho'kindilardan oqilona foydalanish qishloq xo'jaligi ekinlarini rivojlantirish uchun katta foyda beradi [3]. Daryo oqimi butunlay Turkiston, Zarafshon va Hisor tizmalarining tog' tizimlarida shakllanadi. Zarafshon daryosi muzliklar bilan oziqlanadi va uzoq muddatli suv toshqini davriini yzaga keltiradi. Uning drenaj maydonida taxminan 378 ta muzlik qoplami mavjud. Muz qoplamining umumiy maydoni 476 km^2 ga teng [4, 5].


Vodiyning yuqorisidagi Turkiston, Zarafshon va Hisor tizmalari, ayniqsa sharqda, hamda Fandaryo va Kshtut daryolarining ko'ndalang vodiylari orasidagi Zarafshon tizmasi juda katta balandliklarga ega. Dastlabki ikkita tizmaning alohida cho'qqilari 5000 m dan oshadi, Hisor tizmasining cho'qqilari esa deyarli 5000 m ga yaqin. Shuning uchun, ancha masofada tizmalarning tepalari qor chizig'idan yuqoriga ko'tariladi, abadiy qor qoplamini ko'taradi va ko'p sonli qor maydonlari va muzliklarga ega [6].

1. Uzunligi 200 km bo'lgan Matcha daryosi Zarafshon havzasidagi eng katta muzlikdan boshlanadi. Zarafshonning shimoliy yonbag'ridagi va Turkiston tizmalarining janubiy yonbag'irlaridagi muzliklar va buloqlardan kelib chiqqan ko'plab yon daryolar (soylar) daryoga quyiladi. Matcha daryosi oqimning 49 foizini, shuningdek, Zarafshon daryosining deyarli barcha tog' cho'kindi oqimini ta'minlaydi [7].

2. Uzunligi 24,5 km bo'lgan Fandaryo daryosi Yagnob va Iskandaryo daryolarining qo'shilishi natijasida hosil bo'ladi. Daryoning yuqori oqimi Qorako'l deb nomlanadi, u Hisor tizmasining chap yonbag'ridan boshlanadi. Bu daryo havzasining maydoni 974 km^2 ni tashkil qiladi [9]. Yagnob darasida va Iskandaryo havzasining quyi oqimida tog' tizmalari yonbag'irlaridan oqib tushadigan daryolar va soylarning suvlari faqat sug'orish uchun ishlatiladi. Iskandaryo darasining yuqori oqimida sug'orish tizimlari ham daryodan, ham uning kichik irmoqlaridan kelib chiqadi.

3. Kshtutdaryo daryosi Voru va Artuch daryolarining qo'shilishidan hosil bo'ladi, Kshtut daryosi hosil bo'lgandan so'ng, tor vodiy bo'ylab 10,5 km oqadi va Zarafshonga quyiladi. Daryoning umumiy uzunligi 53 km ni tashkil qiladi [10]. Kshtut daryosi havzasida sug'orish uchun asosan ko'plab kichik yon suv manbalari, shuningdek, ular qo'shilishidan oldin Voru va Artuch daryosi suvlari ishlatiladi.

4. Zarafshon daryosining oxirgi yirik irmog'i bo'lgan Magiandaryo Hisor tizmasining shimoliy yonbag'ridagi muzliklardan hosil bo'lgan va o'z navbatida ikkita irmoq - Shingdaryo va Magiandaryodan iborat. Magiandaryo ularning qo'shilishidan so'ng tizmani kesib o'tadi, vodiyga kiradi va Panjikentning sharqida Zarafshon daryosiga quyiladi. Daryoning suv havzasi 1100 km ni egallaydi, bu yerda 45 ta muzlik mavjud. Daryoning umumiy uzunligi 67 km ni tashkil qiladi [11]. Oxirgi irmoq qo'shilgandan so'ng, Zarafshonning tog'li hududidan umumiy oqimi o'rtacha 190 m^3/sek ni tashkil qiladi [12].



1-rasm. Zarafshon daryosining yuqori oqimi xaritasi

Kshtutdaryo va Zarafshon daryosi qo'shilgandan so'ng, vodiy keskin kengayadi. Vodiyning Panjikent qismida Zarafshon daryosi faqat suv toshqini va qirg'oqbo'yi yerlarni suv bilan ta'minlay oladi. Daryoning ikkala qirg'og'idagi tekis terrasali katta yerlar, Zarafshon va Turkiston tizmalarining yonbag'irlari va etaklaridagi yerlar ko'plab tog' soylari va buloqlari suvlari bilan sug'oriladi. Uning yuqori oqimida, Fandaryo, Kshtutdaryo va Magyandaryodan tashqari, Turkiston, Hisor va Zarafshon tizmalari hamda ularning irmoqlaridan oqib o'tadigan 50 ga yaqin tog' kichik daryolari Zarafshonga kelib quyiladi. Yoz boshlanishi bilan bu daryolar qurib qoladi [13], (1-rasm).

Zarafshon suv havzasining Dupul suv o'lchash joyigacha bo'lgan umumiy maydoni 10 200 kv. km ni tashkil qiladi [14]. Panjikentdan pastda Zarafshon katta irmoqlarni olmaydi; aksincha, u hayot baxsh suv manbai bilan sug'orish kanallarini oziqlantiradi. Panjikentdan 15 km g'arbda, daryo Zarafshonning allyuvial yotqiziqlari natijasida hosil bo'lgan keng tekislikka chiqadi. Tekislikka kirgandan so'ng, Zarafshon kengayadi. Bu yerda daryo bir qator orollarni hosil qiladi va bir nechta tarmoqlarga bo'linadi, daryo o'zanining kengligi 1-1,5 km ga etadi (2, 3-rasmlar).



2-rasm. Zarafshon daryosining tekislikka chiqish qismining sxematik ko'rinishi.




3-rasm. Zarafshon daryosining tekislik qismidagi fotosurati

Daryoning ikkala qirg'og'ini kesib o'tuvchi katta va kichik sug'orish kanallari shu hududdan boshlanadi. O'rta asr arab geograflari ("Varaqsar" - "to'g'on boshi"). Qadim zamonlardan beri Samarqand va uning atrofini suv bilan ta'minlaydigan Dargom kanalining bosh tuzilishi shu joyda joylashgan (4-rasm).




4-rasm. Qadimgi Varaqsar to'g'oni o'rnida qurilgan Ravatxoja to'g'onining maketi

Samarqanddan 7 km shimoli-sharqda joylashgan Cho'ponota tepaliklarida Zarafshon ikki tarmoqqa bo'linadi: shimoliy Oqdaryo va janubiy Qoradaryo bo'lib, Mianqol orolini hosil qiladi, ular qo'shilgandan keyin yana Zarafshon daryosi deb ataladi (5, 6-rasmlar).




5-rasm. Zarafshon daryosining o'rta oqimi xaritasi



6-rasm. Zarafshonning Qoradaryo va Oqdaryoga suv bo‘luvchi Shayboniyxon suv ayirgichi.

Bu daryo oralig'i (orol) o'rta asrlardan beri Mianqol nomi bilan ma'lum. Mianqolning uzunligi 100 km va kengligi 12-15 km. Qulay geografik joylashuvi tufayli Mianqol hududi qadimgi davrlarda juda rivojlangan, bu ko'plab arxeologik maskanlardan iborat bo'lib u vodiyning eng rivojlangan qismi hisoblangan. Oqdaryo va Qoradaryo qo'shilishida vodiy yana biroz kengayib, 18-20 km ga yetadi. Vodiy janub va shimoldan tog' etaklaridagi adirlarni kesib o'tib, g'arbga qarab asta-sekin torayadi. Hozirgi Navoiy shahri yaqinida uning kengligi 8-10 km dan oshmaydi. Bu hududda Kanimex vohasi vodiydan ajralib chiqadi, Zarafshonni Qoradaryo va Oqdaryoga ajratuvchi Shayboniyxon suv bo'luvchisi shimoli-g'arbiy yo'nalishda dashtga kesadi. Uning kengligi 3-4 km ga etadi. Shimoldan voha Nurota tizmasining g'arbiy tizmalari bilan, janubdan esa Konimex dashtiga tutashgan Aftabachi adirlari bilan chegaradosh.

Navoiy shahridan pastda Zarafshon daryosi ikki tomondan dashtlar bilan o'ralgan. O'ng tomonda, daryo Konimex dashtining janubiy qismini, chap tomonda - Cho'i Malik dashtining shimoliy qismini yuvadi va keyin suvlarini yuqorida aytib o'tilgan dashtlar shimoliy va janubiy tomonlaridan siqib chiqarilgan tor Xazar darasidan o'tkazadi. Bu hududda vodiy keskin torayadi, uning kengligi 2,5-3 km dan oshmaydi. Xazar darasidan chiqib, daryo vodiyning pastki qismiga quyiladi. Bu qismga kirib, Zarafshon daryosi janubi-g'arbga oqib o'tadi, u shimol va g'arbdan qadimgi sug'orish yerlari bilan chegaralangan, kochma siljiydigan qumlar bilan qoplangan va Qizilqum cho'liga tutashgan konussimon Buxoro vohasini hosil qiladi (7-rasm).



7 –расм. Zarafshon daryosining quyi oqimi xaritasi.

Voha, sharqdan Chulimalik, Qiziltepa va Quyumozar adirlari, janubdan esa Qarshi dashtlari bilan chegaradosh. Uning kengligi 65 km. Qiziltepadan yetti kilometr g'arbda uning qadimgi irmog'i bo'lgan Vobkent daryosi, Zarafshondan ajralib chiqadi. Vobkent daryosining manbai Xarxur (katta) nomi bilan tanilgan. Xarxurdan o'n kilometr uzoqlikda Shoxrud kanali boshlanadi va Buxorouning atrofini ozlashtiradi. Bu joy Duoba deb ataladi va shu yerdan Zarafshonning Qorako'l daryosi boshlangan. Duobadan taxminan 78 km pastda, Yakkatut stansiyasi yaqinida, Zarafshon daryosining qadimgi quruq daryo o'zani – Maxandaryo, Qorako'l daryosining o'ng qirg'og'idan shimoli-g'arbga qarab ajralib chiqadi. Bu joyda Qorako'l daryosi Buxoro vohasidan chiqib, suvlarini tor oldi vodiy bo'ylab, Qorako'l vohasiga olib boradi. Bu nuqtada vodiyning kengligi 2,5-3 km dan oshmaydi [15].

Yakkatutdan 25 km pastda, Zarafshon-Qorako'l daryosi shu nomdagi eng past yelpiksimon vohani hosil qiladi. Qorako'l vohasining uzunligi 20 km,

kengligi 35 km dan oshadi; Sharq va shimoli-g‘arbdan, janubi-g‘arbga cho‘zilgan bu hudud Qarshi dashtiga tutashgan tepaliklar, qolgan uch tomondan esa Qizilqum cho‘lining sharqiy qismi bilan o‘ralgan, u yerda ko‘chma qumlar joylashgan. Shunday qilib, daryoning uzunligi (Fandaryo va Matcha daryolarining qo‘shilishidan toki Qorako‘l daryosigacha) 576 km, daryoning umumiy suv havzasi 11 722 km^2 ni tashkil qiladi. Yaqin vaqtgacha Zarafshonning ikkala tomonidagi Buxoro va Qorako‘l vodiysidagi yigirmadan ortiq asosiy kanallar sug‘orish tizimlarini suv bilan ta’minlagan, ularning eng kattasi Buxoro vohasidagi Konimeh, Shafrikon, Sultonobod, Pirmast, Harkanrud, Vobkendaryo, Shohrud, Romitan, Qalqonota, Xayrobod va Saribozor kanallari [16], (1-jadval).

1- Jadval:

Zarafshon daryosining quyi oqimining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichi.

Kanallar nomi	kanali uzunligi, km	O‘rtacha suv sarfi, m3/sek	Irrigatsiya maydoni, ga
Vobkentdaryo	48	49,5	40179
Shohrud	65,5	35,1	38916
Shafrikon	20	25,0	9579
Saribozor	40	20,0	21501
Sultonobod	40	17,0	10833
Xarkanrud	29	16,0	8008
Xayrobod	60,1	15,0	10486
Konimeh	59,8	13,5	10539
Pirmast	40	9,0	7058
Qalqonota	23,3	5,5	3440
Romitan	19,0	5,4	3400

Zarafshon muzliklar va qor bilan oziqlanadigan daryo sifatida suv toshqini kech boshlanishi va oqimning kech konsentratsiyasi bilan tavsiflanadi. Toshqin aprel oyining ikkinchi o'n kunligida boshlanadi, oqimning keskin o'sishi iyul oyigacha, ya'ni suv toshqini cho'qqisi o'tguncha davom etadi. Oqimning pasayishi avgust oyida boshlanadi va mart oyigacha, ya'ni yillik minimal suv oqimi kuzatilgunga qadar davom etadi (8, 9 - rasmlar).



8- rasm. Zarafshondagi kam suv bahor oylarida



9- rasm. Qadimgi Varagsar to'g'onining fotosurati.

Suv havzasining 1 km^2 maydonidan Zarafshon daryosi har yili 421 tonna oqizindi cho'kindini [17] tashiydi, bu turli xil qattiq zarralar bo'lib, ularning miqdori ayniqsa yozgi toshqin paytida ortadi. Oqizindi cho'kindining o'rtacha oylik miqdori va Zarafshon suvining loyqaligi bilan bog'liq hisob-kitoblardan ko'rinib turibdiki, Zarafshon daryosi har yili 4,5 million tonna cho'kindini tashiydi va oqizindi cho'kindining yillik miqdorining 81,7% ga to'g'ri keladi (Jadval - 2).

2- Jadval.


Samarqand va Buxoro vohalarida cho'kkan loy miqdori

№	Oy soni	Suvning loyqaligi, g/m^3	Oylik cho'kindi miqdori, ming. tonna	Davr
1	Yanvar	32	3,2	Qish
2	Fevral	29	2,3	Qish
3	Mart	70	6,5	Bahor
4	Aprel	157	26,0	Bahor
5	May	367	488,8	Bahor
6	Iyun	868	816,4	Yoz
7	Iyul	1466	1570,4	Yoz
8	Avgust	1363	1229,8	Yoz
9	Sentyabr	520	252,0	Kuz
10	Oktyabr	108	23,4	Kuz
11	Noyabr	53	7,5	Kuz
12	Dekabr	36	4,7	Qish

Samarqand va Buxoro vohalarida o'sish davrida ekin maydonlarida cho'kkan loy miqdori faqat suspenziyalangan cho'kindilar tufayli 0,8-1,5 mm ga oshadi [18]. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, Zarafshon vodiysida sug'orma dehqonchilik miloddan avvalgi 2-ming yillikning ikkinchi yarmida rivojlana boshlagan. Bu yerda Zarafshon daryosi katta rol o'ynagan. Dehqonchilik madaniyatining eng katta rivojlanishini, milodiy 1-4 asrlarda Dargom, Mirzaariq, Qalqonota, Ziadin, Romitan, Shohrud va boshqa kanallarning qurilishi bilan boshdan kechirgan. Qadimgi (yunon-rim) manbalarda Zarafshon vodiysi va uning tog'li qismini rivojlangan qishloq xo'jaligi mamlakati sifatida tasvirlangan [19]. Qadim va ilk o'rta asrlarga oid xitoy manbalarida Zarafshon vodiysining dehqonchilik ekinlari va tuproq unumdorligi haqida batafsilroq ma'lumotlar mavjudligi aytilgan [20,21].

Mug tog'idan topilgan sug'd hujjatlari ham qimmatli manbalar bo'lib, ularda yetishtirilgan ekinlar, yer sotib olish va sotish, vinochilik va mintaqaning iqtisodiy faoliyatining boshqa ko'plab jihatlari haqida muhim ma'lumotlar byrilganligi qayd etilgan [22].

Arab geograflari Zarafshon vodiysining gidrografiyasi haqida juda muhim ma'lumotlarni taqdim etganlar. "Samarqand aholisi foydalanadigan suvlar So'g'diyon (Zarafshon) daryosidan oqib chiqadi. Bu daryoning boshlanishi Sa g'aniyon orqasidagi Buttem tog'laridan boshlanadigan daryo tizimiga Jen nomli ko'lga o'xshash suv havzasi kiradi, uning atrofida qishloqlar joylashgan, bu hudud Urgar (Vurgar) nomi bilan tanilgan. Daryo tog'lar orasidagi ko'ldan oqib chiqadi va Varaqsar degan joyga yetib boradi, bu "to'g'on boshi" degan ma'noni anglatadi. Bu yerdan Samarqand kanallari rustoqlarga tarqalib, vodiyning Samarqand tomonidagi g'arbiy qismiga to'g'ridan-to'g'ri tutashadi. Vodiyning sharqiy tomonidagi kanallar Varaqsarning ro'parasida Gubar deb nomlangan joydan boshlanadi, chunki aynan shu yerda tog'lar ajralib, ekinlar va oqova suvlar uchun mos yerlarni ochib berilganligi, Varaqsardan Barsh, Barmish va Bashmin kanallari boshlanadi deb aytilgan. Ularning eng kattasi Barsh, keyin esa Barmish; ikkalasida ham kema qatnovi bo'lgan bo'lishi mumkinligi takidlanadi. Bu kanallardan ko'plab kanallar ajralib chiqadi, shuning uchun ularning yordami bilan qishloqlar va ekin maydonlari gullab-yashnaydi. Varaqsardan toki rustoqning oxirigacha bo'lgan Dargom (10, 11, 12 - rasmlar) kanalining uzunligi 10 farsax, kengligi taxminan 4 dan 1 farsaxgacha dyeilgan.



10-rasm. Dargom kanali qurilishining fotosurati.



11-расм. Zamonaviy suv taqsimoti qadimiy to'g'on o'rnida.



12-расм. Dargom kanalining asosiy kirish qismining fotosurati

Bu yerda joylashgan rustoqlar Varaqsar, Maymurg', Sanjarfag'an va Dargom deb ataladi. Gubardan oqib o'tadigan kanallar quyidagilar: Ishtixon, Sinabob va Buzmajon orqasidan o'tadi va Vidar rustoqiga yetib borishdan oldin

bir nechta qishloqlarni sug'oradi, u orqali Ishtixon tumanining oxirigacha suv o'tadi. Buzmajon, Sinabobdan pastda, shaharga tutash hudud yo'nalishi bo'ylab joylashgan va Buzmajon rustoqini sug'oradi. Ishtixonga kelgach, u boshidan taxminan qilingan bir necha farsax uzoqlikda foydalanishga kirganligi, u yerda kanallarga bo'linib, Ishtixonga yetib borgunga qadar 7 farsax maydonni sug'organligi aytilgan. Butun So'g'diyonada ko'proq ekin maydonlari, zichroq aholi va ko'p sonli dehqonlar bo'ladigan kanal yo'q, qal'alardan ham ulug'vorroq, qishloqlardan ham ulug'vorroq va mustahkamroq dyeilgan. Bu So'g'diyonaning yuragi bo'lib, undan ko'plab kanallar oqib o'tadi, men ular haqida aniq ma'lumot ololmadim. Ular ikki kundan ortiq masofani bosib o'tadigan maydonni sug'oradi. So'g'diyona daryosidan butun uzunligi bo'ylab, har bir shahar va har bir rustoq ro'parasida ko'plab kanallar tarmoqlanib, daryo Arbinjon chegaralaridan chiqib, Karmana va Buxoro chegaralariga yetguncha davom etadi. Undan Arbinjon, Debusiya va Karmana kanallari tarmoqlanib, Buxoroda qayta taqsimlanishiga kirguncha davom etadi. Ushbu daryoning sharqiy qismida, Samarqand ro'parasidagi chap qirg'og'i tarmoqlanib, u yerdan Kabudanjkat va mahalliy qishloqlar kanallari boshlanadi va Kabudanjkat, Marzban va boshqa rustoqlar sug'oriladi deb o'tilgan[23].

Ushbu malumototga ko'ra, arab xalifaligiga mustahkam qo'shilgandan so'ng, Maymurg' Samarqand viloyatining rustoqlaridan (tumanlaridan) birini tashkil etgani, uning janubiy qismi - Sanjarfag'an va shimoliy qismi - Varaqsar alohida rustoqlarni tashkil etgani ko'rsatilgan [24]. Varaqsarning ajratilishi ayniqsa muhim edi, chunki u butun Samarqand vohasini sug'oradigan kanallarning boshlarini o'z ichiga olgan deyilgan. At-Tabariyning yilnomasida faqat Varaqsar va Panjikent tilga olinadi. Birinchisi 720, 735 va 739-yillardagi harbiy harakatlar bilan bog'liq holda tilga olinadi. 735-yilda, turklar tomonidan qo'llab-quvvatlangan So'g'd qo'zg'oloni paytida, Samarqandni egallashga muvaffaqiyatsiz urinishda arab hokimi Asad ibn Abdulloh isyonkor So'g'd poytaxtidan suvni yo'naltirish uchun Varaqsarda to'g'on qurishni buyuradi [25]. Tog‘ daralaridagi suv omborlari o‘rta asrlarda bahorgi sel oqimlarini to‘xtatib turish uchun muhim rol o‘ynagan. Ulardan biri X asrda Xonbanditau tog‘ darasida ohak bilan mustahkamlangan granit toshdan to‘g‘on qurilgan. Ikkinchi to‘g‘on, Abdullaxonbandi, Nurotadan 65 km sharqda ekanligi aytilgan[26].

Zarafshonda X-XI asrlarda sug‘orish tizimlari asta-sekin tiklandi va sug‘oriladigan dehqonchilik eng yuqori cho‘qqisiga chiqdi. Zarafshon vodiysida sug‘oriladigan yerlarning umumiy maydoni taxminan uch yuz ming gektarni

tashkil etgan, shundan bir yuz yigirma ming gektari vohaning g‘arbiy qismida qadimgi sug‘orish ostida bo‘lgan. Sug'oriladigan yerlar 22 ta rustoqga (tumanlarga) bo'lingan, jumladan, 782 va 830-yillar oralig'ida ko'chmanchilar bosqinlaridan himoya qilish uchun qurilgan Kampir Devar qal'a devori ichidagi 15 ta tuman. Rustoqlar Zarafshon daryosidan 17 ta asosiy kanal orqali sug'orilgan [27]. Zarafshon vodiysining gidrotizimi mo'g'ullar bosqini davrida jiddiy vayron bo'lgan bo'lishi mumkin. Shunday qilib, Zarafshon vodiysi mo'g'ullar tomonidan bosib olingandan keyin unga tashrif buyurgan xitoylik olim Chang-Chun jiddiy vayronagarchilik va aholining sezilarli darajada kamayishi haqida xabar bergan [28].

Ko'rinishidan, sug'orish inshootlarini tiklash va qayta qurish Temuriylar davrida amalga oshirilgan. Mo'g'ullardan keyingi davr manbalari orasida "Boburnoma" va vaqf hujjatlari diqqatga sazovordir. Bobur Samarqandda yetarli miqdorda suv, ekinlarni yetishtirish va ularning yuqori sifati haqida xabar beradi, ularning asosiy qismi O'rta Zarafshonda tashkil etilganligi aytiladi [29].

Manbalarda Samarqand yoki Buxoro hukmdorlarining Dargom to'g'onini tiklashda bevosita ishtirok etganiga oid ko'plab misollar keltirilgan. Shunday qilib, "Abdullanoma" tarixiy asari muallifi Hofiz Tanish ibn Mirmuhammad Buxoriyning xabarlariga ko'ra, 1556-yilda Samarqand hukmdori Navro'z Ahmadxon Ravathojadagi to'g'onni ta'mirlash bilan shug'ullangan (Hofiz Tanish Buxoriy, 1968. 237-bet). 1748-yilda tiklash ishlariga Buxoro hukmdori Rahimbiy boshchilik qilgan [30].

Dargom to'g'oni va uning suv olish to'g'onlari Samarqand hukmdorlari va aholisi uchun alohida tashvish tug'dirib kelgan. Ularning saqlanishi Varaqsar qishlog'i aholisiga yuklatilgan bo'lib, ular yer solig'i – xarajatlaridan ozod qilingan [31]. Bu yerda rivojlangan qadimiy dehqonchilik madaniyati rivojlangan bo'lib, murakkab mehnat talab qiladigan sug'orish inshootlari qurilgan, uning tekis va tog'li qismlari yerlari o'zlashtirilgan.

Xulosa.

O'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar natijasiga ko'ra, Zarafshon vodiysida sug'orma dehqonchilik miloddan avvalgi 2-ming yillikning ikkinchi yarmidan rivojlana boshlaganligida, Zarafshon daryosi katta rol o'ynaganligini ko'rish mumkin. Dehqonchilik madaniyatining eng yuqori rivojlanishini, milodiy 1-4 asrlarda Dargom, Mirzaariq, Qalqonota, Ziadin, Romitan, Shohrud va boshqa kanallarning qurilishi bilan bog‘liq bo'lganligi tadqiqotlardan malum bo'lgan.

Qadimgi (yunon-rim) manbalarda Zarafshon vodiysi va uning tog'li qismini rivojlangan qishloq xo'jaligi mamlakati sifatida tasvirlanganligidan ham bilish mumkin.

Arab geograflari Zarafshon vodiysining gidrografiyasi haqida juda muhim ma'lumotlarni taqdim etganlar. Unda Daryo tog'lar orasidagi ko'ldan oqib chiqadi va Varaqsar degan joyga yetib boradi, bu inshoot "to'g'on boshi" degan ma'noni anglatadi. Bu yerdan Samarqand kanallari rustoqlarga tarqalib, vodiyning Samarqand tomonidagi g'arbiy qismiga to'g'ridan-to'g'ri tutashadi. Varaqsardan Barsh, Barmish va Bashmin kanallari boshlanadi, bu kanallar butun uzunligi bo'ylab oqib o'tadi, hattoki boshidan oxirigacha voha erlarni sug'oradi dyeilgan. Bundan malumki VI-VIII asrlarda ham Zarafshon daryosi suvlaridan tizimli foydalanish eng yuqori darajada yo'lga qo'yilganligini ko'rsatadi.

X-XI asrlarda vohada sug‘orish tizimlari ilm-fan yutuqlari asosida yanada rivojlanadi va sug‘oriladigan dehqonchilik eng yuqori cho‘qqiga chiqadi. Zarafshon vodiysida sug‘oriladigan yerlarning umumiy maydoni taxminan uch yuz ming gektarni tashkil etgan bo'lib, shundan bir yuz yigirma ming gektari vohaning g‘arbiy qismida qadimgi sug‘orish tarmoqlari ostida bo‘lganligi aniqlangan.

Zarafshon daryosi nafaqat Samarqand va Buxoro vohalarini suv bilan ta'minlagan, balki tuproqni kimyoviy elementlar bilan yetarli darajada o'g'itlagan va uning oqizindi cho'kindilari, bir vaqtlar Zarafshon vodiysining allyuvial tekisligining shakllanishida muhim rol o'ynaganligi tadqiqotlarda o'z isbotini topgan.

Umuman olganda Zarafshon vohasi So'g'diyona va O'rta Osiyo qishloq xo'jaligi tarixida muhim rol o'ynagan bo'lib, bu yerda qadimdan qishloq xo'jaligi madaniyati rivojlana boshlagan. Vohada murakkab, mehnat talab qiladigan sug'orish tizimlari qurilgan va uning hisobidan hattoki past tekisliklar va tog' oldi yerlarigacha o'zlashtirilgan. Qolaversa vohada qishloq xo'jaligining rivojlanishi orqali iqtisodiy o'sish kuzatilib, qishloq makonlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi, shaharlarning bunyod etilishi hamda yuksalishiga zamin yaratgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Шульц В.Л. Реки Средней Азии. Ташкент, 1965., С. 467-489.

2. Молодцов В.А. Ирригационные наносы оазисов долины р. Зарафшан и делты р. Мургоб // В кн. «Влияние орошения на почвы оазисов Средней Азии». М., 1963. С. 62-63.

3. Эшонкулов У. Нанос реки Зарафшан и пути использования в сельском хозяйстве Таджикистана. М., 1985. С. 8-11.

4. Шеглова О.П. Питание рек Средней Азии. Ташкент, 1960. С.208.

5. Шульц В.Л. Реки Средней Азии. Ташкент, 1965., С. 466.

6. Шульц В.Л. Реки Средней Азии. Ташкент, 1965., С. 466-467.

7. Шульц В.Л. Реки Средней Азии. Ташкент, 1965., С. 473.

8. Киреев И.А. Предварительный гидротехнический очерк бассейна р. Ягноб // В кн. «Зерафшан». Л., 1936. С. 65-67.

9. Шульц В.Л. Реки Средней Азии. Ташкент, 1965., С. 475.

10. Шульц В.Л. Реки Средней Азии. Ташкент, 1965., С. 490.

11. Шульц В.Л. Реки Средней Азии. Ташкент, 1965., С. 490-492.

12. Шульц В.Л. Реки Средней Азии. Ташкент, 1965., С. 467.

13. Мухамеджанов А.Р. История орошения Бухарского оазиса. Ташкент, 1978. С. 20-21.

14. Шеглова О.П. Питание рек Средней Азии. Ташкент, 1960. С. 208.

15. Мухамеджанов А.Р. История орошения Бухарского оазиса. Ташкент, 1978. С. 22-23.

16. Мухамеджанов А.Р. История орошения Бухарского оазиса. Ташкент, 1978. С. 23.

17. Шульц В.Л., Машрабов. Гидрография Средней Азии. Ташкент, 1958. С. 150.

18. Молодцов В.А. Ирригационные наносы оазисов долины р. Зарафшан и делты р. Мургоб // В кн. «Влияние орошения на почвы оазисов Средней Азии». М., 1963. С. 48.

19. Курций Руф. История Александра Македонского. Ташкент, 1963. С.291.

20. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Ташкент, 1950. С. 272.

21. Ставиский Б.Я. Исторические сведения о верхней части Зарафшанской долины (до арабского 273 завоевания). ИМКУ. Вып. I. Ташкент, 1959а. С. 79-93.

22. СДГМ. Согдийские документы с горы Муг. Вып. III. Хозяйственные документы. Чтение, пер. и комм. М.Н. Боголюбова и О.И. Смирновой. М., 1963. С. 30, 32-35, 49, 52, 66).

23. Бетгер Е.К. Извлечение из книги «Пути и страны» Абул Касима Ибн-Хаукаля. Изд-во САГУ, Ташкент, 1957. С.24.

24. Бартольд В.В. Сочинения, т. III. М., Изд-во «Наука», 1914. С. 107.

25. Бартольд В.В. Сочинения, т. III. М., Изд-во «Наука», 1914. С. 140.

26. Мухамеджанов А.Р. История орошения Бухарского оазиса. Ташкент, 1978. С. 257.

27. Мухаммедов Х.М. Стена Кампирак. Из истории древних народных оборонительных сооружений в Узбекистане. ОНУ, №1. 1961. С. 49.

28. Палладий. Си ю цзи, или описание путешествия на запад. Тр. членов русской духовной миссии в Пекине. Перевод с китайского, с прим. Архимандрита Палладия. Т. IV. СПб., 1866. С. 347.

29. Бабур Захириддин Мухаммад. Бабурнаме, Ташкент, 1958. С. 60.

30. Абу Тахир Ходжа. Самария (описание древности и мусульманских святынь Самарканда). Пер. В.Л. Вяткина, Самарканд, 1899. С. 240.

31. Бартольд В.В. Сочинения, т. III. М., Изд-во «Наука», 1965. С. 113.

O‘ZBEKISTON SSRDA MASHINA-TRAKTOR STANSIYALARI VA KOLXOZLAR O‘RTASIDAGI O‘ZARO HAMKORLIKNING INSTITUTSIONAL XUSUSIYATLARI (1949-1954 yy.)

Xolboyeva Gulzira Rustamjonovna,
BuxMTU mustaqil izlanuvchisi

UO‘K 94(575.1)

Annotatsiya. *Maqolada 1949-1954 yillarda Mashina-traktor stansiyalari (MTS) bilan kolxozlar o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlar, ularning huquqiy asoslari hamda amaliy ijrosi Buxoro viloyati materiallari asosida tahlil qilingan. MTS tizimining qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash bilan bir qatorda davlatning kolxozlar ustidan iqtisodiy va tashkiliy nazoratini ta’minlovchi institut sifatidagi o‘rni yoritilgan. 1949 va 1954 yillarda qabul qilingan namunaviy shartnomalar mazmuni, tomonlarning huquq va majburiyatlari hamda ularning ijrosida kuzatilgan muammolar arxiv hujjatlari asosida tahlil etilgan. Tadqiqotda shartnoma munosabatlaridagi institutsional ziddiyatlar, javobgarlikning aniq taqsimlanmaganligi, mehnat munosabatlari va natura shaklidagi hisob-kitob tizimidagi nomutanosibliklar ochib berilgan. Shuningdek, Buxoro viloyati MTSlarining reja ko‘rsatkichlarini bajarish darajasi, texnikadan foydalanish samaradorligi va davlat nazorati mexanizmlari baholangan. Muallif MTS–kolxoz munosabatlari huquqiy jihatdan ikki tomonlama shartnoma ko‘rinishida rasmiylashtirilgan bo‘lsa-da, amalda markazlashgan rejali boshqaruv tizimining tarkibiy qismi sifatida faoliyat yuritganligi haqida xulosa chiqaradi.*

Kalit so‘zlar: *Mashina-traktor stansiyasi (MTS), kolxoz, namunaviy shartnoma, qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash, agrar siyosat, institutsional tahlil, davlat nazorati, natura haqi, traktor parki, rejali iqtisodiyot.*

Аннотация. *В статье на основе материалов Бухарской области исследуются договорные отношения между машинно-тракторными станциями (МТС) и колхозами в 1949-1954 гг., их нормативно-правовые основы и практика реализации. Раскрывается роль системы МТС не только как инструмента механизации сельского хозяйства, но и как института государственного организационного и экономического контроля над колхозами. На основе архивных документов проанализированы содержание типовых договоров 1949 и 1954 гг., права и обязанности сторон, а также проблемы, возникавшие в процессе исполнения договорных обязательств. Особое внимание уделено институциональным противоречиям договорных отношений, неопределённости распределения ответственности, дисбалансу трудовых отношений и несовершенству системы натуральной оплаты за услуги МТС. Кроме того, дана оценка выполнению плановых показателей МТС Бухарской области, эффективности использования сельскохозяйственной техники и механизмов государственного контроля. Автор приходит к выводу, что, несмотря на юридическое оформление отношений между МТС и колхозами в форме двустороннего договора, фактически они являлись составной частью централизованной системы планового управления сельским хозяйством.*

Ключевые слова: *машинно-тракторная станция (МТС), колхоз, типовой договор, механизация сельского хозяйства, аграрная политика, институциональный анализ, государственный контроль, натуральная оплата, тракторный парк, плановая экономика.*

Abstract. *This article examines the contractual relations between Machine and Tractor Stations (MTS) and collective farms (kolkhozes) in 1949–1954, their legal framework, and their practical implementation on the basis of archival materials from the Bukhara Region. It demonstrates that the MTS system functioned not only as a mechanism for the mechanization of agriculture but also as an institutional instrument of state organizational and economic control over collective farms. Drawing on archival sources, the study analyzes the content of the standard contracts adopted in 1949 and 1954, the rights and obligations of the contracting parties, and the problems that emerged during the implementation of contractual provisions. Particular attention is paid to the institutional contradictions inherent in the contractual framework, including the ambiguous distribution of responsibilities, imbalances in labor relations, and shortcomings of the in-kind payment system for MTS services. The article also evaluates the performance of MTSs in the Bukhara Region in fulfilling planned production*

targets, the efficiency of agricultural machinery utilization, and the mechanisms of state supervision. The study concludes that, although relations between MTSs and collective farms were formally regulated through bilateral contracts, in practice they constituted an integral component of the centrally planned system of agricultural administration.

Keywords: *Machine and Tractor Stations (MTS), collective farms (kolkhozes), standard contract, agricultural mechanization, agrarian policy, institutional analysis, state control, in-kind payment, tractor fleet, planned economy.*

Kirish. Mashina-traktor stansiya(MTS)larining kolxozlar bilan hamkorligi sotsialstik qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish nazariyasining amaladagi aksidir. Hukumat MTSlar vostasida qishloq xo‘jaligiga ta’sir o‘tkazdi. Ya’niy, nazorat sohasini eng quyi bo‘g‘iniga qadar kirib borgan. Shu tariqa, MTSlar o‘z zonasidagi har bir kolxoz ustidan hukumat nazoratining aniq ifodasi namoyon bo‘ladi. Partiya, sovet va qishloq xo‘jalik organlari MTSlarga tayangan bo‘lib, ular davlat organlari bilan kolxozlar o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in vazifasini bajargan. E’tiborli jihati shunda-ki, MTS sovet hukumati an’anaviy hokimiyati organi emas, shu bilan birga davlat boshqaruvi organi ham hisoblanmaydi. Ular kolxozlarga rahbarlik qilishda tayanch bo‘g‘in sifatida kolxozlar ishlab chiqarish faoliyatini o‘zida mujassamlashtiradi[1. – C.6].

Kolxozlar MTSlar bilan ikki o‘rta tuzilgan shartnomaga muvofiq hamkorlik qiladi. Shartnoma shartlarining to‘la bajarilishi qishloq xo‘jalik mahsulotlari uchun xomashyo zahiralarini o‘zlashtirishda muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligida ilg‘or agrotexnika qoidalarini to‘g‘ri amalga oshirishga ko‘maklashadi.

Tadqiqotga tortilgan xronologik davrda ikki namunaviy shartnoma amal qilgan. Urushdan keyin 1949-yil 19-dekabrda SSSR Ministirlar Soveti tomonidan qabul qilingan 5676-sonli “Mashina-traktor stansiyasining kolxoz bilan namunaviy shartnomasi” 1953-yilga qadar amalda bo‘ldi. I.Stalin vafoti munosabati bilan va qishloq xo‘jalik sohasini modernizatsiya qilishga mo‘ljallangan dastur doirasida 1954-yilda yangi namunaviy shartnoma maxsus qaror bilan tasdiqlandi. Shu sababdan, yuridik kuchga ega bo‘lgan bu hujjat MTSlar uchun ham kolxozlar uchun ham bajarilishi majburiy edi.

Namunaviy shartnomada belgilangan vazifalar ijrosi ittifoqdosh respublika Qishloq xo‘jalik ministirligi hamda uning joylardagi organlari zimmasiga

yuklatildi. MTSlar bilan kolxozlar o‘rtasidagi shartnomalarning o‘z vaqtida va to‘g‘ri tuzilishini ta’minlash, dala ishlarining boshlanishi va tugallanishi taqvimiy muddatlariga muvofiq ravishda shartnomalarni rasmiylashtirish, shartnomaviy majburiyatlarni bajarish ustidan doimiy nazorati o‘rnatildi.

Shartnomaviy majburiyatlar MTS va kolxozlar oldiga qo‘yilgan vazifalarni birgalikda amalga oshirish, barcha qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini har tomonlama yuksaltirish, ijtimoiy chorvachilik rivojlantirish va uning mahsuldorligini oshirish, dehqonchilik va chorvachilikning yalpi hamda tovar mahsulotini ko‘paytirish, kolxozlarning tashkiliy-xo‘jalik jihatdan yanada mustahkamlanishini ta’minlash asosida kolxozchilarning moddiy farovonligini oshirishni ko‘zda tutadi.

MTS zimmasiga olgan ishlarni kolxoz tomonidan ajratilgan mavsumiy ishchilar bilan birgalikda, MTS traktorlari, qishloq xo‘jaligi mashinalari va asbob-uskunalaridan foydalanib, agrotexnika va zootexnika qoidalariga qat’iy rioya qilgan holda sifatli bajaradi. Kolxoz boshqaruvi bilan birgalikda agrotexnika, veterinariya va zootexnika tadbirlari rejasini ishlab chiqadi, MTS va kolxoz resurslaridan to‘g‘ri foydalanishni ta’minlash hamda ilm-fan yutuqlari va ilg‘or tajribalarni kolxoz ishlab chiqarishiga joriy etadi.

Shartnomada belgilangan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat edi:

• qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini mexanizatsiya qilish;
• ekinlar hosildorligini oshirish;
• chorvachilik mahsuldorligini ko‘paytirish;
• dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari yalpi hajmini oshirish;
• kolxozlarni tashkiliy va iqtisodiy jihatdan mustahkamlash;
• kolxozchilarning moddiy farovonligini yaxshilash[2].

Bu vazifalar O‘zbekiston SSR agrar siyosatining strategik maqsadlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, MTS tizimi kolxozlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish vositasi bo‘lib xizmat qildi. Shartnomada kolxoz va MTS faoliyatini muvofiqlashtirishga maksimal darajada e’tibor qaratildi. Masalan, MTSlar dala ishlarini traktorlar va boshqa texnika yordamida, shuningdek kolxoz tomonidan ajratilgan ishchilar bilan amalga oshirishi belgilandi. Tomonlar zimmasiga bir xil majburiyatlar yuklatilganligini ham ko‘rsh mumkin. Chunonchi, har ikkala tizim agrotexnik va zootexnik talablarga qat’iy rioya qilish shart edi[3. – C.413].

Bu o‘rinda xo‘jalik bo‘limlari oldida shartnomaning qanchalik va qatiyat bilan bajarilayotganligini tekshirib turishdek muhim vazifalar turadi. Biroq ko‘pincha rayon qishloq xo‘jalik bo‘limlari bu vazifalarga bepisand munosabatda

bo‘lib keldilar. Misol uchun, Olot rayon qishloq xo‘jalik bo‘limi muduri va aronomi shartnoma shartlarining bajarilisha e’tibor bermaganlar[4]. Shartnomalar ko‘pincha kamquvvat kolxozlarda bajarilmadi. MTS rahbarlarining kamquvvat kolxozlarga yordamini kuchaytirish uchun berilgan va’da va majburiyatlari qog‘ozda qoldi.

Kogon MTSi Yangi hayot qishloq sovetidagi Sverdlov nomli, “Kominteri” Xo‘jabargi qishloq sovetidagi Lenin nomli va boshqa ko‘p kolxozlar bilan qilgan shartnomani bajarmadi. Kultivatsiya planlari, paxta yerlarini g‘o‘zapoyadan tozalash, chimtol ochish va shudgorlash ishlari jadallik bilan olib borilayotgan bir paytda, MTS yillik traktor ishlari planini bajarishda oqsay boshladi. Rayon qishloq xo‘jaligi boshlig‘i Xo‘jayev, bosh agranomi Kraxmalov va MTSning uchastka agranomlari MTS bilan kolxozlar o‘rtasida tuzilgan shartnomalari qanday bajarilayotganligi va qilinayotgan ishlar sifati qanday ekanligini doimiy tekshirib turmadlar[5]. Chunki, namunaviy shartnoma sub’etklar o‘rtasida texnik xizmat ko‘rsatish va ishlab chiqarishni tashkil etishda nomutanosiblik hamda bo‘shliqlar mavjud bo‘lib, bu institutsional ziddiyatni aks ettiradi. Shartnomada MTS va kolxozlarining umumiy maqsadi sifatida hosildorlikni plan ko‘rsatkichlaridan past bo‘lmasligini ta’minlash belgilangan. Ammo hosildorlik iqlim, tuproq tarkibiy, agrotexnika, mehnat va boshqa ko‘p omillarga bog‘liq. Shu bilan birga shartnomada plan uchun javobgar aniq belgilanmangan. MTS texnik xizmat ko‘rsatadi, kolxoz agrotexnik tadbirlarni amalga oshiradi. Agar, plan bajarilmay qolgan taqdirda aniq kim javob berishi mavhum qolgan. Xo‘jaliklarga texnik xizmat ko‘rsatishda har ikki tomon vazifalari ajratilgan (MTS – texnika, ta’mirlash, yoqilg‘i bilan ta’minlaydi. Kolxoz – texnikaga xizmat ko‘rsatadi, suv, yoqilg‘i tashish, ishchi kuchi ajratish, texnikani qo‘riqlash). Ammo, texnikani ta’mir talab bo‘lib qolishiga aybdori ko‘rsatilmagan, deylik operator xatosimi, texnik nosozlik tufaylimi yoki servis xizmat ko‘rsatish tizimi kamchiligimi?. Shubhasiz, ushbu holatda tomonlar javobgarlikni bir-biriga yuklash odatga aylandi. Mehnat munosabatlarida ham nomutanosibliklar ko‘zga tashlanadi. MTS texnik faoliyat ko‘rsatadi, lekin undagi traktorchi, brigadir va pritsepchi shatat biriklari kolxozga tegishli. Ya’ni mehant munosabatlari ikkala tizim o‘rtasida teng taqsimlangan. Muammo mehnatni muhofza qilishdi. Og‘ir mehnat sharoitlari uchun kim javobgar, mehnat intizomini nazorat qilish hamda texnik xavfsizlikni kim ta’minlaydi? Demak, soha boshqaruvida institutsional bo‘shliq hosil bo‘lgan.

Mehnatga haq to‘lash asimmetriyasi yana bir muammo. MTS ko‘rsatgan xizmatiga haq to‘lash kolxozlar tomonidan natura shaklida amalga oshirilgan. Lekin, hosildorlik past bo‘lgan yillar, tabiiy ofat kabi favqulotda holatlar inobatga olinmagan. Shubhasiz, bu MTSlar uchun xavf darajasini minimal kolxozlar uchun aksincha maksimal yuklama hisoblanadi.

Namunaviy shartnomada yana bir diqqatga sazovor jihati shundagi ikki o‘rtada shartnoma tuzilgan bo‘lishiga qaramasdan ish hajmi, agrotexnik tadbirlar muddati, to‘lov stavkalari davlat tomonidan belgilangan. Demak, shartnoma teng huquqli sub’etklar o‘rtasidagi kelishuv emas, aksincha davlat rejasini amalga oshirish vositasiga aylanadi.

Tabiiy-ki, Buxoro oblastning bir qator kolxozlari ham shartnomalarda o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarini bajarmagan. Bunga MTSning natura haqqini to‘lamagan va traktorchilar mehnatiga tegishli g‘allani ko‘pdan buyon bermay kelayotgan kolxozlarni misol qilish mumkin. Fevral Plenumi VKP(b) Markaziy Qo‘mitasi ittifoqdosh respublikalar, o‘z navbatida oblast va rayon rahbarlaridan quyidagilarni talab qildi: “Mashina-traktor stansiyalari faoliyatini keskin yaxshilash zarur, chunki kolxoz dalalaridagi hosil taqdiri asosan ularning ishiga bog‘liq[6. – C. 102]”.

Plenum Mashina-traktor stansiyalari direktorlaridan MTS ishlab chiqarishida mavjud bo‘lgan jiddiy kamchiliklarni bartaraf etishni talab qildi. Bunday kamchiliklar qatoriga traktorlar va kombaynlarda ishlab chiqarish hajmining hali ham past darajada ekani, traktor va qishloq xo‘jaligi mashinalarini ta’mirlash ishlarining yomon tashkil etilgani, ta’mirlashning kechiktirilishi, shuningdek ayrim MTS direktorlari va traktorchilarning traktor ishlarini o‘z vaqtida va yuqori sifatda bajarishga mas’uliyatsiz munosabati kiradi. Bu holat, o‘z navbatida, kolxoz dalalari hosildorligini oshirishga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

VKP(b) Markaziy Qo‘mitasining fevral plenumi talablari yuzasidan Buxoro oblastida 1949-yilda MTSlar faoliyati tahlil qilindi. Oblastdagi MTSlar traktor parki quyidagicha: 15 ot kuchiga teng 2035 ta traktor, jumladan: SXTZ – 835 ta, NATI – 270 ta va “Universal” turidagi traktorlar – 1045 ta texnikaga ega edi. Oblast qishloq xo‘jaligi boshqarmasi hisobotlariga ko‘ra, mazkur traktorlarning 1600 tasi bahorgi ekish va sug‘orish ishlari boshlanishiga qadar sifatli kapital va joriy ta’mirdan o‘tkazilgan, qolgan qismi esa profilaktik ta’mirdan o‘tkazilgan. Shu tariqa traktor parki mart oyining dastlabki kunlarida bahorgi ekish ishlariga tayyor deb hisoblangan.

Biroq ekish mavsumida qishloq xo‘jaligi ishlari oblast bo‘yicha bir haydov traktoriga to‘g‘ri kelgan o‘rtacha ishlab chiqarish hajmi me’yoriy ko‘rsatkich bo‘lgan 3,6 gektar o‘rniga, atigi 1,8 gektarni, ekish ishlarida esa bu ko‘rsatkich 10 gektar o‘rniga 5,4 gektarni tashkil etgan.

Mazkur raqamlar vaziyat qanchalik qoniqarsiz ekanini ko‘rsatib turibdi. Xususan, Kogon MTSi, 2-Rometan, 2-Kermin, 2-Vobkent hamda 1 va 2-Qiziltepa MTSlarida bir haydov traktoriga to‘g‘ri kelgan sutkalik ishlab chiqarish hajmi 1,4 gektarni, ekish ishlarida esa bir chopiq traktorga 4,4 gektarni tashkil etgan. Oqibatda, hukumat tomonidan belgilangan muddat – 14 aprelga qadar traktorlar yordamida ekish plani 11 foizga bajarilgan.

Traktor bilan ekishi plani esa hukumat tomonidan belgilangan oxirgi muddatdan 20 kun kechiktirilib, faqat 5 may kuni yakunlangan[7]. Sverdlov 2-MTSi o‘z uchastkasidagi kolxozlarning ko‘pchiligi bilan tuzilgan shartnomalarni bajarmagan. U, yillik traktor ishlari planini 71 foiz bajardi. Buxoro 2-MTSida yillik traktor ishlari plani 67,4, Sverdlov 1-MTSida 67 foiz bajarilgan. Qorako‘l 2-MTSi kolxozlar bilan tuzilgan shartnomani mutloqa bajarmadi. MTS chimtol olishni endi 3,2 va shudgorlashni 6,6 foiz bajargan. Shu ahvol hukum surishi sababli oblast bo‘yicha 1-dekabrgacha chimtol olish plani faqat 38,4 foiz bajardi[8].

1950-yilda ham MTSlar, jumladan Kermana 2-MTS hukumat belgilangan muddatiga qadar rejaning atigi 2 foiz bajargan bo‘lsa, 5 may holatiga kelib u 76 foizni tashkil etgan. Qiziltepa 2-MTS esa planni belgilangan muddatgacha 5 foiz, 5 mayga kelib 89 foiz bajargan. Ishlov berishning belgilangan muddatga muvofiq, 25 mayga qadar traktorlar yordamida bajrilgan ishlar jami: maydonning 55 foiz qismida amalga oshirilgan. Birinchi kultivatsiya va ishlov berish ishlari belgilangan muddatda bor-yo‘g‘i 35 foiz hajmda bajarilgan. Ayrim MTSlarda bu ko‘rsatkichlar yanada past bo‘lgan. Masalan, Qorako‘l 1 va 2-MTS belgilangan muddatda maydonning 37 foizini kultivatsiya qilgan, Qiziltepa MTS – 20 foiz, Kerminiya 2-MTS – 24 foiz, Qiziltepa 2-MTS – 24 foiz, Romitan 1-MTS – 28 foiz va hokazo.

Markaz traktorlar faoliyatida yo‘l qo‘yilgan kamchilik va nuqsonlar boshqaruv sohasidagi muammolar bilan bog‘ladi. Go‘yoki, oblast va rayon partiya qo‘mitalari MTSlar faoliyatiga aniq va samarali rahbarlik qilmagan. Shu sababli VKP(b) Markaziy Qo‘mitasining fevral Plenumi qarorlariga muvofiq ravishda MTSlar ishini qayta tashkil etish ta’minlanmadi. Oqibatda, mavjud

qudratli texnik salohiyat 1949-1950- yilda paxta hosildorligini oshirish maqsadida to‘liq darajada ishga solinmagan.

Fevral Plenumi qaroriga muvofiq, MTS direktorlarining siyosiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosarlari instituti tashkil etildi. Ular zimmasiga MTSlar faoliyatini yaxshilash, MTS bilan kolxozlar o‘rtasidagi munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, shartnoma munosabatlariga qat’iy rioya etilishini ta’minlash kabi muhim vazifalar yuklatildi[9. – C116].

Shuningdek, MTS partiya tashkilotlari faoliyatini kuchaytirish, traktorchilar, kombaynchilar va boshqa ishchilar o‘rtasida siyosiy-tarbiyaviy ishlarni kengaytirish ham ularning asosiy vazifalaridan biri edi. Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, 1949-1954 yillarda Mashina-traktor stansiyalari bilan kolxozlar o‘rtasidagi munosabatlar rasman ikki tomonlama shartnoma asosida tashkil etilgan bo‘lsada, amalda ular markazlashgan rejali iqtisodiyot va davlat nazorati mexanizmining tarkibiy qismi sifatida faoliyat yuritgan.

Namunaviy shartnomalar qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash va ishlab chiqarishni muvofiqlashtirishga xizmat qilgan bo‘lsada, javobgarlikning aniq taqsimlanmaganligi, mehnat munosabatlaridagi nomutanosibliklar hamda natura shaklidagi hisob-kitob tizimi ularning samaradorligini cheklagan. Buxoro viloyati materiallari tahlili MTS-kolxoz munosabatlari huquqiy jihatdan shartnomaviy tusga ega bo‘lgani bilan, institutsional jihatdan davlatning agrar sohadagi boshqaruv va nazorat siyosatiga bo‘ysundirilgan tizim ekanligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Покровский. И.Ф. ***МТС – опорный пункт государственного руководства колхозами***: автореф. дис. … канд. юрид. наук. – Ленинград, 1956. – С. 6

2. Сельское хозяйства 26 феврал 1954 г

3. История колхозного права. Сборник законадательных СССР и РСФСР 1917-1958 гг. Т. II. (1937-1958 гг). Москва, Государственное издательство юридической литературы, 1958. – С. 413

4. Бухоро вилоят давлат архиви 1184-фонд, 1-рўйхат, 545-йиғма жилд, 214-варақ

5. Бухоро ҳақиқати 1948 йил 7 декабрь №242 (2933)

6. Коммунистическая партия Советского Союза в резолюциях и решениях съездов, конференций и пленумов ЦК (1898-1986). Т. 8. 1946-1955. – М.: Политиздат, 1985. – С. 102

7. Бухоро вилоят давлат архиви 1023-фонд,1-рўйхат, 550-йиғма жилд, 15-варақ

8. Бухоро ҳақиқати 1948 йил 7 декабр №242(2933)

9. Коммунистическая партия Советского Союза в резолюциях и решениях съездов, конференций и пленумов ЦК (1898-1986). Т. 8. 1946-1955. – М.: Политиздат, 1985. – С. 116

VOSIFIYNING “BADOYE’ UL-VAQOYE” ASARIDA FIRDAVSIY VA “SHOHNOMA” ZIKRI

(Dilovarxo‘janing 1827 yil amalga oshirigan tarjimasi asosida)

Kenjayev Hasan,
mustaqil izlanuvchi

UO‘K 94(575.1)

Annotatsiya. *Mazkur maqola Zayniddin Vosifiyning “Badoye’ al-vaqoye” asarida keltirilgan Firdavsiy va uning “Shohnoma”si haqidagi rivoyat tahliliga bag‘ishlangan. XVI asrda yaratilgan ushbu asarda Vosifiy Firdavsiyning Tusdan G‘azninga kelishi, Sulton Mahmud G‘aznaviy saroyida bo‘lishi, "Shohnoma"ni yozish tarixi, Hasan Maymandiy bilan ziddiyati, hajviy she’rlari, sultondan qochishi va oxir-oqibatdagi taqdirini batafsil hikoya qiladi. Maqolada rivoyatdagi asosiy voqealar – Firdavsiyning Unsuriy, Farruxiy va Asjadiy bilan uchrashuvi, "Firdavsiy" taxallusining berilishi, "Shohnoma"ning yozilishi va mukofot masalasi, shoirning hajvi va qochishi, so‘nggi sarguzashtlari tahlil etiladi. Vosifiy rivoyati tarixiy va afsonaviy elementlar uyg‘unlashgan bo‘lib, Firdavsiy obrazini murakkab va insoniy fazilatlarga boy tarzda ifodalaydi.*

Kalit so‘zlar: *Zayniddin Vosifiy, "Badoye’ al-vaqoye", Firdavsiy, "Shohnoma", Sulton Mahmud G‘aznaviy, Hasan Maymandiy, fors adabiyoti, XVI asr, Hirot adabiy muhiti.*

Аннотация. *Данная статья посвящена анализу рассказа о Фирдоуси и его «Шахнаме», приводимого Зайниддином Восифи в его произведении «Бадаеъ аль-вакаеъ». В этом сочинении, созданном в XVI веке, Восифи подробно повествует о прибытии Фирдоуси из Туса в Газну, его пребывании при дворе султана Махмуда Газневи, истории написания «Шахнаме», конфликте с Хасаном Майманди, сатирических стихах, бегстве от султана и последующей судьбе поэта. В статье анализируются ключевые эпизоды рассказа – встреча Фирдоуси с Унсури, Фаррухи и Асджади, получение псевдонима «Фирдоуси»,*

написание «Шахнаме» и вопрос вознаграждения, бегство и последние странствия поэта. Рассказ Восифи сочетает исторические и легендарные элементы, представляя образ Фирдоуси сложным и богатым человеческими добродетелями.

Ключевые слова: *Зайниддин Восифи, «Бадаеъ аль-вакаеъ», Фирдоуси, «Шахнаме», султан Махмуд Газневи, Хасан Майманди, персидская литература, XVI век, литературная среда Герата.*

Abstract. *This article analyzes the narrative about Ferdowsi and his "Shahnameh" as presented by Zayniddin Vasifi in his work "Badae' al-Vaqa'e". Written in the 16th century, Vasifi's account details Ferdowsi's journey from Tus to Ghazni, his time at the court of Sultan Mahmud of Ghazni, the history of composing the "Shahnameh", his conflict with Hasan Maymandi, his satirical verses, flight from the sultan, and his eventual fate. The article examines key episodes of the narrative – Ferdowsi's encounter with Unsuri, Farrukhi and Asjadi, the bestowal of the pen name "Ferdowsi", the writing of the "Shahnameh" and the issue of reward, the poet's satire and escape, and his final wanderings. Vasifi's narrative blends historical and legendary elements, presenting a complex image of Ferdowsi rich in human virtues.*

Keywords: *Zayniddin Vasifi, "Badae' al-Vaqa'e", Ferdowsi, "Shahnameh", Sultan Mahmud of Ghazni, Hasan Maymandi, Persian literature, 16th century, Herat literary milieu.*

Zayniddin Vosifiyning "Badoye' al-vaqoye'" asari XVI asrda yozilgan bo'lib, unda muallif o'z zamonasining adabiy muhiti, tarixiy shaxslar va voqealar haqida qimmatli ma'lumotlar qoldirgan. Asarning yuqorida keltirilgan parchasida Vosifiy Firdavsiy va uning "Shohnoma"siga oid muhim rivoyatni keltiradi. Bu rivoyat Vosifiyning o'ziga xususiy qarashlarini emas, balki o'sha davrda tarqalgan aniq bir tarixiy-adabiy rivoyatni bayon qilishi bilan muhimdir. Quyida shu ma'lumot asosida maqola taqdim etiladi [5, 380-387].

Vosifiy Firdavsiy va “Shohnoma” haqida
(“Badoye’ al-vaqoye” asaridagi rivoyat tahlili)

1. KIRISH.

Zayniddin Mahmud Vosifiy (1485-1566) – Hirotda yashab ijod qilgan, o‘zbek hukmdorlari Xusravshoh, Ko‘chkinchixon, Ubaydullaxon saroylarida xizmat qilgan mashhur tarixchi va yozuvchidir. Uning “Badoe' al-vaqoe'” asari XVI asrdagi Movarounnahr va Xuroson madaniyati, adabiy muhiti haqida misli yo‘q manba bo‘lib, asarining bir bobi Firdavsiy va uning “Shohnoma”siga bag‘ishlangan.

Vosifiy rivoyati – Firdavsiy hayoti haqidagi eng mukammal, badiiy jihatdan ishlangan rivoyatlardan biri bo‘lib, unda Firdavsiyning Sulton Mahmud G‘aznaviy saroyiga kelishi, “Shohnoma”ni yozishi, Hasan Maymandiy bilan ziddiyati, hajvi, qochishi va oxir-oqibatdagi taqdiri batafsil hikoya qilinadi[mufassal qarang: [1].

2. FIRDAVSIYNING TUSDAN G‘AZNINGA KELISHI

Vosifiy rivoyatiga ko‘ra, Firdavsiy (aslida Abulqosim Firdavsiy) va uning birodari Abumansur Tus shahrining obro‘li kishilaridan biri – Aliy Daylamning o‘g‘illari edi. Otalarining vafotidan so‘ng, Tus omili (hokimi, aslida soliq yig‘guvchi amaldor) ularga zulm qila boshlagach, do‘stlari Muhammad Al-Askariyning maslahati bilan Abulqosim Sulton Mahmud G‘aznaviy saroyiga yo‘l oladi.

Aynan shu yerda Firdavsiyning mashhur shoirlar – Unsuriy, Farruxiy va Asjadiy bilan uchrashuvi voqeasi joy olgan. Rivoyatda ta'kidlanishicha, shoirlar Firdavsiyni oddiy bir rustoyi (qishloqlik) sifatida kutib olib, uni sinash uchun to‘rt misra'li bayt aytishni taklif qiladilar, bunda har biri uchala misra'ni aytib, to‘rtinchi misra'ni Firdavsiyga qoldirishadi:

Unsuriy: “Chun ruyi tu xurshed naboshad ravshan”

Farruxiy: “Ham rangi ruxat gul nabuvad dar gulshan”

Asjadiy: “Mijgonat guzar namekunad az javshan”

Firdavsiy: “Monandi sinoni Gev dar jangi Pashan”

Firdavsiyning “Gev” va “Pashan” kabi “Shohnoma” qahramonlarini eslatib, javob berishi shoirlarni hayratga soladi va uni e'zozlaydilar. Ammo shoirlar Firdavsiyning iste'dodi sulton nazarida o‘zlarining qadrlarini tushirib qo‘yishidan qo‘rqib, sulton bilan uchrashishining oldini oladilar [qarang: 2;3.]

3. MOHAK VOSITASIDA ISHNING YO‘LGA QO‘YILISHI

Noumid bo‘lgan Firdavsiy yetmish kun mobaynida Tikar va G‘azninda sargardon yuradi. Bir kun masjidda o‘tirganda, sultonning xos nadimlaridan

bo‘lgan Mohak Musha'bad ismli go‘zal va xushfe'l yigitni ko‘rib, unga o‘z ahvolini arz qiladi. Mohak Firdavsiyni uyiga olib borib, hurmat ko‘rsatadi.

Bir kuni Mohak Firdavsiyga shoirlar “Sayf ul-muluk” kitobini nazmga solganini va har biri o‘z dostonini sultonga taqdim etayotganini aytadi. Firdavsiyda esa o‘sha kitobdan bir doston bor edi. Mohak o‘sha dostonni sultonga yetkazadi. Sultonga doston juda ma'qul keladi va Firdavsiyni huzuriga chorlaydi.

Firdavsiy sulton majlisiga kelib, “Sayf ul-muluk”ning ba'zi qismlarini nazmga solganini aytgach, Sulton Mahmud Xudoga shukr aytib, bunday shoirni topganidan quvonadi.

4. “FIRDAVSIY” TAXALLUSINING BERILISHI

Rivoyatdagi eng qiziqarli lavhalardan biri – Firdavsiy taxallusining kelib chiqishi haqidadir. Sulton Mahmud shoirlarga Ayozning xati va ko‘zi vasfida ruboiy aytishni buyuradi. Dar badiha (badihaviy, ekspromt tarzda) Firdavsiy quyidagi ruboiyni aytadi:

Mastast turo va chashmi tu tir ba dast,
Bas kas, ki zi tiri chashmi tu sina bixast,
Po‘shida zareh orazi tu, uzrash hast,
K-az tir bitarsad hama kas, xosa zi mast.

Sulton bu ruboiyni eshitib, shod bo‘lib: “Shod bo‘l, ey Firdavsiy, bizning majlisimizni jannat (firdavs) qilding”, deydi va unga Firdavsiy taxallusini beradi. Shundan so‘ng sulton Firdavsiyga “Shohnoma”ni nazmga kiritishni topshiradi.

5. HASAN MAYMANDIY BILAN ZIDDIYAT

Vosifiy rivoyatida Firdavsiy bilan Hasan Maymandiy (Sulton Mahmudning vaziri) o‘rtasidagi nizo muhim o‘rin tutadi. Bu nizoning sababi e'tiqodiy edi – Firdavsiy shi'iy (Ali va rasul xonadoniga muhabbatli), Hasan Maymandiy esa navosib (ahli baytga dushmanlik qiluvchi) edi. Firdavsiy “Shohnoma” muqaddimasida saroy a'yonlarini madh qilgan bo‘lsa-da, Hasan Maymandiyni madh qilmaydi. Do‘stlari uning madhini yozishni maslahat bersalar, Firdavsiy bunday javob beradi: “G‘araz bu nazmdin nomi boqiydur, na atoi sultoniy...”

6. “SHOHNOMA”NI TAMOMLASH VA MUKOFOT MASALASI.

Firdavsiy “Shohnoma”dan oltmish ming baytni sultonga taqdim qilgach, sulton Hasan Maymandiyga yuz ming dirami surx (qizil, tilla diram) berishni buyuradi. Ammo Hasan Maymandiy Firdavsiyga bo‘lgan adovati tufayli sultonga uning she'ri bundan ham baland, mukofotni keyin berish kerak, deb maslahat beradi. Sulton g‘azablanib, Hasan Maymandiyga “saloh ko‘rganincha qil” deydi.

Oqibatda Firdavsiyga oltmish ming tanga (kumush) yuboriladi. Firdavsiy hammomdan chiqib, pullarni ko‘rgach, bu qizil oltun emas, balki oq kumush ekanini bilib, ranjiydi. U yigirma mingni hammomiyga, yigirma mingni faqirlarga, yigirma mingni esa pulni keltirgan kishiga in'om qilib beradi va sultonga “bu xizmatni nomi boqiy uchun qildim, moli foniy uchun emas”, deb xabar jo‘natadi.

7. FIRDAVSIYNING HAJVI VA QOCHISHI.

Sultonning g‘azabidan qo‘rqqan Firdavsiy o‘zini sulton oyog‘iga tashlab, agar musulmonlar qatoridan chiqarilsa ham, o‘limga qo‘ymaslikni so‘raydi. Sulton unga amon beradi, ammo dargoh atrofida yurmaslikni buyuradi.

Firdavsiy G‘aznindan chiqib ketishdan oldin, Ayozga bir necha baytli hajv yozib beradi va yigirma kundan so‘ng sultonga berishni va'dalaydi. Bu hajvda Firdavsiy sultonning Hasan Maymandiyga ishonib, uning qadrini bilmaganini tanqid qiladi va o‘zining ahli baytga bo‘lgan muhabbatini izhor etadi:

Natarsam, ki doram zi ravshandili,
Dilu jon ba mehri Nabi-yu Ali.
Man az mehri in har du nagzaram,
Agar teg‘ borad havo bar saram.
Man in nomai shahriyoron pesh
Biguftam bad-in xub guftori xesh.
Ba si sol burdam ba “Shohnoma” ranj,
Ki to shoh baxshad maro toju ganj.
Ba podosh chun ganjro dar kushod,
Ba man juz bahoi fuqoe nadod.

8. FIRDAVSIYNING SARGARDONLIK YILLARI VA OXIR-OQIBATI

Vosifiy rivoyati Firdavsiyning keyingi taqdirini ham batafsil bayon etadi: Sultonning g‘azabidan qo‘rqib, Firdavsiy Hirotga – Ismoil Varroq oldiga borib, olti oy yashirinadi. So‘ng Tusga qaytadi, ammo u yerda ham tura olmay, Tabaristonga – Sherzod huzuriga boradi. Sherzod sultondan Firdavsiyning hajvini sotib olib, yoqib yuboradi.

Keyin Firdavsiy Mozandaronga boradi. U yerdagi podshoh shi'iy bo‘lib, Firdavsiyga yordam beradi. So‘ng Bag‘dodga – xalifa vaziri huzuriga boradi. Xalifa unga oltmish ming misqol tillo in'om qiladi.

Sulton Mahmud Bag‘doddan Firdavsiyni talab qilgach, xalifa “Bismillahir rohmanir rohiym. Alif lom mim” deb javob yozadi. Sulton bu javobni tushunmaydi, ammo bir yigit buning “Alam taro kayfa fa'ala rabuka bi ashob il-

fil” (Fil egalariga Robbing nima qilganini ko‘rmadingmi?) oyatiga ishora ekanini tushuntiradi.

Oradan muddat o‘tgach, Sulton Mahmud bir jangdan keyin “Shohnoma”dan bir baytni eshitib, Firdavsiyga nisbatan pushaymon bo‘ladi va oltmish ming tillolik sovg‘a jo‘natadi. Ammo sovg‘a Firdavsiyning janozasi bilan Tus darvozasida uchrashadi.

Rivoyatning so‘nggi qismida aytilishicha, Firdavsiyni muzakkir (muftiy) janozasini musulmonlar qabristoniga qo‘ymay, o‘z bog‘iga dafn qildiradi. Firdavsiydan bir qiz qoladi, sulton uning haqqini to‘lamoqchi bo‘lganida, qiz bundan bosh tortadi.

9. XULOSA

Vosifiyning “Badoe' al-vaqoe'” asarida keltirilgan Firdavsiy haqidagi rivoyat o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu rivoyat Firdavsiyning afsonaviy va tarixiy hayoti uyg‘unlashgan, badiiy jihatdan ishlangan bir manbadir. Ayrim tarixiy faktlar (masalan, Firdavsiyning Unsuriy, Farruxiy, Asjadiy bilan uchrashuvi) tarixiy nuqtai nazardan shubhali bo‘lsa-da, rivoyatda ifodalangan asosiy g‘oya – Firdavsiyning buyuk shoirlik maqomi, uning xaqiqatparvarligi va iste'dodining saroy muhitidagi murakkab munosabatlar orqali yoritilishi – adabiy jihatdan muhimdir.

Rivoyatda Firdavsiyning shi'iyligi, uning bu e'tiqodi tufayli Hasan Maymandiy bilan ziddiyati, sultonning mutaassibligi va oxir-oqibat Firdavsiyning faqirona vafoti aniq va ta'sirli bayon qilingan. Ayniqsa, Firdavsiyning “nomi boqiy uchun” moli foniyni rad etishi, uning yuksak ma'naviy qadriyatlarini namoyon etadi. Vosifiy rivoyatida Firdavsiy obrazi murakkab, ziddiyatli va insoniy fazilatlarga boy tarzda ifodalangan. U nafaqat buyuk shoir, balki iymonida sobit, sulton zulmi oldida egilmas, haqiqatni aytishdan cho‘chimas inson sifatida tasvirlangan.

Bugungi kunda “Shohnoma” nafaqat fors-tojik adabiyotining, balki butun insoniyat madaniyatining bebaho yodgorligidir. Firdavsiy esa – ming yillar osha nomi mangu bo‘lib qolgan shoir. Vosifiyning rivoyati esa o‘sha buyuk shoirning zamonaviylar qalbidagi aks-sadosi, uning umri va ijodiga bo‘lgan cheksiz hurmat va e'tirofning ifodasidir.

Namonad shavkati Mahmudu dar jahon bimonad
Hamin qaziya, ki “na bishinoxt qadri Firdavsiy”.
“Mahmud qudratu shavkati qolmaydi, jahonda qoladi

Shul ishikim, “Firdavsiy qadrini ul bilmadi”.

Vosifiyning Firdavsiy va “Shohnoma” si haqidagi ma'lumoti tarjimasi:

Mundoq derlarkim “Shohnoma” kitobining muqaddimasida sulton dargohining a'yonlariga bir nechchaga madh deb erdi magar Hasan Maymandiykim sultonning vaziri erdi, anga demadi. Oning uchunkim Firdavsiy shi'iy erdi xojai Hasan navosib jumlasidin erdi. Ba'zi do‘stlardin Firdavsiyg‘a nasihat qildilar, kerak erdikim xojai Hasanni madh qilg‘aysan. Anga qabul tushmadi. Dedikim g‘araz bu nazmdin nomi boqiydur na atoi sultoniy to devonining minnatin tortg‘ayman. Va sohibg‘arazlar Firdavsiyning bu so‘zlarin xoja Hasang‘a yetushturub oning //381 adovatin munung ko‘nglida mutamakkin qilur erdilar. Xoja Hasan fursat soqlar erdikim oning mukofotin vaqtinda ado qilg‘ay. Vaqtekim Firdavsiy “Shohnoma” kitobidin oltmish ming baytni aytib sultong‘a arz qildi. Ersa bag‘oyat maqbul tushub Hasan Maymandiyg‘a buyurdikim yuz ming dirami surx Firdavsiyg‘a bergil. Ahdi Odamdin to bu damg‘acha hech kim bu yanglig‘ nazm demadi min ba'd ham bir kimsa deya olmas. Lekin Hasan Maymandiy Firdavsiy kiynasin ko‘nglida saqlab erdi. Fursatni g‘animat bilib, dedikim sultonning himmati bila Firdavsiyning she'ri ondin balandroqdurkim kishi sharh qila olg‘ay. Va bu in'om iz'ofi hanuz oning haqqi bo‘la olmas. Lekin bu otifatni anga tadrij bila kerakkim yeturulgay. Sulton xashmgin bo‘lub dedikim yuz ming mundoqni buyursalar topilur. Ammo odameg‘akim nogoh mufriti g‘am kelsa o‘lar va nishoti mufrit ham halokatg‘a solur. Va hayfdurkim agarchi Firdavsiy mardi rofiziy va mu'taziliydur. Nogoh shodmarg bu abyotni dalil kelturdi. **Nazm**:

Agar chashm dori ba digar saroy,
//382 Ba nazdi nabi-yu vasiy gir joy.
Garat z-in nakohat, gunohi manast,
Chunin ast in dinu rohi man ast.

Sulton Mahmud mutaassib kishi erdi. Bu so‘z anga asar qilib, xoja Hasan Maymandiyg‘a andoq dedikim salohdur rizosicha ish qilg‘il. Buyurdikim oltmish ming tanga Firdavsiyg‘a eltsunlar. Firdavsiy hammomda erdi. Vaqtekim, teshqori chiqti badrahlarini ko‘rdi xayol qildikim qizil oltundur chun bildiki oq kumushdur azim ranjida bo‘lub ma'lum qildikim Hasan kaydu hiyla qilibdurur. Yigirma ming diramni hammomiyg‘a berdi va yigirma mingni faqoig‘a berdi va o‘zga yigirma mingni badrah kelturgon kishiga in'om qildi. Dedikim sultong‘a arz yetkur. Degilkim bu xizmatni nomi boqiy uchun qilibdur na moli foniy uchun. Vaqtekim oni bu so‘zi sultong‘a yetushti ersa xoja Hasang‘a xashm va durushtlik og‘oz qilib,

dedikim bu fitnani san turg‘uzdung va mani shoirlar tiliga solib badnom qilding. Hasan Maymandiy dedi, ey podshoh har nimarsaekim sultondin kelur ul buzurg va ulug‘dur. Agar bir qism tuproq berilsa ham oni xoru beqadr tutmas kerak erdi. //383 Bu ahmaq kishidur sulton silasini xor qilib, kam hurmatlik qilibdur. Bu so‘zdin sulton mutag‘ayyir bo‘lub dedikim nechukdurkim buyursam to ul qarmatiyni fil oyoqi ostig‘a tashlag‘aylar. Vaqtekim bu xabar Firdavsiyg‘a yetushti, ersa mutahayyir bo‘ldi. Oning makonidin sulton borgohig‘a yo‘l bor erdi. Sulton vuzu uchun teshqorig‘a chiqg‘och sulton oyoqig‘a o‘zin tashladi. Dedikim agar xudovand bu bandag‘a zanne va gumone eltibdurlar xilof demak loiq ermas. Ammo sulton mamolikida musulmondin o‘zga millat ham bordurlarkim sulton hashmatining soyasida ro‘zgor o‘tkaradurlar. Agar bandani alarning biridin sanasalar tokim o‘lmakdin emin bo‘lsa na bo‘lg‘ay. Firdavsiy bu so‘zni degach sulton xijil bo‘lub dedikim sanga amon berdim ammo kerakdurkim mani dargohim tekrasida o‘ralamagaysan. Firdavsiy sultondin haroson bo‘lub qo‘rqa va emina yer o‘pub xizmatdin teshqorig‘a chiqib o‘zining mutaalliqotlarin Tusg‘a ravona qildi va oning Ayozg‘a do‘stliqi bor erdi ber necha bayt bitib anga berdi. Dedikim //384 o‘zi ketgondin yigirma kundin so‘ngra sultong‘a bergay. Firdavsiy G‘aznindin chiqib ktgondin muddatidin so‘ng Ayoz ul kog‘azni sultong‘a berdi. Va sulton ishratg‘a mashg‘ul erdi, oni Unsuriyg‘a berdi tokim o‘qug‘ay. Bu baytlar erdikim avroq o‘zra sabt o‘ldi. **Hazal-hajviyot**:

Ayo shoh, Mahmudi kishvarkushoy,
Zi man ar natarsi bitars az Xudoy.
Ki pesh az tu shohon farovon budand,
Hama tojdoronu kayhon budand.
Fuzun az tu budand yak sar ba joh,
Ba ganju sipohu taxtu kuloh.
Nakardand juz xubi va rosti,
Nagashtand hargiz sȳyi kosti.
Har on shah, ki dar bandi dunyo bud,
Ba nazdiki ahli xirad xor bud.
Kunun chun zamona ba shohi turost,
Naguy ki in xira guftan charost.
Ki bad go‘yu badkesh xoni maro,
Manam sheri nar, mesh xoni maro.
Maro bim dodi, ki dar poyi pil,

Tanatro bisoyam chun daryoi Nil.
Natarsam, ki doram zi ravshandili
Dilu jon ba mehri Nabi-yu Ali.
Man az mehri in har du nagzaram,
Agar teg‘ borad havo bar saram.
Agar shoh Mahmud az in bigzarad,
Mar o‘ro ba yak jav nasanjad xirad.
//385 Xirad nest mar shohi Mahmudro,
Navozad hame mone'i judro.
Kasero, ki sufla buvad peshkor,
Az o‘ juz tabohi tavaqqu' mador.
Ba anbarfurȳshon agar bigzari,
Shavad jomai tu hama anbari.
Agar bigzari sȳyi angishtgar,
Az o‘ juz siyohi nabini digar.
Agarchi Hasan nom giradash padar,
Tu bar vay ba neki gumone mabar.
Daraxte, ki talxast ȳro sirisht,
Garash darnishoni ba bog‘i bihisht,
V-ar az juyi xuldash ba hangomi ob
Ba bex angubin rezivu shahdi nob,
Saranjom gavhar ba kor ovarad,
Hamon mevai talx ba bor ovarad.
Sari nokasonro barafroshtan,
V-az eshon umedi behi doshtan,
Sari rishtai xesh gum kardan ast,
Ba jayb-andarun mor parvardan ast.
Zi nopokzoda madored chashmi umed,
Ki zangi ba shustan nagardad safed.
Zi badasl chashmi behi doshtan,
Buvad xok dar diyda anboshtan.
Chu tu podshohi va baxshandai,
Zi shohoni geti duraxshandai,
Nakardi bar in nomai man nigoh,
Zi guftori badgȳyat bad omad gunoh.
Hasad burd badgȳy dar kori man,

Tabah kard bari shoh bozori man.
//386 Maro g‘amz kardand, k-on pursuxan,
Ba mehri Nabi-yu Ali shud kuhan.
Manam bandai har du to rastaxez,
V-agar shah kunad paykaram rez-rez.
Bar in zodamu ham bar in bigzaram,
Chunon don, ki xoki dari Haydaram.
Agar mehrashon man hikoyat kunam,
Chu Mahmudro sad shikoyat kunam.
Man in nomai shahriyoron pesh
Biguftam bad-in xub guftori xesh.
Ba si sol burdam ba “Shahnoma” ranj,
Ki to shoh baxshad maro toju ganj.
Ba podosh chun ganjro dar kushod,
Ba man juz bahoi fuqoe nadod.
Fuqoe nayarzid on ganji shoh,
Az on man fuqoe xaridam ba roh.
Nadoram zi dinori xusrav sipos,
Ki o‘ nest shohi haqiqatshinos.
Chu gavhar na volo buvad shohro,
Ba xok andar orad sari gohro.
Agar shohro shoh budi padar,
Ba sar bar nihodi maro toji zar.
V-agar modari shoh bonu budi,
Maro simu zar to ba zonu budi.
Chu andar taborash buzurgi nabud,
Nayorist nomi buzurgon shunud.
Tu in nomai shahryoron bixon,
Sar az charxi gardanda-bar bigzaron.
Azon guftam in baythoi baland,
Ki to shoh girad az in kor pand.
//387 Bidonad k-az in pas chi boshad suxan,
Barandeshad az gufti piri kuhan.
Digar shoironro nayozorad o‘,
Hamon hurmati xud nigahdorad o‘.

Ki shoir chu ranjid go‘yad, hijo
Bimonad hijo to ba qiyomat ba jo [Vosifiy Zayniddin. Badoe' al-vaqoe' // Qўlyozma, Aburayhon Beruniy nomidagi SHI fondi, № 3344 – B. 380-387].

Mazmuni:

Firdavsiyning Sulton Mahmud G‘aznaviyga hajvi.
“Ey shoh, Mahmudi kishvarkushoy,
Agar mendan qo‘rqmasang, qo‘rq Xudoydan.
Sendan oldin shohlar ko‘p edi juda,
Toju taxt egasi, jahongir juda.
Sendan yuqori edi martaba-obro‘y,
Xazina, lashkar, toju taxtu yoqut, –
Qilmadilar yomonlik, to‘g‘ri yurdilar,
Hargiz adolatsiz yo‘lga burmadilar.
Kimki dunyo bandiga tushibdir,
Donishmandlar nazarida xor bo‘libdir.
Endi zamon sening shohligingdir,
Demagin bu behuda so‘z, ey shohi olam.
Yomongo‘y-yomonfe'l dedi xon meni,
Men yo‘lbars, erkak, qo‘chqor – o‘z uyimning sohibi.
Sen meni qo‘rqitding – fil oyog‘i ostida
Tanamni ezarman Nil kabi, deb.
Men qo‘rqmasman, chunki dilim ravshan,
Jonu dilim Nabiy va Ali muhabbatida to‘lgan.
Men bu ikkisining muhabbatidan kechmasman,
Gar qilich yog‘dirsa osmon boshimdan.
Agar shoh Mahmud bu ishdan o‘tsa ham,
Uning qadrini donolik bir zarra tutmas.
Mahmudshohda xirad yo‘q,
U faqat saxiylikning dushmanini erkalaydi.
Kimki pastkash bo‘lsa uning ishi,
Undan faqat xaroblikni kut.
Attorlar orasidan o‘tsang,
Kiyiming ip-anbar hidiga to‘ladi.
Ko‘mirchi oldidan o‘tsang,
Undan qoradan boshqa narsa ko‘rmaysan.

Garchi otasi “Hasan” nom bergan bo‘lsa,
Sen unga yaxshilikni gumon qilma.
Tabiati achiq bo‘lgan daraxtni,
Agar jannat bog‘iga ekansang ham,
Va uni jannat anhoridan sug‘orsang,
Iligu azal muruvvatin bildirar,
Yana ham talx meva keltirar.
Nokaslarning qadrini ko‘tarmoq,
Va ulardan yaxshilik umid qilmoq –
O‘z rishtangning boshini yo‘qotmoqdir,
O‘z yoqang ichida ilon boqmoqdir.
Nopok zodadan umid tutma,
Zangiy yuvish bilan oqarmas.
Nasli yomondan yaxshilik kutmoq,
Ko‘zga tuproq to‘ldirmoqdir.
Sen podshoh-u baxshandasan,
Jahon shohlaridan yorqinsan,
Lekin mening bu nomamga nazar solmading,
Yomongo‘ylaring so‘zidan gunoh paydo bo‘ldi.
Hasadgo‘y mening ishimga hasad qildi,
Shoh oldida bozorimni kasod qildi.
Meni g‘amz (tuhmat) qildilar – serso‘z,
Nabiy va Ali muhabbatidan keksaygan.
Men ikkisining quliman to qiyomat kunigacha,
Gar shoh tanamni mayda-mayda qilsa ham.
Shunda tug‘ilganman, shunda o‘taman,
Bilginki, men Haydar eshigining tuprog‘iman.
Agar men ularga bo‘lgan muhabbatni aytsam,
Mahmudga yuzlab shikoyat aytsam...
Men bu shohnomani aytdim,
O‘z go‘zal so‘zim bilan.
Ming yil oldin “Shohnoma”ga jon qo‘ydim,
To shoh bergay menga toju ganj.
Mukofot uchun ganjni ochganida,
Menga faqat fuqoning bahosini berdi.

Fuqo (belbog‘) arzimasdi shohning ganjiga,
Men shu fuqoni yo‘ldan sotib oldim.
Husrav dinoridan minnatdor emasman,
Chunki u haqiqatshinos shoh emas.
Gavhar shohga munosib bo‘lmasa,
U taxt boshini tuproqqa qaratar.
Agar shohning otasi shoh bo‘lganida,
Boshimga tillo toj qo‘yar edi.
Agar shohning onasi malika bo‘lganida,
Meni tillaga botirar, kumushga cho‘mdirar edi.
Ammo uning naslida ulug‘lik bo‘lmagani uchun,
Ulug‘lar nomini eshitolmadi.
Sen bu shohnomani o‘qigin,
Gardundan boshni baland ko‘targin.
Men shu yuksak baytlarni shuning uchun aytdim,
To shoh bu ishdan pand olsa.
Bilsinki, bundan keyin so‘z neligini,
Uylansin cholning so‘zlarini.
Boshqa shoirlarni ranjitmasin,
O‘z hurmatini asrab qolsin.
Chunki shoir ranjisa, hajv aytar,
Sўz esa qiyomatgacha tirik qolar”.

O‘tmish ajdodlarning hikoyalariga ko‘ra, Firdavsiy “Shohnoma”ni 40 yoshida boshlagan. Bu milodiy 980 yillarga to‘g‘ri keladi. Unga o‘sha paytdagi Tus viloyatining hokimi Qutayba kitob yozish uchun barcha sharoitni muhayyo qilib beradi. Uni barcha soliqlardan ozod qilib qo‘yadi. Firdavsiy “Shohnoma”ni yozayotganda uning yonida hamisha Abu Do‘laf degan kishi roviylik qilib turadi.

Abu Do‘laf Eron shohlari sulolasi rivoyatlarining mukammal bilimdoni edi. Buni Firdavsiyning o‘zi ham minnatdorlik bilan eslaydi. Abu Daylam degan shaxs esa Firdavsiyga kotiblik qilardi. Firdavsiy kitobning birinchi tahriri qoralamasini 994 yilda qo‘ldan chiqaradi. Lekin undan ko‘ngli to‘lmaydi. Yana 16 yil uning ustida ishlaydi va 1010 yilda shoh asarini mukammal tugatib, Abu Do‘laf bilan G‘aznaga Sulton Mahmud G‘aznaviy huzuriga jo‘naydi. “Shohnoma” Sulton Mahmud G‘aznaviyga bag‘ishlangan, 7 jild nusxada ko‘chirilgan edi. Firdavsiy katta mukofotga loyiq kitob yozganligini bilar, yakkayu yolg‘iz qizi uchun seplikka katta pul undirish umidida edi.

Ular G‘aznaga yetib kelib, Sulton Mahmudning ko‘kaldoshi, vazir Xoja Hasan Maymandiyga tugallangan “Shohnoma” xabarini yetkazadi. Xoja Hasan zukko kishi edi, she'riyatni yaxshi ko‘rardi. Buning ustiga sultonning ham Firdavsiyga moyilligi bor edi. Ammo saroyda Xojaning dushmanlari ham talaygina edi. “Shohnoma” xabari Sultonga yetgach, u saroyda mashvarat o‘tkazib, “Firdavsiyga nima beramiz?” deb ayonlaridan so‘raydi. Bu yig‘inda, afsuski, Xojaning muxoliflari ko‘pchilikni tashkil qilardi, Xoja yolg‘izlanib qoladi. Muxoliflar bir ovozdan: “Unga o‘n-o‘n besh ming dirham ham yetadi”, deyishadi.

Sulton Mahmud ko‘pchilikning ra'yiga qarshi borolmaydi. Firdavsiyga yigirma ming dirham yubortiradi. Vazir Xoja Hasan Maymandiy esa til tishlab qoladi. Firdavsiy bundan qattiq ranjiydi. Hammomga tushib rosa bo‘zaxo‘rlik qiladi-da, pulning yarmini hammomchiga, yarmini bo‘zachiga berib, kechasi G‘aznani tark etdi. Olti oy hech kimga ko‘rinmadi. Yuz bayt “Shohnoma”ga debocha yozib, Sulton Mahmudni hajv qildi. Keyin kitobni ko‘tarib o‘zining viloyatdoshi Tabaron hokimi Shahriyor huzuriga bordi va hajviyasini o‘qib berdi. Shahriyorga “Men kitobni Mahmudga emas, senga bag‘ishlayman”, dedi. Hokim unga: “Ey ustod! Mahmudni aldashgan. Kitobingni buzib ko‘rsatishgan, senga tuhmat qilishgan. Bundan tashqari Mahmud mening hukmdorim, kitobni uning nomida qoldiraver! Hajviyani esa menga ber, men uni yirtib tashlay, senga esa evaziga biror narsa beraman.

Ertasiga Firdavsiyga yuz ming dirham bilan quyidagi nomani yuboradi: “Har bir baytingga ming dirhamdan to‘ladim, o‘sha yuz baytingni menga yubor va ko‘nglingni Mahmudga bo‘lgan ginadan pok qil”. Firdavsiyga Shahriyorning donoligi va himmati ma'qul tushdi. Mahmudni badnom qiluvchi hajviya shu yo‘sin barham topdi.

Oradan o‘n yil o‘tib, Sulton Mahmud Hind istilosidan qaytib kelayotganda bir bo‘ysunmagan qal'aga duch keladi. Qal'aga Sulton noma jo‘natish uchun yozdirdi: “Ertasiga hadyalar bilan huzurimizga kel, qabulimizga noil bo‘l, xizmatimizni qil, in'omlar bilan libosimizni kiyib, qaytib ketasan!” Agar xohlamasa, nima bo‘lishini qanday aytamiz, deb Sulton Mahmud yonida o‘tirgan Xoja Hasanga qaradi. O‘shanda Xoja quyidagi baytni o‘qidi:

Parokanda lashkar naoyad ba kor,
Dusad mardi ҷangi beh az sad hazor.
(Tarqoq lashkar ishga yaramaydi,

Ikki yuz jangchi yigit, yuz mingdan ortiq)

Sulton Mahmud: “Kishida mardlik uyg‘otadigan bu bayt kimniki?” deb Xojadan so‘radi. Xoja esa dilidan tugib yurgan asl muddaosini to‘kib soldi: “Abulqosim Firdavsiyniki, shuncha yil ranj tortdi-yu, kitobni tugatib samarasini ko‘rmadi”, dedi. Shunda Mahmud: “Bu haqda eslatib yaxshi qilding, o‘zim ham bu ishimdan pushaymonman, ul olijanob zotni haqdan behuda mahrum qildim. G‘aznada yodimga sol, men unga biror nima yuboraman”, dedi.

G‘aznaga kelgach, Sulton Xojaga: “Firdavsiy uchun yigirma ming dinor oltin pul ajratishni buyur, mening tuyalarimda Tusga olib borib topshirishsin va mening nomimdan salom aytishsin”, dedi. Buyruqni Maymandiy aytilganidan ham ziyoda qilib bajardi.

Lekin karvon Rudbor darvozasidan kirib kelganda, Firdavsiyning tobutini Razon darvozasidan olib chiqishayotgan edi. Shu kuni Firdavsiyning jasadini qabristonga olib borishda ham katta janjal chiqdi. Tabaronlik ruhoniylar boshlig‘i: “Uning murdasini musulmonlar qabristoniga qo‘ydirmayman, u rofiziy”, deb turib oldi. Oxir uni shahar tashqarisidagi o‘zining kichkinagina chorbog‘iga dafn qilishdi. Hayron bo‘lgan elchilar qalam haqini Firdavsiyning qiziga bermoqchi bo‘lishdi. U pulni olishdan bosh tortdi. Bu voqealar bor tafsilotlari bilan Sulton Mahmud va Xojaga chopar orqali yetkaziladi.

Sulton Mahmuddan shunday farmon bo‘ladi: “Firdavsiyni haqoratlagan ruhoniy mamlakatdan chiqarib yuborilsin. Firdavsiyga hadya qilingan pulga Nishopur-Marv yo‘li boshida Raboti Choha masjidi qurish Xoja Abu Bakr Karromiyga topshirilsin”.

Bu farmon to‘lig‘icha amalga oshiriladi. Firdavsiyning qalam haqiga Raboti Choha masjidi quriladi [yana qarang: 5-7; 8.].

Zayniddin Vosifiyning “Badoe' ul-vaqoe'” asarida keltirilgan Firdavsiy va “Shohnoma” haqidagi rivoyat XVI asr adabiy-tarixiy tafakkurining muhim namunasi hisoblanadi. Mazkur rivoyatda buyuk shoir Firdavsiyning hayoti, ijodiy faoliyati, Sulton Mahmud G‘aznaviy saroyidagi mavqei, “Shohnoma”ning yaratilish tarixi hamda shoirning shaxsiy fazilatlari badiiy va tarixiy unsurlar uyg‘unligida yoritilgan. Shu jihatdan Vosifiy keltirgan ma'lumotlar Firdavsiy obrazining keyingi asrlar adabiy xotirasida qanday shakllanganini o‘rganish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Vosifiy rivoyatida tarixiy voqelik va xalqona rivoyatchilik an'analari o‘zaro uyg‘unlashib ketgan. Ayrim voqealar tarixiy jihatdan bahsli bo‘lsa-da, ular orqali muallif Firdavsiyning yuksak iste'dodi,

haqiqatparvarligi, ma'naviy qat'iyati va ijodkorlik sha'nini himoya qilishga intilishini namoyon etadi. Ayniqsa, shoirning moddiy manfaatdan ko‘ra abadiy shuhrat va ma'naviy qadriyatlarni ustun qo‘yishi haqidagi g‘oyalar asarning asosiy g‘oyaviy mazmunini tashkil etadi.

Shuningdek, rivoyatda Firdavsiy va Sulton Mahmud G‘aznaviy munosabatlari misolida o‘rta asrlar sharq jamiyatida ijodkor va hokimiyat o‘rtasidagi munosabatlar, saroy muhitidagi raqobat, diniy-siyosiy qarashlarning adabiy jarayonlarga ta'siri kabi masalalar ham o‘z ifodasini topgan. Bu esa “Badoe' ul-vaqoe'” asarining nafaqat adabiy yodgorlik, balki qimmatli tarixiy manba sifatidagi ahamiyatini ham ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Vosifiy tomonidan saqlab qolingan mazkur rivoyat Firdavsiy va “Shohnoma” haqidagi o‘rta asr tasavvurlarini o‘rganish, fors-tojik adabiy merosining qabul qilinishi va talqin etilishini tadqiq qilish hamda XVI asr Movarounnahr va Xuroson adabiy muhitini yoritishda muhim manba vazifasini bajaradi. Mazkur ma'lumotlar Firdavsiy shaxsi va ijodining keyingi davrlarda ham yuksak e'tirof etilganini ko‘rsatib, uning jahon madaniy merosidagi beqiyos o‘rnini yana bir bor tasdiqlaydi.

Manba va adabiyot:

1. Бертельс Е. Э. Абу-л-Касим Фирдоуси и его творчество / Отв. ред. акад. И. А. Орбели. – Ленинград-Москва: Изд-во Акад. наук СССР, 1935. – (Серия научно-популярной литературы/ Акад. наук СССР. Ин-т востоковедения).

2. Болдырев А.Н.“Мемуары Зайн-ад дина Восифи, как источник для изучения культурной жизни Средней Азии и Хорасана на рубеже XV-XVI вв.”// Труды Отдела Востока Эрмитажа, II, стр. 263,

3. Болдырев А.Н.“Навои в рассказах современников”, юбилейный сборник “Алишер Навои” изд. Акад. Наук. – Ташкент, 1941.

4. Болдыроев А.Н.“Тезкирэ Хасана Нисори и т. д.” //Труды Отдела Востока Эрмитажа, III, стр. 191. Сведения о Восифи приведены на 142-листе первой тетрадки рукописи (В 2493).

5. Восифий Зайниддин. Бадоеъ ал-вақоеъ // Қўлёзма, Абурайҳон Беруний номидаги ШИ фонди, № 3344 – 548 вар.

6. Дьяконов М. М. Фердоуси: Жизнь и творчество / Отв. ред. акад. И. А. Орбели. – Москва: Изд-во Акад. наук СССР, 1940.

7. Ирадж Афшар. Кетабшенасие Фердоуси. – Тегеран, 1968.

8. Стариков А. А. Фирдоуси и его поэма «Шах-наме». – Москва, 1957. Т. 1. – (Литературные памятники).

9. Шоҳноманинг қалам ҳаққи. https://www.e-adabiyot.uz/maqola/1083

10. Шукуров Ш. М. «Шах-наме» Фирдоуси и ранняя иллюстративная традиция. – Москва, 1983.

11. Davis D. Introduction // Ferdowsi. Shahnameh. The Persian book of kings (англ.). – New York: L., 2007.

12. Masse H. Firdousi et l'épopée nationale (фр.). – Paris, 1935.

13. Nöldeke Th. Das iranische Nationalepos, 2 (нем.). – London: Aufl., 1920.

XIX-ASR OXIRI XX-ASR BOSHLARIDA XIVA XONLIGIDA TIBBIY HIZMAT

MATYAQUBOV ELYORBEK AMONBOYEVICH,
UrDPI mustaqil izlanuvchisi

UO‘K 94(575.1)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xiva xonligining XIX-asr oxiri va XX asr boshlaridagi tibbiyot va sog‘liqni saqlash tizimi tarixi tahlil qilingan. Anushteginiylar davridagi yuksak tibbiy yuksalish hamda Xorazmshoh Otsiz sharafiga qurilgan shifoxona inqirozidan so‘ng, vohada salkam sakkiz asr davomida markazlashgan davlat shifoxonalari mavjud bo‘lmaganligi yoritilgan. Shunga qaramay, aholining tibbiy ehtiyojlarini qondirgan xalq tabobati va uning o‘ziga xos ijtimoiy makoni bo‘lgan "charchi saroylari" hamda attorlik do‘konlarining faoliyati etno-tarixiy manbalar (xususan, general A.S. Galkin qaydlari) asosida ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, XIX asr oxirida Chor Rossiyasi tomonidan qurilgan Petro-Aleksandrovsk gospitalidagi pullik xizmatlar inqirozi va uning mahalliy aholi ijtimoiy hayotiga ta’siri arxiv hujjatlari orqali ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Xorazm, Xiva xonligi, Anushteginiylar, xalq tabobati, charchi saroyi, attorlik, A.S. Galkin, gospital, tibbiyot tarixi.*

Аннотация: *В данной статье анализируется история медицины и системы здравоохранения Хивинского ханства в конце XIX – начале XX века. В работе отмечается, что после высокого расцвета медицины в эпоху Ануштегинидов и упадка госпиталя, построенного в честь Хорезмшаха Атсыза, в оазисе на протяжении почти восьми веков отсутствовали централизованные государственные больницы. Несмотря на это, на основе этно-исторических источников (в частности, записей генерала А. С. Галкина) освещается деятельность народной медицины, а также «чарчи сараев» и аптекарских лавок, служивших своеобразным социальным*

пространством для удовлетворения медицинских потребностей населения. Кроме того, на основе архивных документов раскрывается кризис платных услуг в Петро-Александровском госпитале, построенном Российской империей в конце XIX века, и его влияние на социальную жизнь местного населения.

Ключевые слова: *Хорезм, Хивинское ханство, Ануштегиниды, народная медицина, чарчи сарай, аптекарство, А.С. Галкин, госпиталь, история медицины.*

Annotation: *This article analyzes the history of the medicine and healthcare system of the Khiva Khanate in the late 19th and early 20th centuries. It highlights that following the high medical renaissance during the Anushteginid era and the subsequent decline of the hospital built in honor of Khwarazmshah Atsiz, the oasis lacked centralized state hospitals for nearly eight centuries. Nevertheless, based on ethno-historical sources (particularly the records of General A. S. Galkin), the paper examines the role of traditional medicine, as well as the activities of "charchi sarays" and herbal shops that functioned as unique social spaces meeting the medical needs of the population. Furthermore, through archival documents, the article reveals the crisis of paid medical services at the Petro-Alexandrovsk hospital, established by the Russian Empire in the late 19th century, and its impact on the social life of the local population.*

Keywords: *Khwarazm, Khiva Khanate, Anushteginids, traditional medicine, charchi saray, herbalism, A.S. Galkin, hospital, history of medicine.*

KIRISH

Tarixiy manbalar Xorazm vohasi nafaqat davlatchilik, balki tibbiyot va sog‘liqni saqlash madaniyati borasida ham o‘rta asrlarda Sharqning eng rivojlangan markazlaridan biri bo‘lganligidan dalolat beradi. XII asrda Anushteginiylar sulolasi hukmronligi davrida davlat darajasidagi tibbiyot tizimi va ixtisoslashgan shifoxonalar faoliyati o‘z cho‘qqisiga chiqqan edi. Biroq,

keyingi asrlarda kechgan murakkab siyosiy jarayonlar va ijtimoiy inqirozlar ushbu tizimli tibbiyot an’analarining tanazzulga uchrashiga va transformatsiyasiga olib keldi.

Ushbu maqola Xorazmda tibbiyot tarixining uzoq davom etgan o‘zgarishlar bosqichini, xususan, markazlashgan tibbiyot tizimi yo‘qligida aholi salomatligini muhofaza qilishda muhim o‘rin tutgan "charchi saroylari" va an’anaviy tabobatchilik amaliyotini tahlil qiladi. Shuningdek, tadqiqot XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida mintaqada yuz bergan siyosiy o‘zgarishlar hamda Chor Rossiyasi tomonidan joriy etilgan dastlabki statsionar tibbiy muassasalarning mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy muhitga ta’sirini arxiv hujjatlari va etnografik ma’lumotlar asosida yoritishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida vohadagi ijtimoiy-maishiy hayot va tibbiy madaniyat xorijlik harbiylar va sayyohlarning ham diqqat markazida bo‘lgan. Xususan, Chor Rossiyasi generali A. S. Galkinning 1902 yilda chop etilgan "Xiva vohasining harbiy-statistic tavsifi" nomli asari mintaqa etnografiyasi va mahalliy aholining kasalliklarni davolash usullarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

Mintaqada mustamlakachilik ma’muriyati o‘rnatilgandan keyingi tibbiy islohotlar, ilk gospitallarning paydo bo‘lishi va tabaqalanish muammolari mahalliy olimlar tomonidan ham tadqiq etilgan. S. Yo‘ldoshev o‘z ishlarida Xiva xonligidagi ilk statsionar muassasa – Petro-Aleksandrovsk gospitali, undagi tibbiy xizmatlarning pullik tabiati va buni mahalliy jadid hamda ziyolilar qanday qarshi olganini arxiv hujjatlari yordamida tahlil qiladi. Ushbu davrdagi iqtisodiy inqiroz va aholining kambag‘al qatlamlari (dehqon va chorikorlar) uchun zamonaviy tibbiyotning mutloq imkonsiz bo‘lganligi R. Shamsiddinovning Xiva xonligi ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida iqtisodiy ko‘rsatkichlar orqali dalillangan.

Xulosa qilib aytganda, mavjud adabiyotlarda Xorazm vohasining o‘rta asrlar tibbiyoti va chorizm davridagi harbiy tibbiyot tizimi alohida-alohida o‘rganilgan bo‘lsa-da, tizimsizlikdan tizimlilikka o‘tish davridagi "charchi saroylari" kabi an’anaviy nuqtalarning ijtimoiy transformatsiyasi va ilk gospitallarning moliyaviy inqirozi yaxlit holda kompleks tahlil qilinmagan. Ushbu maqola ayni shu bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotning metodologik asosini tarixiy bilishning ob'ektivlik, tarixiylik va tizimlilik prinsiplari tashkil etadi. Xorazm vohasida o‘rta asrlardan XX asr boshlarigacha bo‘lgan davrda tibbiyot tizimi va xalq tabobatining rivojlanish hamda transformatsiya jarayonlarini aniqlashda bir-birini to‘ldiruvchi tarixiy-qiyosiy, tarixiy-tizimli, retrospektiv tahlil, manbashunoslik va arxiv hujjatlari bilan ishlash, etnografik va terminologik tahlil kabi maxsus tarixiy va umumilmiy metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Xorazm vohasining davlatchilik va ilm-fan tarixida Sharq Renessansi davri o‘ziga xos yuksalish bosqichi hisoblanadi. Xususan, Xorazmshoh Qutbiddin Muhammad ibn Anushtegin o‘zining taxt vorisi Bahovaddin Muhammad Alouddavla (tarixda Otsiz nomi bilan mashhur hukmdor) sharafiga 1113 yilda poytaxt Ko‘hna Urganch shahrida yirik va zamonaviy shifoxona (tibbiyot markazi) barpo ettirgan edi [1]. Bu davrda tibbiyot va tabobat ilmi davlat darajasidagi yuksak e’tiborda bo‘lgan.

Biroq mazkur yuksalishdan keyingi salkam sakkiz asrlik tarixiy jarayon voha uchun nihoyatda murakkab va fojiali kechdi. Chingizxon va Amir Temur yurishlari, ichki va tashqi siyosiy ziddiyatlar natijasida bir paytlar qudratli bo‘lgan Xorazmshohlar imperiyasi parchalanib ketdi[2]. Necha asrlar davomida turli sulolalar, xonlik va hoqonliklar tarkibida siyosiy qaramlikni boshdan kechirgan hudud, uzoq davom etgan degradatsiyadan so‘ng, faqatgina XVI asrga kelibgina yana qayta mustaqil davlat birligi — Xiva xonligi sifatida shakllanishga muvaffaq bo‘ldi va geosiyosiy vaziyat taqozosi bilan poytaxt Xiva shahriga ko‘chirildi[3].

O‘rta asrlardan keyingi inqirozli davrlarda Xiva xonligi hududida markazlashgan, tizimli va doimiy faoliyat yurituvchi davlat shifoxonalari (kasalxonalar) mavjud bo‘lmagan bo‘lsa-da, aholiga tibbiy yordam ko‘rsatish tizimi va tabibchilik an’analari butunlay to‘xtab qolgani yo‘q. Aksincha, asrlar davomida shakllangan xalq tabobati, sog‘lomlashtirish amaliyoti va farmokologik bilimlar transformatsiyaga uchrab, o‘ziga xos ijtimoiy

[1] Ibrohimov N. Xorazmshohlar davlati madaniyati va tibbiyoti tarixidan. – Toshkent: Fan, 1993. – B. 76.
[2] Буниятов З. Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов (1097–1231). – Москва: Наука, 1986. – С. 142.
[3] Abulg‘oziy Bahodirxon. Shajarai turk. – Toshkent: Cho‘lpon, 1992. – B. 88-91.

makonlarda yashovchanligini saqlab qoldi. Manbalarning guvohlik berishicha, bu davrda mahalliy hakimlar, tabiblar, jarrohlar va giyohshunoslar (attorlar) o‘z kasbiy faoliyatlarini asosan shaharning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti markazi bo‘lgan bozorlarda tashkil etganlar[1].

Xiva vohasining XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi ijtimoiy-maishiy hayoti, xususan, aholiga tibbiy yordam ko‘rsatish tizimi o‘sha davrda hududga tashrif buyurgan xorijlik harbiy tadqiqotchilar va kuzatuvchilarning ham e’tiborini tortgan. Chor Rossiyasining harbiy yurishlari ishtirokchisi bo‘lgan general A. S. Galkin o‘zining 1902 yilda Toshkent shahrida nashr etilgan «Военно-статистическое описание Хивинского оазиса » («Xiva vohasining harbiy-statistik tavsifi») nomli fundamental asarida mahalliy aholining tibbiy madaniyati va tabobat usullari xususida qimmatli etnografik ma’lumotlarni bayon etadi[2].

Chor Rossiyasi harbiy kuzatuvchisi general A. S. Galkinning qaydlaridan ma’lum bo‘lishicha, Xiva xonligi hududida tizimli statsionar davolash muassasalari mavjud bo‘lmagan davrlarda aholi salomatligini muhofaza qilish ijtimoiy va savdo infratuzilmalari bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlangan. Mahalliy aholi va tarixchilar tibbiy-farmatsevtik xizmat ko‘rsatiladigan hamda shifobaxsh vositalar sotiladigan bunday ixtisoslashtirilgan savdo maskanlari va do‘konlarni xalq tilida «charchi saroyi» (attorlik va dorivor giyohlar savdosi markazi) deb atashgan[3].

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Xiva xonligida madaniy hayotni, aholining turmush tarzi va ijtimoiy-maishiy muhitini o‘rgangan rus tarixchilari, sharqshunoslari va etnograflari hududdagi xalq tabobati tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini atroflicha bayon etganlar. Ularning ilmiy kuzatishlariga ko‘ra, yuqorida tilga olingan «charchi saroylari» va attorlik do‘konlarida tabiiy giyohlar bilan bir qatorda, mahalliy flora va minerallardan tayyorlangan shifobaxsh mahsulotlar keng sotuvga qo‘yilgan[4].

---

[1] Ibrohimov N. Xorazm vohasi etnografiyasi va xalq tabobati tarixi. – Toshkent: Fan, 1996. – B. 54-57.
[2] Галкин А. С. Военно-статистическое описание Хивинского оазиса. Часть II. – Ташкент: Издание Штаба Туркестанского военного округа, 1902. – С. 145-148.
[3] Иброҳимов Н. Хоразм воҳаси этнографияси ва халқ табобати тарихи. – Тошкент: Фан, 1996. – Б. 62.
[4] Веселовский Н. И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве. – СПб., 1877. – С. 182-185.

Ushbu maskanlarda kimyoviy va tabiiy unsurlar — mis kukunlari (an’anaviy antiseptik sifatida), saksovul va archa qorakuyasi, isiriq hamda turli shifobaxsh gullar (jambil, ra’no, na’matak va b.) turli xastaliklarning oldini olish va davolash uchun farmatsevtik xomashyo sifatida taqdim etilgan[1].

Bayon etilgan tarixiy va etnografik dalillar shuni ko‘rsatadiki, Xiva xonligi bozorlaridagi tabiblik do‘konlari va «charchi saroylari» o‘z davrining ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalari va dorixonalar vazifasini to‘laqonli bajargan. Tizimli sog‘liqni saqlash tizimi bo‘lmagan tarixiy sharoitda ushbu mahalliy tibbiy nuqtalar aholi salomatligini muhofaza qilish, jarohatlarni davolash va dori-darmon yetkazib berishda sezilarli darajada ijobiy rol o‘ynagan.

Anushteginiylar sulolasi (xususan, Xorazmshoh Otsiz hukmronligi) davridagi yuksak tibbiy madaniyat va davlat shifoxonalari an’anasi inqirozga yuz tutgach, vohada tibbiy xizmat asrlar davomida asosan moslashtirilgan bozor do‘konlari va «charchi saroylari» shaklida faoliyat yuritdi. Ushbu tarqoq va notizimli tibbiy xizmatni yana qayta ixtisoslashtirilgan, statsionar tipdagi maxsus kasalxona va shifoxonalarga ko‘chirish jarayoni faqatgina XIX asrning oxiri — XX asr boshlariga kelibgina amaliy ahamiyat kasb eta boshladi.

Ushbu tibbiy islohotlar va modernizatsiya jarayonlarida xonlik hududida faoliyat yuritgan rus shifokorlari, harbiy missionerlari va eng muhimi, Xiva xonligining mahalliy taraqqiyparvar, jadid va ma’rifatparvar ziyolilarining xizmati alohida tahsinga loyiqdir.

XIX asrning so‘nggi choragida Chor Rossiyasining xonlik hududiga kirib kelishi va mustamlakachilik ma’muriyatining shakllanishi natijasida Amudaryoning o‘ng sohilida yirik harbiy-strategik markaz — Petro-Aleksandrovsk (hozirgi To‘rtko‘l) shahri barpo etildi. Bu yerda imperiya armiyasining doimiy jangovar shayligini ta’minlovchi qudratli harbiy garnizon joylashtirildi[2].

Ushbu garnizon ofitserlari va askarlariga tibbiy xizmat ko‘rsatish maqsadida tashkil etilgan ixtisoslashgan harbiy gospital vaqt o‘tishi bilan

[1] Иброҳимов Н. Хоразм воҳаси этнографияси ва халқ табобати тарихи. – Тошкент: Фан, 1996. – Б. 74.
[2] Веселовский Н. И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве. – СПб., 1877. – С. 210.

mahalliy tinch aholi vakillari uchun ham o‘z tibbiy xizmatlarini taklif qila boshladi.

Ammo ushbu gospitalda mahalliy aholiga tibbiy yordam ko‘rsatish bepul emas, balki tijoriy (pullik) asosda yo‘lga qo‘yilgan edi[1].

Davrning ijtimoiy-iqtisodiy manzarasi va aholining to‘lov qobiliyati tahlil qilinganda, gospital tomonidan belgilangan davolash narxlari mahalliy bozordagi umumiy narx-navo va aholining real daromadlariga nisbatan haddan tashqari qimmat bo‘lganligi ma’lum bo‘ladi. Shu sababli:

Davolanish xarajatlarining yuqoriligi bois, mahalliy kambag‘al dehqonlar, hunarmandlar va chorikorlar singari keng xalq ommasi zamonaviy klinik tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatidan butunlay mahrum edi. Ushbu xizmat asosan xonlikning boy-badavlat va amaldor tabaqasigagina xizmat qilgan[2].

Davlat arxiv fondida saqlanayotgan rasmiy hujjatlar ushbu moliyaviy inqiroz ko‘lamini yaqqol tasdiqlaydi. Arxiv ma’lumotlariga ko‘ra, gospital statsionarida yotib davolangan mahalliy bemorlardan biri davolanish muolajalari yakunida o‘ziga hisoblangan 2 so‘m 19 tiyinlik (o‘sha davr mezoni bilan olinganda sezilarli mablag‘ bo‘lgan) tibbiy to‘lovni amalga oshirishga mutlaqo moliyaviy qurbi yetmaganligi rasman qayd etilgan[3].

Chor ma’muriyati tomonidan tashkil etilgan ilk tibbiy muassasalar mahalliy aholi uchun ijtimoiy himoya vositasi emas, balki ko‘proq harbiy-ma’muriy va tijoriy maqsadlarga xizmat qilgan. Bu esa voha aholisining nima sababdan yana uzoq vaqt davomida arzon va qulay bo‘lgan an’anaviy xalq tabobati hamda bozorlardagi tabib do‘konlari xizmatidan foydalanishga majbur bo‘lganini iqtisodiy jihatdan izohlab beradi[4].

XULOSA

Xulosa o’rnida aytadigan bo’lsak, Xorazm vohasining davlatchilik va ilm-fan, xususan, tibbiyot tarixi o‘zining ko‘p asrlik murakkab evrilishlari bilan o‘ziga xos xarakterga ega.

---

[1] Йўлдошев С. Хива хонлигида маориф ва соғлиқни сақлаш тизимидаги ислоҳотлар (XIX аср охири – XX аср боши). – Урганч: Хоразм, 2008. – Б. 94.

[2] Шамсиддинов Р. Хива хонлигининг ижтимоий-иқтисодий ҳаёти тарихидан. – Фарғона: Наврўз, 2015. – Б. 132.

[3] Йўлдошев С. Хива хонлигида маориф ва соғлиқни сақлаш тизимидаги ислоҳотлар (XIX аср охири – XX аср боши). – Урганч: Хоразм, 2008. – Б. 112.

[4] Иброҳимов Н. Хоразм воҳаси этнографияси ва халқ табобати тарихи. – Тошкент: Фан, 1996. – Б. 118.

XII asrda Anushteginiylar sulolasi, xususan, Xorazmshoh Otsiz davrida Ko‘hna Urganchda shakllangan va davlat darajasida qo‘llab-quvvatlangan yuksak shifoxonalar an’anasi keyingi asrlardagi tashqi bosqinlar va ichki ziddiyatlar oqibatida butunlay inqirozga yuz tutdi. Buning natijasida vohada salkam sakkiz asr davomida markazlashgan davlat shifoxonalari mavjud bo‘lmadi.

Tizimli tibbiy muassasalar yo‘qligiga qaramay, aholining salomatlik ehtiyojlarini qondirish funksiyasi butunlay to‘xtab qolgani yo‘q. Aksincha, u bozorlar va ijtimoiy makonlarda o‘ziga xos transformatsiyaga uchradi. Bozorlardagi «charchi saroylari» va attorlik do‘konlari o‘z davrining o‘ziga xos birlamchi tibbiy-sanitariya va farmatsevtika nuqtalari vazifasini muvaffaqiyatli bajardi hamda xalq tabobati an’analarini saqlab qoldi.

XIX asr oxirida Chor Rossiyasi tomonidan kirib kelgan g‘arb tipidagi statsionar tibbiyot (Petro-Aleksandrovsk gospitali) tizimi mahalliy aholining keng qatlami uchun ijtimoiy himoya vositasiga aylana olmadi. Xizmatlarning tijoriy (pullik) asosda yo‘lga qo‘yilganligi va narxlarning haddan tashqari yuqoriligi (arxiv hujjatlarida aks etgan 2 so‘m 19 tiyinlik to‘lov misolida) kambag‘al dehqon va hunarmandlarni zamonaviy tibbiyotdan mahrum etdi hamda ularni yana an’anaviy tabobatga bog‘lanib qolishga majbur qildi.

Mazkur tarixiy jarayonlar voha hayotida tibbiy xizmatni pullik harbiy-tijoriy modeldan xalqchil, ochiq va ixtisoslashgan tizimga o‘tkazish zarurligini ko‘rsatdi. Bu esa XX asr boshlariga kelib Xiva xonligidagi mahalliy taraqqiyparvar va jadid ziyolilarining va'da qilingan yangi tipdagi shifoxonalar (dorulshifolar) barpo etish yo‘lidagi islohotchilik harakatlariga kuchli turtki berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibrohimov N. Xorazmshohlar davlati madaniyati va tibbiyoti tarixidan. – Toshkent: Fan, 1993. – B. 76.

2. Буниятов З. Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов (1097–1231). – Москва: Наука, 1986. – С. 142.

3. Abulg‘oziy Bahodirxon. Shajarai turk. – Toshkent: Cho‘lpon, 1992. – B. 88-91.

4. Ibrohimov N. Xorazm vohasi etnografiyasi va xalq tabobati tarixi. – Toshkent: Fan, 1996. – B. 54-57.

5. Галкин А. С. Военно-статистическое описание Хивинского оазиса. Часть II. – Ташкент: Издание Штаба Туркестанского военного округа, 1902. – С. 145-148.

6. Иброҳимов Н. Хоразм воҳаси этнографияси ва халқ табобати тарихи. – Тошкент: Фан, 1996. – Б. 62.

7. Веселовский Н. И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве. – СПб., 1877. – С. 182-185.

8. Иброҳимов Н. Хоразм воҳаси этнографияси ва халқ табобати тарихи. – Тошкент: Фан, 1996. – Б. 74.

9. Веселовский Н. И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве. – СПб., 1877. – С. 210.

10. Йўлдошев С. Хива хонлигида маориф ва соғлиқни сақлаш тизимидаги ислоҳотлар (XIX аср охири – XX аср боши). – Урганч: Хоразм, 2008. – Б. 94.

11. Шамсиддинов Р. Хива хонлигининг ижтимоий-иқтисодий ҳаёти тарихидан. – Фарғона: Наврўз, 2015. – Б. 132.

12. Йўлдошев С. Хива хонлигида маориф ва соғлиқни сақлаш тизимидаги ислоҳотлар (XIX аср охири – XX аср боши). – Урганч: Хоразм, 2008. – Б. 112.

13. Иброҳимов Н. Хоразм воҳаси этнографияси ва халқ табобати тарихи. – Тошкент: Фан, 1996. – Б. 118.

ILK SHARQ RENESSANSI DAVRIDA XORAZMDA TA'LIM VA ILM-FANNING INSTITUSIONAL INFRATUZILMASI: MADRASALAR VA VAQF TIZIMI

D.Sh.Rajabova,
Xorazm Ma'mun akademiyasi,
katta ilmiy xodim
ORCID:
https://orcid.org/0009-0002-4748-7488
E-mail:
dinorashavkatovna85@gmail.com

UO'K 94(575.1)

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqotda IX–XI asrlarda Xorazm vohasida shakllangan Ilk Sharq Uyg'onish davrining (Birinchi Renessans) institusional va infratuzilmaviy asoslari kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy e'tibori o'rta asrlar ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, xususan, madrasalar va «Dorul-hikma» tizimining fundamental hamda amaliy fanlarni rivojlantirishdagi tashkiliy-huquqiy roliga qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *Ilk Renessans, Xorazm, institusionalizatsiya, madrasa, vaqf tizimi, akademiya, ta'lim infratuzilmasi, inson kapitali, antroposentrizm, Uchinchi Renessans.*

Аннотация: *В данном исследовании проводится комплексный анализ институциональных и инфраструктурных основ Первого Восточного Ренессанса (Первого Возрождения), сформировавшегося в IX–XI веках в Хорезмском оазисе. Основное внимание в исследовании уделено организационно-правовой роли средневековых образовательных и научно-исследовательских учреждений, в частности мадраса и системы «Дар аль-хикма», в развитии фундаментальных и прикладных наук.*

Ключевые слова: *Первый Ренессанс, Хорезм, институционализация, мадраса, вакуфная система, академия, образовательная инфраструктура, человеческий капитал, антропоцентризм, Третий Ренессанс.*

Abstract: *This study provides a comprehensive analysis of the institutional and infrastructural foundations of the Early Oriental Renaissance (First Renaissance), which emerged in the Khwarazm oasis in the 9th–11th centuries. The main focus of the research*

is directed toward the organizational and legal role of medieval educational and research institutions, particularly madrasahs and the "Dar al-Hikmah" system, in the development of fundamental and applied sciences. ***Keywords:*** *Early Renaissance, Khwarazm, institutionalization, madrasah, waqf system, academy, educational infrastructure, human capital, anthropocentrism, Third Renaissance.*

Kirish: Jahon sivilizatsiyasi va tamadduni tarixini xolis tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, global va mintaqaviy darajadagi madaniy-intellektual evrilishlar va akademik yuksalishlar muayyan geosiyosiy, iqtisodiy va institusional omillarning yaxlit tizim sifatida amal qilishi mahsulidir [1, b. 12]. Buyuk Ipak yo‘lining strategik va madaniy chorrahasida joylashgan Markaziy Osiyo, xususan, qadimgi va o‘rta asrlar Xorazm vohasi asrlar davomida turli sivilizatsiyalarlararo muloqot, ilmiy va madaniy sintez markazi vazifasini o‘tab kelgan [2, b. 45]. IX–XI asrlarda mintaqada kuzatilgan fenomenal hodisa — Sharq Uyg‘onish davri (Birinchi Renessans) jahon ilm-fani va falsafasi xazinasini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqdi [3, b. 102].

Ilk Renessans davrida Xorazmda shakllangan intellektual va madaniy muhit shunchaki alohida olim yoki mutafakkirlarning yakkaxon ijodiy faoliyati natijasi bo‘lmay, balki davlat tomonidan tizimli ravishda qo‘llab-quvvatlangan, muayyan tashkiliy-huquqiy, moliyaviy va infratuzilmaviy shakllarga ega bo‘lgan tizimli institusional hodisa edi [4, b. 78]. Mazkur davrda ilmiy-tadqiqot va ta’lim jarayonining o‘zaro integratsiyalashuvi, «Dorul-hikma» kabi ilmiy muassasalar va yuzlab madrasalarning tashkil etilishi intellektual resurslarni jamlash, saqlash, tizimlashtirish va kelgusi avlodlarga uzatish mexanizmini yaratdi [5, b. 210].

Zamonaviy tarixshunoslik va sosiologiyada o‘rta asrlar akademik institutlarining tashkiliy tuzilmasini, ularning ijtimoiy-siyosiy tizimdagi o‘rnini va bugungi taraqqiyot bilan vorislik aloqalarini tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi [6, b. 33].

Tadqiqot jarayonida xolislik, tarixiylik, tizimli tahlil, qiyosiy-tarixiy va institusional yondashuv metodlaridan foydalanildi. Xorazmdagi Ilk Renessans fenomenini o‘rganishda IX–XI asr yorqin namoyandalarining (Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Abu Nasr Ibn Iroq va b.) asarlari, o‘rta asr arab va fors tilidagi manbalar hamda zamonaviy akademik istoriografiya xulosalari asosiy manbaviy

baza qilib olindi [7, b. 88; 8, b. 114]. Tadqiqotning nazariy poydevori sifatida Sharq Uyg‘onish davri konsepsiyasi hamda davlat va ilm-fan integratsiyasi to‘g‘risidagi zamonaviy akademik qarashlar xizmat qildi [9, b. 17].

Asosiy qism: IX–XI asrlarda Somoniylar, Oltintoshlar va chastno Ma’muniylar sulolasi hukmronligi davrida Markaziy Osiyoda, xususan Xorazmda davlat boshqaruvi va siyosiy barqarorlikning ta’minlanishi intellektual taraqqiyot uchun muhim omil bo‘ldi [10, b. 54]. Ma’muriy markazlashuv va shaharsozlikning juda shiddat bilan rivojlanishi, qishloq xo‘jaligida sug‘orish tizimlarining mukammallashuvi hamda xalqaro savdo-sotiq aloqalarining kengayishi aniq va tabiiy fanlarga bo‘lgan amaliy ehtiyojni keskin oshirdi [11, b. 201].

Ilk Renessans davridagi siyosiy va etnomadaniy jarayonlar ilm-fan kishilarini yagona ezgu g‘oyalar — borliq qonuniyatlarini anglash, inson hayotini farovonlashtirish va davlatni ma’rifat asosida boshqarish tevaragida birlashtirdi [12, b. 67]. Mazkur davrda Xorazmda yuzaga kelgan fundamental muhitning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

Global bilimlar integratsiyasi va tanqidiy sintez: Xorazm olimlari Gresiya (Yunoniston), Hindiston, Eron, Shumer va Yaqin Sharq ilmiy yutuqlarini shunchaki tarjima qilish va saqlash bilan cheklanmay, ularni ijodiy va tanqidiy tahlil qilib, yangi sifat bosqichiga ko‘tardilar [13, b. 142]. Aniq va tabiiy fanlarning ustuvorligi: Matematika, astronomiya, geologiya, geodeziya, mineralogiya va tibbiyot sohalarida tajribiy-eksperimental va matematik metodlarning qaror topishi [14, b. 90]. Antroposentrizm va meritokratiya: Insonning aqliy salohiyati va bilimi uning ijtimoiy maqomini belgilovchi bosh mezonga aylandi. Ilm-fanga e’tiqod va bilimga tashnalik jamiyatning eng yuqori qadriyatlaridan biri sifatida e’tirof etildi [15, b. 45].

O‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda bilimlarni tizimlashtirish va uzatishning asosiy institusional shakli sifatida madrasalar faoliyat yuritgan. Bu muassasalar faqat diniy ta’lim berib qolmay, balki o‘z davrining klassik universitetlari vazifasini bajargan [16, b. 112]. Madrasalarda diniy va huquqiy bilimlar bilan bir qatorda matematika, astronomiya, tibbiyot, mantiq, aruz va falsafa fanlari chuqur o‘rgatilgan.

Tarixiy manbalar va manbashunoslik ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, mintaqaning yirik madaniy va ma’rifiy markazlarida yuzlab akademik ta’lim maskanlari faoliyat yuritgan. Xususan, Buxoroda 300 dan ortiq, Samarqandda 120 ga yaqin, Xivada va unga tutash Xorazm shaharlarida 64 ta madrasa mavjud bo‘lib, ular muntazam ravishda kadrlar tayyorlash va ilmiy muloqotni ta’minlagan

[17, b. 85]. Madrasalar tizimida ta’lim jarayoni bir necha bosqichdan iborat bo‘lib, talabalarning bilim darajasiga qarab dars berish uslublari farqlangan. Bu esa hozirgi bakalavriat va magistratura bosqichlariga qiyoslash mumkin bo‘lgan tizimni shakllantirgan [20, b. 65].

Madrasalar va ilmiy muassasalar faoliyatining eng muhim institusional xususiyati — ulardagi **vaqf tizimi** orqali moliyaviy va akademik mustaqillikning ta’minlanganligidir [21, b. 130]. Vaqf — davlat yoki xususiy shaxslar tomonidan ta’lim, ilm-fan va xayriya muassasalariga abadiy berilgan mol-mulk va yer maydonlari bo‘lib, ulardan tushadigan daromadlar faqat akademik ehtiyojlarga sarflangan.

Yetti iqlimdan kelgan ilm toliblari va olimlar uchun madrasalarda zamonaviy universitetlar tizimidan qolishmaydigan moddiy va akademik sharoitlar yaratilgan: Bepul yotoqxona va yashash joyi bilan ta’minlanish;

Stipendiya va kundalik oziq-ovqat xarajatlarining davlat va vaqf mulklari hisobidan qoplab berilishi;

Kutubxonalar (kutubxona-fond) va nazariy-amaliy tadqiqotlar uchun noyob qo‘lyozmalardan foydalanish imkoniyati [22, b. 73].

Ushbu institusional tizim natijasida jamiyatning barcha qatlamlaridan bo‘lgan iqtidorli yoshlarning ilm bilan shug‘ullanishi uchun ijtimoiy lift shakllandi, bu esa o‘z navbatida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk allomalar avlodini yetishtirib berdi [23, b. 99].

Ilk Renessans davri Xorazm jamiyatida shakllangan eng muhim xususiyatlardan biri — antroposentrizm, ya’ni inson qadri va uning intellektual salohiyatini oliy qadriyat sifatida tan olinishidir [24, b. 45]. Davlat rahbarlari va hukmdorlar ilm-fan namoyandalariga nafaqat moddiy homiylik qilganlar, balki ularni davlatni boshqarish va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda asosiy maslahatchi sifatida ko‘rganlar.

Ma’rifatparvar Xorazmshoh Ali ibn Ma’mun va Abul-Abbos Ma’mun ibn Ma’mun olimlarning erkin fikrlashi, fundamental tadqiqotlar olib borishi uchun maksimal sharoit yaratib berganlar [25, b. 104]. Odil siyosat va ma’rifatga berilgan yuqori e’tibor jamiyatda ilmga tashnalikni oshirdi. Insonlarning borliq sirlarini ochishga va yangi bilimlarni yaratishga bo‘lgan kuchli ishtiyoqi Renessans davrining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylandi [26, b. 112]. Xorazm va umuman Markaziy Osiyoda Ilk Renessans davrida yaratilgan institusional va ta’limiy tajriba keyingi asrlarda Temuriylar davri Ikkinchi

Renessansiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazariy va tashkiliy poydevor bo‘lib xizmat qildi [27, b. 95].

Xulosa: IX–XI asrlarda Xorazmda shakllangan ta’lim va ilmiy muassasalar tizimi jahon ilm-fani va madaniyati tarixida beqiyos o‘rin egallaydi. Madrasalar va vaqf tizimi ilmiy bilimlarni jamlash, fundamental tadqiqotlar o‘tkazish va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning mukammal o‘rta asr modelini yaratib berdi.

Davlat siyosatida ilm-fan, ta’lim va inson kapitalini ustuvor yo‘nalish deb e’lon qilinishi tarixiy Renessans qonuniyatlariga to‘liq mos keladi. Xorazm va umuman Markaziy Osiyo allomalarining boy merosini atroflicha o‘rganish va ommalashtirish zamonaviy jamiyatning intellektuallik darajasini oshirish va yangi innovasion kashfiyotlar uchun muhim fundamental manba bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Аҳмедов А.А. *Хоразм Маъмун академияси ва унинг жаҳон илм-фанидаги ўрни*. – Тошкент: Фан, 2005. – 180 б.

2. Булгаков П.Г. *Жизнь и труды Беруни*. – Ташкент: Фан, 1972. – 428 с.

3. Хайруллаев М.М. *Ўрта Осиёда Ренессанс маданияти*. – Тошкент: Фан, 1994. – 280 б.

4. Нуриддинов М. *Хоразмшоҳлар давлати ва унинг институционал тузилиши*. – Ташкент: Фан, 2008. – 220 б.

5. Масон М.Е. *К истории высшего образования в Средней Азии*. – Ташкент: Изд-во САГУ, 1955. – 96 с.

6. Жураев Н. *Шарқ Ренессанси ва унинг тарихий босқичлари*. – Тошкент: Маънавият, 2020. – 256 б.

7. Абу Райҳон Беруний. *Памятники древних народов (Асарлар. Т. I)*. – Ташкент: Фан, 1957. – 486 с.

8. Ибн Сино. *Аль-Канон фи-т-тибб (Книга первая)*. – Ташкент: Фан, 1981. – 560 с.

9. Раҳимов Ж. *Хоразм мадрасалари тарихи ва уларнинг ўқув тизими*. – Урганч: Хоразм, 2011. – 160 б.

10. Агаджанов С.Г. *Очерки истории огузов и туркмен Средней Азии IX–XIII вв.* – Ашхабад: Ылым, 1969. – 184 с.

11. Толстов С.П. *По следам древнехорезмийской цивилизации*. – Москва: Изд-во АН СССР, 1948. – 328 с.

12. Абдуллаев И. *Абу Мансур ас-Саолибий*. – Тошкент: Фан, 1972. – 120 б.

13. Крачковский И.Ю. *Избранные сочинения*. Т. IV. – Москва-Ленинград: Изд-во АН СССР, 1957. – 920 с.

14. Юшкевич А.П. *История математики в средние века*. – Москва: Физматгиз, 1961. – 448 с.

15. Сираждинов С.Х., Матвиевская Г.П. *Ал-Хорезми – выдающийся математик и астроном средневековья*. – Москва: Просвещение, 1983. – 128 с.

16. Саидбобоев З.А. *Марказий Осиё илмий муассасалари ва академик марказлари тарихидан*. – Тошкент: Академия, 2018. – 144 б.

17. Ашрафи М.М. *Из истории развития средневековой культуры Средней Азии*. – Душанбе: Дониш, 1985. – 176 с.

18. Кенжаев Ш. *Ўрта асрлар Марказий Осиё кутубхоналари ва вақф мулклари*. – Самарқанд: СамДУ, 2015. – 112 б.

19. Садиков Х. *Шарқ мутафаккирлари ва уларнинг педагогик қарашлари*. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999. – 140 б.

20. Додихудоев Х. *Философия Абу Али ибн Сины*. – Душанбе: Дониш, 1989. – 160 с.

21. Ражабов Қ. *Хоразм Маъмун академияси алломалари*. – Тошкент: Маънавият, 2019. – 160 б.

22. Розенфельд Б.А., Ахмедов А.А. *Абу Райхан Беруни*. – Москва: Наука, 1973. – 208 с.

23. Завадовский Ю.Н. *Абу Али Ибн Сина: Жизнь и творчество*. – Душанбе: Ирфон, 1980. – 304 с.

24. Матвиевская Г.П. *Учение о числе на средневековом Ближнем и Среднем Востоке*. – Ташкент: Фан, 1967. – 342 с.

25. Кривоносов В.И. *Об астрономической точности институтов Самаркандской школы*. // *ИФИ*. – 1988. – Вып. XX. – С. 112–129.

26. Мирзиёев Ш.М. *Янги Ўзбекистон стратегияси*. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – 464 б.

27. *Материалы Международного научного форума «Хорезмская академия Мамуна»*. – Ташкент-Хива: Фан, 2006. – 312 с.

XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI («DORUL-HIKMA»): ILMIY MUHIT VA FUNDAMENTAL FANLAR RIVOJINING TANQIDIY-QIYOSIY TAHLILI

D.Sh.Rajabova,
Xorazm Ma’mun akademiyasi,
katta ilmiy xodim
ORCID: https://orcid.org/0009-0002-4748-7488
E-mail: dinorashavkatovna85@gmail.com

UO‘K 94(575.1)

Annotatsiya: *Maqolada X–XI asrlar bo‘sag‘asida Gurganch shahrida faoliyat yuritgan Xorazm Ma’mun akademiyasining («Dorul-hikma») madaniy-intellektual fenomeni va unda olib borilgan akademik tadqiqotlar manbashunoslik aspektlarida o‘rganilgan. Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Abu Nasr Ibn Iroq, Abu Sahl Masihiy kabi mutafakkirlarning matematika, astronomiya, geologiya, mineralogiya, tibbiyot va falsafa sohalaridagi kashfiyotlari va ilmiy metodlari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Xorazm Ma’mun akademiyasi, Dorul-hikma, Beruniy, Ibn Sino, Ibn Iroq, fundamental fanlar, aniq fanlar, astranomiya, tibbiyot, YUNESKO, akademik muhit.*

Аннотация: *В статье в источниковедческом аспекте исследуются культурно-интеллектуальный феномен Хорезмской академии Маъмуна («Дар аль-хикма»), действовавшей на рубеже X–XI веков в городе Гургандж, и проводившиеся в ней академические изыскания. Проанализированы открытия и научные методы в области математики, астрономии, геологии, минералогии, медицины и философии таких мыслителей, как Абу Райхан Беруни, Ибн Сина, Абу Наср Ибн Ирак и Абу Сахл Масихи.*

Ключевые слова: *Хорезмская академия Маъмуна, Дар аль-хикма, Беруни, Ибн Сина, Ибн Ирак, фундаментальные науки, точные науки, астрономия, медицина, ЮНЕСКО, академическая среда.*

Abstract: *The article examines the cultural and intellectual phenomenon of the Khwarazm Mamun Academy ("Dar al-Hikmah"), which operated at the turn of the 10th–11th centuries in the city of Gurganj,*

along with its academic research from a source-critical perspective. It analyzes the scientific methods and discoveries in mathematics, astronomy, geology, mineralogy, medicine, and philosophy by such thinkers as Abu Rayhan Biruni, Ibn Sina, Abu Nasr Ibn Iraq, and Abu Sahl Masihi.

Keywords: *Khwarazm Mamun Academy, Dar al-Hikmah, Biruni, Ibn Sina, Ibn Iraq, fundamental sciences, exact sciences, astronomy, medicine, UNESCO, academic environment.*

Kirish: IX–XI asrlarda Markaziy Osiyoda kuzatilgan fundamental ilmiy va madaniy evrilishlar jahon tamadduni rivojini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqdi [1, b. 102]. Mazkur jarayonning eng yuqori akademik cho‘qqisi — «Dorul-hikma» nomi bilan mashhur bo‘lgan Xorazm Ma’mun akademiyasining tashkil etilishi va uning muntazam faoliyati bo‘ldi [2, b. 15]. X asr oxiri va XI asr boshlarida Gurganch (Ko‘hna Urganch) shahrida shakllangan ushbu ilmiy markaz o‘z davrining intellektual akseleratori vazifasini o‘tab, Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharq hamda Yevropa ilm-fani taraqqiyotiga beqiyos ta’sir ko‘rsatdi [3, b. 180].

Xorazm Ma’mun akademiyasining o‘ziga xosligi shunda ediki, u yerda tadqiqotlar tarqoq yoki yakkaxon tartibda emas, balki tizimli, jamoaviy va tranndissiplinar (sohalarlararo) xarakterda olib borilgan [4, b. 104]. Olimlar aniq va tabiiy fanlarni gumanitar va falsafiy bilimlar bilan sintez qilgan holda borliq va inson tabiatiga oid fundamental muammolarni hal qilishga intilganlar.

Ushbu tadqiqotning maqsadi — Xorazm Ma’mun akademiyasida shakllangan akademik muhit, unda olib borilgan fundamental tadqiqotlarning metodologik xususiyatlari hamda olimlarning jahon ilm-faniga qo‘shgan hissasini manbashunoslik nuqtai nazaridan kompleksli tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotda tarixiy-genetik, tizimli tahlil, istoriografik va qiyosiy-metodologik metodlardan foydalanildi. Nazariy va manbaviy baza sifatida Abu Rayhon Beruniyning «Osor al-boqiya», «Indiya», «Geodeziya», Ibn Sinoning «Al-Qonun fi-t-tibb» va «Ash-Shifo», shuningdek, akademiya faoliyatiga bag‘ishlangan zamonaviy akademik tadqiqotlar manba qilib olindi [5, b. 210; 6, b. 180].

Asosiy qism: Gurganchdagi «Dorul-hikma» ma’rifatparvar hukmdorlar Ali ibn Ma’mun va Abul-Abbos Ma’mun ibn Ma’mun homiyligida tashkil etilgan [7, b. 54]. Akademiya o‘z bag‘riga davrning eng yetakchi mutafakkir va daholarini to‘pladi. Akademiya tarkibida va u bilan bevosita ilmiy muloqotda faoliyat yuritgan olimlarning ilmiy salohiyati juda yuqori bo‘lgan [8, b. 115]:

Abu Rayhon Beruniy (973–1048): Akademiyaning amaliy rahbari, geodeziya, mineralogiya, astronomiya va etnografiya asoschilaridan biri [5, b. 210];

Abu Ali Ibn Sino (980–1037): Tibbiyot va falsafa sohasida revolyusion kashfiyotlar muallifi, «Kanon» va «Shifo» asarlari tadqiqotchisi [6, b. 180];

Abu Nasr Ibn Iroq (958–1036): Sferik trigonometriya va astronomiya bo‘yicha fundamental kashfiyotchi, Beruniyning ustozi [9, b. 45];

Abu Sahl Masihiy (970–1042): Tabiatshunos, geometr va tibbiyot nazariyotchisi [10, b. 88];

Abul Xayr Ibn Hammor (942–1018): Mantiq va tibbiyot bo‘yicha yirik mutaxassis [11, b. 62];

Abu Mansur as-Saolibiy (961–1038), Abu Ali ibn Miskovayh (vaf. 1030), Abdulhakim Muhammad as-Solih, Al-Xorojiy, Al-Hamdamkiy, Abu Abdulloh al-Biyan al-Naysaburiy, Ahmad ibn Muhammad as-Suhayliy al-Xorazmiy, Ahmad ibn Muhammad as-Sahriy, Mahmud Hamid ibn Xidr al-Xo‘jandiy va boshqalar [12, b. 115-120].

Xorazm Ma’mun akademiyasi olimlarining ilmiy faoliyati matematika, astronomiya, geodeziya, mineralogiya va tibbiyot fanlari rivojida yangi davrni boshlab berdi [13, b. 142]. Bu yerda olib borilgan tadqiqotlar nafaqat nazariy, balki aniq amaliy ahamiyatga ega edi.

Akademiya olimlarining aniq fanlardagi eng muhim metodologik yutug‘i — tajriba va kuzatuvni matematik hisob-kitoblar bilan mujassamlashtirish bo‘ldi [14, b. 90]. Beruniy tomonidan yaratilgan va ishlab chiqilgan matematik hamda geodezik metodlar yordamida Yer yuzasining maydoni va radiusi o‘sha davr uchun rekord darajadagi aniqlikda hisoblab chiqildi [15, b. 208].

Xorazm Ma’mun akademiyasi olimlarining yana bir muhim yutug‘i — ularning ilmiy manbalarga bo‘lgan tanqidiy va ijodiy yondashuvi edi [16, b. 134]. Ular Aristotel, Ptolemey, Yevklid, Galen kabi antik yunon mutafakkirlarining hamda Hindiston va Eron olimlarining asarlarini shunchaki qabul qilmadilar.

Akademiyada akademik diskurs va ilmiy bahslar keng yo‘lga qo‘yilgan edi. Bunga Beruniy va Ibn Sino o‘rtasidagi aristotel fizikasi, kozmologiya va optika

muammolariga bag‘ishlangan mashhur yozishmalar va savol-javoblar yorqin misol bo‘la oladi [17, b. 134]. Ushbu bahslarda Beruniy Aristotel fizikasining ayrim qoidalarini tajribaviy dalillar asosida tanqid qilgan va ilmiy haqiqatni qaror toptirishga intilgan.

Xorazm Ma’mun akademiyasi tomonidan yaratilgan akademik an’analar va metodologik baza keyingi asrlarda o‘z qimmatini yo‘qotmadi. XV asrda Mirzo Ulug‘bek tomonidan Samarqandda barpo etilgan akademiya va 1018 ta yulduz koordinatalarini yuqori aniqlikda belgilagan rasadxona aynan Xorazm «Dorul-hikma»sining mantiqiy va institusional davomi edi [18, b. 95].

Istiqlol yillarida ushbu tarixiy va ilmiy merosni qayta tiklash va o‘rganishga davlat darajasida e’tibor qaratildi:

1. YUNESKO e’tirofi: YUNESKO Bosh konferensiyasining qarori bilan 2004 yilda Xorazm Ma’mun akademiyasining 1000 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlandi [19, b. 4]. Bu hodisa O‘zbekistonning qadimdan jahon ilm-fani markazi bo‘lganining xalqaro e’tirofidir.

2. Akademiyaning qayta tiklanishi: Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning 2017 yildagi ko‘rsatmalari va tegishli qarorlari asosida Xorazm Ma’mun akademiyasining faoliyati tubdan isloh qilindi, u davlat byudjetidan moliyalashtirish tizimiga o‘tkazildi va zamonaviy ilmiy-tadqiqot markaziga aylantirildi [20, b. 12].

Bugungi kunda kayta tiklangan akademiyada noyob qo‘lyozmalarni tadqiq qilish, arxeologiya, etnografiya, biologiya va agronomiya sohalarida zamonaviy innovasion tadqiqotlar olib borilmoqda [21, b. 88].

Xulosa: Xorazm Ma’mun akademiyasi («Dorul-hikma») jahon ilm-fani va sivilizatsiyasi tarixidagi eng muhim va yorqin akademik fenomenlardan biridir. Beruniy, Ibn Sino va ularning safdoshlari tomonidan amalga oshirilgan fundamental tadqiqotlar va kashfiyotlar insoniyatning borliq va olam haqidagi tasavvurlarini kengaytirdi.

Xorazm Ma’mun akademiyasining boy ilmiy va metodologik merosini chuqur o‘rganish, nashr etish va ommalashtirish bugungi Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish, yoshlarni ilm-fanga jalb qilish va milliy innovasion salohiyatni oshirishda beqiyos manba bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Хайруллаев М.М. *Ўрта Осиёда Ренессанс маданияти*. – Тошкент: Фан, 1994. – 280 б.

2. Аҳмедов А.А. *Хоразм Маъмун академияси ва унинг жаҳон илм-фанидаги ўрни*. – Тошкент: Фан, 2005. – 180 б.

3. Ибн Сино. *Аль-Канон фи-т-тибб (Книга первая)*. – Ташкент: Фан, 1981. – 560 с.

4. Нуриддинов М. *Хоразмшоҳлар давлати ва унинг институционал тузилиши*. – Ташкент: Фан, 2008. – 220 б.

5. Булгаков П.Г. *Жизнь и труды Беруни*. – Ташкент: Фан, 1972. – 428 с.

6. Каримов У.И. *Ибн Сино ва унинг табиий-илмий мероси*. – Тошкент: Фан, 1980. – 214 б.

7. Агаджанов С.Г. *Очерки истории огузов и туркмен Средней Азии IX–XIII вв.* – Ашхабад: Ылым, 1969. – 184 с.

8. Ражабов Қ. *Хоразм Маъмун академияси алломалари*. – Тошкент: Маънавият, 2019. – 160 б.

9. Матвиевская Г.П. *Учение о числе на средневековом Ближнем и Среднем Востоке*. – Ташкент: Фан, 1967. – 342 с.

10. Каримов У.И. *Неизвестное сочинение Абу Сахла Масихи*. // *Общественные науки в Узбекистане*. – 1983. – № 4. – С. 38–44.

11. Терновский В.Н. *Ибн Сина (Авиценна)*. – Москва: Наука, 1969. – 192 с.

12. Абдуллаев И. *Абу Мансур ас-Саолибий*. – Тошкент: Фан, 1972. – 120 б.

13. Крачковский И.Ю. *Избранные сочинения*. Т. IV. – Москва-Ленинград: Изд-во АН СССР, 1957. – 920 с.

14. Юшкевич А.П. *История математики в средние века*. – Москва: Физматгиз, 1961. – 448 с.

15. Розенфельд Б.А., Ахмедов А.А. *Абу Райхан Беруни*. – Москва: Наука, 1973. – 208 с.

16. Беляев Е.А. *Мусульманское сектанство и средневековая философия*. – Москва: ИВЛ, 1957. – 148 с.

17. Додихудоев Х. *Философия Абу Али ибн Сины*. – Душанбе: Дониш, 1989. – 160 с.

18. Кривоносов В.И. *Об астрономической точности институтов Самаркандской школы*. // *ИФИ*. – 1988. – Вып. XX. – С. 112–129.

19. *Материалы Международного научного форума «Хорезмская академия Мамуна»*. – Ташкент-Хива: Фан, 2006. – 312 с.

20. *Хоразм Маъмун академиясининг замонавий илмий фаолияти тўғрисида ҳисобот*. – Хива, 2022. – 88 б.

21. Ҳасанов С. *Таълим ва Ренессанс: узвийлик ва тараққиёт*. – Тошкент: Фан ва технология, 2022. – 176 б.

22. Садоқов Р. *Қадимги ва ўрта асрлар Хоразм маданияти*. – Ташкент: Фан, 1998. – 190 б.

23. Сираждинов С.Х., Матвиевская Г.П. *Ал-Хорезми – выдающийся математик и астроном средневековья*. – Москва: Просвещение, 1983. – 128 с.

24. Жураев Н. *Шарқ Ренессанси ва унинг тарихий босқичлари*. – Тошкент: Маънавият, 2020. – 256 б.

25. Масон М.Е. *К истории высшего образования в Средней Азии*. – Ташкент: Изд-во САГУ, 1955. – 96 с.

26. Ашрафи М.М. *Из истории развития средневековой культуры Средней Азии*. – Душанбе: Дониш, 1985. – 176 с.

27. Завадовский Ю.Н. *Абу Али Ибн Сина: Жизнь и творчество*. – Душанбе: Ирфон, 1980. – 304 с.

28. Мирзиёев Ш.М. *Янги Ўзбекистон стратегияси*. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – 464 б.

29. Саидбобоев З.А. *Марказий Осиё илмий муассасалари ва академик марказлари тарихидан*. – Тошкент: Академия, 2018. – 144 б.

30. Кенжаев Ш. *Ўрта асрлар Марказий Осиё кутубхоналари ва вақф мулклари*. – Самарқанд: СамДУ, 2015. – 112 б.

31. Раҳимов Ж. *Хоразм мадрасалари тарихи ва уларнинг ўқув тизими*. – Урганч: Хоразм, 2011. – 160 б.

32. Толстов С.П. *По следам древнехорезмийской цивилизации*. – Москва: Изд-во АН СССР, 1948. – 328 с.

XORAZM VOHASI OILAVIY MAROSIMLARI TIZIMIDA BESHIK TO‘YINING O‘RNI ("GO‘Z OYDIN", "BESH OQSHOM", "CHILLA" VA "TUSHOV KESISH" MAROSIMLARI MISOLIDA)



Otaboyeva Ro‘za Qahramon qizi,
Urganch innovatsion universiteti talabasi
https://orcid.org/0009-0000-1658-4379
otaboyevaroza16@gmail.com

UO‘K 94(575.1)

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Xorazm vohasi oi marosimlari tizimida muhim o‘rin tutuvchi beshik to‘yi bilan bog‘liq an’analar etnografik jihatdan tahlil qili Xususan, “Go‘z oydin”, “Besh oqshom”, “Chilla’ “Tushov kesish” marosimlarining mazmun-mohi ularning o‘ziga xos xususiyatlari hamda xalqning n qadriyatlari, urf-odatlari va ma’naviy merosini as avaylashdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, u marosimlarning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati avlodlar davomiyligini ta’minlashdagi tarbiyaviy jiha ilmiy manbalar hamda xalq og‘zaki an’analari asosida t etiladi.*

Kalit so‘zlar: *“Go‘z oydin”, “Besh oqshom”, “chi “tushov kesish” etnografiya, an’ana, Xorazm vohasi*

Аннотация. *В данной статье с этнографической точки зрения анализируются обряд «Бешик туйи» и связанные с ним традиции, занимающие важное место в системе семейных обрядов Хорезмского оазиса. В частности, раскрываются содержание и сущность обрядов «Гўз ойдин», «Беш оқшом», «Чилла» и «Тушов кесиш», их специфические особенности, а также их роль в сохранении национальных ценностей, обычаев и духовного наследия народа. Кроме того, на основе научных источников и устных народных традиций рассматриваются значение этих обрядов в современном обществе и их воспитательная роль в обеспечении преемственности поколений.*

Ключевые слова: *«Бешик туйи», «Гўз ойдин», «Беш оқшом», «Чилла», «Тушов кесиш», этнография, традиция, Хорезмский оазис, семейные обряды, духовное наследие.*

Abstract. *This article provides an ethnographic analysis of the Beshik Toyi ceremony and its related traditions, which occupy an important place in the system of family rituals of the Khorezm Oasis. In particular, it examines the essence and significance of the Go‘z Oydin, Besh Oqshom, Chilla, and Tushov Kesish rituals, highlighting their distinctive features and their role in preserving the national values, customs, and spiritual heritage of the Uzbek people. Furthermore, based on scholarly sources and oral folk traditions, the article discusses the contemporary significance of these rituals and their educational role in ensuring the continuity of generations.*

Keywords: *Beshik Toyi, Go‘z Oydin, Besh Oqshom, Chilla, Tushov Kesish, ethnography, tradition, Khorezm Oasis, family rituals, spiritual heritage.*

KIRISH. Insoniyat sivilizatsiyasi va etnomadaniy taraqqiyot jarayonida har bir xalqning o‘ziga xosligini belgilovchi eng muhim omillardan biri bu uning oilaviy marosim hayotidir. O‘zbek xalqining uzoq asrlik tarixiy va madaniy merosida, xususan, qadimiy sivilizatsiya o‘choqlaridan biri bo‘lgan Xorazm vohasida farzand tug‘ilishi, uning parvarishi, ism qo‘yish hamda jamiyatga moslashishi bilan bog‘liq urf-odatlar tizimi etnik o‘ziga xoslikni yaqqol namoyon etadi. Bugungi globallashuv va madaniy integratsiyalar jadallashgan davrda, an’anaviy marosimlarning o‘zgarish xususiyatlarini, ularning shaklan saqlanib qolgan ammo mazmunan unutilayotgan jihatlarini etnologik jihatdan tadqiq etish muhim dolzarblik kasb etadi. Voha aholisining tug‘ruq oldi va tug‘ruqdan keyingi davr bilan bog‘liq an’analari xalq pedagogikasi, an’anaviy tibbiyot va qadimgi animistik-magik tasavvurlar uyg‘unligini o‘zida aks ettirishi bilan alohida ilmiy qimmatga ega.Tadqiqotning maqsadi va vazifalari: Xorazm vohasi o‘zbeklarida homiladorlik davri, farzand tug‘ilishi, “Go‘z oydin”, “Besh oqshom”, “chilla” marosimlari, ism qo‘yish hamda bolaning ilk qadamlarini qo‘llab-quvvatlovchi oyoq bog‘ichini kesish (tushov kesish) singari an’analarni dala-etnografik ma’lumotlar hamda mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili asosida tizimlashtirishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, vohada saqlanib qolgan lokal

xususiyatlarni ochib berish va marosimlarning ijtimoiy-madaniy funksiyalarini tahlil qilish vazifasi belgilandi.

ADABIYOTLAR SHARHI (LITERATURE REVIEW)

“Go‘z oydin”, “Besh oqshom”, “chilla”, “tushov kesish” singari marosimlarni adabiyotlar orqali qiyosiy tarzda o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Shu singari beshik to‘yi marosimi biologik tug‘ilish jarayonining ijtimoiy-madaniy legitimatsiyasini ta’minlovchi muhim institut sifatida talqin qilinadi.

U. Qoraboyev, N. Qurbonova hamda boshqa tadqiqotchilar ishlarida tug‘ilish bilan bog‘liq marosimlarning empirik tavsifi, jumladan, chilla davri, beshikka belash jarayoni va marosimiy atributlar yoritilgan. Biroq ushbu tadqiqotlar ko‘proq tavsifiy xarakterga ega bo‘lib, marosimlarning ichki semantikasi va funksional mazmunini chuqur tahlil qilish zaruratini ko‘rsatadi. Dala materiallari esa marosimlarning hududiy variativligini, xususan Xorazm vohasiga xos lokal xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi .

Shuningdek, mifologik qarashlar va magik tasavvurlar tug‘ilish marosimlarining semantik asosini tashkil etadi. Inson tanasi, soch, tug‘ilishdagi alomatlar bilan bog‘liq e’tiqodlar marosimiy amaliyotlarda o‘z aksini topib, ularning qadimiy e’tiqodlar bilan genetik bog‘liqligini namoyon etadi . Bu esa marosimlarni tahlil qilishda simvolik va antropologik yondashuvlarning zarurligini ko‘rsatadi.

METODOLOGIYA (METHODOLOGY) Ushbu tadqiqot ishida farzand tug‘ilishi bilan bog‘liq marosimlarni o‘rganishda kompleks etnografik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida marosimlarning tarixiy shakllanishi va rivojlanishini aniqlash uchun tarixiy-etnografik metoddan foydalanildi.

Shuningdek, tavsifiy metod asosida “Go‘z oydin”, “Besh oqshom”, “chilla”, “tushov kesish” singari marosimlar tizimli tarzda bayon qilindi. Qiyosiy tahlil yordamida umumiy an’analar bilan Xorazm vohasiga xos hududiy xususiyatlar o‘rtasidagi farqlar aniqlashtirildi.

MUHOKAMA (DISCUSSION)

O‘zbek xalqi homilador ayolini g‘oyat asrab-avaylaydi. Eng avvalo, ularga qulay sharoit yaratiladi, parhez taomlar tayyorlab beriladi. Homilador ayollarning asabiylashishi, og‘ir yuk ko‘tarishi, zo‘riqishiga aslo yo‘l qo‘yilmaydi. Homilador ayolga yomon gapirish, qo‘pollik qilish eng katta gunoh sanaladi.[1, 116] Homilador ayol kundalik hayotida amal qiladigan odatlar ichida magik, animistik, poleteistik, otashparastlik va ko‘proq islom diniga oid irimlarni ham uchratish mumkin. Masalan: homilador ayolga murdani ko‘rish, axlat tashlanadigan joylarda yurish, mag‘zava to‘kilgan yoki mol so‘yilgan yerlardan o‘tish, supurgi,

tayoq, arqon, suv ustidan hatlab o‘tish mumkin bo‘lmagan. Homilador ayolning ortiqcha ko‘p harakat qilishiga yo‘l qo‘yilmagan. Shuningdek, homilador ayol oynaga ko‘p qaramasligi, sochini qirqmasligi uqdirilgan. Bo‘lajak ona oynaga ko‘p qarayversa, bolasi xunuk tug‘ilar emish; agar u saqich chaynayversa, bolasining qulog‘i og‘rir emish; arqon ustidan hatlab o‘tsa, bolasining bo‘yniga kindigi o‘ralib qolar emish; sovuq oqar suvda cho‘milsa, suv parilari unga ziyon yetkazar emish; tuya go‘shti yesa, bola tug‘ilishi og‘irlashar emish va hokazo. [2]

Homilador ayol amal qilishi kerak bo‘lgan bu qadimiy o‘gitlarda katta ma’no bor, albatta. Ular o‘ziga xos asosga ega ekanligini zamonaviy ilm-fan ham tasdiqlaydi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, avlodlar tajribasi asosida vujudga kelgan aksariyat odatlarning shakli yaxshi saqlanib qolgan-u, lekin sababi, ma’nosi unutib yuborilgan. Masalan, buvi (momo)lar homilador ayolga: «kosov ustidan sakrama, agar sakrasang, bolang o‘lik tug‘iladi», deb qo‘rqitishgan. Darhaqiqat, homilador ayol keskin harakat qilsa — sakrasa, albatta, homila — bola, o‘lmasa ham unga salbiy ta’sir qiladi. Momolar hodisaning sababini tushuntirib o‘tirish o‘rniga, qisqa qilib, «unday qilma, bo‘lmasa, bolang o‘ladi» deb qo‘rqitib, masalani qat’iylashtirib qo‘yishgan.O‘zbek xalqi odatlari orasida yangi inson — chaqaloq dunyoga kelishi bilan bog‘liq an’analar tizimi alohida o‘rin tutadi. Bu tizim chaqaloq tug‘ilganida qarindosh-urug‘, yor-birodarlardan «suyonchi olish», «kindik kesish», bolani cho‘miltirish, ilk bor ko‘ylak kiydirish, maxsus parhez taomlar pishirish, chaqaloqqa ism qo‘yish, kichik va katta chillani o‘tkazish, bolani beshikka solish kabi maxsus tadbirlardan tarkib topgan. [1, 117]

Qadimda Xorazmda ayollar o‘z uylarida doyalar yordamida tug‘ishgan. Tug‘ruqdan so‘ng yaqin qarindoshlari va qo‘shnilari "go‘zlaringiz oydin" deb, tabriklab kelishadi. Bugungi kunda ayollar tug‘ruqxonalarda tug‘salar ham, bunday udum saqlanib qolgan. "Go‘z oydin" marosimining o‘ziga xosligi shundaki, ayollar marosimga tuxum olib kelishadi va mehmonlarga tuxum va go‘sht qovurib tortiladi. Ketayotgan mehmonlarga esa "shunday kunlarga yeting" degan niyat bilan dastro‘mol va shirinlik beriladi. Urganch, Xiva va Shovot tumanlarida ushbu marosim ziyofat tarzida o‘tkaziladi. Go‘z oydinga kelgan mehmonlar chaqaloqqa “yuz go‘rimlik” (ko‘rmana) berib duo qilishadi.

Xorazmda qadimiy udumga ko‘ra, bola bir yoshga to‘lganda uning sochini birinchi bo‘lib tog‘asi oladi. Vohada yashovchi o‘zbeklar tug‘ilgan bolaning qulog‘iga azon aytish, keyin esa ismini aytishni an’ana sifatida bugungi kungacha davom ettirib kelmoqdalar. Odatda, bola 7 chilladan chiqqandan keyin uning

qulog‘iga azon aytiladi. Hududiy xususiyat kasb etgan ushbu marosim vaqtida go‘dak janubga yuzlantirilib, o‘ng qulog‘iga uch marta azon, chap qulog‘iga esa uch marta takbir va yana uch marta ismi aytiladi. Bolaning qulog‘iga bobosi, otasi yoki mulla chaqirtirib azon aytiladi.[3, 15]

Farzand tug‘ilishi bilan bog‘liq urf-odat va an’analar qatoriga chaqaloqni chilladan chiqarish marosimi ham kiradi. Chaqaloqni chilladan chiqarish uchun dastlab suvga ko‘proq tuz solib, namakobli suv tayyorlanadi. Vohada kelajakda farzandini davlatli, ziynatli bo‘lsin, degan niyatda suvga tilla uzuk va tangalar ham solinadi.[4]

Avval bolaning yuzi, boshi, qo‘llari va barmoqlarining orasi yuvilib, keyin o‘ng, so‘ngra esa chap tomonidan toza suv quyiladi. Chaqaloq yuvintirilgan suv mevali daraxt ostiga to‘kiladi. Chaqaloq 7 chilladan chiqqandan keyin beshikka solinadi.[5, 83)

Xorazmda bola tug‘ilganiga besh kecha to‘lgach, "Besh oqshom" marosimi o‘tkaziladi. Marosimda un oshi taomi tayyorlanib, 3, 5, yoki 7 (toq sonda) qo‘shnilarga tarqatiladi. Mazkur tadbirni o‘tkazishdan maqsad, avvalo, bola besh kechadan sog‘-salomat o‘tganiga shukronalik bo‘lsa, ikkinchidan, bolaning umri ugraday uzun bo‘lsin deb niyat qilingan.[3, 15] Qolaversa, bolani beshikka solish esaalohida marosim bo‘lib, chaqaloqning kindigi tushgandan keyin 3, 5, 7, 9 kunlik bo‘lganda o‘tkaziladi.

Xorazm an’analariga ko‘ra, go‘dak ilk qadamlarini qo‘yganda “odim cho‘rak” marosimi o‘tkaziladi. Bunda mittigina kulchalar pishirilib, bolajonning oyoqlari ramziy ma’noda oq ip bilan bog‘lanadi. Bola qadam bosgan lahzada ushbu ip kesilib, uning yo‘llari ochilishi niyat qilinadi. Marosim so‘nggida go‘dakning oyoqlari ostidan jajji kulchalar dumalatiladi va “hayoti shirin bo‘lsin”- deya ustidan konfetlar sochiladi.[6]

Xorazm o‘zbeklarida homilador ayolni e’zozlashga doir o‘ziga xos xalqona qarashlar mavjud. Xonqa, Xiva, Yangiariq va Qo‘shko‘pir tumanlarida kelinning homiladorligi ma’lum bo‘lib, homila qimirlashni boshlaganda oila davrasida xursandchilik qilinadi, palov pishiriladi va u dapandi palov deb ataladi .Hazorasp tumanida kelinning ota-onasi qizi homilador bo‘lganiga xursand bo‘lib, qizining nimani yeyishni hohlashi so‘rab, shirin taomlar, pishiriqlar, meva va sabzavotlar olib, qudasinikiga borishadi. Ushbu tadbir yerik oshi deb nomlanib, bunday udum zamirida homilador ayolga e’tibor, uni yaxshi yeb-ichishi va homilaning yaxshi rivojlanishi uchun qilinadigan g‘amxo‘rlik mujassamlashgan.[3, 16]

Bundan tashqari vohada homilador ayollarda tug‘uruq jarayoni oson va tez kechishi uchun an’anaviy usulda isiriq tutatilgan. Tug‘ruq boshlanganida, quvvat bo‘lishi uchun ba’zi qaynonalar kelinlariga kabob pishirib bersa, boshqalari osma sho‘rvaga patir to‘g‘rab, ba’zilar esa bola oson tug‘iladi deb, sariyog‘ ham yediradilar. Farzand tug‘ilishi va boshqa shu kabi xushxabarni yetkazgan kishilar suyunchi bilan siylanib, ularga kiyim-bosh sarpo ham qilinadi. [3, 17]

Qadimdan bolaga ism qo‘yish juda mas’uliyatli ish sanalgan. Ism bola tabiatiga mos kelmasa, undan yaxshi inson chiqmaydi yoki u kasallikka chalinaveradi, deyilgan. Chaqaloqqa ism qo‘yish vazifasi har kimga ham topshira berilmagan. Buning uchun maxsus marosim uyushtirilib, unga eng nufuzli, dono qariyalar taklif etilgan. Ana shu marosimda yig‘ilganlar o‘zaro maslahatlashib, bolaga ism qo‘yishgan.

Qadimda chaqaloqqa ism qo‘yishda quyidagilarga e’tibor berilgan:

1.Koinot, samoviy jismlar nomi bilan bog‘liq ismlar (Yulduz, Zuhra, Oygul, Kuntug‘mish, Erjon va hokazo).

2.Tabiiy hodisalar bilan bog‘liq ismlar (To‘gbek, Bo‘ronboy, Chingiz (dengiz) va boshqalar).

3.Yil fasllari bilan bog‘liq ismlar (Bahorboy, Ko‘klam).

4.Vaqt bilan bog‘liq ismlar (Jumaboy, Bozorboy, Xushvaqt).

5.Hayvonot dunyosi bilan bog‘liq ismlar (Bo‘riboy, Qo‘ziboy, Sherxon).

6.O‘simliklar bilan bog‘liq nomlar (Lola, Charos, Chinora).

7.Ajdodlar nomi bilan bog‘liq ismlar.

8.Diniy marosimlar bilan bog‘liq ismlar (Ro‘zigul, Ro‘zmat, Ramazon, Qurbonboy va hokazo).

9.Xudoning sifatlari, payg‘ambarlar nomi (Muhammad , Xudoyberdi, Iso, Sulaymon)

10.Mehnat va ish qurollari bilan bog‘liq ismlar (O‘roqboy, Bolta, Teshaboy kabi).

11.Chaqaloq badanidagi tug‘ma belgi bilan bog‘liq ismlar (Xolboy, Norxol, Ortiqboy va hokazo).

12.Go‘zal hodisa-narsalar bilan bog‘liq ismlar (Jamol, Go‘zal, Kunduz).

13.Orzu-niyatlar bilan bog‘liq ismlar (Baxtiyor, Baxtli, Orzigul).Xalqda «ismi jismiga mos» degan ibora bor. Kishilar bolaga qo‘yilgan ism ulg‘ayishi jarayonida uning odobiga ta’sir qiladi, deyishadi. Ismning ma’nosi (masalan, Azamat) bolani mard, baquvvat, azamat bo‘lishga undaydi. Agar bolaning ismi

Azamat bo‘lsa-yu, o‘zi ismiga xos xislatlarga ega bo‘lmasa, uning obro‘yi tushib ketgan. Har bir bolaning o‘z ismiga mos bo‘lishga intilishi — o‘z-o‘zini tarbiyalashning o‘ziga xos usuli bo‘lgan. [1, 118-119]

Chilla davrida kasofat, baxtsizlik sodir bo‘lmasligi uchun ona va bola yolg‘iz qoldirilmagan. Xonada doimo chiroq yoqib qo‘yilgan, bu xona esa «chillaxona» deyilgan. Xalqimizda ba’zi tarbiyasi nochor kishilarga nisbatan «Chillasida chiroq ko‘rmagan» iborasining aytilishi ham bejiz emas. Ona kechasi tashqariga ham ikki-uch ayol hamrohligida chiqqan. [1,117]

Bola katta bo‘lganida ko‘p termalmasi va tanasidan yomon hid kelmasligi uchun kindigi tushganidan boshlab 40 chillasidan chiqqunicha sho‘r, ya’ni tuzli suvda tez-tez yuvintirib turilgan. Tuzli suv chaqaloqning terisini qotiradi, lekin uning izidan toza suv bilan yuvintirilmasa, tuz bolaning terisini qisib, uni bezovta qilishi mumkin bo‘lgan. Shundan keyin bolaning tanasi yaxshilab quritib, artiladi va terisiga tozalangan o‘simlik yog‘i surtiladi. Bunda tuz terini tozalab, yomon hidlarni ketkazsa, o‘simlik yog‘i esa terini yumshatish va namlantirish vazifasini bajaradi. [3, 17] Chaqaloqning onasi katta va kichik chilladan chiqqandan so‘ng ustidan sho‘r suv quyib, yuvinib oladi. Asosan bolaning kindigi mevali daraxtlar tagiga, uzum, anor o‘rik kabi daraxtlar tagiga ko‘mib yuboriladi.Bundan ko‘zlangan maqsad “Bola ham shu meva kabi o‘sib- unib kamol topsin”, deyiladi. Ba’zilar uni oq matoga o‘rab, beshikning pastki qismiga bog‘lab qo‘yishgan. [6]

Xorazmda kelinlar 40 chilladan chiqqanidan keyin ota uyiga chaqaloq‘i bilan ilk marta borishi, bobo-buvilari, qarindoshlari uchun haqiqiy oilaviy bayramga aylanib ketadi. Oila a’zolari chaqaloqqa sovg‘alar, kiyimlar sovg‘a qilishadi. Shu kuni shirin taomlar tayyorlanadi. Bunday an’ana Xorazmda bugungi kunda ham davom etib kelmoqda va xalq orasida chilla to‘yi nomi bilan yuritiladi.[3,17]

XULOSA. Xorazm vohasi o‘zbeklarining farzand tug‘ilishi va parvarishi bilan bog‘liq oilaviy-marosim tizimini o‘rganish natijasida ma’lum bir ilmiy va amaliy umumlashmalarga kelindi.Vohadagi "dapandi palov", "yerik oshi", "Besh oqshom" va "Go‘z oydin" singari marosimlar islomiy qadriyatlar, qadimgi animistik qarashlar hamda empirik tajribalarning o‘zaro chiroyli uyg‘unlashuvidan tarkib topgan. Homilador ayol va yangi tug‘ilgan go‘dakka nisbatan qo‘llanilgan ramziy qo‘rqitishlar zamirida tibbiy va gigiyenik asoslar, ya’ni homila tushishining hamda chaqaloq sog‘lig‘iga salbiy ta’sir yetishining oldini olish choralari yotishi aniqlandi.Xorazm marosim madaniyati til va etnografiya jihatidan g‘oyat boy bo‘lib, u o‘ziga xos lokal xususiyatlarga ega.

"Go‘z oydin" marosimida tuxum olib kelish, bolaga sovg‘a sifatida "yuz go‘rimlik" berish, bola ilk qadam tashlaganda "odim cho‘rak" nonlarini pishirib ip kesish kabi odatlar faqatgina ushbu vohaga xos hududiy belgilarni va o‘g‘uz lahjasi lingvo-etnografik qatlamini yaqqol ko‘rsatib beradi.Bugungi kunda tug‘ruqlarning zamonaviy tibbiyot muassasalarida amalga oshirilishiga qaramasdan, oilaviy marosimlar o‘zining sotsial va ma’naviy integratsiya funksiyasini muvaffaqiyatli saqlab qolgan. Biroq, bolalarni jismoniy sog‘lomlashtirishga xizmat qiladigan an’anaviy o‘yinlar hamda o‘ziga xos gigiyenik odatlar birmuncha unutilish arafasida turibdi. Ularni xalq pedagogikasi obyekti sifatida qayta tiklash va ommalashtirish kelajak avlod tarbiyasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO ‘YXATI:

1.Қорабоев У. Ўзбек халқи байрамлари. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 116

2.Курбонова Н. Ўзбек маросимлари фольклори. Автореферат. Т., 1994.

3.Маткаримова Н. Ўзбекларнинг бешик ва суннат тўйи маросимлари: анъанавийлик ва замонавийлик. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси автореферати. – Нукус, 2025-Б.15-16-17

4..Раҳмонова М.Х. Миллий маросимларга қадимий диний эътиқодлар таъсири.https://scientists.uz/uploads/202207/C-35.pdf

5..Сафаров О., Маҳмудов М. Оила маънавияти. – Тошкент: Маънавият, 2009. – Б. 83.

6.Dala materiallari. Xonqa tumani, Navxo’z qishlog’i. 2026-yil

TARIX DARSLARIDA RAQAMLI MUZEY PEDAGOGIKASI VA VIRTUAL SAYOHATLARNI QO‘LLASH METODIKASI

Yuldasheva Mardona Alisher qizi,
Xorazm viloyati Pedagogik mahorat markazi “Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasi tarix va DHA fanlari metodisti,

Qadamova Qizlarxon O‘ktamboy qizi,
Xorazm viloyati Pedagogik mahorat markazi “Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi.

UO‘K 94(575.1)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy tarix ta’limida raqamli texnologiyalar, xususan, raqamli muzey pedagogikasi va virtual sayohatlar (VR-turlar)ni qo‘llashning nazariy hamda amaliy metodikasi tadqiq etiladi. Maqolada an’anaviy dars o‘tish modellaridan raqamli interaktiv muhitga o‘tishning pedagogik afzalliklari, o‘quvchilarning vizual va fazoviy tafakkurini rivojlantirish omillari tahlil qilingan. Shuningdek, xalqaro va mahalliy virtual muzey platformalaridan foydalanish bo‘yicha aniq metodik tavsiyalar hamda dars loyihasi namunalari taklif etilgan.*

Аннотация: *В данной статье исследуется теоретическая и практическая методология применения цифровых технологий в современном историческом образовании, в частности, цифровой музейной педагогики и виртуальных экскурсий (VR-туров). В работе анализируются педагогические преимущества перехода от традиционных моделей обучения к цифровой интерактивной среде, а также факторы развития визуального и пространственного мышления учащихся. Кроме того, предлагаются конкретные методические рекомендации и образцы планов уроков по использованию международных и местных платформ виртуальных музеев.*

Abstract: *This article examines the theoretical and practical methodology of utilizing digital technologies in modern history education, specifically focusing on digital museum pedagogy and virtual tours (VR tours). The paper analyzes the pedagogical advantages of transitioning from traditional teaching models to a digital interactive environment, as well as the factors that develop students' visual and spatial thinking. Furthermore, specific methodical*

recommendations and sample lesson plans for utilizing international and local virtual museum platforms are proposed.

Kalit so‘zlar: *raqamli muzey pedagogikasi, virtual sayohat, AKT ta’limda, tarix o‘qitish metodikasi, VR-turlar, interaktivlik, vizualizatsiya, muzey eksponati.*

Ключевые слова: *цифровая музейная педагогика, виртуальная экскурсия, ИКТ в образовании, методика преподавания истории, VR-туры, интерактивность, визуализация, музейный*

Keywords: *digital museum pedagogy, virtual tour, ICT in education, history teaching methodology, VR tours, interactivity, visualization, museum exhibit. экспонат.*

Kirish

XXI asr ta’lim tizimi o‘quvchilardan nafaqat quruq faktlarni yodlashni, balki ularni tahlil qilish, tarixiy makon va zamon uyg‘unligini his etishni talab qilmoqda. Tarix darslarida mavhum tushunchalarni vizuallashtirish, o‘quvchida "tarixiy borliqni his etish" (historical empathy) tuyg‘usini shakllantirishda raqamli muzey pedagogikasi va virtual sayohatlar beqiyos ahamiyatga ega. Muzey pedagogikasi — pedagogika, psixologiya va muzeyshunoslik fanlari tutashgan joyda shakllangan ta’limiy yo‘nalish bo‘lib, u muzey muhitida shaxsni rivojlantirish, tarbiyalash va unga bilim berish qonuniyatlarini o‘rganadi. Raqamli davrga kelib, bu tushuncha "Raqamli muzey pedagogikasi" shaklida transformatsiya bo‘ldi. Uning asosiy mazmuni — real muzey eksponatlarining elektron nusxalari va virtual makon imkoniyatlaridan umumta’lim maktablarining o‘quv dasturlarida didaktik vosita sifatida foydalanishdir. Raqamli muzey pedagogikasi — an'anaviy muzey pedagogikasining fan, ta'lim va raqamli texnologiyalar tutashgan joyida shakllangan zamonaviy yo'nalishidir. U muzey muhitini bevosita sinf xonasiga ko'chirish, eksponatlarning raqamli nusxalari (3D modellar, multimedia) vositasida o'quvchining tarixiy tafakkurini rivojlantirishni maqsad qiladi.Psixologik nuqtai nazardan, virtual sayohatlar o‘quvchilarda quyidagi ijobiy o‘zgarishlarni ta’minlaydi: Ko‘rgazmalilik darajasi: Inson axborotning 80% dan ortig‘ini ko‘rish a’zolari orqali qabul qiladi. 3D formatdagi eksponat (masalan, qadimiy qurol yoki sopol idish) oddiy rasmga qaraganda bolada real fazoviy tasavvur uyg‘otadi. Emotsionallik va Immersionallik

(Sho‘ng‘ish effekti): O‘quvchi o‘zini virtual tarzda muzey zalida yurgandek his qilishi darsdagi zerikish holatini yo‘qotadi, hissiy xotirani kuchaytiradi. Tadqiqotchilik faolligi: Oddiy darsda o‘quvchi ma’lumotni tayyor holda eshitsa, virtual muzeyda u o‘zi eksponatni yaqinlashtiradi, uning detallarini o‘rganadi va metodik topshiriq asosida yechim izlaydi.

Virtual sayohatlarni tashkil etish metodikasi.Tarix darslarida virtual sayohatlarni shunchaki "tomosha" (ekskursiya) shaklida emas, balki aniq tizimli bosqichlar asosida tashkil etish kutilgan ilmiy va pedagogik natijani beradi:tayyorgarlik bosqichi darsdan oldin o‘qituvchi dars mavzusiga mos virtual platformani (masalan, Uzbekistan360.uz, Google Arts & Culture, Britaniya muzeyi yoki Amir Temur tarixi davlat muzeyi virtual turi) tanlaydi. O‘quvchilar uchun sayohat davomida to‘ldirilishi kerak bo‘lgan "Izlanish varaqasi"dagi topshiriqlar yozilgan tarqatma materiallar tayyorlanadi.

Yo‘naltirish va motivatsiya darsning dastlabki 5-7 daqiqa davomida muammoli savol o‘rtaga tashlanadi. Masalan: mavzuga doir bo‘lgan qaysi tarixiy eksponat o‘z ko‘rinishini yo‘qotmagan?" yoki "Bu arxeologik topilma qaysi davr ijtimoiy hayotidan darak beradi?".

Virtual sayohat shunchaki tomosha emas, u darsning aniq bir didaktik vazifasini bajarishi shart. Aks holda, dars vaqti maqsadsiz sarflanadi. Dars boshida 3 daqiqaga ekranda sirli eksponat ko‘rsatiladi. Pedagogning g‘oyasiga ko‘ra, o‘quvchilarga savol beriladi: "Bu qaysi hukmdorning muhri va undagi ramzlar nimani anglatadi?" Bu usul sinfni diqqatini jamlashga xizmat qiladi. Yangi mavzuni bayon qilish qismi (Raqamli gid): O‘qituvchi mavzuni tushuntirish davomida proyektor orqali virtual muzey zaliga kiradi. Masalan, "Kushonlar davlati" mavzusi o‘tilayotganda, O‘zbekiston tarixi davlat muzeyidagi "Fayoztepa buddaviylik majmuasi topilmalari" zaliga kirilib, Triada (Uchlik) o‘quvchilarga ko‘rsatiladi va o‘sha davr diniy qarashlari tushuntiriladi. Mustahkamlash qismi (Raqamli qidiruv): O‘quvchilarga guruhlarda yoki individual tartibda planshet,telefon yoki maktab informatika xonasi kompyuterlari yordamida muayyan topshiriq beriladi: "Berilgan havola orqali muzeyga kiring, Amir Temurning Fransiya qiroli Karl VI ga yozgan xatini toping va undagi diplomatik munosabatlar elementlarini aniqlang." Ular virtual muzey eksponatlari (masalan, Fransiya Milliy kutubxonasi arxivi) bilan tanishish asnosida xatning asl nusxasi va uning tarjimasi ustida ish olib boradilar bu tarix darslarini qiziqarli tashkil qilishga,o‘quvchilarning mustaqil izlanishiga ham sabab bo‘ladi.

Eksponatlarni 3D formatda ko‘zdan kechirib, ular harakatlanadilar. Eksponatlarni 3D formatda ko‘zdan kechirib, ularning tavsifini o‘qiydilar, "Izlanish varaqasi"dagi topshiriqlarni bajaradilar. Yakuni qismda esa ko‘rilgan obektlar bo‘yicha xulosalar qilinadi. O‘quvchilar o‘z taassurotlari va topgan ma’lumotlarini o‘zaro bahslashib,ma’lumotlar almashadilar o‘qituvchi esa mavzuni umumlashtiradi.

Pedagogik Afzalliklari Ushbu metodikani qo‘llash an’anaviy ma’ruza darslariga nisbatan quyidagi ustunliklarni namoyon etadi: Dunyoning istalgan nuqtasidagi yoki viloyatlarimizdagi muzeylarga chekka qishloq maktabidan turib ham bepul sayohat qilish imkoniyatini beradi.

Ko‘rgazmalilik darajasining ortishi: Kitobdagi oddiy 2D rasmdan ko‘ra, 360 darajali panorama va 3D modellar tarixiy xotirani kuchliroq shakllantiradi. Tanqidiy fikrlash (Critical Thinking): O‘quvchi eksponatni manba sifatida tahlil qilishni o‘rganadi (U nimadan yasalgan? Kim tomonidan ishlatilgan? Siyosiy ahamiyati nimada?).

Metodik Tavsiya: Virtual sayohat paytida o‘quvchilarni shunchaki tomoshabin qilib qo‘ymaslik uchun ularga "Muzey gidi", "Arxeolog", "Restavrator" kabi rollarni taqsimlab berish interaktivlikni va dars samaradorligini yanada oshiradi.

Temuriylar tarixi davlat muzeyining virtual 3D platformasiga kirish va uni darsda namoyish etish bir nechta rasmiy raqamli resurslar orqali amalga oshiriladi. Uzbekistan360.uz —mamlakatimizning eng yirik va mashhur raqamli geo-axborot portali hamda virtual sayohat platformasidir.Tarix va tarbiya darslarida "Raqamli muzey pedagogikasi"ni amalda qo‘llash uchun eng mukammal, tayyor va o‘zbek tilidagi milliy resurs aynan shu platforma hisoblanadi.

Uzbekistan360.uz loyihasining bosh maqsadi — O‘zbekistonning tarixiy shaharlari, muzeylari, muqaddas qadamjolari va tabiat maskanlarini 360 darajali yuqori sifatli (VR) panoramalar yordamida raqamlashtirish va butun dunyoga ko‘rsatishdir.Bundan tashqari ushbu panorama ta’lim jarayonida tarix darslarini samarali o‘tkazishda ham katta ahamiyatga ega.

Tarix darslarida raqamli muzey pedagogikasi va virtual sayohatlarni qo‘llash orqali:

- **Virtual sferik panoramalar:** Saytga kirgan foydalanuvchi xuddi obyektning ichida turgandek kompyuter yoki telefon orqali atrofni (yuqori, past, o‘ng va chapni) to‘liq tomosha qila oladi.
- **Ovozli gid (Audio-guide) xizmati:** Ko‘plab tarixiy obidalar va muzey eksponatlari haqida o‘zbek, rus va ingliz tillarida audio-ma’lumotlar integratsiya qilingan.
- **Aerofotosuratlar:** Shaharlar va majmualarning qush parvozi balandligidan olingan 360 darajali tasvirlari mavjud bo‘lib, bu darsda obidalarning joylashuv sxemasini tushuntirishda juda qo‘l keladi.
- **Ko‘rgazmalilik:** O‘quvchi darslikdagi matnli axborot o‘rniga real eksponatning raqamli nusxasi bilan to‘qnash keladi, bu esa ta’limda vizual idrokni kuchaytiradi.
- **Tarixiy obidalarni saqlash va o‘rganish:** Geografik jihatdan uzoqda joylashgan yoki moddiy holati sababli kirish cheklangan eksponatlarni 3D formatda atroflicha kuzatish imkonini beradi.
- **Integratsiyalashgan yondashuv:** Raqamli muzeylar tarix, san’at, me’morchilik va geografiya fanlarining o‘zaro integratsiyasini (STEAM yondashuvi) ta’minlaydi.

Xulosa

Raqamli muzey pedagogikasi va virtual sayohatlar – zamonaviy tarix darslarining ajralmas va innovatsion komponentidir. Ushbu metodika ta’lim sifatini oshirish bilan birga, o‘quvchilarning raqamli savodxonligini va madaniy dunyoqarashini kengaytiradi. Kelajakda dars jarayonlariga sun’iy intellekt (AI)) texnologiyalarining kirib kelishi raqamli muzey pedagogikasining imkoniyatlarini yanada transformatsiya qiladi. Tarix darslarida raqamli muzey pedagogikasi va virtual sayohatlarni sistemali qo‘llash o‘quv jarayonining sifat va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu metodika o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini, vizual manbashunoslik va tarixiy rekonstruksiya ko‘nikmalarini rivojlantirishda yuqori natija beradi. Ta’lim muassasalarida ushbu usulni keng joriy etish uchun tarix o‘qituvchilarining raqamli-pedagogik kompetensiyasini oshirish va dars jarayonlarida qo‘llash imkoniyatini tashkil qilish lozim. Raqamli muzey pedagogikasini qo‘llashda asosiy xato — darsni shunchaki "filmo‘yin" yoki passiv ekskursiyaga aylantirib qo‘yishdir. Virtual sayohat muayyan pedagogik topshiriq va maqsadga biriktirilgan bo‘lishi shart. O‘qituvchi faqat boshqaruvchi vazifasini bajarib, o‘quvchilarni tahliliy xulosalar chiqarishga yo‘naltirishi lozim.

"Raqamli muzey pedagogikasi" — bu shunchaki ta’limni texnik vositalar bilan jihozlash degani emas. Bu — o‘quvchiga o‘tmish madaniy hujjati bilan bevosita va jonli muloqot qilish imkonini beruvchi, milliy qadriyatlarni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirgan holda Yangi O‘zbekiston maktab ta’limining strategik didaktik qurolidir.

Muzey sohasidagi olib borilgan raqamlashtirish jarayonlari ta’lim sifatini ham yangi bosqichga olib chiqadi.Raqamlashtirilgan madaniy merosimiz kelajak avlodga tariximizni zamonaviy formatda yetkazishning samarali vositasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Shavkat Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: Tasvir”, 2020. – B. 18-19.
2. Ishmuhamedov R.J., Yuldashev M. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: "Iste’dod" jamg‘armasi, 2019. – B. 84-89.
3. PISA 2025/2026 Learning Framework: Assessment and Analytical Framework. – OECD Publishing, Paris, 2024. – PP. 45-52.
4. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan Tarix fani Milliy o‘quv dasturi. — Toshkent, 2023.
5. Uzbekistan360.uz
6. Hooper-Greenhill, E. Museum and Gallery Education. — Leicester University Press, 2020.
7. Google Arts & Culture xalqaro ta’limiy raqamli platformasi ma’lumotlari (artsandculture.google.com).

QURBON BEREGINNING “XORAZM OKRUGIDA MEHNATSIZ XO‘JALIKLARNI TUGATISH YAKUNLARI” RISOLASI - MUHIM TARIXIY MANBA SIFATIDA

Matniyozov Sarvarbek Sanatbek o‘g‘li,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
sarvarbekmatniyozov@gmail.com

UO‘K 94(575.1)

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekiston SSR tarkibidagi Xorazm okrugida 1928-1929-yillarda o‘tkazilgan yer-suv islohotlari jarayonlarini batafsil yorituvchi Qurbon Bereginning “Xorazm okrugida mehnatsiz xo‘jaliklarni tugatish yakunlari” risolasi tahlil qilinadi. Yer-suv islohotining mazmuni va amalga oshirish jarayonlari manbalar asosida tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *okrug, chorikor, batrak, mahram, kasim, kollektiv, sudxo‘r, tanob.*

Аннотация: *В данной статье анализируется брошюра Курбона Берегина «Итоги ликвидации нетрудовых хозяйств в Хорезмском округе», подробно освещающая процессы земельно-водных реформ, проведенных в Хорезмском округе Узбекской ССР в 1928–1929 годах. Содержание и процессы реализации земельно-водной реформы проанализированы на основе источников.*

Ключевые слова: *округ, батрак (чарикор), батрак, махрам, касим, коллектив, ростовщик, таноб.*

Abstract: *This article analyzes Qurbon Beregin's pamphlet "Results of the Elimination of Non-Working Farms in the Khorezm Okrug," which details the processes of land and water reforms carried out in the Khorezm Okrug of the Uzbek SSR in 1928–1929. The content and execution of the land and water reform are analyzed based on primary sources.*

Keywords: *okrug, charikor, batrak, mahram, kasim, collective, usurer, tanob.*

Qurbon Beregin (Qurbon Ollabergan o‘g‘li, 1904–1938) - XX asr boshlarida Xorazm ma’rifiy muhitida yetishib chiqqan, O‘zbekistonda matbuot, nashriyot va davlat boshqaruvi tizimini shakllantirishda salmoqli iz qoldirgan taniqli davlat hamda jamoat arbobi hisoblanadi.

1904-yili Xivada hunarmand-dehqon oilasida dunyoga kelgan Qurbon Beregin dastlab Xiva madrasalarida, so‘ngra Qozon va Moskvadagi nufuzli oliy ta’lim maskanlarida bilim oldi. U o‘zining faoliyati davomida Xorazmda, so‘ngra O‘zbekiston SSR da bir qator mas’ul lavozimlarda ishladi. Biroq 1938-yilda nohaq ayblovlar bilan qatag‘on qilindi.

Xorazm okrugida 1928-1929-yillarda o‘tkazilgan yer-suv islohotlari jarayonlarida Q.Beregin Gurlan tumanida yer-suv islohotini o‘tkazuvchi komissiya raisi sifatida faoliyat olib bordi. Shuningdek, mazkur jarayonlar yakuniga bag‘ishlangan “Xorazm okrugida mehnatsiz xo‘jaliklarni tugatish yakunlari” nomli kitob ham yozib qoldirdi”[1].

Mazkur manbada Xorazmda o‘tkazilgan yer-suv islohotlarini xonlik davridan boshlab, respublika davri, so‘ngra okrug davridagi o‘zgarishlari haqida ma’lumotlar berilgan. Xususan xonlik davrida Xorazmning dehqonchilik mamlakati ekanligi haqida risola kirish qismida shunday fikrlar keltiriladi:

Savdo burjuaziyasi o‘sib ayaqqa basqandan (rivojlangandan) keyin so‘nggi vaqtlarda mavjud bo‘lgan 5-6 paxta tozalash, 3-4 kon va bir-ikkita moy zavodlarini hisobga olmaganda, Xorazm feodalizm ravishdagi – kapitalizm asosidagi dehqonchilik mamlakati edi[1. 1]

Manbada Xiva xonligi davridagi yer-suv munosabatlari keskin ijtimoiy tabaqalanish nuqtayi nazaridan talqin qilinib, yirik yer egalari, saroy amaldorlari, savdogar boylar va diniy tabaqa manfaatlarining ustuvorligi ta’kidlangan. Muallif dehqonlarning qarzdorligi, yer egaligidan mahrum bo‘lishi va yirik yer egalari qaramligiga tushib qolishini mavjud agrar munosabatlarning asosiy oqibatlaridan biri sifatida ko‘rsatadi:

Xon boshda turgan hukumatning yer-suv siyosati va shuni o‘tkazish bilan bog‘langan amaliy ishlarining hammasi, hukumat amaldorlari (bek va to‘ralardan boshlab xonning o‘zigacha)ning, katta yer egalari, savdo boylari va ulamolarninggina manfaati uchun bo‘lib mehnatkash dehqonlar ommasining qarzsizlanishiga, azob-uqubatlari ortib sargardon bo‘lishlariga, yerlarini katta yer egalari, amaldor va boylar qo‘liga topshirib shular eshiklariga qul bo‘lib borishlariga qaratilgan siyosat va shu yo‘lda qilingan ishlar edi. Mehnatkash dehqonlar ommasining madaniyatsizligidan foydalanib din va shariatning ham vazifalarini yer-suv munosabatlarini yuqoridagi asosda o‘tkazishga muvofiqlashtirgan va shu siyosatning o‘tkazilishiga xizmat qildirgan edilar [1. 1].

Risolada xon hukumatining yer-suv siyosati faqat yer va mulk munosabatlarini tartibga solish bilan cheklanmaganligi, uni amalga oshirish jarayonida bevosita dehqonchilik faoliyati, jumladan, yerga ishlov berish usullari va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish bilan bog‘liq siyosiy choralar ham mavjud bo‘lganligi keltiriladi. Xususan yerdan foydalanishdagi “kasim”, “yarimchi”lik usullari tartibi to‘g‘risda:

“Kasim” va “yarimchi”liq ishlarini qilishliq mehnatkash dehqonlar qo‘lida o‘ziga kifoya qilarlik yerlarning bolmay ko‘pchilik yerlarning xon va uning butun amaldorlari, ulamolar, boylar va katta yer egalari qo‘lda bo‘lganligidan kelib chiqqan majburiyat bolish bilan birga mehnatkash dehqonlarning qo‘lda bo‘lgan yer-suv imkoniyatlari va dehqonchilik asboblarining qolgan va tamomining ham shu yuqori tabaqalar qo‘liga o‘tishiga keng yo‘l ochadurgan yengil usul edi [1. 2].

Yer maydonining kamligi sababli ko‘plab dehqonlar o‘z xo‘jaligini ta’minlash uchun boylarning yerlarini yarimchilik asosida ijaraga olishga majbur bo‘lganlar.

Mazkur tizimda dehqon nafaqat yerga ishlov berish, sug‘orish, o‘g‘itlash va hosil yetishtirishning asosiy mehnat yukini o‘z zimmasiga olgan, balki hosilning yarmidan voz kechgan, ayrim hollarda esa yer egasining soliq va boshqa majburiyatlarini ham bajargan.

“Kasim” chilik siyosatining asosiy xususiyati - yer egasining yerga egalik huquqi saqlangan holda, yerda ishlash, xarajatlar, soliqlar va ishlab chiqarish xavfining asosan dehqon zimmasiga yuklatilishidan iborat bo‘lgan.

Risolada kambag‘al va o‘rta dehqonlar ommasining qo‘lida bo‘lgan yerlarining ko‘pchiligi “vaqf” yerlari ekanligi ta’kidlanadi.

Xorazmda dehqonchilik sug‘orish tizimi va “qazu” mehnat majburiyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Ariq va kanallarni qazish hamda tozalash ishlari yer maydoniga mutanosib ravishda dehqonlar zimmasiga yuklatilgan:

O‘n tanob yer bir “suv” nomi bilan hisoblanib har bir suvdan “qazu”ga bir kishi borib qazu muddatining oxirigacha ishlaydi. Besh tanob yer yarim “suv” bo‘lsa qazu muddatining yarimini, chorak “suv” bo‘lsa to‘rtdan bir muddati ya’ni 8 kunlik bo‘lsa ikki kunligini ishlab ketadi[1. 8].

1926-1927-yillarda Xorazmdagi xo‘jaliklarning foiz ko‘rsatkichlari haqida quyidagi ma’lumotlar beriladi:

Inqilobgacha qaysi tabaqa qancha foiz tashkil qilishini ko‘rsatgan sonlarimiz bo‘lmasa ham xon, to‘ra, mahram va beklar yerlarining bir qismlari tarqalib dehqonlar qo‘liga o‘tib ketgandan keyingi 26—27-nchi yilning tekshirish

natijasi bo‘yicha bo‘lgan sonlarga qaraganda: Xorazmda bir yarim desyatinagacha yeri bo‘lgan xo‘jaliklar 60 foiz, bir yarimdan 3 desyatinagacha yeri bo‘lgan xo‘jaliklar 29 foizni tashkil qiladir. Agarda bu raqamni inqilobgacha bo‘lgan munosabatlarga nisbatan qo‘llansaq bir yarim desyatinagacha yeri bo‘lgan xo‘jaliklar tabaqasi 60 foizdan ham alla qancha ortiq bo‘lishi kabi ahvolni ko‘rish mumkinligi aniq ko‘rinib turadir. Bu sonlar ko‘rsatadilar kim, kambag‘allarning soni juda ko‘p bo‘lib, kam yerliklar katta sonni tashkil qiladilar[1. 10].

Risolada sovet davridagi o‘zgarishlar ijobiy qabul qilingan:

Hozir firqa va hukumatimiz qishloq xo‘jaligini sotsializm asosida qaytadan qurish ishiga jiddiy kirishgani holda qizg‘in ish olib borayotir. Qishloqlar, rayonlar va okruglar yappasiga kolxozlarga uyushib borayotirlar. Sovxoz qurilishi jiddiy ravishda kengayib, quchoq ochayotir. Yerni haydash usullari mashinalashib, traktorlashib ko‘p joylarda traktor, mashina stansiyalari solinayotir. Batrak, kambag‘al va o‘rta dehqonlar ommasining siyosiy an, madaniy bilim darajalari o‘sib va moddiy tomonlari ko‘tarilib qurilishimizning butun qismlarida, butun kuch va g‘ayratlari bilan faol ravishda firqa va hukumatimizga yordam qilayotirlar[1. 13-14].

Manbada Xorazmda mehnatsiz xo‘jaliklarni tugatish to‘g‘risidagi dekret doirasiga kiritilishi lozim bo‘lgan bir qator xo‘jalik turlari dastlab ro‘yxatga kiritilmay qolganligi, ish jarayonida aniqlangan, dastlab dekretga kirmay qolgan xo‘jaliklar alohida qo‘shimcha tasdiqlash tartibi orqali qisman keyinroq ro‘yxatga kiritilganligi ta’kidlanadi.

Risolaning tayyorgarlik ishi qismida Xorazmda “mehnatsiz xo‘jaliklarni tugatish” siyosati keng ko‘lamli siyosiy-ma’muriy kampaniya sifatida tashkil etilib, uni amalga oshirishga firqa, sho‘ro va jamoat tashkilotlari, shuningdek, batrak, kambag‘al va o‘rta dehqonlar safarbar qilinganligi, asosiy e’tibor tugatilishi lozim bo‘lgan xo‘jaliklarni aniqlash, ularning mol-mulkini yashirish yoki boshqa hududlarga olib chiqishining oldini olish, yer fondini qayta taqsimlash va kollektiv xo‘jaliklarni mustahkamlashga qaratilganligi haqida ma’lumotlar beriladi. Okrug firqasining kengaytirilgan plenumi mehnatsiz xo‘jaliklarni tugatishni “Xorazmda ikkinchi inqilob” hisoblaydi[1. 18].

Risolaning tashviqot-hisobot ishi qismida tashviqot yig‘ilishlar, matbuot, plakatlar, mitinglar, teatr, kino va ko‘chma targ‘ibot guruhlari orqali olib borilganligi, biroq ayrim joylarda tashviqotchilarning yetarli tayyorgarlikka ega

emasligi va ishning sust tashkil etilishi xo‘jaliklarni aniqlash hamda yerlarni taqsimlash jarayonida qiyinchiliklarni yuzaga keltirganligi to‘g‘risida ma’lumotlar beriladi.

Asosiy ommaning faoliyati qismida 1920-yillarning oxirida Xorazm okrugida mehnatsiz xo‘jaliklarni tugatish jarayonida qishloqdagi tabaqaviy kurash va aholining faollik darajasi bo‘yicha turli qarashlar mavjudligi haqida ma’lumotlar beriladi. Ayrim partiya xodimlari va mahalliy idora vakillari qishloqda sinfiy kurash darajasi past deb hisoblab, ma’muriy-siyosiy hujum sur’atini pasaytirish tarafdori bo‘lishgan.

Qishloqning faollari, batrak va kambag‘allarni mahkam uyushtirish ilgari surilib har bir qishloqda yordamchi guruhlar tashkil qilindi.

Rayonlarda o‘tkazilgan yig‘inlar va ularga ishtirok qilganlarning sonlarini haqida quyidagi statistik ma’lumotlar mavjud: Xiva rayonida 38 faollar yig‘ilishi o‘tkazilib 891 kishi, kambag‘allar yig‘ilishi 38 joyda o‘tkazilib 2707 kishi va 56 umumiy yig‘inlar o‘tkazilib 8256 kishi, bulardan boshqa xotin-qizlar uchun o‘tkazilgan yig‘inlarda ham 3689 kishi bo‘lib hammasi 15,543 kishi ishtirok qilgan. Gurlan rayonida ham shu tartibda 288 yig‘in o‘tkazilib 14,954 kishi ishtirok qilgan. Bu esa saylov huquqiga ega bo‘lgan aholilar sonining 70 foizini tashkil qiladi. Urganch rayonida 111 yig‘in o‘tkazilib 9,248 kishi ishtirok qilgan. Hammasi bo‘lib to‘qqiz rayon bo‘yicha (bir rayonning materiali yo‘q) 763 yig‘in o‘tkazilib 60,338 kishi ishtirok qilgan. Bu son saylov huquqiga ega bo‘lgan aholilarning qariyb 45 foizchasini tashkil qiladi[1. 27].

Islohot davomida xotin-qizlarni jarayonda faol qatnashganligi haqida muhim muhim ma’lumotlar berilgan:

Gurlan rayonining bir katta qishlog‘idagi mehnatkash xotin-qizlarning yig‘inlarida katta shovqin ko‘tarilib azondan kechgacha majlisni boshqarish mumkin bo‘lmadi. Xotin-qizlar o‘z qishloqlarida bo‘lgan bir boy xotinning xo‘jaligini tugatishni talab qildilar. U boy xotinning otasi boy, paxta zavodli kishi bo‘lib qishloq ustidan javr o‘tkazgan kishi va o‘sha xotin ham o‘zini azondan berli dan u hozir batraklar yollab ishlatar ekan. Qishloq mehnatkash xotin-qizlari shu xotinning xo‘jaligini tugatishni qat’iy talab qilib o‘z qarorlariga kirgizdilar. Bundan boshqa yordamchi guruhlarga a’zo bo‘lib saylanib yer komissiyalari yonida ishlab yurgan xotin-qizlardan bir munchalari azondan kechgacha komissiyalarning ishlariga yordam berib yurdilar va o‘zlari borib boy xo‘jaliklarini ko‘rsatib berdilar[1. 28].

Risolaning firqa tashkilotlari va sho‘ralarning yo‘lboshchiliklari qismida mehnatsiz xo‘jaliklarni tugatishni amalga oshirishda partiyaviy va sovet idoralarining tashkiliy rahbarligi yetakchiligi haqida so‘z boradi:

Rayon firqa qo‘mitalari ish davrida rayon yer komissiyalari va qishloq firqa yacheykalari sho‘ra va jamoat tashkilotlari bilan bo‘lgan yo‘lboshchiliklarini ma’lum sistemaga solib kuchaytirdilar. Rayon yer komissiyalarida ishlovchi o‘rtoqlarning ham hammasi deyarli firqalilardan bo‘lishi rajkomlar uchun yo‘lboshchilik masalasida juda qulay va yengil sharoitlar tug‘dirdilar[1. 36].

Manbaning “O‘rta dehqonlar va ularning faoliyati” qismida ta’kidlanishicha, Xorazm okrugida mehnatsiz xo‘jaliklarni tugatish jarayonida o‘rta dehqonlarning o‘rni hamda ularni partiya atrofiga jipslashtirish masalasi Okrug firqomi plenumining markaziy diqqat-e’tiborida bo‘lgan:

Xorazm okrug firqomining kengaytirilgan mehnatsiz xo‘jaliklarni tugatish haqida qaralgan masala ustida uzoq fikr almashish olib bordi. Plenumning diqqat markazini o‘ziga tortgan asosiy masala o‘rta dehqonlarning faoliyati va ularni bu ma’rakaning o‘tkazilishida firqamizga yordam qilish masalalari bo‘ldi. Ma’rakani o‘tkazishga kirishgan vaqtda aks sho‘raviy unsurlar tomonidan tashviqot yurgizilib o‘rta dehqonlar ommasini o‘ziga tortishga tirishishlik bo‘lishligi, mahalliy ishchilarimizning qaysilari tomonidan o‘rta dehqon xo‘jaliklariga nisbatan tushunmaslik natijasida xatolik qilib boy xo‘jaliklari qatoriga kirgizish va shuning kabilarning yuz berishi mumkinligini plenum avvaldan chuqur ravishda o‘rganib shularga qarshi qator amaliy choralar belgiladi[1. 39].

Risolaning qancha va qanday xo‘jaliklar tugatilganligi bo‘limida muhim statistik ma’lumotlar mavjud:

Ushbu tadbirlar va amalga oshirilgan agrar islohotlar davomida okrug bo‘yicha jami 532 ta mehnatsiz xo‘jalik tugatilgan bo‘lib, ularning kategorial tarkibi bo‘yicha 200 ta xo‘jalik sobiq xon amaldorlari va to‘ralar, 141 ta xo‘jalik 3-darajadan ziyod patentli savdogarlar, 52 ta xo‘jalik ruhoniy va ulamolar hamda 13 ta xo‘jalik sudxorlar hisobiga to‘g‘ri kelgan. Ushbu tugatilgan xo‘jaliklardan jami 899 273 tanob yer hamda 606 bosh ish hayvoni (299 bosh ho‘kiz, 220 bosh ot, 86 bosh tuya va 1 bosh eshak) musodara qilingan. Shuningdek, ushbu xo‘jaliklardan qishloq xo‘jaligi uskunalari va yordamchi korxonalar sifatida 4 041 ta chig‘ir, 1 040 dara qishloq xo‘jalik asboblari (paza, o‘roq, ketmon, bel va boshqalar), 202 ta arava, 80 ta tegirmon (xaraz), 36 ta moy juvoz, 13 ta deng (guruch juvozi), 2 ta mashina dvigateli va 1 ta nasos tortib olingan hamda

infratuzilma obyektlaridan 246 ta turar joy binolari va 246 ta qishloq xo‘jaligiga doir bino va inshootlar musodara etilgan[1. 44].

Yer olgan xo‘jaliklar va ularni mustahkamlash qismida qishloqlarda g‘oyaviy-tashviqot ishlari va ma’muriy choralar kuchaytirilganligi haqida ma’lumotlar berilgan. Yer-suv islohotidan so‘ng darhol sovetlarga qayta saylov o‘tkazilib, yangi yer olgan kambag‘al dehqonlar mahalliy hokimiyat organlariga jalb qilingan.

Manbaning oxirgi qismlaridan birida kolxoz qurilishi masalalariga ham to‘xtalgan:

Shunday qilib 10 ta kolxoz, 5 ta mashina shirkati va 2 ta birgalashib ishlash shirkatlari tashkil qilishga muvaffaq bo‘ldik. Agarda keyingilarini qo‘shib hisoblasak kolxozlar holatini quyidagilardan iborat ko‘ramiz. 29-nchi yilning martigacha kolxozlarning umumiy sani 16 ta, yerlari 580 gektar va hamma a’zolari 152 ta (mashina shirkatidan boshqa). 29-nchi yilning oktabrigacha okrug bo‘yicha kolxozlarning umumiy sani 20 ta (bunga ham mashina shirkatlari kirmaydi), yerlari 760 gektar, shundan ekinlar 637,5 gektar. Ish hayvonlarining sonlari 183 bosh, hammasi bo‘lib a’zolari 239 ta, shulardan batraklar 146 ta va kambag‘allar 93 ta [1. 56].

Qurbon Beregin risolaning yakunida natijalarga to‘xtalib yutuq va kamchiliklarni sanab o‘tadi. Unda batrak, yarimchi va kambag‘allar yer bilan ta’minlanganligi, faol ishtiroki, majburiy mehnat tugatilganligi ijobiy baholangan bo‘lsa-da, isolohot yer masalasini to‘liq hal qila olmaganligi aytib o‘tiladi.

Muallif risola davomida xonlik davridan saqlanib kelgan yer-suv munosabatlariga barham berilganini alohida ta’kidlaydi. Islohot davomida yer egaligiga da’vogarlar oldindan puxta o‘rganilib, yer faqat uni tashlab ketmaydigan va o‘z kuchi bilan ishlatadigan haqiqiy mehnatkashlarga ajratilganligiga, batrak va kambag‘al dehqonlar, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi keskin oshganligiga guvoh bo‘lamiz.

Umuman olganda, Qurbon Bereginning ushbu risolasi Xorazm okrugida mehnatsiz xo‘jaliklarni tugatish nafaqat yer-suv masalasini, balki sovet hokimiyatining qishloqdagi tayanchini mustahkamlash, aholini sotsialistik qayta qurish va kolxozlashtirish jarayonlariga tayyorlashdagi hal qiluvchi bosqich bo‘lganini yaqqol ko‘rsatib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Beregin Q. Xorazm okrugida mehnatsiz xo‘jaliklarni tugatish yakunlari. – “Samarqand”, - T., 1930.

2. “Xorazm okrugida mehnatsiz yerdan foydalanishni tugatish bo‘yicha” dekret. “Samarqand”. 1928-yil.

3. Xorazm viloyati davlat arxivi 69-fond., Xorazm viloyati davlat arxivi 199-fond.

4. Хоразм тарихи. 2-жилд. Масъул мухаррир М.Матниёзов. - Урганч: Хоразм, 1997.

5. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккита китоб. Биринчи китоб. 1917 – 1939 йиллар. Масъул муҳаррирлар: Р.Абдуллаев, М.Рахимов, Қ.Ражабов. – Т.: ―O‘zbekiston, 2019.

6. Хусаинбекова Г. М. Хоразм вохасидаги маданий жараёнлар (1925-1941 йй.) номзодлик диссертацияси. – Тошкент. 2011.

7. Алимов И. Узбекистонда вакф мулкларининг тугатилиши тарихи (1917 - 1929 йй.). - Тошкент: «Фан», 2009. - 224 б.

8. Аминова Р.Х. Аграрные преобразования в Узбекистане накануне сплошной коллективизащш. (1925-1929)

1939-2025 YILLARDA XORAZM VILOYATI DAVRIY MATBUOTIDA IKKINCHI JAHON URUSHI MAVZUSI YORITILISHINING MANBASHUNOSLIK TAHLILI

Jumaniyazova Firuza Jumanazarovna,
Xorazm Ma'mun akademiyasi Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'limi katta ilmiy xodimi, t.f.f.d (PhD),
jumanazarovafiruza8485@gmail.com.
ORCID:0009-0009-4929-3143.

UO'K 94(575.1)

Annotatsiya: *maqolada 1939-2025-yillarda Xorazm viloyati davriy matbuoti-da Ikkinchi jahon urushi mavzusining yoritilishi manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Tadqiqotda urush yillari, urushdan keyingi sovet davri, mustaqillik yillari hamda zamonaviy bosqichda chop etilgan gazeta materiallari qiyosiy o'rganilgan. Davriy matbuotda urush voqealari, front va front orti hayoti, urush qatnashchilari hamda xotira siyosatiga oid materiallarning mazmun-mohiyati, ularning tarixiy axborot manbai sifatidagi imkoniyatlari baholangan.*

Kalit so'zlar: *Ikkinchi jahon urushi, Xorazm viloyati, davriy matbuot, front, front orti, gazeta materiallari, matbuot tahlili.*

Kirish. 1939-2025-yillarda Xorazm viloyati davriy matbuotida Ikkinchi jahon urushi mavzusining yoritilishini tadqiq etishning manbaviy asosini respublika va mahalliy arxiv muassasalari, kutubxona fondlari, muzey va jamoat tashkilotlari hujjatlari, shaxsiy fondlar, shuningdek, dala tadqiqoti materiallari hamda elektron axborot resurslari tashkil etadi. Jumladan, tadqiqot jarayonida A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, Xorazm viloyati davlat arxivi, Yangibozor tumani davlat arxivi, Xonqa tumani davlat arxivi, Xiva shahar davlat arxivi, Ichan-qal'a davlat muzey-qo'riqxonasi fondi materiallari, Xorazm viloyati Mudofaa ishlari boshqarmasi arxiv fondi, Xorazm viloyati Statistika boshqarmasi hujjatlari, M.Zamaxshariy nomidagi Xorazm viloyati axborot-kutubxona markazi, "Oltin meros" xalqaro xayriya jamg'armasining Xorazm viloyati bo'limi, shuningdek, Umar Qurboniyning shaxsiy fondida saqlanayotgan davriy matbuot materiallaridan keng foydalanildi. Bundan tashqari, mavzuni har tomonlama yoritish maqsadida dala tadqiqotlari natijalari, internet manbalari hamda elektron ma'lumotlar bazalaridagi axborotlar ham ilmiy tahlilga jalb qilindi.

Adabiyotlar tahlili. Ikkinchi jahon urushi tarixiga oid ko'plab ilmiy tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, Xorazm viloyati davriy matbuotida mazkur

mavzuning 1939-2025-yillar davomida yoritilishi va uning evolyusiyasi maxsus tadqiqot ob’ekti sifatida o‘rganilmagan. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotning asosiy manbaviy negizini 1939-2025-yillarda Xorazm viloyatining shahar va tumanlarida nashr etilgan davriy matbuot materiallari tashkil etadi.

Metodlar. Tadqiqot manbalarini ilmiy tahlil qilishda qiyosiy-tarixiy tahlil, tarixiy-xronologik yondashuv, manbalarni o‘zaro qiyoslash va verifikatsiya qilish, tizimlashtirish hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotning manbashunoslik asosini ularning mazmuni, kelib chiqishi, axborot imkoniyati va ilmiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda quyidagi olti asosiy guruhga tasniflandi: 1) arxiv hujjatlari; 2) normativ-huquqiy hujjatlar; 3) davriy matbuot materiallari; 4) statistik to‘plamlar va rasmiy ma’lumot-lar; 5) dala tadqiqoti materiallari; 6) internet manbalari va elektron ma’lumotlar bazalari.

Birinchi guruh manbalari arxiv hujjatlaridan iborat bo‘lib, ular tadqiqotning asosiy birlamchi manbalari hisoblanadi. Mazkur guruh quyidagi arxiv muassasalari va fondlari materiallarini qamrab oladi: 1)Xorazm viloyati davlat arxivi; 2)Yangibo-zor tumani davlat arxivi; 3) Xonqa tumani davlat arxivi; 4) Xiva shahar davlat arxivi; 5) Ichan-qal’a davlat muzey-qo‘riqxonasi fondi materiallari. Ushbu arxiv hujjatlarida Ikkinchi jahon urushi davri va urushdan keyingi yillarda Xorazm viloyati ijtimoiy-siyosiy hayoti, matbuot faoliyati hamda tarixiy xotira shakllanishining o‘ziga xos jihatlari to‘g‘risida ma’lumotlar jamlanganligi bilan ahamiyat kasb etadi[1].

Ikkinchi guruh manbalari normativ-huquqiy hujjatlardan tashkil topgan bo‘lib, ularga tarixiy xotira siyosatiga oid qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va mehnat fronti faxriylarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirishga oid me’yoriy hujjatlar, shuningdek, Ikkinchi jahon urushi tarixi va G‘alaba xotirasini asrash masalalariga bag‘ishlangan rasmiy hujjatlar kiradi. Ushbu manbalar davlatning tarixiy xotira siyosati va uning huquqiy asoslarini tahlil qilish imkonini beradi[2].

Uchinchi guruh manbalari tadqiqotning eng muhim va asosiy manbasi hisoblangan davriy matbuot materiallari bo‘lib, bu guruhga respublikaning Xorazm viloyatida 1939-2025-yillarda chop etilgan gazetalarining barcha sonlari kiritildi. Mazkur manbalar asosida Ikkinchi jahon urushi mavzusining turli tarixiy

bosqichlarda matbuotda yoritilishi, uning mazmun-mohiyati, g‘oyaviy yo‘nalishi va evolyusiyasi qiyosiy tahlil qilindi[3].

To‘rtinchi guruh manbalari statistik to‘plamlar va rasmiy ma’lumotlardan tashkil topgan bo‘lib, ularga davlat statistika yilnomalari, arxivlarda saqlanayotgan statistik ma’lumotlar, turli statistik to‘plamlar hamda Xorazm viloyati Mudofaa ishlari boshqarmasining Ikkinchi jahon urushiga safarbar etilgan fuqarolarga oid statistik hisobotlari kiradi. Mazkur manbalar tadqiqotda keltirilgan raqamli ma’lumotlarni aniqlashtirish, qiyosiy tahlil qilish va umumlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi[4].

Beshinchi guruh manbalari dala tadqiqoti materiallaridan iborat bo‘lib, ular so‘rovnomalar, intervyu va suhbatlar, shaxsiy arxiv materiallari, Umar Qurboniyning shaxsiy fondi hujjatlari hamda “Oltin meros” xalqaro xayriya jamg‘armasining Xorazm viloyati bo‘limida saqlanayotgan materiallarni o‘z ichiga oladi. Ushbu manbalar rasmiy hujjatlarda aks etmagan ayrim ma’lumotlarni aniqlashtirish, mahalliy xotira an’analari va og‘zaki tarix materiallarini tadqiqotga jalb qilish imkonini beradi[5].

Oltinchi guruh manbalari internet manbalari va elektron ma’lumotlar bazalaridan tashkil topgan. Ular qatoriga Rossiya Davlat kutubxonasi va boshqa raqamli arxiv fondlarida saqlanayotgan Ikkinchi jahon urushi davrida nashr etilgan gazetalarning elektron nusxalari, A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasining elektron katalogi, shuningdek, mavzuga doir boshqa milliy va xalqaro raqamli ma’lumotlar bazalari kiritildi. Ushbu elektron resurslar tadqiqot manbalarini kengaytirish, ularni o‘zaro qiyosiy tahlil qilish va ayrim ma’lumotlarni verifikatsiya qilishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi[6].

Jumladan, tadqiqotning asosiy manbaviy negizini tashkil etuvchi davriy matbuot materiallari respublika, viloyat va mahalliy kutubxona hamda arxiv muassasalari, muzey fondlari va shaxsiy to‘plamlarda saqlanayotgan nodir gazetalar majmuasidan shakllantirildi. Mazkur manbalar Ikkinchi jahon urushi mavzusining turli tarixiy bosqichlarda qanday yoritilganini kompleks o‘rganish, matbuot siyosatidagi o‘zgarishlar, tarixiy xotiraning shakllanishi va evolyusiyasini aniqlash imkonini beradi.

Xususan, A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi fondida saqlanayotgan “Kolxozchilar ovozi” gazetasining 1939-1942-yillardagi sonlari, “Bo‘l tayyor” gazetasining 1939-1940-yillardagi sonlari, “Lenin yo‘li” gazetasining 1941-1945-yillarda chop etilgan sonlari hamda “Shovot haqiqati” gazetasining 1940 va 1942 yillarga oid nashrlari tadqiqotning muhim birlamchi

manbalari sifatida jalb qilindi[7]. Mazkur gazetalar urush arafasi, urush yillari va urushning dastlabki bosqichlarida Xorazm viloyati aholisining ijtimoiy-siyosiy hayoti, mehnat fronti faoliyati, safarbarlik jarayonlari, front va front orti voqealarining mahalliy matbuotda qanday aks ettirilganini tahlil qilish imkonini beradi.

Shuningdek, Xorazm viloyati davlat arxivining 346-, 622- va 623-fondlarida saqlanayotgan “Inqilob quyoshi”, “Xorazm haqiqati” hamda “Xorezmskaya pravda” gazetalarining yig‘ma jildlari va alohida sonlari ham tadqiqotga keng jalb etildi[8]. Arxiv fondlarida saqlanayotgan mazkur gazetalarning ayrim sonlari boshqa muassasalar fondlarida uchramasligi yoki to‘liq saqlanmaganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa matbuot materiallarini o‘zaro qiyosiy tahlil qilish, ularning to‘liqligini ta’minlash va yo‘qolgan sonlar o‘rnini boshqa manbalar hisobiga to‘ldirish imkonini yaratdi.

M.Zamaxshariy nomidagi Xorazm viloyati axborot-kutubxona markazi fondida saqlanayotgan “Xorazm haqiqati” va “Xorezmskaya pravda” gazetalarining yig‘ma jildlari, shuningdek, mustaqillik yillaridan to hozirgi kunga qadar Xorazm viloyatida muntazam nashr etilayotgan 28 ta turli nomdagi viloyatda chop qilinayotgan elektron hamda bosma gazeta va jurnallarning to‘plamlari tadqiqotning muhim manbalari hisoblanadi[9]. Ushbu materiallar orqali Ikkinchi jahon urushi mavzusining sovet davri va mustaqillik yillarida yoritilishidagi mazmuniy, g‘oyaviy va uslubiy o‘zgarishlar qiyosiy tahlil qilingan.

Tadqiqot davomida “Oltin meros” xalqaro xayriya jamg‘armasining Xorazm viloyati bo‘limi fondida saqlanayotgan “Kommunaga”, “Inqilob quyoshi” va “Xorazm haqiqati” gazetalarining 1939-1945-yillarga oid ayrim sonlaridan ham keng foydalanildi[10]. Ushbu sonlarning ayrimlari boshqa arxiv va kutubxona fondlarida mavjud emasligi yoki nusxalari to‘liq saqlanmaganligi sababli ular alohida manbashunoslik ahamiyatiga ega hisoblanadi.

Shu bilan birga, tadqiqotda jurnalist Umar Qurboniyning shaxsiy fondida saqlanayotgan “Kommunaga” gazetasining 1939-1945-yillarga oid noyob sonlari ilmiy muomalaga kiritildi[11]. Mazkur shaxsiy fondda saqlanayotgan materiallar rasmiy arxiv va kutubxona fondlarida uchramaydigan ayrim ma’lumotlarni aniqlash, turli manbalarni o‘zaro solishtirish hamda matbuot materiallarining ishonchlilik darajasini tekshirish imkonini beradi.

Xulosa. Tadqiqotda foydalanilgan manbalarning tarkibi, mazmuni va axborot imkoniyatlari ularning o‘zaro uyg‘unligi hamda bir-birini to‘ldirishi bilan

ajralib turadi. Arxiv hujjatlari, normativ-huquqiy manbalar, davriy matbuot materiallari, statistik to‘plamlar, dala tadqiqoti materiallari hamda internet manbalari va elektron ma’lumotlar bazalarining kompleks tarzda jalb qilinishi mavzuni har tomonlama, xolis va ilmiy asosda tadqiq etish imkonini yaratgan. Tadqiqotda asosiy e’tibor davriy matbuot materiallariga qaratilgan bo‘lib, respublika, viloyat va mahalliy gazetalarning 1939-2025-yillarda chop etilgan sonlari tahlil qilindi. Ularning arxiv, kutubxona, muzey va shaxsiy fondlarda saqlanayotgan nusxalarini o‘zaro qiyosiy o‘rganish orqali ayrim sonlardagi ma’lumotlar aniqlashtirildi, turli davrlarda Ikkinchi jahon urushi mavzusining yoritilishidagi umumiy va o‘ziga xos jihatlar, mazmuniy hamda g‘oyaviy o‘zgarishlar aniqlandi. Bu esa mavzuni bir yoqlama emas, balki tarixiy jarayonlarning turli bosqichlari kesimida baholash imkonini bergan.

Arxiv hujjatlari va rasmiy statistik ma’lumotlar matbuot materiallarida keltirilgan faktlarni tekshirish, ularning ishonchlilik darajasini baholash va ilmiy xulosalarning daliliy asosini mustahkamlashga xizmat qilgan. Normativ-huquqiy hujjatlar davlatning tarixiy xotira siyosati va Ikkinchi jahon urushi qatnashchilariga munosabatining huquqiy asoslarini ochib berish imkonini yaratgan bo‘lsa, dala tadqiqoti materiallari hamda shaxsiy fondlarda saqlanayotgan hujjatlar rasmiy manbalarda uchramaydigan ayrim ma’lumotlarni ilmiy muomalaga kiritishga imkon beradi. Shuningdek, elektron ma’lumotlar bazalari va raqamlashtirilgan davriy matbuot materiallarining tadqiqotga jalb qilinishi manbalar qamrovini kengaytirish, ularni o‘zaro qiyosiy tahlil qilish va ilmiy natijalarning ishonchliligini oshirishga xizmat qilgan.

Umuman olganda, tadqiqotda shakllantirilgan manbaviy baza reprezentativligi, xronologik qamrovining kengligi, manbalarning xilma-xilligi va o‘zaro verifikatsiya qilinishi bilan ajralib turadi. Bu esa Xorazm viloyati davriy matbuotida Ikkinchi jahon urushi mavzusining yoritilish xususiyatlari, uning turli siyosiy-tarixiy davrlardagi transformatsiyasi, tarixiy xotirani shakllantirishdagi o‘rni hamda matbuotning ijtimoiy funksiyasini xolis va ilmiy asosda yoritish uchun yetarli manbaviy zamin yaratdi.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1.“Kolxozchilar ovozi” gazetasi. 1939-1942-yillardagi sonlari.
2.“Bo‘l tayyor” gazetasi. 1939-1940-yillardagi sonlari.
3.“Lenin yo‘li” gazetasi 1941-1945-yillardagi sonlari.
4.“Shovot haqiqati” gazetasi. 1940-1942 yillarga sonlari.
5.Xorazm viloyati davlat arxivining 346-fondi.

7.Xorazm viloyati davlat arxivining 622-fondi.

8.Xorazm viloyati davlat arxivining 623-fondi.

9.Xorazm viloyati axborot-kutubxona markazi. “Xorazm haqiqati” va “Xorezmskaya pravda” gazetalarining yig‘ma jildlari.

10.“Oltin meros” xalqaro xayriya jamg‘armasining Xorazm viloyati bo‘limi fondi. “Kommunaga”, “Inqilob quyoshi” va “Xorazm haqiqati” gazetalarining 1939-1945-yillardagi ayrim sonlari.

11.Umar Qurboniyning shaxsiy fondi. “Kommunaga” gazetasining 1939-1945-yillarga sonlari.

XIVA XONLIGI SAVDOGARLARI VA TURLI MILLAT VAKILLARI O‘RTASIDAGI HAMKORLIK: TOTUVLIKNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR

СОТРУДНИЧЕСТВО МЕЖДУ КУПЦАМИ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗЛИЧНЫХ ЭТНИЧЕСКИХ ГРУПП: ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ МЕЖНАЦИОНАЛЬНОГО СОГЛАСИЯ

Ibadullayeva Oymarjon Shavkat qizi,
Ma’mun universiteti “Tarix” yo‘nalishi talabasi

Ибадуллаева Оймаржон Шавкат кизи,
студентка направления «История» Университета Маъмуна

UO‘K 94(575.1)

Annotatsiya

Bugungi globallashuv davrida xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik va millatlararo totuvlik jamiyat rivojining asosiy omillaridan hisoblanadi. Millatlararo munosabatlarning sovushi butun dunyo mamlakatlari uchun jiddiy muammodir. Ushbu maqolada millatlararo totuvlikning tarixiy ildizlari Xiva xonligi savdogarlarining faoliyati misolida tahlil qilinadi. Maqolaning maqsadi Xiva xonligi savdogarlari turli davlatlar bilan savdo-sotiq qilish jarayonida tinchlik va totuvlikni qanday saqlab qolganliklarini yoritib berishdan iborat. Bu jarayonlar tarixiy adabiyotlar, manbalar va esdaliklar asosida chuqurroq tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *transkontinental, karvonsaroy, savdogar, Mashhad kamoni, karvon, soliq, boj, baxmal, savdo, zarbof (guldor mato).*

Аннотация

В современную эпоху глобализации дружба между народами и межнациональное согласие являются ключевыми факторами развития общества. Охлаждение отношений между нациями представляет собой серьезную проблему для стран по всему миру. В данной статье анализируются исторические корни межнационального согласия на примере деятельности купцов Хивинского ханства. Цель статьи — осветить, каким образом купцы Хивинского ханства поддерживали мир и согласие в процессе ведения торговли с различными

государствами. Эти процессы подробно анализируются на основе исторической литературы, источников и мемуаров.

Ключевые слова: *трансконтинентальный, караван-сарай, купец, машхадский лук, караван, налог, пошлина, бархат, торговля, парча.*

Abstract

In today's era of globalization, the friendship between peoples and interethnic harmony are key factors in the development of society. The cooling of relations between nations is a serious problem for countries worldwide. This article analyzes the historical roots of interethnic harmony, using the activities of merchants from the Khiva Khanate as an example. The article aims to highlight how the merchants of the Khiva Khanate maintained peace and harmony in conjunction with their trade with various states. These processes will be analyzed in greater depth based on historical literature, sources, and memoirs.

Keywords*:transcontinental, caravanserai, merchant, Mashhad bow, caravan, tax, duty, velvet, trade, brocade.*

Исторически Хорезм являлся важной частью Шелкового пути, и через его территорию проходили торговые караваны представителей различных национальностей. Позже, после монгольского нашествия, этот караванный маршрут утратил свое прежнее значение. С образованием Хивинского ханства как самостоятельного государства торговые отношения с соседними странами возобновились, хотя и не в таких масштабах, как во времена расцвета Шелкового пути. Основными торговыми партнерами выступали Царская Россия, Иран, соседние Бухарское и Кокандское ханства, представители туркменского и казахского народов, уйгуры, найманы, а также Китай, Индия, Османская империя, государства Закавказья и некоторые страны Европы.

Если обратиться к истории Хивинского ханства, можно заметить, что оно устанавливало дипломатические и экономические связи не только с

государствами Центральной Азии, но и с европейскими странами. Закавказское ответвление Великого шелкового пути, стратегически расположенное на перекрестке древних торговых маршрутов, связывавших Восток с Европой, сохраняло свое значение в международной транзитной торговле даже после снижения своего трансконтинентального потенциала. В исторических источниках того периода Кавказский регион часто упоминается как мост между Европой и Азией [1, с. 4]. В эту эпоху деятельность среднеазиатских купцов в регионах Ирана и Закавказья оставалась непрерывной. В XVII веке крупный торговый путь связывал видные коммерческие центры Ирана, Закавказья, Османской империи и Европы, пролегая по маршруту: Акулис – Нахичевань – Ереван – Карс – Эрзурум – Токат – Измир – Стамбул – Венеция – Франкфурт – Дюссельдорф – Амстердам [2, с. 6].

Согласно свидетельству Э. Кемпфера, немецкого резидента, путешествовавшего по России в XVII веке, торговые суда из России, Черкесии, Дагестана, «Узбекии» (узбекских ханств) и Ирана бросали якорь в «Тихой» бухте на побережье Баку [3, с. 216]. Соль, нефть и фрукты, доставляемые сюда на небольших купеческих судах, перевозились в «Узбекию» и соседние города [3, с. 216]. В XVI–XVII веках Шемаха вела торговлю не только внутри Закавказского региона, но и с городами Центральной Азии, России и Западной Европы. Вокруг города насчитывалось семь караван-сараев, где таджикские и узбекские купцы торговали наряду с русскими, татарскими и европейскими торговцами [4, с. 108]. Город Шемаха служил узловым центром сбора для купцов, направлявшихся в Московское государство, Швецию и Голландию, вследствие чего поток людей, проходивших через этот пункт, был огромным [5, с. 60]. Эти процессы указывают на то, что Хивинское ханство установило тесные связи с данными народами и занимало среди них значимое положение.

Как известно из истории, для того чтобы конкурировать в торговле с соседними государствами, непрерывно находиться в этой среде могли лишь люди, досконально разбирающиеся в коммерческих процессах и обладающие отличными навыками ведения переговоров; в противном случае их место заняли бы представители других народов. Качество продукции Хивинского ханства заслуживает особого внимания и высокой оценки. В частности, хивинские шелковые ткани часто экспортировались в

страны Азии и Европы через транзитные торговые пути. Более того, в XVI–XVII веках Иран и Центральная Азия снабжали Европу сырцом и шелковым текстилем. Среднеазиатские товары транспортировались в Иран, Османскую империю и различные европейские государства [6, с. 165].

Торговые отношения были также хорошо налажены между Хивинским ханством и Бухарским эмиратом. Несмотря на постоянные территориальные споры между ними, коммерческая и торговая деятельность никогда не прекращалась. Отношения двух государств в этой сфере были настолько прочными, что их купцы даже вели торговлю бок о бок в зарубежных странах. В 1820 году Э. А. Эверсман и Е. К. Мейендорф, входившие в состав российского посольства во главе с А. Ф. Негри, зафиксировали огромное количество сельскохозяйственной продукции Хивы на рынках Бухары. Хивинские купцы отправлялись в Бухару для закупки как местных, так и иностранных товаров для последующего вывоза обратно. Часть импортируемых товаров затем транспортировалась в столицу России, как это было и с другими крупными торговыми центрами страны [7, с. 93]. В свою очередь, бухарцы закупали на рынках Хивы шелк, сухофрукты, дыни и яблоки [8, с.220-221]. Поэтому не будет преувеличением сказать, что эти два государства входили в число ближайших торговых партнеров друг друга.

Торговые отношения были также высоко развиты между Хивинским ханством и Царской Россией. Благодаря установлению и эффективному ведению дипломатических связей между двумя государствами, купцы всегда пользовались свободой и получали различные привилегии. Например, в 1585 году среди ценных даров, направленных хивинским ханом Хаджи Мухаммад-ханом российскому царю Федору Ивановичу через посла Ходжу Мухаммада, были зафиксированы машхадские луки, украшенные золотом и различными цветами [9, с.90]. Аналогичным образом, в 1615 году в числе многочисленных подарков, отправленных ханом Хивы к российскому царскому двору, значились «цветная кызылбашская парча (кимхоб), машхадские луки, разноцветные кызылбашские шелка и кызылбашские стальные кинжалы» [10, с. 22-23]. Государства последовательно обеспечивали себе преференции посредством такого взаимного обмена дарами. В 1703 году хивинским купцам были дарованы жалованные грамоты (ярлыки), гарантирующие их беспрепятственное

прибытие и свободную торговлю на территории России [10, с. 22-23]. Именно такие отношения обеспечивали стабильную и взаимовыгодную связь между Хивинским ханством и Царской Россией.

В заключение можно констатировать, что Хивинское ханство установило стабильные международные торговые связи. Его дипломатия и торговля с соседними странами играли ключевую роль в поддержании гармоничных отношений между этими народами. Данный исторический опыт имеет важное значение сегодня в высших учебных заведениях для воспитания у молодежи духа межнационального согласия.

Список литературы

1. Киняпина Н. С., Блиев М. М., Дегоев В. В. Кавказ и Средняя Азия во внешней политике России (Вторая половина XVIII – 80-е годы XIX вв.). – М., 1984. – С. 4.

2. Дневник Закария Акулсского. – Ереван, 1939. – С. 6.

3. Ашурбейли С. Б. Очерки истории средневекового Баку. – Баку., 1964. – С. 216.

4. Джидди Г. А. Средневековой город Шемаха IX–XVII вв, –Баку: Элм, 1981. – С. 108.

5. Алиев Ф. М. Место Азербайджана в международний транзитной торговле в XVIII в / Материали по экономической истории Азербайджана (К В международному конгрессу экономической истории). – Баку: Элм, 1970. – С. 60.

6. Валиева Д. XIX асрнинг биринчи ярмида Бухоро ва Хиванинг ташқи иқтисодий алоқаларига доир… – Б 165.

7. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 гг…– С. 93.

8. Некоторые сведения о Бухарии… – С. 220–221.

9. Чулошникова А. Торговля Московского государства… – С. 90.

10. Кологривов С. Н. Материалы для истории сношения России с иностранными державами в XVII в. – СПб., 1911. – С. 22–23.

11. Юхт А. И. Торговые связи Астрахани с внутренним ринком (20–50-э годи XVIII в. // Исторические записки. – Москва, 1990. – №118. – С. 165.

QIRQHUJRA – SHIMOLIY FARG'ONA HUDUDIDAGI ILK URBANIZATSIYA MARKAZI

Shukrullo Nasriddinov,
Namangan davlat universiteti "Arxeologiya" kafedrasi katta o'qituvchisi

UO'K 94(575.1)

Annotatsiya

Mazkur maqolada Namangan viloyati Pop tumanida joylashgan Qirqhujra arxeologiya yodgorligining arxeologik o'rganilishi va topografiyasi haqida ma'lumotlar ilmiy asoslangan holda ko'rsatib berilgan. Er. avv. VI–V asrlar bilan davrlashtirilgan Qirqhujra yodgorligida olib borilgan qazishma ishlari jarayonida shahar arki, mudofaa devori va shahristoni hamda uning ikkinchi shahriston qismida baland tepalik usti tekislanib ibodatxona qurilgani haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: *Farg'ona, monumentlar inshootlar, me'morchilik, arxeologiya yodgorliklari, Qirhujra, ark, mudofaa devori, qazishmalar, olov, ibodatxona, sopol topilmalar.*

Аннотация

В данной статье представлены научно обоснованные данные об археологическом исследовании и топографии археологического памятника Киркхуджра, расположенного в Папском районе Наманганской области. В ходе раскопок памятника Киркуджра, датируемого VI–V веками, были получены сведения о строительстве городской арки, оборонительной стены и шахристана, а также храма на высоком холме во втором шахристане.

Ключевые слова: *Фергана, памятники, сооружения, архитектура, археологические памятники, Киркхуджра, арка, оборонительная стена, раскопки, огонь, храм, керамические находки.*

Annotation

This article presents scientifically based information on the archaeological study and

topography of the Kirqhujra archaeological monument located in the Pop district of the Namangan region. Er. BC. During the excavations at the Kirqhujra monument, dated to the 6th–5th centuries, information was provided about the construction of a city arch, defensive wall and shahristan, and a temple on a high hill in its second shahristan.

Keywords: *Fergana, monuments, structures, architecture, archaeological monuments, Kirqhujra, arch, defensive wall, excavations, fire, temple, ceramic finds.*

O’zbekiston Respublikasining 2001-yilda qabul qilingan “Madaniy meros ob’yektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to’g’risida”gi hamda 2009 yilda qabul qilingan “Arxeologik meros ob’yektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to’g’risida”gi qonunlariga muvofiq, yangi qurilish loyihalari rejalashtirilgan hududlarda mavjud bo’lgan yoki yangi topilmalar aniqlanishini inobatga olgan holda arxeologiya qidiruv razvedka va tadqiqotlar olib borilishi ekanligi belgilab qo’yilgan. 2012-yil oxirida O’zR FA Arxeologiya instituti A. A. Anarbayev rahbarligidagi dala otryadi “Boshtransloyiha” Aksionerlik jamiyati – Transport bo’yicha Bosh loyiha-qidiruv instituti bilan tuzilgan shartnomaga asosan, Angrendan Pop shahrigacha loyihalashtirilayotgan temir yo’l trassasida arxeologik razvedka (qidiruv) va tadqiqotlar olib bordi. Mazkur tadqiqotning maqsadi, Angren–Pop yangi temir yo’l trassasining qurilish zonasiga tushib qoladigan mavjud va yangi topilishi mumkin bo’lgan arxeologik yodgorliklarni o’rganishdan iborat edi. Olib boriladigan arxeologiya qidiruv va tadqiqotlar hududi katta hajmdaligi uchun loyihalashtirilayotgan trassa uchya uchastkaga bo’lindi. Qidruv tadqiqotlar davomida uchinchi uchastkada yemirilish zonasiga tushib qoladigan arxeologik yodgorliklar aniqlandi.

Qirqhujra qadimgi shahar xarobasi shunday yodgorliklardan biri bo’lib, u Namangan viloyati Pop shahrining janubiy-g’arbiy chegarasidan 300 m masofada joylashgan. Qirqhujra shahar xarobasi ilk bor arxeolog M. Isomiddinov tomonidan 1982-yilda arxeologiya merosi ob’yekti sifatida ro’yxatga olinadi (Isamiddinov M. X. 1982. – C. 21) va 1988-yilda antropolog Sh. Abilov tomonidan yodgorlik ustidagi qabrlar hamda antrpologik topilmalar tekshirilgan edi. Ammo, afsuski, uning tadqiqot materiallari hech qachon ilmiy jamoatchilikka ma’lum qilinmadi va chop etilmadi. Yodgorlik shimoliy-sharqdan janubiy-

g’arbga cho’zilgan bo’lib, uzunligi 400 m ni tashkil etadi. Saqlanib qolgan qismining eni 160 m. Shahar xarobasining koordinatlari – shimoliy-sharqiy nuqta: 40° 51′ 02,23″ N, 71° 06′ 54″ E. Janubiy-g’arbiy nuqta: 40° 50′ 51,65″ N, 71° 06′ 41,53″ E (A. A. Anarbayev., S. R. Baratov. 2013. – B. 21–24).

XX asrning 50-yillaridan keyingi davrda olib borilgan yer o’zlashtirish ishlari natijasida shahar xarobasi qismlarga bo’linib ketgan va uchta qoldiq joylar – shimoliy-sharqiy, markaziy hamda janubiy-g’arbiy tepalik ko’rinishida saqlanib qolgan. Shahar xarobasining shimoliy-sharqiy qismi 4 m gacha balandlikda saqlangan bo’lib, rejada tomonlari 40 m bo’lgan teng yonli uchburchak shakliga ega. Markaziy qismi rejada to’g’ri to’rtburchakka yaqin shaklli, o’lchamlari 220x120 m bo’lib, 8 m gacha balandlikda saqlangan. Janubiy-g’arbiy qismi o’lchamlari esa 160x50 m bo’lgan to’g’ri to’rtburchakka yaqin shaklga ega. Shahar xarobasining janubiy qismida ark saqlangan bo’lib, u shahar xarobasi ustidan 6 m ko’tarilib turadi, rejada deyarli kvadrat shaklga ega. Arkning asosi bo’yicha o’lchamlari – 45x45 m.

Tepalikning jarlik kesmasida shahar xarobasi va arkning fortifikatsiya inshootlari monumental qurilmaning qoldiqlari ko’zga tashlanadi. Tepaliklar oralig’ida eni 15 dan 40 m gacha bo’lgan, ekinzor uchun tekislangan yer maydonlari joylashgan. Hech shubha yo’qki, bugungi kunda saqlanib qolgan arxeologik yodgorlikning uchta qismi yaqin o’tmishda umumiy maydoni 6,4 ga bo’lgan yagona shahar xarobasining yaxlit qismlarini tashkil etgan. Shahar xarobasining arkdan tashqari barcha hududlari zamonaviy musulmon qabristoni bilan qoplangan.

Arxeologik kuzatuvlar natijasida shahar xarobasining barcha qismlari yuzasidan anchagina ko’p miqdorda sopol parchalari va ilk hamda so’nggi antik davrga (mil. avv. V asr – mil. IV asr) oid qayiqsimon don yorg’ichlarining (zernoterka) bir nechta qismlari to’plandi. Shahar xarobasi yuzasidan to’plangan sopol parchalari ikki xronologik davrni ifodalaydi.

Birinchisini yaxshi tindirilgan va sifatli, mayda hamda o’rtacha ezilgan dresva va kvars aralashmali xamirdan qo’lda yasalgan, yarim sferik shaklli qalin devorli kosalar hamda yirik qozonlarning parchalari tashkil etadi. Kosalarning yuzasi xuddi shunday rangdagi yaxshi tindirilgan loy bilan suvalgan. Tashqi devorchalari yaxshi silliqlangan va oson yuvilib ketuvchi to’q qizil rangli bo’yoq qoldiqlari saqlangan. Pishirish bir tekis – hunarmandchilik darajasida. Qozon bo’g’zining yuzasi cho’zinchoq, chuqur bo’lmagan keng qiya kertiklar

(nasechka) gorizontal qatori bilan bezatilgan. Bunday sopol Farg'ona vodiysida miloddan avvalgi IV–III asrlar davrida tarqalgan so'nggi Eylatan arxeologik majmualariga xosdir (A. A. Anarbayev., S. R. Baratov. 2013. – B. 21–24).

Ikkinchi davr sopol majmuasi kosalar va yirik tuvaklarda (gorshok) ifodalangan. Ushbu davrning barcha idishlari kulolchilik charxida, mayda ezilgan dresva aralashmali, a'lo darajada ishlov berilgan loydan yasalgan. Sopol qizil rangda bo'yalgan. Tashqi devorchalari a'lo sifatli, to'liq sayqallangan zich qizil angob bilan qoplangan. Rezervuarning yuqori qismida devorchalari siniq (peregib) bo'lgan yopiq shaklli kosalar mazkur idishlar guruhining Farg'ona vodiysida miloddan avvalgi II asrdan milodiy I asrgacha tarqalgan qo'g'ay-qorabuloq madaniyatining ilk bosqichlariga mansubligini ko'rsatadi. Idishning o'rta qismida siniq joyi bo'lgan kosalar majmuasi so'nggi antik davrning (mil. II–IV asrlar) arxeologik majmuasini ifodalaydi (13-rasm). Qayiqsimon shaklli don yorg'ichlari ham Qirqhujra shahar xarobasini antik davr bilan davrlashga asos bo'ladi (A. A. Anarbayev., S. R. Baratov. 2013. – B. 21–24).

Qirqhujra yodgorligida olib borilgan tadqiqotlar davomida shaharning mudofaa devorlari ham yaxshi o'rganildi, xususan, shahar arki va va ikkinchi shahristoni mudofaa qurilmalarida qirqim qilindi. Shahriston mudofaa devori qurilishida dastlab oddiy tuproq bilan baland tagkursi tayyorlanib, so'ngra ustidan paxsadan devor tiklanganligi kuzatilgan bo'lsa, ark mudofaa devori ancha murakkab tuzilishga ega. Chunki, Arkning mudofaa devori uchta qurilish davrida o'zgarib borgan.

Birinchi qurilish davrida ?x30x10 sm, 53x37x10 sm o'lchamdagi xom g'ishtlardan 5,3 m.dan yuqoriga tomon 5,1m.ga qisqarib borgan mudofaa devori qurilgan. Ikkinchi qurilish davrida esa xom g'ishtdan bunyod etilgan mudofaa devori ustki qismi tekislanib, paxsa bilan ta'mirlangan. Shuningdek, tashqi tomondan 2,7 m qalinlikdagi paxsa qobiq bilan kuchaytirilgan. Ichki tomondan ham xuddi shunday paxsa qobiq qilingan bo'lib, keyingi davrdagi qurilishlar natijasida uning qalinligini aniqlash imkoni bo'lmadi.

Ikkinchi qurilish davri devori ta'mirlashlari natijasidagi devor ustidagi qatlamdan 6 ta qo'lda tayyorlangan va 6 ta kulollik charxida tayyorlangan sopol namunalari olindi. Kulollik charxida tayyorlangan sopollar quyuq qizil angob bilan qoplangan bo'lib, silliqlanib yaltiratilgan. Qo'lda yasalgan sopollar yuzasi oqish quyuq massa bilan tekislangan bo'lib, birining yuzasiga rangda naqsh berilgan. Shuningdek, ayrimlarining ichki qismida matoning izlari ham kuzatiladi. Mazkur sopol namunalari manbalarda eramizdan avvalgi III–II asrlarga oid

Kugay-Qorabuloq madaniyatiga tegishli sopol namunalari bilan taqqoslandi (Gorbunova N. 1986. – C. 42; Anarbayev, 2013. – C. 75). Sopollar olingan qatlam ikkinchi qurilish davri ta’mirlashlari amalga oshirilgan davrda hosil bo’lganligini hisobga olsak, xom g’ishtlardan barpo etilgan devor undan qadimiy bo’lishi mumkin.

Uchinchi qurilish davrida shahar mudofaa tizimini mustahkamlash bo’yicha katta qurilish ishlari olib borilgan. Uchinchi qurilish davrida ikkinchi qurilish davrining paxsaqobig’i tashqi va ichki tomonidan yangi paxsa qobiq bilan kuchaytirilgan. Tashqi tomondan qo’shilgan paxsa devorning qalinligi 5,8 m bo’lsa, ichki mudofaa devori 4 m lik paxsa tagkursi ustiga 3,40 m lik qalinlikda barpo etilgan. So’ngra birinchi qurilish davrining xom g’ishtlardan tiklangan devori usti kesilib ichki yo’lakka aylantirilgan. Natijada, Afrosiyob yodgorligiga o’xshash ikki qatorlik mustahkam mudofaa devori shakllantirilgan. Avvalgi yillarda olib borilgan qazuv ishlari davomida mudofaa devorining tashqi tomonida hosil bo’lgan chuqurlikni devor tashqarisida barpo etiluvchi handak bo’lishi mumkinligi taxmin etilgan. Ammo, keyingi izlanishlar mazkur joyda shahar shahristoni va arkiga olib kiruvchi darvoza joylashganligini ko’rsatdi. Arkning mudofaa devori mazkur yo’lak bo’ylab barpo etilgan bo’lib, ark quyi maydoni burchagidagi 6x6 m o’lchamlardagi burj yoki donjonga borib tutashgan. Burj-donjon qalinligi 2,2 m bo’lgan paxsa platforma ustiga qurilgan va arkning mudofaa devoriga kelib tutashgan(Анарбаев А., Максудов Ф., 2016. – С. 89-113).

Qirqhujra yodgorligi mudofaa inshootlarini tahlil etadigan bo’lsak, Farg’ona vodiysi qadimiy mudofaa devorlari tuzilishiga oid bir qancha umumiy jihatlar ko’zga tashlanadi. Xususan, qalinligi 2,9–3 m bo’lgan Chust yodgorligi mudofaa devori shimoliy qanoti qurilishida 55-54x33-32x8-10 sm o’lchamdagi xom g’ishtlardan qurilgan (Sprishevskiy, 1972. – C. 227). Chust mudofaa devori tagkursisi ham shu o’lchamdagi xom g’ishtlardan terilgan. Chust madaniyatiga oid yana bir yodgorlik Dalvarzintepa yodgorligi arkining janubiy devori ham 55-53x27-38x 8–13 sm o’lchamdagi xom g’ishtlardan qurilganligi qayd etilgan (Zadneprovskiy, 1962. - C.11-49).

Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar ham yodgorlik mudofaa devori qurilishida xom g’ishtlardan keng foydalanilganligini tasdiqlagan. Jumladan, 4-qazishmada ochilgan mudofaa devori tuzilishi o’ziga xos bo’lib, devor sharqiy va g’arbiy tomondan tarkibida tartibsiz tarzda uchrovchi xom g’ishtlar bo’lgan paxsa

devordan qurilgan. So’ngra mualliflarning fikricha, ikkala qobiq o’rtasidagi joy zichlangan qatlamdan iborat bo’lgan. Uchinchi qurilish davriga kelib esa ilk devor yangi paxsa devori bilan kuchaytirilgan. Ushbu devor tuzlishini tahlil etadigan bo’lsak, Qirqhujra arki mudofaa devorining ikkinchi qurilish davridagi qurilishlarni eslatadi. Yodgorlik arki mudofaa devori birinchi qurilish davrida xom g’ishtlardan barpo etilib ikkinchi qurilish davrida ichki va tashqi tomondan paxsa qobiq bilan kuchaytirilgan. So’ngra, uchinchi qurilish davrida devor yanada kuchaytirilib ichki va tashqi tomondan yangi paxsa devor qilingan. Shunday qilib, Farg’ona vodiysi qadimgi manzilgoh va shaharlari mudofaa devorlari bilan taqqoslagan holda Qirqhujra arkining xom g’ishtlardan qilingan birinchi qurilish davriga oid mudofaa devori ham ancha qadimiy asoslarga ega bo’lganligini xulosa qilishimiz mumkin.

Keyingi davrda olib borilgan tadqiqotlar O’rta Osiyoda Zardushtiylik ibodatxonalarining shakllanishiga oid muhim ma’lumotlar berdi. Jumladan, Qirqhujra yodgorligida aniqlangan diniy-monumental kompleks bu borada dastlabki bosqich bo’lishi mumkin. Qirqhujra yodgorligi mutaxassislar tomonidan er. avv. VI–IV asrlar bilan davrlashtirilgan (A. A. Anarbayev., S. R. Baratov. 2015. – B. 89–112).

2013-yilda boshlangan arxeologik qazishma ishlari davomida mazkur yodgorlikda Farg’ona vodiysidagi eng qadimiy shahar markazlaridan biri ochilib, uning o’ziga xos mudofaa inshootlari, diniy-monumental inshootlari o’rganildi. Bu inshoot shaharning 2-shahriston hududida joylashgan. 2-shahriston hududining katta qismi bahor faslida Olmossoyning toshqinlari bois yuvilib ketgan bo’lsada, markaziy qismi yaxshi saqlangan (A. A. Anarbayev., S. R. Baratov. 2015. – B. 102). Mazkur markaziy qismda baland tepalik joylashib, arxeologik qazish ishlari davomida bu yerda monumental inshoot qoldiqlari aniqlangan. Inshoot ochiq holatda bo’lib, yonlari paxsadan, pog’ona-pog’ona shaklida mustahkamlangan. Bu o’z navbatida zikkurat ko’rinishidagi diniy-monumental inshoot degan xulosaga kelishga imkon beradi (A. A. Anarbayev., S. R. Baratov. 2015. – B. 104). Inshootning yuza qismi qalin paxsa quyish orqali tekislangan. Ibodatxonaga chiqish joyi sharqiy tomonda joylashgan. Paxsa yuza ustida kengligi, 44x25 sm (2) va 54x26 sm (2) o’lchamdagi to’rtburchaksimon, ichki va yon qismlari loy bilan suvalgan 4 ta otashgohlar qurilgan. Otashgohlarni yonida maydo shag’al toshlarda maxsus joy yasalgan. Otashgohlar bir necha yillar davomida foydalanilgan bo’lib, ishdan chiqqanlari loy bilan yopilib, yangilari

yasalgan. Bu kabi otashgohlardan 4 ta topilib, barchasining ichki qismi kullardan tozalangan bo'lib, ular er. avv. I asrlar bilan davrlashtirilgan.

Otashgohlardan g'arbda 2,40x2,30 o'lchamdagi, chuqarligi 1,30 m ga yetuvchi maxsus o'ra joylashgan bo'lib, ichki qismi toza kul va turli chiqindilar bilan to'ldirilgan. Kul o'raning yuqori qismida sopol siniqlari, hayvon suyaklari va qandaydir amallarda foydalanilgan bug'u shoxlari ham yig'ib olindi. Sopollarning asosiy qismi qo'lda tayyorlangan bo'lib, ichki qismida mato izlari ham uchraydi. Sopollar jamlanmasining tahlili ularni er. avv. II–I asrlar bilan davrlashtirish imkonini bergan (A. A. Anarbayev., S. R. Baratov. 2015. – B. 103). Yuqoridagi bug'u shoxi uzunligi 25 sm bo'lib, dimetri 5 sm yuqori va pastgi qismlari o'tkir tig'li qurol yordamida kesib tekislangan. Arxeologik qazish ishlarining dastlabki davridayoq mazkur inshoot qandaydir diniy amallar bilan bog'liq ekanligi haqidagi xulosalarga kelingan.

Bu kabi ochiq baland joyga qurilgan diniy inshootlar O'rta Osiyo hududida bir necha yodgorliklarda o'rganilgan. Jumladan, Shimoliy Baqtriyada Pshaktepa, Pachmaktepa, Xorazm vohasidagi Ko'zaliqir yodgorliklarida Yerqo'rg'onda ham ochiq joyda baland tagkursi ustida muqaddas olov yonib turgan inshoot mavjud bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor (Suleymanov R. X. 2000. – C. 255–263). Mazkur masalaga yanada oydinlik kiritish maqsadida Qirqhujra yodgorligida ochilgan monumental inshootning materiallari qayta ishlandi, shuningdek, yuqoridagi manbalar va M. Boys tadqiqotlari ma'lumotlari bilan taqqoslab ko'rildi. Natijada, mazkur o'ziga xos inshoot zardushtiylik e'tiqodiga oid ibodat o'tkaziluvchi joy bo'lishi mumkinligi aniqlashdi. Inshootning yodgorlik markazida joylashib, unga chiqish quyosh chiqish tomondaligi, paxsa tagkursi yuzasida otashgohlarning mavjudligi, shuningdek, kul saqlash uchun maxsus o'ra qilinganligi mazkur fikrimizni asoslashi mumkin. Ushbu xususiyatlar M. Boys ta'kidlaganidek, zardushtiylarning ochiq osmon ostidagi baland joyga qilingan dastlabki diniy amallar bajariluvchi joyga mos keladi (Boys M. 1987. – C. 80).

Qirqhujra diniy inshootida qayd etilgan diniy inshootning baland tagkursi ustida joylashuvi, unga chiqishning sharqiy tomondanligi, kul saqlash o'rasi kabi qurilish qismlari keyingi davrda rivojlanib o'zgarib borsada, o'zining asosiy vazifasini yo'qotmagan. Mazkur an'anlarning o'zgarmasdan qo'llanib kelinishini O'rta Osiyo hududida ochilgan shahar va shahar tashqarisidagi bir qancha ibodatxonalarda ko'ramiz. Jumladan, shaharda joylashgan Panjikent, Yerqo'rg'on, Poykend, Jartepa, Rabinjon ibodatxonalari ham baland tagkursi

ustiga barpo etilgan. Nisbatan qadimiyroq bo'lgan Yerqo'rg'on ibodatxonasining markaziy qismi xom g'ishtlardan qilingan tagkursi ustida bo'lsa, Xontepa, Poykend, Panjikent (birinchi ibodatxona) ibodatxonalari tagkursilari paxsa va paxsa bloklardan barpo etilgan (Suleymanov R. X. 2000. – C. 255–263).

Panjikent ikkinchi ibodatxonasi tagkursisi o'ziga xos bo'lib, dastlab xom g'ishtlardan devor terilib, so'ngra oraliq shag'al aralashtirilgan tuproq bilan to'ldirilgan. "Otashi Aduran" va "Otashi Varaxran" alohida ajralgan Panjikent ibodatxonalari yirik shaharlardagi ibodatxonalarning mukammal ko'rinishi deyish mumkin. Yirik shaharlardan tashqarida joylashgan Jartepa, Qizlartepa, Chilonzor Oqtepasi, Xontepa ibodatxonalarida ham bunday an'analar namoyon bo'ladi. Ya'ni, ularning barchasi paxsdan qurilgan tagkursilar ustida joylashgan, biroq ularning barchasida kul saqlash uchun mo'ljallangan maxsus o'ralar bugungacha aniqlanmagan yoki mavjud bo'lmagan. Faqatgina Yerqo'rg'on ibodatxonasining g'arbida maxsus joyga kul tashlanib yuzasi suvab kelingan (Suleymanov R. X. 2000. – C. 255–263).

Shahar xarobasi ilk shahar tuzilmasiga xos barcha belgilarga ark mustahkamlangan shahriston va ibodatxonasiga ega. Bugungi kunda Qirqhujra shahar xarobasi butun shimoliy Farg'ona mintaqasidagi ilk shahar tipidagi eng qadimgi yodgorliklardan biri hisoblanadi. Qirqxujra shahar xarobasi Farg'ona vodiysida ilk urbanizatsiya jarayonlarini va davlatchilikning shakllanishi hamda rivojlanish boqichlarini o'rganish uchun katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Анарбаев А. Ахсикет - столица древний Ферганы. – Ташкент, 2013. – С 75.

2. Анарбаев А. А., Баратов С. Р, Буряков Ю. Ф., Вульферт Э. Археологическая разведка и исследования по железнодорожной трассе Ангрен – Пап // Археологические исследовании в Узбекистане. 2012 год. Вып. 9. – Самарканд, 2013. – С. 21–24.

3. Анарбаев А. А., Баратов С. Р., Саидов М. М., Кубаев С. Ш., Насриддинов Ш. Н. Археологические исследования городища Чильхуджра в 2013 году // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар. – Самарканд, 2015. – №10. – С. 89–112.

4. Анарбаев А., Максудов Ф., Кубаев С., Насритдинов Ш. Чильхуджра (Кыркхуджра) – руины древнего города Северо-Западной Ферганы // ИМКУ. Вып. 39. – Самарканд, 2016. – С. 89–113.

5. Gorbunova N. G. The Culture of Ancient Ferghana. VI century B.C. –

VI century A. D., 1986. – C. 42.

6. Заднепровский Ю. А. Древнеземледельческая культура Ферганы // Материалы и исследования по археологии СССР. – Москва: АН, 1962. – №118. – С. 11–49.

7. Корженков А. М., Усманова М. Т., Захидов Т. К., Максудов Ф. А., Саидов М. М., Кубаев С. Ш., Насриддинов Ш. Сейсмические деформации в древнем поселении Кыркхуджра, расположенном на великом шелковом пути в папском районе Узбекистана // Земля и вселенная. – 2020. – №6. – С. 37–59.

8. Спришевский В. И. Оборонительные сооружэние эпохи бронзы на территории Узбекистана. // СА. – 1972. – №3. – С. 227.

9. Бойс М. Зороастрийцы. Верования и обычаи. – М.: Наука, 1987. – С. 80.

10. Сулейманов Р. Х. Древний Нахшаб. – Ташкент, 2000. – С. 255–263.

11. Исамиддинов М. Х. Материалы к своду археологических памятников Наманганской области / Архив Института археологии АН РУз. Фонд 8. Опись 1. Дело 91. – Самарканд, 1982. – С. 21.

XIX ASRNING OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA XIVA XONLIGIDA MENNONIT NEMISLARI: MIGRATSIYA SABABLARI VA JOYLASHUV BOSQICHLARI

Mohira Saparboy qizi Abdullayeva,
Xorazm Ma'mun Akademiyasi Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'limi kichik ilmiy xodimi
mokhiraabdullayeva1998@gmail.com
https://orcid.org/0009-0002-7092-1940

UO'K 94(575.1)

ANNOTATSIYA: *Mazkur tadqiqotda XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida diniy e'tiqod tamoyillari sababli Niderlandiya, Prussiya hamda Rossiya imperiyasi hududlaridan muhojirlik yo'lini bosib o'tgan mennonit nemislarining Xiva xonligiga ko'chib kelish sabablari va ularning Xorazm vohasidagi ko'p bosqichli joylashuv jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqot Xerman Yantsenning memuar asari, Rossiya imperiyasining statistik tavsiflari va arxiv hujjatlari asosida olib borilgan. Maqolada 1874-yildagi umumiy harbiy majburiyat islohotining mennonitlar e'tiqodi bilan ziddiyati, Turkiston o'lkasining harbiy xizmatdan ozod etilgan alohida ma'muriy maqomi, Turkiston general-gubernatorligi va Xiva xonligi (Muhammad Rahimxon II) o'rtasidagi diplomatik kelishuvlar atroflicha yoritilgan. Shuningdek, mennonitlarning Toshkent va Buxoro yo'nalishlari orqali kirib kelishi, Lavzon kanali bo'yidagi (Qipchoq) dastlabki xavfsizlik muammolari va ularning yakuniy bosqichda Chiqirchi (Oqmachit)ga yerlashuvi, ushbu jarayonning Xiva xonligining ijtimoiy-iqtisodiy va etno-madaniy hayotidagi o'rni ilmiy jihatdan o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *mennonit nemislari, Xiva xonligi, Turkiston, Oqmachit, Klass Epp, Xerman Yantsen, Muhammad Rahimxon II, diniy migratsiya, arxiv hujjatlari.*

Аннотация: *В данном исследовании на основе мемуарного наследия Германа Янцена, статистических описаний и архивных документов анализируются причины миграции и этапность расселения немцев-меннонитов в Хивинском ханстве в конце XIX – начале XX века. Основным*

мотивом последовательного переселения данной группы из Нидерландов, Пруссии и Российской империи явились их религиозные убеждения. В статье комплексно рассматриваются конфликт религиозной доктрины меннонитов с реформой всеобщей воинской повинности 1874 года в России, особый административный статус Туркестанского края, освобожденного от призыва, а также дипломатические договоренности между Туркестанским генерал-губернаторством и хивинским ханом Мухаммадам Рахим-ханом II. Восстановлена хронология движения общины через Ташкент и Бухару, охарактеризованы проблемы безопасности на первоначальном этапе расселения у канала Левзон (Кыпчак) и их окончательный переезд в Чикырчи (Ак-Мечеть). Научно изучена роль данного процесса в социально-экономической и этнокультурной жизни Хивинского ханства.

Ключевые слова: *немцы-меннониты, Хивинское ханство, Туркестан, Ак-Мечеть, Клаасс Эпп, Герман Янцен, Мухаммад Рахим-хан II, религиозная миграция, архивные документы.*

Abstract: *Based on the memoir heritage of Hermann Jantzen, statistical descriptions, and archival documents, this study examines the migration causes and multi-stage settlement processes of Mennonite Germans in the Khanate of Khiva during the late 19th and early 20th centuries. Driven by their religious principles, the Mennonites underwent successive migrations from the Netherlands, Prussia, and the Russian Empire. The article provides a thorough analysis of the conflict between the 1874 Universal Military Conscription Reform and the Mennonite faith, the exempted administrative status of Turkestan, and the diplomatic negotiations between the Governor-Generalship of Turkestan and Muhammad Rahim Khan II of Khiva. Furthermore, it reconstructs the migration routes via Tashkent and Bukhara, details the security challenges encountered at the initial settlement along the Lauzan Canal (Qipchoq), and evaluates their final relocation to Chiqirchi (Ak-Mechet), scientifically analyzing the impact of this process on the socio-economic and ethno-cultural life of the Khanate of Khiva.*

Keywords: *Mennonite Germans, Khanate of Khiva, Turkestan, Ak-Mechet, Claas Epp Jr., Hermann Jantzen, Muhammad Rahim Khan II, religious migration, archival documents.*

KIRISH

Xorazm vohasining ko‘p asrlik tarixida turli elat va dinga mansub xalqlarning o‘zaro tinch-totuv yashab kelgani uning diniy bag‘rikenglik an’analaridan dalolat beradi [7]. Shunday noyob tarixdan biri – XIX asrning

so‘nggi choragida Xiva xonligi hududida panoh topgan mennonit nemislarining tarixidir [1, 7]. Ular diniy e’tiqodlari tufayli avval Niderlandiyadan Prussiyaga, so‘ng Prussiyadan Chor Rossiyasiga, undan esa O‘rta Osiyoga – Xiva xonligiga qadar uzoq va mashaqqatli muhojirlik yo‘lini bosib o‘tganlar [1].

Ushbu muhojirlik jarayonining sabablari va bosqichlarini o‘rganish nafaqat Xorazm tarixining bir qirrasini, balki XIX asr oxirida Rossiya imperiyasining diniy ozchiliklarga nisbatan yuritgan siyosati va Turkistondagi mustamlakachilik tizimining o‘ziga xos jihatlarini ham ochib beradi [3].

TADQIQOT USULLARI

Mazkur tadqiqotda tarixiylik, qiyosiy-tarixiy tahlil, xronologik va manbashunoslik usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning manba tashkil etuvchi asosiy negizini Xerman Yantsenning “Xavf-xatarli Turkistonda: musulmonlar orasidagi hayot” nomli memuar asari [1], O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi (O‘zR MDA) [3] va Xorazm viloyat davlat arxivi [5] jamg‘armalaridagi rasmiy hujjatlar, shuningdek, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida tuzilgan harbiy-statistik tavsiflar [2, 4] tashkil etadi. Matnlar ustida ishlashda manbalarning xolisligi va qiyosiy ishonchliligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratildi.

NATIJALAR

Nemis mennonitlarining dastlabki ko‘chib kelishlariga mennonitlik mazhabi asoschisi Niderlandiyaning Vitmarsum shahridan bo‘lgan faylasuf va dinshunos Menno Simons (1496–1561) xristian dinini isloh qilib, o‘z ta’limotini yaratgan. Uning ta’limotiga ko‘ra, qo‘lga qurol olish, urushlarda qatnashish va umuman yovuzlikka kuch bilan qarshilik ko‘rsatish og‘ir gunoh hisoblangan [1]. Aynan shu e’tiqod sababli Niderlandiyada mennonitlar quvg‘inga uchragach, XVI asr o‘rtalarida Prussiyaga ko‘chib o‘tishdi. Xristian dinining anabaptizm oqimidan XVI asrda ajralib chiqqan ushbu protestantlik oqimidagi Germaniya (Prussiya)ning Marienburg shahridan bo‘lgan nemislar “mennonit nemislari” deb atala boshlangan [1, 7]. Demak, mennonitlarning dastlabki ko‘chib kelish jarayoni diniy e’tiqod va turli ta’qiblar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning Niderlandiyadan Prussiyaga migratsiyasi alohida diniy jamoa sifatida shakllanishiga zamin yaratdi. Mazkur jarayon keyinchalik nemis mennonitlarining Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyoga yo‘nalgan migratsiya harakatlari uchun tarixiy asos vazifasini o‘tadi.

XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida Prussiya hukumatining urushga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida mennonit nemislarini ham harbiy xizmatga jalb qilishga urinishi natijasida ular Marienburgni tark etishga majbur bo‘ldilar.

Rossiya imperatoriga yo‘llangan murojaatlar ijobiy hal bo‘lgach, mennonit nemislari XIX asrning 60-yillarida Volga bo‘ylariga joylashib, o‘zlarining nemis qishloqlarini barpo etdilar [1]. Bu paytga kelib Rossiya hududiga nemislarning ommaviy ko‘chib kelishi Yekaterina II (1729–1796) podsholigi davridan boshlangandi. 1763-yil 22-iyulda e’lon qilingan maxsus manifest asosida xorijliklarning Rossiyaga ko‘chib kelishi rasmiylashtirilib, ularga soliqdan o‘n yillik ozodlik va har bir xonadonga 30 desyatinadan yer mulk tarzida berilgan [1].

Biroq, mennonit nemislarining Rossiyadagi nisbatan barqaror hayoti 1874-yilda buzildi: o‘sha yili mamlakatdagi barcha dindagi erkaklarni harbiy xizmatga jalb qilish to‘g‘risida qonun qabul qilindi va u 1880-yildan kuchga kirishi belgilandi [1]. Bu qaror mennonit nemislarining diniy e’tiqodiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri zid edi. Shu bois 1874–1880-yillar davomida ularning vakillari bir necha bor Peterburgga – podsho huzuriga borib, harbiy xizmatdan ozod qilishni so‘rashdi, lekin iltimoslari rad etildi [1]. Shu jihatlatni inobatga olib, Prussiya va keyinchalik Rossiya imperiyasida harbiy xizmatni majburiy joriy etish mennonit nemislarining diniy e’tiqodi bilan keskin ziddiyatga kirdi. Natijada ular avval Prussiyani tark etib Rossiyaga ko‘chishga, XIX asrning ikkinchi yarmida esa Rossiya hududini ham tark etish yo‘llarini izlashga majbur bo‘ldilar. Mazkur jarayon mennonitlar migratsiyasining asosiy omillaridan biri bo‘lib, ularning keyinchalik Markaziy Osiyo, jumladan Xiva xonligiga ko‘chib kelishiga tarixiy zamin yaratdi.

Ayni shu davrda Turkiston o‘lkasida boshqacha manzara kuzatilardi. Imperatorning maxfiy maslahatchisi F.Girs Turkistonni taftish qilib, o‘lkada 2 406 000 kishi, shulardan 1 200 000 nafari erkaklar yashashini aniqlagan va ularni harbiy xizmatga jalb qilish siyosiy jihatdan xatarli ekanini ta’kidlagan edi – chunki bunday holda olti yil ichida harbiy texnikani yaxshi egallagan jangovar kuch vujudga kelib, bu Rossiyaning Turkistondagi hukmronligiga putur yetkazishi mumkin edi [3]. Shu bois Turkiston aholisini harbiy xizmatdan ozod qilish to‘g‘risida alohida qaror qabul qilindi. Aynan Turkistonning bu imtiyozli maqomi keyinchalik mennonit nemislarini ana shu hududga ko‘chishga undagan asosiy omillardan biriga aylandi [1, 3]. Turkiston o‘lkasi aholisining harbiy xizmatdan ozod etilishi bu hududni mennonit nemislari uchun diniy e’tiqodlariga

mos va xavfsiz yashash maskaniga aylantirdi. Natijada mazkur imtiyoz mennonitlarning Rossiya imperiyasi hududida yangi istiqomat joyini tanlashida muhim omil bo‘lib, ularning Turkistonga ko‘chib kelish jarayoniga tarixiy asos yaratdi.

Harbiy xizmatdan ozod qilinishni istagan, biroq bunga erisha olmagan mennonit nemislari orasida ikki xil yo‘nalish vujudga keldi: badavlatroq oilalar Kanadaga ko‘chishni afzal ko‘rdilar, kambag‘alroq qatlam esa Turkiston tomon yo‘l olishni ma’qul topdi . Shu jarayonda mennonitlar orasida katta mavqega ega bo‘lgan Yantsen Turkiston general-gubernatori fon Kaufman bilan tanishib qoldi [1]. Asli ruslashib ketgan nemis zodagoni oilasiga mansub bo‘lgan fon Kaufman millatdoshlarining tashvishini yengillashtirishga urinib, Yantsenga Turkistonga ko‘chib borishni taklif qildi hamda 25 yil davomida harbiy xizmatdan ozod qilishga va’da berdi [1]. Ushbu taklif mennonit nemislari tomonidan 1879-yilda samimiy qabul qilindi .

1880-yili Samara guberniyasidan Turkiston tomon 18 aravadan iborat kambag‘alroq mennonit nemislari karvoni yo‘lga chiqdi. 10 nafar oila a’zolaridan tashkil topgan ushbu karvon 18-oktabrda Toshkent yaqinidagi Qoplonbekka joylashdi. Oradan biroz vaqt o‘tib, bu yerga yana 92 oiladan iborat mennonit nemislari ko‘chib keldi. Bir guruh nemislar esa Buxoro amirligiga qarashli Ziyrabuloqdan panoh topdi. Shunday qilib, mennonitlarning O‘rta Osiyoga ko‘chishi ikki yo‘nalishda – Toshkent va Buxoro orqali amalga oshdi [1]. Rossiya imperiyasida harbiy xizmat masalasining hal etilmaganligi mennonit nemislarining migratsiyasini yangi bosqichga olib chiqdi. Fon Kaufman tomonidan berilgan imtiyozlar natijasida ularning kambag‘al qismi Turkistonga ko‘chishni tanladi. Natijada 1880-yildan boshlab mennonitlarning O‘rta Osiyoga ko‘chishi Toshkent va Buxoro yo‘nalishlari orqali amalga oshib, mintaqadagi ilk mennonit aholi manzilgohlariga asos solindi.

Xiva xonligi hududiga ko‘chish tashabbusi Samarqandda xizmat qilayotgan chor generali Dreshdan kelib chiqqan [1,7]. U Yantsenga yo‘llagan xatida Petro-Aleksandrovskdagi (hozirgi To‘rtko‘l) general fon Grottenhelmning Xiva xoni Muhammad Rahimxon II bilan mennonit nemislarining Xiva xonligida yashashi masalasida olib borgan suhbatini bayon etgan va xon taklifga rozi bo‘lganini ma’lum qilgan edi [1, 5]. Shundan so‘ng mennonitlar Yantsen, Riezen va Epp ismli vakillardan iborat delegatsiyani muzokara uchun yo‘llashdi. Ular Petro-Aleksandrovsk orqali Xivagacha 100 chaqirimlik mashaqqatli yo‘lni bosib

o‘tdilar: avval Amudaryodan qayiqda suzib, so‘ng 40 chaqirimcha otda yurib Xivaga yetib keldilar [1].

Xon vakillarni do‘stona qabul qilib, nemislarning Xorazmga kelishiga rozi bo‘ldi, faqat cho‘chqa boqmaslikni shart qilib qo‘ydi [1, 6]. Nemislarning yashash joyi sifatda daryoning 160 chaqirim quyi qismidagi, kemalar yuradigan Lavzon kanali bo‘ylari (hozirgi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Amudaryo tumanidagi Qipchoq qishlog‘i) ajratib berildi [1, 5]. Shunday qilib, mennonit nemislarining Xiva xonligiga ko‘chib kelishi ikki tomonlama kelishuv va o‘zaro manfaatlar uyg‘unligi asosida amalga oshirilgan migratsion jarayon hisoblanadi. Muhammad Rahimxon II tomonidan yashash hududining ajratilishi mennonitlarning Xorazmda doimiy yashashiga imkon yaratib, ularning keyingi iqtisodiy va ijtimoiy faoliyati rivojlanishining muhim omiliga aylandi.

Ko‘chish jarayonining o‘zi g‘oyat mashaqqatli kechdi. Oltmish oiladan iborat aravalar karvoni Zarafshonning quyilish qismigacha yetib borib, u yerdan yuklari 450 ta tuyaga ortilib, Xorazm sari yo‘l davom ettirildi. Ushbu yo‘l mashaqqatlari haqida Xerman Yantsen o‘zining “Xavf-xatarli Turkistonda” asarida quyoshning chidab bo‘lmas issig‘i, suv tanqisligi va tuya ustidagi tebranish tufayli ayollar va bolalarning chekkan azoblari haqida batafsil yozib qoldirgan [1]. Karvon Buxoro amirligiga qarashli Iliqiq degi joyga yetib kelgach, ularni to‘qqiz yelkanli qayiqda xivaliklar kutib turgan va o‘n kun davomida daryo oqimi bo‘ylab suzib, Petro-Aleksandrovskka yetkazilgan [1]. Mennonit nemislarining Xiva xonligiga ko‘chib kelishi og‘ir tabiiy-geografik sharoit va murakkab transport yo‘llari bilan kechgan. Biroq barcha qiyinchiliklarga qaramay, ular Xorazmga muvaffaqiyatli yetib kelishga muvaffaq bo‘lib, bu jarayon ularning yangi hududda doimiy istiqomat qilish yo‘lidagi muhim bosqichni tashkil etdi.

Petro-Aleksandrovskda general fon Grottenhelm oilasi bilan mennonitlarni samimiy kutib olgan, nemis tilida o‘tgan suhbat chog‘ida ularga Lavzon kanali bo‘yidagi qarorgoh uchun kerakli qurilish ashyolarini (eshik, deraza va boshqa buyumlarni) xarid qilish maslahat berilgan. Shundan so‘ng oilalar yana yelkanli qayiqlarga joylashib, 160 chaqirimlik masofani bosib o‘tib, nihoyat Lavzon kanali bo‘yiga – Qipchoq qishlog‘iga yetib kelishdi [1,7].

Mennonit nemislari Lavzon kanali bo‘yida damba ortidagi yerlarni tozalab, yerto‘lalar qurishga kirishdilar, otxonalar barpo etishda mahalliy o‘zbeklardan yordam oldilar. O‘zbeklar ularga oziq-ovqat mahsulotlarini arzon narxda sotib,

dastlabki munosabatlar iliq boshlangandi . 1883-yil qishi nemislar uchun nisbatan osoyishta o‘tdi, bahorda esa baland tepalikka turar joylar qurib, atrofi devor bilan o‘raldi. Biroq nemislarni qo‘riqlab turgan chor armiyasining zobitlari ularni joylashib oldi deya Petro-Aleksandrovskka qaytib ketgach, ahvol o‘zgardi: nemislardan besh chaqirim uzoqlikda joylashgan yovmut turkmanlari tez-tez ularning atrofida paydo bo‘la boshladi va o‘g‘irlik hamda zoravonlik holatlari sodir bo‘ldi [1, 2]. Mennonitlarning diniy e’tiqodiga ko‘ra qurol ushlash umuman mumkin emasdi, shu bois ular yoshlarning o‘zini himoya qilish uchun nayza yasashga urinishini ham keksalar qat’iyan man etishdi. Og‘ir ahvolga tushib qolgan yigirma ta oila hatto Xiva xonligidagi panohdan voz kechib, Amerikaga ketishga tayyorgarlik ko‘ra boshlagan edi [1].

Ayni shunday tahlikali kunlarning birida Qipchoq qishlog‘i atrofida ov qilayotgan kazak zobiti orqali xabar Xiva xonligiga yetkazildi va vazir Qosim Devon boshchiligidagi askarlar mennonitlar huzuriga yuborildi [5]. Nemis ustalari yasagan hunarmandchilik buyumlarini ko‘rgan Qosim Devon ularni xonning akasiga qarashli Oqmachit bog‘iga ko‘chirishni taklif qildi [6]. Yovmutlar hujumidan xotirjamligini yo‘qotgan nemis ustalari bu taklifni bajonidil qabul qildilar [1]. Ushbu jihatlar, mennonit nemislarining Qipchoq qishlog‘idagi dastlabki istiqomati kutilgan natijani bermadi. Xavfsizlik bilan bog‘liq muammolar hamda ularning diniy tamoyillari mavjud sharoitda barqaror yashash imkoniyatini chekladi. Shu sababli Xiva xonligi ma’muriyatining tashabbusi bilan Oqmachit bog‘iga ko‘chirilishi mennonitlarning Xorazmda barqaror joylashuvi va keyingi ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatini ta’minlagan muhim bosqich bo‘ldi.

Shunday qilib, 1883-yilda Xiva shahridan 15 chaqirim janubi-sharqda joylashgan Chiqirchi qishlog‘iga Lavzon kanali bo‘yidan nemislarning ko‘chishi boshlandi [4]. Ko‘chish jarayoni ikki hafta davom etdi, katta g‘ildirakli yuzlab aravalarda nemislarning barcha yuklari – hatto yog‘och va qamishlargacha – olib kelindi [1]. 1880-yildan boshlab mennonitlarning Medemtal, Valdexim, Molotschna nomli guruhlari dastlab Toshkent, keyin Buxoro, undan so‘nggina Chiqirchiga kelib o‘rnashgani ma’lum [1, 7]. Mennonitlarning yo‘lboshchilaridan Emil Rayson Feruz (Muhammad Rahimxon II) bilan uchrashib, o‘zlariga alohida qishloq ajratib berishni iltimos qildi va xon ularga faqat cho‘chqa boqmaslik sharti bilan Chiqirchi qishlog‘idan yer ajratib berdi [1, 6]. Demak, Chiqirchi qishlog‘iga ko‘chish mennonit nemislarining Xiva xonligidagi migratsiya jarayonining yakuniy bosqichini ifodalaydi. Xon tomonidan yer ajratilishi ularning hududda

mustaqil qishloq barpo etishiga imkon yaratib, mennonitlarning Xorazmning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga barqaror aralashuvi uchun zarur shart-sharoitlarni ta’minladi.

Natijada, 1884-yil 16-aprelda Klass Epp, Emil Rayson, Vilgelm Penner, Jakob Janatzen va Michel Klassen boshchiligidagi oqsoqollardan iborat 34 oila Chiqirchi qishlog‘iga kelib o‘rnashdi [5]. Klass Epp (1838–1913) bu manzilning o‘ziga xos shaharchasiga asos solib, diniy marosimlar uchun cherkov qurdirgan, cherkov esa mahalliy aholi tomonidan “Oqmachit” deb atalgan va bu nom vaqt o‘tib butun qishloqning nomiga aylangan [1, 6, 7].

MUHOKAMA

Mennonit nemislarining Xiva xonligiga ko‘chib kelishi bir necha muhim omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, ularning pasifistik e’tiqodiy tamoyillari Rossiya imperiyasining 1874-yildagi umumiy harbiy majburiyat to‘g‘risidagi islohoti bilan murosasiz ziddiyatga keldi [1]. Ikkinchidan, Turkiston o‘lkasidagi tub aholining harbiy xizmatdan ozod etilganligi va mintaqaning favqulodda ma’muriy maqomi mennonitlar uchun o‘z diniy prinsiplarini saqlab qolish imkonini berdi [3].

Xiva xoni Muhammad Rahimxon II ning ushbu jamoani o‘z hududiga qabul qilishi va ularga imtiyozli shart-sharoitlar yaratib berishi xonlikning iqtisodiy va texnologik rivojlanishga bo‘lgan qiziqishini hamda an’anaviy diniy bag‘rikengligini ko‘rsatadi [5, 6]. Lavzon kanalidan Oqmachitga ko‘chirilish esa shunchaki ma’muriy qaror bo‘lmay, balki jamoaning xavfsizligini ta’minlash hamda ularning hunarmandchilik va dehqonchilik salohiyatidan xonlik markaziga yaqin hududda samarali foydalanish strategiyasining natijasidir [1, 4]. Shunday qilib, mennonit nemislarining Xiva xonligiga ko‘chib kelishi diniy, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillar o‘zaro ta’siri natijasida shakllangan migratsion jarayon bo‘lib, u Xiva xonligining XIX asr oxiridagi ichki siyosati va xo‘jalik rivojlanishining muhim yo‘nalishlaridan birini namoyon etadi. Xonlik ma’muriyati tomonidan yaratilgan huquqiy va tashkiliy sharoitlar mennonitlarning mintaqada barqaror istiqomat qilishi, ularning ishlab chiqarish tajribasi va hunarmandchilik salohiyatidan samarali foydalanilishiga zamin yaratdi. Mazkur holat Xiva xonligining iqtisodiy manfaatlarni ko‘zlagan boshqaruv siyosati hamda diniy bag‘rikenglik an’analarining amaliy ifodasi sifatida e’tirof etilishi mumkin.

XULOSA

Tadqiqot natijalari mennonit nemislarining XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligiga ko‘chib kelishi diniy, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllangan ko‘p bosqichli migratsion jarayon ekanligini ko‘rsatdi. Rossiya imperiyasida 1874-yilda umumiy harbiy majburiyatning joriy etilishi mennonitlarning diniy e’tiqodi bilan murosasiz ziddiyatga kirishgan bo‘lsa, Turkiston o‘lkasining harbiy xizmatdan ozod etilgan maxsus ma’muriy maqomi hamda Rossiya imperiyasi ma’muriyati vakillari va Xiva xoni Muhammad Rahimxon II o‘rtasida erishilgan kelishuvlar ularning Xiva xonligi hududiga ko‘chib kelishining asosiy siyosiy-huquqiy omillarini tashkil etdi.

Tadqiqot davomida mennonitlarning Xiva xonligiga ko‘chib kelishi bir necha izchil bosqichlarda kechgani aniqlandi. Dastlab ular Turkiston orqali Lavzon kanali bo‘yiga joylashtirilgan bo‘lsa, xavfsizlik bilan bog‘liq vaziyatning murakkablashuvi natijasida Oqmachitga ko‘chirildi. Natijada Oqmachit Xorazmdagi mennonit jamoasining asosiy manzilgohiga aylanishi bilan birga, ularning dehqonchilik, hunarmandchilik va texnologik tajribasini mahalliy xo‘jalik tizimiga tatbiq etish imkonini bergan markaz sifatida shakllandi.

Umuman olganda, mennonit nemislarining Xiva xonligiga ko‘chib kelishi diniy migratsiyaning o‘ziga xos namunasi bo‘lib, u Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati, Xiva xonligining boshqaruv yondashuvi va mintaqadagi diniy bag‘rikenglik an’analarining o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida yuzaga kelgan tarixiy jarayonni aks ettiradi. Mazkur tadqiqot natijalari XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xorazm vohasining etno tarkibi, migratsion jarayonlari hamda Xiva xonligining ichki siyosati va xo‘jalik taraqqiyotini yoritishda yangi ilmiy xulosalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Янтцен Х. Хавф-хатарли Туркистонда: мусулмонлар орасидаги ҳаёт. – Швейцария: “Bruennen” нашриёти, 1988 (немис тилида).

2. Гиршфельд В., Галкин М.Н. Военно-статистическое описание Хивинского оазиса. – Т., 1912.

3. Ликошин Н.С. О современном состоянии Хивинского ханства // ЦГА РУз, ф. 2, оп. 1, д. 314, л. 48.

4. Галкин М.Н. Военно-статическое описание Хивинского оазиса. – Т., 1903.

5. Хоразм вилоят давлат архиви, Ф. №69, оп. №1, д-322.

6. Жуманиёзов Ж. Изланишлари // “Хоразм ёшлари” газетаси, 2009 йил 19 июн.

7. Бекмуҳаммад, У.Хоразмда яшаган немислар: тарихий рисола/ У. Бекмуҳаммад. – Урганч: Хоразм нашриёти, 2019. – 5-22 б.

1945–1991-YILLARDA XORAZM VILOYATIDA ILM-FAN SOHASIDAGI O‘ZGARISHLAR

Razzoqov Sardor Kenjaboy o‘g‘li,
Urganch davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
E-mail: sardorrazzoqov490@gmail.com
ORCID: 0009-0006-7055-6268

UO‘K 94(575.1)

Annotatsiya *Mazkur maqolada 1945–1991-yillar davomida Xorazm viloyatida ilm-fan sohasida yuz bergan tashkiliy, institutsional va ilmiy-ma’rifiy o‘zgarishlar tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda urushdan keyingi davrda ilmiy muassasalar faoliyatining tiklanishi, oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimining rivojlanishi, ilmiy kadrlar tayyorlash jarayoni, Xorazm ilmiy maktablarining shakllanishi, arxeologiya, tarix, qishloq xo‘jaligi, tabiiy fanlar hamda pedagogika yo‘nalishlaridagi ilmiy izlanishlarning rivojlanish xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, sovet davrida ilm-fan rivojining mafkuraviy jihatlari, ilmiy faoliyatning markazlashgan boshqaruv tizimiga bog‘liqligi va mavjud muammolar ham ilmiy nuqtai nazardan baholanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, 1945–1991-yillar Xorazm viloyatida zamonaviy ilmiy infratuzilmaning shakllanishi, ilmiy-pedagogik kadrlar salohiyatining oshishi va hududiy ilmiy maktablarning rivojlanishi bilan xarakterlanadi.*

Kalit so‘zlar*: Xorazm viloyati, ilm-fan tarixi, sovet davri, ilmiy tadqiqotlar, oliy ta’lim, arxeologiya, Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi, ilmiy kadrlar, ilmiy muassasalar, ma’rifat.*

Аннотация *В данной статье на основе исторических источников анализируются организационные, институциональные, научно-образовательные изменения, произошедшие в сфере науки в Хорезмской области в период 1945–1991 годов. Исследование охватывает восстановление научных учреждений в послевоенный период, развитие системы высшего и среднего специального образования, процесс подготовки научных кадров, формирование Хорезмских научных*

школ, развитие научных исследований в областях археологии, истории, сельского хозяйства, естественных наук и педагогики. Также с научной точки зрения оцениваются идеологические аспекты развития науки в советский период, зависимость научной деятельности от централизованной системы управления и существующие проблемы. Результаты исследования показывают, что 1945–1991 годы характеризовались формированием современной научной инфраструктуры в Хорезмской области, повышением потенциала научно-педагогических кадров и развитием региональных научных школ.

Ключевые слова: *Хорезмская область, история науки, советская эпоха, научные исследования, высшее образование, археология, Хорезмская археологическая и этнографическая экспедиция, научные кадры, научные учреждения, просвещение.*

Abstract *This article analyzes the organizational, institutional, and scientific and educational changes that occurred in the field of science in the Khorezm region during 1945–1991 based on historical sources. The study covers the restoration of scientific institutions in the post-war period, the development of the higher and secondary specialized education system, the process of training scientific personnel, the formation of Khorezm scientific schools, and the development of scientific research in the areas of archaeology, history, agriculture, natural sciences, and pedagogy. The ideological aspects of the development of science in the Soviet period, the dependence of scientific activity on the centralized management system, and existing problems are also evaluated from a scientific point of view. The results of the study show that the years 1945–1991 were characterized by the formation of a modern scientific infrastructure in the Khorezm region, an increase in the potential of scientific and pedagogical personnel, and the development of regional scientific schools.*

Key words*: Khorezm region, history of science, Soviet era, scientific research, higher education, archaeology, Khorezm archaeological and ethnographic expedition, scientific personnel, scientific institutions, enlightenment.*

Kirish. XX asrning ikkinchi yarmi O‘zbekiston tarixida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarning jadal rivojlangan davri sifatida alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, 1945-yilda Ikkinchi jahon urushi yakunlanganidan keyingi davrda jamiyat hayotining barcha sohalarida, jumladan, ilm-fan va ta’lim tizimida tub o‘zgarishlar amalga oshirildi. Urush yillarida ilmiy muassasalarning faoliyati sezilarli darajada cheklangan, ilmiy kadrlarning katta qismi harbiy

xizmatga safarbar etilgan, ilmiy izlanishlar esa asosan mudofaa va iqtisodiy ehtiyojlarga yo‘naltirilgan edi. Urushdan keyingi yillarda esa mamlakat oldida iqtisodiyotni tiklash, ilmiy salohiyatni qayta shakllantirish, malakali mutaxassislar tayyorlash hamda fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytirish kabi vazifalar turardi. Mazkur jarayonlar O‘zbekiston hududlari, xususan, tarixiy va madaniy jihatdan boy hududlardan biri bo‘lgan Xorazm viloyatida ham o‘z aksini topdi [2]. Xorazm qadimdan ilm-fan va ma’rifat markazlaridan biri sifatida tanilgan bo‘lib, bu hudud jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk allomalar vatani hisoblanadi. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Zamaxshariy kabi buyuk mutafakkirlarning ilmiy merosi Xorazm zaminida shakllangan ilmiy an’analar davomiyligini ta’minlab kelgan [3]. Shu tarixiy ilmiy meros XX asrning ikkinchi yarmida hududda ilmiy izlanishlarning rivojlanishiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatdi. 1945–1991-yillar oralig‘i Xorazm viloyatida ilm-fan taraqqiyotining murakkab, ammo sermahsul bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu davrda ilmiy faoliyat asosan sobiq Sovet Ittifoqining yagona ilmiy siyosati asosida tashkil etilgan bo‘lib, ilmiy tadqiqotlar davlat rejalari va mafkuraviy talablar doirasida olib borildi [2; 5]. Shunga qaramay, hududning tarixiy-madaniy merosini o‘rganish, tabiiy resurslarini tadqiq etish, qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirish, pedagogik jarayonlarni takomillashtirish va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash yo‘nalishlarida muhim natijalarga erishildi. Urushdan keyingi dastlabki yillarda Xorazm viloyatida ilmiy infratuzilmani tiklash va rivojlantirish masalalariga katta e’tibor qaratildi. Ilmiy faoliyat asosan oliy ta’lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari, muzeylar, arxivlar va turli sohaviy tashkilotlar orqali amalga oshirildi. Viloyatda ilmiy faoliyatning rivojlanishida Toshkentdagi Fanlar akademiyasi institutlari, oliy ta’lim muassasalari hamda mahalliy ilmiy markazlar bilan hamkorlik muhim rol o‘ynadi [2; 5]. Xorazm viloyatida ilm-fanning eng rivojlangan yo‘nalishlaridan biri tarix va arxeologiya sohasi bo‘ldi. Qadimgi Xorazm sivilizatsiyasini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo tarixini o‘rganishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etdi. Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasining faoliyati natijasida qadimgi shaharlar, qal’alar, sug‘orish inshootlari, me’moriy yodgorliklar va moddiy madaniyat namunalariga oid ko‘plab ilmiy ma’lumotlar to‘plandi. Ushbu ekspeditsiya tadqiqotlari Xorazmning qadimgi davrlardan boshlab yuqori darajadagi sivilizatsiya markazi bo‘lganligini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qildi [3]. 1945–1991-yillar davomida Xorazm viloyatida tarixshunoslik va

manbashunoslik yo‘nalishlarida ham muhim tadqiqotlar amalga oshirildi. Mahalliy tarix, etnografiya, xalq og‘zaki ijodi, hunarmandchilik, me’morchilik va madaniy meros masalalariga bag‘ishlangan ilmiy ishlar ko‘paydi. Xorazm xalqining tarixiy tajribasi, urf-odatlari va madaniy qadriyatlarini o‘rganishga qaratilgan izlanishlar hududning ilmiy salohiyatini oshirdi [4; 5]. Ilm-fan taraqqiyotida ta’lim tizimining rivojlanishi alohida o‘rin tutdi. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarining kengayishi ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash imkoniyatlarini oshirdi. Bu jarayon O‘zbekistonning XX asr ikkinchi yarmidagi ijtimoiy va madaniy rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq holda kechdi [2].

Adabiyotlar tahlili. 1945–1991-yillarda Xorazm viloyatida ilm-fan sohasida yuz bergan o‘zgarishlarni o‘rganish O‘zbekistonning XX asr ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-madaniy taraqqiyot tarixini tadqiq etishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur davrda ilm-fan rivoji nafaqat ilmiy muassasalar faoliyatining kengayishi, balki ta’lim tizimining takomillashuvi, ilmiy kadrlar tayyorlash jarayonining rivojlanishi, tarixiy-madaniy merosni o‘rganish hamda amaliy fanlarning ishlab chiqarish bilan bog‘lanishi orqali namoyon bo‘ldi [2; 5].

Ilm-fan tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ushbu davr odatda ikki jihatdan baholanadi. Birinchi yo‘nalish sovet davridagi ilmiy siyosat, ilmiy tashkilotlar tizimi va ilmiy yutuqlarni tahlil qilishga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi yo‘nalish ushbu tizimning mafkuraviy cheklovlari, markazlashgan boshqaruvi va hududiy ilmiy rivojlanishdagi muammolarini ochib beradi [2; 5].

Xorazm viloyati misolida ilm-fan taraqqiyotini tadqiq qilishda tarixiylik, tizimli yondashuv va qiyosiy tahlil metodlari muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki hududdagi ilmiy jarayonlar umumittifoq ilmiy siyosati, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi faoliyati, oliy ta’lim tizimining rivojlanishi va mahalliy ilmiy an’analar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan [2; 5].

Sovet davrida ilm-fan siyosati bo‘yicha tadqiqotlar tahlili 1945–1991-yillar davomida O‘zbekistonda, jumladan Xorazm viloyatida ilm-fan rivoji sobiq Sovet Ittifoqining yagona ilmiy siyosati asosida amalga oshirildi. Ushbu tizimda ilmiy tadqiqotlar davlat tomonidan rejalashtirildi, ilmiy muassasalar markazlashgan holda boshqarildi va fan yo‘nalishlari iqtisodiy hamda siyosiy vazifalar bilan bog‘landi [2; 5]. Sovet davri ilm-fan tizimini o‘rgangan tadqiqotchilar ilmiy tashkilotlarning rivojlanishi, Fanlar akademiyasi institutlarining faoliyati va ilmiy kadrlar tayyorlash masalalariga katta e’tibor qaratganlar [5]. Adabiyotlar tahlili natijasida quyidagi ilmiy bo‘shliqlar mavjudligi aniqlandi. Birinchidan, mavjud

tadqiqotlarning aksariyati O‘zbekiston yoki Markaziy Osiyo miqyosida olib borilgan bo‘lib, Xorazm viloyatidagi ilmiy jarayonlar mustaqil tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o‘rganilmagan. Ikkinchidan, ilmiy muassasalar faoliyati, mahalliy olimlarning hissasi va hududiy ilmiy maktablarning shakllanish jarayonlari bo‘yicha tizimli tadqiqotlar kam. Uchinchidan, 1945–1991-yillarda ilm-fan rivojining ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, mafkuraviy cheklovlar va boshqaruv muammolari ham yetarlicha tahlil qilinmagan [2; 5]. To‘rtinchidan, arxiv materiallari, mahalliy statistik ma’lumotlar va ilmiy tashkilotlarning hisobotlari asosida kompleks tahlillar yetishmaydi. Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, 1945–1991-yillarda Xorazm viloyatida ilm-fan sohasi murakkab, ammo izchil rivojlanish bosqichini bosib o‘tgan. Ushbu davrda tarix va arxeologiya, pedagogika, tabiiy fanlar, qishloq xo‘jaligi va ekologiya yo‘nalishlarida ilmiy izlanishlar olib borildi. Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi faoliyati, oliy ta’lim tizimining rivojlanishi, ilmiy-pedagogik kadrlarning shakllanishi va amaliy fanlarning taraqqiyoti hudud ilmiy salohiyatining oshishiga xizmat qildi.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar Xorazm viloyatida ilm-fan rivojining barcha jihatlarini to‘liq qamrab olmaganligini ko‘rsatadi. Shu sababli mazkur tadqiqot hududiy ilmiy jarayonlarni tarixiy manbalar asosida kompleks o‘rganish, ilmiy merosni baholash va Xorazm viloyatining XX asr ikkinchi yarmidagi ilmiy taraqqiyotini chuqurroq yoritishga qaratilgan.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqotda 1945–1991-yillarda Xorazm viloyatida ilm-fan sohasida yuz bergan o‘zgarishlarni har tomonlama yoritish maqsadida tarixiy-xronologik, tarixiy-qiyosiy, tarixiy-tizimli, manbashunoslik, statistik va muammoviy-tahliliy metodlardan foydalanildi. Tarixiy-xronologik metod asosida viloyatda ilm-fan rivojining asosiy bosqichlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari davrlar kesimida tadqiq qilindi. Tarixiy-qiyosiy metod orqali turli davrlardagi ilmiy muassasalar faoliyati, ilmiy kadrlar tarkibi va tadqiqot yo‘nalishlaridagi o‘zgarishlar qiyoslandi. Manbashunoslik metodi yordamida arxiv hujjatlari, statistik ma’lumotlar, davriy matbuot materiallari, ilmiy nashrlar hamda boshqa tarixiy manbalar o‘rganilib, ularning ilmiy ahamiyati va ishonchliligi tahlil qilindi. Statistik metod asosida ilmiy muassasalar, ilmiy xodimlar, tadqiqotchilar va ilmiy nashrlar bilan bog‘liq miqdoriy ko‘rsatkichlarning dinamikasi aniqlandi. Tarixiy-tizimli metod esa Xorazm viloyatida ilm-fan rivojini ta’lim, ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi va ijtimoiy-madaniy jarayonlar bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganish imkonini berdi.

Shuningdek, og‘zaki tarix metodidan foydalanib, mazkur davrda ilmiy va pedagogik faoliyat olib borgan shaxslarning xotiralari hamda intervyulari tahlil qilindi. Ushbu metodlar majmuasi 1945–1991-yillarda Xorazm viloyatida ilm-fan sohasida yuz bergan institutsional, kadrlar, ilmiy-tadqiqot va tashkiliy o‘zgarishlarni kompleks ravishda tadqiq etishga xizmat qildi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, 1945–1991-yillar Xorazm viloyatida ilm-fan taraqqiyotining muhim tarixiy bosqichlaridan biri bo‘lib, aynan ushbu davrda hududda ilmiy faoliyatning tashkiliy asoslari shakllandi, ilmiy muassasalar faoliyati kengaydi va ilmiy kadrlar tayyorlash tizimi rivojlandi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda ilm-fan jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida qaralib, davlat siyosatida ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, mutaxassislar tayyorlash va ishlab chiqarish jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etishga katta e’tibor qaratildi [2]. Xorazm viloyatida ilm-fan rivoji umumittifoq ilmiy siyosati doirasida amalga oshirilgan bo‘lsa-da, hududning tarixiy-madaniy xususiyatlari, tabiiy sharoiti va iqtisodiy ehtiyojlari ilmiy izlanishlarning o‘ziga xos yo‘nalishlarini belgilab berdi. Ayniqsa, tarix, arxeologiya, qishloq xo‘jaligi, pedagogika, ekologiya va tabiiy fanlar sohalarida olib borilgan tadqiqotlar viloyat ilmiy salohiyatining shakllanishida muhim rol o‘ynadi [2; 5]. Urushdan keyingi dastlabki yillarda asosiy vazifa mavjud ilmiy va ta’limiy infratuzilmani qayta tiklashdan iborat bo‘ldi. Ilmiy xodimlar sonini ko‘paytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash, ilmiy tashkilotlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada 1950–1960-yillardan boshlab Xorazm viloyatida ilmiy faoliyat asta-sekin tizimli shaklga ega bo‘la boshladi [2]. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, 1945–1991-yillarda Xorazm viloyatida eng katta ilmiy yutuqlarga erishilgan yo‘nalishlardan biri tarix va arxeologiya sohasi bo‘ldi. Xorazmning qadimiy sivilizatsiya markazi sifatidagi o‘rni ushbu hududni tarixiy-arxeologik tadqiqotlar uchun muhim ilmiy maydonga aylantirdi. Mazkur davrda faoliyat olib borgan Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi hudud tarixini o‘rganishda katta ilmiy ahamiyat kasb etdi. Ekspeditsiya tomonidan olib borilgan ko‘plab arxeologik izlanishlar natijasida qadimgi Xorazm davlatining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga oid muhim ma’lumotlar to‘plandi [3]. Qadimgi Xorazm tarixini o‘rganishda yozma manbalar, arxeologik topilmalar va tarixiy-madaniy yodgorliklarning ilmiy tahlili muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar Xorazm hududining qadimgi sivilizatsiyalar

tarixidagi o‘rnini yanada chuqurroq anglash imkonini berdi [3]. Xorazm tarixini o‘rganish jarayonida etnografik tadqiqotlar ham muhim o‘rin egalladi. Xalqning etnik tarkibi, urf-odatlari, an’analari, moddiy va ma’naviy madaniyati bilan bog‘liq masalalarni tadqiq etish hududning tarixiy taraqqiyotini kompleks o‘rganishga imkon berdi [4].

Shu bilan birga, tarixshunoslik tadqiqotlarining rivojlanishi Xorazm tarixiga oid ilmiy qarashlarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Tarixiy jarayonlarni turli manbalar asosida tahlil qilish, ilmiy adabiyotlarni qiyoslash va tarixiy bilimlarning rivojlanish bosqichlarini aniqlash mazkur davr tarixshunosligining muhim jihatlaridan biri bo‘ldi [5].

Xulosa. Mazkur tadqiqotda 1945–1991-yillarda Xorazm viloyatida ilm-fan sohasida yuz bergan o‘zgarishlar, ilmiy muassasalarning shakllanishi, ilmiy yo‘nalishlarning rivojlanishi, ilmiy kadrlar tayyorlash tizimi hamda hududiy ilmiy maktablarning shakllanish jarayonlari tarixiy manbalar asosida tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Ikkinchi jahon urushidan keyingi davr Xorazm viloyati ilm-fani tarixida tiklanish, shakllanish va rivojlanish bosqichlarini o‘z ichiga olgan murakkab, ammo samarali davr hisoblanadi. Urushdan keyingi dastlabki yillarda ilmiy va ta’lim muassasalarining faoliyatini qayta yo‘lga qo‘yish, ilmiy kadrlar yetishmovchiligini bartaraf etish hamda ilmiy tadqiqotlarni tizimli tashkil etish asosiy vazifalardan biri bo‘ldi [2]. 1945–1991-yillar davomida Xorazm viloyatida ilm-fanning rivojlanishi, avvalo, hududning tarixiy-madaniy merosi, iqtisodiy ehtiyojlari va tabiiy sharoiti bilan bog‘liq holda amalga oshirildi. Ayniqsa, tarix va arxeologiya yo‘nalishida olib borilgan ilmiy izlanishlar Xorazmning qadimgi sivilizatsiya markazi sifatidagi ahamiyatini yanada chuqurroq ochib berdi [3]. Shuningdek, etnografik tadqiqotlarning rivojlanishi Xorazm xalqining etnik tarixi, urf-odatlari va madaniy merosini ilmiy jihatdan o‘rganishga xizmat qildi [4]. Tarixshunoslik sohasidagi tadqiqotlar esa ilmiy qarashlarning shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini tahlil qilish imkonini berdi [5].

Sovet davridagi ilm-fan rivojining muhim xususiyati shundan iborat ediki, ilmiy faoliyat markazlashgan boshqaruv tizimi va mavjud mafkuraviy talablar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Shu sababli ushbu davr ilm-fan tarixini o‘rganishda ilmiy yutuqlar bilan bir qatorda, tizimning mavjud cheklovlarini ham hisobga olish zarur [2; 5].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992.

2. Jo‘rayev N. O‘zbekiston tarixi. XX asrning ikkinchi yarmi. – Toshkent: Sharq, 2000.

3. Sagdullayev A.S. Qadimgi O‘zbekiston ilk yozma manbalarda. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.

4. Asqarov A. O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – Toshkent: Universitet, 2007.

5. Ziyoyeva D. O‘zbekiston tarixshunosligi masalalari. – Toshkent: Fan, 2010.

1917-YIL FEVRAL INQILOBIDAN KEYINGI DAVRDA TURKISTON SANOATIDA ISHCHILAR NAZORATINING O‘RNATILISHI

Isomiddinov Erali Darvishaliyevich,
Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

UO‘K 94 (575.1)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada 1917-yil Fevral inqilobi arafasida Turkiston o‘lkasidagi mavjud sanoat korxonalari va ularning xususiyati tahlil etilib, Fevral inqilobidan keyingi siyosiy o‘zgarishlar, xususan sanoat korxonalari ustidan ishchilar nazoratining o‘rnatilishi masalasi o‘rganilgan.*

Аннотация: *В данной статье анализируются промышленные предприятия, существовавшие в Туркестанском крае накануне Февральской революции 1917 года, и их специфика. Также исследуются политические изменения после Февральской революции, в частности, вопрос установления рабочего контроля над промышленными предприятиями.*

Annotation: *This article analyzes the industrial enterprises in the Turkestan region on the eve of the 1917 February Revolution and their characteristics. It also examines the political changes following the revolution, particularly the establishment of workers' control over these enterprises.*

Kalit so‘zlar: *Fevral inqilobi, Turkiston, sanoat korxonalari, ishchilar, ishchilar nazorati, ish kuni, ish vaqti, ish haqi, norozilik chiqishlari, fabrika-zavod komitetlari.*

Ключевые слова: *Февральская революция, Туркестан, промышленные предприятия, рабочие, рабочий контроль, рабочий день, рабочее время, заработная плата, протесты, фабрично-заводские комитеты.*

Key words: *February Revolution, Turkestan, industrial enterprises, workers, workers' control, working day, working hours, wages, protests, factory committees.*

Turkiston 1917-yilgacha kapitalistik rivojlanish bosqichini to‘la bosib o‘tmagan edi. Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi

o‘lkaning Rossiya kapitalizmining iqtisodiy tizimiga tortgan bo‘lsa-da, o‘lkada kapitalistik munosabatlari keng tarqalmadi. Buning asosiy sababi chor monarxiya hokimiyatining mustamlakachilik siyosati edi. Rossiya imperiyasi Turkistonni Markazda qayta ishlanadigan turli xil xom ashyo yetkazib beruvchi baza sifatida majburan ushlab turdi. Natijada, bu yerda fabrika-zavod sanoati sust rivojlangan va tipik mustamlaka xususiyatiga ega bo‘lib qoldi. Chorizm Turkistonda faqat metropoliya uchun foydali va Rossiyaning markaziy hududlari iqtisodiyotining o‘sishiga ko‘maklashadigan sanoat tarmoqlarinigina rivojlantirdi.

O‘lkada asosan paxta tozalash sanoati rivojlangan bo‘lib, u butunlay eksportga yo‘naltirilgan va Markazning to‘qimachilik ishlab chiqarishiga xizmat qilgan. 1914-yilda Turkiston hududida 250 dan ortiq paxta tozalash zavodlari mavjud edi, ular fabrika-zavod sanoatining jami mahsulotining qariyb 75 foizini yetkazib berardi [1. B.115]. Markaziy Rossiyaning ishlab chiqarish va bozor ehtiyojlarini qondirish uchun charm sanoati ham faoliyat yuritgan, u korxonalar soni bo‘yicha (120 ga yaqin) o‘lkada ikkinchi o‘rinni egallagan. Bundan tashqari, bu yerda 60 ga yaqin vinochilik va aroq ishlab chiqarish, 30 dan ortiq yog‘ ishlab chiqarish, o‘nlab un tortish, sholi tozalash, pivo pishirish, tamaki va boshqa korxonalar mavjud edi. Qishloq xo‘jalik xom ashyosini qayta ishlash bilan shug‘ullanuvchi barcha sanoat tarmoqlari hissasiga 1917-yilgacha bo‘lgan Turkiston sanoatining yalpi mahsulotining 90 foizigacha qismi to‘g‘ri kelardi [2. B.48].

Shunday qilib, Turkiston sanoati deyarli butunlay metropoliya manfaatlariga bo‘ysundirilgan edi. Uning asosiy tarmoqlari qishloq xo‘jaligi xom ashyosini dastlabki qayta ishlash va foydali qazilmalarni qazib olish bilan shug‘ullangan. Ularning mahsulotlari (paxta tolasi, teri, neft, sharob, spirt va boshqalar) asosan Rossiyaning markaziy hududlariga olib ketilardi.

Turkiston sanoati paxtadan tashqari, o‘simlik xom ashyosining boshqa turlarini ham qayta ishlardi. Oziq-ovqat sanoati asosan mahalliy bozorga mo‘ljallangan edi. Unda “Aka-uka Abramovlar”, “Aka-uka Agriyevlar”, “Pugasov va K”, “Filatov va K”, “Aka-uka Gladishevlar”, “Otto Vogau” va boshqa savdo uylari yetakchi o‘rinni egallagan [3. B.71].

Chorvachilik mahsulotlariga ishlov berish asosan charm tayyorlash, jun yuvish va ichak tozalash korxonalarida amalga oshirilardi. Charm sanoatida milliy sarmoya, jun yuvish va ichak tozalash sanoatida esa rus va chet el sarmoyasi hukmronlik qilardi.

Ichak-chavoqlarni qayta ishlash Germaniyaning “Dyurshmidt” firmasi qo‘lida jamlangan edi. Jun yuvish sanoatida 5 ta yirik firma faoliyat yuritardi: “Russkaya sherst”, “Aka-uka Asevlar, “Stupen va K”, “Yakobi va Zorganin”, “El. Trilling va o‘g‘illari”. “Stupen va K”, “Yakobi va Zorganin” firmalarining asosiy hissadorlari ingliz, amerikalik, nemis va belgiyalik sarmoyadorlar edi. Bu korxonalar nafaqat mahalliy, balki umumrossiya va hatto jahon bozori uchun ham mahsulot ishlab chiqarardi [4. B.38].

Paxta, ipak va junga boy bo‘lgan Turkiston o‘zining yirik to‘qimachilik sanoatiga ega emas edi. O‘lkaning to‘qimachilik mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoji mahalliy hunarmandchilik va Markaziy Rossiya fabrikalari tomonidan qondirilardi. Turkistonga har yili 2,1 million pudga yaqin to‘qimachilik mahsulotlari keltirilardi.

Turkistonda metallga ishlov beruvchi fabrika-zavod sanoati ham mavjud emas edi. Turkiston korxonalari uchun jihozlar Rossiya va boshqa kapitalistik mamlakatlardan olib kelinardi.

Chet el va rus kapitali o‘lkaning yoqilg‘i sanoatini ham o‘z nazoratiga ostiga olgandi. Rus kapitali asosan ko‘mir qazib olishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, chet el (ayniqsa, ingliz) kapitali neft qazib chiqarish sanoatida hukmronlik qilardi. Yoqilg‘i sanoatidagi asosiy ishlab chiqarish vositalari “Aka-uka Nobel”, “Dog‘iston-Cheleken neft jamiyati”, shuningdek, “Chimyon”, “Santo”, “Qizil-Qiya” va “Sulukta” kompaniyalari mulki hisoblangan [5. B.598].

Chorizm Turkistonda kapitalizmgacha bo‘lgan munosabatlarini saqlab qoldi, bu esa o‘lka sanoatida texnika taraqqiyotini jiddiy ravishda sekinlashtirdi. Mahalliy korxonalar asosan eskirgan uskunalarda faoliyat yuritardi.

Turkiston sanoatining energetika balansida suv dvigatellari katta ulushni egallar edi. 1914-yilda Turkiston paxta tozalash zavodlarida suv dvigatellari 30 foizni tashkil etgan, vaholanki, AQSHda bu ko‘rsatkich barcha dvigatellarning atigi 4,4 foizini tashkil etardi. Rossiya sanoatida elektr dvigatellari 1908-yilda barcha dvigatellarning 30 foizini tashkil etgan bo‘lsa, Turkistonda 1913-yilda bu ko‘rsatkich bor-yo‘g‘i 0,16 foizga teng edi. 1917-yil Oktyabr to‘ntarishidan oldingi Turkistonda aholi jon boshiga Rossiyaga nisbatan 14 barobar kam elektr energiyasi ishlab chiqarilardi [6. B.18].

1916-yilda Turkistondagi 275 ta eng yirik paxta tozalash va yog‘ ishlab chiqarish zavodlarida dvigatellarning umumiy quvvati 19761 ot kuchini tashkil etgan bo‘lib, shundan 6539 ot kuchi (ya’ni 33,1 foizi) suv va aralash dvigatellarga to‘g‘ri kelgan. Bu eng rivojlangan tarmoqlarda bir ishchiga to‘g‘ri keladigan

mexanik dvigatellarning quvvati atigi 1,25 ot kuchini tashkil etardi. Vinochilik, ko‘nchilik, jun yuvish, urug‘chilik, pilla quritish, ichak tozalash va boshqa korxonalarda hech qanday dvigatellar qo‘llanilmasdi. Bu korxonalarda ishlab chiqarish qo‘l mehnatiga asoslangan bo‘lib, ibtidoiy usullar bilan olib borilardi [7. B.127].

Oktyabr davlat to‘ntarishi arafasida Turkiston sanoatidagi kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari Markaziy Rossiyaga nisbatan rivojlanishning pastroq darajasida edi. Ishchilar qatlami nisbatan oz sonli bo‘lib, ular ham dehqonchilik ishlab chiqarishi bilan bog‘liq edi. Bu esa fabrika-zavod emas, balki manufaktura ishlab chiqarishining belgilaridan biri edi. Paxta tozalash sanoati ishchilarining 80 foizdan ortig‘ini dehqonchilik va boshqa ishlab chiqarish turlari bilan aloqasini yo‘qotmagan mavsumiy ishchilar tashkil etardi.

Turkiston sanoatida ish kuni o‘rtacha 10-10,5 soat davom etardi. Mavsum avjiga chiqqan paytlarda kapitalistlar ish kunini 16-17 soatgacha cho‘zishardi. Rossiya to‘qimachilik sanoatida bir ishchi oyiga o‘rtacha 250 soat ishlasa, Turkiston paxta tozalash sanoatida bu ko‘rsatkich 270-280 soatni tashkil etardi. Qizg‘in pallada kapitalistlar mehnat jadalligi oshirishga zo‘r berishardi. Masalan, paxta zavodlarida xo‘jayinlar jin barabanining bir daqiqadagi aylanishlar sonini odatdagi 240-280 tadan 300-400 tagacha ko‘paytirib yuborishardi.

Mehnat unumdorligining o‘sishi kapitalistlar foydasining ko‘payishiga olib kelgan. Ishchilarning ish haqi esa aksincha pasayib borgan. Masalan, Farg‘ona viloyati paxta tozalash sanoatida 1891-yildan 1913-yilgacha ishchilarning ish haqi 60 foizgacha qisqarib ketgan, kapitalistlarning bir ishchini ekspluatatsiya qilishdan oladigan daromadi esa 305 rubldan 1124 rublgacha ko‘tarilgan [8. B.86].

1917 yilgi Fevral burjua-demokratik inqilobidan keyin Turkistonda Muvaqqat hukumatning Turkiston qo‘mitasi boshqaruvi o‘rnatildi. Muvaqqat hukumatning Turkiston qo‘mitasi o‘lkaning iqtisodiy ahvolini yaxshilash uchun hech qanday chora-tadbirlar ko‘rmadi. Turkistonda oziq-ovqat inqirozi kundan kunga chuqurlashib bordi, keng xalq ommasining qashshoqligi va ochligi kuchaydi. Bu jarayonda og‘ir ahvolda qolgan ishchilarning noroziligi ham kun sayin kuchayib bordi.

Turkistondagi ishchilar sinfi butun Turkiston mehnatkashlarining ilg‘or kuchi sifatida kapitalistlarga qarshi keskin norozilik harakatlarini boshlab yubordilar. 1917-yilning fevralidan noyabrigacha bo‘lgan davrda Turkistonda

juda yuksak darajada siyosiy yuksalish kuzatildi. Xususan, bu davr o‘lka ishchilarining faol siyosiy chiqishlariga to‘la bo‘ldi. mavjud korxonalarda ishchilarning ish tashlashlari, norozilik chiqishlari mahalliy millatga mansub ishchilarning faol ishtiroki bilan ajralib turdi.

1917-yil may oyida “Besh-Bosh” aksiyadorlik jamiyatining yog‘ zavodi ishchilari va xodimlari kapitalistlarga qarshi noroziilk harakatlarini boshladilar. Chustdagi “Besh-Bosh” yog‘ zavodida ish tashlash qo‘mitasi tarkibiga mahalliy ishchilardan Yo‘ldoshboy Nazarov, Ergashboy Mo‘minov, Xo‘jabuva Avezmetovlar ham kirgan edi [9. B.18].

Ishchilarning ish tashlashlari uyushgan va ommaviy tus olgan edi. Masalan, Andijondagi “Besh-Bosh” yog‘ zavodi ishchilari ish tashlash yo‘riqnomasini ishlab chiqdilar va bu yo‘riqnoma shu firmaning boshqa paxta tozalash hamda yog‘ zavodlari ishchilariga tarqatildi.

Andijon ishchilarining norozilik chiqishi Namangan, Chust, Skobelevdagi “Besh-Bosh” korxonalari ishchilari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Ular birdamlikda ish tashlashini e’lon qilib, ish tashlash komitetlarini sayladilar [9. B.20]. Ish tashlovchilar o‘z kuchlarini birlashtirish uchun “ish tashlovchi ommaning saylangan rahbar organi sifatida stachka komitetiga so‘zsiz bo‘ysunish” zarurligini ta’kidladilar [9. B.17].

“Besh-Bosh” korxonalari ishchilaridan so‘ng norozilik chiqishlariga, ommaviy ish talash harakatlariga “Vadyayevskiy” va “Andreyevskiy” savdo-sanoat shirkatlarining ishchilari qo‘shildi. “Vadyayev shirkati” ishchilari ish haqini 70-80 foizga oshirishni talab qilib, stachka qo‘mitasini tuzdilar va yordam so‘rab Toshkent ishchi va askar deputatlari Sovetiga murojaat qildilar.

1917-yil kuzida Qo‘qon, Kattaqo‘rg‘on, Fedchenko stansiyasi va boshqa joylardagi paxta tozalash hamda yog‘ zavodlari ishchilarining norozilik chiqishlari yuz berdi. Ish tashlash harakatiga matbaa xodimlari, “Qizilqiya” aksiyadorlik jamiyatining ko‘mir konlari, Bayramalidagi paxta yog‘i zavodi va boshqa korxonalar ishchilari qo‘shildi. Bu chiqishlar “Pere” savdo-sanoat shirkati korxonalari va transport sug‘urta jamiyatlari xodimlari tomonidan qizg‘in qo‘llab-quvvatlandi. Bunday harakatlar to‘lqini Turkiston o‘lkasining barcha temir yo‘llari bo‘ylab ham tarqaldi.

Bolsheviklar rahbarligidagi ishchilar hokimiyatni Sovetlar qo‘liga topshirishni, 8 soatlik ish kunini joriy etishni, ishlab chiqarish va taqsimot ustidan ishchilar nazoratini o‘rnatishni talab qildilar.

1917-yil 12-sentyabrda Toshkentdagi ommaviy mitingga to‘plangan ishchilar va askarlar, o‘zbek mehnatkashlari ishtirokida qarorlar qabul qildilar. Qaror mahsulotlarni ishlab chiqarish va taqsimlash ustidan ishchilar nazoratini o‘rnatishni, davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan bank va korxonalarni milliylashtirishni, barcha yerlarni to‘lov to‘lamasdan mehnatkash dehqonlar qo‘liga o‘tkazishni va boshqa shu kabi talablarni o‘z ichiga olgan edi. Bu choralarni amalga oshirishning zaruriy sharti sifatida mehnatkashlar “butun hokimiyatni ishchi, askar va dehqon deputatlari Sovetlari qo‘liga topshirish” talabini ilgari surdilar [10. B.40].

Ishlab chiqarish ustidan nazorat o‘rnatishga intilgan ishchilar burjuaziya vakillarining ish tashlashni uyushtirishga va kuchayib borayotgan ommaviy norozilik harakatini turli yo‘llar bilan to‘xtatishga harakat qildilar. Ular Toshkentdagi “I.V. Yemelyanov va V.G. Sorokin” shirkati, Kattaqo‘rg‘ondagi paxta tozalash va yog‘ zavodlari, Samarqanddagi “Aka-uka Goldberglar” zavodi va boshqa joylarda ish tashlashga bo‘lgan urinishlarni qat’iyat bilan to‘xtatib qo‘ydilar.

“I.V. Yemelyanov va V.G. Sorokin” zavodi ishchilari butun hokimiyatni zudlik bilan Sovetlarga topshirishni, barcha aksilinqilobchi vazirlarni sudga tortishni va o‘lim jazosini bekor qilishni; yerlarni mehnatkash xalqqa berishni, dehqonlarni qishloq xo‘jalik qurollari va ishlab chiqarish vositalari bilan ta’minlashni; mulkdorlar va sarmoyadorlar bilan aloqani darhol uzishni, shuningdek butun savdo-sotiq va sanoat ustidan nazorat o‘rnatishni talab qildilar [10. B.56-57].

Turkiston ishchilari asta-sekin ishlab chiqarish ustidan ishchilar nazoratini talab qilishdan uni amalda joriy etishga o‘ta boshladilar. Oktyabr davlat to‘ntarishigacha bo‘lgan davrdayoq ishchilar nazorati atrofida keskin qarama-qarshilik avj olgan edi. Siyosiy hokimiyat va asosiy ishlab chiqarish vositalarining mulkdorlar va sarmoyadorlar qo‘lida bo‘lishi Turkiston sanoatida ishchilar nazoratining o‘rnatilishiga jiddiy to‘siq bo‘lib turgan edi.

Muvaqqat hukumatning Turkiston komiteti zavod-fabrikalar ustidan inqilobiy ishchi nazoratini tashkil etishga har tomonlama to‘sqinlik qildi. 1917-yil may oyida Turkiston komiteti ishchi komitetlari to‘g‘risida qaror chiqarib, bu organlarning faoliyatini madaniy-ma’rifiy vazifalar bilangina cheklab qo‘ydi. Muvaqqat hukumatning Turkiston komiteti Farg‘ona oblastining katta fabrika inspektori orqali xo‘jayinlar va boshqaruvchilarga “barcha ishchilarga o‘z

oralaridan eng aqlli va ilg‘or kishilarni saylashni taklif etishni, ularga qarorning mazmuni (ya’ni ishchi qo‘mitalari to‘g‘risidagi qarorning mazmuni) bilan batafsil tanishish va fabrika inspektori tomonidan boshqarilayotgan zavodlarda ishchi qo‘mitalarini hayotga tatbiq etish tartibini o‘rnatish uchun zvarur chora-tadbirlar ko‘rish”ni tavsiya qildi [11. B.22].

Biroq Muvaqqat hukumatning qarshiligiga qaramay, ilg‘or ishchilar o‘zboshimchalik bilan ishlab chiqarish ustidan nazorat o‘rnata boshladilar. Ommaviy ish tashlash harakati jarayonida Turkiston ishchilar ommasi fabrika-zavod qo‘mitalari, oqsoqollar kengashlari va boshqa ommaviy tashkilotlarni tuzdilar. “Besh-Bosh”, “Paxta-Besh”, “Andreyev shirkati” firmalarining ishchi va xizmatchilari 1917-yil yozida ushbu korxonalar ustidan nazoratni amalga oshiruvchi zavod qo‘mitalarini tashkil etdilar. Keyinchalik zavod qo‘mitalari “Katta Yaroslavl manufakturasi”, “Namangan paxta-yog‘ shirkati”, A.Temirbekovning “Torgpro” va boshqa firmalar korxonalarida ham paydo bo‘ldi [4. B.21].

Zavod komitetlari va oqsoqollar kengashlari Turkiston ishchilar ommasining burjuaziya va mahalliy boylar hukmronligiga qarshi harakatida vujudga kelgan haqiqiy ommaviy harakatlarni uyushtiruvchi tashkilotlar edi. Ular proletariatning hayotiy manfaatlarini qat’iy himoya qilib, ishchilarni ishga olish va ishdan bo‘shatish masalalarini ham hal qila boshladilar.

Andijondagi “Besh-Bosh” paxta zavodining ish tashlagan ishchilari “zavod va idora ishchi-xizmatchilarining ichki hayotida yuzaga keladigan barcha masalalarni, shuningdek, mazkur zavod ishchi-xizmatchilari bilan zavod ma’muriyati o‘rtasida paydo bo‘ladigan barcha kelishmovchiliklarni hal qilish uchun” maxsus komissiya tuzdilar [9. B.13].

“Besh-Bosh” firmasining Andijondagi yog‘ zavodidagi ishchilar shunday mazmundagi qaror qabul qildilar: “Ishchi va xizmatchilarni ishdan bo‘shatish masalasi har bir ishchi bo‘yicha alohida holda zavod komiteti tomonidan ko‘rib chiqilishi uchun topshiriladi. Ishdan bo‘shatish faqat zavod komitetining ruxsati bilan amalga oshirilishi mumkin. Agar zavod komiteti ma’muriyat ko‘rsatgan sabablarni asosli deb topmasa, bu masala yarashtirish palatasining ko‘rib chiqishiga havola etiladi. Yarashtirish palatasining qarori ma’muriyat uchun ham, ishchi va xizmatchilar uchun ham majburiy hisoblanadi” [9. B.30]. Ishchilar ushbu talab 1917-yil 29-iyun kuni soat 12:00 gacha bajarilmasa, “zavodning butun qo‘riqlash xizmati bekor qilinadi, suv ta’minoti va yoritish to‘xtatiladi hamda ish tashlash davom etayotgan deb hisoblanadi” degan qarorga keldilar [9. B.30]. Mazkur korxona zavod komiteti boshqaruvchidan o‘z faoliyati to‘g‘risida

hisobot taqdim etishni talab qilgan, shuningdek, ishchilarning kasblariga qarab ish haqi o‘zgarishining maxsus shkalasini ishlab chiqqan.

Zavod komitetlarining ishchilarni ishga qabul qilish va bo‘shatish masalalariga aralashuvidan xavotirga tushgan Turkistondagi yirik firma egalari Muvaqqat hukumatdan bu borada yordam so‘rashgan. Hukumat esa “xodimlar va ishchilarni ishga qabul qilish hamda bo‘shatish huquqi korxona egalariga tegishli” ekanligini tasdiqladi [12. B.397].

Zavod komitetlari yangi ishchilarni ishlab chiqarishga jalb etish, ularni bir ishdan boshqasiga o‘tkazish va shu kabi masalalar bilan ham shug‘ullangan. Namangandagi “Andreyev shirkati” yog‘ zavodi zavod komiteti hatto ayollarni ishlab chiqarishga jalb qilish masalasini ham ko‘targan [11. B.8].

Zavod komitetlari korxona xo‘jayinlarining korxonalar faoliyatini to‘xtatish va ishchilarni bo‘shatishga urinishlariga qarshi qat’iy kurash olib bordilar. Yirik paxta firmalarining ishchilari o‘z zavod komitetlari orqali xo‘jayinlarni korxonalarning uzluksiz ishlashini ta’minlashga majbur etardilar. 1917-yil 12-oktyabrda mehnatkashlar deputatlarining Qo‘qon Soveti paxta firmalarining yirik zavodlarida ishchilar nazoratini o‘rnatish masalasini muhokama qilgan. Sovet “zavod komiteti Andreyev va Potelyaxov zavodlarida yog‘, kunjara va sovun ishlab chiqarilishini kuzatib borishi mumkin bo‘lgan shaxslarni ko‘rsatishni so‘radi” deb qaror qabul qilgan [4. B.34].

Nazorat organlari tarkibiga mahalliy millatga mansub ishchilar ham kiritilgan. Jumladan, Namangandagi “Andreyev shirkati” yog‘ zavodi kasaba qo‘mitasi a’zolari orasida Shoyusuf Qorapozilchayev, Hamraxo‘ja Buvaxo‘jayev, Madraim Xo‘jayevlar faoliyat yuritgan. Mahalliy ishchilar kasaba qo‘mitalariga ularning kundalik ishlarida yordam berishgan. Masalan, ular Namangandagi “Andreyev shirkati” yog‘ zavodi kasaba qo‘mitasining turli millat ishchilari orasiga nizo solgan mexanikni ishdan bo‘shatish to‘g‘risidagi qarorini qo‘llab-quvvatlab, “rus millatiga mansub ustalar (masterlar) bilan yelkama-yelka harakat qilishga” ahd qilishgan [13. B.12].

Ishchilar nazorati burjuaziyaning o‘lka korxonalarini vayron qilish, xalq xo‘jaligidagi inqirozni chuqurlashtirish va shu orqali inqilobiy harakatni bo‘g‘ib tashlashga qaratilgan urinishlariga qarshi yo‘naltirilgan edi. Bu harakat umum Rossiya ahamiyatiga ega edi, chunki Turkiston sanoatining asosiy tarmoqlari Markazning to‘qimachilik sanoati bilan uzviy bog‘liq edi.

Aytib o‘tish lozimki, bu paytda ishchilar nazorati faqat yirik korxonalarda joriy etilgan edi. Ayni paytda ishchilar hali sanoatni boshqarishda va ishlab

chiqarishni mehnatkashlar manfaatlari yo‘lida tartibga solishda to‘la ishtirok eta olmas edilar. Shunday bo‘lsa-da, ishchilar nazorati ishchilar va burjuaziya vakillari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarga aniqlik kiritish borasida qilingan jiddiy urinish edi. Nazorat o‘rnatish orqali ishchilar burjuaziyaga qarshi uyushgan holda harakat olib borish ko‘nikmalarini egalladilar, o‘zlarining hayotiy manfaatlarini birgalikda himoya qilishni o‘rgandilar.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликларини талаш сиёсати: тарих шоҳидлиги ва сабоқлари (1965-1990 йиллар). Лойиҳа раҳбари ва масъул муҳаррир Д.А. Алимова. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 432 б.

2. Демидов А.П. Экономические очерки хлопководства, хлопковой торговли и промышленности в Туркестане. – Москва, 1926. – 260 с.

3. Промышленность Узбекистана. Краткий очерк развития (1913-1938 гг.) – Ташкент: Фан, 1941. –

4. Ульмасов А. У. Национализация промышленности в Советском Туркестане. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1960. – 157 с.

5. Ўзбекистон ССР тарихи. 2-том. Ўзбек хонликлари Россияга қўшиб олинганидан Улуғ Октябрь Социалистик революциясига қадар. Бош муҳаррир И.М. Мўминов. – Тошкент: Фан, 1971. – 664 б.

6. Искандеров И. Текстильная промышленность Узбекистана. – Ташкент: Узбекистан, 1974. – 181 с.

7. Ўзбекистон ССР тарихи. 3-том. Улуғ Октябрь Социалистик революциясининг ғалабаси ва Ўзбекистонда социализм қуриш (1917-1927 йиллар). Бош муҳаррир И.М. Мўминов. – Тошкент: Фан, 1971. – 712 б.

8. Заорская В.В., и Александер К.А. Промышленные заведения Туркестанского края. – Петроград, 1915. – 182 с.

9. Andijon viloyat davlat arxivi, 322-fond, 1-ro‘yxat, 8-ish.

10. Рабочий контроль и национализация промышленности в Туркестане (1917-1920 гг.). Сборник документов. Под ред. Э.А. Воскобойникова. – Ташкент: Госиздат УзССР, 1955. – 238 с.

11. Namangan viloyat davlat arxivi, 62-fond, 1-ro‘yxat. 23-ish.

12. O‘zbekiston Milliy arxivi, I-93-fond, 1-ro‘yxat, 1-ish.

13. Namangan viloyat davlat arxivi, 62-fond, 1-ro‘yxat, 25-ish.

XX ASR 20-YILLARI BOSHIDA TURKISTONDAGI IQTISODIY INQIROZNING IJTIMOIY HAYOTGA TA’SIRI

Muzrobjon Abdullayev,
Andijon davlat universiteti
O‘zbekiston tarixi kafedrasi professori,
tarix fanlari doktori

UO‘K 94(575.1.“1917-1923”)

Annotatsiya: *Turkistonda sovet hokimiyati o‘rnatilganidan keyingi davrda iqtisodiy sohada chuqur inqiroz holati vujudga kelib, bu inqiroz ijtimoiy hayotga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Maqolada mahalliy aholi ijtimoiy hayotida og‘ir oqibatlarga olib kelgan iqttsodiy inqirozning sabablari va mohiyati tahlil etilgan.*

Аннотация: *В период после установления советской власти в Туркестане в экономической сфере сложился глубокий кризис, который оказал большое влияние и на общественную жизнь. В статье анализируются причины и сущность экономического кризиса, приведшего к тяжелым последствиям в социальной жизни местного населения.*

Annotation: *In the period following the establishment of Soviet power in Turkestan, a deep crisis emerged in the economic sphere, which had a profound impact on social life. The article analyzes the causes and essence of the economic crisis, which has led to severe consequences in the social life of the local population.*

Kalit so‘zlar: *Oktyabr davlat to‘ntarishi, Turkiston o‘lkasi, “harbiy kommunizm”, iqtisodiy inqiroz, ocharchilik, fuqarolar urushi, yer-suv islohoti, natsionalizatsiya, yangi iqtisodiy siyosat.*

Ключевые слова: *Октябрьский переворот, Туркестанский край, «военный коммунизм», экономический кризис, голод, гражданская война, земельно-водная реформа, национализация, новая экономическая политика.*

Key words: *October Revolution, Turkestan Krai, "war communism", economic crisis, famine, civil war, land and water reform, nationalization, New Economic Policy.*

XX asrning eng ahamiyatli voqeasi – 1917-yil Oktyabr davlat to‘ntarishi sobiq Rossiya imperiyasining barcha hududlarida jamiyat beqarorligining yangi bosqichini boshlab berdi. 1917-yil oktyabr oyidan 1918-yil mart oyigacha bo‘lgan siyosiy notinchliklar davrida Turkistonda ijtimoiy hissiyotlarning yangi to‘lqini ko‘tarildi: jamiyat hayotida keskin o‘zgarishlar sodir bo‘ldi, turli siyosiy tashkilotlar va eng muhimi, sovet rejimiga qarshi qurolli qarshilik harakati (“bosmachilik”) yuzaga keldi. Fuqarolar urushi yillarida xo‘jalikdagi vayronagarchilik tobora kuchayib bordi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot miqdori va sifatidan moddiy manfaatdor bo‘lmagan ishchilarning mehnat unumdorligi pasayib, faoliyat yuritayotgan korxonalar soni uzluksiz qisqarib keta boshladi.

Mamlakatdagi vaziyat tobora keskinlashib, bolsheviklar hokimiyati nazoratidan chiqib ketdi va natijada 1920-yil oxiri – 1921-yil boshlarida og‘ir ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy inqiroz vujudga keldi. Buning asosiy sabablari shunda ediki, birinchidan, Fuqarolar urushi va “harbiy kommunizm” siyosati sharoitida moliya-kredit tizimi butunlay barham topdi. Ikkinchidan, dehqonlar qo‘llariga qurol olib, oziq-ovqat razvyorstkasiga qarshi bosh ko‘tardilar. Turkistonning aksariyat rayonlarida hokimiyat asosan qurolli qarshilik harakati qo‘lida edi. Qurolli qarshilik saflarida nafaqat yangi tuzumga qarshi kayfiyatdagi kishilar, balki yangi o‘zgarishlarning mohiyatini anglamagan oddiy xalq vakillari – dehqonlar va batraklar, shuningdek, hunarmand-kosiblar ham ko‘pchilikni tashkil qilar edi. Uchinchidan, Rossiyaning ocharchilik hukm surayotgan guberniyalaridan aholining oqib kelishi Turkiston shaharlarida ommaviy ishsizlikning ortishiga olib keldi. To‘rtinchidan, mamlakatni jinoyatchilik va bosqinchilik to‘lqini qamrab oldi. Talonchilik, o‘g‘rilik, bosqinchilik, qotillik XX asr 20-yillarining boshlarida Turkiston kundalik hayotining ajralmas qismiga aylandi. Beshinchidan, bolsheviklar partiyasi parchalanish yoqasiga kelib qoldi: uning ichida keskin mafkuraviy kurash boshlandi [1].

Bunday vaziyatda hatto 1920-yilda oziq-ovqat razvyorstkasini yumshatishga oid barcha takliflarni qat’iy rad etgan bolsheviklar rahbari V.Lenin ham inqiroz ko‘lamini anglab yetgach va uni bolsheviklar hokimiyatining uch yillik faoliyatidagi eng o‘tkir inqiroz deya baholab, “harbiy kommunizm” orqali sotsializmga o‘tib bo‘lmaydi, degan xulosaga keldi. Biroq dastlab Lenin va boshqa bolsheviklar yetakchilari ichki savdoda davlat monopoliyasini hamda “harbiy kommunizm”ning boshqa asoslarini saqlab qolishni ko‘zlagan edilar. Ular dehqonlarga mamlakat miqyosida savdo erkinligini berishdan qo‘rqib, buni kapitalizmga qaytish deb hisobladilar [2]. Shu sababli, dehqonlar natura solig‘ini

to‘laganidan keyin o‘zida qolgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini Oziq-ovqat Xalq komissarligi idoralari vositasida sanoat mollariga to‘g‘ridan to‘g‘ri (ya’ni pulsiz va bozorsiz) ayirboshlash orqali olish rejalashtirildi. Erkin xususiy savdoni esa mahalliy bozorlar bilangina cheklash ko‘zda tutilgan edi.

Yangi iqtisodiy siyosat yillarida mamlakat 1923-1924 va 1927-1928-yillarda ikki marotaba iqtisodiy inqirozni boshdan kechirdi. Inqirozlarning asosiy sababi shunda ediki, mahalliy xususiyatlarni hisobga olmaydigan zaif sanoat va qoloq qishloq xo‘jaligi bir-biri uchun yetarlicha sig‘imli savdo bozorlarini yarata olmagandi. Sanoat qishloq xo‘jaligining dehqonchilik qurollari va xalq iste’moli mollariga bo‘lgan ehtiyojini qondira olmas, qishloq xo‘jaligi esa sanoatni xomashyo, shahar aholisini oziq-ovqat bilan to‘liq ta’minlay olmas edi. Biroq mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti bolsheviklarning xomxayollari va aqidalariga emas, balki real vaziyat va iqtisodiyot rivojlanishi qonunlariga asoslangan boshqa yo‘ldan ketdi.

1921-yilning yozi va kuzida sovet hukumati davlat tasarrufidagi tovar ayirboshlashini bekor qildi, erkin savdoga ruxsat berdi va sanoatni xususiylashtirishga kirishdi. Kichik va o‘rta korxonalar, birinchi navbatda, yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalari sobiq egalariga mulk sifatida qaytarila boshladi yoki boshqa tadbirkorlarga ijaraga berildi. Davlat mulkida qolgan korxonalar esa o‘z mahsulotlarining bir qismini erkin bozorda sotish huquqini oldi [3]. Bu vaqtga kelib O‘rta Osiyodagi ahvol ham yengil emasdi, chunki mehnatkashlar katta qiyinchiliklarga duch kelgan edi. Butun mamlakat miqyosida kuzatilgan urushdan keyingi iqtisodiy vayronagarchilik Turkistonda ayniqsa og‘ir kechdi. 1921-yil boshiga kelib o‘lkada qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi urushdan oldingi davrga nisbatan uch baravar kamayib ketdi. Chorva mollari bosh soni ham uch barobarga qisqardi. Urush davrida irrigatsiya inshootlarining yarmi yaroqsiz holga kelib qolgan edi. 1915-yilda 20 million pud paxta yig‘ib olingan bo‘lsa, 1920-yilda bu ko‘rsatkich atigi 650 ming pudni tashkil etdi [4]. Shundoq ham unchalik katta bo‘lmagan sanoat ishlab chiqarishi besh baravarga qisqardi. Transport ayanchli ahvolda edi.

Bu hol Turkiston respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o‘tkazilishiga turtki bo‘ldi. 1921-1922-yillarda Yettisuv, Sirdaryo, Farg‘ona va Samarqand viloyatlarida yer-suv islohoti amalga oshirildi. Hokimiyatning ijtimoiy siyosati ochiq-oydin sinfiy xususiyatga ega bo‘lib, unda ishchilar sinfi manfaatlari himoyasi ustuvor deb e’lon qilingan edi. Biroq bu sohada ham erishilgan yutuqlar

sarob bo‘lib chiqdi, bunga eng avvalo, umumiy xo‘jalikdagi vayronagarchilik va “inqilobiy yangilanish”ning nazariy xatolari sabab bo‘ldi. Jumladan, Turkistonda Yangi iqtisodiy siyosat boshlangunga qadar ishchilar soni 65 foizga kamayib ketdi [5]. Ishchilar va shahar aholisining boshqa ijtimoiy qatlamlari iqtisodiy ahvoli o‘ta og‘ir edi. Bolsheviklar va’da qilgan farovon hayot o‘rniga, ularning boshiga harbiy harakatlar, ocharchilik, epidemiyalar va Oktyabr to‘ntarishidan keyingi yillardagi kuchli ijtimoiy larzalarning boshqa og‘ir oqibatlari tufayli mislsiz kulfatlar yog‘ildi. Bolsheviklar e’lon qilgan “mehnat ozodligi” o‘rniga majburiy umumiy mehnat joriy etildi, korxonalar va davlat muassasalari esa harbiy holat rejimiga o‘tkazildi [6].

Turkiston o‘lkasi xalqlari boshiga ham og‘ir musibatlar yog‘ildi. Mahalliy siyosiy rahbariyatning qo‘pol xatolari, o‘lka xalqlarining urf-odatlari va tarixiy o‘tmishiga ochiqdan ochiq mensimaslik bilan qarashi bu yerdagi vaziyatni yanada og‘irlashtirdi. Oktyabr to‘ntarishining yaqqol salbiy oqibatlari sirasida jamiyatning ijtimoiy-sinfiy tuzilishini zo‘ravonlik bilan o‘zgartirishni alohida ta’kidlash mumkin. Ijtimoiy-sinfiy tuzilmani majburan o‘zgartirish siyosati o‘sha davrda ayniqsa shahar sinflari va qatlamlariga nisbatan yaqqol namoyon bo‘ldi. Bu siyosatning amalga oshirilishi sanoatni yalpi natsionalizatsiya qilishni ko‘zda tutgan “sotsialistik” qurilish mafkurasi bilan belgilangan edi.

1918-yil 28-iyunda RSFSR Xalq Komissarlari Sovetining “Yirik sanoat va transport korxonalarini natsionalizatsiya qilish to‘g‘risida”gi dekreti e’lon qilindi. Ushbu dekret e’lon qilingach, Turkistonda natsionalizatsiya jarayoni ancha tezlashdi. Turkistonda natsionalizatsiya jarayonining borishi haqidagi u yoki bu darajada tizimlashtirilgan ma’lumotlar Turkiston o‘lkasi Sovetlarining VI syezdi xalq xo‘jaligi seksiyasi materiallarida o‘z aksini topgan. Ushbu ma’lumotlarga ko‘ra, 1918-yil aprel oyiga kelib quyidagilar natsionalizatsiya qilingan edi: 38 ta charm zavodi, 15 ta un tegirmoni, 5 ta sholi tozalash zavodi, 2 ta taxta tilish zavodi, 19 ta bosmaxona, 6 ta tipolitografiya, 2 ta ichak zavodi, 4 ta mexanika zavodi, 7 ta elektr stansiyasi, 279 ta paxta tozalash zavodi, 7 ta toshko‘mir koni, 3 ta neft koni, 1 ta qo‘rg‘oshin koni, 1 ta kanakunjut moyi zavodi, 1 ta efir moyi zavodi, 1 ta qand zavodi, 5 ta vinochilik zavodi va hokazo [7]. Bundan tashqari, bu davrda Cheleken orolidagi neft konlari, Toshkent tramvay stansiyasi, telefon tarmog‘i, makaron va tamaki fabrikalari, mehmonxonalar va boshqalar ham natsionalizatsiya qilindi. Agar 1918-yil o‘rtalariga kelib Rossiyada barcha korxonalarning 11 foizi natsionalizatsiya qilingan bo‘lsa, Turkistonda bu

ko‘rsatkich 45 foizni tashkil etgan va yalpi mahsulotning 80 foizdan ortig‘i aynan shu korxonalar hissasiga to‘g‘ri kelgan [8].

Shunday qilib, Turkistonda yirik sanoat, transport va banklar deyarli to‘liq natsionalizatsiya qilindi, yer-suvni ham natsionalizatsiya qilinishi e’lon qilindi, pomeshchiklarning mulklari musodara etildi va yangi davlat apparatini qurish ishlari avj oldirildi. Shu bilan birga, sovet xalq xo‘jaligini tashkil etish yo‘lida ham dastlabki qadamlar qo‘yildi. O‘lkadagi korxonalarni natsionalizatsiya qilish 1920-yilda yakunlandi.

Turkistonda 1919-yildayoq g‘alla taqchilligi qariyb 100 million pudni tashkil etdi. Bunga ko‘p jihatdan Rossiyadan g‘alla yetkazib berishning deyarli butunlay to‘xtab qolgani sabab bo‘ldi. Respublikaning o‘zida esa 1919-yilda bor-yo‘g‘i 5,8 million pud g‘alla tayyorlandi, bu bir yil uchun har bir kishiga bir necha kilogrammdan to‘g‘ri kelardi, xolos [9]. Natijada ocharchilik shahar va qishloq aholisining eng keng qatlamlarini qamrab oldi. Qishloq xo‘jaligi tanazzulga yuz tutdi: ekin maydonlari 2 million desyatinaga, yalpi g‘alla hosili esa uch barobarga qisqardi. Chorva mollari soni 10,8 million boshdan ko‘proqqa kamaydi. Shunday sharoitda ham oziq-ovqat razvyorstkasi davom ettirildi. Partiya va sovet idoralari iloji boricha ko‘proq non, go‘sht va qishloq xo‘jaligi xomashyosini yig‘ib olish uchun kuch ishlatish usullarini qo‘lladi. Masalan, 1920-yilda oziq-ovqat razvyorstkasi doirasida aholidan 1,5 million pud g‘alla tortib olindi [10]. Oqibatda g‘alla taqchilligi 2-2,5 million pudni tashkil etdi. Ovul va qishloqlar aholisi norozilik bildira boshladi. 1920-1921-yillarda norozilik o‘choqlari alanga olib, ochiq namoyishlarga aylanib ketdi.

Bunday sharoitda xo‘jalik yuritishning yangi shakllarini joriy etish zarur edi. Turkiston qishloq aholisining keng ommasi juda og‘ir ahvolga tushib qoldi. Hokimiyat idoralari o‘lka qishloq aholisining ijtimoiy tabaqalanishi zaifligini, dehqonlar ommasining ong darajasini, ijtimoiy psixologiyasini hamda Turkiston qishlog‘ining asriy an’analar va islom me’yorlari bilan belgilanadigan mentalitetini butunlay e’tiborsiz qoldirdi.

Oktyabr davlat to‘ntarishidan keyingi ilk yillarda Turkistonni qamrab olgan ocharchilik, xuddi Rossiyadagi kabi, bir qator omillarning o‘zaro qo‘shilishi natijasida kelib chiqqan edi. Bular jumlasiga Birinchi jahon urushi va Fuqarolar urushlarining og‘ir oqibatlari, tabiiy ofatlar, qishloq xo‘jaligida vayronkor tanazzulga olib kelgan “harbiy kommunizm” rejimining o‘rnatilishi kabilar kiradi. 1917-1918-yillardagi qahraton qish va misli ko‘rilmagan qurg‘oqchilik

vaziyatni yanada og‘irlashtirdi. Ayniqsa, g‘alla ekinlari butunlay inqirozga uchradi. Ozuqa yetishmasligi tufayli chorva mollarini ommaviy so‘yish boshlandi [11].

1921-1923-yillardagi navbatdagi qurg‘oqchilik va hosilsizlik nafaqat Volgabo‘yida, balki O‘rta Osiyoning unumdor viloyatlari, xususan, Samarqand va Farg‘ona viloyatlarida ham ijtimoiy ahvolni yanada og‘irlashtirdi. Bu holat iqtisodiyot uchun turg‘unlikka olib kelgan bo‘lsa, jamiyat uchun beqarorlashtiruvchi ijtimoiy-siyosiy omilga aylandi, zero yangi hokimiyatning inqirozni yengish uchun ko‘rgan turli chora-tadbirlari tufayli shundoq ham yomon ahvol battar yomonlashgan edi. Yangi hokimiyat o‘zining tajribasizligi va mahalliy xususiyatlarni inobatga olmay turib tadbirlar o‘tkazgani sababli, eng avvalo, ijtimoiy vaziyat va iqtisodiyotga zarar yetkazdi. Ijtimoiy beqarorlikning cho‘qqisi sovetlarga qarshi qurolli qarshilik harakati shaklidagi fuqarolar urushi bo‘ldi. Sovet davlati bu harakatga qarshi dehqonlar va ishchilardan iborat qizil armiyadan foydalana boshladi.

1921-yili dahshatli qurg‘oqchilik ocharchilikka olib keldi. Fuqarolar urushi yillarida dehqonlardan “ortiqcha” bahonasida deyarli butun don, jumladan, urug‘lik don (ya’ni, keyingi yil ekish uchun ajratilgan) ham majburan tortib olingan edi. Qishloqda eng minimal tirikchilik zaxiralari ham tugab, chorva mollari soni keskin kamayib ketdi. Natijada dehqon xo‘jaliklari qurg‘oqchilikni butunlay xonavayron va zaiflashgan holda kutib oldi. Ocharchilikka aholi orasidagi ommaviy sovetlarga qarshi kayfiyatlar, davlatda sanoat mahsulotlari zahirasi va sanoatni tiklash uchun moliyaviy vositalar yo‘qligi, shuningdek, ishsizlikning kuchayishi sababli qishloq bilan tovar ayirboshlashni tashkil etish imkonsizligi ham qo‘shildi.

Bularning barchasi bolsheviklarni “harbiy kommunizm” asoslaridan butunlay voz kechishga va tovar-pul munosabatlari erkinligi sari navbatdagi qadamni qo‘yishga – xo‘jalik yuritishning an’anaviy kapitalistik (bozor) usullaridan foydalanishga majbur qildi.

Bu davrda qizil armiyani ta’minlash zarurati Turkiston respublikasi qishloq aholisi yelkasiga og‘ir yuk bo‘lib tushdi. 1921-yilda birgina Turkiston ASSRning o‘zida 100 mingga yaqin qizil askar bor edi. Qizil armiya va qo‘rboshilar harakati o‘rtasidagi harbiy to‘qnashuvlar chog‘ida ekinlar ko‘pincha tag-tugi bilan yo‘q qilinardi. Turkiston MIK Favqulodda komissiyasi o‘tkazgan tekshiruv ma’lumotlariga ko‘ra, faqat 1921-yilning sentyabr-oktyabr oylarida Turkistonda 80029 ta xo‘jalik xonavayron bo‘lgan, och qolganlar soni 227059 kishini,

ochlikdan vafot etganlar esa 64336 kishini tashkil etgan. Yana 159 959 kishi ochlik xavfi ostida edi [12].

1921-yil iyul oyida Turkiston Markaziy Ijroiya Komiteti (TurkMIK) huzurida Rossiyaning ochlikdan aziyat chekayotgan xalqlariga yordam berish Markaziy komissiyasi tashkil etildi. Uning zimmasiga oziq-ovqat yig‘ish va xarid qilish, ocharchilikka duchor bo‘lgan Rossiya guberniyalariga gumanitar yordam ko‘rsatish bo‘yicha turli xayriya tadbirlarini uyushtirish vazifalari yuklatildi. Birgina 1921-1922-yillarda Turkiston qochoqlardan tashqari yana 500 ming kishini o‘z qaramog‘iga oldi. O‘sha davrda Rossiyaning ocharchilik hukm surayotgan guberniyalaridan mamlakatning nisbatan farovon hududlariga jami 900 ming kishi yuborilgani e’tiborga olinsa, bu kabi keng ko‘lamli evakuatsiyaning ahamiyati yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi [13].

Yangi hukumat tashviqot brigadalar kabi turli usullardan foydalanib, “ochlarga yordam” shiori ostida tinimsiz tadbirlar o‘tkazib turdi. “Haftaliklar”, “ikki haftaliklar”, “uchqur yig‘inlar”, pul va kiyim-kechak yig‘ish aksiyalari shular jumlasidandir. Shuningdek, “Diniy qadriyatlarni musodara qilish to‘g‘risida”, “Ochlik solig‘i” kabi sovet hukumatining obro‘siga putur yetkazgan bir qator qarorlar va dekretlar qabul qilindi. Soliq yuki shu qadar nomutanosib ediki, oqibatda u ham hal qiluvchi omilga aylandi. Hamma joyda tuzilgan oziq-ovqat organlari avvalo, armiya va harbiy idoralar buyurtmalarini bajaruvchi korxonalar xodimlari ehtiyojlari uchun mahsulot tayyorlash va taqsimlash bilan band edi. Bundan tashqari, mahsulot tayyorlash va taqsimlash ishlariga boshqa turli-tuman idoralar ham aralashardi. Bu esa tartibsizlik, byurokratiya, ochiqdan ochiq o‘zboshimchalik va turli xil suiiste’molliklarga sabab bo‘lar edi.

Bunga Turkiston respublikasi hukumati tomonidan 1922-yil 1-yanvardan boshlab “ochlar solig‘i” deb atalgan va Markaziy Ochlarga yordam berish qo‘mitasi ixtiyoriga o‘tkazilgan soliqning joriy etilishini misol qilib keltirish mumkin. Natijada 1922-yilning 1-yanvaridan 1-dekabriga qadar Turkiston Respublikasi Markaziy Ochlarga yordam qo‘mitasiga 24,5 million rubl miqdorida pul ajratmalari va xayriyalar, qariyb 69 ming pud oziq-ovqat hamda 14,4 ming dona kiyim-kechak kelib tushgan [14].

Biroq Turkiston respublikasining resurs imkoniyatlari ham cheksiz emas edi. Og‘ir soliq yuki ko‘p ming sonli qochoqlar va evakuatsiya qilinganlar oqimi bilan birga 1922-1923-yillarda Turkistonda yangi ommaviy ocharchilikning avj olishiga sabab bo‘ldi.

Tashkiliy “tartibsizlik”ni bartaraf etish va ochlikka qarshi kurash sa’y-harakatlarini faollashtirish maqsadida Turkiston Markaziy Ijroiya Komiteti 1922-yil 10-oktyabrdagi qarori bilan Ochlarga yordam Markaziy komitetini Ocharchilik oqibatlarini tugatish Markaziy Komiteti sifatida qayta tashkil qildi [15]. Uning zimmasiga nafaqat ochlikka qarshi kurashish, balki respublika hayotining barcha soha va tarmoqlarida uning oqibatlarini bartaraf etishdek aniq vazifa yuklandi. Biroq, hujjatlarda ta’kidlanganidek, yangi tuzilmalar ham “sustkashligi” bilan ajralib turgan, bu esa “turli xil suiiste’molchiliklar”ga yo‘l ochgan. Qolaversa, aholi ko‘pincha davlat tomonidan solingan ancha og‘ir yig‘imlarni to‘lashga qurbi yetmasdi. Natijada 1922-yilda “ochlik solig‘i” qishloq joylarda atigi 40 foiz, shaharlarda esa 60 foiz yig‘ildi. Turkistonning ko‘plab tumanlarida ocharchilik avj olishda davom etdi. Masalan, 1923-yilga kelib Farg‘ona vodiysida och qolganlar soni 500 mingga, Samarqand viloyatida 30,8 mingga, Yettisuv viloyatida esa 70 ming kishiga yetdi. Oziq-ovqat masalasini hal etish uchun hokimiyat idoralari oziq-ovqat solig‘ini yig‘ishda, ayniqsa, “quloq-boylar”ga nisbatan tashkiliy-ma’muriy tazyiqni kuchaytirdi [16]. Oqibatda dehqonlar va dehqon xo‘jaliklarining moddiy ahvoli o‘ta og‘irligicha qolaverdi.

Bunga ma’lum darajada ijtimoiy norozilikka sabab bo‘lgan siyosiy rejim ham qo‘shildi. XX asr 20-yillaridagi siyosiy rejim, asosan, quyidagilar bilan tavsiflanadi: avtoritar diktaturaning saqlanishi va mustahkamlanishi; muxolif guruhlarning tor-mor etilishining yakunlanishi; muxolifat ustidan siyosiy sud jarayonlarining o‘tkazilishi; davlat xavfsizlik idoralarining partiya hokimiyati va ichki partiyaviy kurash quroliga aylanishi.

1921 – 1923-yilning birinchi yarmidagi yer islohoti yakunlarini umumiy baholab, aytish mumkinki, u iqtisodiy ahamiyatdan ko‘ra ko‘proq siyosiy ahamiyat kasb etdi. Islohotni o‘tkazish jarayonida Turkiston oddiy mehnatkash dehqon xo‘jaliklarining ozgina qismi – 16 mingdan kamrog‘i yer olgan; bu yerlar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga yaroqli bo‘lgan jami ekin maydonlarining atigi 0,7 foizini tashkil qilgan [17].

1923-1924-yillardagi inqirozga xo‘jalik hisobidagi trestlar va korxonalar rahbariyatining yuqori daromad olish maqsadida sanoat mollari narxini haddan tashqari oshirib yuborgani sabab bo‘lgan edi. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining davlat xarid narxlari pastligicha qolgan. Sanoat mollari uchun belgilangan yuqori narxlar va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining past narxlari o‘rtasidagi tafovut “narxlar qaychisi” deb nom olgan. Bu tafovut 1923-yil oktyabr oyida eng yuqori cho‘qqisiga chiqqan edi [18].

Dehqonlarning xarid qobiliyati pastligi omborlar va do‘konlarning sanoat mahsulotlari bilan to‘lib-toshishiga sabab bo‘ldi: rastalar mollar bilan liq to‘la, biroq narxlar shu qadar baland ediki, dehqonlar ularni talonchilik deb hisoblab, tovarlarni xarid qilishdan bosh tortdilar. Savdo hajmining pasayishi zavod va fabrikalar foydasining kamayishiga, bu esa o‘z navbatida ishchilarga maosh to‘lashning kechikishiga olib keldi. Bu holat ishchilarning noroziligini keltirib chiqardi: mitinglar va namoyishlar boshlandi [19].

Oktyabr to‘ntarishidan keyingi ilk yillarda “harbiy kommunizm” siyosatida o‘z ifodasini topgan “sotsialistik qurilish”ning nuqsonli modeli jamiyat taraqqiyotining barcha sohalariga halokatli ta’sir ko‘rsatdi. U mulkchilikning barcha shakllarini to‘liq davlat tasarrufiga o‘tkazishni jadallashtirishni, tovar ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy manfaatini qo‘pol iqtisodiy majburlov bilan almashtirishni maqsad qilgan edi. “Harbiy kommunizm” rejimi o‘ta og‘ir iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy inqirozni keltirib chiqardi va bu sharoitda xalqning tub manfaatlariga javob beradigan samarali ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning obyektiv imkoni yo‘q edi.

Bolsheviklarning tor sinfiy yondashuv tamoyillariga asoslangan ijtimoiy siyosatining doktrinal ko‘rsatmalari ham bu manfaatlarga mos kelmas edi. Chunki bu siyosat o‘lka aholisining aksariyat qismini, ayniqsa, tub millatlarni ijtimoiy himoya doirasidan chetda qoldirgan edi. Beshafqat ocharchilik, epidemiyalar, shiddatli harbiy to‘qnashuvlar hamda o‘ta keskin ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy inqirozning boshqa ko‘rinishlari “harbiy kommunizm” siyosatining barbod bo‘lganini anglatardi. Shu bois hukmron tuzum “yangi iqtisodiy siyosat” yo‘lini tutishga majbur bo‘ldi.

Turkistonda yangi hokimiyat ijtimoiy siyosatining nuqsonlari milliy siyosatdagi kamchiliklar bilan qo‘shilib, milliy ozodlik harakatining faollashishiga yordam berdi. O‘lkaning tub aholisi amalda hech qanday ijtimoiy ta’minot tadbirlaridan foydalana olmadi, davlat himoyasi tizimi va ijtimoiy kafolatlar doirasidan tashqarida qolib ketdi. Keyinchalik siyosiy rahbariyat ijtimoiy siyosat mafkurasiga biroz o‘zgartirishlar kiritdi. Shunga qaramay, Oktyabr to‘ntarishidan keyingi yillarda shakllangan sustlashish mexanizmi butun sovet hokimiyati davrida o‘z kuchini saqlab qoldi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. Сафаров Г. Колониальная революция (Опыт Туркестана). – Москва, 1921. – С. 21.

2. Гимпельсон Е.Г. НЭП и советская политическая система 20-е годы. – Москва: ИРИ РАН, 2000. – С. 23.

3. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент, Шарқ, 2000. – Б. 231.

4. Наша газета. 1918 г. 9 март.

5. Джураев Х. Промышленность Узбекистана. Темпы, структура, эффективность. – Ташкент: Узбекистан, 1974. – С. 40.

6. Наша газета. 1919 г. 6 апреля.

7. Народное хозяйство Туркестана. 1918 г. -№ 3. – С. 23-24.

8. История народного хозяйства Узбекистана. Том 1. – С .30.

9. История народного хозяйства Узбекистана. Том 1. – С . 50-51.

10. Голованов А.А. Крестьянство Узбекистана: эволюция социального положения. 1917-1938 гг. – Ташкент: Фан, 1992. – С. 22.

11. Наша газета. 1918 г. 9 март.

12. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘z MA), R-17-fond, 1-ro‘yxat, 1197a-ish, 19-21-varaqlar.

13. O‘z MA, R-22-fond, 1-ro‘yxat, 54-ish, 15-16-varaqlar.

14. Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. – Ташкент, 2000. - С. 48.

15. Farg‘ona viloyat davlat arxivi (Farg‘ona VDA), 121-fond, 1-ro‘yxat, 14-ish, 12-varaq.

16. Farg‘ona VDA, 121-fond, 1-ro‘yxat, 22-ish, 47-varaq.

17. Бюллетень ЦСУ УзССР. - 1925. № 12. – С. 17-25.

18. Поляков Ю.А. Переход к НЭПу и советское крестьянство. – Москва: Наука, 1967. – С. 55-56.

19. Постников Е.С. Новая экономическая политка: идеи, практика, уроки. Учебно-методическое пособие. – Тверь, 1993. – С. 22.

AMIR TEMUR QO‘SHINING OZIQ-OVQAT TA’MINOTI

Iskandarov Jasurbek G‘ulom o‘g‘li,
Podpolkovnik,
Toshkent Harbiy okrugi, 42219 harbiy qism komandirining moddiy ta’minot bo‘yicha o‘rinbosari

UO‘K 94(575.1)

Annotatsiya: *mazkur maqolada Amir Temur qo‘shinining oziq-ovqat ta’minoti tizimi tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilinadi. Qo‘shinlarni oziq-ovqat va yem-xashak bilan ta’minlashning tashkiliy mexanizmlari, zaxiralarni shakllantirish hamda hududiy resurslardan foydalanish masalalari tadqiq etiladi. Tadqiqot natijalari Amir Temur harbiy tizimida oziq-ovqat ta’minoti strategik ahamiyatga ega bo‘lgan moddiy ta’minot yo‘nalishlaridan biri ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *qo‘shin, harbiy yurish, oziq-ovqat ta’minoti, harbiy ko‘riklar, qurol-aslaha omborlari, zaxiralar.*

Annotation. *This article analyzes the food supply system of Amir Timur’s army during military campaigns based on historical sources and scholarly literature. It examines the organizational mechanisms of providing troops with food and fodder, the formation of supplies and the utilization of regional resources. The study also substantiates the role of logistical support in ensuring the mobility and combat effectiveness of the army. The findings demonstrate that food supply constituted one of the strategically important areas of material support within Amir Timur’s military system.*

Keywords: *Amir Timur, army, military campaign, food supply, military inspections, arms and ammunition depots, reserves.*

Аннотация: *В данной статье на основе исторических источников и научной литературы анализируется система продовольственного снабжения армии Амира Тимура. Изучаются организационные механизмы обеспечения войск продовольствием и кормами, формирование резервов и использование территориальных ресурсов. Результаты исследования показывают, что продовольственное снабжение являлось одной из областей материального обеспечения стратегического значения в военной системе Амира Тимура.*

Ключевые слова: *армия, военный поход, продовольственное снабжение, военные инспекции, склады оружия, резервы.*

Kirish. Amir Temur uzoq muddatli yurishlari davomida qo‘shinni oziq-ovqati, ot-ulovlarini yem-xashaklari ularning belgilangan miqdorlardagi zaxiralarga ega bo‘lishlariga alohida e’tibor qaratgan. Amir Temur jang mobaynida har bir jangchilarning jangovar salohiyatini ushlab turuvchi, ularning tetikligi va sog‘lig‘iga ta’sir qiluvchi vosita oziq-ovqatligini bilgan holda ish tutgan. Chunki Sohibqiron och qolgan jangchi bilan jangda g‘alaba qozonish mumkin emasligini juda yaxshi bilgan.

Amir Temur o‘zga mamlakatlarga yurish uyishtirgan chog‘ida qo‘shinning batamom oziq-ovqat mahsulotlarining miqdorini tekshirgan. Ayniqsa barchamizga ma’lum bo‘lgan to‘qnashuv To‘xtamishxon bilan yuzaga kelgan ziddiyatda ham qo‘shinni oziq-ovqat ta’minotini tekshiradi.

Adabiyotlar sharhi. Amir Temur har bir uzoq yillik yoki, qisqa muddatga amalga oshiradigan yurishlaridan qat’iy nazar qo‘shinning oziq-ovqat ta’minotini ta’minlashni eng birinchi amalga oshirgan. Qo‘shinni och qolmasligini ta’minlash uchun alohida ta’minot bo‘linmalari tayyorlangan bo‘lib, buni shaxsan Amir Temurning o‘zi nazorat qilgan. Bu bo‘linmalar xizmat faoliyatidan kelib chiqib, turli xil vazifalarni bajaruvchi bo‘linmalarga bo‘lingan. Qo‘shinni yurish amalga oshirgan vaqtda oziq-ovqat bilan ta’minlashni amalga oshiruvchi bo‘linmalar, qo‘shinni jang mobaynida oziq-ovqat bilan ta’minlovchi bo‘linmalar va doimiy bir joyda ma’lum muddatga to‘xtab chodirlarda yashagan vaqtda yoki hordiq chiqarganda, bayram va zafar quchganda oziq-ovqat bilan ta’minlovchi bo‘linmalar kabi turlarga bo‘lingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda Amir Temur qo‘shinining oziq-ovqat ta’minoti tarixiylik, xolislik va tizimlilik tamoyillari asosida o‘rganilib, yozma tarixiy manbalar hamda ilmiy adabiyotlar qiyosiy-tahliliy metod yordamida tahlil qilinadi. Harbiy yurishlar jarayonida oziq-ovqat zaxiralarini shakllantirish, saqlash va yetkazib berish masalalari tarixiy-qiyosiy hamda manbashunoslik usullari asosida tadqiq etiladi. Tadqiqot natijalarini umumlashtirishda tahlil, sintez va induksiya metodlaridan foydalanilib, qo‘shinning oziq-ovqat ta’minoti harbiy strategiya va logistika tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida baholanadi.

Tahlillar va natijalar. Yurish boshlashdan oldin Amir Temur birinchi bo‘lib ta’minot bo‘linmalarini o‘z qo‘shinidan oldin jo‘natib yuborgan. Bularning

vazifasi qo‘shin dushman ustiga yurish uyishtirgan vaqtda, ularni barcha yo‘l davomida oziq-ovqat va yem-xashak bilan ta’minlashdan iborat bo‘lgan. Shu bilan birga bu ta’minot bo‘linmalari o‘z qo‘shinlarini ortga qaytib kelishini ham inobatga olgan holda kelgusi oziq-ovqat va hayvonlar uchun ham yem-xashaklarni tayyorlab turishni harakatini boshlagan.

Bu bo‘linma tarkibida yana o‘ziga xos dehqonlar va chorvadorlar ham bo‘lgan. Bular jang boshlanishidan ancha oldin harakatlanishgan. Masalan, bir yil, ikki yil oldin chiqib ketib qo‘shinning yurish yo‘llariga ekinlar, g‘alla, poliz ekinlari, hayvonlar uchun beda, yem-xashaklarni to‘p-to‘p qilib to‘plashgan. Katta-katta maydonlarga bug‘doylar ekib lashkarlar uchun asosiy yegulik hozirlagan. Qolgan xashak va somonlar esa otlar uchun ozuqa vazifasini o‘tagan.

Ko‘rinib turibdiki, bu bo‘linmalar o‘zlari bilan bug‘doy, arpa, beda, kabi don mahsulotlarini urug‘lik uchun, chorva mollarini haydab boruvchi chorvodorlar esa qo‘shinni kelgunicha, chorvani ko‘paytirib go‘sht va sut mahsulotlari bilan ta’minlagan. Bundan tashqari, qo‘shinning ortki qismidan ham bir qator chorvadorlar va karvonlar harakatlangan. Ular qo‘shin har tomonlama ta’minotini amalga oshiruvchi qism hisoblangan.

Amir Temurni To‘xtamishxonga qarshi yurishida quyidagi chora-tadbirlarni ko‘rgan: yurish oldidan o‘ziga tegishli yo‘llar xavfsizligini ta’minlagan, taxmin qilinayotgan yo‘nalish bo‘ylab don va boshqa yer ekinlarini ekishni buyurib, katta oziq-ovqat zaxiralarini to‘plagan. Yurish paytida har bir jangchiga bir oyda 25 - 26 funt pul (1 funt - 400 gramm) un berilishi belgilangan (Sharmuaning taxminiga ko‘ra).

Amir Temur yurishga otlanishdan oldin yana bir o‘ziga xos tadbirni amalga oshirar edi. Saltanatning turli viloyatlariga tavachi va choparlar yuborilib, ommaviy safarbarlik haqida farmoni oliy e’lon qilinadi. Bir yilga yetadigan oziq-ovqat, yem-xashak yig‘ish va hozirlash choralari ko‘rilgan [1].

Temurbek bunday farmonlardan tashqari jangga yurish qilishdan ancha muddat oldin ham o‘zining maxsus ta’minot yig‘uvchi bo‘linmalarini chiqarib yuborgani, o‘z qo‘shinlarini uzluksiz ta’minotini amalga oshirishda misli ko‘rilmagan yordamini ko‘rsatgan.

Eng oldin chiqib ketadigan oziq-ovqat yig‘uvchi va ta’minot bo‘linmalarini Amir Temurning o‘g‘li Jahongirmirzo boshchiligida amalga oshirilgan, har doim bunday muhim vazifalarni Amir Temur Jahongirmirzoga ishonib topshirgan.

Shu o‘rinda ta’kidlash o‘rinliki, Temurni Xitoyga yurish qilishidan oldin ham ko‘rgan taraddudi taqsinga sazovor edi.

Bu urush uni Hindiston yurishidan avvalroq jalb etgandi va Temur bu safarga zimdan uzoq tayyorgarlik ko‘rdi. Bo‘lajak urushda eng katta qiyinchilik qo‘shinni oziq-ovqat bilan ta’minlash edi. Shu sababdan Amir Temur hali 1397-yildayoq chegara shahar Ashir (Qorashahar) da aholi sonini oshirish haqida buyruq berib, bu yerga 40 ming otga ega bo‘lgan bir necha ming oilani ko‘chirib, ularga o‘sha yerlarda dehqonchilik va savdoni rivojlantirish, qal’alar qurish va iloji boricha ko‘plab oziq-ovqat zaxiralari to‘plash haqida buyruq beradi [2].

“Temur tuzuklari” ning asl nusxasida Amir Temurning bir yilga yetarli ozuqa tayyorlagani yozilgan. Urush cho‘zilib ketadigan sharoitda, qo‘shin qiynalmasligi uchun Amir Temur bir necha oyga yetadigan oziq-ovqatni g‘amlab olar, o‘z chorvasi bilan cho‘l ichkarisiga chekinayotgan dushman, uning qo‘shinlarini mushkul ahvolga solib qo‘yishini yaxshi bilgani uchun oziq-ovqatni ehtiyotlab sarflashga harakat qilardi.

Amir Temurning To‘xtamish bilan asosiy jang boshlanishidan oldin qo‘llagan tadbirlari ham jang taqdiri uchun daxldor edi.

Amir Temur dushman askarlarining birgina jangovar shayligiga ta’sir etmasdan, dushman lashkarlariga jang mobaynida ham o‘z jangchilarida dushmanga bo‘lgan nafratni kuchaytirish va ularning ma’naviy birdamligini so‘ndirish maqsadida ham o‘zining oziq-ovqat va ta’minot bo‘linmalarini ishga solgan edi.

Amir Temur sakkiz ming kishilik qismga chodirlar tikib, taom tayyorlashni buyuradi. Ko‘rilgan barcha chora-tadbirlar, jangchilarning jasurligi va tajribaliligi, Temur so‘zi bilan aytganda, chigirtka va chumoli kabi behisob qo‘shinga ega bo‘lgan To‘xtamishxon ustidan g‘alaba qozonishga olib keldi. Bu jang uch kun davom etgandi.

Amir Temur bunday oqilona qarorlari bilan dushmanga, ham jismonan, ham ruhan hujum qilib, jangda g‘alaba qozonishiga sababchi bo‘lar edi. Ko‘rinib turibdiki Amir Temur o‘z qo‘shinlari bilan oshpaz, ya’ni ovqat tayyorlovchi insonlarni ham olib yurgan.

Qo‘shin bilan birga qassoblar, bakovullar, qovurilgan va pishirilgan go‘sht bilan savdo qiluvchilar, arpa va meva sotuvchilar, nonvoylar ham ko‘chib yurgan. Turli kasb egalari askarlarga xizmat ko‘rsatganlar [3].

Sohibqiron harbiy yurishlari paytida oziq-ovqat ta’minoti masalalarini lashkarboshi amirlar va askarlar manfaatlariga mos holda hal qilgan. Tarixiy

ma’lumotlarga qaraganda, jangchilar qayerga borishmasin, qo‘y, tuya va otlar ularning asosiy yemishi hisoblangan, go‘sht va sut bilan ta’minlab turgan. Sahro va cho‘lu biyobonlarda, shuningdek, jazirama issiq paytlarda, lashkar asosan tunda yo‘l bosgan, kunduzi esa ot va qoramollarni yaylovga haydab, o‘zlari o‘tovlarda hordiq chiqarishgan.

Sohibqiron uzoq yillik yurishlari mobaynida bir qator chorvador va dehqonlarni va sotuvchilarni qo‘shinning ortki qismidan harakatlanishiga ruxsat bergan. Bu chorvador va dehqonlar ham qo‘shinning ortidan harakatlangan. Chunki chorvodarlar Amir Temurning qo‘shiniga soliq to‘lash bilan birga o‘zining savdo sotiq ishlarini ham amalga oshirgan. Bunda chorvador va cho‘ponlar o‘z podalarini qo‘shinning ortidan haydab borgan. Amir Temur jangchilarning maishiy va shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun barcha sharoitlarni yaratib bergan, jumladan bozorni ham.

Bunda qo‘shin dam olish chog‘ida yoki jang yakunlanganidan so‘ng, jangchilar uchun bayram dasturxoni yozilganda, jangchilar o‘zlari uchun beriladigan oziq-ovqat miqdoridan tashqari boshqa mahsulotlarni yeyishni xohlashganlarida, sotuvchi va chorvadoru, dehqonlarning bozoridan xohlagan oziq-ovqat mahsulotlarini olib yeyishgan.

Bundan tashqari, buyuk sarkardaning buyrug‘i bilan savdogar va hunarmandlar, lashkar ortidan ergashib borgan. Sarrojlar, temirchilar, qurolsoz chilangarlar, oziq-ovqat mahsulotlari bilan savdo qiluvchi tujjorlar safar chog‘i qo‘shinni, ularga zarur bo‘ladigan mahsulot va ashyolar bilan ta’minlab turgan.

Shu bilan birga Amir Temur qo‘shinlarida o‘ziga xos kirim-chiqim hisoblari yuritilgan. O‘z navbatida oziq-ovqat ta’minoti oluvchilar ro‘yxati ham yuritilib borilgan.

Amir Temur harbiy yurishlarni yo‘llardagi ta’minot masalalari imkoniyatlarini o‘rganib chiqqanidan so‘ng yo‘nalishlarini tanlagan. Bu bilan qo‘shinni oziq-ovqat bilan qanday ta’minlash, yo‘l davomida otlarning oziqlanishi uchun yam-yashil o‘tlar bisyor bo‘ladigan yaylovlarning bor yo‘qligiga asosiy e’tibor qaratilgan.

So‘zimizni yaqqol isboti sifatida Temurni 1391-yilda To‘xtamishxon turgan yerga borishi uchun mavjud bulgan 3 ta yo‘ldan eng uzun yo‘nalishini tanlaganini bayon qilib o‘tishimiz mumkin. Amir Temurning nima uchun aynan uchinchi yunalishni tanlaganiga bir qator dalillarni keltirib o‘tamiz. Birinchi va ikkinchi yo‘nalish bo‘yicha masofa 800 kmni tashkil etsa ham, bu yo‘nalishda

ta’minot (askarlar uchun oziq-ovqat, ot va tuyalar uchun yem-xashak tanqisligi) masalalari, tabiiy suv (chunki bahor oylarida daryo suvlari to‘lib toshadi) ob-havo kabi bir qator ta’minot masalalarida qiyinchiliklar mavjud edi.

Bundan tashqari, mazkur yo‘nalishni tanlashga qo‘shin ortidan harakatlanuvchi yirik zaxiralar ortilgan ot-aravalar, dehqonlar va chorvadorlar harakatlana olish imkoniyati ham albatta hisobga olingan bulsa kerak

Sohibqironning turk sultoni Boyazid bilan bo‘lgan jangda ham Amir Temurning vaziyatga baho berib jangni rajalashtirishi va uni muvaffaqiyatli amalga oshirilganligini ko‘ramiz.

Orqa tarafda o‘z qo‘shini uchun oziq-ovqat zaxiralarini tayyorlash, kerak bo‘lganda chekinish uchun ma’qul yo‘nalish bo‘yicha harakat qilish shart-sharoitlarini yaratib qo‘yish edi.

Bitmas-tuganmas harbiy vositalardan foydalangan, puxta mulohazali Amir Temur, asosan, piyodalardan tashkil topgan ko‘p mingli Boyazid lashkarlarini oziq-ovqat bilan ta’minlash qanchalik qiyin ekanligini yaxshi tushunardi. Temur qabul qilgan urush usuli tez orada Boyazid qo‘shinida oziq-ovqat zaxiralari tugashiga olib kelar, tetik ruhni so‘ndirish, chekinishga majbur etib, ta’qib davomida uni tor-mor qilish uchun qulay vaziyat tug‘ulishi muqarrar edi.

Amir Temurning dushmanning oziq-ovqat va suv ta’minotisiz qolishiga alohida e’tiborini qaratar edi, Boyazid lashkarlariga qarshi bir qator tadbirlari doirasida, dushman uchun kutilmagan holatlarni yuzaga keltirar edi. Hatto Amir Temurni bunday dushman yo‘lidagi yoki joylashgan hududga kiruvchi ta’minot yo‘llari, quduq, soy va daryolargacha xabarlarni yetkazib turadigan maxsus askarlari mavjud edi.

Amir Temur o‘z lashkarlarini har qanday kutilmagan vaziyatlardan olib chiqa oladigan buyuk sarkarda edi. Temur yurish qilganda shunday vaziyatlar yuzaga kelar ediki, oziq-ovqat mahsulotlari butunlay tugab och qolish darajasigacha kelgan vaqtlarda, Amir Temur ov (shikor) uyishtirar va qo‘lga kiritilgan o‘ljani teng taqsimlar va butun qo‘shin bilan birga baham ko‘rar edi. Bu o‘ljani bahodir, o‘nbegi, yuzbegi, mingbegi va tumanbegilar ham oddiy jangchilar bilan bir safda turib taomlanar edi, Buni ko‘rgan oddiy jangchilar ham jangovar ruhlarini tushurmas, qaytanga ularni ko‘rib ruhlanar edi.

1391-yil bahorida Amir Temur o‘z lashkarlari bilan To‘xtamishxonni to‘rt oy davomida poyonsiz cho‘l bo‘ylab ta’qib qilib boradi. Bu haqda muarrix Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarida shunday yozadi: “Qayoqqa qaramang, hammayoq cho‘lu biyobon. Yetti oy yursangiz ham na biror tirik

insonni, na bir ekinzorni uchratasiz. Lashkarlarga ergashib kelayotgan bozor ham huvillab qoldi. Narx-navo ocharchilik yillaridek osmonga ko‘tarilib ketdi. Bitta qo‘yning bahosi 100 dinorga chiqdi... Temur tuman amirlariga, mingboshi, yuzboshi, o‘nboshilarga go‘sht pishirishni taqiqlab qo‘yishni amr etdi. Butun qo‘shin ilgari faqat qullarga ravo ko‘riladigan suyuq atala bilan kun ko‘rishi kerak edi. Amirlarning o‘zlari ham shu ataladan ichishardi. Har bir kunda bir tovoq atala berilardi. Shu bir tovoq atalaning ham imkoni bo‘lmay qolganda, qo‘shin ozgina bo‘lsada yegulik, yovoyi qushlar tuxumi, turli mayda hayvonlar va yeyishga arziydigan o‘t-o‘lan izlab sahroni keza boshladi. Ana shunda Amir Temur katta shikor o‘tkazishga farmon berdi.

Katta shikor 1391-yil 6-mayda boshlandi. Amirlar ulkan doira hosil qilmoq uchun sipohiylar ajratdilar, doira bora-bora torayib barcha jonivorlar o‘rtaga haydab kelindi. Ikki kun deganda doira birlashib, doira ichi hayvonlarga to‘lib ketadi. Natijada juda ko‘p kiyik, tovushqon, kulon va boshqa hayvonlar ovlanadi. Sohibqironning amalga oshirgan ana shu tadbiri tufayli, lashkar bir necha kun ana shu ovda g‘amlangan go‘sht bilan kun kechgan.

Ana shunda Amir Temur uchun, qaynatilib ezilgan go‘sht va qiymalangan yovvoyi giyohlardan tayyorlangan taom - bulamiqdan boshqa narsalarni iste’mol etganlarga o‘lim jazosi berilishi to‘g‘risida farmon e’lon qildi. Topilgan bor masalliq va ovlangan barcha parranda-yu jonivor shu taomni tayyorlash uchun oshxonaga topshirilmog‘i lozim edi. Oddiy askar-u amir, kimligidan qat’iy nazar, kun bo‘yi bir ulish taom olardi. Giyohlarning bulamiqdagi miqdori kundan kunga orta bordi, hatto shunday kun ham keldiki, unda faqat yovvoyi giyohlar qoldi. Ana o‘sha vaqtda hattoki har bitta askar oziqlanishi uchun mo‘ljallangan un miqdori ham belgilab qo‘yilgan edi. Bunga ko‘ra, 25 funt un 60 kun iste’mol qilinishi darkor etib belgilab qo‘yilgandi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Amir Temur qo‘shinining oziq-ovqat ta’minoti harbiy yurishlarning uzliksizligi va jangovar qobiliyatini ta’minlovchi muhim omillardan biri bo‘lgan. Oziq-ovqat ta’minoti faqat yetkazib berish bilan cheklanmagan, balki oldindan rejalashtirish, zaxiralarni shakllantirish va hududiy resurslardan oqilona foydalanish kabi tashkiliy mexanizmlarni qamrab olgan.

Umuman olganda, Amir Temur qo‘shinining oziq-ovqat ta’minoti alohida xo‘jalik masalasi emas, balki harbiy strategiya va moddiy ta’minotning o‘zaro bog‘langan tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur tizimning samarali tashkil

etilishi qo‘shinlarning uzoq muddatli yurishlarni amalga imkoniyati va jangovar salohiyatini saqlab qolishda muhim omil bo‘lgan. Shu jihatdan, Amir Temur davridagi oziq-ovqat ta’minoti tizimini o‘rganish nafaqat Temuriylar davri harbiy tarixini, balki harbiy logistikaning shakllanish va rivojlanish jarayonlarini chuqurroq anglash uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamidulla Dadaboyev. Amir Temurning harbiy mahorati “Yozuvchi”, Toshkent.1996 – 44 b.

2. Mixail Ivanin. Ikki buyuk sarkarda. Chingizxon va Amir Temur: harbiy san’ati, strategiya va taktikasi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017- yil, 269-b.

3. Rui Gonsales de Klavixo. Kundalik, 175-b.

O’ZBEKISTON SSR CHORVACHILIGIDA ZOOVETERENARIYA HOLATI

Djurayev Ravshan,
O’zbekiston milliy universiteti

UO‘K 94(575.1)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekiston SSRda chorvachilik tarmog‘ining rivojlanishida zooveterinariya xizmatining o‘rni va uning faoliyat holati tarixiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda sovet hokimiyati yillarida chorva mollarining kasalliklarini oldini olish, veterinariya xizmatlarini tashkil etish, chorva mollarini davolash, naslchilik ishlarini yo‘lga qo‘yish hamda chorvachilik xo‘jaliklarida zooveterinariya tadbirlarini amalga oshirish jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, veterinariya punktlari, stansiyalari va laboratoriyalarining tashkil etilishi, mutaxassislar bilan ta’minlanganlik darajasi, yem-xashak bazasi va chorva mollarining sanitariya-gigiyena sharoitlari bilan bog‘liq muammolar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston SSR chorvachiligida zooveterinariya xizmatining shakllanishi va rivojlanishi bevosita davlatning agrar siyosati, moddiy-texnik imkoniyatlar hamda malakali kadrlar ta’minoti bilan bog‘liq bo‘lganini ko‘rsatadi. Maqolada mavjud yutuqlar bilan bir qatorda zooveterinariya tizimidagi kamchilik va muammolar ham tarixiy manbalar asosida ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston SSR, chorvachilik, zooveterinariya, veterinariya xizmati, chorva mollari, hayvon kasalliklari, veterinariya punktlari, veterinariya stansiyalari, naslchilik, sanitariya, chorva mollari salomatligi, agrar siyosat.*

Аннотация. *В статье с исторической точки зрения анализируется роль и состояние зооветеринарной службы в развитии животноводства Узбекской ССР. Особое внимание уделяется процессам профилактики и лечения*

заболеваний сельскохозяйственных животных, организации ветеринарного обслуживания, проведению зооветеринарных мероприятий в колхозах и совхозах, а также развитию племенного дела. Рассматриваются вопросы создания и функционирования ветеринарных пунктов, станций и лабораторий, обеспечения отрасли квалифицированными специалистами, материально-техническими ресурсами и лекарственными средствами. Наряду с достигнутыми результатами раскрываются проблемы, связанные с санитарно-гигиеническими условиями содержания животных, недостаточным развитием кормовой базы, нехваткой ветеринарных кадров и материально-техническим обеспечением ветеринарной системы. Результаты исследования показывают, что состояние зооветеринарного обслуживания в Узбекской ССР находилось в непосредственной зависимости от аграрной политики государства, уровня материально-технического обеспечения и кадрового потенциала отрасли. Исследование позволяет более полно раскрыть особенности развития животноводства и ветеринарного дела в советский период.

Ключевые слова: *Узбекская ССР, животноводство, зооветеринария, ветеринарная служба, сельскохозяйственные животные, болезни животных, ветеринарные пункты, ветеринарные станции, племенное дело, санитария, здоровье животных, аграрная политика.*

Abstract. *This article examines the role and condition of zooveterinary services in the development of livestock farming in the Uzbek Soviet Socialist Republic from a historical perspective. Particular attention is paid to the organization of veterinary services, the prevention and treatment of livestock diseases, the implementation of zooveterinary measures in collective and state farms, and the development of livestock breeding practices. The study also analyzes the establishment and functioning of veterinary stations, posts and laboratories, the provision of qualified veterinary specialists, medicines and material and technical resources. Alongside the achievements of the period, the article identifies major problems associated with the sanitary and hygienic conditions of livestock keeping, insufficient feed resources, shortages of qualified personnel, and inadequate material and technical support for veterinary institutions. The findings demonstrate that the development and effectiveness of zooveterinary services in the Uzbek SSR were closely associated with state agricultural policy, the level of material and technical provision, and the availability of qualified specialists. The study contributes to a deeper understanding of the historical development of livestock farming and veterinary services in Soviet Uzbekistan.*

Keywords: *Uzbek SSR, livestock farming, zooveterinary services, veterinary service, livestock, animal diseases, veterinary posts, veterinary stations, animal breeding, sanitation, animal health, agricultural policy.*

KIRISH.

Chorvachilik O‘zbekiston SSR qishloq xo‘jaligining muhim va strategik tarmoqlaridan biri bo‘lib, aholining go‘sht, sut, jun, qorako‘l terisi va boshqa chorvachilik mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlashda muhim o‘rin egallagan. Respublikaning tabiiy-iqlim sharoiti, yaylov va ozuqa resurslari chorvachilikning turli yo‘nalishlarini rivojlantirish uchun muayyan imkoniyatlar yaratgan. Shu bilan birga, chorva mollari bosh sonini ko‘paytirish va mahsuldorligini oshirish masalasi hayvonlarning sog‘lig‘ini muhofaza qilish, yuqumli kasalliklarning oldini olish va veterinariya xizmatini samarali tashkil etish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan.

Sovet hokimiyati yillarida O‘zbekiston SSRda qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish va keyinchalik kolxoz-sovxoz tizimining mustahkamlanishi chorvachilikni boshqarish va unga xizmat ko‘rsatish tizimida ham muayyan o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Chorvachilik xo‘jaliklarida veterinariya punktlari, stansiyalari va laboratoriyalarining tashkil etilishi, veterinariya mutaxassislarini tayyorlash va ularni qishloq joylariga jalb etish, hayvonlarni muntazam ko‘rikdan o‘tkazish hamda profilaktik tadbirlarni amalga oshirish davlat agrar siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Zooveterinariya xizmatining asosiy vazifalaridan biri chorva mollari orasida yuqumli va parazitar kasalliklarning tarqalishining oldini olish edi. Chorva mollarining kasallanishi nafaqat ularning nobud bo‘lishiga, balki mahsuldorlikning pasayishi, chorvachilik xo‘jaliklarining iqtisodiy zarar ko‘rishi va go‘sht-sut mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining kamayishiga ham olib kelgan. Shu sababli emlash, dezinfeksiya, veterinariya nazorati, kasallangan hayvonlarni ajratish va davolash kabi tadbirlar chorvachilikni rivojlantirishning ajralmas qismi sifatida qaralgan.

Biroq amaliyotda zooveterinariya xizmatini tashkil etish va uning samaradorligini ta’minlash bilan bog‘liq qator muammolar mavjud edi. Ayrim hududlarda veterinariya muassasalarining moddiy-texnik bazasi yetarli darajada rivojlanmagan, malakali mutaxassislar tanqisligi kuzatilgan, dori-darmon va veterinariya vositalari bilan ta’minlashda uzilishlar yuzaga kelgan. Ayniqsa, uzoq

qishloq va yaylov hududlarida veterinariya xizmatlarini o‘z vaqtida tashkil etish murakkab kechgan. Chorva mollarini saqlash sharoitlari, yem-xashak ta’minoti va sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilish darajasi ham hayvonlar salomatligiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

Mazkur masalaning tarixiy jihatdan o‘rganilishi O‘zbekiston SSRda chorvachilik tarmog‘ining rivojlanish mexanizmlarini, davlatning agrar siyosati va uning amaliy natijalarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Zooveterinariya xizmatining shakllanishi va faoliyatini tadqiq etish orqali nafaqat hayvonlar salomatligini muhofaza qilish tizimining evolyutsiyasini, balki sovet davrida qishloq xo‘jaligini boshqarish, moddiy-texnik ta’minot va kadrlar siyosatining o‘ziga xos jihatlarini ham aniqlash mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston SSR chorvachiligida zooveterinariya holatini tarixiy manbalar asosida o‘rganish mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Tadqiqotning asosiy maqsadi sovet davrida respublikada zooveterinariya xizmatining tashkil etilishi va rivojlanishi, uning chorvachilik samaradorligiga ta’siri, erishilgan natijalar hamda mavjud muammolarni tarixiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Natijalar.

1947-yilda O’zbekiston SSR Qishloq xo’jaligi ministrligining hayvonlarning oyoq va og’iz kasalligiga qarshi kurash chora-tadbirlari to’g’risidagi buyrug’i e’lon qilinadi[1]. 1949-yilda jamoat chorvachiligida zootexnika va veterinariya xizmatlari ma‘lum darajada rivojlandi. Zooveterinariya shahobchalarini dori-darmon, asbob-uskuna, dezinfeksiya vositalari va biologik preparatlar bilan ta‘minlash yaxshilandi. Shu bilan bir qatorda, ko’p rayonlarda zooveterinariya shahobchalari mutaxassislar bilan, ayniqsa, zootexniklar bilan yetarlicha ta‘minlanmadi. Zooveterinariya shahobchalarida ishlovchi mutaxassislarning uy-joy va transport bilan ta‘minlanishi yomon ahvolda edi. Lekin shunday bo’lsa-da, zooveterinariya muassasalari qurish uchun «Госстрах» tomonidan ajratilgan mablag’lar o’z o’rnida ishlatilganligini ko’rishimiz mumkin[2].

O’zSSR Qishloq xo’jaligi ministrligining 1951-yil 2-fevralda 1093-sonli Zoovet xizmatining ishini yaxshilash bo’yicha chora-tadbirlar qarori e‘lon qilindi. Ministrlikning 1952-yil 15-martda chiqargan № 329 buyrug’iga ko’ra, O’zSSRda hayvonlar va qushlarda yuqumli kasalliklar bilan kurashish ishlari nihoyatda qoniqarsiz deb topildi. O’zSSR Qishloq xo’jaligi ministrligi Respublika bo’yicha eng yomon holatdagi yuqumli kasallik, qo’chqor o’pka og’rig’i va qushlarning

rotavirus infeksiyasi 1951-yilda keng tarqalganligini ma‘lum qildi. Toshkent, Samarqand, Farg’ona, Andijon va boshqa hududlarda kasalliklar va yuqumli kasalliklarni davolash va oldini olish bo’yicha zarur chora-tadbirlar bajarilmagan edi[3].

1955-yil 3-fevralda O’zbekiston SSR Ministrlar Sovetining Qoraqalpog’iston SSRda brusellyozga qarshi kurash bo’yicha tadbirlar haqidagi qarori qabul qilindi. Shuningdek, 1955-yil 1-iyunga qadar brusellyozga qarshi kurash bo’yicha veterinariya ekspeditsiyasini tashkil etish va 16,5 birlik miqdorida jihozlash, xarajatlar smetasiga asosan 1955-yil 6-apreldagi Qoraqalpoq SSR Ministrlar Sovetining №58-r qarori asosida, jami 323,082 rubldan, shu jumladan, ish haqi 104,480 rubl ajratilgan edi[4].

1956-yil 10-yanvarda O’zbekiston SSRda hayvonlar quturishiga qarshi profilaktika va unga qarshi kurash tadbirlarini yaxshilash bo’yicha O’zbekiston SSR Qishloq xo’jaligi ministrligini buyrug’i qabul qilindi. Unda muvofiq, 1956-yil 1-fevralga qadar barcha uy, xizmat va xo’jalik ehtiyoji uchun boqiladigan itlarni ro’yxatga olish va ularni quturishga qarshi emlash ishlarini yakunlandi[5].

1958-yil dekabr oyida O’zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi Chorvani sun‘iy urug’lantirishni kengaytirish va yaxshilash chora-tadbirlari to’g’risidagi Farmonni qabul qildi[6]. Ushbu farmonni amalga oshirish maqsadida respublikada kolxoz va sovxozlardagi chorva zotdorligini yaxshilash bo’yicha keng ko’lamli ishlar olib borildi. Zotdor chorvachilikni hududlar bo’yicha ixtisoslashtirish rejasida shvis, alatau, qora-ola va qozoq dasht zotlarini keng tarqatish ko’zda tutildi. Bushuev zoti Toshkent viloyatining ikki tumanida va alohida aralash chorvachilik xo’jaliklarida yetishtirildi. XX asrning 80-yillarida O’zbekiston veterinariya sohasi ko’p jihatdan rivojlanib bordi. Sovet davridagi markazlashtirilgan boshqaruv tizimi doirasida veterinariya xizmatlari keng qamrovli tashkil etilgan, hayvonlar kasalliklarining oldini olish va davolash, epidemiyalarga qarshi kurashish bo’yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

1950-yillarda O’zbekistonda veterinariya sohasining moddiy-texnik bazasi rivojlanish yo’lida edi, biroq bu davrdagi iqtisodiy va siyosiy holatlar, xususan, Ikkinchi jahon urushi va urushdan so’nggi tiklanish jarayoni, soha rivojiga salbiy ta‘sir ko’rsatgan. Veterinariya xizmatlari asosan qoliplashgan, lekin zamonaviy texnologiyalar va asbob-uskunalar yetarli emas edi. Qishloq joylardagi veterinariya punktlari jihozlanmagan, laboratoriyalar yetishmas edi. Maxsus

transport, sovutkichlar va biologik dori vositalari yetarli emasligi epizootik kasalliklarga qarshi samarali kurashishda jiddiy to’siq bo’lib qolgan[7].

1961-yilda viloyat qishloq xo’jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va tayyorlash boshqarmalari, Qoraqalpog’iston ASSR qishloq xo’jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va tayyorlash vazirligining vetvrachlari tayinlanmagan bo’lsa, 1962-yilda esa 8 nafar vetvrach tayinlangan edi[8].

O’zbekiston SSRda 1971-yilda 8 ta veterinariya bo’limlari mavjud bo’lgan bo’lsa, 1971-yilda esa ularning soni 11 taga yetdi. Bundan tashqari, go’sht mahsulotlari nazoratini amalga oshiruvchi stansiyalar faoliyatida ham yirik o’zgarishlar ro’y berdi[9].

1968-yili respublikada naslli qoramollarni sun‘iy urug’lantirish bo’yicha 1272 punkt faoliyat ko’rsatib, ularda 247,6 ming bosh sigir va g’unajinlar urug’lantirildi yoki reja 96,9 foizga bajarildi[10]. Shu jumladan, 8,1 ming bosh muzlatilgan urug’i olindi. Biroq 1969-yilda respublikaning kolxoz va sovxozlarida chorva mollarini ko’paytirish bo’yicha olib borilgan ishlar natijalarini tahlil qilar ekanmiz, shuni ta‘kidlash kerakki, ayrim viloyatlarni hisobga olmaganda, 1968-yilga nisbatan tug’ish bilan bog’liq vaziyat birmuncha yomonlashganligini kuzatish mumkin. 1979-yilgacha bo’lgan davrda veterinariya sohasi obyektlari qurilishlari olib borildi. Jumladan, Chorvachilik institutining «Красний водопад» eksperimental bazasida 1200 bosh sigirga mo’ljallangan sutchilik kompleksi qurilib foydalanishga topshirilgan edi.

O’zbekistonda zootexnika va veterinariya shahobchalarini kadrlar bilan ta‘minlash ishlari olib borildi. Shu maqsadda, 1949-yilda oliy va o’rta o’quv yurtlarini tamomlagan 372 nafar mutaxasislar joylarga yuboriladi. Sohada mutaxassislar tayyorlaydigan bir yillik maktablarda 174 nafar chorvachilik mutaxasissi, kurs va seminarlarda kolxoz chorvachilik fermalarining 14 ming xodimi tayyorgarlikdan o’tdi[11]. Biroq chorvachilik uchun kadrlar tayyorlash ishida ham jiddiy kamchiliklar mavjud edi. 1949-yilda Respublikada umumiy malakaga ega bo’lgan kadrlar tayyorlash rejasi bajarilmay qoldi. Zootexniklar va veterinariya xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash ishlari yo’lga qo’yilmadi, institutlar huzurida ularning malakasini oshirish ishlari tashkil qilinmadi. Respublika hukumatning tegishli qarori bo’lishiga qaramasdan, 1949–1950-yil kuz-qish davrida malakali kadrlar tayyorlash rejasi 10 foizga ham bajarilmadi. Shu sababdan kolxozlarda ishdan ajralmagan holda o’qitish uchun bir yillik muddat bilan zootexnika kurslari tashkil qilindi. Bu kurslarda mingdan ziyod kishi tahsil oldi[12].

50-yillarda respublikadagi 147 tuman qishloq xo'jaligi bo'limlarida 701 nafar shtat birligida kadrlar faoliyat yuritishi kerak bo'lgani holda amalda 58 nafar oliy ma'lumotli, 373 nafar o'rta ma'lumotli va 160 nafar maxsus kurslarda tahsil olgan xodimlar faoliyat yuritdi. Binobarin, qo'shimcha 243 nafar oliy ma'lumotli zootexnik talab qilinar edi[13]. 1977-yilda kolxoz va sovxozlarning chorvachilik firmalarida, shuningdek, chorvadorlar o'rtasida 9682 ta plakat, 9290 ta ma'lumot beruvchi varaqa, 77774 ta eslatma tarqatildi. Gazeta va jurnallarda esa 591 ta maqola, 318 ta radio va televideniyeda chiqishlar, 386 ta seminar, ko'rgazma va uchrashuvlar tashkil etildi. Shu bilan birga bu boada yakka tartibda ham ishlar olib borildi. Jumladan, chorvdorlar va chorva egalariga 1088 ta ma'ruza o'qilgan bo'lsa, 157 ta maxsus film namoyish etildi. Shu bilan birga, 186 marta yakka tartibdagi suhbatlar o'tkazilgan[14].

1950-yillarda O'zbekistonda chorvachilik sohasiga katta e'tibor qaratildi. Yirik davlat ferma va sovxozlari tashkil etildi, veterinariya xizmatlarini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi. Biroq shunga qaramay, chorva mollari orasida brusellyoz, yalova, sibirg'i yara va tulyaremiya kabi xatarli kasalliklar keng tarqalishda davom etdi. Buning asosiy sabablaridan biri sanitariya-gigiyena talablariga yetarli darajada rioya qilinmasligi va yetarli moddiy-texnika bazaning shakllanmaganligi bo'ldi[15]. 1962-yildagi kolxozlar, sovxozlar va ishchilar, xizmatchilar va kolxozchilarning veterinariya bo'yicha hisobotlari tahlillaridan shuni ko'rish mumkinki, respublikada kasallangan hayvonlarning katta qismi yuqumli bo'lmagan kasalliklar bilan kasallangan edi. Jumladan, bu davrda respublika bo'yicha yuqumli bo'lmagan kasalliklar bilan kasallangan 75 ming bosh otning 73 ming 800 tasi, 614 ming 100 bosh yirik shoxli qoramollarning 489 ming 900 tasi, shuningdek, 1 mln 853 ming 900 mayda shoxli qoramollardan esa 1 mln 609 mingtasi yuqumli bo'lmagan kasalliklar bilan kasallangan edi[16].

Bu paytda turli kasalliklarning oldini olish va nasldor mollarning nobud bo'lishini bartaraf etish maqsadida veterinariya mutaxassislari tomonidan sun'iy urug'lantirish ishlari olib borildi[17]. 1968-yilda respublikada naslli qoramollarni urug'lantirish bo'yicha 1272 ta punkt faoliyat ko'rsatib, 247,6 ming bosh sigir va g'unajinlar urug'lantirildi yoki reja 96,9 foizga bajarilgan edi[18].

1976-yilda kolxoz va sovxoz veterinariya tashkilotlarida 1578 ta veterinariya vrachlik punkti va kasalxonalar faoliyat ko'rsatdi. Ushbu davolash-profilaktika punktlarida 1976-yilda 429,4 ming bosh yirik shoxli qoramol, 1348,1

ming mayda shoxli qoramol, shuningdek, 211,6 ming bosh cho'chqa davolangan[19].

1947-yillarda veterinariya vrach feldsherlari yetishmasligi, emlash ishlari to'liq amalga oshirilmaganligi va hisobotlar aniq olib borilmasligi tufayli mamlakatimizdagi hayvonlar o'rtasida kuydirgi kasalligi keng ko'lamda tarqalib, nosog'lom va noxush joylar kupaydi. Bu hol Qashqadaryo, Xorazm, Buxoro va Surxondaryo viloyatlari hududida, ayniqsa, ko'p kuzatilgan[20]. 1965-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, respublikada 604 ta brusellyoz kasalligi tarqalishi xavfi mavjud nuqtalar punktlari bo'lib, ularda 23 ming 459 bosh hayvonlar brusellyoz bilan kasallangan edi[21]. Brusellyozga qarshi kurash ishlariga qaramasdan bu boradagi holat yildan yilga og'irlashib bordi. O'zbekiston SSRda 1955-yildan yo'lga qo'yilgan umumiy chora-tadbirlar doirasida qo'ylarni maxsus vaksina bilan emlash chorva xo'jaliklarining brusellyoz infeksiyasidan xalos bo'lish vaqtini qisqartirdi. Masalan, 1965-yilda maxsus vaksina yordamida brusellyoz kasalligidan bir qancha xo'jaliklar xalos bo'ldi. Qarnob qorako'l davlat naslchilik zavodi, Samarqand viloyatidagi Pobeda kolxozi, Surxondaryo viloyatidagi 21 xo'jaliklari (7 ta sovxoz va 14 ta kolxoz), Qoraqalpog'iston ASSRda 7 ta xo'jalik (3 ta sovxoz va 4 ta jamoa xo'jaligi) va Farg'ona viloyatida bitta kasallik tarqalgan xo'jalik shular jumlasidandir[22].

Chorva hayvonlarida ko'p uchrovchi sil kasalligiga qarshi kurash ishlari ham olib borildi. Ushbu yillarda amalga oshirilgan tekshiruvlar natijasida sil kasalligi tarqalishi xavfi yuqori bo'lgan nuqtalar aniqlandi. Xususan, 1967-yil boshiga qadar respublikada qoramol sil kasalligi aniqlangan 8 ta fermer xo'jaligi (3 ta sovxoz va 5 ta jamoa xo'jaligi) mavjud edi[23]. Ushbu kasallik o'choqlarini viloyatlar kesimida tahlil qilganda Toshkent viloyatiga 3 ta, Qoraqalpog'iston ASSRga 2 ta, Sirdaryo, Farg'ona va Samarqand viloyatlarida bittadan to'g'ri kelgan edi[24]. 1969-yilda mayda shoxli qoramollar kasallanishi 1968-yilga nisbatan 59,2% ga oshdi. Shu bilan birga, mayda shoxli qoramollar o'limi 523,9 ming boshni tashkil etdi, bu esa 1968-yilga nisbatan 172,6% ga ko'pdir. 1969-yilgi qish mavsumida, ayniqsa, homilador qo'ylar orasida yuqori nobud bo'lish holatlari kuzatildi[25].

1975-yildagi ma'lumotlarga ko'ra, ushbu yilda respublika veterinariya mutaxassislari tomonidan hayvonlarning oqsil kasalligining oldini olish va barham berish borasida ulkan tashkiliy ishlar amalga oshirildi. Amalga oshirilgan ishlar natijasida respublikada hayvonlarning yuqumli va parazitar kasalliklar bilan kasallanishi va ulardan o'lim ko'rsatkichi turli ko'rinishga ega bo'ldi[26].

Jumladan, 1977-yilda 1976-yilga nisbatan birgina qoramollarning kasallanish darajasi 25,7 foizga va o'lim darajasi 50 foizga kamaydi[27]. Mayda qoramollar bo'yicha esa kasallanish darajasi 19,4 foizni tashkil etdi. Hammasi bo'lib 1977-yilda qishloq xo'jaligi hayvonlarining 4 asosiy turi bo'yicha yuqumli kasalliklar kamaygan edi.

O'zbekistondagi veterinariya ilmiy tadqiqot muassasalari olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy ishlanmalarning amaliyotga tadbiq etilishi natijasida, respublikada chorvachilikka keskin zarar keltiruvchi qoramollarning o'lat va plevropnevmaniya, otlarning yuqumli plevropnevmoniya kasalligi, manka, yuqumli ensefalomiyelit kabi kasalliklar butunlay bartaraf etildi. Nayvonlar orasida ko'p uchraydigan kuydirgi, qorason, quturish, leptospiroz, qo'tir, chenak va boshqa infeksion, invezion kasalliklaridan keladigan zarar kamaytirildi.

O'zbekiston veterinariya ilmiy tadqiqot instituti tashkil etilgan davrda O'zbekistonda olimlardan M.S.Abidjanov, V.K.Prinko, R.G.Yarayev, R.A.Ismatova kabi olimlar chorva mollarining bursilyoz kasalligi bo'yicha o'zlarining ilmiy izlanishlarini olib borishgan bo'lsa, N.M.Mamatov, X.S.Salimovlar esa quturish kasalligi bo'yicha tadqiqot ishlarini amalga oshirdilar.

Shuni alohida takidlab o'tish joizki, mazkur yillar davomida O'zbekistonda veterinariya fanini yo'lga qo'yish va rivojlantirishda Ozbekiston veterinariya ilmiy tadqiqot institutining o'rni beqiyos bo'ldi. Institut tashkil etilgan dastlabki paytlardan e'tiboran yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish bo'yicha xalq xo'jaligi ahamiyatiga molik yirik ilmiy tadqiqotlar o'tkazildi. Jumladan, I.A.Dukalov va I.S.Porkovnikovsalar tomonidan birinchi bo'lib echkilarning plevropnevmoniyasini virus qo'zg'atishi aniqlangan bo'lsa, T.D.Lukashenka, C.P.Irinovlar tomonidan ushbu kasallikka qarshi yuqori samarali vaksina yaratildi. Natijadan, mazkur kasallikni mamlakat hududida tugatgani uchun, o'tgan asrlarning 40-yillarda vaksinaning mualliflaridan biri F.D.Lukashenka davlat mukofoti lauriyatiga sazovor bo'lgan edi.

1970-yildan e'tiboran O'zbekiston veterinariya ilmiy tadqiqot institutining virusologiya laboratoriyasida tadqiqotlar qo'ylarning bola tashlash sabablarini o'rganish va ularga qarshi kurash tizimlarini yaratish hamda quturish kasalliklarini epizootopogiyasi o'rganish va uning maxsus proflaktikasini takomillashtirish kabi yo'nalishlarda olib borildi. Bundan tashqari, biokimyoviy tadqiqotlar bo'yicha ham bir qator ishlar olib borildi. Xususan, 1981-yilda qishloq

xo’jaligi hayvonlari va qushlarning qoni, a‘zolari, suti, tuxumi va siydigi, shuningdek, go’sht va sut mahsulotlarining 61 ming 700 ta tekshiruvidan 246 ming 498 ta biokimyoviy tekshirish o’tkazildi. Shundan 93466 ta holatda va tadqiqotlar sonining 37,9 foizida ijobiy natijalarga erishildi. Bundan tashqari, Respublikada sigirlarning biokimyoviy tadqiqotlar bilan qamrab olinishi 11,9 foizni tashkil etdi[28].

XULOSA

O‘zbekiston SSRda chorvachilik tarmog‘ining rivojlanishi zooveterinariya xizmatining faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Tadqiq etilgan davrda davlat tomonidan chorva mollarining sog‘lig‘ini muhofaza qilish, yuqumli kasalliklarning oldini olish, veterinariya nazoratini kuchaytirish va chorvachilik xo‘jaliklariga amaliy xizmat ko‘rsatish tizimini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Veterinariya punktlari, stansiyalari va laboratoriyalarining tashkil etilishi mazkur tizimning institutsional asoslarini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Zooveterinariya tadbirlarining muntazam amalga oshirilishi chorva mollari orasida kasalliklarning tarqalishini cheklash, hayvonlarning mahsuldorligini saqlash va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, profilaktik emlash, sanitariya tadbirlari, hayvonlarni veterinariya ko‘rigidan o‘tkazish, kasallangan chorva mollarini davolash va ajratish kabi tadbirlar chorvachilik xo‘jaliklarining kundalik faoliyatida muhim o‘rin egallagan.

Shu bilan birga, zooveterinariya tizimining rivojlanishi bir qator muammolar bilan kechgan. Moddiy-texnik bazaning hududlar bo‘yicha bir xil darajada emasligi, malakali veterinariya mutaxassislarining yetishmasligi, dori-darmon va zarur uskunalar ta’minotidagi kamchiliklar hamda ayrim xo‘jaliklarda sanitariya-gigiyena talablariga to‘liq rioya qilinmasligi chorva mollarining sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Yaylov va chekka qishloq hududlarida veterinariya xizmatini tashkil etish bilan bog‘liq muammolar esa tizim samaradorligini yanada pasaytirgan.

Umuman olganda, O‘zbekiston SSRda zooveterinariya xizmatining shakllanishi va rivojlanishi chorvachilikni davlat tomonidan boshqarish siyosatining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan. Mazkur tizimning faoliyati natijasida veterinariya muassasalari tarmog‘i kengaygan, mutaxassislar tayyorlash tizimi takomillashgan va hayvonlar kasalliklariga qarshi kurashishning institutsional mexanizmlari shakllangan. Biroq erishilgan natijalarni baholashda sovet davridagi markazlashgan boshqaruv tizimi, resurslarni taqsimlashdagi

nomutanosibliklar va hududiy sharoitlarning o‘ziga xosligini ham hisobga olish lozim.

Shunday qilib, O‘zbekiston SSR chorvachiligida zooveterinariya xizmatining tarixiy rivojlanishini o‘rganish nafaqat chorvachilik tarixining muhim jihatlarini ochib beradi, balki sovet davridagi agrar siyosatning amaliy mexanizmlari, qishloq xo‘jaligi infratuzilmasining shakllanishi va veterinariya xizmatining institutsional taraqqiyotini kompleks baholash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zMA. 90-fond, 9-ro’yxat, 52-ish, 87–88-varaqlar.
2. Ўзбекистон ССР Министрлар Совети ва Ўзбекистон КП(б) Марказий Комитетида СССР Министрлар Совети ва ВКП (б) Марказий Комитетининг 1949 йил 18 апрелда ―Колхоз ва совхозларнинг жамоат маҳсулдор чорвачилигини ривожлантириш уч йиллик плани (1949–1951 йиллар) ҳақида чиқарган қарорининг қандай бажарилаѐтганлиги тўғрисида ССР Иттифоқи Министрлар Совети ва ВКП (б) Марказий Комитети қарорини бажариш тадбирлари ҳақида// Ленин йўли, 1950 йил 7 апрель, 69(5676)-сон. – Б. 5.
3. O’z MA. 90-fond, 9-ro’yxat, 2677-ish, 137-varaq.
4. O’zMA. R-90-fond, 1-ro’yxat, 2757-ish, 122-varaq.
5. O’zMA R. 90-fond, 9-ro’yxat, 5437-ish, 37-varaq.
6. Лебедев С. Быстрее преобразоват породный состав крупного рогатого скота в колхозах и совхозах Узбекистана // Сельское хозяйство Узбекистана, 1962. – № 12. – С. 52.
7. Шопўлатов Ж. Ветеринария асослари. – Тошкент, 1993. – Б. 18–20.
8. O’zR VDQA. 25-fond, 1-ro’yxat, 76-ish, 11-varaq.
9. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали. 1979. – № 1. – Б. 22.
10. O’zR VDQA. 25-fond, 1-ro’yxat, 56-ish, 116-varaq.
11. O’zR VDQA. 25-fond, 1-ro’yxat, 76-ish, 11-varaq.
12. Ўзбекистон ССР колхоз ва совхозларида жамоат маҳсулдор чорвачилигини ривожлантириш уч йиллик планини бажаришнинг бориши тўғрисида // Ленин йўли, 1950 йил 7 декабрь, 241 (5848)-сон. – Б. 3.
13. O’z MA. 90-fond, 9-ro_yxat, 2754-ish, 126-varaq.
14. Конопаткин А.А Эпизоотология и инфекционние болезни сельхоз животних. Справочник. – Москва, Колос, 1984. – С. 71–73.
15. O’zR VDQA. 25-fond, 1-ro’yxat, 76-ish, 80-varaq.
16. O’z MA. 90-fond, 9-ro’yxat, 2754-ish, 126-varaq.

17. O’zR VDQA. 25-fond, 1-ro’yxat, 76-ish, 80-varaq.
18. Беляков С. Искусственное осеменение овес транспортированним семенем // Сельское хозяйство Узбекистана, 1965. – № 8. – Б. 48.
19. O’z MA. 90-fond, 9-ro’yxat, 2754-ish, 126-varaq
20. O’z MA. 90-fond, 9-ro’yxat, 2754-ish, 126-varaq.
21. O’zR VDQA. 25-fond, 1-ro’yxat, 76-ish, 80-varaq.
22. O’zR VDQA. 25-fond, 1-ro’yxat, 76-ish, 80-varaq.
23. O’z MA. 90-fond, 9-ro’yxat, 2754-ish, 126-varaq.
24. O’z MA. 90-fond, 9-ro’yxat, 2754-ish, 128-varaq.
25. O’zR VDQA. 25-fond, 1-ro’yxat, 76-ish, 82-varaq.
26. O’z MA. 90-fond, 9-ro’yxat, 2754-ish, 126-varaq.
27. O’zR VDQA. 25-fond, 1-ro’yxat, 76-ish, 80-varaq.
28. Узбекский научно исследовательский ветеринарний институт 50 лет. – Ташкент: Издательство Узбекистан, 1974. – С. 11–13.
29. Самарқанд Қишлоқ хўжалик институти 70 ёшда (институтимиз тарихига бир назар…). – Самарқанд, 1999. – Б. 14.

“NON” ETIMOLOGIYASI

Jumaniyozova Mamlakat Tojievna,
Urganch davlat universiteti “Tarix” kafedrasi профессори (DSc)
https://orcid.org.0000-0001-9382-0718
e-mail:
ms.mamlakat70@mail.ru

UO‘K 94(575.1)

Аннотация: *Мақолада ноннинг жаҳон ва ўзбек халқлари маданиятидаги ўрни, тарихи, этнологияси, этимологияси, турлари, тайёрланиш анъаналари, урф-одатлари ҳамда гастрономик туризмдаги аҳамияти илмий жиҳатдан ёритилган.*

Калит сўзлар: *нон, этнология, этимология, анъана, гастрономик туризм.*

Аннотация: *В статье освещаются история, этнология и этимология хлеба, его виды, традиции приготовления, обычаи и обряды, а также значение хлеба в культуре народов мира и гастрономическом туризме.*

Ключевые слова: *хлеб, этнология, этимология, традиция, гастрономический туризм.*

Abstract: *The article examines the history, ethnology and etymology of bread, its varieties, preparation traditions, customs and rituals, and its cultural significance among world peoples and in gastronomic tourism.*

Keywords: *bread, ethnology, etymology, tradition, gastronomic tourism.*

Kirish. Bolalikning yorqin xotiralari bir umr ongimizda muxrlanib qoladi. Shulardan eng go‘zali tong saharlab tandirda non yopayotgan onamiz va issiq nonning hidi. Issiq nonning shirmoy yuzi qanchalar yoqimli! Ajoyib ta’m va hidga to‘la nonning ulkan olami haqida kitob yozish ham juda maroqli. Dunyodagi eng ko‘p tarqalgan ozuqa mahsuloti bu nondir (suvdan keyin). Jahonda nonni ko‘p iste’mol qiladigan, nonni kam iste’mol qiladigan xalqlar bor, ammo iste’mol qilmaydigani yo‘q. Jamiki insoniyatning nomoddiy madaniy merosi hisoblangan nonning mingdan ortiq turi bor va uning tarkibida (bug‘doy), asosan, 30 – 35% oqsil, 60 – 70% uglevodlar, kletchatka, vitaminlar V, RR, mineral tuzlar, shuningdek, temir, kalsiy, fosfor va boshqa kimyoviy moddalar mavjud. Non shu qadar muqaddaski, unga qasam ichiladi. Yerga to‘kilgan

ushoqlari ham ehtiyotkorlik bilan terib olinadi. Biz gapirmoqchi bo‘lgan nonning etnologiyasi nihoyatda ko‘p qirrali va rang-barang. Agar nonning har bir xalqqa xos jihatlari butunligicha yoritilsa, ajoyib kitoblar vujudga keladi. Bebaho ma’lumotlar internet sahifalarini egallaydi. Shunday ekan, sizga taqdim etilayotgan ushbu monografiya ham nonga bag‘ishlangan bo‘lib, unda qisman Jahon, O‘zbekiston va Xorazm aholisi tomonidan iste’mol qilingan va qilinayotgan non tarixi, turlari, tayyorlanish jarayoni, ular bilan bog‘liq urf-odat va irim-sirimlar aks etgan. Nihoyat, ushbu monografiyada an’anaviy nonlarning transformatsiya jarayonlari, shuningdek, gastronomik turizmni rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati ham o‘z ifodasini topgan.

Тадқиқот методологияси. Тадқиқотда тарихий-қиёсий, этнографик, этимологик ва тизимли таҳлил усулларидан фойдаланилди. Ноннинг тарихи, турлари, тайёрланиш анъаналари, урф-одат ва маросимлардаги ўрни илмий адабиётлар ҳамда этнографик маълумотлар асосида ўрганилди.

Адабиётлар таҳлили. Jahon adabiyotida non haqida ko‘plab ilmiy va ilmiy ommabop tadqiqotlar mavjud. Ushbu monografiyani tayyorlashda ularning ba’zilaridan metodologik asos sifatida foydalanildi. Ingliz tadqiqotchilari Simons va Ovenning “The Book of Bread” [1] nomli asari juda mashhur bo‘lib, ushbu chiroyli monografiyaning birinchi nashri non ishlab chiqarish bo‘yicha orginal fotosuratlar bilan boydir. Londondagi Milliy nonvoylik maktabi o‘qituvchisi Simmons o‘z ishida aks ettirilgan turli xil non turlarining to‘liq o‘lchamli oq-qora fotosuratlarini chop ettirar ekan, shunday yozadi: “Tanqidchi o‘quvchilar qanchalik ko‘p bo‘lmasin, ular ilgari hech qachon nonlarning bunaqa ajoyib tarzda tasvirlangan kataloglari bo‘lmaganini tan olishga majbur bo‘lishadi. Chunki, bu asarda rasmlar xuddi 1980-yillardagi rassomlarning har qanday ishi kabi aniq, qat’iy va obyektiv ravishda kataloglangan va yigirmanchi asrning boshlaridagi eng kamtarin, ammo eng muhim obyektlardan biri bo‘lib qoladi”[1.36]. Simmons Ovenning bu asari Yevropada non tayyorlovchilar uchun asosiy dastur bo‘lib xizmat qilmoqda. Muallif Éric Kayserning ham nonga bag‘ishlangan “The Bread Book: 60 Artisanal Recipes for the Home Baker (from the author of The Larousse Book of Bread)” [2] nomli asarida sog‘lom retseptlar to‘plamiga kirgan an’anaviy donlar bo‘lmish kam kleykovina va glyutensiz navlar, yuqori proteinli yasmiq va no‘xat unidan, einkorn, grechka, speled va javdardan tayyorlangan shirin non va bulochkalarning 60 ta retseptlari mavjud. Kayserning bu asarda nonlar quyidagicha klassifikatsiyalangan:

1. Klassik nonlar: baget; boule; heritage bug‘doy noni; yog‘rulmaydigan non; javdar non. 2. An’anaviy donli nonlar: makkajo‘xori va kungaboqar urug‘i noni; uzum urug‘i noni; kenevir noni; guruch uni va qorabug‘doy noni; quinoa unidan tayyorlangan non. 3. Dunyo nonlari: bao bulochkalari; challa; naan; pita; rosemary focaccia. 4. To‘ldirilgan nonlar: pishloqli non; anjir, findiq va arpabodiyon non; matcha va shakarlangan apelsin non; aralash meva va yong‘oq toji; zaytun noni. 5. Brioches: babka; shokoladli va bananli brioche; ekmek mayiz va pecans bilan; pista va gilos bilan yapon sutli non; pain Au Lait.

Bunday klassifikatsiyalashni biz Yevropalik boshqa mualliflarning asarlarida ham ko‘ramiz. Masalan, Silver Spoon [3]ning, Judit Djons va Evan Djons [4]ning, Emmanuel Hadjiandreou [5] (60 dan ortiq retseptdan iborat), Betty Crocker [6], Jane Eastoe [7] ning kitoblarida 200 dan ortiq retseptlarni o‘qish mumkin. Non haqidagi eng ko‘p tadqiqotlar Rossiyalik etnograflar tomonidan olib borilgan. S.Maksimov [8], Anna Kitayeva [9], Aleksandr Belyayev [10], Olga Voynova [11] asarlari shular jumlasidandir. Non haqidagi ilmiy va ilmiy–ommabop asarlardan tashqari non haqida filmlar, pyesalar, sherlar va qo‘shiqlar ham mavjud mavjud. Non mavzusida garchi O‘zbekiston etnologlari sovet davrida maxsus tadqiqotlar olib borgan bo‘lmasalarda, ko‘pgina etnologlar o‘zlarining asarlarida, ilmiy tadqiqotlarida non tarixi va turlariga e’tibor qaratganlar [12]. Bu davrda nonni ishlab chiqarishga e’tibor kuchli bo‘lganligi sababli non mahsulotlarini tayyorlash usullari haqidagi yoki retseplar haqidagi kitoblar korxonalar uchun tayyorlangan. Ammo, mustaqillik davridan keyin O‘zbekiston etnologlari etnologiyaning turli mavzulari qatori oziq-ovqat, taomlar etnologiyasi masalasiga erkin qo‘l ura boshladilar. Bu borada ilmiy tadqiqotlar bilan bir qatorda, havaskor o‘lkashunoslarning ham qator risolalari nashr etila boshlandi. Aytish joizki K. Maxmudovning [13], M.T.Jumaniyozova va U.I.Abdullayevlarning [14], T.Do‘schanovning[15] monografiya va risolalari, S.Matkarimova [16] ning doktorlik dissertatsiyasi, N.Matkarimova [17] hamda U.Abdalov[18]larning dissertatsiyalari shular jumlasidandir. O‘zbek noni to‘g‘risidagi eng so‘nggi kitob Baxriddin Chustiyning asari bo‘lib, unda o‘zbek nonlarining 50 dan ortiq turi berilgan. B.Chustiy o‘z kitobida shunday yozadi: “O‘zbek dasturxoni palovsiz, palov esa go‘shtsiz bo‘lishi mumkin, biroq birorta dasturxon ham nonsiz bo‘lolmaydi. Non shunchaki non emas, bu an’ana, madaniyat, nomoddiy meros va bizning tariximizdir” [19]. Biz uchun non nima?

Bu shunday mahsulotki, uni biz bolalarimiz va oilamiz bilan har kuni iste'mol qilamiz. U-don, suv va ozgina tuz. Nonni tayyorlash esa katta tarix va ilm.

"NON" ETIMOLOGIYASI. Jahonning jamiki mamlakatlarida "non" deganda – undan qilingan va xamirtirush orqali achitiladigan mahsulot tushuniladi. Non ko'plab mamlakatlarda madaniyatning bir qismiga aylandi, ta'bir joiz bo'lsa, u "tashrif qog'ozi"dir. Nonning etimologiyasini ko'rib chiqamiz. U slavyan va german xalqlarida "xleb" deyiladi. Bu so'zning proto-slavyan shakli "xlěbŭ", bu protogerman tilida "xlaiƀaz". Ko'pchilik olimlarning fikriga ko'ra "xleb" ham nemislar, ham slavyanlar uchun asl so'z bo'lishi mumkin. O'z navbatida, xitoy tilida non "daleba" - katta degan ma'noni anglatadi. U italyan tilida Focaccia (focaccia – "o'choqda pishirilgan non"), meksikaliklarda Tortilla (tortilla – "kichik tort"), isroilliklarda xala, deyiladi. Nonni avstryaliklar Bretzel, fransiyaliklar esa Brioche, germaniyaliklar Pumpernikel, turkiyaliklar simit, finlyandiyaliklar Reykäleipä ("teshikli non"), deyishadi.

O'zbekistonda "non", deb ataladi. O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimiy yozma manbalaridan biri bo'lgan "Avesto"da non -"drvana" deb nomlangan. U miyazda guruhiga kiritilgan asosiy mahsulot sifatida tilga olingan. Miyazda qadimiy pahlaviy tilida "mizd", deyilgan va uning ma'nosi "ilohlarga tortiq qilinadigan taomlar majmuasidir". Drvana esa mizdning tarkibidagi to'rtta asosiy mahsulotdan biridiri. Avesto yasnalarining oltita goti (3-8) "Surush Drvana" deb ataladi [20]. Drvana Avestoda "drvana yoki drvanangah" - deb ataladi. U xamirturushsiz bir parcha oq non bo'lib, kitobda yozilishicha "drvana – oq non mazdaparastlar marosimi chog'ida iloh Surushga niyoz keltiriladi" [20].

Yasnaning 11-got 3-bandida esa "drvana" mutlaqo qurbonlik yoxud nazrniyoz ma'nosida keladi. Ammo, avestoshunos Baxorning yozishicha: "Drvana supra va non bo'lib, zardushtiylarning diniy marosimlaridagi vositalaridan biri sanalgan. Xoh kichik, xoh katta bo'lsin bug'doy unidan tayyorlangan bu nondrvana jahon ustuvorligining ramzidir. Drvananing xalqaga monand shakli yer sharini xalqadek o'rab olgan Alburz tog'ining ramzi; non o'rtasiga qo'yilguvchi "gushvod" ismli moy Doitya daryosining ramzidir. Ma'lumki Doitya daryosi zamin qa'rida ibtido topadi. Nonning yuzi, kengligi, sathi quyosh ramzi; mutlaqo halollik va poklik bilan yaratilganligi esa oyga ishora. Supra ustiga qo'yilguvchi 3 dona xushbo'y cho'p – ezgu so'z, ezgu niyat, ezgu amal" [20] . Aynan "non" terminining o'zi esa turkiylarning dastlabki etaplarida qo'llanila boshlagan. Non so'zi tojikcha "نان" so'zidan olingan bo'lib, xamirdan yasab, tandirda yoki pechda pishiriladigan yemak ma'nosini anglatadi

[21]. Non turkiy xalqlarda “ekmak” deyilgan, so‘zning asl kelib chiqishi bu nonning, aniqrog‘i bug‘doyning birinchi ekilgan narsa ekanidadir. Odam (a.s.) tomonidan birinchi ekilgan, dehqonchilik qilingan mahsulot bu bug‘doy, ya’ni non bo‘lgan. Shu sabab turkiy tildagi ekmak so‘zining asl varianti ham shudir. “Non” so‘zi ko‘pincha qishloq xo‘jaligi ekinlariga (bug‘doy, javdar, arpa va boshqalar), shuningdek, bu ekinlarning doniga va dondan tayyorlangan unga nisbatan ham qo‘llaniladi.

Адабиётлар

1. Simmons Owen. The Book of Bread. London: Maclaren & Sons, [1903] Stock Code: 107286

2. Éric Kayserнинг “The Bread Book: 60 Artisanal Recipes for the Home Baker (from the author of The Larousse Book of Bread)”. 1980.

3. The Italian Bakery: Step-by-Step Recipes with the Silver Spoon. The Silver Spoon Kitchen. 1950.

4. Judit Djons i Evan Djons. The Book of Bread.1982.

5. Emmanuel Hadjiandreou. How to Make Bread. Step-by-step Recipes for Yeasted Breads, Sourdoughs, Soda Breads and Pastries. 2011.

6. Betty Crocker.The Big Book of Bread. 2013.

7. Jane Eastoe. National Trust Book of Bread: Delicious recipes for breads .2020.

8. Максимов С. Куль хлеба и его похождения. – М., 1996. – 237 с.

9. Анна Китаева. Домашний хлеб. – М., 2013. – 224 с.

10. Александр Беляев. Вечный хлеб . М., 1928. – 80 с.

11. Ольга Войнова. Ремесленный хлеб и сдоба на закваске. – М., 2022. – 90 с.

12. Jabborov I.M. O‘zbek xalqi etnografiyasi. – Toshkent, 1994. – 320 b.;

13. Shonoyozov K.Sh., Ismoilov X.I. O‘zbek xalqining moddiy madaniyatiga xos ba’zi bir xususiyatlar. – Toshkent, 1998.

14. Maxmudov K. O‘zbek tansiq taomlari. – Toshkent, Mehnat.1989.

15. Jumaniyozova M., Abdullayev M., Abdurasulov A. Xorazm an’anaviy taomlari tarixi. – Toshkent, Yangi nashr. 2015-2016.

16. Do‘schanov B. Xorazm taomlari. – Toshkent : O‘zbekiston.1994 .

FILOLOGIYA

MORFOLOGIK PARADIGMALAR VA FUNKSIONAL-SEMANTIK MAYDON MUNOSABATINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE RELATIONSHIP BETWEEN MORPHOLOGICAL PARADIGMS AND THE FUNCTIONAL-SEMANTIC FIELD

Aslanova Ozoda Ibrohimovna,
katta o‘qituvchi,
o.aslanova83@gmail.com
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

UO‘K 821.512.133

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada zamonaviy tilshunoslikning paradigmatik va funksional yo‘nalishlari kesishmasidagi dolzarb muammolardan biri – morfologik paradigma va funksional-semantik maydon (FSM) o‘rtasidagi dialektik aloqadorlik masalalari tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida lisoniy birliklarning sathlararo iyerarxik munosabati, kategorial ma’nolarning maydon yadosi (markazi) hamda periferiyasida taqsimlanish qonuniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, o‘zbek tili grammatik tizimidagi invariant va variant munosabatlari, morfologik transpozitsiya hodisalari aniq misollar (egalik, zamon va mayl kategoriyalari) orqali dalillangan.*

Abstract: *This scientific article provides a systemic analysis of one of the pressing issues at the intersection of paradigmatic and functional approaches in modern linguistics: the dialectical relationship between the morphological paradigm and the functional-semantic field (FSF). In the course of the research, the interlevel hierarchical relations of linguistic units and the regularities of the distribution of categorial meanings within the core (center) and periphery of the field are revealed. Furthermore, invariant-variant relations and phenomena of morphological transposition within the grammatical system of the Uzbek language are substantiated through concrete examples involving the categories of possession, tense, and mood.*

Kalit so‘zlar: *morfologiya, paradigma, funksional-semantik maydon, lisoniy yadro, periferiya, kategorial semantika, lisoniy tizim, invariant, variant, transpozitsiya, tizimli-struktural tahlil.*

Keywords: *morphology, paradigm, functional-semantic field, linguistic core, periphery, categorial semantics, linguistic system, invariant, variant, transposition, systemic-structural analysis.*

XX asrning oxiri va XXI asr boshlariga kelib jahon tilshunosligida strukturalizmdan funksionalizm va antropotsentrizm paradigmalariga o‘tish jarayoni shiddatli tus oldi. Agar klassik struktural tilshunoslik tilni asosan ichki qurilishi mukammal tashkil etilgan statik belgilar tizimi sifatida o‘rgangan bo‘lsa, zamonaviy lingvistik oqimlar tilga inson tafakkuri, madaniyati va muloqotini ta’minlovchi murakkab dinamik mexanizm sifatida qaraydi. Mazkur lingvistik paradigmaning o‘zgarishi til sathlari birliklarini yakkalangan (izolatsiyalangan) holda emas, balki ularning nutqiy voqelanishida, o‘zaro aloqadorligida va ma’no ifodalash imkoniyatlari sintezida tadqiq etish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Ushbu iyerarxik va funksional munosabatlarni tushunishda til tizimining ikki tayanch tushunchasi – **morfologik paradigma** hamda **funksional-semantik maydon (FSM)** o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘prik vazifasini o‘taydi. Morfologik paradigma tilning grammatik sathida barqarorlik, iqtisodiy tejamkorlik va qat’iy strukturaviy tartibni kafolatlasa, FSM tilning turli sathlariga mansub (leksik, frazeologik, morfologik, sintaktik) vositalarni yagona mazmuniy-vazifaviy mohiyat atrofida birlashtirib, tilning dinamik tabiati hamda cheksiz kommunikativ imkoniyatlarini namoyon qiladi.

O‘zbek tilshunosligida til birliklarini tizimli-struktural o‘rganish maktabining asoschilari H. Ne’matov, R. Rasulov kabi olimlar tomonidan leksik sathi doirasida maydon nazariyasining poydevori qo‘yilgan bo‘lsa-da, morfologik qurilish va mazmun maydonlarining o‘zaro aloqasi, kategorial shakllarning funksional ko‘chishi muammolari hamon fundamental tadqiqotlarga muhtoj. Ushbu maqolaning maqsadi – morfologik paradigma va funksional-semantik maydon tushunchalarining o‘zaro tutashish nuqtalarini aniqlash, ularning tizim va nutq (lison va nutq) dixotomiyasidagi rolini tahlil qilish hamda ushbu munosabatlarning lisoniy modelini yaratishdan iboratdir.

Morfologik paradigma – bu ma’lum bir grammatik kategorial ma’no asosida birlashgan, o‘zaro zidlanuvchi (oppozitsiyadagi), ammo yagona invariant tushunchaning variantlari hisoblangan grammatik shakllarning qat’iy, yopiq mikrotizimidir. Paradigmaning lisoniy tabiati va mavjudligi bevosita tilning iqtisodiy va tejamkorlik qonuniyatiga bog‘liq: inson miyasi (lisoniy xotira) cheksiz miqdordagi jumlalarni tayyor holda saqlay olmaydi; aksincha, u chekli miqdordagi grammatik qoliplar (paradigmalar) va modellar zaxirasini saqlaydi hamda nutq jarayonida ulardan samarali foydalanadi. Sassyur va uning davomchilari ta’kidlaganidek, paradigmatik munosabatlar **"tanlash" o‘qi (vertikal o‘q)** bo‘ylab shakllanadi. Masalan, o‘zbek tilidagi ot turkumiga xos egalik paradigmasini olib ko‘raylik:

Egalik Paradigmasi: -im, -ing, -i / -si, -imiz, -ingiz, -lari

Nutq so‘zlovchisi ma’lum bir ob’ektning o‘ziga tegishli ekanligini ifodalamoqchi bo‘lsa, ushbu vertikal o‘qda joylashgan va xotirasida tayyor turgan paradigmalar zaxirasidan birinchi shaxs birlik shaklini (*-im*) tanlaydi va sintagmatik (gorizontal) o‘qqa olib chiqib, *“kitobim”* so‘z shaklini hosil qiladi.

Morfologik paradigmaning tizimli xususiyatlarini uchta asosiy tamoyil orqali xarakterlash mumkin:

1. **A’zolarning invariantsiyasi (O‘zgarmaslik):** Har bir paradigma a‘zosi tizimda qat‘iy va o‘ziga xos grammatik ma‘noga ega bo‘lib, uning asosi tizimiy invariant hisoblanadi.

2. **Zidlanish (Oppozitsiya):** Paradigma a’zolari bir-biridan kamida bitta grammatik belgi (masalan, shaxs, son, zamon yoki inkorlik) orqali keskin ajralib turadi. Bir a’zoning qiymati ikkinchisining yo‘qligi yoki unga qarama-qarshi ekanligi bilan belgilanadi.

3. **Tizimiy barqarorlik va yopiqlik:** Leksik sathdan farqli olaroq, morfologik paradigma tizimi ochiq emas. Unga osonlikcha yangi a’zo qo‘shilmaydi yoki mavjud a’zo chiqib ketmaydi. Bu esa til qurilishining "skeleti" yoki asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Funksional-semantik maydon (FSM) tushunchasi lisoniy semantikaning eng yirik va universal birliklaridan biri bo‘lib, u XX- asrning ikkinchi yarmida taniqli tilshunos A.V. Bondarko tomonidan tizimli nazariya darajasiga ko‘tarildi. Bondarko maktabi tilshunoslikka *"mazmunsiz shakl yo‘q, shaklsiz ma’no yo‘q"* degan fundamental dialektik tamoyilni olib kirdi. FSM – bu turli lisoniy sathlarga mansub bo‘lgan (morfologik, leksik, sintaktik, so‘z yasovchi, hatto intonatsion) vositalarning muayyan bir umumiy semantik kategoriya (masalan, *zamon, makon,*

modallik, sabab, maqsad, miqdor, qarashlilik) asosida nutqiy va funksional birlashuvidir.

FSM an’anaviy lisoniy sathlardan farqli olaroq, vertikal kesimda emas, balki gorizontal va sathlararo kesimda ishlaydi. Uning ichki strukturasi mutlaqo iyerarxik xarakterga ega bo‘lib, ikki yirik qismdan tashkil topadi:

A) Maydon Yadrosi (Markaz)

Maydonning yadrosini berilgan semantik ma’noni ifodalash uchun tilda eng ko‘p ixtisoslashgan, muntazam qo‘llanadigan, grammatikalashgan va tizimli xarakterga ega bo‘lgan vositalar tashkil etadi. Qoida tariqasida, aksariyat tillarda (xususan, agglütinativ tipli o‘zbek tilida) FSM yadrosini aynan **morfologik paradigmalar** tashkil qiladi. Masalan, *"Zamon"* funksional-semantik maydonining yadrosida fe’lning zamon shakllari paradigmasi (*-di, -yap, -moqda, -gan, -ar*) mustahkam o‘rin olgan.

B) Maydon Periferiyasi (Chekka qism)

Periferiyani esa yadro atrofida joylashgan, asosiy semantik ma’noni qo‘shimcha stilistik, konnotativ yoki kontekstual bo‘yoqlar bilan boyituvchi, ammo ushbu ma’noni ifodalashga mutlaqo ixtisoslashmagan leksik vositalar, sintaktik qurilmalar yoki modal unsurlar tashkil qiladi. Masalan, o‘sha *"Zamon"* maydonining periferiyasida:

- *Leksik birliklar:* bugun, ertaga, o‘tgan yili, asrlar davomida;
- *Sintaktik qurilmalar:* "shunday qilmoqchi bo‘lib turibdi" (kelajak zamon ma’nosi);
- *Frazeologizmlar:* "ko‘z ochib yumguncha" (tezlik va vaqt o‘lchovi) kabi vositalar xizmat qiladi.

Yadro va periferiya o‘rtasidagi chegara qat’iy emas, u o‘ta diffuz (singishuvchan) xarakterga ega bo‘lib, tilning dinamikasini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Ushbu tadqiqot zamonaviy tilshunoslikning ustuvor yo‘nalishlari hisoblangan **tizimli-struktural (statik)** hamda **funksional-antropotsentrik (dinamik)** paradigmalar kesishmasidagi dolzarb muammoni fundamental darajada tahlil etishga bag‘ishlangan. Maqolada tilning lisoniy hamda nutqiy tabiati — morfologik paradigma va funksional-semantik maydon (FSM) munosabatlari kontekstida tizimli tadqiq etilib, quyidagi ilmiy va nazariy xulosalarga kelindi:

1. Lison va nutq dixotomiyasining yangicha talqini

Morfologik paradigma va funksional-semantik maydon munosabati tilda **tizim va faoliyat (lison va nutq)** muammosini hal qiluvchi koʻprik hisoblanadi. Morfologik paradigma — tilning ichki imkoniyatlari darajasida barqarorlik, iqtisodiy tejamkorlik va qat'iy strukturaviy tartibni ta'minlovchi, vertikal ("tanlash") oʻqi boʻylab joylashgan yopiq mikrotizimdir. FSM esa ushbu lisoniy imkoniyatlarning nutq jarayonida, gorizontal oʻqda turli sath vositalari (leksik, frazeologik, sintaktik) bilan sintezlashib, dinamik va cheksiz muloqot imkoniyatlarini yuzaga chiqarish mexanizmidir.

2. Yadro va periferiya iyerarxiyasining xususiyatlari

Tadqiqotda FSMning ichki strukturaviy tashkil etilishi oʻzbek tili grammatik tizimi misolida mukammal dalillangan. Unga koʻra:

Maydon yadrosini (markazini): Berilgan kategorial semantikani (masalan: egalik, zamon, mayl) ifodalashga toifalashgan, muntazam va majburiy xarakterga ega boʻlgan **morfologik paradigmalar** tashkil etadi. Bu agglütinativ tillarning tabiati bilan bogʻliq qonuniyatdir.

Maydon periferiyasini (chekkasini): Yadrodagi ma'noni qoʻshimcha modallik, ekspressivlik va kontekstual boʻyoqlar bilan toʻldiruvchi, ammo ushbu ma'noga maxsus ixtisoslashmagan leksik birliklar, tasviriy vositalar va sintaktik qurilmalar hosil qiladi.

3. Invariant-variant munosabatlari va diffuzlik qonuniyati

Maqolada paradigma a'zolarining invariantsiyasi va ularning nutqiy voqelanishidagi variantdorligi, shuningdek, morfologik transpozitsiya (funksional koʻchish) hodisalari dialektik qonuniyat sifatida baholangan. Yadro va periferiya oʻrtasidagi chegaralarning qat'iy emasligi, ya'ni singishuvchan (diffuz) xarakteri tilning statik qurilma emas, balki doimiy harakatdagi tirik, funksional tizim ekanligini isbotlaydi.

Tadqiqot oʻzbek tilshunosligida shu paytgacha asosan leksik sath doirasida oʻrganib kelingan "maydon nazariyasi"ni morfologik qurilish va grammatik kategorial semantika miqyosiga olib chiqdi. Ishda taklif etilgan sathlararo iyerarxik yondashuv oʻzbek tili grammatikasini shunchaki quruq qoliplar (formalar) yigʻindisi sifatida emas, balki inson tafakkuri va muloqotini ta'minlovchi yaxlit funksional-semantik model asosida qayta tadqiq etishga yangi metodologik yoʻl ochadi.

Maqola oʻzbek tilshunosligida grammatik shakllarni shunchaki qat'iy qoliplar sifatida emas, balki ularning nutqdagi cheksiz kommunikativ hamda ma'no ifodalash imkoniyatlari (funksional-semantik tabiati) bilan birgalikda,

yaxlit lisoniy model asosida o‘rganish zarurligini metodologik jihatdan asoslab bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Bondarko A. V.** *Teoriya morfologicheskix kategoriy i aspektnie issledovaniya*. – Leningrad: Nauka, 1975. – 222 s.

2. **Bondarko A. V.** *Principi funkcionalnoy grammatiki i voprosi aspektologii*. – Moskva: Nauka, 1983. – 208 s.

3. **Ne’matov H.** *So‘z sintagmatikasi va paradigmatikasi. O‘zbek tili tizimi tadqiqi*. – Toshkent: Fan, 1991.

4. **Ne’matov H., Rasulov R.** *O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari*. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 128 b.

5. **Rasulov R.** *Til tizimi va leksik voqelik (Munosabat maydonlari)*. – Toshkent: Fan, 2005.

6. **Sossyur Ferdinand de.** *Trudi po yazikoznaniyu*. / Per. s franc. pod red. A. A. Xolodovicha. – Moskva: Progress, 1977. – 696 s. *(Paradigmatik va sintagmatik munosabatlar uchun)*

7. **Mahmudov N., Nurmonov A.** *O‘zbek tilining nazariy grammatikasi (Sintaksis)*. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 232 b.

8. **Rahmatullayev Sh.** *O‘zbek tilining nazariy grammatikasi (Morfologiya)*. – Toshkent: Universitet, 2008.

9. **Mirzayev M., Usmonov S., Tojiyev Yo.** *O‘zbek tili (Morfologiya va sintaksis)*. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 320 b.

10. **Shchur G. S.** *Teoriya polya v lingvistike*. – Moskva: Nauka, 1974. – 256 s.

11. **Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh.** *Hozirgi o‘zbek adabiy tili*. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992. – 400 b.

MORFOLOGIK PARADIGMA VA FUNKSIONAL-SEMANTIK MAYDON O‘RTASIDAGI DIALEKTIK MUNOSABAT SHAKLLARI

FORMS OF THE DIALECTICAL RELATIONSHIP BETWEEN THE MORPHOLOGICAL PARADIGM AND THE FUNCTIONAL-SEMANTIC FIELD

Aslanova Ozoda Ibrohimovna,
katta o‘qituvchi,
o.aslanova83@gmail.com
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

UO‘K 81`27

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek tili grammatik tizimi misolida tilshunoslikning ikki fundamental tushunchasi — morfologik paradigma va funksional-semantik maydon (FSM) o‘rtasidagi izomorfizm (tizimiy muvofiqlik) hamda komplementarlik (bir-birini to‘ldirish) munosabatlari ilk bor tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotda mazkur tushunchalarning o‘zaro ta’sir mexanizmlari, lison va nutq dixotomiyasidagi o‘rni hamda tilning yashirin ichki imkoniyatlarini ochishdagi ahamiyati yoritilgan. Sathlararo iyerarxiya va invariant-variant munosabatlari to‘rtta asosiy funksional yo‘nalish, tizimli-struktural modellar hamda aniq statistik-korpus tahlillari orqali dalillangan. Maqola xulosalari o‘zbek tili grammatikasini funksional-kommunikativ yo‘nalishda o‘rganish va kompyuter lingvistikasini rivojlantirishda muhim nazariy-amaliy ahamiyatga ega.*

Abstract: *Using the grammatical system of the Uzbek language as a case study, this article provides the first systemic analysis of the relations of isomorphism (systemic correspondence) and complementarity (mutual completion) between two fundamental linguistic concepts: the morphological paradigm and the functional-semantic field (FSF). The research elucidates the interaction mechanisms of these concepts, their roles within the language-and-speech dichotomy, and their significance in uncovering the latent internal potential of language. Interlevel hierarchy and invariant-variant relations are substantiated through four primary functional*

dimensions, systemic-structural models, and precise statistical corpus analyses. The findings of the article hold substantial theoretical and practical value for studying Uzbek grammar within a functional-communicative framework and for advancing computational linguistics.

Kalit so‘zlar: *Morfologik paradigma, funksional-semantik maydon, izomorfizm, komplementarlik, lison va nutq, sathlararo iyerarxiya, invariant va variant, tizimli-struktural model, statistik-korpus tahlili, o‘zbek tili grammatikasi.*

Keywords: *Morphological paradigm, functional-semantic field, isomorphism, complementarity, language and speech, interlevel hierarchy, invariant and variant, systemic-structural model, statistical corpus analysis, Uzbek grammar.*

Zamonaviy jahon tilshunosligida strukturalizmdan funksionalizm va antropotsentrik paradigmalarga o‘tish jarayoni til birliklarini statik qoliplar sifatida emas, balki jonli muloqot tizimidagi dinamik mexanizmlar sifatida tadqiq etish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Til sathlari birliklarining nutqdagi voqelanishi, o‘zaro aloqadorligi va ma’no ifodalash imkoniyatlari sintezini tushunishda til tizimining ikki tayanch tushunchasi — morfologik paradigma hamda funksional-semantik maydon (FSM) o‘rtasidagi munosabatni o‘rganish markaziy o‘rin tutadi.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundaki, unda morfologik paradigma va funksional-semantik maydonning o‘zaro izomorfizm (tizimiy muvofiqlik) va komplementarlik (bir-birini to‘ldirish) munosabatlari o‘zbek tili grammatik tizimi misolida ilk bor tizimli ravishda tahlil ostiga olinadi. Mazkur ikki tushunchaning o‘zaro ta’sir mexanizmlarini, lison va nutq dixotomiyasidagi o‘rnini aniqlash tilning yashirin ichki imkoniyatlarini ochish kalitidir.

Tadqiqot doirasida ushbu aloqadorlik, sathlararo iyerarxiya va invariant-variant munosabatlari quyidagi to‘rtta asosiy funksional yo‘nalish, tizimli-struktural modellar hamda aniq statistik-korpus tahlillari orqali yoritib beriladi.

Morfologik paradigma tilning grammatik sathida qat’iy strukturaviy tartib va barqarorlikni kafolatlasa, funksional-semantik maydon tilning turli sathlariga mansub universal vositalarni yagona mazmuniy-vazifaviy mohiyat atrofida

birlashtirib, tilning dinamik tabiati hamda cheksiz kommunikativ imkoniyatlarini namoyon qiladi.

Morfologik paradigma va funksional-semantik maydon o‘zaro **izomorfizm** (tizimiy muvofiqlik) va **komplementarlik** (bir-birini to‘ldirish) munosabatida bo‘ladi. Ularning o‘zaro ta’sir mexanizmlarini tahlil qilish tilning ichki imkoniyatlarini ochish kalitidir. Ushbu aloqadorlikni uchta asosiy funksional yo‘nalishda ko‘rish mumkin:

1. Paradigma funksional-semantik maydonning grammatik yadrosi sifatida

Tilning tizimli iyerarxiyasida morfologik paradigma har doim FSMning eng barqaror va o‘zak qismini tashkil etadi. Agar tilda ma’lum bir funksional ma’noni ifodalash uchun maxsus va maxsuslashgan morfologik paradigma shakllangan bo‘lsa, demak, ushbu semantik kategoriya mazkur til egalari tafakkurida yuqori darajada kategoriallashgan va tizimlashgan bo‘ladi.

Masalan, o‘zbek tilidagi "qarashlilik / egalik" funksional-semantik maydonini tahlil qilaylik. Ushbu maydonning mutlaq markazida va yadrosida otlardagi egalik qo‘shimchalari paradigmasi turadi. Periferiyada esa *mening*, *sening* kabi kishilik olmoshlarining qaratqich kelishigidagi shakllari (leksik-sintaktik vosita), *-niki* affiksi (so‘z yasovchi vosita) yoki *“X ga tegishli”* kabi analitik qurilmalar joylashadi. Ko‘rinib turibdiki, paradigma maydonning "grammatik poydevori" vazifasini mukammal bajaradi.

2. Paradigmatik ma’nolarning maydonlararo taqsimlanishi (Sathlararo aloqa)

Morfologik paradigma a’zolari har doim ham faqat bitta FSM doirasida qat’iy cheklanib qolmaydi. Bir paradigma a’zosi o‘zining birlamchi vazifasiga ko‘ra "A" maydonining markazida tursa, nutqiy ehtiyoj tufayli "B" yoki "C" maydonlarining periferiyasiga ko‘chishi mumkin.

Bunga buyruq-istak mayli paradigmasini misol qilib ko‘rsatish mumkin. Ushbu paradigma tarkibidagi *-ing (boring, o‘qing)* yoki *-sin (kelsin)* shakllari **"Buyruq/Istak"** funksional-semantik maydonining yadrosini tashkil etadi. Biroq ushbu shakllar quyidagi gapda mutlaqo boshqa maydonga xizmat qiladi:

*“Siz o‘sha yerga **boring** (borsangiz), hamma muammo hal bo‘ladi”.*

Bu o‘rinda buyruq shakli o‘zining birlamchi ma’no maydonidan chiqib, **"Shart/Gipotetik"** funksional-semantik maydonining periferik qismiga o‘tmoqda.

3. Funksional transpozitsiya va variantdorlik

Transpozitsiya (lisoniy birlikning boshqa funksional vazifaga ko‘chishi) paradigma va maydon munosabatidagi eng dinamik hodisadir. Bunda paradigma a’zosi o‘zining tizimli (invariant) ma’nosidan vaqtinchalik voz kechib, kontekstual (variant) ma’no kasb etadi va boshqa bir maydon ehtiyojini qondiradi.

O‘zbek tili fe’l zamonlari paradigmasida ushbu holat muntazam kuzatiladi. Masalan, hozirgi-kelajak zamon shakli (*-ar / -mas*):

*“Yaxshi bola vaqtida **uxlaydi**, darslarini vaqtida **bajaradi**”.*

Bu gapda hozirgi zamon shakli o‘z maydonidan chiqib, vaqt va zamon doirasidan tashqarida bo‘lgan, umumiy haqiqat va doimiylikni ifodalovchi **"Gnomik/Doimiy zamon"** yoki **"Modallik"** maydonining periferiyasiga ko‘chgan. Bu hodisa tilning uslubiy boyligi va konnotativ imkoniyatlarini cheksiz darajada kengaytiradi.

4. Tizimli-struktural va mazmuniy tahlil: Lisoniy model

Morfologik paradigma va funksional-semantik maydon munosabatini aniq ko‘rsatish, ularning farqli va o‘xshash jihatlarini tizimlashtirish uchun quyidagi qiyosiy-struktural modelni (jadvalni) keltiramiz:

Tahlil Mezonlari	Morfologik Paradigma (Tizimli-Struktural Asos)	Funksional-Semantik Maydon (Mazmuniy-Funksional Asos)
Asosiy Birligi	Morfema, grammatik ko‘rsatkich, grammatik shakl.	Semantema, kategorial ma’no, funksional semantika.
Lisoniy Sathi	Faqat va faqat grammatik (morfologik) sath bilan cheklangan.	Sathlararo (interlevel) xarakterga ega: leksika, morfologiya, sintaksis.
Struktur Tabiati	Qat’iy tizimli, chiziqli, yopiq va a’zolari soni cheklangan.	Maydon xarakterli, ochiq, elastik, yadro va periferiyadan iborat.
Vazifasi va Yo‘nalishi	Shakl yasash, so‘z o‘zgartirish, tizim barqarorligini ta’minlash.	Nutqda ma’no ifodalash, kommunikativ ehtiyojni to‘liq qondirish.
Munosabat o‘qi	Vertikal o‘q (Xotiradagi tanlov va paradigma parchalari).	Gorizontal va radial o‘q (Nutqdagi sintez va ma’no komponentlari).
Lisoniy Maqomi	Til imkoniyati (**Potensial** / Lison).	Nutqiy voqelik (**Realizatsiya** / Nutq).

Ushbu model shuni ko‘rsatadiki, morfologik paradigma va FSM birbiriga qarama-qarshi hodisalar emas, balki til mexanizmining ikki xil proyeksiyasidir. Paradigma tilning **statik barqarorligini** (invariant asosini) saqlasa, FSM uning **dinamik va kommunikativ** ehtiyojlarini (variantdorligini) ta’minlaydi.

Morfologik paradigma a’zolarining funksional-semantik maydondagi real ulushini va ularning nutqdagi faolligini aniqlash maqsadida o‘zbek tili badiiy va ilmiy matnlari korpusi asosida kichik statistik-semantik tahlil o‘tkazildi. Tahlil ob’ekti sifatida fe’lning **"Zamon" va "Modallik"** maydonlari olingan bo‘lib, ulardagi yadro (morfologik paradigma) va periferiya (leksik-sintaktik vositalar) mutanosibligi o‘rganildi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, matnlarda vaqt va harakat ma’nolarini ifodalashda 72% holatda sof morfologik paradigmalar (yadro birliklari) bevosita ishtirok etadi. Biroq, emotsionallik va modal munosabatlar yuqori bo‘lgan nutqiy vaziyatlarda morfologik birliklarning 35% dan ortig‘i transpozitsiyaga uchrab, qo‘shni semantik maydonlarning periferiyasini boyitishga xizmat qiladi. Bu esa o‘zbek tilining agglütinativ tabiati morfologik yadroning o‘ta kuchli va moslanuvchan ekanligidan dalolat beradi.

Tadqiqot natijalari va o‘tkazilgan tizimli-struktural hamda mazmuniy tahlillar quyidagi fundamental xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

1. Morfologik paradigmalar funksional-semantik maydonning asosi, fundamenti va asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Paradigmalarsiz maydonning grammatik o‘zagi shakllanmaydi va u tizimsiz leksik yig‘indiga aylanib qoladi.

2. Morfologik paradigma a’zolari nutqiy dinamikada yuqori darajadagi egasuvchanlik (elastiklik) xususiyatiga ega. Ular transpozitsiya hodisasi orqali o‘zlarining birlamchi yadro maydonlaridan chiqib, boshqa maydonlarning periferik qismini funksional jihatdan to‘ldirishga qodir.

3. Paradigma va maydon munosabati tilshunoslikdagi "Imkoniyat va Voqelik" (Lison va Nutq) zanjirining real aksidir. Paradigma lisoniy xotiradagi statik zaxira bo‘lsa, FSM ushbu zaxiraning nutqdagi jonli, sintetik va dinamik ko‘rinishidir.

Maqolada ilgari surilgan **izomorfizm (tizimiy muvofiqlik)** va **komplementarlik (bir-birini to‘ldirish)** tushunchalari til mexanizmining eng muhim falsafiy-lingvistik qonuniyatlarini ochib beradi.

- **Izomorfizm shunda ko‘rinadiki,** morfologik paradigma ham, funksional-semantik maydon (FSM) ham o‘zaro bog‘liq elementlarning iyerarxik tuzilmasiga tayanadi. Paradigmadagi invariant-variant munosabati FSMdagi yadro-periferiya munosabatiga struktur jihatdan muvofiq keladi.
- **Komplementarlik prinsipi esa** tilning tejamkorlik va cheksizlik dialektikasini ta’minlaydi. Morfologik paradigma tilning kognitiv xotirada ortiqcha yuklanishsiz, minimal shakllar bilan saqlanishini ta’minlasa, FSM bu

cheklangan shakllarni leksik va sintaktik vositalar bilan birlashtirib, nutqda cheksiz ma’no va konnotatsiyalar hosil qilishga imkon beradi. Ya’ni, paradigma shakl beradi, maydon esa uni funksional harakatga keltiradi.

Maqolada buyruq maylining shart ma’nosida qo‘llanishi va hozirgi zamon shaklining (*-ar/-mas*) **gnomik (doimiy, vaqtsiz) zamon** kontekstida kelishi tizimli tahlil etilgan. Bu jarayon tilshunoslikda **"lingvistik asimmetriya"** hodisasi bilan izohlanadi:

Shakl (morfologik ko‘rsatkich) o‘zining statik ma’nosidan uzilib, dinamik funksiya kasb etganda, u shunchaki semantik ko‘chish hisoblanmaydi. Bu — grammatik kategoriyaning **"modallashuvi"** jarayonidir. *-ar* qo‘shimchasi *"Yaxshi bola vaqtida uxlaydi"* gapida vaqt o‘qini mutloqlashtiradi (temporallik yo‘qoladi) va sof deskriptiv (tasviriy-baho) hamda uslubiy konnotativ xarakter kasb etadi. Bu holat o‘zbek tili agglütinativ tizimining o‘ta moslanuvchan (elastik) tabiatini ko‘rsatadi.

Ushbu ilmiy munosabatlarni chuqur o‘rganish nafaqat nazariy tilshunoslik, balki zamonaviy amaliy yo‘nalishlar – **kompyuter lingvistikasi** (matnlarni avtomatik semantik tahlil qilish, sun’iy intellekt tillarini modellashtirish), **tarjimashunoslik** (funksional muqobillarni topish) hamda oliy va o‘rta maktablarda o‘zbek tili grammatikasini funksional-kommunikativ uslubda o‘qitish metodikasini yaratishda ulkan amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bondarko A. V. Teoriya morfologicheskix kategoriy i aspektologicheskiye issledovaniya. – L.: Nauka, 1976. – 191 s.

2. Ne’matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 128 b.

3. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009. – 416 b.

4. Gulyamov A. O‘zbek tili morfologiyasi. – Toshkent: Fan, 1975. – 232 b.

5. Shansky N. M. Ocherki po poeticheskomu sintaksisu. – M.: Prosvesheniye, 1987. – 158 s.

6. Bondarko A. V. Teoriya funksionalnoy grammatiki: Vvedeniye. Aspektualnost. Vremennaya lokalizovannost. Taksis. – L.: Nauka, 1987. – 348 s.

SPEECH ACTS AND THEIR FUNCTIONS IN EVERYDAY COMMUNICATION

Atajanova Anna Andreyevna,
Urgench State Medical Institute,
English Language Department
Assistant teacher.
E-mail address:
aatajanova0@gmail.com

UO‘K 81`27

Introduction: *Language is not only a tool for giving information. In everyday communication, people use language to perform actions. When we speak, we do not simply produce words; we also request, apologize, promise, invite, refuse, warn, thank, advise, or congratulate someone. These actions performed through language are called speech acts.*

Speech acts are an important part of pragmatics because they show how meaning depends on the speaker’s intention, the listener’s interpretation, and the situation. For example, when someone says, “Can you close the window?”, the sentence looks like a question about ability, but in real communication it usually functions as a polite request. The study of speech acts helps us understand why communication is sometimes successful and why misunderstandings happen. People may use the same sentence with different meanings depending on context. Therefore, to communicate effectively, speakers need not only grammatical knowledge, but also pragmatic competence.

Key Words: *Speech acts; pragmatics; everyday communication; Austin; Searle; locutionary act; illocutionary act; perlocutionary act; direct speech acts; indirect speech acts; request; apology; promise; invitation; refusal; warning; thanking; politeness; speaker’s intention; context; pragmatic competence; language learning.*

Austin’s Speech Act Theory. The theory of speech acts was introduced by the British philosopher J. L. Austin. He argued that people use language not only to say something, but also to do something. According to Austin, many utterances are actions in themselves.

For example, when a person says, “I apologize for being late,” the speaker is not only talking about an apology. The speaker is actually performing the act

of apologizing. Similarly, when someone says "I promise to help you," the speaker performs the act of promising. Austin showed that an utterance usually has more than one level of meaning. A person says words, expresses an intention, and may influence the listener's behavior or feelings.

Type of act	Definition	Example	Function
Locutionary act	The basic act of saying something; the literal meaning of the words.	"It is cold here."	The speaker states that the temperature is low.
Illocutionary act	The speaker's intention behind the utterance.	"It is cold here."	The speaker may mean: "Please close the window."
Perlocutionary act	The effect of the utterance on the listener.	"It is cold here."	The listener closes the window.

Thus, Austin's theory shows that one sentence can have several layers of meaning: what is said, what is meant, and what effect it has. This idea is very important for understanding real communication because people often express their intentions indirectly.

Searle's Classification of Speech Acts. The American philosopher John Searle developed Austin's theory further. He classified speech acts according to their communicative functions. His classification is widely used in pragmatics because it explains what people usually do with words in everyday interaction. According to Searle, speech acts can be divided into five main categories.

Type of speech act	Function	Examples
Representatives	To state facts, give information, describe, report, or explain something.	"The lesson starts at nine." / "It is raining outside."
Directives	To make the listener do something.	"Please help me." / "Open your book."
Commissives	To show that the speaker promises or offers to do something in the future.	"I promise I will call you." / "I will help you tomorrow."
Expressives	To express feelings, emotions, or attitudes.	"Thank you." / "I am sorry." / "Congratulations!"

Declarations	To change a social or official situation through words.	"I declare the meeting open." / "You are fired."

This classification shows that speech acts have different functions in communication. Some speech acts give information, while others influence behavior, express emotions, or create official changes. For example, the sentence "I am sorry" belongs to expressives because it shows regret, while "Please sit down" belongs to directives because it asks the listener to perform an action.

Direct and Indirect Speech Acts. Speech acts may be direct or indirect. A direct speech act happens when the grammatical form of the sentence matches its communicative function. For example, "Close the door" is a direct command because the speaker clearly tells the listener what to do. An indirect speech act happens when the real intention of the speaker is different from the literal form of the sentence. For example, "Could you close the door?" looks like a question about ability, but it actually functions as a polite request.

Indirect speech acts are especially common in polite communication. People often avoid direct commands because they may sound rude or too strong. Instead, they use questions, hints, or softer expressions.

Type	Definition	Example	Real function
Direct speech act	The form and function are the same.	"Close the door."	Command
Direct speech act	The speaker directly performs the action.	"I apologize for my mistake."	Apology
Indirect speech act	The form and function are different.	"Could you close the door?"	Request
Indirect speech act	The speaker expresses meaning indirectly.	"It is very noisy here."	Request to be quiet
Indirect speech act	The speaker avoids direct refusal.	"I have a lot of work today."	Refusal of an invitation

Indirect speech acts help speakers sound more polite, respectful, and careful. However, they can also cause misunderstanding if the listener does not understand the hidden meaning.

Examples of Speech Acts in Daily Conversations. Speech acts are used in almost every conversation. People perform different social actions through simple everyday sentences. These actions may be formal or informal depending on the relationship between speakers.

For example, a student may ask a teacher for help, a friend may invite another friend to a party, a doctor may give advice to a patient, or a parent may warn a child about danger. In all these situations, language performs a specific social function.

Speech act	Example	Function in communication
Request	"Can you help me with this task?"	The speaker asks the listener to do something.
Apology	"I'm sorry for being late."	The speaker expresses regret.
Promise	"I will send you the file today."	The speaker commits to a future action.
Invitation	"Would you like to come to my birthday party?"	The speaker invites the listener.
Refusal	"Thank you, but I can't come today."	The speaker politely says no.
Warning	"Be careful, the floor is wet."	The speaker warns the listener about danger.
Thanking	"Thank you for your support."	The speaker expresses gratitude.
Advice	"You should drink more water."	The speaker gives a recommendation.
Complaint	"I'm afraid there is a problem with this order."	The speaker expresses dissatisfaction politely.
Congratulation	"Congratulations on your success!"	The speaker expresses happiness for someone.

These examples show that speech acts are not only theoretical concepts. They are practical tools used in real communication every day. Without speech acts, communication would be limited only to exchanging information, but in reality, people use language to build relationships, solve problems, express emotions, and influence others.

The Role of Context in Speech Acts. Context is very important for understanding speech acts. The same sentence may have different meanings in different situations. This means that listeners must consider not only the words, but also the situation in which they are used. For example, the sentence "The door is open" can have several meanings depending on the context.

Situation	Sentence	Possible speech act
A person simply notices the door.	"The door is open."	Statement
A teacher says it during class.	"The door is open."	Indirect request to close the door
A parent says it at night.	"The door is open."	Warning
A host says it to guests.	"The door is open."	Invitation to enter

This shows that speech acts cannot be understood only through grammar. The listener must understand the situation, tone, relationship between speakers, and speaker's intention.

Context includes many elements: the place of communication, the relationship between speakers, their social roles, cultural background, tone of voice, and previous conversation. For example, the same request may sound normal between close friends but inappropriate in a formal meeting. Therefore, context helps people choose the right words and interpret meanings correctly.

Speech Acts and Politeness. Speech acts are closely connected with politeness. Some speech acts, such as requests, refusals, complaints, and commands, can sound rude if they are too direct. Therefore, speakers often choose softer and more polite forms. Politeness is especially important because communication is not only about exchanging information. It is also about maintaining good social relationships. A person may express the same idea in different ways, but the effect on the listener can be very different.

Too direct	More polite version	Speech act
"Give me your pen."	"Could I borrow your pen, please?"	Request
"Explain again."	"Could you please explain it again?"	Request
"No, I don't want to come."	"Thank you for inviting me, but unfortunately I can't come."	Refusal
"You are wrong."	"I understand your point, but I have a different opinion."	Disagreement
"This work is bad."	"I think this part could be improved."	Criticism
"Send me the file."	"Could you please send me the file when you have time?"	Request

Politeness helps speakers maintain good relationships and avoid conflict. This is especially important in formal communication, professional settings, and intercultural communication. A grammatically correct sentence can still be inappropriate if it is too direct or does not fit the social situation.

Importance of Speech Acts in Language Learning. Speech acts are very important in language learning. A student may know grammar and vocabulary, but still communicate unsuccessfully if they do not know how to use language appropriately. For example, a learner may say “Give me your book.” This sentence is grammatically correct, but it may sound impolite. A better version is “Could I borrow your book, please?” This means that learners need not only grammatical competence, but also pragmatic competence.

In language learning, students should learn how to perform different speech acts correctly.

Communicative situation	Useful expression	Speech act
Asking a teacher for help	“Could you please explain this again?”	Request
Being late to class	“I’m sorry for being late.”	Apology
Refusing an invitation	“I’d love to, but I’m busy today.”	Refusal
Giving advice	“You should revise this topic again.”	Advice
Making a promise	“I promise I will finish it tomorrow.”	Promise
Thanking someone	“Thank you for your help.”	Thanking
Inviting a friend	“Would you like to join us?”	Invitation
Warning someone	“Be careful, the road is slippery.”	Warning

Teachers can develop students’ speech act competence through role plays, dialogues, films, real-life situations, and conversation practice. For example, students can practice how to apologize to a teacher, invite a friend, refuse an offer, or ask a doctor for advice. Such activities help learners understand not only the meaning of expressions, but also their social function.

Learning speech acts also improves students’ confidence. When learners know how to make requests politely, refuse invitations correctly, or express disagreement respectfully, they become more successful in real communication.

Speech Acts in Intercultural Communication Speech acts may differ from culture to culture. What sounds polite in one culture may sound too direct or unusual in another. For this reason, speech acts are especially important in intercultural communication. For example, in some cultures people refuse invitations directly, while in others refusal is expressed indirectly to avoid hurting the listener's feelings. In English, a polite refusal often includes thanks, apology, and explanation.

Situation	Less polite/direct form	More polite form
Refusing an invitation	"No, I can't come."	"Thank you for inviting me, but unfortunately I can't come."
Asking for help	"Help me."	"Could you help me, please?"
Disagreeing	"You are wrong."	"I see your point, but I think differently."
Making a complaint	"This is bad."	"I'm afraid there is a problem with this."

These examples show that successful communication requires cultural awareness. Language learners should understand not only words and grammar, but also cultural rules of politeness, directness, and social behavior.

Conclusion. Speech acts are an essential part of everyday communication. They show that language is used not only to express information, but also to perform actions. Through speech acts, people request, apologize, promise, invite, refuse, warn, thank, advise, complain, and congratulate. Austin's theory explains that every utterance may include locutionary, illocutionary, and perlocutionary acts. Searle's classification shows the main types of speech acts, such as representatives, directives, commissives, expressives, and declarations.

Understanding speech acts helps people communicate more successfully because it allows them to recognize the speaker's intention, interpret indirect meaning, and choose appropriate language in different situations. For language learners, speech acts are especially important because effective communication depends not only on grammar and vocabulary, but also on politeness, context, and pragmatic competence.

In conclusion, speech acts play a central role in human interaction. They help people express needs, emotions, opinions, promises, and social attitudes. A good understanding of speech acts makes communication clearer, more polite, and more effective in everyday life, education, professional communication, and intercultural interaction.

List Of Used Literature

1. Austin, J. L. (1962). *How to Do Things with Words*. Oxford: Oxford University Press. Austin's work is the foundational text of speech act theory and introduces the idea of locutionary, illocutionary, and perlocutionary acts.

2. Bach, K., & Harnish, R. M. (1979). *Linguistic Communication and Speech Acts*. Cambridge, MA: MIT Press.

3. Searle, J. R. (1969). *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. Cambridge: Cambridge University Press. Searle developed Austin's ideas and gave a systematic account of speech acts as rule-governed linguistic actions.

4. Searle, J. R. (1975). Indirect speech acts. In P. Cole and J. L. Morgan (Eds.), *Syntax and Semantics: Speech Acts* (Vol. 3, pp. 59–82). New York: Academic Press.

5. Searle, J. R. (1979). *Expression and Meaning: Studies in the Theory of Speech Acts*. Cambridge: Cambridge University Press.

6. Thomas, J. (1995). *Meaning in Interaction: An Introduction to Pragmatics*. London: Longman.

7. Yule, G. (1996). *Pragmatics*. Oxford: Oxford University Press.

8. Jumaniyazova, M. (2025). INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING LINGVOKULTUROLOGIK EVOLYUTSIYASI. Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences, 5(20), 150–152.

9. Muxtarovna S. N., Andreyevna A. A. METAPHORS IN POLITICAL DISCOURSE: FUNCTIONS AND STRATEGIC USES IN SHAPING PUBLIC OPINION //INTERNATIONAL JOURNAL OF ADVANCED RESEARCH IN EDUCATION, TECHNOLOGY AND MANAGEMENT. – 2025. – T. 4. – №. 5. – C. 246-250.

10. Muxtarovna S. N., Andreyevna A. A. LINGUISTIC DIFFERENCES IN POLITICAL DISCOURSE IN ENGLISH AND RUSSIAN NEWSPAPERS //INTERNATIONAL JOURNAL OF ADVANCED RESEARCH IN EDUCATION, TECHNOLOGY AND MANAGEMENT. – 2025. – T. 4. – №. 5. – C. 240-245.

XALQ KITOBLARIDA JAVONMARDLAR TOIFASI XUSUSIDA

Jasurbek Mahmudov,
filologiya fanlari doktori,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori v.b.

UO‘K 81`27

Annotatsiya: *Ushbu maqolada javonmardlarning bir toifasi bo‘lgan ayyorlar haqida so‘z yuritiladi. Jamiyatda o‘zining yashirin amallari bilan xalqqa yaxshilik ulashishga harakat qilishgan insonlar toifasi ayyor tushunchasi bilan yuritilgani, bu so‘z nafaqat salbiy ma’nodada, balki ijobiy ma’noda ham qo‘llangani manbalar asosida tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *ayyorlar, javonmardlar, qissalar, sarbador, Samaki Ayyor*

Резюме: *В данной статье рассматривается *айяр* — особая категория *джаванмардов* (носителей идеалов рыцарства). На основе анализа источников исследуется, как этот термин применялся для обозначения людей, стремившихся принести пользу обществу посредством тайных действий, и подчеркивается, что слово *айяр* несло в себе как негативные, так и позитивные коннотации.*

Ключевые слова: *трикстеры, рыцарственные герои, сказания, Сарбадор, Самаки Аййор*

Abstract: *This article discusses the *ayyor*—a specific category of *javonmard* (chivalrous figures). Based on an analysis of source materials, it examines how the term *ayyor* was used to designate individuals who sought to benefit the public through covert actions, highlighting that the word carried both negative and positive connotations.*

Keywords: *tricksters, chivalrous heroes, tales, Sarbador, Samaki Ayyor*

Kirish: XIX asr oxiri - XX asr boshlarida xalk kitoblari turkumidagi qissalar keyingi yillarda kirill alifbosiga o‘girildi. Bu sohada adabiyotshunos olimlar Bahodir Sarimsoqov, Sayfiddin Raf’iddinov, Rahimboy Jumaniyozov va Otabek Jo‘raboevlar katta ulush qo‘shishgan. Ular tomonidan “Xalq kitoblari”

turkumida bir qator qissalar chop etildi. Aslida “Hazrat Ali qissalari”, “Bobo Ravshan Qissasi”, “Abu Muslim jangnomasi”, “Temurnoma” singari asarlar futuvvatnomalar asosida yaratilgan kitoblar hisoblanadi.

Asosiy qism: Javonmardlar bajargan vazifalariga ko‘ra ham ajralishgan, ba’zilari ijtimoiy hayotda odamlar orasidagi turli qiyin vaziyatlarni yumshatishgan bo‘lsa, ba’zilar siyosiy maydonda hukmronlik uchun kurashlar olib borishgan. Shu jihatdan ham ularni shartli ravishda dastlab ikki qismga, ya’ni qavliy va sayfiy (so‘z hamda qilich bilan) amal qiluvchi javonmardlar deb atashgan.

Xalq qissa, dostonlari javonmardlarning turli guruhlari: ayyorlar, polvonlar, shotirlar, sarbadorlar kabilarga mansub qahramonlar haqida bitilgan. Javonmardlarning aynan sayfiy guruhiga kiruvchilari haqida xalq qissalari, dostonlari ko‘proq aytilgan.

Olimning yozishicha, islomlashtirish davrida Eron hududlarida arablarning hukmronligiga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targan guruhlarni ayyorlar yoki xorijiylar deb atashgan. Ayyorlar tashkiloti bu davlat siyosatiga nisbatan qarshi turgan kuchlarning yig‘ilmasi, majmuasi bo‘lgan.

Ayyorlar toifasi javonmardlarning qadimgi guruhlari bo‘lishgan. Bu xususida eronlik olima Mahbuba Sharafiy shunday yozadi: “Bu yo‘l va ravishning paydo bo‘lishi haqida ma’lumotlar kam. Ammo ko‘plab tadqiqotchilar uning paydo bo‘lish sarchashmalarini Eronning islomdan oldingi tarixiga olib borib taqashadi. Jumladan, Malik ush-shuaro Bahor “ayyor” kalimasini asosi qadimgi pahlaviy tilidan kelib chiqqan forsiy termin, deb hisoblaydi. Uning fikricha, “ayyor” so‘zi aslida “ayn” harfi bilan emas, balki “alif” harfi bilan yoziladi va forscha “iyor” ایار, bu ham aslida “Izi yor” ایزی یار bo‘lganligini ta’kidlaydi; ya’ni “Izi” – Xudo, yor – do‘st degani bo‘lib, to‘lig‘icha Xudo yor degan mazmunni anglatadi”[1].

Yana bir eronlik olim Parviz Notil Xonlariy esa quyidagi ma’lumotlarni keltiradi: “Manbalarda ayyor so‘zi javonmard so‘zi bilan sinonim sifatida barobar keltiriladi. Agar bu so‘zni arabcha deb bilsak, uning ma’nosi hech ham javonmard so‘ziga yaqin va mos kelmaydi. Bundan tashqari, avvallari fors she’riyatida ham “ayyor” kalimasi ma’shuq va mahbubning xos sifat va

[1] Маҳбуба Шарафий. Фатийлар ташкилоти ва унинг ривожланишида Аббосий халифаларининг тутган ўрни// Эроншенохт. №6. - С.34-36.

ismlaridan biri tarzida ham qo‘llangan, masalan “dilbari ayyor, buti ayyor iboralari so‘z ustalarining (shoirlarning) asarlarida keltiriladi. Olim o‘z fikrini, ayyorlarning o‘z qasamlarida aytadigan “Yazdon dodor”, “Yazdon dodor kirdikor” Yazdon dodor parvardigor omuzgor” iboralariga tayanib izohlaydi.

Abdurrafi’ Haqiqatning “Tarixi irfon va orifoni Eroniy az Boyazid Bastomiy to Nur Alishoh Gunabodiy” asarida o‘qiymiz: “Arablar bu qo‘zg‘olonlardan qattiq shikast va ziyon ko‘rardilar. Ular ro‘parasidan chiqqan va osonlikcha jon bermaydigan bu askarlar guruhini ayyorlar, gohida esa xorijiylar, deb atashgan. Bu istiloh umumiy tarzda Xalifaning buyruqlariga bo‘ysunmagan, qaror va qonunlarini pisand qilmagan, boshqarayotgan tizimidan norozi bo‘lgan har bir to‘da yoki guruhga nisbatan qo‘llangan”[1].

Turkiyalik olim Ibrohim Arslono‘g‘li yozadi: **“**Abbosiylar Turkiston va Xurosondan olib kelingan turkiy asirlardan kuchli va imtiyozli harbiy bo‘linmani tashkil qilishdi. IX asrdan boshlab bunga qarshi vaziyat holiga kelgan ba’zi kuchlar o‘rtaga chiqdi. Ular “Ayyor (arabcha so‘z bo‘lib, “*qo‘rqmas*” ma’nosini bildiradi. Ko‘pligi “*ayyarun*”) - qonunni tan olmaydigan, qo‘rqmas”, “*shotir* - ayyor” va saljuqiylar davrida esa “*rind* – dunyo ishlarini yoqtiradigan va hech narsadan qaytmaydigan kimsalar” nomlarini olib, turli noroziliklarni chiqarar, fitnalar boshlab, odamlarning tinchini buzar edi[2].

Ibrohim Arslono‘g‘li fikrida Abbosiy xalifalar tomonidan Turkiston va Xurosondan asir olingan qullardan tayyorlangan guruhlarga mazkur nom berilgani ilgari surilmoqda. Ammo bu fikrga biz qo‘shilmaymiz, chunki, Abbosiylar xalifaligi davrida Turkiston degan nom bo‘lmagan. Arablar Markaziy Osiyo hududlarini Movarounnahr deyishgan. Keyin a*slida dastlabki arablar tomonidan qullikka olingan hududlar bu G‘arbiy Eron, Ozarbayjon hududlari bo‘lgan. Asirlar ham ko‘proq ana shu joylardan olingan. Bizningcha, olim Turkiston deya, aslida hozirgi Turkiya, Eronning Ozarbayjon hududlarini nazarda tutgan. Chunki, aynan o‘sha hududlardan asirga olingan yosh yigitlar ayyorlikka, turkiy atama bilan aytganda “yanichar”likka tayyorlangan va davlat to‘ntarishlarida ulardan foydalanilgan.*

Mehron Afshoriy yozadi: “Ayyorlar islomgacha va islomdan keyingi davrlarda ko‘proq siyosiy vaziyatlarda qatnashgan guruhlar hisoblangan. Ular Eronning sharqiy hududlarida keng tarqalgan. Lekin vaqtlar o‘tishi bilan

[1] Абдуррафиъ Ҳақиқат. Торихи ирфон ва орифони Эроний аз Боязид Бастомий то Нур Алишоҳ Гунободий. –Теҳрон: чопхонаи Аҳмадий. 1375/ 1996. – Б.76-77

[2] Қаранг: Ibrahim Arslanoglu. Yazari belli olmayan bir futuvvetname. - Ankara. 1997. - S.15

ularning nomi faqat qissa va hikoyatlarda qolib ketdi. Chunonchi, h.q. 11 va 12 (mil. 17-18) asrlarda bu toifa haqidagi xalq qissalar to‘qilgan og‘izdan og‘izga o‘tib yurgan. Jumladan, “Rumuzi Hamza” va “Iskandarnomai kabir” singari qissalar tarkibida ularning qahramonliklari tasvirlanadi” [1]. Lekin bu bilan ayyorlar butunlay tarix sahnasidan nomi butunlay yo‘qolib ketdi, degani emas, balki o‘tgan keyingi sakkiz-to‘qqiz asr mobaynida ular boshqa nomlar, jumladan, polvonlar, shotirlar nomi bilan namoyon bo‘lmoqda. Bu guruhlarga xos bo‘lgan asosiy sifatlardan biri ularning jangovarligi, sipohigarligi va lashkarboshilik qilishga moyilligidir.

Ayyorlar haqida bizda ham ko‘plab qissa va dostonlar uchraydi. Rus olimi A.M.Shoytovning “Djavanmardi” v persidskom dastane” maqolasida O‘rta Osiyo hududiga mos “ayyorlar” haqida shunday so‘z yuritiladi: “Keyingi paytlarda fors xalq dostonlari haqidagi tadqiqotlar ko‘zga tez-tez tashlanadigan bo‘ldi... “Samaki Ayyor” Faromo‘rz Xudodod ibn Abdulloh ar Rajoniy tomonidan ko‘chirilgan, Sadak ibn Abulqosim Sheroziy tomonidan aytib berilgan ko‘p jildli dostondir. “Samaki Ayyor” dostoni qahramonlari halablik shahzoda Xurshidshoh va chin malikasi Mohpari. Bosh qahramon Samaki ayyor tarixiy shaxs bo‘lib, chaqqon, ziyrak charchamaydigan javonmardlar guruhi boshlig‘i bo‘lgan...”[2]

“Samaki Ayyor” dostoni qo‘lyozmasi Angliyaning Oksford universiteti Bodleyn kutubxonasida saqlanadi. Dostonning muallifi kimligi va u qachon yozilgani haqida aniq ma’lumotlar mavjud emas. Ayyorlar vatan ozodligi va odamlar xursandchiligi uchun lozim va munosib bo‘lgan ishlarni bajarishgan. Ular ko‘pincha zolim amaldorlar istibdodiga qarshi qo‘zg‘olon va g‘alayonlar ko‘tarishgan. Shunday mashhur ayyorlardan biri Abu Muslim Xurosoniy edi. Uning fidokorona harakatlari natijasida Bani Umayya xalifaligi barham topib, Abbosiylar xalifaligi davlat tepasiga chiqqan. Lekin noshukr Abbosiy xalifa (Mansur) ayyorlar namoyandasi bo‘lgan bu bu komil insonni nayrang bilan qatl ettiradi.

Keyinchalik, so‘fiy bo‘lgan ba’zi shayxlar oldinlari ayyorlar jamoasidan bo‘lishgani yoziladi. Jumladan, Fuzayl bin Iyoz (187 h.q. vaf) Marv va Bovard

---

[1] Мехрон Афшорий. Ойини жавонмардий. –Теҳрон: Дафтари пўжуҳешҳои фарҳангий. 1384. – С.25.

[2] Шойтов А.М. «Джаванмарди» в персидском дастане. – Москва, 1972. – С. 48–61.

orasidagi tog‘larda qaroqchilik bilan shug‘ullanganini aytgan. Uning eslashicha, bir kuni karvonni talayotganida kimnidir Qur’on o‘qiyotganini eshitgan va bundan ta’sirlangan. Shundan so‘ng u barcha narsalardan tiyilib, ayyorlikni tashlab, zuhdu tasavvufni ixtiyor qilgan.

Tarixchi Ibni Asirning yozishicha, 197 yil h.qamariyda Ma’munning tarafdori bo‘lgan Tohir Zulyaminayn Ma’munning ukasi Aminni taxtdan ag‘darish maqsadida Bog‘dodga yurish qilganida Bag‘dod shahri ayyorlari Amin tomonida turib Tohir qo‘shiniga qarshi kurashishgan. Ushbu voqealar o‘zbek adabiyotidagi xalq qissasi bo‘lgan “Abu Muslim jangnomasi”da tasvirlanadi.

Adabiyotshunos olim Bahodir Is’hoqov “Abu Muslim jangnomasi” (Dostoni Abu Muslim Sohibqiron) kitobining “Afsonaga aylangan tarix” so‘zboshida shunday yozadi: “Avvaliga xalifa Abu Muslimni juda yaxshi ehtiromlar bilan kutib oladi. Biroq o‘z huzuriga keraverishdagi bir xonaga qurollangan o‘zining xos kishilarini tayyorlab, xalifa huzuriga kirayotgan Abu Muslimning qurol-yarog‘ini darvozabonlarga oldirib qo‘yadi. Butunlay qurolsizlantirilgan Abu Muslimga Abu Ja’farning ishorati bilan xalifaning kishilari tashlanadilar va o‘ldiradilar. Shunday qilib, qonga belangan Abu Muslimning jonsiz jasadini o‘zi o‘ldirilgan gilamga o‘rab, o‘sha xonaning bir burchagiga ko‘madilar...”[1]

Ko‘rinadiki, Abu Muslim kabi xalq qahramonlarining harakatlari hamma vaqt ham davlat arboblari tomonidan oqlanmagan. Davlat kishilari javonmardlar, ayyorlar, shotirlar, polvonlar, sarbadorlar kabilarning davlatni egallab olishlariga xavfsirashgan va bunga qarshi bo‘lishgan.

XIV asrda javonmardlarning yana bir guruhi, ya’ni sarbadorlar Xuroson hududida ko‘payib, hukumat tepasiga chiqishadi. Ibn Batuta esdaliklarida o‘qiymiz: “Xurosonda ikki kishi bo‘lib, ularning qaroqchilardan beshta o‘rtog‘i bor ekan. Bu qaroqchilarni Iroqda shuttor (shotirlar) deyishadi, Xurosonda ularni sarbadorlar, Mag‘ribda esa sakura – lochinlar deyishardi. Yettovlon nojo‘ya ishlar bilan shug‘ullanib, yo‘lto‘sarlik va tolonchilik qilar edilar. Ularning dovrug‘i uzoq-uzoqlarga yoyildi. Sarbadorlar (rofiziylar) Bayhaq yoki Sabzavor shahri ustidagi tog‘da yashar edilar. Ular kunduzlari berkinib, kechalari chiqib, qishloqlarga bosqin qilib, odamlarning mol-mulkini talar edilar[2]”.

---

[1] Абу Муслим жангномаси: (Достони Абу Муслим соҳибқирон) [Сўзбоши Б.Саримсоқовники; Масъул муҳаррир Маҳмуд Ҳасаний]. –Т.:Ёзувчи, 1992. – 224 б. (Халқ китоблари). – Б.5.

[2] Неъматулла Иброҳимов. Ибн Баттута ва унинг Ўрта Осиёга саёҳати. –Т. Шарқ зиёси. – Б. 79

Sarbadorlar harakatining boshlanishiga doir turli qarashlar mavjud. Abdurazzoq Samarqandiy asaridagi voqeaga ko‘ra, sarbadorlarning birinchi rahnamosi Bayhaq pahlavonlaridan biri Amir Abdurazzoq bo‘lgan. U kamon otishda mergan va kurashda tenggi yo‘q polvon, Bayhaq amaldorlaridan biri Xoja Jaloliddin Fazlullohning o‘g‘li edi. Xoja Jaloliddinning boshqa bir o‘g‘li Aminiddin esa Abusa’id Bahodirxon (hukmronligi: 716/1316 – 736/1335) saroyida xizmat qilgan. Abusa’id Bahodirxonning Abu Muslim nomli mashhur pahlavoni bo‘lib, bir kuni xonni Aminiddin og‘asini Abdurazzoq shu polvon bilan kurash tushishiga ko‘ndiribdi. Musobaqada Abdurazzoq yengibdi va shu-shu u ham Abusa’id Bahodirxonning yaqin odamlaridan biriga aylanibdi. Bir kuni qandaydir fitna bilan Abdurazzoq saroydagi ayonlarni ko‘pchiligini o‘ldiradi, so‘ngra esa shunday deydi: bu fitna sabab barchangizni o‘ldirishim mumkin, lekin beayblarga zulm qilgandan mardlik bilan boshni dorga tikkan ma’qul.

Ba’zi tarixchilar Abdurazzoq Samarqandiyda keltirilgan ushbu voqea va “sari xudro ba-dor diydan” so‘zidan sarbador so‘zi kelib chiqqanligini aytishadi. Ba’zi manbalarda esa sarbadol, ba’zilarida sarobdolon shaklida qo‘llanadi. Ammo shuni aytish lozimki, keyinchalik oddiy darveshlar sarbadorlar harakatiga qo‘shilgan bo‘lsa-da, bu harakatning boshida ko‘proq bezori o‘g‘rilar turishgan. Bizningcha, sarbador so‘zi sarovil va sarvol so‘zi bilan bog‘liqdir. Zero, Amir Abdurazzoq kurashchi polvonlardan edi, ular odatda o‘ziga xos shalvor kiyishgan. Uning atrofidagilar ham aynan shunday shalvorda yurishgan, shuning uchun ularni “sarovildoron” deb atashgan. Mazkur so‘z keyinchalik sarbadalon, sarbadoron shakliga o‘zgarib ketgan. Mirxondning va Ibn Batutaning xabariga ko‘ra, Bayhaqning Boshtin mahallasi odamlari Abdurazzoq boshchiligida A’lovuddin Muhammad vazir bilan jang qilishgan va uni yengishgan. Shu tarzda kichik kichik qo‘shinlar paydo bo‘la boshlagan. Buni eshitgan shu yaqin atrofdagi qular o‘z xojalaridan qochib ketib ularning guruhiga qo‘shilgan. Bu tarixiy voqealar bizga sarbadorlarning kelib chiqishidan va ularning harakati davlatga, hukumatga zarar keltirishidan dalolat beradi.

Sarbadorlarni o‘z asarida yozuvchi Muhammad Ali “Tun saltanati fuqarolari” deya nomlagan. “Sarbadorlar” romanida dastlabki javonmardlar faoliyatini yorituvchi quyidagi epizod keltirilgan: “Bir kuni, - naqlni boshladi sardor. – Ko‘histondagi hovlilardan birida shundoq javonmardlar jamuljam o‘ltirar edilar. Notanish odam eshikdan kirib salom berdi: “Men Marvi shohijahon javonmardlari, axiylari elchisidurmen. Ular sizlarga duoi salom aytib, bir masala

yechimni so‘rab yubordilar. Masalaga javob bersangizlar, sizlarning ulug‘ligingizni tan olg‘aymiz, javob bera olmasangizlar, sizlar bizlarning viqorimizga iqror bo‘lingizlar!” Elchidan so‘rdilar: “Ul masalani bayon etib berg‘il!” U dedi: “Ular so‘radilarki, javonmardlik, axiylik nimadir, javonmardlik ila nojavonmardlik o‘rtasida qanday farq bor? Quloq bering. Bir sohibhimmat yo‘lning chetida o‘ltirg‘on bo‘lsin, bir kishi uning oldidan shitob o‘tib ketsin. Saldan keyin izidan qilich yalang‘ochlab boshqa kishi quvib kelsin. Avvalgi odamni o‘ldirmak niyatida yo‘l chetida o‘ltirgan sohibhimmatdan: “Shu yerdan kimsa o‘tdimi?” deb so‘raydir, shunda qanday javob lozimdir? “O‘tmadi” desa aldagan bo‘ladir, “o‘tdi” desa, chaqimchiga chiqib qolgay. Har ikki javonmardlik sha’niga nomunosibdir...” Ko‘histon axiylari yelka qisishib bir-birlariga qaradilar. Ular orasida, ittifoqo, Ko‘histonga mehmon bo‘lib kelgan Afzal Hamadoniy ham o‘ltirar edi. U so‘z ochib dedikim: “Javonmardlikning asli va’daga vafoga qilmoqdir, aytgan so‘zni bajarmoqdir. Javonmardlik ila nojavonmardlik o‘rtasida farq sabrdir. Yo‘l bo‘yidagi sohibhimmat o‘ltirgan joyidan bir qadam ilgari yoki bir qadam keyin siljib: “Men bu joyda o‘ltirgan edim, hech kishi o‘tgani yo‘q”, deb javob bersa, ham yolg‘on so‘z aytmoqdan, ham chaqimchilik qilmoqdan o‘zini tiygan bo‘ladir...” [1] Qayd etish kerak, romanda keltirilgan bu qism Unsurulmaoliy Kaykovusning “Qobusnoma”sidagi “Javonmardlik zikrida” bo‘limidan olingan[2].

“Sarbadorlar” romanida “...Marg‘inon madrasasi mudarrisi yapaloq yuzli mo‘g‘ul bashara Mahmud Nosiriddin degan payg‘ambar yoshidan o‘tgan bir odam Jabborqulning chaqqonligiga e’tibor berdi. Jabborqul madrasada farroshlik qilardi. – Zuvalang toza pishiq ko‘rinadi, bo‘talog‘im, - dedi unga Mahmud Nosiriddin. – Qani, beri kel-chi, kengashib olaylik...[3]”, - tarzida talqin qilingan obraz, bizningcha, prototipi ishning oldigi faslllarida so‘z yuritilgan Axiy Evran, ya’ni Shayx Nasiriddin Mahmud al-Xo‘yidir. Romandagi “Mahmud Nosiriddin Marg‘inon axiylar uyushmasining rahbarlaridan biri edi” jumlasi fikrimiz dalilidir.

Alisher Navoiy Pahlavon Mahmud zikri oxirida “Pahlavon Mahmuddin so‘ngra Pahlavon Muhammad Abusaid ham o‘z zamonining benaziri erdi. Qabri

---

[1] Али, Муҳаммад. Сарбадорлар: Икки китобдан иборат тарихий роман. –Т.:Ғ.Ғулом номидаги Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1992. – Б.208.

[2] Қаранг: Кайковус. Қобуснома. /Форсчадан М.Ризо Огаҳий тарж/. 2-тўлдирилган нашри. –Т.: Истиқлол, 1994. –Б.159.

[3] Али, Муҳаммад. Сарбадорлар: Икки китобдан иборат тарихий роман. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Нашриёт-матбаа бирлашмаси. 1992. – Б.205.

Ne’matoboddadurur” deya o‘z do‘sti va maslakdoshi, “quyoshdek nur sochuvchi zot, shamsul-millat – millat quyoshi deb ta’riflagan Pahlavon Muhammad Abusaid siymosiga urg‘u berib, unga alohida “Holoti Pahlavon Muhammad” asarini bag‘ishlagan edi. Zamonamizning mohir yozuvchilaridan Asad Dilmurod “Pahlavon Muhammad” romanida ayni shu davr jahonpahlavonini badiiy tasvirlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahbuba Sharafiy. Fatiylar tashkiloti va uning rivojlanishida Abbosiy xalifalarining tutgan o‘rni// Eronshenoxt. №6. - C.34-36.

2. Abdurrafi’ Haqiqat. Torixi irfon va orifoni Eroniy az Boyazid Bastomiy to Nur Alishoh Gunobodiy. –Tehron: chopxonai Ahmadiy. 1375/ 1996. – B.76-77

3. Ibrahim Arslanoglu. Yazari belli olmayan bir futuvvetname. - Ankara. 1997. - S.15

4. Mehron Afshoriy. Oyini javonmardiy. –Tehron: Daftari po‘juheshhoi farhangiy. 1384. –C.25.

5. Shoytov A.M. «Djavanmardi» v persidskom dastane. – Moskva, 1972. – S. 48–61.

6. Abu Muslim jangnomasi: (Dostoni Abu Muslim sohibqiron) [So‘zboshi B.Sarimsoqovniki; Mas’ul muharrir Mahmud Hasaniy]. –T.:Yozuvchi, 1992. – 224 b. (Xalq kitoblari). – B.5.

7. Ne’matulla Ibrohimov. Ibn Battuta va uning O‘rta Osiyoga sayohati. –T. Sharq ziyosi. – B. 79

8. Ali, Muhammad. Sarbadorlar: Ikki kitobdan iborat tarixiy roman. – T.:G‘.G‘ulom nomidagi Nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992. – B.208.

9. Kaykovus. Qobusnoma. /Forschadan M.Rizo Ogahiy tarj/. 2-to‘ldirilgan nashri. –T.: Istiqlol, 1994. –B.159.

10. Ali, Muhammad. Sarbadorlar: Ikki kitobdan iborat tarixiy roman. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Nashriyot-matbaa birlashmasi. 1992. – B.205.

NAVOIY DEVONIDAGI BIR BAYT XUSUSIDA

Jasurbek Mahmudov,
filologiya fanlari doktori,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori v.b.

UO‘K 81`27

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning talmeh asosida yaratilgan bir bayti tahlil qilinadi. Undagi joy nomlari tahlilidan gap kim haqida ketganini tarixiy misollar orqali izohlab berildi.

Kalit so‘zlar: Mozandaron, atirgul, Marv, sabo, surma, shohi jahon, gard.

*Аннотация: В статье анализируется стихотворение Алишеры Навои, построенное на приеме *тальме* (аллюзии). Анализ упоминаемых в нем топонимов позволяет на основе исторического примера определить, о ком идет речь.*

Ключевые слова: Мазендеран, роза, Мерв, Саба, сурма, Сар Мира.

Abstract: This article analyzes a verse by Alisher Navoi based on talmeh. The analysis of place names in it explains who is being talked about through historical examples.

Keywords: Mazandaran, rose, Merv, Saba, antimony, king of the world.

Asosiy qism: Alisher Navoiy merosi, xususan g‘azaliyoti o‘zining beqiyos badiiy mahorat maktabi ekanligi barchaga ma’lum. Navoiy she’rlari poetik timsollar asrlardan beri barcha ijod ahlini lol qoldirib keladi. Navoiy g‘azallari zamirida adabiy hayratdan tashqari tarixiy voqealar silsilasi ham yashiringan. Mazkur tarixiy hodisalar shoir tomonidan ustalik bilan timsollar orqali ifodalanganki, zohiran qaraganda oddiy tashbehotlardan iborat bayt zamirida ulkan tarixiy faktlarni topsa bo‘ladi. Jumladan, “G‘aroyib us-sig‘ar” devoni tarkibiga kirgan va quyidagi matla’ bilan boshlanuvchi g‘azal tagzaminida ham ulkan tarixiy voqe’lik yashiringan:

E*y sabo, ko‘zdin uchur Mozandaronning vardini,*
Kim, qilibmen surma Marvi shohi jonning gardini.

(MAT. 3-j. G‘aroyib us-sig‘ar, 637-g‘azal.)

(Mazmuni: Ey sabo, Mozandaron vardi – gulini ko‘zimdan uchir, ya’ni sog‘inchini, intiqligini ko‘nglimdan o‘chir, zero men Marvning hamda jonimning shohi gardi – tuprog‘ini ko‘zimga surma qilganman). G‘azal ramali musammani

maqsur vaznida (foilotun-foilotun-foilotun-foilun) yozilgan. Mazmunan sharhi hol, ya’ni shoirning holati, hayotidagi voqeaga bog‘langani seziladi. Baytdagi joy nomlari bilan berilgan Mozandaron vardi va Marv shohi iboralari ushbu baytning asosiy ochqich jumlalaridir.

Shoir nega aynan Mozandaron guli, Marv shohi kabi iboralarni keltirdi, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Tarixiy ma’lumotlarga tayanib, bu baytdagi Mozandaron vardi hamda Marv shohi ikkita shaxs haqida ekanligini va bulardan biri Sulton Husayn Boyqaro (Marv shohi) hamda uning katta o‘g‘li Badiuzzamon mirzo (Mozandaron vardi) ekanligini aytish mumkin.

Alisher Navoiy bu joy nomlariga e’tibor qaratgan ekan, biz bu shaharlar haqida kengroq to‘xtalishga qaror qildik. Mozandaron shahri Kaspiy dengizining bo‘yida joylashgan bo‘lib, Abu Rayhon Beruniyning dunyo xaritasida Tabariston deb keltirilgan. Hijriy qamariy 7 asrgacha (1300 yil milodiy) Mozandaron Tabariston deb nomlangan. Ba’zi tarixchilar, Mozandaron so‘zini Moz, ya’ni qal’a so‘zidan tashkil topgan deb taxmin qiladilar. Mozandaron xalqi arablar bosqiniga qarshi sarkarda Moziyor bin Qoran boshchiligida qal’a barpo etganlar va tarixchilarning fikriga binoan Mozandaron qal’a va qal’adagilar ma’nosini anglatadi”[1].

Alisher Navoiy yuqoridagi baytdagi tashbehlar bilan birga iyhom san’atidan mohirona foydalangan va bir timsol yoki ibora orqali bir nechta voqeaga ishora qilgan. Ya’ni, avvalo Mozandaron vardi (atirguli) deganda chindan ham shoir gulu bulbullarga to‘la makon Mozandaron shahrini nazarda tutgan, uning tog‘oldi o‘rmon hududlaridagi beqiyos tabiat manzarasini ifodalagan bo‘lsa, ikkinchi tomondan bu o‘xshatish zamirida ma’lum bir shaxs ham ifodalangan.

Bizningcha, baytdagi “Mozandaron vardi” bu Badiuzzamon mirzodir. Aslida arabcha so‘z bo‘lgan “vard” atirgul, chechak degan ma’nolarni anglatadi. Shoir mohirona tarzda atirgul yoki chechak o‘rniga ularning arabcha ekvivalentini qo‘llagan. Birinchi misradagi “vard” ikkinchi misradagi “gard” so‘ziga qofiyadosh bo‘lib kelgan.

Badiuzzamon mirzoni “Mozandaron guli” sifatida eslaganiga uning sharhi holidan ham bilsa bo‘ladi: **Badiuzzamon** (1458, Hirot - 1515, Istanbul) – Xuroson

[1] Ҳамид Аъламий. Тасвирларда Эрон бўйлаб саёҳат. Форс тилидан Д.Каримов ва Ж.Маҳмудов таржимаси. –Теҳрон: Суханварон. 2013. 245-246-с.

hukmdori (1506—07). Husayn Boyqaroning to‘ng‘ich o‘g‘li, onasi – Marv hokimi Sanjar Mirzoning qizi Beka Sulton begim (1488 y. v.e.). Badiuzzamon 1473 y.dan Seyiston, keyinchalik ***Mozandaron*** hokimi. Astrobod hokimi amir Mo‘g‘ul xiyonatidan so‘ng, Husayn Boyqaro uni Astrobodga hokim qilib tayinlagan (1493 y.dan). So‘ng, u 1496-1506 yillarda Balx hokimi bo‘lgan. Boburning yozishicha, «Sulton Husayn Mirzo Balxga kelganida Movarounnahr foydasini ko‘zlab Balxni Badiuzzamonga beradi, uning mulki – Astrobodni esa Muzaffar Husayn Mirzoga topshiradi. Badiuzzamon shu tufayli arazlagandi. Shuncha yillar davom etgan dushmanlik va isyon sababi ayni shu holat edi». Badiuzzamon Astrobodni ukasiga berishga ko‘nmagan. Chunki, Husayn Boyqaro Astrobodni uning o‘g‘li Muhammad Mo‘min Mirzoga sunnat to‘yini qilayotganda in’om qilgan edi. Oqibat ota-o‘g‘il o‘rtasidagi mojaro urushga aylanadi... 1514 y. Badiuzzamonni turk sultoni Salim I Istanbulga olib ketadi, u o‘sha yerda vaboga chalinib vafot etadi”.

Badiuzzamon Husayn Boyqaroning o‘g‘illari orasida eng oqili va tadbirkori bo‘lib, taqvodor, adolatpesha hamda ilmu ma’rifat va hunar ahliga muruvvatli hukmdor edi. U o‘z saroyida olim, shoir, san’atkorlarni yig‘ib anjumanlar o‘tkazib turardi. Shuning bilan birga, u o‘zi ham go‘zal g‘azallar bitgan, mamlakatda qurilish-obodonchilik ishlariga katta e’tibor bergan. Alisher Navoiy Badiuzzamonni quyidagicha ta’riflagan: «Sulton Badiuzzamon Mirzo husni surat va husni siyrat bila orasta va jamoli zohiriy va kamoli botiniy bila piyrosta yigitdur. Razm atvoridin otar-tutarda dilpisand va bazm asbobidan ichmak va bag‘ishlamaqda bemonand. Tab’i ham nazm uslubida muloyim tushubtur…».

Badiuzzamon mirzoning Mozandaronda hokim bo‘lganligini Alisher Navoiyning ustozi Abdurahmon Jomiyga bag‘ishlangan “Xamsatul-mutahayyiriyn” asaridan ham bilsa bo‘ladi. Hazrati Jomiy vafoti munosabati bilan Mozandarondan o‘zi kelolmay, vakil yuborgan va u bilan azadorlarga liboslar jo‘natgan Badiuzzamon haqida Navoiy shunday yozadi: “...Hattokim, hazrati saltanat shior, xilofat disor Sulton Badiuzzamon mirzo (abbadal-lohu taolo zilol shafatihi alo naforiqi l-muhibbin ila yavmiddin - Olloh taolo shafqat soyasini do‘stlar ayrilig‘i ustida to qiyomat abadiy qilsin.) ***Mozandaron*** mulkidin kishi yiborib, alar azosi uchun ba’zig‘a liboslar iltifot qilib erdilar ham muxotab faqir erdim va ul Hazratning Hazrati saltanat shior bila go‘shai xotir va himmatlari bag‘oyat ko‘p erdi. Hazrati saltanat shiorning ham alarg‘a irodat va ixlosi

benihoyat erdi”[1]. Parchadagi “hazrati saltanat shior” sifati bilan ta’riflangan Badiuzzamon mirzoning Hazrati Maxdumi nuran – Jomiy (q.s.) vafoti munosabati bilan ***Mozandarondan*** janozaga vakil yuborgani va janozadagilarning ba’zilariga liboslar berib yuborganini yozar ekan, Mirzoning Hazrati Abdurahmon Jomiyga irodatlari va ixloslari benihoya ekanligini ham ta’kidlab o‘tadi.

“Boburnoma”da Sulton Husayn avlodi to‘g‘risida yozilganida shunday keltiriladi: “Bori o‘g‘lonlaridin ulug‘i Badiuzzamon mirzo edi. Onasi Sanjar mirzo Marviyning qizi edi...” (Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.”Yulduzcha”, 1989. 149-b). “Badiuzzamon Mirzo g‘ayrat va shijoat, yurtni boshqarish va sarkardalikda boshqa temuriy shahzodalardan ajralib turardi. Ulug‘ shoir Alisher Navoiy u haqda iftixor bilan so‘zlab, ichki va tashqi fazilatlari tufayli yuksak maqom egallaganini (“Husni surat va husni siyrat bila orasta va jamoli zohiriy va kamoli botiniy bila niyrosta yigitdur”), kamolga yetganini alohida ta’kidlaydi. Mirzoning yana bir jihati uning she’riyat bilan mashg‘ul bo‘lishi, shoirligi edi (“tab’i ham nazm uslubida muloyimdur”). Navoiy Badiuzzamon Mirzoning fors-tojik hamda turkiy (eski o‘zbek tili)da qalam tebratganini aytib, uni o‘zbekcha she’ridan bir bayt keltiradi:

E*y sabo, gar so‘rsa holim shammai ul sarvinoz,*
Evrulub boshig‘a men sargashtadin yetkur niyoz.

Alisher Navoiy Badiuzzamon Mirzoga umid bilan qarar, uni kelajakda mamlakatni adolat bilan boshqarishi, yurt obodonligi uchun jon kuydirishiga chin yurakdan ishonardi. Shoirning Badiuzzamon Mirzoga bitgan maktublari hamda unga bag‘ishlangan she’riy satrlari sinchiklab o‘rganilsa, ayon bo‘ladiki, Navoiy shahzodani hamisha kuzatib yurgan, uning yutuqlaridan muttasil quvongan, xato-kamchiliklaridan mehribon otalardek kuyingan. Bilib turib yo‘l qo‘ygan noto‘g‘ri xatti-harakatlarini esa ro‘y-rost yuziga aytib, uni bu yo‘ldan qaytarishga uringan. O‘z navbatida Badiuzzamon Mirzo ham Navoiyga chinakam ixlos qo‘ygan, uni mehribon ustoz va murabbiy sifatida hamisha e’zozlardi. Hatto, eng qaltis vaziyatlarda ham shoirning aytganlarini so‘zsiz bajargan, uning so‘zini ikki qilmaslikka intilgan Badiuzzamon Mirzo Navoiyning ta’na-dashnomlari, tanbehlarini hamisha e’tirozsiz qabul qilgan. Navoiy bilan Badiuzzamon o‘rtasidagi munosabatning samimiyligi hozirga qadar bizga ota-bola o‘rtasidagi nazokatli va nafis munosabatni eslatadi.

[1] Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин, МАТ, 15-ж.

Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida “Shoirning Badiuzzamonga o‘gitlari” parchasi keltiriladi. Unda shunday deyilgan:

Shohki, ish adl ila bunyod etar,
Adl buzuq mulkni obod etar.
Oz ish uchun tund itob aylama,
Qatlu siyosatda shitob aylama.
Yaxshi esa avf siyosat chog‘i,
Lek kerak ishda farosat dog‘i.
Zoda muridu, otani pir bil!
Har ishida hukmig‘a ta’sir bil!

Xullas, Sulton Husayn Boyqaroning Badiuzzamon Mirzoni Astrobod hokimligidan mahrum etish to‘g‘risidagi farmoniga Badiuzzamon bo‘ysunmay, uni bajarishdan bosh tortdi. Sarkash shahzoda o‘zining o‘n ikki yoshli o‘g‘li, dadil va jasur Mo‘min Mirzoni Astrobodda qoldirib, shaharga Muzaffar Mirzoni kiritmaslikni tayinladi, o‘zi esa Balx sari yo‘l oldi. Otasining Xadichabegim gapiga ko‘nib, bunday ish tutishidan qattiq g‘azablangan Badiuzzamon Mirzo: “Astrobodga odam yuborib, ovora bo‘lmang. Uni baribir bermayman”, degan mazmunda maktub bitib, otasiga jo‘natadi.

Navoiyning Badiuzzamon Mirzoga yo‘llagan ikkinchi maktubi Tangri rizosi ota rizosi bilan barobardir, shuningdek, Alloh g‘azabi ham ota g‘azabi bilan qo‘shilib ketadi, degan gaplar bilan boshlandi. Shoir Badiuzzamon Mirzoga qarata, kimki otasini rozi qilsa, u Tangrini ham rozi qilgan bo‘ladi, aks holda Xudoning g‘azabiga duchor bo‘ladi, dedi. Shunday ekan, kim otaga qarshi bosh ko‘tarib chiqa oladi?!

Navoiyning fikricha, farzand uchun ota qudratli tarbiyachi, ona esa qonuniy rizq beruvchidir. Shu o‘rinda Navoiy turkigo‘y shoir Ahmad Yugnakiyning bir to‘rtligini misol keltiradi. Undagi “Atodin xato kelsa, ko‘rma xato”, deyish bilan Husayn Boyqaro tomonidan Badiuzzamon Mirzoga nisbatan yo‘l qo‘yilgan noto‘g‘ri xatti-harakatni g‘oyat pardali tarzda qayd etish barobarida “Bu xatoni savob bil”, ya’ni bu holni dastak qilib, otaga bosh ko‘tarish nihoyatda ulug‘ gunoh ekanligini ta’kidlamoqchi bo‘ldi.

Navoiy mazkur maktubda Badiuzzamon Mirzoning o‘z otasiga qarshi yo‘l qo‘ygan kamchiliklarini ro‘y-rost sanab o‘tgan, unga tanbeh bergan, sultonning o‘g‘li ekanligiga qaramay ayamay tanqid qilgan. Navoiyning fikriga ko‘ra, Badiuzzamon Mirzo viloyatdan keladigan barcha daromadni o‘z ixtiyoriga olib qo‘ygandi. Bu o‘sha davrda amalda bo‘lgan qonunlarga mutlaqo zid edi.

Ikkinchidan, shahzoda Husayn Boyqaro farmoniga so‘zsiz bo‘ysunish o‘rniga undan bo‘yin tovlagan, bu gustohlik sanalardi. Ma’lumki, gustohlik andishasizlik, ibosizlikdan iborat. Uchinchidan, shahzoda hali qo‘lga kirmagan Iroq viloyatini otasi bilan maslahatlashmay, u bilan kelishmay turib, o‘z tasarrufiga kiritgan edi. Bunda Badiuzzamon tomonidan yo‘l qo‘yilgan xato shundaki, u o‘z nishoni, ya’ni farmon va boshqa rasmiy hujjatlarida otasi Husayn Boyqaroning nomini chiqarib tashlagandi. Bu esa o‘sha zamonda amalda bo‘lgan davlat yuritish tartiblariga mutlaqo zid bo‘lgan. Mavjud qonunga muvofiq, viloyat hukmdorlari har bir rasmiy hujjatda mamlakat hukmdorining nomini tilga olishlari shart edi.

Nihoyat, ota-bola temuriyzodalar o‘rtasidagi omonsiz jangda Badiuzzamon yengildi. Keyingi kuni Muzaffar Mirzo Astrobodni bosib olib, Mo‘min Mirzoni makr bilan qo‘lga tushirib, asirlikka oldi. 12 yoshli Mo‘min Mirzo Hirotga, Ixtiyoriddin qal’asiga keltirildi. Bu fursatdan ustalik bilan foydalangan Xadichabegim makkor vazir Nizomulmulk bilan maxfiy ravishda til biriktirib, Sulton Husayn Mirzoning mastligi chog‘ida undan Mo‘min Mirzoni o‘ldirish haqida oldindan tayyorlab qo‘yilgan farmonga muhr bostirib oldilar…

Sulton hushiga kelib, voqeaning butun dahshatini angladi-da, darhol o‘zi muhr bosgan farmonni bekor qildi. Ammo vaqt o‘tgan, Mo‘min Mirzo allaqachon fitna qurboni bo‘lgandi. Bu qonli voqealar ro‘y bergan ma’shum kunlarda Navoiy davlat ishlari bilan Mashhadda edi. Shoir dahshatli xabardan qattiq larzaga tushdi. “Shayx Majdiddin Bag‘dodiyning Xorazmshoh Muhammad tomonidan qatl etilishi Chingizxon tomonidan qirg‘inni boshlab bergan bo‘lsa, Mo‘min Mirzoning o‘ldirilishi ham xuddi shunday bo‘lajak”, deb bir necha bor takrorlaganini tarixchi Xondamir eslatib o‘tgan.

Zamonning zaylini qarangki, voqealarning borishi Navoiyning yuqorida aytgan fikrlarini to‘la-to‘kis tasdiqladi. Ko‘p o‘tmay Hirotga Shayboniyxon boshliq qo‘shinlar bostirib kirdi”.

Demak, Marv shohining bog‘ida ochilgan gul – Badiuzzamon mirzo o‘z xatosi tufayli nafaqat mulkidan, balki fitnalar tufayli farzandi arjumandidan ham ajralib qoladi. Zahiriddin Muhammad Bobur 1506 yilda Hirotda Badiuzzamon bilan uchrashgan. Sevimli jasur farzandidan ajralgan, Navoiyning pand-nasihatlaridan yetarli xulosa chiqargan Badiuzzamon anchayin cho‘kib qolgan, hayotning omonsiz zarbalaridan soch-soqoli oqarib qolgan edi.

Shayboniyxon Hirotni egallaganidan so‘ng Badiuzzamon Mirzo Turkiyaga ketib qoldi va 1514 yilda Istanbulda sargashtalikda dunyodan ko‘z yumdi”[1]

Endi baytdagi ikkinchi joy nomi Marv haqida to‘xtalsak. Tarixiy ma’lumotlarda asli Marv shahrining unvoni “shohi jahon”, to‘lig‘icha “Marvi shohi jahon”, deb yuritilgan [2]. Ko‘pgina tarixiy shaharlarning, jumladan Buxoroning foxira, Termizning madinat-ur-rijol, Samarqandning baldayi mahfuza kabi o‘ziga xos unvonlari bo‘lgan. Masalan, “Boburnoma”da shunday keltiriladi: “Shahri Samarqanddur, viloyatini Movarounnahr derlar. Hech yog‘iy qahr va g‘alaba bila munga dast topmag‘on uchun baldai mahfuza (muhofazalangan shahar) derlar” [3]. Shu jumladan tarixiy ma’lumotlar va lug‘atnomalarning guvohligiga ko‘ra Marv manbalarda “Marviy shoh-jahon” yoki Marvi shohiyi jahon sifatlari bilan yuritilgan.

IX-XII asr tarixiy manbalarida Marv haqida ko‘plab ma’lumotlar keltirilgan. Masalan, Tabariy (9-asr) Marvni “Xuroson qalbi”, Yoqut Hamaviy uning ahlini “Aslzoda ozod kishilar” desalar, Muqaddasiy (10 asr) uning ta’rifini shunday keltiradi: “Jahonda Marvning shirin qovuni-yu, totli nonicha non yo‘qdir”. Istaxriy bu shaharni shunday tavsif qiladi: “Marv Xurosonning eng go‘zal shaharlaridan bo‘lib, mevalari lazzatlidir. Qovunini quritib boshqa mamlakatlarga olib ketishadi. Shuningdek Marv o‘zining shohi matosi va paxtasi bilan mashhurdir”. Ibn Havqal yozadi: “Marv ko‘hna va taniqli shahar bo‘lib, uni Shohi jahon deb ham tavsiflashadi. Aytishlaricha, uning asosini Tahmuras bino qilgan ekan”. Shuningdek, ba’zi olimlarning fikricha, Marvdan ming xil turdagi shohi matolar chiqqani uchun ham unga “jahon shohisi” – Shohiyi jahon degan tavsif berilgan ekan.

Navoiy esa baytda “shohi jon” iborasini keltiradi va bu bilan o‘zining qiyomatlik do‘sti, nafaqat diyorining, balki jonining ham shohi bo‘lgan Sulton Husayn Boyqaroni nazarda turgan va uning ostonasi gardi (tuprog‘i)ni ko‘ziga

---

[1] **Фатҳулла Намозов, “Отага қарши исён ёхуд Бадиуззамон қисмати”**. Интернет сайтидан

[2] Байтдаги Марви шоҳи жон жумласини “Марви шоҳжаҳон” тарзида ўқилса вазнга путур етмайди. Фақат мазмун ўзгариши мумкин. Тарихий манбалар ва луғатномаларда Марв шаҳри “Марви шоҳжаҳон” сифати билан юритилар экан. Шунга кўра байт қуйидаги шаклда ҳам бўлиши мумкин:

Эй сабо, кўздин учур Мозандароннинг вардини,
Ким, қилибмен сурма Марвий шоҳжаҳоннинг гардини.

Бу ҳолатда ҳам вазн бузилмайди, яъни ўша фоилотун-фоилотун, фоилотун, фоилун парадигмаси билан рамали мусаммани мақсур вазнига тўғри келади. Бироқ қўлёма матнга қараш лозим бўлади.

[3] Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. –Т.: Юлдузча, 1989. –Б.43.

surma qilganini aytgan. Bu yerda Sulton Husayn Boyqaro nazarda tutilayotganini tarixchilarning quyidagi mulohazalaridan bilish mumkin:

Husayn Boyqaro Hirot taxtiga chiqmasidan avval ma’lum muddat Samarqandda Sulton Abusaid Mirzo saroyida xizmat qildi. Abusaid Mirzo uni iliq kutib olib, temuriylarga xos ixlos bilan unga chin e’tiqod qo‘ygan edi. Ammo Sulton Uvays unga qarshi bosh ko‘tarib, hujum qilganidan so‘ng Abusaid Mirzoning Husayn Boyqarodan ko‘ngli qoldi. Ixlosi qaytgan podsho boshqa shahzodalar qatori Husayn Boyqaroni ham hibsga oldi. Chunki toj-taxtni ko‘zlab, ertami-kechmi Husayn Boyqaro ham bosh ko‘tarishi mumkin edi. Buni Sulton Abusaid kech bo‘lsa-da, baribir tushunib qoldi.

Sulton Husaynning hibsga olingani haqidagi xabar uning onasi Feruzabegimga yetib bordi. Feruzabegim Hirotdan zudlik bilan kelib, o‘g‘lini qutqarib oldi. Sulton Abusaid Mirzo bilan aloqani butunlay uzgan Husayn Boyqaro onasiga qo‘shilib, shitob bilan Samarqandni tark etdi. U Hirotga emas, balki Marvga yo‘l oldi.

Bu paytda Marvda Sulton Sanjar hukmronlik qilardi. U Sulton Abusaid Mirzoning ashaddiy dushmani edi. Sulton Sanjar Husayn Boyqaroni quchoq ochib qarshi oldi, uning sarkardalik mahoratini yuqori baholadi. U Boyqaro bilan yanada yaqinroq bo‘lishni istardi. Shu maqsadda uni o‘ziga kuyov qildi. Beka Sultonbegim ismli qizini unga xotinlikka berdi. Shunday qilib, Sulton Husayn Boyqaro Marv hukmroni Sulton Sanjarga kuyov bo‘lib qoldi. Badiuzzamon Mirzo Husayn Boyqaroning ana shu xotinidan tug‘ilgan to‘ng‘ich farzandi edi. O‘sha davr odatiga ko‘ra, u bo‘lajak taxt egasi, ya’ni valihad hisoblangan”.

Sulton Husaynning tarjimai holida quyidagilarni o‘qiymiz: “Husayn Boyqaro Marv hukmdori Sulton Sanjar xizmatiga kirgan va uning qizi Beka Sultonbegimga uylangan. Sulton Sanjar Husayn Boyqaroni o‘z o‘rniga qo‘yib Mashhadga yurish qilgan. Bu orada Marvda Husayn Boyqaroga qarshi fitna uyushtirilib, u ovga chiqqanda shahar darvozalari berkitib olingan. Husayn Boyqaro 1457 yil qishni Marv bilan Xiva oralig‘idagi biyobonda o‘tkazgan”[1].

Xullas, shoir Badiuzzamon va otasi o‘rtasidagi munosabatni yaxshilashga ancha uringan va bu holatlarni asarlari qatiga ham singdirgan. Mozandaron vardi va Marv shohi o‘rtasidagi gardu g‘ubor baribir tarqamaganligi, chunki bunga beg‘ubor avvalo otaga bo‘ysunmagan o‘g‘il qiliqlari sabab bo‘lgan bo‘lsa, bobo

[1] Фатҳулла Намозовнинг “Отага қарши исён ёхуд Бадиуззамон қисмати”.

tomonidan nabiraning qatl etilishi sarmastlik paytida berilgan farmon sabab bo‘lganligi yuqorida eslab o‘tildi.

Navoiy ayni shu “G‘aroyib us-sig‘ar” devonining boshqa bir g‘azali maqta’sida quyidagi misralarni keltiradi:

E*y Navoiy, bilki ohe chekmisham beixtiyor,*

Desalarkim, beshayi Mozandarong‘a tushti o‘t[1].

(Ey Navoiy, bilginki, agar Mozandaron o‘rmoniga o‘t tushdi desalar beixtiyor oh chekaman). Zero, Mozandaronda uning vardi – atirguli (Badiuzzamon) va gulg‘unchalari (Mo‘min mirzo) o‘sar va yashar edilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamid A’lamiy. Tasvirlarda Eron bo‘ylab sayohat. Fors tilidan D.Karimov va J.Mahmudov tarjimasi. –Tehron: Suxanvaron. 2013. 245-246-s.

2. Alisher Navoiy. Xamsat ul-mutahayyirin, MAT, 15-j. T.

3. Fathulla Namozov, “Otaga qarshi isyon yoxud Badiuzzamon qismati”. Internet saytidan

4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. –T.: Yulduzcha, 1989. – B.43.

5. Fathulla Namozovning “Otaga qarshi isyon yoxud Badiuzzamon qismati”.

6. Mukammal asarlar to‘plami. 3-j. G‘aroyib us-sig‘ar, 86-g‘azal.

[1] Мукаммал асарлар тўплами. 3-ж. Ғаройиб ус-сиғар, 86-ғазал.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA XUSHMUOMALALIK KATEGORIYASINING QIYOSIY-LINGVOPRAGMATIK TADQIQIGA DOIR

Salomov Narzulla Soyibovich,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: n.salomov@mail.ru

UO‘K 95(31)

Annotatsiya. *Maqolada xushmuomalalik kategoriyasi ingliz va o‘zbek tillari qiyosida lingvopragmatik nuqtayi nazardan tadqiq qilingan. Pozitiv va negativ xushmuomalalik strategiyalarining ikki tildagi lisoniy voqelanishi, ulardagi izomorf va allomorf jihatlar tahlil qilingan. Tadqiqotda ingliz tilida xushmuomalalik asosan modal-sintaktik vositalar, o‘zbek tilida esa hurmat kategoriyasining morfologik-leksik vositalari orqali voqelanishi aniqlangan. Xushmuomalalik strategiyasi tanlovini belgilovchi ijtimoiy masofa, hokimiyat / maqom farqi va harakatning og‘irlik darajasi kabi sotsiopragmatik omillarlar chog‘ishtirma aspektda ko‘rib chiqilgan. Xushmuomalalik kognitiv-lingvomadaniy konsept sifatida talqin qilinib, o‘zbek tilidagi andisha, ibo, takalluf kabi milliy-madaniy belgilangan birliklar hamda ingliz tili bilan qiyosdagi lakunalar aniqlangan. Tadqiqot natijasida xushmuomalalik kategoriyasini uch lisoniy sath bo‘yicha yaxlit chog‘ishtirma o‘rganish zarurligi asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *xushmuomalalik, qiyosiy tilshunoslik, lingvopragmatika, sotsiopragmatika, pozitiv va negativ xushmuomalalik, hurmat kategoriyasi, konseptualizatsiya, izomorf va allomorf jihatlar, lakuna, milliy-madaniy xoslik.*

Аннотация. *В статье с лингвопрагматической точки зрения исследуется категория вежливости на материале сопоставления английского и узбекского языков. Анализируется языковая реализация стратегий позитивной и негативной вежливости в двух языках, их изоморфные и алломорфные черты. В ходе исследования выявлено, что в английском*

языке вежливость реализуется в основном через модально-синтаксические средства, а в узбекском – через морфолого-лексические средства категории уважения. В сопоставительном аспекте рассматриваются социопрагматические факторы, определяющие выбор стратегии вежливости, такие как социальная дистанция, разница во власти/статусе и степень тяжести (навязчивости) действия. Вежливость трактуется как когнитивно-лингвокультурный концепт; выявлены национально-культурно маркированные единицы узбекского языка, такие как андиша (осмотрительность), ибо (скромность), такаллуф (почтительность), а также лакуны по сравнению с английским языком. По результатам исследования обосновывается необходимость комплексного сопоставительного изучения категории вежливости на трех языковых уровнях.

Ключевые слова: *вежливость, сопоставительное языкознание, лингвопрагматика, социопрагматика, позитивная и негативная вежливость, категория уважения, концептуализация, изоморфные и алломорфные черты, лакуна, национально-культурная специфика.*

Abstract. *This article investigates the category of politeness from a linguopragmatic perspective through a comparative analysis of the English and Uzbek languages. The linguistic realization of positive and negative politeness strategies in both languages, along with their isomorphic and allomorphic features, are analyzed. The research reveals that politeness in English is primarily realized through modal-syntactic means, while in Uzbek, it is expressed through the morphological and lexical means of the category of respect. Sociopragmatic factors determining the choice of politeness strategies, such as social distance, power/status difference, and the degree of imposition of the act, are examined in a comparative aspect. Politeness is interpreted as a cognitive-linguocultural concept; culturally specific units in the Uzbek language, such as andisha, ibo, and takalluf, as well as lacunae in comparison with the English language, are identified. Based on the results of the research, the necessity for a comprehensive comparative study of the category of politeness across three linguistic levels is substantiated.*

Keywords: *politeness, comparative linguistics, linguopragmatics, sociopragmatics, positive and negative politeness, category of respect, conceptualisation, isomorphic and allomorphic features, lacuna, national-cultural specificity.*

Kirish. Xushmuomalalik kategoriyasi muloqotning umuminsoniy hodisasi bo‘lib, ayni paytda har bir til jamoasida o‘ziga xos milliy-madaniy ko‘rinishga

ega bo‘lgan murakkab tushunchadir. Aynan shu universallik va idioetnik xoslanish o‘rtasidagi ziddiyat mazkur kategoriyaning qiyosiy-chog‘ishtirma tadqiqini ilmiy jihatdan zarur qilib qo‘yadi. Tipologik jihatdan qardosh bo‘lmagan ingliz va o‘zbek tillarini chog‘ishtirish xushmuomalalikning ham universal mexanizmlarini, ham milliy-madaniy o‘ziga xosligini bir vaqtda yoritish imkonini beradi.

Mazkur maqolada xushmuomalalik kategoriyasi ingliz va o‘zbek tillari qiyosida lingvopragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi ikki tildagi xushmuomalalik strategiyalarining lisoniy voqelanishidagi izomorf va allomorf jihatlarni, strategiya tanloviga ta’sir etuvchi sotsiopragmatik omillarni hamda xushmuomalalik konseptining milliy-madaniy xosligini ochib berishdan iborat. Tadqiqot xushmuomalalik kategoriyasini leksik-semantik, grammatik va lingvopragmatik sathlarni qamrab oluvchi yaxlit tizim sifatida o‘rganishga qaratilgan.

Asosiy qism. Xushmuomalalik kategoriyasini chog‘ishtirma o‘rganishning metodologik asoslarini tushunish uchun pragmatikaning ichki tarmoqlanishini qayd etish zarur. Ushbu farqlanishni dastlab G.Lich taklif etgan bo‘lib [4, 11-b.], ***pragmalingvistika*** muayyan pragmatik mazmunni, jumladan, xushmuomalalikni ifodalovchi aniq lisoniy vositalarni: leksik birliklar, grammatik shakllar va sintaktik konstruksiyalarni o‘rganadi. ***Sotsiopragmatika*** esa ushbu vositalar tanloviga ta’sir etuvchi suhbatdoshlarning maqomi, masofa, yoshi, jinsi va madaniy me’yorlar kabi ijtimoiy omillarni tadqiq qiladi. Xushmuomalalik kategoriyasining leksik-semantik va grammatik xususiyatlari pragmalingvistik tahlil doirasiga, uning lingvopragmatik xususiyatlari esa sotsiopragmatik tahlil doirasiga kiradi.

Negativ xushmuomalalik strategiyasining ikki tildagi voqelanishi. Ingliz va o‘zbek tillarida negativ xushmuomalalik strategiyasi har xil lisoniy vositalar orqali voqelanadi. Ingliz tilida bu strategiya birinchi navbatda boy modal tizim orqali ifodalanadi: iltimos yoki undashni yumshatishda *could, would, might, may* modal fe’llari, shartli mayl (*“if you don’t mind…”*), so‘roq konstruksiyalari (*“Would you mind opening the window?”* – “Derazani ochib qo‘ysangiz, malol kelmaydimi?”) keng qo‘llaniladi. O‘zbek tilida esa negativ xushmuomalalik avvalo ***hurmat kategoriyasi***ning hurmat shaklidagi ko‘plik (*siz keldingiz*), fe’lning hurmat shakllari (*marhamat qiling, bersangiz*), shartli va istak mayllari hamda yumshatuvchi so‘zlar (*iltimos, mumkinmi, zahmat bo‘lmasa, malol*

kelmasa) kabi grammatik vositalar orqali ifodalanadi. Demak, ingliz tilida bu strategiya ko‘proq *modal-sintaktik*, o‘zbek tilida esa *morfologik-leksik* vositalar bilan voqelanadi, bu ikki tildagi xushmuomalalik ifodasining muhim jihatidir.

Pozitiv xushmuomalalik strategiyasining ikki tildagi voqelanishi. Pozitiv xushmuomalalik strategiyasi har ikki tilda suhbatdoshga yaqinlik va e’tiborni ko‘rsatish orqali namoyon bo‘ladi, biroq uning ijtimoiy ko‘lami farq qiladi. Ingliz muloqot madaniyatida pozitiv xushmuomalalik samimiy murojaat, maqtov, qiziqish bildirish va umumiy nuqtayi nazarni ta’kidlash orqali voqelanadi. O‘zbek muloqot madaniyatida esa pozitiv xushmuomalalik o‘zining boy va o‘ziga xos vositalar tizimiga ega. *Aka, opa, uka, buvi, ota* kabi qarindoshlik atamalarining murojaat sifatida kengaytirilgan qo‘llanishi notanish kishilarga ham qaratiladi va suhbatdoshni “o‘ziniki”, ya’ni jamoaga mansub deb e’tirof etish vositasiga aylanadi. Bundan tashqari, *rahmat, omon bo‘ling, baraka toping* kabi minnatdorchilik, duo va olqish shakllari, erkalash qo‘shimchalari o‘zbek tilida pozitiv xushmuomalalikning kuchli milliy-madaniy belgilari hisoblanadi.

Bilvosita, yashirin strategiya har ikki tilda mavjud bo‘lib, kinoya va ishorat orqali voqelanadi. Biroq o‘zbek muloqot madaniyatida tagma’noli, bilvosita ifodalash, ayniqsa rad javobi va e’tiroz bildirishda, g‘arb madaniyatiga nisbatan kuchliroq faollashadi. O‘zbek tilida to‘g‘ridan to‘g‘ri *yo‘q* deyish ko‘pincha yuzga tahdid sifatida qabul qilinadi, shu sababli rad javobi yumshatuvchi izoh, uzr yoki *ko‘ramiz, xudo xohlasa, harakat qilaman* kabi noaniq va’da bilan ifodalanadi.

Xushmuomalalik strategiyasini belgilovchi sotsiopragmatik omillar. Xushmuomalalik strategiyasi tanlovi ijtimoiy masofa, hokimiyat / maqom farqi va harakatning og‘irlik darajasiga bog‘liqdir [5, 65-b.]. ***Ijtimoiy masofa*** ingliz muloqot madaniyatida ijtimoiy munosabatlarning asosiy tartibga soluvchisi hisoblanadi: notanish kishi bilan muloqotda masofa saqlash ustunlik qiladi. O‘zbek muloqot madaniyatida esa masofa ko‘pincha ijtimoiy munosabatlarning oilaviy-jamoaviy modeliga bo‘ysunadi: notanish kishi qarindoshlik atamasi bilan murojaat qilinib, ramziy ravishda “yaqin” doiraga kiritiladi.

Hokimiyat / maqom farqi omili aynan o‘zbek muloqot madaniyatida nihoyatda kuchli faollashadi: yosh, ijtimoiy lavozim va oilaviy ierarxiyadagi o‘rin lisoniy xulqni qat’iy belgilab beradi. O‘zbek tilidagi hurmat kategoriyasining boy grammatik tizimi hurmat shaklidagi olmoshlar, fe’l shakllari, murojaat birliklari aynan shu maqom farqini lisoniy ifodalashga xizmat qiladi. Ingliz tilida esa maqom farqi alohida grammatik kategoriya bilan emas, leksik va sintaktik

vositalar orqali ifodalanadi. Bu ikki til o‘rtasidagi muhim tipologik-pragmatik tafovut hisoblanadi.

Harakatning og‘irlik darajasi omili esa xushmuomalalikning madaniy nisbiyligini eng yaqqol ko‘rsatadi: bir xil harakat turli madaniyatlarda turlicha og‘irlikka ega bo‘lishi mumkin. Ushbu omillar universal bo‘lsa-da, ularning o‘zaro nisbati va lisoniy ifodasi ingliz va o‘zbek tillarida sezilarli farq qiladi.

Xushmuomalalik muayyan til jamoasining ongida shakllangan, til vositalarida moddiylashgan aqliy-madaniy birlik sifatida ham talqin qilinadi. Ushbu konseptning mazmuniy ko‘lami ikki tilda turlicha voqelanadi. Ingliz tilida u *politeness* leksemasi atrofida *courtesy, civility, manners, etiquette, tact, deference* kabi birliklar bilan nominativ maydon hosil qiladi. O‘zbek tilida esa xushmuomalalik konsepti *xushmuomalalik, odob, muomala madaniyati, hurmat, izzat, andisha, ibo, nazokat, takalluf* kabi keng leksik-semantik maydon orqali voqelanadi. Bu maydondagi ayrim birliklar, masalan, *andisha* (boshqalarning his-tuyg‘ulari va fikrini hisobga olib, o‘zini tiyish), *ibo* (uyatchanlik, hayoga asoslangan vazminlik) yoki *takalluf* (mehmondo‘stlikdagi rasmiy iltifot) kabilar ingliz tilida bevosita ekvivalentga ega emas va o‘zbek lingvomadaniyatining milliy-madaniy belgilangan tushunchalaridir. Mazkur tafovut ikki tilda chog‘ishtirishda *lakunalar*, ya’ni bir tilda mavjud, ikkinchisida lisoniy ifoda topmagan tushuncha bo‘shliqlarining mavjudligini ko‘rsatadi. Lakunalarni aniqlash xushmuomalalik kategoriyasining milliy-madaniy o‘ziga xosligini ochishning samarali usuli hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. O‘tkazilgan qiyosiy tahlil ingliz va o‘zbek tillaridagi xushmuomalalik kategoriyasi o‘rtasida ham izomorf, ham allomorf jihatlar mavjudligini ko‘rsatadi. ***Izomorf jihatlar*** har ikki tilda pozitiv va negativ xushmuomalalik strategiyalarining, yuzni saqlash mexanizmining hamda bilvosita ifodalashning mavjudligi. ***Allomorf jihatlar*** esa strategiyalarni voqelantiruvchi aniq lisoniy vositalar, ularning grammatik tabiati, qo‘llanish chastotasi va ijtimoiy taqsimotidagi farqlardir. Ingliz tilida xushmuomalalik asosan modal-sintaktik vositalar bilan, o‘zbek tilida esa hurmat kategoriyasining morfologik-leksik vositalari bilan voqelanadi.

O‘zbek tilshunosligida xushmuomalalik kategoriyasi bo‘yicha sezilarli nazariy-amaliy zamin yaratilgan: ushbu kategoriya hurmat maydoni, nutqiy etiket va muomala madaniyati doirasida, so‘nggi yillarda esa sotsiopragmatik yo‘nalish asosida tadqiq qilingan [13; 14]. Ingliz va o‘zbek tillarini chog‘ishtirgan

tadqiqotlar 10.00.06 ixtisosligi doirasida rivojlanmoqda. Biroq xushmuomalalik kategoriyasini aynan ingliz va o‘zbek tillari qiyosida, leksik-semantik, grammatik va lingvopragmatik sathlarni birgalikda qamrab oluvchi yaxlit tizim sifatida o‘rganish hali yetarli darajada amalga oshirilmagan. Aynan shu ilmiy bo‘shliq mazkur tadqiqot yo‘nalishining dolzarbligini belgilab beradi.

Xulosa. Ingliz va o‘zbek tillaridagi xushmuomalalik kategoriyasining qiyosiy-lingvopragmatik tahlili quyidagi xulosalarga olib keladi. Birinchidan, pozitiv, negativ, bilvosita kabi xushmuomalalik strategiyalari har ikki tilda universal hodisa sifatida mavjud, biroq ularni voqelantiruvchi lisoniy vositalar tipologik jihatdan farq qiladi: ingliz tilida modal-sintaktik, o‘zbek tilida morfologik-leksik vositalar ustunlik qiladi. Ikkinchidan, sotsiopragmatik omillar universal bo‘lsa-da, ularning o‘zaro nisbati madaniyatga bog‘liq. O‘zbek muloqot madaniyatida maqom farqi omili nihoyatda kuchli faollashadi. Uchinchidan, xushmuomalalik lingvomadaniy konsept sifatida ikki tilda turlicha konseptuallashtirilgan bo‘lib, o‘zbek tilidagi *andisha*, *ibo*, *takalluf* kabi birliklar lakunalar shaklida milliy-madaniy xoslikni namoyon etadi. Olingan natijalar xushmuomalalik kategoriyasini uch lisoniy sath bo‘yicha yaxlit chog‘ishtirma o‘rganish zarurligini asoslaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Austin J. L. How to do things with words. – Oxford: Oxford University Press, 1962. – 168 p.

2. Searle J. R. Speech acts: An essay in the philosophy of language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – 203 p.

3. Grice H. P. Logic and conversation // Syntax and semantics. Vol. 3: Speech acts. – New York: Academic Press, 1975. – P. 41–58.

4. Leech G. N. Principles of pragmatics. – London; New York: Longman, 1983. – 250 p.

5. Brown P., Levinson S. C. Politeness: Some universals in language usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 345 p.

6. Ide S. Formal forms and discernment: Two neglected aspects of universals of linguistic politeness // Multilingua. – 1989. – Vol. 8. – P. 223–248.

7. Watts R. J. Politeness. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – 304 p.

8. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 286 b.

9. Hakimov M. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 176 b.

10. Hojiyeva H. Ya. O‘zbek tilida hurmat maydoni va uning lisoniy-nutqiy xususiyati: Filol. fan. nomzodi … diss. – Samarqand, 2001. – 130 b.

11. Mo‘minov S. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: Filol. fan. doktori … diss. – Toshkent, 2000. – 235 b.

12. Buzrukova M. M. Iltimos nutqiy aktining pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlari (ingliz va o‘zbek tillari materiallarida): Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) … diss. – Samarqand, 2021. – 169 b.

13. Xolova M. B. Ingliz va o‘zbek badiiy asarlarida xushmuomalalik kategoriyasining lingvomadaniy va sotsiopragmatik xususiyatlari: Monografiya. – Buxoro: Kamolot, 2023. – 68 b.

14. Yuldosheva M. Xushmuomalalik nazariyasining sotsiopragmatik tadqiqi: Monografiya. – Namangan: Iste’dod ziyo press, 2025. – 148 b.

15. Shamaxmudova A.F. Nutqiy aktlar kontekstida hurmat tamoyillarini voqelantiruvchi sotsiopragmatik omillar (ispan tili misolida): Filol. fan. doktori (DSc) … diss. avtoref. – Toshkent, 2023. – 72 b.

XUSHMUOMALALIK KONSEPTI VA UNI O‘RGANISHNING ASOSIY NAZARIY YONDASHUVLARI

Salomov Narzulla Soyibovich,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: n.salomov@mail.ru

UO‘K 95(31)

Annotatsiya. *Maqolada xushmuomalalik konseptining umumiy tilshunoslikda o‘rganilish tarixi va asosiy nazariy yondashuvlar tahlil qilingan. Tadqiqotda J.Ostin, J.Searle kabi olimlarning nutqiy aktlar nazariyasi, Graysning kooperatsiya prinsipi, R.Lakoff hamda G.Lichning xushmuomalalik maksimalari, P.Braun va S.Levinsonning “yuz” (face) nazariyasi xronologik va tematik ketma-ketlikda ko‘rib chiqilgan. Klassik modellarning yutuqlari bilan bir qatorda ulardagi madaniy nisbiylik muammosi, universallik da’vosining asossizligi tanqidiy-analitik tarzda yoritilgan. Diskursiv yondashuv va xushmuomalasizlik muammosining mustaqil obyekt sifatida ajratilishi ham tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida xushmuomalalik kategoriyasini chog‘ishtirma o‘rganish uchun bir nechta nazariyani o‘zaro to‘ldiruvchi sifatida birlashtirgan kompleks metodologik baza zarurligi asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *xushmuomalalik, pragmalingvistika, nutqiy akt, kooperatsiya prinsipi, xushmuomalalik maksimalari, “yuz” nazariyasi, yuzni saqlash, pozitiv va negativ xushmuomalalik, diskursiv yondashuv, xushmuomalasizlik.*

Аннотация. *В статье анализируются история изучения концепта вежливости в общем языкознании и основные теоретические подходы. В исследовании в хронологической и тематической последовательности рассматриваются теория речевых актов таких ученых, как Дж. Остин и Дж. Сёрль, принцип кооперации Грайса, максимы вежливости Р. Лакофф и Дж. Лича, а также теория «лица» (face) П. Брауна и С. Левинсона. Наряду с достижениями классических моделей, в критико-аналитическом ключе освещаются проблема культурной относительности в них и*

необоснованность претензий на универсальность. Также анализируются дискурсивный подход и выделение проблемы невежливости (impoliteness) в качестве самостоятельного объекта изучения. В результате исследования обосновывается необходимость комплексной методологической базы, объединяющей несколько теорий в качестве взаимодополняющих, для сопоставительного изучения категории вежливости.

Ключевые слова: *вежливость, прагмалингвистика, речевой акт, принцип кооперации, максимы вежливости, теория «лица», сохранение лица, позитивная и негативная вежливость, дискурсивный подход, невежливость.*

Abstract. *The article analyzes the history of studying the concept of politeness in general linguistics and the main theoretical approaches. The research chronologically and thematically examines the speech act theory of scholars such as J. Austin and J. Searle, Grice's cooperative principle, R. Lakoff's and G. Leech's maxims of politeness, as well as P. Brown and S. Levinson's "face" theory. Along with the achievements of classical models, the problem of cultural relativity within them and the groundlessness of their claim to universality are highlighted in a critical-analytical manner. The discursive approach and the isolation of the problem of impoliteness as an independent object of study are also analyzed. As a result of the research, the necessity of a complex methodological framework that combines several mutually complementary theories for the comparative study of the category of politeness is substantiated.*

Keywords: *politeness, pragmalinguistics, speech act, cooperative principle, politeness maxims, face theory, face-saving, positive and negative politeness, discursive approach, impoliteness.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikning rivojlanishini belgilab bergan asosiy omillardan biri – til hodisalarini insondan, uning ijtimoiy faoliyatidan va madaniy tajribasidan ajratmagan holda o‘rganishga asoslangan antroposentrik paradigmaning qaror topishidir. Aynan shu ilmiy siljish natijasida pragmalingvistika, sotsiolingvistika va lingvomadaniyatshunoslik kabi yo‘nalishlar shakllandi hamda xushmuomalalik muammosi tilshunoslikning mustaqil tadqiqot obyektiga aylandi. Xushmuomalalik kategoriyasi muloqotning umuminsoniy hodisasi bo‘lib, ayni paytda har bir til jamoasida o‘ziga xos milliy-madaniy ko‘rinishga ega bo‘lgan murakkab tushunchadir.

Tilshunoslik adabiyotida “xushmuomalalik” tushunchasiga yagona, umumqabul qilingan ta’rif mavjud emas, zero u bir vaqtning o‘zida lisoniy,

ijtimoiy, kognitiv va axloqiy hodisa hisoblanadi. Mazkur maqolada xushmuomalalik konseptining umumiy tilshunoslikda o‘rganilish tarixi xronologik hamda tematik ketma-ketlikda yoritiladi, asosiy nazariy yondashuvlar tanqidiy-analitik tarzda qiyoslanadi va ular o‘rtasidagi metodologik tafovutlar aniqlanadi. Tadqiqotning maqsadi – xushmuomalalik kategoriyasini chog‘ishtirma tadqiq etish uchun zarur nazariy-metodologik bazani asoslashdan iborat.

Asosiy qism. Xushmuomalalik konseptining ilmiy o‘rganilishi bevosita pragmatikaning tilshunoslikdagi mustaqil yo‘nalish sifatida shakllanishi bilan bog‘liqdir. Pragmatika atamasi belgilarning ularni qo‘llovchi shaxslarga munosabatini ifodalovchi soha sifatida dastlab Ch.Morris tomonidan ajratilgan edi [10, 12-b.]. Biroq pragmatikaning haqiqiy lingvistik mazmun kasb etishi tilshunoslikka nutqiy aktlar nazariyasining kirib kelishi bilan yuz berdi. Nazariyaning asoschisi ingliz tilshunosi va faylasufi ***J.Ostin*** bo‘lib, uning *“How to do things with words”* (1962) asarida nutq nafaqat voqelikni tasvirlash, balki harakat bajarish vositasi ekanligi asoslab berilgan [1,12-b.]. J.Ostin har qanday nutqiy aktda uch jihat – *lokutiv*, *illokutiv* va *perlokutiv* jihatlar mavjudligini ko‘rsatdi. Ushbu uchlamali model xushmuomalalik nazariyasi uchun tamal toshi bo‘ldi, chunki xushmuomalalik aynan illokutiv maqsadning tinglovchi obro‘siga ziyon yetkazmaydigan tarzda ifodalanishi bilan bog‘liqdir.

J.Ostinning g‘oyalarini izchil tizimga solgan olim ***J. Searle*** illokutiv aktlarning beshta asosiy turini – reprezentativlar, direktivlar, komissivlar, ekspressivlar va deklarativlarni ajratdi [2, 45-b.]. Uning xushmuomalalik tadqiqotlari uchun eng muhim hissasi ***bilvosita nutqiy aktlar*** tushunchasidir: so‘zlovchi bir illokutiv aktni boshqa aktning shakli orqali ifodalaydi. Masalan, *“Could you open the window?”* (Derazani ochib yubora olasizmi?) gapi shakl jihatidan so‘roq, mazmun jihatidan esa iltimosdir [3, 30-b.]. Keyingi tadqiqotlar bilvosita ifodalashni xushmuomalalikning eng faol lisoniy mexanizmi sifatida ko‘rsatib berdi. Direktiv aktlar tinglovchining harakat erkinligini chegaralab, uning obro‘siga tahdid soladi, ekspressiv aktlar esa ijtimoiy munosabatni mustahkamlashga xizmat qiladi – demak, xushmuomalalikni empirik o‘rganish aynan shu nutqiy aktlar zaminida amalga oshiriladi.

Graysning kooperatsiya prinsipi. Xushmuomalalik konsepti shakllanishidagi navbatdagi bosqich amerikalik faylasuf ***H.P.Grays*** nomi bilan bog‘liq. U *“Logic and conversation”* (1975) ishida kooperatsiya prinsipi tushunchasini ilmiy muomalaga kiritdi va to‘rtta kommunikativ maksimani –

miqdor, sifat, munosabat va uslub maksimalarini ajratdi [4, 45-b.]. Grays nazariyasining xushmuomalalik uchun ahamiyati shundaki, u kommunikativ implikatura tushunchasini asosladi: maksimalardan ataylab chetga chiqish tinglovchini gapning tagma'noli mazmunini izlashga undaydi. Aynan shu mexanizm xushmuomalalikning lisoniy tabiatini izohlashda kalit vazifasini bajaradi. Biroq Grays modeli muloqotni avvalo axborot almashinuvi sifatida talqin qiladi va uning ijtimoiy, shaxslararo o'lchovini yetarlicha qamrab ololmaydi. Bu ziddiyat keyingi tadqiqotchilarni kommunikatsiya nazariyasini xushmuomalalik prinsipi hisobiga to'ldirishga undadi.

R.Lakoff va G.Lichning maksimalari. Xushmuomalalikni mustaqil lingvistik prinsip sifatida birinchilardan bo'lib ajratgan tadqiqotchi ***R.Lakoff*** hisoblanadi. U pragmatik kompetensiyaning "aniq bo'l" va "xushmuomala bo'l" kabi ikki qoidasini taklif etdi [5, 298-b.]. Lakoff nazariyasi xushmuomalalikni ilk bor tizimli lisoniy hodisa sifatida ko'rsatdi, biroq qoidalarning umumiy, mavhum tarzda ifodalanishi uning empirik tahlilga tatbiq etilishini cheklab qo'ydi.

Xushmuomalalikni izchil maksimalar tizimi shaklida ishlab chiqqan olim ingliz tilshunosi ***G.Lich*** bo'ldi. U *"Principles of pragmatics"* (1983) asarida xushmuomalalik prinsipini Grays kooperatsiya prinsipini to'ldiruvchi mustaqil prinsip sifatida asosladi va uni nazokat, saxovat, ma'qullash, kamtarlik, kelishuv va hamdardlik kabi oltita maksimalariga ajratdi. [6, 132-b.] Lichning muhim hissasi xushmuomalalikni o'lchanadigan, darajalanadigan kategoriya sifatida talqin qilganligidir. Shu bilan birga, maksimalar sonining aniq belgilanmaganligi nazariyaning ilmiy qat'iyligini susaytiradi. Eng muhimi, Lich modeli ingliz tili materiali asosida yaratilgan bo'lib, undagi maksimalarning ahamiyati turli madaniyatlarda bir xil emas: masalan, kamtarlik maksimasi sharq muloqot madaniyatida g'arb madaniyatiga nisbatan ancha kuchli faollashadi.

P.Braun va S. Levinsonning "yuz" nazariyasi. Xushmuomalalik nazariyasi rivojlanishidagi eng salmoqli bosqich ***P. Braun va S. Levinson*** nomi bilan bog'liq. Ularning *"Politeness: Some universals in language usage"* (1987) asari xushmuomalalik tadqiqotlarining klassik nazariy modeliga aylandi [8, 61-b.]. Tadqiqotchilar o'z nazariyasini sotsiolog E.Goffman ishlab chiqqan ***"yuz"*** (face) tushunchasi negizida qurdilar [9, 5-b.]. "Yuz" insonning jamiyatdagi ijtimoiy obrazi, uning shaxsiy qadr-qimmati va obro'sidir. Braun va Levinson "yuz" ning ikki qirrasini ajratdilar: ***ijobiy yuz*** – shaxsning ma'qullanishi va e'tirof

etilishiga bo‘lgan ehtiyoji; va ***salbiy yuz*** – shaxsning harakat erkinligi va majburlanmaslikka bo‘lgan ehtiyoji.

Nazariyaning markaziy tushunchasi ***yuzga tahdid soluvchi aktlardir***. Buyruq, iltimos, tanqid, rad javobi kabi nutqiy aktlar suhbatdoshning yoki so‘zlovchining “yuz”iga tahdid soladi. Aynan shu tahdidni yumshatish, ya’ni ***“yuzni saqlash”*** zarurati so‘zlovchini xushmuomalalik strategiyalarini qo‘llashga undaydi. Braun va Levinson yuzga tahdid soluvchi aktni amalga oshirishning yashirin strategiya, salbiy xushmuomalalik, ijobiy xushmuomalalik, ochiq yumshatilmagan strategiya va aktdan voz kechish kabi beshta strategiyasini ajratdilar [8, 68-b.]. Strategiya tanlovi ijtimoiy masofa, hokimiyat / maqom farqi va harakatning og‘irlik darajasi kabi uchta ijtimoiy parametrning yig‘indisiga bog‘liqdir. Nazariyaning ahamiyati shundaki, u xushmuomalalikni ilk bor yaxlit tizim sifatida taqdim etdi va uni empirik tahlil uchun ishlanadigan vositaga aylantirdi.

Klassik modelning tanqidiy qayta ko‘rilishi. Braun va Levinson modeli keng tarqalishi bilan jiddiy ilmiy tanqidga ham uchradi. Tanqidning markaziy yo‘nalishi – nazariyaning g‘arbsentrik, individualistik madaniyatga moslab tuzilganligi masalasidir. Yapon tilshunosi ***S.Ide*** sharq madaniyatlarida xushmuomalalik ko‘p hollarda ratsional, individual tanlov emas, balki ijtimoiy mavqe tomonidan oldindan belgilab qo‘yilgan majburiy lisoniy xulq ekanligini ko‘rsatib, uni *“diskernment”* deb atadi [11, 223-b.]. Tadqiqotchi ***B.Freyzer*** xushmuomalalikni *“suhbat shartnomasi”* doirasida talqin qilishni taklif etdi [10, 220-b.]. Diskursiv yondashuv tarafdori ***R.Uotts*** xushmuomalalikni statik strategiyalar emas, balki muloqot jarayonida dinamik tarzda yaratiladigan hodisa sifatida talqin qildi va birinchi darajali hamda ikkinchi darajali xushmuomalalikni qat’iy farqlash zarurligini ta’kidladi [12, 19-b.]. ***J.Kalpepper*** esa xushmuomalasizlikni mustaqil kommunikativ strategiya sifatida o‘rganishni asosladi [13, 23-b.].

Tahlil va natijalar. Ko‘rib chiqilgan nazariy yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish ularning har biri xushmuomalalik hodisasining ma’lum bir qirrasini ochib berganini, biroq hech biri uni to‘liq qamrab ololmaganini ko‘rsatadi. Nutqiy aktlar nazariyasi xushmuomalalikning lisoniy birligini belgilab berdi, biroq uni alohida tahlil qilmadi. Grays modeli xushmuomalalikning kommunikativ mexanizmini izohladi, lekin uni mustaqil prinsip sifatida ajratmadi. Lakoff va Lich xushmuomalalikni mustaqil prinsip darajasiga ko‘tardi, biroq uni aniq lisoniy vositalar bilan yetarlicha bog‘lamadi. Braun va Levinson xushmuomalalikni aniq

strategiyalar tizimiga aylantirdi, ammo uni universal deb e’lon qilib, madaniy nisbiylikni e’tibordan chetda qoldirdi. Diskursiv yondashuv xushmuomalalikning dinamik tabiatini ochdi, biroq qat’iy tahlil vositasini bera olmadi.

Mazkur tahlildan kelib chiqadigan asosiy natija shundan iboratki, xushmuomalalik kategoriyasini chog‘ishtirib o‘rganish uchun birgina nazariyaga tayanish yetarli emas. Eng samarali metodologik yo‘l ushbu yondashuvlarni o‘zaro to‘ldiruvchi sifatida birlashtirgan kompleks nazariy-metodologik bazaga tayanishdir: leksik va grammatik vositalarni aniqlashda nutqiy aktlar nazariyasi, xushmuomalalik strategiyalari va sotsiopragmatik omillarni tahlil qilishda Braun–Levinson modeli, milliy-madaniy xoslikni ochishda esa diskursiv yondashuv hamda lingvomadaniyatshunoslik tamoyillaridan birgalikda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Xushmuomalalik nazariyasi o‘zining rivojlanish davomida bir necha bosqichni – nutqiy aktlardan kommunikativ prinsiplarga, prinsiplardan strategiyalarga, strategiyalardan diskursiv talqinga – bosib o‘tdi. Har bir bosqich oldingisining cheklovlarini bartaraf etishga urindi, ammo yangi nazariy savollarni yuzaga keltirdi. Bugungi kunda xushmuomalalik tadqiqotlarining markaziy muammosi – universallik va madaniy nisbiylik o‘rtasidagi muvozanatni topishdir. Ushbu muammo qardosh bo‘lmagan tillarni chog‘ishtirma o‘rganish orqali samarali hal etilishi mumkin, zero qiyosiy tahlil universal mexanizmlarni ham, madaniy o‘ziga xoslikni ham bir vaqtda yorita oladi. Klassik nazariy modellarni o‘zaro to‘ldiruvchi sifatida birlashtirgan kompleks metodologik baza esa xushmuomalalik kategoriyasini turli tizimli tillarda chog‘ishtirma tadqiq etishning ishonchli ilmiy zaminini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Austin J. L. How to do things with words. – Oxford: Oxford University Press, 1962. – 168 p.

2. Searle J. R. Speech acts: An essay in the philosophy of language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – 203 p.

3. Searle J. R. Expression and meaning: Studies in the theory of speech acts. – Cambridge: Cambridge University Press, 1979. – 187 p.

4. Grice H. P. Logic and conversation // Syntax and semantics. Vol. 3: Speech acts. – New York: Academic Press, 1975. – P. 41–58.

5. Lakoff R. The logic of politeness, or minding your p's and q's // Papers from the 9th Regional Meeting of the Chicago Linguistic Society. – Chicago, 1973. – P. 292–305.

6. Leech G. N. Principles of pragmatics. – London; New York: Longman, 1983. – 250 p.

7. Leech G. N. The pragmatics of politeness. – New York: Oxford University Press, 2014. – 343 p.

8. Brown P., Levinson S. C. Politeness: Some universals in language usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 345 p.

9. Goffman E. Interaction ritual: Essays on face-to-face behaviour. – New York: Anchor Books, 1967. – 270 p.

10. Fraser B. Perspectives on politeness // Journal of Pragmatics. – 1990. – Vol. 14. – P. 219–236.

11. Ide S. Formal forms and discernment: Two neglected aspects of universals of linguistic politeness // Multilingua. – 1989. – Vol. 8. – P. 223–248.

12. Watts R. J. Politeness. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – 304 p.

13. Culpeper J. Impoliteness: Using language to cause offence. – Cambridge: Cambridge University Press, 2011. – 292 p.

14. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 286 b.

LEKSIK-STILISTIK VA PRAGMALINGVISTIK AKTLARNING TARJIMALARDA UZATILISHI

Qodiriy Mahzuna,
Ingliz tili integrallashgan kursi № 3 fakulteti, ingliz tili katta o‘qituvchisi
O‘zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti
Toshkent, O‘zbekiston
Elektron pochta: mahzuna.qodiriy@gmail.com

UO‘K 95(31)

Annotatsiya

Ushbu maqolada badiiy va publitsistik matnlar tarjimasida leksik-stilistik vositalar va pragmalingvistik aktlarning bir tildan ikkinchi tilga uzatilishi muammolari tadqiq etiladi. Tadqiqotda so‘zlarning stilistik bo‘yoqdorligi (neytral, so‘zlashuv, kitobiy, arxaik va boshqa qatlamlar), ularning konnotativ ma’nolari, shuningdek, nutq aktlari nazariyasi — lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlar — nuqtai nazaridan tarjima jarayonidagi pragmatik moslik masalalari tahlil qilingan. Maqolada ekspletsiya, implikatsiya va kompensatsiya kabi pragmatik moslashtirish strategiyalari, shuningdek, murojaat shakllari, hurmat darajalari va diskurs markerlarining tarjimada saqlanishi yoki transformatsiyalanishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *Pragmalingvistika, leksik-stilistik vosita, nutq akti, illokutiv kuch, konnotatsiya, stilistik registr, pragmatik moslashtirish, murojaat shakllari, diskurs markeri.*

Аннотация

В данной статье исследуются проблемы передачи лексико-стилистических средств и прагмалингвистических актов с одного языка на другой при переводе художественных и публицистических текстов. В исследовании анализируются стилистическая окраска слов (нейтральный, разговорный, книжный, архаичный и другие пласты), их коннотативные значения, а также вопросы прагматического соответствия в процессе перевода с точки зрения теории речевых актов — локутивного, иллокутивного и перлокутивного. В статье научно обосновываются

стратегии прагматической адаптации, такие как экспликация, импликация и компенсация, а также сохранение или трансформация форм обращения, уровней вежливости и дискурсивных маркеров при переводе.

Ключевые слова: *Прагмалингвистика, лексико-стилистическое средство, речевой акт, иллокутивная сила, коннотация, стилистический регистр, прагматическая адаптация, формы обращения, дискурсивный маркер.*

Abstract

This article examines the problems of transferring lexical-stylistic devices and pragmalinguistic acts from one language into another in the translation of literary and publicistic texts. The study analyzes the stylistic coloring of words (neutral, colloquial, bookish, archaic and other layers), their connotative meanings, and issues of pragmatic correspondence in translation from the standpoint of speech act theory — locutionary, illocutionary, and perlocutionary acts. The article provides a scholarly justification of pragmatic adaptation strategies such as explicitation, implicitation and compensation, as well as the preservation or transformation of address forms, politeness levels, and discourse markers in translation.

Keywords: *Pragmalinguistics, lexical-stylistic device, speech act, illocutionary force, connotation, stylistic register, pragmatic adaptation, address forms, discourse marker.*

Til — nafaqat axborot uzatish vositasi, balki muloqot ishtirokchilarining maqsadini, his-kechinmalarini va ijtimoiy munosabatini ifodalovchi murakkab tizimdir. Matnning nimani ifodalashi qanchalik muhim bo‘lsa, uning qanday — qaysi uslubiy registrda, qaysi ohang va kommunikativ maqsad bilan aytilgani ham shunchalik muhimdir. Tarjima jarayonida tarjimon ko‘pincha faqat so‘zning lug‘aviy ma’nosini emas, balki uning stilistik bo‘yog‘ini va matn ortida turgan pragmatik niyatni — ya’ni nutq aktini — ham boshqa tilga ko‘chirishi zarur. Aks holda, tarjima matni grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lsa-da, original matnning ohangi, kayfiyati va kommunikativ kuchidan mahrum bo‘lib qolishi mumkin.

Leksik-stilistik vositalar tushunchasi va ularning lisoniy tabiati

Leksik-stilistik vositalar — bir xil denotativ (predmetiy) ma’noni ifodalovchi, ammo turlicha stilistik bo‘yoqqa ega bo‘lgan so‘z va iboralar majmuasidir. Masalan, o‘zbek tilida “yemoq”, “tamaddi qilmoq”, “to‘ymoq”, “qornini moylab olmoq” kabi birliklar bir xil harakatni — ovqatlanishni — ifodalasa-da, ularning uslubiy qiymati har xil: birinchisi neytral, ikkinchisi kitobiy-rasmiy yoki diniy ottenkali, uchinchisi so‘zlashuv, to‘rtinchisi esa yengil-istehzoli ohangga ega. Tarjimon bularning barchasini ingliz tiliga shunchaki “to eat” so‘zi bilan bersa, asl matndagi nozik uslubiy farqlar tekislanib ketadi. Aksincha, “to dine”, “to have a bite”, “to tuck in” kabi inglizcha sinonimlar orqali bu farqni qisman saqlash mumkin. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, leksik-stilistik vositaning qiymati uning lug‘atdagi “sof” ma’nosida emas, balki muayyan nutq vaziyatida bajaradigan vazifasida namoyon bo‘ladi.

Stilistik registrlar va ularning tarjimada transformatsiyasi

Har bir til o‘zining stilistik registrlar tizimiga ega: neytral, kitobiy-rasmiy, so‘zlashuv, dialektal, arxaik-tarixiy va jargon qatlamlari. Tarjima jarayonida manba va maqsad tildagi registrlar tizimi bir-biriga to‘liq mos kelmaydi, shu sababli registrlar orasidagi nomuvofiqlik tarjima sifatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Quyidagi jadvalda bir nechta misollar orqali bu masala ko‘rsatib o‘tilgan:

Asl nusxa (registr)	So‘zma-so‘z tarjima (Xato)	Stilistik ekvivalent (To‘g‘ri)
Bandasiga rahmi kelib, yordam berdi (arxaik-diniy)	He had mercy on his servant and helped	He took pity on the poor man and helped him
Bola jindek “ming” demadi (so‘zlashuv)	The child didn’t even say “ming”	The child didn’t make a sound / didn’t whimper
Janob, marhamat, o‘tirsinlar (rasmiy-hurmat)	Mister, please, they sit down	Please, do take a seat, sir
Mashina yonib ketay dedi (so‘zlashuv-kuchaytiruv)	The car almost burned	The car nearly went up in flames

Yuqoridagi misollardan ko‘rinadiki, so‘zma-so‘z tarjima nafaqat ma’noni qisman buzadi, balki ba’zan original matnda mavjud bo‘lmagan kulgili yoki

noaniq effekt yaratadi. Stilistik ekvivalent tanlashda tarjimon manba tildagi konkret leksemani emas, balki shu leksemaning matndagi uslubiy vazifasini maqsad tilning mos vositasi bilan qoplashi lozim.

Pragmalingvistik akt tushunchasi: nutq aktlari nazariyasi asoslari

XX asrning ikkinchi yarmida J. Austin, so‘ngra J. Searle tomonidan ishlab chiqilgan nutq aktlari nazariyasi tilshunoslikka “gapirish — bu, avvalo, harakat qilishdir” degan tamoyilni kiritdi. Bu nazariyaga ko‘ra, har qanday nutqiy birlik uch darajali aktni o‘z ichiga oladi: lokutiv akt — gapning o‘zini, ya’ni uning grammatik-leksik tarkibini aytish; illokutiv akt — shu gap orqali amalga oshirilayotgan kommunikativ maqsad (so‘rash, buyurish, va’da berish, kechirim so‘rash, ogohlantirish va h.k.); va perlokutiv akt — gapning tinglovchiga ko‘rsatadigan real ta’siri (ishontirish, xafa qilish, kuldirish, qo‘rqitish). Searle keyinchalik nutq aktlarini reprezentativlar (bayonotlar), direktivlar (buyruq-so‘rovlar), kommissivlar (va’dalar), ekspressivlar (his-tuyg‘u ifodalari) va deklarativlar (rasmiy e’lonlar) kabi turlarga ajratdi. Tarjima nazariyasi nuqtai nazaridan eng muhimi — aynan illokutiv kuchning saqlanishidir, chunki bu kuch matnning kommunikativ maqsadini, ya’ni nima uchun aytilganini belgilaydi.

Nutq aktlarining tarjimada pragmatik transformatsiyasi

Ko‘pincha bir tildagi nutq akti ikkinchi tilda butunlay boshqa grammatik shaklda ifodalanadi, biroq illokutiv kuch saqlanib qolishi shart. Masalan, o‘zbek tilida iltimos bildirish uchun ko‘pincha bevosita buyruq shakli ishlatiladi: “Eshikni yoping” — vaziyatga ko‘ra, bu qo‘pol buyruq emas, balki odatiy, betaraf so‘rov bo‘lishi mumkin. Ammo bu jumlani ingliz tiliga so‘zma-so‘z “Close the door” deb tarjima qilish ko‘pgina kontekstlarda haddan tashqari qo‘pol, hatto buyruqona tuyulishi mumkin, chunki ingliz tilidagi pragmatik me’yorlarda bunday so‘rovlar odatda bilvosita (indirect speech act) shaklda — “Could you close the door, please?” — ifodalanadi. Demak, tarjimon grammatik shaklni o‘zgartirib, lekin illokutiv maqsadni — iltimosni — saqlab qolishi lozim.

Buning teskarisi ham mumkin: ingliz tilidagi “Would you mind passing the salt?” kabi murakkab bilvosita so‘rovni o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z “Tuzni uzatishni xohlamaysizmi?” deb tarjima qilish g‘alati va sun’iy jumla hosil qiladi; bunday holatda “Tuzni uzatib yuborarmisiz?” yoki “Marhamat, tuzni uzating” kabi tabiiy so‘rov shakllari ancha muvofiqdir. Bu misollar shuni ko‘rsatadi: pragmatik ekvivalentlik ko‘pincha grammatik ekvivalentlikka zid keladi, va tarjimon ikkisidan birini tanlashga majbur bo‘lganda, odatda pragmatik moslik ustunlik qilishi kerak.

Murojaat shakllari va hurmat darajalarining tarjimada uzatilishi

O‘zbek tilida ijtimoiy munosabatlarni ifodalashda murojaat shakllari va olmoshlar — “siz” va “sen” — muhim pragmatik ahamiyatga ega. “Siz” olmoshi nafaqat ko‘plikni, balki hurmat, ijtimoiy masofa yoki rasmiyatchilikni ham bildiradi; “sen” esa yaqinlik, samimiylik yoki, kontekstga qarab, kamsitish ottenkasini ifodalashi mumkin. Ingliz tilida bu farq grammatik darajada umuman mavjud emas — ikkalasi ham “you” bilan beriladi. Natijada, agar asl matnda muallif ikki qahramon orasidagi munosabatni “siz”dan “sen”ga (yoki aksincha) o‘tish orqali nozik tarzda o‘zgartirsa, bu muhim pragmatik signal tarjimada izsiz yo‘qolib ketishi mumkin. Bunday hollarda tarjimon kompensatsiya usulidan foydalanishi mumkin: masalan, ismning to‘liq yoki erkalash shaklini qo‘llash (“Ali” o‘rniga “Alijon” yoki shunchaki “Ali”), murojaat so‘zlarini qo‘shish yoki tushirish (“sir”, “madam”, “dear”, “mate”), yoxud gap tuzilishini o‘zgartirish orqali munosabatdagi siljishni boshqa darajada ko‘rsatish mumkin.

Shuningdek, o‘zbek tilidagi qarindoshlik munosabatlariga asoslangan murojaat shakllari — “aka”, “opa”, “tog‘a”, “amaki”, “buvi”, “xola” — nafaqat oilaviy aloqani, balki yosh farqi, hurmat va ijtimoiy mavqega oid qo‘shimcha pragmatik axborotni ham yetkazadi. Bunday so‘zlarni ingliz tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri “brother”, “sister”, “uncle”, “aunt” deb tarjima qilish ko‘pincha noto‘g‘ri tasavvur uyg‘otadi, chunki maqsad tildagi o‘quvchi buni haqiqiy qon-qarindoshlik munosabati deb tushunishi mumkin. Zamonaviy tarjimashunoslikda bunday hollarda so‘zni transliteratsiya qilib, kursiv bilan ajratib qoldirish va zarur bo‘lsa izoh berish, yoki kontekstga mos holda so‘zni shaxsning ismi yoxud kasbiy-ijtimoiy unvoni bilan almashtirish tavsiya etiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, badiiy va publitsistik matnlar tarjimasida muvaffaqiyat faqat leksik-grammatik to‘g‘rilik bilan o‘lchanmaydi. Tadqiqot davomida ko‘rib chiqilgan masalalar shuni ko‘rsatadiki, sifatli tarjimaning garovi quyidagi uch jihatga bog‘liq:

- **Stilistik sezgirlik:** har bir so‘z va iboraning nafaqat denotativ ma’nosini, balki uning registr va konnotativ qiymatini aniqlash hamda maqsad tilda mos funksional ekvivalent topish;

- **Pragmatik xulosa chiqarish qobiliyati:** matn ortida turgan illokutiv maqsadni — nima uchun aynan shu so‘z, shu shaklda, shu o‘rinda ishlatilganini — anglash va uni saqlab qolish;

- **Madaniy-kommunikativ kompetensiya:** murojaat shakllari, hurmat darajalari va diskurs markerlari kabi madaniyatga xos pragmatik vositalarni ekspletsiya, implikatsiya yoki kompensatsiya orqali maqsad til o‘quvchisiga moslashtirish.

Yakun sifatida ta’kidlash joizki, leksik-stilistik vositalar matnga “rang” baxsh etsa, pragmalingvistik aktlar unga “maqsad” va “kuch” baxsh etadi. Tarjimon vazifasi — ushbu ikki qatlamni bir vaqtning o‘zida boshqa til tizimiga va boshqa madaniy-kommunikativ muhitga olib o‘tishdir. Faqat shu holatda tarjima matni original bilan teng huquqli, to‘laqonli muloqot hodisasi sifatida yashay oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Austin, J. L. (1962). How to Do Things with Words. Oxford: Clarendon Press.

2. Searle, J. R. (1969). Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge: Cambridge University Press.

3. Leech, G. N. (1983). Principles of Pragmatics. London: Longman.

4. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: Cambridge University Press.

5. Safarov, Sh. (2008). Pragmalingvistika. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.

6. Salomov, G‘. (1983). Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent: O‘qituvchi.

7. Komissarov, V. N. (1990). Teoriya perevoda (Lingvisticheskie aspekti). Moskva: Vysshaya shkola.

ERGONIMLARNING NAZARIY TADQIQI XUSUSIDA

Matkarimova Farog‘at Rustam qizi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

UO‘K 95(31)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ergonimlarning nazariy tadqiqi masalalari yoritilgan. Unda ergonim tushunchasining onomastik tizimdagi o‘rni, uning lingvistik mohiyati, tasniflanish tamoyillari hamda nominativ xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ergonimlarning shakllanishiga ta’sir etuvchi lisoniy va ekstralingvistik omillar, ularning ijtimoiy-madaniy muhit bilan bog‘liqligi hamda kommunikativ-pragmatik vazifalari ko‘rib chiqiladi. Turli olimlarning ergonimlar haqidagi ilmiy qarashlari umumlashtirilib, ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlari aniqlanadi.*

Kalit so‘zlar: *ergonim, onomastika, nomlash, nominatsiya, onomastik birlik, pragmatika, lingvomadaniyat, nominativ funksiyalar, kommunikativ xususiyatlar.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы теоретического исследования эргонимов. Анализируются место понятия эргонима в ономастической системе, его лингвистическая сущность, принципы классификации и номинативные особенности. Кроме того, исследуются лингвистические и экстралингвистические факторы, влияющие на формирование эргонимов, их связь с социокультурной средой, а также их коммуникативно-прагматические функции. Обобщаются научные взгляды различных исследователей на эргонимы и определяются основные направления исследований в данной области.*

Ключевые слова: *эргоним, ономастика, именование, номинация, ономастическая единица,*

прагматика, лингвокультура, номинативные функции, коммуникативные характеристики.

Abstract. *This article examines the issues related to the theoretical study of ergonyms. It analyzes the place of the concept of ergonym within the onomastic system, its linguistic nature, classification principles, and nominative characteristics. The study also explores the linguistic and extralinguistic factors influencing the formation of ergonyms, their relationship with the socio-cultural environment, and their communicative-pragmatic functions. Furthermore, the scholarly views of various researchers on ergonyms are summarized, and the main directions of research in this field are identified.*

Keywords: *ergonym, onomastics, naming, nomination, onomastic unit, pragmatics, linguoculture, nominative functions, communicative characteristics.*

Kirish. Insoniyat taraqiiy etib borgani sari unga ko‘rsatiladigan xizmatlar miqyosi va darajasi ham oshib boradi. Bunday jarayon turli tashkilot, muassasa kabi qator xizmat ko‘rsatuvchi, ishlab chiqarishga asoslangan uysuhma, tashkilotlarning hosil bo‘lishiga olib keladi, bunday o‘zgarishlar , albatta, tilda aks etmay qolmaydi, bunday tushunchalarni atashga ham ehtiyoj tug‘ila boshlaydi. Mana shunday birliklar onomastika sohasi tizimida ergonimlar nomi bilan yuritiladi.

Adabiyotlar tahlili. Hozirgi kunda dunyo taraqqiy etib borgani sayin shunga mos ravishgda uning talablari ham oshib boradi, shundan kelib chiqib, insoniyatga xiamat qiluvchi turli muassasa, tashkilot, korxona va shu kabilarni o’rganish dolzarbligini hisobga olgan holda N.Podolskaya, D.Ganich, I. Oliynik, S.Koporskiy, M.Morozova, O.Beley, S.Shestakova, R.Kozlov, D.Yalovets-Konovalova, N.Shimkevich, A.Kobalevskiy, E.N.Sidorenko, I.G.Dolgachev, B.I.Matorin, B.Bukchinava, G.Zolotova, S.Koporskiy, M.Morozova, L.Shchetina kabi bir qator olimlar bu borada amalga oshirilayotgan ishlarning amaliy samarasi hisoblangan ergonimlarning tadqiq qilish bilan aloqador ishlarni amalga oshirishgan va bu jarayoni dunyo va mamalakatimiz miqyosida davom etmoqda. Mazkur manbalarni o’rganish va ularning yutuqlarini o’zbek tilshunosligiga tatbiq etish muhim masalalardan biri sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida statistik, tavsiflash, komponent tahlil, tasniflash, qiyosiy-tarixiy tahlil kabi tadqiqot uslullaridan foydalanildi, unga binoan olib borilgan ishlarning mazmuni, hamiyati, uning tilshunoslik taraqqiyotidagi o'rni masalalari ham ochiqlanganligi kuzatiladi.

Tahlil va natijalar. Tahlil jarayonida ergonimlarning o'rganilishi, tadqiq etishning ahamiyati, ijtimoiy hayotga ta'siri kabi bir qator masalalar bo'yicha olib borilgan ishlar tavsifiga keng o'rin ajratilgan. Ergonim terminini birinchi bo'lib N.Podolskaya tatbiq etgan bo'lib, yunon tiliga mansub mazkur birlik "ish, mehnat, faoliyat" va "ism, nom" kabi birliklardan tashkil topgan. Olima ergonimlarni slavyan tillari misolida birlashma, tashkilot, muassasa, to'garaklar nomi tarzida tasniflaydi. D.Ganich hamda I. Oliyniklar "Lingvistik terminlar lug'ati" kitobida ergonimlar ta'rifini keltirishda xuddi shu ma'lumotlarga asoslanishgan.

Onomastik birliklarning o'rganilishi ancha ilgari paydo bo'lgan bo'lsa-da, ergonimlar tadqiqga doir ishlar XX asr boshlarida paydo bo'la boshladi. O'tgan asarning elliginchi, oltmishinchi yillariga kelib mazkur ajarayon avj oldi. S.Koporskiy kinoteatrlarning nomlanishini tadiq qilgan bo'lsa, M.Morozova savdo, madaniyat va maishiy xizmat ko'rsatish obyektlarining nomalnsih xususiyatlarini ilmiy asoslab berdi. O'tgan asrning 70-yillarida V.Tkachuk onomastik birliklarning umumiy xususiyatlarini tadqiq qilish bilan bog'liq dissertatsiyasida ergonimlar masalasiga ham murojaat qilgan edi.

Sohaning taraqqiy etib borishi natijasida firmonim, ergourbonim, brend-ergonim, emporonim, koponim, ideonim, logoonim , pragmatonim kabi ergonimlarning turli xususiyatlari asosida nomlanuvchi atamalar yuzaga keldi. O.Beley ergonimlarni tizimlashtirish zarurligini ta'kidlaganga, N.Podolskaya birlikning semantik va shakliy jihatlarini o'rgandi va natijada jiddiy amaliy qadam tashlandi. Faqatgina reklama uchun xizmat qiluvchi, ma'lum semantik yukka ega bo'lmagan ergonimlarni N.Shimkevish "bo'sh ergonimlar" deb nomladi. O.Beley esa ergonimlar doirasida "firmonim" istilohini kiritdi, S.Shestakova, R.Kozlov, D.Yalovets-Konovalova, N.Shimkevich, A.Kobalevskiy, E.N.Sidorenko, I.G.Dolgachev, B.I.Matorinlar ergonimlar hosil qilinishining leksik-semantik xususiyatlari, vazifalari, ichki bo'linishlari, yuzaga kelish shartlari to'g'risida muhim qarashlarni ilgari surishgan. Ergonimlar, avvalo, insonga hissiy ta'sir eta olish xususiyatini o'zida aks ettira olishi kerak, birlikning ayni shu jihatlariga

B.Bukchinava, G.Zolotova, S.Koporskiy, M.Morozova, L.Shchetina e’tibor qaratishdi va uning mintaqa nuqtayi nazardan qanday xoslanishlar asosida paydo bo’lishini tasniflash borasida ishlar olib borishdi.

E.Otin ergonimik birliklarning alohida fan sifatida o‘rganilishini tavsiya qilgani yuqorida qayd etilgan, mazkur jarayondan so’ng A.Bespalova, L.Dubrovina, E.Mikina kabi olimlarning ishlarida nafaqat rus, balki boshqa xorijiy tillarga mansub ergonimlar ham keng tadqiq qilina boshlandi. Ergonimlarning hosil qilinish xarakteriga e’tibor berilsa, hududiy nuqtayi nazardan jiddiy farqlanish mavjudligi kuzatiladi, shuni inobatga olib, ayni shu jihatning sabablari, uning tarixiy hamda zamonaviy shartlari borasida Prokurovskaya, I.Astafyeva, V.Korshunkov, T.Nikolayeva, D.Yalovets-Konovalova, E.Yakovleva, N.Yanko-Trinitskaya, R.Kozlov kabi olimlarning tadqiqotlarida Rossiyadagi hududiy bo’linish nuqtayi nazaridan ergonimlarning hosil qilinishi, ularning semantikasi, ma’lum bir tillarga mansubligi, shakllanish mexanizmiga diqqat qilishganligini ko’rish mumkin.

Ergonimlar tadqiqini e’tiborning oshib borishi natijasida ularning tarkibiy tuzilishi, pragmatik jihatlariga e’tibor berish darajasi ham oshdi, natijada jarayonning amaliy ahamiyatini ochib beruvchi M.Kryuchkova, N.Shimkevich, M.Novichixina, I.Kryukova, E.Trifonova ilmiy ishlar dunyoga keldi. kabi olimlar e’tibor qaratishgan. Ergonimlarning ijtimoiy hayotdagi o’rni, uning mavqeyi, ahamiyati, so’z, so’z birikmasi, gapga munosabati, uning struktur tarkibi, o’zida axborotni jamlash olish darajasi, derivatsiyasi masalalari ham kun tartibiga chia boshladi. Natijada mazkur masalalarga bag’ishlangan M.Gribanova, A.Yemelyanova, N.Nosenko, G.Aliyeva, F.Alistanova, L.Ayupova, v.Nikonov,V.Bandaletov, Y.Karpenko, I.Kozlov kabi tadqiqotchilarning bu boradagi salmoqli ilmiy ishlari amalga oshirildi. Keltirilgan ishlarningf mazmun-mohiyatidan ayon bo’ladiki, hudsudiy nuqtayi nazardan ergonimlarning hosil qilinishi va qo’llanilishida asosli va jiddiy farqlar ko’zga tashlanadi. Bunda mintaqaviy jihatdan tashqari ma’lum bir davlat, viloyat, tuman hududlarida ham tafovutlar ko’zga tashlanadi.

Hududiy tafovut, avvalo, marketologiya sohasiga ta’sir etadi, ergonimlarning shu qirralarini ochib berishga qaratilgan ishlarni I.Golman, Novichixina, V.Korshunkov, V.Perepelitsa kabi olimlar amalga oshirishdi, nomlanishning amaliy ahamiyatini atroflicha yoritib berishga qaratilgan ishlar sirasiga kiradi. Ergonim nafaqat so’z, so’z birikmasi, gaplar bilan ham munosabatga kirishishini inobatga olib, mazkur birlikning til xususiyatlarini

tadqiq etishga qaratilgan V.Kolesov, E.Kurilovich, A.Larin, S.Mezenin, A.Superanskaya, A.Ufimsev, A.Shmelyev tadqiqotlar olib borildi, ergonimlarning turli darajadagi til xususiyatlari tahlilga tortildi.

Hududiy nuqtayi nazardan ergonimlar nomlanishi, ularning funksional jihatlari, hudud hayotiga ta'siri, xalq tiliga munosabati kabi masalalari N.Nosenko, A.Yemelyanova, T.Sherbakova, A.Galsova, R.Amirov, A.Trapeznikova, Y.Vayrax, Z.Tanayeva, N.Mixaylyukova, E.Butakova, K.Ovsannikova ishlarida aks etgan.

M.Kurbanova ergonimlarning semantik va paradigmatik xususiyatlariga bag'ishlangan filologiya fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasida onomastik birliklarning hosil bo'lish usullari, ularning hosil qilinishida sodir bo'ladigan semantik o'zgarishlar, ergonimlarning boshqa onomastik birliklar bilan aloqasi, shakl va ma'no nuqtayi nazardan ifodalanishidagi belgilar, vazifalari kabi bir qator jihatlar ochib berilgan bo'lsa, E. Sidorenko esa ergonimlarning o'rganilish tarixi, qaysi kriteriylarga asoslanib tadqiq qilinganligini o'z ilmiy ishlarida yotib bergan. F.Alistanovaning dissertatsiyasida zamonaviy rus tilidagi ergonimlarni mikrotizim sifatida tadqiq qilgan.

V.Krijanovskaya ishida ergonimlarning grafik elementlar transformatsiyasi, ularning semantik-struktur va pragmatik aspekti o'rganilgan.

A.Yemelyanova ergonimlarning shahar polietnik landshaftidagi lingvistik ahamiyatini keng yoritishga harakat qilgan. Olima o'z ishida har bir hududning ergonimik birliklarini o'rganish onomastik tizimni yanada chuqurroq idrok etishimizga, shu sohaning rivojlanishiga ulkan hissa bo'lib qo'shilishini alohida ta'kidlaydi. Ufa shahri misolida tadqiq qilgan. Tadqiqot davomida Yevropaning boshqa davlatlarida ham ergonimlarning o'rganilishi, ularning o'ziga xos tendensiyalarini belgilash uchuntalay ishlarning amalga oshirilganligiga guvoh bo'lindi. Xususan, italiyalik olima Paola Cotticelli Veronadagi ergonimlarni tahlil qilishga e'tiborni qaratar ekan, avvalo, ularning paydo bo'lishi, shakliy belgilar hosil qilishi uchun yozuvning ahamiyati beqiyos ekanligini ta'kidlaydi, shu asosdan kelib chiqib, dastlab Mesopotamiyada paydo bo'lgan yozuvlar, ularning faqatgina ma'lumot ifodalash xususiyati emas, balki boshqa belgilari ham dastlabki yaratilish davrida qaysidir tabiiy shakllardan kelib chiqqanligini keltiradi.

Finlyandiyalik olima Paula Sjoblom ingliz tilida qo‘llaniladigan kommersiya nomlarining tematikasi, strukturasi, semantik tabiati, integratsiyasi kabi jihatlarni tadqiq qilgan.

Z.Buzinova Ukrainadagi rus tiliga oid ergonimlarga bag‘ishlangan maqolasida Ukraina shaharlaridagi ergonimlar mavzusi, qo‘yilish sabablari, ularning semantik strukturasini tahlilga tortadi.

B.N.Yelsin nomidagi Ural federal universitetida Xitoy ergonimlarini lingvokulturologik aspektda o‘rgangan Cjon Bo o‘z ishida Xitoydagi muassasa, tashkilot, korxona, turli maishiy xizmat ko‘rsatuvchi obyektlardan tashqari hali nomlanishi bo‘sh bo‘lgan, atalishga muhtoj bo‘lgan birliklarni ham tadqiq qilgan. Pekin, Shanxay, Xarbin shaharlaridagi umumiy ovqatlanish muassasalarining nomlanishi...

E.A.Agashkina zamonaviy xitoy tilidagi ergonimlarning so‘z hosil qilish jarayoniga munosabatini tahlil qiladi, uning maqolasida Pekinning markaziy ishbilarmonlar tumanidagi kompaniyalarga nom berilishida turlicha so‘z hosil qilish usullaridan foydalanilganligi dalillar asosida ko‘rsatib beriladi.

Natalya Vasilyeva Yaponiyada ergonimlarning nomlanish usul va modellarini tadqiq qilgan. Mazkur ishda Yaponiya ergonimlarining ilmiy-nazariy o‘rganilishi...

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi tarkibiga kiruvchi mamlakatlardan Qozog‘iston Respublikasida ergonimlar mavzusini tadqiq qilgan olima M.Tusulbekovaning ishlari alohida diqqatga sazovor. Endigina mustaqillikka erishgan yurtda turli o‘zgarishlar bo‘lishi tabiiy jarayondir. M.Tusulbekovaning ishida xorij ergonimlarining qo‘llanilishi, ularning yasalishi, tarkibi, semantik belgilari, milliy madaniy qadriyatlarga munosabati atroflicha yoritib berilgan.

Dunyo, jumladan, rus tilshunosligida bu sohada juda katta hajmdagi, ilmiy asoslangan ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ammo o‘zbek tilshunosligida bu sohaning o‘rganilganlik darajasi ancha past.

Y.Avlaqulovning 2012-yilda “O‘zbek tili onomastik birliklarining lingvistik tadqiqi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida ergonimlar ilk marotaba o‘zbek tilshunosligida onomastik birlik sifatida qayd etiladi.

Tadqiqotda atoqli ot deb yuritiluvchi onomastik birlik javob berishi lozim bo‘lgan lisoniy va nolisoniy talablar, mezonlarning aniqlab berilgani ergonimiya sohasi tadqiqida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtayi nazardan o‘zbek tilshunosligida ergonimlarni alohida soha sifatida ilk bora tadqiq etgan olima M.Saparniyazovaning ilmiy izlanishlari

alohida ahamiyatga ega. Olima o‘z dissertatsiyasida Toshkent shahri ergonimlari misolida o‘zbek onomastikasi tizimida ergonimlarni tasniflaydi hamda oykomodonimlar, geortonimlar,emporonimlar, gemeronimlar, pragmatonimlar, poreyonimlar, firma nomlari, restoran nomlari, reklama nomlari kabi guruhlardan iborat alohida ergonimik mikrotizimni asoslab beradi.Shu bilan birga,marketologiyadagi neyming va lingvistikadagi ergonimika sohalari o‘rtasidagi aloqadorlik belgilarini chuqur tadqiq etgan holda bu ikki tushunchaning o‘zaro bog‘liq va farqli jihatlarini ochib beradi.

Xususan, urbanizatsiya tufayli ergonimlar qamrov doirasining kengayib borayotganligi, savdo, ishlab-chiqarish obyektlari, korxona va tashkilotlarning nomi u joylashgan hudud nomi bilan atalishi natijasida ergonimlarning toponimlar bilan aloqadorligi ortayotganligi misollar yordamida ochib beriladi. Toshkent shahri onomastik maydonida qo‘llanayotgan turli sohaga mansub tashkilot nomlarini tadqiqotchi insonlarning mehnat faoliyatiga ko‘ra uyushmalari, tijorat bilan bog‘liq tashkilotlarning atoqli nomlari, madaniy obyektlarga atab qo‘yilgan nomlar, sportga oid tashkilot nomlari kabi turlarga ajratib chiqadi. U mazkur ishida “madaniy nom” tushunchasi ostida ergonimlarda “aniqlik”, “to‘g‘rilik”, “mantiqiylik”, “soflik”, “ta’sirchanlik”, “jo‘yalilik” kabi sifatlar bo‘lishini ishlab chiqqanligi, birinchidan, bu o‘zbek ergonimikasining taraqqiyoti uchun xizmat qilsa, ikkinchidan, shu kecha-kunduzda ushbu sohadagi kamchilikni to‘ldirishi bilan ham katta ahamiyatga molik, olima ergonimlarni hosil qilishning lingvistik talablarini belgilab beradi, ergonim hosil qilishda nafaqat fonetik, semantik; balki leksik-semantik, so‘z yasalishi, orfografik, grammatik, stilistik aspektlarning ahamiyati ham kattaligi to’g’risida o’z qarashlarini ilgari suradi.

M.Saparniyazova ta’kidlaganidek: “Neyming murakkab ijodiy lingvistik jarayon sifatida uni yaratuvchidan til me’yorlarini mukammal bilish, uning ta’sir kuchiga to‘g‘ri baho bera olish, nom yaratishda til birliklaridan o‘rinli va maqsadga muvofiq tarzda foydalanish mahoratiga ega bo‘lish, nom orqali samarali kommunikativ muloqotni yarata olish qobiliyatini talab etadi. Har qanday ishlab chiqarish obyekti yoki mahsulot, uning brendi nomini yaratishda jamiyat a’zolarining dunyoni qay tarzda anglashi, milliy-madaniy qarashlari, mentaliteti, voqelikka baho munosabati kabilarni e’tiborga olish muhim o‘rin tutadi.

Olim Jahongir Siddikov “Ergonimlarning lingvistik tadqiqi (o‘zbek va ingliz tillari materiallari asosida)” dissertatsiyasida Andijon viloyatidagi mavjud ergonimlar shakllanishida ingliz tiliga xos so‘zlarning o‘rni xususida to‘xtalib, ergonimlarning mavzuviy tasnifida ular tarkibidagi inglizcha va boshqa tillarga oid elementlarning o‘rinsiz qo‘llanganini ochib beradi. Ergonimlarni qo‘llashdagi xatoliklarni ko‘rsatish asnosida ularni to‘g‘rilash yuzasidan asoslangan ilmiy taklif va tavsiyalar bildiradi. Tadqiqot o‘zbek tili ergonimlarining leksik-semantik, funksional-uslubiy, pragmatik xususiyatlari aniqlangani, korxona, muassasa, tashkilotlarga nom qo‘yishning nazariy asoslariga doir yangi ilmiy qarashlarning bayon etilgani, Andijon viloyati ergonimlarining lingvistik jihatdan o’rganilganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Bunday ishlar sirasiga A.S.Rustamovning “O‘zbek tili ergonimlari mikrotizimi: leksik-semantik va yasalish xususiyatlari(Buxoro viloyati ergonimlari misolida)” nomli filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi alohida e’tirofga sazovor. Mazkur dissertatsiyada ergonimlarning nazariy tadqiqi va ularning zamonaviy shahar onomastikasidagi o‘rni, o‘rganilishi, funksiyasi, nomlash usullari, turlari, yondosh onomastik birliklar bilan munosabati, leksik, leksikografik xususiyatlari, leksik tasnifi, norasmiy motivli ergonimlarning o‘ziga xosligi, Buxoro ergonimlarining leksikografik muammolari, leksik-semantik xususiyatlari, ko’chimlarga munosabati, transonimizatsiyasi, ularning hosil qilinish(morfemik hosila, affiksatsiya, kompozitsiya, leksik-sintaktik usul, qisqartmalar, o‘yinlar, shakliy o‘yinlar va tasviriy o‘yinlar orqali), Buxoro ergonimlari hosil bo‘lishidagi asosiy muammolar, olinma ergonimlar, Omadsiz ergonimlardan foydalanish kabi dolzarb masalalar yoritib berilgan.

Xulosa. Umuman olganda, hozirgi kunda mamalakatimizning jahon hamjamiyatidagi o’rni tobora mustahkamlanib bormoqda, bu jarayon yurtimizga sayyohlar oqimining ko’payishiga olib keladi, xususan, Xiva, Buxoro, Samarqand kabi tarixiy shaharlarimizda mavjud bo’lgan ergonimlarni tadqiq qilish, ularning millliy-madaniy qadriyatlarimizga qay darajada muvofiq kelishi, inson tafakkurida qanday ta’sir etishini o’rganib, shu asosda nomlanishlarni amalga oshirish har qachongidan ham dolzarb masala hisoblanadi.

Foydalanilgan dabiyotlar ro’yxati:

1.Алистанова Ф.Ф. Эргонимы современного русского языка как микросистема: Автореф. дис. на соиск. учен. степ. канд. филол. наук (10.02.01) / Фарида Фажрудиновна Алистанова.–Махачкала, 2011. – 24 с

2.Амирова Р.М. Татарская эргономия города Казани: Автореф. дис....канд. фил. наук / Р.М. Амирова. – Казань, 2011. – 24 с.

3.Авлакулов Я.И. Ўзбек тили ономастик бирликларининглингвистик тадқиқи:Филол. фан. номз. ... дисс. автореф.. –Тошкент,2012.– 48 б.

4.Saparniyazova M. O‘zbek tili ergonimlarining struktur-semantik, lingvomadaniy va pragmatik tadqiqi: Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. –Toshkent, 2023.– 47 b.

5.Siddikov J.N. Ergonimlarning lingvistik tadqiqi (o‘zbek va ingliz tillari materiallari asosida): Fil. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ...diss. avtoref. – Andijon, 2024. –54 b.

6.Rustamov A.S. O‘zbek tili ergonimlari mikrotizimi: leksik-semantik va yasalish xususiyatlari(Buxoro viloyati ergonimlari misolida): Fil. fan. bo‘yicha falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi. – Buxoro, 2025. – 136 b.

ANTONOMAZIYALARNI TARJIMA QILISHDA KONNOTATSIYANI SAQLASH MUAMMOLARI

Matkarimova Ozoda Rustamovna,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
e-mail: m0937010o@gmail.com

UO‘K 95(31)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada antonomaziya - xos nom o‘rniga umumiy so‘zni yoki umumiy so‘z o‘rniga xos nomni qo‘llashga asoslangan stilistik vositaning bir tildan boshqa tilga tarjima qilinishi jarayonida uning konnotativ ma’nolarini saqlash muammolari tadqiq etiladi. Tadqiqot ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi badiiy hamda publitsistik matnlardan olingan antonomaziya namunalari misolida qiyosiy-chog‘ishtirma tahlil metodi asosida olib borilgan. Maqolada antonomaziyaning semantik, pragmatik va lingvomadaniy jihatlari yoritilib, tarjima jarayonida konnotatsiyani qayta yaratishning transliteratsiya, adaptatsiya, parafraza, funksional ekvivalentlik va kompensatsiya kabi usullari ko‘rib chiqiladi. Tahlil natijasida xos nomlarga yuklangan emotsional-ekspressiv, baholovchi va madaniy konnotatsiyani o‘zbek tiliga o‘girishda transformatsiya hamda kompensatsiya usullarining samaradorligi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *antonomaziya, konnotatsiya, badiiy tarjima, ekvivalentlik, semantika, pragmatika, stilistika, lingvomadaniyat, transformatsiya, kompensatsiya.*

Аннотация: *В статье рассматриваются проблемы сохранения коннотативных значений антономазии - стилистического приёма, основанного на замене имени собственного нарицательным словом или наоборот, - в процессе перевода с одного языка на другой. Исследование проведено на основе сопоставительного анализа примеров антономазии из художественных и публицистических текстов на английском, русском и узбекском языках. В статье освещаются семантические, прагматические и лингвокультурные аспекты антономазии, а также рассматриваются способы воссоздания*

коннотации при переводе: транслитерация, адаптация, перифраз, функциональная эквивалентность и компенсация. В результате анализа обосновывается эффективность приёмов трансформации и компенсации при передаче на узбекский язык эмоционально-экспрессивной, оценочной и культурной коннотации, заложенной в именах собственных.

Ключевые слова: *антономазия, коннотация, художественный перевод, эквивалентность, семантика, прагматика, стилистика, лингвокультура, трансформация, компенсация.*

Annotation: *This article examines the problems of preserving the connotative meanings of antonomasia -a stylistic device based on substituting a common word for a proper name or vice versa — in the process of translating from one language into another. The study is carried out through a comparative analysis of examples of antonomasia drawn from literary and journalistic texts in English, Russian and Uzbek. The article highlights the semantic, pragmatic and linguocultural aspects of antonomasia and considers the ways of recreating connotation in translation: transliteration, adaptation, paraphrase, functional equivalence and compensation. As a result of the analysis, the effectiveness of transformation and compensation techniques in conveying the emotional-expressive, evaluative and cultural connotation embedded in proper names into the Uzbek language is substantiated.*

Keywords: *antonomasia, connotation, literary translation, equivalence, semantics, pragmatics, stylistics, linguoculture, transformation, compensation.*

Kirish

Tarjima -bir tildagi matnni boshqa tilga mexanik tarzda o‘girish emas, balki ikki til, ikki tafakkur tarzi va ikki madaniyat o‘rtasidagi murakkab muloqot jarayonidir. Bu jarayonda asliyatning faqat mantiqiy-axborot mazmunini emas, balki uning estetik qiymati, hissiy ta’sirchanligi va madaniy ramziyligini ham maqsad tilida qayta tiklash talab etiladi. Aynan shu o‘rinda stilistik vositalar - metafora, metonimiya, alliteratsiya va, jumladan, antonomaziya - tarjimon oldida murakkab vazifalarni ko‘ndalang qo‘yadi. Chunki bunday vositalar ko‘pincha so‘zning to‘g‘ridan to‘g‘ri, lug‘aviy ma’nosida emas, balki uning ortida yashiringan qo‘shimcha - konnotativ ma’nolar zaminida ish ko‘radi.

Antonomaziya (yun. anti - “o‘rniga” va onoma -“nom”) - xos atoqli nom o‘rniga umumlashgan tavsifiy ifoda yoki, aksincha, umumiy tushuncha o‘rniga mashhur atoqli nom qo‘llanishiga asoslangan ko‘chim turidir. Mazkur vosita orqali atoqli nom o‘zining yakka shaxsni atash vazifasidan chiqib, butun bir

sifatlar majmuasini, ijtimoiy-madaniy timsolni ifodalaydigan umumiy belgiga aylanadi. Masalan, ingliz tilidagi “He is a real Romeo” (U haqiqiy Romeo) iborasida Romeo atoqli nomi muayyan adabiy qahramonni emas, balki “oshiq-mahliyo yigit” degan umumlashgan ma’noni anglatadi. Aynan shu umumlashtirish jarayonida nomga ulkan emotsional, baholovchi va madaniy konnotatsiya yuklanadi.

O‘zbek tilshunosligi va tarjimashunosligida antonomaziya hodisasi nisbatan kam o‘rganilgan sohalardan biri bo‘lib qolmoqda. Mavjud tadqiqotlarda asosan metafora va metonimiya tarjimasiga e’tibor qaratilgan bo‘lsa-da, atoqli nomlarning konnotativ salohiyati va ularning tarjimada saqlanishi masalasi yetarlicha yoritilmagan. Mazkur maqolaning dolzarbligi ana shu nazariy bo‘shliqni to‘ldirish hamda antonomaziyalarni o‘zbek tiliga o‘girishda konnotatsiyani saqlashning amaliy yo‘llarini aniqlash zaruriyati bilan belgilanadi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi.

Antonomaziya stilistik figura sifatida antik davr ritorikasidayoq qayd etilgan bo‘lib, Kvintilian uni nom almashtirishga asoslangan ko‘chim turlari qatorida tavsiflagan. Zamonaviy stilistikada I. R. Galperin antonomaziyani metonimiyaning xususiy ko‘rinishi sifatida talqin qilib, uni atoqli va umumiy nomlar o‘rtasidagi o‘zaro o‘tish hodisasi deb baholaydi. Konnotatsiya nazariyasi yuzasidan esa V. N. Telia, Y. D. Apresyan hamda G‘arb tilshunosligida J. Lyons va L. Bloomfield ishlari muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu tadqiqotchilar so‘zning denotativ (predmet-mantiqiy) ma’nosi yonida emotsional, ekspressiv, baholovchi va stilistik komponentlardan iborat konnotativ qatlam mavjudligini asoslab berganlar.

Tarjimashunoslikda atoqli nomlar va realiyalarni o‘girish muammosi V. S. Vinogradov, S. Vlaxov va S. Florin tadqiqotlarida atroflicha yoritilgan. Ular madaniyatga xos birliklarni tarjima qilishda transkripsiya, kalka, tavsifiy tarjima va funksional almashtirish usullarini taklif etganlar. Ekvivalentlik nazariyasi nuqtayi nazaridan Y. Nayda tomonidan ilgari surilgan dinamik (funksional) ekvivalentlik tamoyili antonomaziya tarjimasi uchun ayniqsa ahamiyatlidir, zero u asliyatdagi shaklni emas, balki uning kitobxonga ko‘rsatadigan ta’sirini takrorlashga e’tibor qaratadi. O‘zbek tarjimashunosligida G‘. Salomov, N. Komilov va Q. Musayev ishlarida badiiy tarjimaning milliy-madaniy o‘ziga xosligi muammolari ko‘tarilgan bo‘lib, ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar antonomaziya tahlili uchun nazariy zamin yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot qiyosiy-chog‘ishtirma tahlil metodiga asoslangan. Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi badiiy hamda publitsistik manbalardan antonomaziya tarkibida kelgan birliklar tanlab olingan va ular uchta o‘lchovda - semantik (ma’no), pragmatik (matndagi vazifa va ta’sir) hamda lingvomadaniy (milliy-madaniy ramziylik) o‘lchovlarda - solishtirilgan. Shuningdek, komponent tahlil metodi yordamida har bir antonomaziyaning denotativ va konnotativ ma’no qatlamlari ajratib ko‘rsatilgan. Tarjima yechimlarini baholashda funksional ekvivalentlik mezoni asos qilib olingan: tarjima asliyatdagi xos nomning konnotativ ta’sirini maqsad til kitobxoniga qanchalik to‘liq yetkaza olgani ko‘rib chiqilgan.

Antonomaziya va konnotatsiya: nazariy asoslar

Konnotatsiya - so‘zning denotativ, ya’ni asosiy predmet-mantiqiy ma’nosi bilan birga keluvchi qo‘shimcha ma’nolar majmuasidir. U emotsional bo‘yoq, baholovchilik (ijobiy yoki salbiy munosabat), ekspressivlik hamda madaniy assotsiatsiyalarni o‘z ichiga oladi. Antonomaziyaning butun stilistik kuchi aynan shu konnotativ qatlamda mujassam: atoqli nom umumiy so‘zga aylanar ekan, u o‘zining madaniy-tarixiy obro‘yi, adabiy yoki ijtimoiy timsoli bilan birgalikda “ko‘chadi”. Shu sababli antonomaziyani tarjima qilish - bu shunchaki nomni boshqa tilda yozish emas, balki nomning ortidagi butun assotsiativ olamni qayta yaratishdir.

An’anaviy stilistikada antonomaziyaning ikki asosiy turi ajratiladi. **Birinchi tur**da xos atoqli nom umumiy tushuncha o‘rnida qo‘llaniladi: mashhur tarixiy yoki adabiy shaxs nomi muayyan sifatning umumlashgan timsoliga aylanadi (masalan, “a Don Quixote” - xayolparast olijanob inson). **Ikkinchi tur**da esa, aksincha, tavsifiy umumiy ifoda muayyan shaxsni atash uchun atoqli nom o‘rnida ishlatiladi (masalan, “the Iron Lady” - Margaret Tetcher haqida). Har ikki holatda ham nomning denotativ vazifasi ortga chekinib, uning konnotativ qatlami birinchi o‘ringa chiqadi. Tarjimon uchun ana shu konnotativ qatlamni aniqlash va uni maqsad tilda qayta tiklash markaziy vazifa hisoblanadi.

Antonomaziyalarni konnotativ vazifasiga ko‘ra shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin: *baholovchi konnotatsiyali* antonomaziyalar (masalan, “a Judas” -xoin), *emotsional-ekspressiv konnotatsiyali* antonomaziyalar (masalan, “my little Napoleon” - mensimaslik yoki erkalash ohangida) hamda *madaniy-ramziy konnotatsiyali* antonomaziyalar (masalan, “a Solomon” - donishmandlik

timsoli). Har bir guruh tarjimada o‘ziga xos yondashuvni taqozo etadi. Quyidagi jadval ushbu tasnifni umumlashtiradi.

2-jadval.

Antonomaziyalarning konnotativ vazifasiga ko‘ra tasnifi

Konnotativ guruh	**Ta’rifi**	**Namuna**
Baholovchi	Shaxsga ijobiy yoki salbiy baho beradi	*a Judas (xoin), a saint (avliyodek pok)*
Emotsional-ekspressiv	Hissiy munosabat — kinoya, erkalash, kamsitishni ifodalaydi	*my little Napoleon (kinoya ohangida)*
Madaniy-ramziy	Madaniy-tarixiy timsol va assotsiatsiyani yuklaydi	*a Solomon (donolik), a Hercules (kuch)*

Antonomaziyalarni tarjima qilish usullari

Tarjimonlar antonomaziyalarni o‘girishda manba va maqsad tillarning imkoniyatlari, matn janri hamda kitobxonning madaniy tayyorgarligidan kelib chiqib turli usullarni qo‘llaydilar. Quyida eng ko‘p uchraydigan usullar va ularning konnotatsiyani saqlash salohiyati ko‘rib chiqiladi.

1. Transliteratsiya (transkripsiya) usuli. Atoqli nom maqsad tilning fonetik-grafik vositalari bilan to‘liq saqlangan holda beriladi. Bu usul nom xalqaro miqyosda tanish bo‘lganda samarali ishlaydi. Masalan, *“Don Juan”* ingliz tilidan o‘zbek tiliga *“Don Juan”* tarzida o‘giriladi va “ayollar ko‘nglini ovlovchi yigit” degan konnotatsiya saqlanib qoladi. Biroq nom maqsad madaniyatda notanish bo‘lsa, transliteratsiya konnotatsiyani yo‘qotib, kitobxon uchun “bo‘sh nom”ga aylanish xavfini tug‘diradi.

2. Adaptatsiya (funksional almashtirish) usuli. Asliyatdagi antonomaziya o‘rniga maqsad madaniyatda shunga o‘xshash konnotatsiyaga ega bo‘lgan boshqa nom yoki tushuncha qo‘yiladi. Masalan, kuchli odamni ifodalovchi *“Hercules”* o‘zbek kitobxoni uchun ba’zan *“Alpomish”* yoki “pahlavon” bilan funksional jihatdan almashtirilishi mumkin. Bu usul konnotatsiyani jonli saqlaydi, biroq matnning milliy-madaniy koloritini o‘zgartirib yuborish xavfini ham keltirib chiqaradi.

3. Parafraza (tavsifiy tarjima) usuli. Antonomaziyaning ma’nosi ochib, izohlab beriladi. Masalan, *“He is a Newton”* iborasi *“U Nyutondek zukko olim”* tarzida o‘girilib, nomga yuklangan “buyuk daho” konnotatsiyasi oshkor etiladi.

Bu usul ma’noning yo‘qolmasligini ta’minlaydi, ammo asliyatdagi siqiqlik va stilistik nafosatdan ayrilishga olib keladi.

4. Funksional ekvivalentlik usuli. Tarjimon nomning emas, balki uning matndagi vazifasi va ta’sirining ekvivalentini izlaydi. Bunda Y. Nayda ilgari surgan dinamik ekvivalentlik tamoyiliga amal qilinadi: maqsad — maqsad til kitobxonida asliyat kitobxonidagiga o‘xshash hissiy-baholovchi reaksiyani uyg‘otish.

5. Kompensatsiya usuli. Antonomaziyaning konnotativ ma’nosi to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘girishda yo‘qolsa, tarjimon uni matnning boshqa o‘rnida — sifatlash, undalma yoki ohang vositalari orqali tiklaydi. Masalan, asliyatdagi kinoyaviy “our young Caesar” konnotatsiyasi nom saqlanmaganda “o‘zini katta tutgan boshliq” kabi baholovchi izoh bilan qoplanishi mumkin. Kompensatsiya, ayniqsa, madaniy tafovut yuqori bo‘lgan holatlarda eng moslashuvchan yechim hisoblanadi.

3-jadval.

Antonomaziya tarjimasi usullarining qiyosiy salohiyati

Usul	Mohiyati	Afzalligi	Cheklovi
Transliteratsiya	Nomni fonetik-grafik saqlash	Koloritni saqlaydi	Notanish nomda ma’no yo‘qoladi
Adaptatsiya	Milliy timsol bilan almashtirish	Konnotatsiya jonli qoladi	Madaniy kolorit o‘zgaradi
Parafraza	Ma’noni izohlab berish	Aniqlik ta’minlanadi	Siqiqlik va nafosat yo‘qoladi
Funksional ekvivalentlik	Ta’sir ekvivalentini izlash	Kitobxon reaksiyasi saqlanadi	Shakl o‘zgarishi mumkin
Kompensatsiya	Ma’noni boshqa o‘rinda tiklash	Moslashuvchan, universal	Tarjimon mahoratiga bog‘liq

Tarjimada konnotatsiyani saqlash muammolari:

a) madaniy tafovut. Har bir antonomaziya muayyan madaniy-tarixiy zaminda shakllanadi. Bir tilda hammaga ma’lum bo‘lgan timsol boshqa madaniyat vakili uchun butunlay notanish bo‘lishi mumkin. Masalan, rus tilidagi “Плюшкин” (xasislik timsoli) o‘zbek kitobxoni uchun, agar Gogol asari bilan

tanish bo‘lmasa, hech qanday konnotatsiya bermaydi va bunda izoh yoki funksional almashtirish zarur bo‘ladi.

b) konnotativ ma’no o‘zgarishi. Ayni bir nom turli madaniyatlarda turlicha, hatto qarama-qarshi baholanishi mumkin. “Mahatma Gandi” aksariyat kontekstda tinchlik va ma’naviy yetuklik ramzi bo‘lsa, ayrim siyosiy matnlarda murosasiz qat’iyat timsoli sifatida talqin qilinishi mumkin. Tarjimon nomning aynan qaysi konnotativ qirrasi faollashganini matn kontekstidan aniqlab olishi shart.

d) lingvistik strukturadagi tafovut. Antonomaziya bir tilda yakka so‘z, boshqasida esa butun ibora yoki tasviriy birikma shaklida namoyon bo‘lishi mumkin. Bu hol tarjimada strukturaviy transformatsiyani — grammatik almashtirish, kengaytirish yoki qisqartirishni taqozo etadi va matnning ritmik-stilistik tuzilishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Tahlil va muhokama

Tahlilga jalb etilgan namunalarni qiyosiy o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, antonomaziyalarni o‘zbek tiliga o‘girishda yagona universal usul mavjud emas; har bir holatda nomning konnotativ guruhi, matn janri va madaniy masofadan kelib chiqib eng mos strategiyani tanlash talab etiladi. Masalan, baholovchi konnotatsiyali “a Judas” birligi diniy-madaniy zaminga ega bo‘lib, o‘zbek kitobxoniga ham qisman tanish; shu bois uni “sotqin, xoin” tarzida funksional o‘girish konnotatsiyani to‘liq saqlaydi. Aksincha, tor doiradagi adabiy timsolga asoslangan nomlar ko‘pincha kompensatsiya yoki parafraza yo‘li bilan beriladi.

Quyidagi qiyosiy jadval uchta tildagi antonomaziya namunalari va ularning tarjima yechimlarini umumlashtiradi.

1-jadval.

Antonomaziya namunalari va tarjima yechimlarining qiyosiy tahlili

Antonomaziya	Konnotativ ma’no	Maqbul tarjima usuli	O‘zbekcha yechim namunasi
a Romeo	oshiq, mahliyo yigit	parafraza / funksional	“u haqiqiy oshiq”, “Majnun”
a Judas	sotqin, xoin	funksional ekvivalent	“sotqin”, “xoin”
a Solomon	donishmandlik timsoli	adaptatsiya / izoh	“dono qozi”, “Suqrotdek dono”

Antonomaziya	Konnotativ ma’no	Maqbul tarjima usuli	O‘zbekcha yechim namunasi
Hercules	g‘ayritabiiy kuch	Adaptatsiya	“pahlavon”, “Alpomish”
a Newton	buyuk daho, zukko olim	Parafraza	“Nyutondek zukko olim”
a Don Quixote	xayolparast, olijanob soddadil	transliteratsiya + izoh	“Don Kixotdek xayolparast”
the Iron Lady	qat’iyatli, murosasiz rahbar	kalka (so‘zma-so‘z)	“Temir xonim”
a Casanova	ayollarboz, dilbar	funksional / parafraza	“xotinparast”, “dilrabo yigit”
Plyushkin	o‘ta xasis odam	funksional almashtirish	“ziqna”, “qurumsoq”

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, konnotatsiya manba va maqsad madaniyatlarda umumiy bo‘lganda (masalan, “a Judas”) funksional ekvivalentlik yetarli bo‘ladi, biroq timsol tor doiradagi yoki milliy-madaniy jihatdan o‘ziga xos bo‘lganda parafraza, adaptatsiya yoki kompensatsiya usullariga murojaat qilish zarurati tug‘iladi. Shuningdek, tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, badiiy matnlarda stilistik nafosatni saqlash uchun ko‘pincha kompensatsiya, publitsistik matnlarda esa ma’no aniqligini ta’minlash uchun parafraza ustuvor yechim bo‘lib chiqadi.

Umuman olganda, antonomaziya tarjimasi tarjimondan ikki yoqlama salohiyatni — bir tomondan, asliyat tilidagi madaniy timsollarni chuqur anglashni, ikkinchi tomondan, maqsad til kitobxonining madaniy ufqini hisobga olishni talab qiladi. Aynan shu muvozanat tarjimada konnotatsiyaning saqlanishini ta’minlaydi.

Antonomaziya tarjimasida kontekstning roli.

Antonomaziyaning konnotativ ma’nosi statik emas — u matn konteksti tomonidan faollashtiriladi. Ayni bir atoqli nom turli kontekstlarda turli konnotativ qirralarini namoyon etishi mumkin. Masalan, “a Napoleon” nomi harbiy dahshat kontekstida “mohir sarkarda” ma’nosini, maishiy-kinoyaviy kontekstda esa “kalta

bo‘yli, lekin hokimiyatga o‘ch shaxs” ma’nosini bildiradi. Shu sababli tarjimon dastlab matnda faollashgan konnotativ qirrani aniqlab olishi, so‘ngra unga mos tarjima usulini tanlashi lozim. Kontekstni e’tiborga olmaslik konnotativ siljishga, ya’ni asliyat va tarjima o‘rtasidagi ma’no nomutanosibligiga olib keladi.

Sharlotta Brontening “Jeyn Eyr” romani antonomaziyaning kontekstga bog‘liq tarjimasi uchun yorqin manba bo‘la oladi. Romanda personajlar nutqida uchraydigan ayrim atoqli nomlar baholovchi va ijtimoiy konnotatsiya tashiydi: ular qahramonning ma’lumot darajasi, ijtimoiy mavqei va ruhiy holatini ifodalovchi lingvistik marker vazifasini bajaradi. Bunday birliklarni o‘zbek tiliga o‘girishda nomning shunchaki transliteratsiyasi yetarli bo‘lmaydi; tarjimon kompensatsiya va funksional ekvivalentlik usullaridan foydalanib, nomga yuklangan ijtimoiy-baholovchi ma’noni qayta yaratishi zarur bo‘ladi. Bu esa antonomaziya tarjimasi personaj nutqining o‘ziga xosligini saqlash muammosi bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Masalan, romanda diniy-axloqiy timsollar (Bibliyadagi shaxslar nomi) qahramonlarning dunyoqarashini ochib beradi va matnning ma’naviy qatlamini shakllantiradi. Bunday antonomaziyalarni o‘zbek kitobxoni uchun o‘girishda tarjimon ikki strategiya orasida tanlov qiladi: nomni saqlab, izoh berish (asliyatga sodiqlik) yoki funksional ekvivalent bilan almashtirish (kitobxonga yaqinlik). Quyidagi jadval romandagi konnotativ markerlar va ularning maqbul tarjima yo‘nalishlarini umumlashtiradi.

4-jadval.

“Jeyn Eyr” romanidagi konnotativ markerlarni o‘girish yo‘nalishlari

Konnotativ marker turi	**Nutqdagi vazifasi**	**Maqbul tarjima strategiyasi**
Diniy-axloqiy timsol	Qahramon dunyoqarashini ochadi	Transliteratsiya + izoh (sahifaosti)
Ijtimoiy-baholovchi nom	Mavqe va munosabatni bildiradi	Funksional ekvivalentlik
Kinoyaviy atoqli nom	Personaj ruhiy holatini ko‘rsatadi	Kompensatsiya (ohang vositasida)

Demak, badiiy matnda antonomaziya tarjimasi alohida olingan lingvistik birlikni emas, balki personaj nutqi va asar uslubining yaxlitligini saqlash vazifasi doirasida hal etilishi lozim. Tarjimon nomga yuklangan konnotatsiyani qaysi usul

bilan tiklamasin, asosiy mezon — asliyat kitobxonida uyg‘ongan badiiy-estetik ta’sirning maqsad til kitobxonida ham takrorlanishidir.

Xulosa

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Birinchidan, antonomaziya — denotativ ma’nodan ko‘ra konnotativ ma’noga tayanuvchi stilistik vosita bo‘lib, uning tarjimasidagi asosiy vazifa nomning emas, balki nomga yuklangan emotsional, baholovchi va madaniy konnotatsiyaning saqlanishini ta’minlashdan iborat. Ikkinchidan, antonomaziyalarni o‘zbek tiliga o‘girishda transliteratsiya, adaptatsiya, parafraza, funksional ekvivalentlik va kompensatsiya usullari qo‘llaniladi, biroq ularning samaradorligi nomning konnotativ guruhi, matn janri va madaniy masofaga bog‘liq holda o‘zgaradi.

Uchinchidan, madaniy tafovut yuqori bo‘lgan hollarda eng samarali yechim transformatsiya va kompensatsiya usullarining uyg‘un qo‘llanishi bo‘lib chiqdi, zero ular asliyatdagi stilistik ta’sirni maqsad tilning o‘z imkoniyatlari hisobiga qayta yaratishga imkon beradi. To‘rtinchidan, antonomaziya tarjimasi sof lisoniy emas, balki lingvomadaniy hodisa sifatida qaralishi lozim; faqat shu yondashuvgina asliyat va tarjima o‘rtasidagi funksional ekvivalentlikni ta’minlaydi. Tadqiqot natijalari badiiy tarjima amaliyotida, qiyosiy stilistika hamda tarjimashunoslik bo‘yicha o‘quv kurslarida foydalanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Galperin I. R. Stylistics. – Moscow: Higher School, 1977. – 332 p.

2. Nida E. Toward a Science of Translating. – Leiden: E. J. Brill, 1964. — 331 p.

3. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. – Москва: Международные отношения, 1980. – 343 с.

4. Виноградов В. С. Введение в переводоведение. – Москва: Издательство ИОСО РАО, 2001. – 224 с.

5. Телия В. Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. – Москва: Наука, 1986. – 143 с.

6. Lyons J. Semantics. Vol. 1–2. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977.

7. Саломов Ғ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – 232 б.

8. Комилов Н. Таржима санъати. – Тошкент: Фан, 1976. – 184 б.

9. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005. – 352 b.

10. Brontë Ch. ***Jane Eyre***. – London: Penguin Classics, 2006. – 532 p.

11. Апресян Ю. Д. Избранные труды. Том 1: Лексическая семантика. – Москва: Языки русской культуры, 1995. – 472 с.

9. 12. Newmark P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall, 1988. – 292 p.

OGAHIY SHE’RIYATIDA MA’NAVIY SAN’ATLAR

Rustamova Dilnura,
UrDU Filologiya va san’at fakulteti talabasi

UO‘K 81'367

Annotatsiya: *Ushbu maqolada shoir Muhammad Rizo Ogahiy o‘z she’riy asarlarida ma’naviy san’atlardan ustalik bilan foydalanishi haqida bayon qilinadi. Qo‘llanilgan she’riy san’atlar haqida ma’lumotlar keltirilib, ular mavjud bo‘lgan baytlar tahlil qilinadi.*

Kalit so’zlar: *ma’naviy san’atlar, tashbih, mushabbih, mushabbihun bih, vajhi shabih, vositai tashbih, tashbihi mufassal, tashbihi mujmal, tashbihi muqayyad, istiora, husni ta’lil, tajohuli orif, jonlantirish, tashxis, intoq, talmih, laff va nashr, ruju’, irsoli masal, tazmin, savolu javob, iltifot*

She’riy asarlarda ijodkor o‘z shaxsiy fikrini ifodalashda turli xil usullardan foydalanadi. Shoir oddiy inson ko‘zi bilan ko‘rib bo‘lmaydigan badiiylik, obrazlilikni misralariga singdirish orqali lirik asarining qiymatini oshiradi, o‘qishli qiladi, o‘quvchini hayratga soladi. Shu tariqa she’riyatda ma’no bilan bog‘liq bo‘lgan ma’naviy san’atlar yuzaga keladi.

Mashhur shoir, adabiyotimiz xazinasini o‘zining qimmatli asarlari bilan boyitgan Muhammad Rizo Ogahiy lirikasi bilan tanishish uning so‘zdan takrorlanmas badiiylik yarata olish qobiliyatini ilg‘ashda qo‘l keladi. Adibning har bir baytida she’riy san’atlarning eng sara namunalarini uchrata olamiz.

Tashbih arabcha so‘z bo‘lib, “o‘xshatish” ma’nosini ifodalaydi. Ushbu she’riy san’at ikki narsa, shaxs yoxud tushunchalarning o‘xshashligiga asoslanadi. Anvar Hojiahmedov “She’riy san’atlar va mumtoz qofiya” asarida shunday deydi: *“Tashbih san’ati tasvirlanayotgan shaxs, buyum yoki tushunchani o‘quvchi ko‘z o‘ngida aniqroq, jozibaliroq gavdalantirishga xizmat qilib, asar timsollari ma’naviy qiyofasini yorqinroq ochish, binobarin, shoir g‘oyasini o‘quvchi ongiga to‘laroq yetkazishga imkon beradi”*[1.14].

Tashbih 4 qismdan tashkil topadi: **mushabbih** (o‘xshatilgan narsa), **mushabbihun bih** (o‘xshagan narsa), **vajhi shabih** (nima borasida o‘xshatilayotgani), **vositai tashbih** (o‘xshatish vositasi).

Ogahiy she’riyatida **tashbihi mufassal**, ya’ni mazkur 4 unsurning barchasi qatnashgan turiga quyidagi baytni misol qilish mumkin:

Shahddek shirin so‘zidin notavon jonimg‘a haz,
Mehridek farrux yuzidin chashmi hayronimg‘a haz [2.263].

Ushbu baytda mushabbih (so‘zi, yuzi), mushabbihun bih (shahd, mehri), vajhi shabih (shirin, farrux), vositai tashbih (-dek) unsurlarining mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Biroq barcha o‘xshatishlarda ham bu vaziyat kuzatilmaydi. Vajhi shabih tushirib qoldirilgan o‘xshatishlar **tashbihi mujmal** deb ataladi.

Sayr aro pari yonglig‘ qaddinga berib jilva,
Sarv ila sanavbarni beqaroru shaydo qil [2.335].

Mushabbih va mushabbihun bihdan tashkil topgan o‘xshatishlar **tashbihi muyaqqad** deb ataladi.

Gulshan o‘ldi gul yuzing vaslidin elga shonasi,
Bilmadim, topg‘ay qachon bizning buzuq koshona gul [2.327].

Tashbihi kinoya, ya’ni faqat mushabbihun bih keltiriluvchi o‘xshatish ham Ogahiy ijodida salmoqli hisoblanadi. Bu xil tashbih adabiyotshunoslikda **istiora** deb ham ham ataladi.

Ko‘nglum g‘amin, ey do‘stlarim, yorima ayting,
Jonim alamin la’li shakarborima ayting [2.306].

Yana bir she’riy san’at **husni ta’lil** bo‘lib, arabcha “chiroyli dalillash” ma’nosini beradi. Bu badiiy san’atdan foydalanish shoirdan katta iste’dod talab qiladi. Ijodkor tabiatda sodir bo‘ladigan hodisalarga shoirona dalil keltirishi kerak bo‘ladi.

Emas nargiski har yon ko‘z ochibdur,
Qilurg‘a gul yuzing bo‘ston tamosho [2.74].

Mahv o‘lub diydoringa gullar yaqosin qildi chok,
Bog‘ aro chun ko‘rdilar gulzori ruxsoring sening [2.313].

Baytda gulning ochilishi haqida gap ketib, lirik qahramon yorining go‘zal yuzini ko‘rgan g‘unchalar yoqasini chok qilgani aytiladi. Ushbu she’riy san’at tashbihga nisbatan kuchliroq hisoblanadi.

Tajohuli orif badiiy san’ati “bilib turib bilmaslikka olish”, “aqlli kishilarning bilimsizligi” ma’nolarini anglatadi va shoirning badiiylikni oshirish maqsadida bergan ritorik so‘rog‘iga asoslanadi.

Nutqing bila tirilmak edi komim, ey masih,
Komimg‘a ne uchun mani oyo yeturmading? [2.317]

Ne uchun devonalardek yig‘labon yirtar yaqo,
Ul parivash ishqida gar xud emastur zor sham’? [2.266]

Ushbu baytda tajohuli orif san’atini ham, yuqorida ta’kidlaganimiz, husni ta’lil san’atini ham (bundan tashqari tashbih, tashxis kabilarni ham) kuzatishimiz mumkin.

Jonlantirish badiiy san’ati ikki turga bo‘linadi: tashxis va intoq. Adib o‘z ijodida bularning har ikkalasidan unumli foydalangan.

Tashxis arabcha “shaxslantirish” ma’nosini bildirib, adabiyotshunoslikda insonlarga xos xatti-harakat va his tuyg‘ularning jonsiz narsalarga ko‘chirilishi shu nom bilan ataladi. **Intoq** esa mumtoz adabiyotda “so‘zlatish”, “gapirtirish” ma’nosidagi san’at bo‘lib, jonsiz narsa-buyumning insonlardek gapirishini bildiradi. Quyidagi baytlarda tashxis she’riy san’atini uchratishimiz mumkin.

Va’da aylab ikki lab bir bo‘sa, ammo bermadi
Go‘yo ul va’dadin bo‘ldi pushaymon ikki lab [2.98].

Sunbul olmas ne uchun el ko‘nglini?
Bo‘lsa gar zulfi parishoningcha xo‘b [2.103].

Yuqoridagi baytlarda labning va’da berishi, keyin va’dasidan pushaymon bo‘lishi, sunbulning el ko‘nglini olmasligi kabi harakatlar insonlarga xos ekanligi ma’lumdir. Shoir badiiylikni oshirish maqsadida bularni jonsiz obrazlarga ko‘chirgan.

Talmih arabcha so‘z bo‘lib, “nazar solmoq” ma’nosini bildiradi. Shoir o‘tmishda bo‘lib o‘tgan voqea-hodisa, tarixiy joy yoki shaxsga ishora qilish maqsadida talmih san’atini qo‘llaydi. Yorining go‘zalligi o‘quvchi ko‘z o‘ngida to‘laqonli gavdalanishi uchun Yusufdan, muhabbatining kuchliligini bildirishda Farhod, Shirin, Majnun, Laylidan, tiriklik suvi haqida gap ketganida Xizrdan foydalanishadi.

Ishq darsin Vomiqu Farhod mandin o‘rganur,
Kasbi ilm etsa netong atfol ustod oldida [2.85].

Lablarig‘a gar shogird o‘lsa ayb emas Iso,
Kim, olardur o‘lganga jon berurda mohirlar [2.179].

Laff va nashr. “Yig‘ish va yoyish” ma’nosini ifodalovchi ushbu san’at she’r baytida avval bir necha narsa yoki tushuncha nomini ketma-ket keltirib, keyin ular haqidagi hukmlarni ketma-ket bayon qilishni nazarda tutadi [1.42].

Jannatu to‘biyu ham kavsarg‘a boqmon, negakim,
Yorg‘a jannat ruhu, qad to‘biyu, kavsar hadis [2.19].

Ruju’ arabcha so‘z bo‘lib, “qaytish” ma’nosini anglatadi. Shoir go‘yo birinchi misra yoki oldingi baytda aytgan fikr-mulohzasidan qaytgandek bo‘lib, keyin undan-da kuchliroq fikrni keltirishi ruju’ nomi bilan qo‘llaniladi.

Shahikim, til emas vasfig‘a qodir,
Na bir til, ming til o‘lg‘ay lolu qosir [2.19].

Irsoli masal she’riy san’ati “maqol kiritish” ma’nosini anglatib, shoir birinchi misrada keltirgan fikriga dalil sifatida ikkinchi misrada xalq maqollarini qo‘llashiga asoslanadi.

Karam ahli, diram ahli diramga sochsa tong yo‘qkim,
Masaldur: yog‘ agar tomsa, tomar, albatta yog‘ uzra [2.26].

Tazmin (“bir narsani ikkinchi bir narsa orasiga qo‘ymoq”) – she’rga o‘zga bir shoir asaridan biron misra, bir yoki bir necha bayt kiritish san’atidir [1.60]. Ijodkorlar ba’zan boshqa shoirlardan bayt keltirib, o‘z she’rini aynan shu vaznda, shu qofiya va radifda davom qildirishadi. Muhammad Rizo Ogahiy ijdodida ham tazminlarni uchratish mumkin. Jumladan, “Shoiri donoyi davroning kerakmasmu sango” g‘azali Fuzuliyning “Kerakmazmi sango” radifli g‘azaliga tazmin sifatida yozilgan.

G‘amzasin sevding, ko‘ngil, joning kerakmazmi sango?
Tig‘a urding jismi uryoning, kerakmazmi sango? [3.43].
(Fuzuliy)

Oshiq o‘lding, ey ko‘ngul, joning kerakmasmu sango,
O‘tg‘a kirding jismi uryoning kerakmasmu sango [2.86].
(Ogahiy)

Savolu javob she’riy san’ati baytlarda ikki shaxs o‘rtasidagi savol-javob suhbati keltirilishiga asoslanadi. Ogahiyning “Ey xo‘blar shohi” g‘azali boshdan oyoq mazkur badiiy san’at bilan ziynatlangan:

Dedim ul sho‘xg‘a: – Ishqingda xasta joni zorimdur,
Dedi: – Oning davosi no‘shi la’li shahdi borimdur [2.196].

She’riy asarlarda murojaat qilinayotgan shaxsning ko‘chishi sodir bo‘ladi. Lirik qahramon g‘azalni ikkinchi shaxsga murojaat bilan boshlab, g‘azalning

keyingi baytlarida o‘ziga yoki uchinchi shaxsga qarata davom ettirishi mumkin. Adabiyotshunoslikda bunday holat **iltifot** deyiladi. Masalan, shoir “Ko‘r, Ogahiy” g‘azalida yorga ham, o‘ziga ham murojaat qilgan.

Chu sansiz aylaram afg‘on har oqshom, o‘ylaki bug‘,
Kelib mani ne bo‘lur bir tun aylasang mafrug‘.

Ko‘r, Ogahiy, hunaru fazl qadrsizlig‘ini-
Ki, qotg‘oli oshig‘a topmas ahli donish dug‘ [2.274].

Ko‘rib turganimizdek, Muhammad Rizo Ogahiy ijodi ma’naviy san’atlarning eng takrorlanmas namunalari bilan to‘la. Shoirning har bir baytidan, hatto har bir misrasidan badiiy san’atlarni topa olamiz, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Anvar Hojiahmedov. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. – Toshkent: Sharq, 1998.

2. Muhammad Rizo Mirob Erniyozbek o‘g‘li. Asarlar, I jild, Devon. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1971.

3. Muhammad Fuzuliy. Devon, I jild. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1968.

O‘ZBEK TOPONIMIKASINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA PAXTACHI TUMANI TOPONIMLARINI TAHLIL ETISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI

Ergasheva Nodira Abdurayimovna,
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, katta o‘qituvchi

UO‘K 81'36

Annotatsiya: *O‘zbek toponimikasi rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish, avvalo, bu sohada shakllangan konsepsiyalar (toponimika sohasiga oid qarashlar, toponimlarni turli nuqtayi nazarlarning tizimli talqini), ilmiy yondashuvlar va metodologik tamoyillarni tahlil qilishni talab etadi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o‘zbek toponimikasi alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanib, joy nomlarini lingvistik, tarixiy va tizimli tahlil qilish tajribalari to‘plandi. Shu bilan birga, toponimik tizimning o‘ziga xosliklarini, ularning tuzilish mexanizmlarini, semantik motivatsiyasini hamda nominativ jarayonlarning tipologik xususiyatlarini aniqlash masalasi dolzarb ilmiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.*

Kalit so‘zlar: *toponimika, toponimik tizim, o‘zbek toponimika, o‘zbek toponimikasi, ijtimoiy-tarixiy hayoti, tarix, etnografiya, geografiya, joy nomlari.*

Аннотация: *Изучение научно-теоретических основ развития узбекской топонимики прежде всего требует анализа сложившихся в данной области концепций (взглядов, относящихся к сфере топонимики, системной интерпретации топонимов с различных точек зрения), научных подходов и методологических принципов. Начиная со второй половины XX века узбекская топонимика сформировалась как самостоятельное научное направление, в рамках которого был накоплен опыт лингвистического, исторического и системного анализа географических названий. В то же время выявление специфики топонимической системы, механизмов её*

структуры, семантической мотивации, а также типологических особенностей номинативных процессов остаётся одной из актуальных научных проблем.

Ключевые слова: *топонимика, топонимическая система, узбекская топонимика, узбекские топонимы, социально-историческая жизнь, история, этнография, география, географические названия.*

Abstract: *The study of the scientific and theoretical foundations of the development of Uzbek toponymy прежде всего requires an analysis of the concepts established in this field (views related to toponymy, the systematic interpretation of toponyms from various perspectives), as well as scientific approaches and methodological principles. Since the second half of the twentieth century, Uzbek toponymy has developed as an independent scientific discipline, within which substantial experience has been accumulated in the linguistic, historical, and systematic analysis of geographical names. At the same time, identifying the specific features of the toponymic system, the mechanisms of its structure, semantic motivation, and the typological characteristics of nominative processes remains one of the актуальные scientific challenges.*

Keywords: *toponymy, toponymic system, Uzbek toponymy, Uzbek toponyms, socio-historical life, history, ethnography, geography, geographical names.*

Toponimika – til tizimidagi eng qadimiy, tarixiy va madaniy qatlamlarni saqlab qoluvchi sohalardan biri sifatida, xalqning ijtimoiy-tarixiy hayoti, etnolingvistik jarayonlari hamda milliy tafakkur xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan ilmiy yo‘nalishdir. Qaysidir xalq borki, ularning muayyan joylarga nisbatan nom berish tizimi, ularning yashah tarzi, urf-odatlari, milliy-madaniy qarashlari, e’tiqodi hamda tirikchilik faoliyati va tarixiy merosining hosilasi sifatida shakllanadi. Shu bois o‘zbek toponimikasini o‘rganish nafaqat lingvistik

jihatdan, balki tarix, etnografiya, geografiya va madaniyatshunoslik bilan uzviy aloqada tahlil etishni taqozo etadi.

Jahon tilshunosligida joy nomlarini ifodalovchi makro va mikrotoponimlar milliy, tarixiy, ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy-ma'rifiy nuqtayi nazardan alohida ahamiyat kasb etadi. Jahon tilshunosligida toponimikaning mustaqil fan sifatida shakllanish tamoyillari bo'yicha bir qator olimlarning ilmiy izlanishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, nemis geografi A.Gumboldning ushbu sohada talqiqot qilgan dastlabki olimdir [1], A. Zaremba (Polsha), E.Eyxler (Germaniya), R.Sindu (Fransiya), B.Unbegaun (Angliya), H.A.Smit, A.L. Dulzat, G.J. Kopley, G.V.Lemon kabi tadqiqotchilarning ishlari ushbu sohaning nazariy asoslarini belgilashda alohida o'rin tutadi.

Rus tilshunosligida A.N.Sobolevskiy, N.Nadejdin, A.V.Superanskaya, A.A.Beletskiy, O.T.Molchanova, E.M.Murzayev, N.Ya.Podolskaya, A.Nikonov va G.N.Smolitskaya kabi olimlarning ilmiy ishlari toponimikaning shakllanishi, rivojlanishi va tadqiq etish usullarini o'z ichiga olgan. Ushbu olimlarning tadqiqotlari geografik nomlarning kelib chiqishi, ularning leksik-semantik xususiyatlari hamda lingvistik jihatdan o'rganilishiga bag'ishlangan bo'lib, bu fan yo'nalishining rivojlanishida muhim manba vazifasini o'tamoqda.

Shuningdek, O'rta Osiyo toponimlarini rus olimlaridan V.V.Bartold ("Туркестан в эпоху монгольского нашествия" – "Turkiston mo'g'ul bosqinchiligi davrida", V.Vyatkin (Материалы к исторической географии Самаркандского вилоята" – "Samarqand viloyati tarixiy geografiyasi materiallari"), N.V.Sitnyakovskiyning ("Заметки о Бухарской части долины Зерафшана" – "Zarafshon vodiysining Buxoro qismi haqida qaydlar")[2] nomli ilmiy asarlarida ko'plab joy nomlari o'rganilgan. V.Murzayevning 1957-yilda yozgan "Средняя Азия" (O'rta Osiyo") kitobida 100 dan ortiq joy nomlari ko'rsatilgan. Chet el olimlari Vengriyalik Armeniy Vamberi, Semenov-Tyanshanskiy O'rta Osiyo toponimlarini tadqiq etgan.

Sharqda, xususan, O'rta Osiyoda toponimikani o'rganish qadimdan boshlangan bo'lib, Yusuf Xos Xojib "Qutadg'u bilik", Beruniyning "Qonuni Mas'ud", "Hindiston", "Saydana", Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit turk", Ibn Sinoning "Dengiz qirg'oqlari", Boburning "Boburnoma", Abulg'oziy Bahodirxonning "Shajarai turk", Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" kabi

[1]Низомов А. ва б. Топонимика. - Тошкент, Шарқ, 2013. – Б. 15.
[2]Бегалиев Н.Б. Самарқанд топонимияси. - Самарқанд, Сам ДЧИ нашриёти, 2010. – Б. 12.

asarlarida toponimikaga oid juda ko‘p ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, A.R.Beruniyning “Qonuni Mas’ud” asarida 603 ta joy nomi ko‘rsatilgan. Uning geografik xaritasida esa 40 dan ortiq joy nomlari berilgan.

O‘zbek toponimikasi rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish, avvalo, bu sohada shakllangan konsepsiyalar (toponimika sohasiga oid qarashlar, toponimlarni turli nuqtayi nazarlarning tizimli talqini), ilmiy yondashuvlar va metodologik tamoyillarni tahlil qilishni talab etadi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o‘zbek toponimikasi alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanib, joy nomlarini lingvistik, tarixiy va tizimli tahlil qilish tajribalari to‘plandi. Shu bilan birga, toponimik tizimning o‘ziga xosliklarini, ularning tuzilish mexanizmlarini, semantik motivatsiyasini hamda nominativ jarayonlarning tipologik xususiyatlarini aniqlash masalasi dolzarb ilmiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Yurtimizda onomastik birliklarni turli ilmiy yondashuvlar asosida tadqiq qilish jarayoni tobora kengayib bormoqda. Bugungi tadqiqotlarda nomlarning tarixiy-lisoniy ildizlari, semantik xususiyatlari, etnogeografik omillari, ijtimoiy vazifalari, grammatik tuzilishi hamda lingvomadaniy mazmuni bir butun integrativ (joy nomlarini bir tomonlama emas, balki har tomonlama,ya’ni tilshunoslik, tarix, geografiya, etnografiya, etimologiya va boshqa sohalar bo‘yicha) yondashuv doirasida tahlil qilinmoqda. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab hamda mustaqillikdan keyingi davrda toponimlarning til tizimidagi funksional-semantik rivoji, ularning shakllanish mexanizmlari, qo‘llanish jarayonidagi mavqeyini o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘lamli ilmiy izlanishlar amalga oshirildi. Tilshunoslik, tarix va geografiya fanlari uyg‘unlashgan nuqtada yaratilgan fundamental tadqiqotlar, tuzilgan lug‘atlar, himoya qilingan ilmiy ishlar buning dalilidir.

Jumladan, o‘zbek toponimikasi ilmiy-nazariy asoslarining ishlab chiqilishida olimlarimizdan E.Begmatov O‘zbek antroponimlari, T.Nafasov Qashqadaryo viloyati toponimlari, Sh.Qodirovaning Toshkent mikrotoponimlari, Ya.Xujamberdiyev Janubiy Qozog‘iston va Surxondaryo toponimlari, O.S.Gubayeva Farg‘ona etnonimlari, T.Rahmatov Samarqand toponimi etimologiyasi, J.Latipov Marg‘ilon shahri joy nomlari, N.Oxunov Qo‘qon guruhi toponimlari, Q.Xurramov O‘zbek xalq geografik atamalari, L.Karimova tomonidan O‘zbek tilida toponimlarning o‘rganilishi, S.N.Nayimov Buxoro viloyati oykonimlari, Z.Do‘simov Xorazm toponimlari, X.Xolmo‘minov

Surxondaryo viloyati toponimlari, B.O‘rinboyev Jizzax va Samarqand viloyati toponimlarining izohi, A.Muhammadjonov Toponimlar ilmiy tavsifi va etimologik tahlilining tarixiy jihatlari, A.Otajonova Xorazm etnotoponimlari va ularning lug‘aviy asoslari, T.Enazarov O‘zbekiston toponimlari: lug‘aviy asoslari va etimologik tadqiqi, O‘.Oripov, R.Nuritdinova kabi olimlarning tadqiqotlari alohida o‘rin tutadi.

Keyingi davrda S.Ahmadov Jizzax viloyati toponimlarining semantik xususiyatlari, Sh.Temirov Samarqand viloyati oronimlarining lisoniy tadqiqi, I.Xolmuratov Janubiy Qoraqalpog‘iston oykonimlari, N.Ganiyev Qiziltepa tumani toponimlari, U.Turdimurodov Xatirchi tumani toponimlarining leksik-grammatik va etimologik tadqiqi kabi mavzularda nazariy, tarixiy-lingvistik hamda lingvoonomastik, lingvokulturalogik, etimologik tahlil masalalarida olib borgan ko‘lamli tadqiqot ishlariga bag‘ishlangan maqola, monografiya va dissertatsiyalari muhim ahamiyat kasb etadi[1].

O‘lkamiz tarixini bilish va uning ochilmagan siru-sinoatlariga aniqlik kiritish tariximizning hamisha dolzarb masalalaridan biri bo‘lib kelgan. Geograf olim, toponimist E.M.Murzayevning ta’rificha, “Toponimlarda har bir tarixiy davrning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘qish mumkin”[2].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning: “Har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e’tiborni mustaqillikka bo‘lgan e’tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona-Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirmog‘imiz lozim”, - degan fikrlarini o‘ziga dasturilamal qilib kelayotgan Vatanimizning sadoqatli, fidoyi tilshunos olimlari o‘zbek tilining rivojiga va tarixiga o‘zlarining katta hissasini qo‘shib kelmoqda.

Mamlakatimizda “Bugungi globallashuv davrida har bir mustaqil davlat o‘z milliy manfaatini ta’minlash, bu borada avvalo o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiy” [3] bo‘lgan hozirgi bir sharoitda ishlab chiqilgan toponimik siyosat toponimika sohasini ilmiy-nazariy va amaliy yo‘nalishlarda jiddiy rivojlantirishni ham talab etadi. Bu kabi dolzarb masalalarning natijasi sifatida muayyan hududga oid tarixiy hodisalarni, qadriyatini, ijtimoiy faoliyatini o‘zida mujassam etgan lisoniy birliklar hisoblangan toponimlarni mavjud mintaqa misolida tadqiq etish asosiy vazifalar sifatida qaraladi. Chunonchi, Paxtachi

[1]Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси: фил. фан. ном.. дисс. – Тошкент, 1965.

tumani joy nomlarining lisoniy xususiyatlari, dialectal tarkibi, paydo bo‘lish spesifikatsiyasi (o‘ziga xosligi yoki o‘ziga xos xususiyatlari, jihatlari), etnolingvistik xususiyatlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu soha doirasida jahon ilm-fanida onomastik birliklarning geografiya, tarix va tilshunoslik va etnografiyaga doir tavsifi keng tadqiqotlar orqali o‘z ifodasini topmoqda. Hozirgi davr ilm-fanida muayyan areal nomlarini yaxlit bir tizim muhitida nominatsion-motivatsion, leksik-semantik, ijtimoiy-lingvistik va tarixiy-etimologik tomonlama tadqiq qilishga bo‘lgan ehtiyoj oshib bormoqda.

Toponim deganda, albatta, biron bir joyning ikkinchi bir joydan farqlaydigan nomi tushuniladi. Toponimlarning shakllanishida muayyan sabablar ishtirok etadi. Ana shu toponimlarni shakllantiruvchi sabablar esa geografik nomlarni joyning holati, relyefi, iqlimiy xususiyatlari, hududning suv manbalari, o‘simliklari, hayvonlari, tog‘ jinslari, foydali qazilmalari, xalqlar, qabila, urug‘larning nomlari, afsonaviy va diniy nomlar bilan bog‘liq holda shakllangan toponimlar kabi ko‘plab geografik guruhlarga ajratib o‘rganishga imkon yaratadi[1].

“Granit yemirilishi mumkindir, ammo ilmiy tilda toponimlar deb ataladigan geografik nomlar, ya’ni joy nomlari ming-ming yillarga bardosh beradi. Chunonchi, Sug‘d, Xorazm, Baqtriya kabi nomlar bundan 2500 yildan ham oldinroq bitilgan mixxatlarda tilga olingan”[2].

O‘tmishda joy nomlari turli fanlar kesishmasida tadqiq etilgan bo‘lsa, XX asrga kelib, tilshunoslikda tizim sifatida o‘rganila boshlandi. Shu sababli, uzoq yillar davomida toponimiya qaysi sohaga ko‘proq daxldor degan masala doirasida bahs-munozaralar avj oldi. Xususan, V.Nikonov “Geografik nom bu – so‘z, qolaversa, barcha so‘zlar kabi, u jisman geografiyaga emas, balki til qonunlariga bo‘ysunadi. Toponimika o‘z vositalarini ixtiro qilmaydi, balki tilda mavjud bo‘lganlaridan foydalanadi, garchi u ularning ozgina qismini tanlasa-da”[3], - degan fikrni berib o‘tadi. Taniqli toponimist olim S.Qorayev esa “Geografik nomlar, ya’ni toponimlar til lug‘at tarkibining bir qismi bo‘lib, til qonuniyatlariga bo‘ysunadi…” yoki “,toponimika atoqli otlarni o‘rganadigan onomastika fanining

[1]Султанова Н.Б.Умумий ўрта таълим мактаблари география дарсларида топонимик атамалардан фойдаланиш масалалари. Ўзбекистон География жамияти ахбороти 42-жилд, 2013 йил, 63- 65б.).
[2] Қораев С. Географик номлар маъноси. – Т.:Ўзбекистон, 1978. – Б. 201.
[3]Никонов В.А. Введение топонимику. Изд.2-е. – М.: Издательство ЛКИ, 2011. – С. 66.

bir qismi bo‘lib, tilshunolik fanlari qatoriga kiradi”[1], – degan fikrni ilgari suradi. Bu kabi fikrlarni boshqa olimlar ham pozitiv baholab keladilar. Chunonchi, geograf olim H.Hasanov shunday ta’rifni beradi: “Filologlar ham, geograflar ham, tarixchilar ham tan olsinki, toponimika bu uchala fan chegarasidagi sohadir, kimki toponimika bilan astoydil shug‘ullanishni istasa, u bir necha fanni o‘rganib olishi zarur, filolog etnografiyani, tarixni, tabiiy va iqtisodiy geografiyani, tarixchi filologiyani, geografiyani, geograf tilni, tarixni va etnografiyani bilishi lozim”[2].

E.A.Begmatovning ta’rificha, “Joy nomlari (toponimlar) yuzasidan tilshunoslar, tarixchilar, geograflar, etnograflar, folklorshunoslar hozirgacha bir necha tadqiqotlar olib borishgan bo‘lsa-da, mazkur tushuncha doirasiga kiradigan til birliklari - nomlar doirasi, chegarasi aniq va izchil belgilangan emas. Ko‘p hollarda joy nomlari toponimlar deyilganda viloyat, tuman. shahar, qishloq, mahalla, ko‘cha, maydon nomlarigina tushuniladi” [3] . Onomastik tizimda toponimlar eng qadimgi leksik birliklardan biri hisoblanadi. Toponimlarni o‘rganish tildagi ba’zi tarixiy o‘zgarishlarni kuzatish uchun ham muhimdir. So‘nggi yillarda joy nomlarini tasnif qilishning yangi-yangi usullari ishlab chiqilmoqda. Geografik nomlarning xilma-xilligi, ularni tasniflashni talab qiladi. Bu ularni o‘rganish uchun ham, tadqiqot natijalarini umumlashtirish uchun ham zarur”[4]. Albatta, joy nomlarining ko‘lam qamrovi juda keng bo‘lib, bu borada jiddiy izlanishlar talab etiladi.

Joy nomlari - toponimiya doirasiga suv obyekti va inshootlarining nomlari ham kiradi. Suv obyekti va inshootlarining nomlarini ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan o‘rganuvchi soha gidronimika deb ataladi. Gidronimika termini tarkiban grekcha hydro – suv, onoma – nom va -ika – oid kabi ma’noli qismlaridan iborat bo‘lib, «suv obyektlarining nomlariga oid» - degan lug‘aviy ma’noga ega[5].

АДАБИЁТЛАР:

1.Низомов А. ва б. Топонимика. - Тошкент, Шарқ, 2013. – Б. 15.

[1]Qorayev S. Toponimika: O‘quv qo‘ll. T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”, 2006. – B.6.

[2]Улуқов Н.Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи..Монография. – Тошкент, 2006.
– Б.3-4.

[3]Бегматов Э.А. Жой номлари - маънавият кўзгуси. . –Тошкент: Маънавият, 1998. – Б.22-24.

[4]Бахшыева Т..Л. Связь топонимики с другими науками. Ономастика Поволжья. Материалы XX Международной научной конференции. – Волгоград, 2022. – Б.9.

[5]Begmatov E.A. Ko‘rsatilgan manba. – B. 26-28.

2.Бегалиев Н.Б. Самарқанд топонимияси. - Самарқанд, Сам ДЧИ нашриёти, 2010. – Б. 12.

3.Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси: фил. фан. ном.. дисс. – Тошкент, 1965.

4.Султанова Н.Б.Умумий ўрта таълим мактаблари география дарсларида топонимик атамалардан фойдаланиш масалалари. Ўзбекистон География жамияти ахбороти 42-жилд, 2013 йил, 63- 65б.).

5.Қораев С. География номлар маъноси. – Т.:Ўзбекистон, 1978. – Б. 201.

6.Никонов В.А. Введение топонимику. Изд.2-е. – М.: Издательство ЛКИ, 2011. – С. 66.

7.Qorayev S. Toponimika: O‘quv qo‘ll. T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”, 2006. – B.6.

8.Улуқов Н.Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи..Монография. – Тошкент, 2006.

– Б.3-4.

9.Бегматов Э.А. Жой номлари - маънавият кўзгуси. . –Тошкент: Маънавият, 1998. – Б.22-24.

10.Бахшыева Т..Л. Связь топонимики с другими науками. Ономастика Поволжья. Материалы XX Международной научной конференции. – Волгоград, 2022. – Б.9.

PAXTACHI TUMANI MIKROTOPONIMLARINI O‘RGANISHDA TADQIQOT METODLARINING SAMARADORLIGI

Ergasheva Nodira Abdurayimovna,
Navoi State Mining and Technologies University
e-mail: ergasheva.68@list.ru

UO‘K 81'36

Abstract: *maqolada Paxtachi tumani mikrotoponimlarini o‘rganishda qo‘llaniladigan tadqiqot metodlarining samaradorligi ilmiy-amaliy jihatdan tahlil etilgan. Lingvo-onomastik, leksik-semantik, etimologik, tarixiy-tipologik va kartografik metodlarni kompleks qo‘llash mikrotoponimlarning kelib chiqishi, ma’no qatlamlari hamda nomlanish xususiyatlarini aniqlashda muhim omil ekani asoslangan. Shuningdek, mahalliy nutq, arxiv manbalari va dala materiallarining uyg‘un qo‘llanilishi tadqiqot samaradorligini oshirishi ko‘rsatib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *mikrotoponim, Paxtachi tumani, onomastika, lingvo-onomastik tahlil, tadqiqot metodlari, leksik-semantik metod, etimologik tahlil, tarixiy-tipologik yondashuv, xaritografik usul, mahalliy nutq.*

Joy nomlari - toponimiya doirasiga suv obyekti va inshootlarining nomlari ham kiradi. Suv obyekti va inshootlarining nomlarini ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan o‘rganuvchi soha gidronimika deb ataladi. Gidronimika termini tarkiban grekcha hydro - suv, onoma – nom va -ika - oid kabi ma’noli qismlaridan iborat bo‘lib, «suv obyektlarining nomlariga oid» degan lug‘aviy ma’noga ega[1].

Tadqiq qilinayotgan Paxtachi tumani mikro doiradagi geografik nomlari mamlakatimizning o`tmishi va kelajagini yoritishda, lisoniy jarayonlarning qanday darajada o`zgarganligini belgilashda muhim manba vazifasini bajaradi. O‘zbek toponimikasi sohasida samarqandlik toponimshunos olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlil qilingan. Вилоят топонимларини lingvistik tahlil etish mamlakatimiz tarixining qadimiy va zamonaviy bosqichlarini yoritishda muhim manba vazifasini bajaradi. Samarqandlik tilshunoslar L.I.Royzenzon, H.Berdiyorov, R.Qo‘ng‘urov, X.Doniyorov, B.O‘rinboyev,T.Raxmatov, B.Yo‘ldoshev, S.Karimov, N.Begaliyev, A.Turobov,

[1]Begmatov E.A. Ko‘rsatilgan manba. –B.26-28.

S.Bo‘riyev, Sh.Temirov [1] kabi olimlar tomonidan Samarqand viloyati toponimiyasi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Samarqand viloyati toponimlarini quyidagi olimlar tadqiq etishgan: S.Bo‘riyev “Urgut tumani mikrotoponimlarining leksik-semantik tahlili”, A.Turobov ”Samarqand etnotoponimlari tadqiqi”, N.Begaliyev “Samarqand viloyati gidronimlarini lisoniy tadqiqi” nomli, Sh.Temirov esa “Samarqand viloyati oronimlarini lisoniy tadqiqi” mavzuida ilmiy tadqioqt ishlarini amalga oshirgan, A.O‘tamurodov esa Samarqand va jizzax viloyatlari toponimlarini ilmiy tadqiq etgan.

Quyida lingvistik metodlar bilan birga, ko‘pincha, geotoponimik tadqiqotlarda qo‘llaniladigan geografik, kartografik, tarixiy, statistik, etimologik kabi metodlar haqida ilmiy qarashlar bayon qilingan. Shuni alohida qayd etish kerakki, bukungacha shakllangan tadqiqot metodlarining qaysi biri yanada samarali ekanligini aytish mushkul. Chunki har bir tadqiqot metodi geografik nomga nisbatan turlicha va turli darajada yondashuv imkoniyatini taqdim qiladi hamda nomning ham lisoniy, ham falsafiy mazmun-mohiyatini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, tahlil va sintezning turlicha tadqiqot metodlaridan foydalanib geografik nomning asl ma’no-mazmunini aniqlash mumkin. Toponimik tizimning bir bo‘lagi bo‘lgan geografik nom, hech qachon yakka, tanho emas, u turlicha ko‘rinishdagi uzun “zanjir”ning “halqa”laridan biridir. Shu sababdan, muayyan hudud toponimiyasining o`ziga xos spesifikasini inobatga olgan holda tadqiqotlar olib borish, tahlilning muayyan darajada to`g`riligini va samaradorligini ta’minlaydi, shu bilan birga, geografik nomning ilmiy talqinini aniqlashda kata ahamiyatga ega. Ushbu masalaga e’tibor qaratgan taniqli geograf olim H.Hasanov shunday ta’rifni beradi, “Har bir joy nomining bamisoli ikki tomoni bor - sirti va ichi. Sirtdan qaraganda har bir nom atoqli ot bo‘lib ko‘rinadi. Afrika, Grenlandiya, Xitoy, Misr, Parij singarilarning joy nomi ekanligi har kimga ham ayon. Ammo nomning ichki tomoni ham borki, uni ko‘rish uchun “rentgen”ga solish lozim: bu nom qayerda, nega shunday atalgan, qaysi tildan olingan? Joyning bu ichki xususiyatini har kim bilavermaydi, u faqat tadqiqotchiga muyassar bo‘ladi”[2].

---

[1] Gadayev O.Y. O`zbek tilida toponegizlar shakllanishining lingvistik xususiyatlari. Fil.fan.fal.dok.(PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2023.-B.11.

[2] Ҳасанов Ҳ. Географик номлар сири. –Т.: “Ўзбекистон”, 1985.

Toponimika fanining shakllanishi va metodologik asoslarini belgilashda E.M.Murzayev, Yu.A.Karpenko, V.A.Juchkevich, Ye.M.Pospelov singari rus olimlari, shuningdek, o‘zbek toponimikasining rivojiga munosib hissa qo‘shgan S.Qorayev, T.Nafasov, Z.Dosimov, T.Enazarov kabi tadqiqotchilarning ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, filolog olim T.Enazarov so‘nggi yillarda olib borgan ilmiy izlanishlarida toponimik tadqiqotlarda lingvistik metodlarning samaradorligini asoslab bergan.

Toponimik birliklar bilan shug`ullanadigan mutaxassisning vazifalaridan biri shuki, sohaning turli tadqiqot metodlaridan foydalangan holda, dalillangan ilmiy natijalarni qo`lga kiritishdan iborat. Shu sababli, olib boriladigan toponimik izlanishlarda hudud nomlarini tadqiq qilishning maqsadli ravishda amalga oshilishi muhim ahamiyatga ega bolib, quyida berilgan tadqiqot metodlari ishning samarali ilmiy natijalarga erishishda muhim hisoblanadi.

Ta’kidlash joizki, toponimik tadqiqotlarda qaysi metodning ustuvorligini aniq belgilash mushkul, chunki har bir metod geografik nomning ma’no va mohiyatini turli nuqtayi nazardan yoritadi. Shunga ko‘ra, metodlararo uyg‘unlikni ta’minlash O‘zbekiston toponimikasining nazariy asoslarini yanada boyitadi hamda Paxtachi tumani toponimlarining tarixiy-lisoniy qatlamlarini tahlil qilishda muhim ilmiy natijalar olish imkonini beradi. Masalan, o‘zbek toponimikasining ilmiy-nazariy asoslarini belgilashda turli metodologik yondashuvlarning uyg‘un qo‘llanilishi muhim ahamiyatga ega. Masalan, tadqiq etilgan tuman hududidagi *Toma, Yobu (Jobu), Mesit, Burqut, Ko‘rpa, Sanchiqul, Sarapoyon* (hozirda mahalliy xalq shevasiga moslashib, fonetik o‘zgarish natijasida *“Sarapan”* deb yuritiladi), *Loqay*, *Mojor*, *Urganji*, *Juvontayoq* (mahalliy xalq shevasiga asosan “y” harfi “j” harfiga o‘zgarib, fonetik o‘zgarish yuzaga kelgan, asl so‘z shakli *”Yo‘g‘ontayoq” hisoblanadi), Bodoy, Bahrin, Ukrach, Momoy, Ochamayli, Chuvilloq, Polvonchi, Tutli, Sovungar, Ko‘ktosh, Qo‘shtamg‘ali va Jo‘ymahmud* kabi toponimlar.

Mazkur tadqiqotda esa Paxtachi tumani toponimlarini o‘rganishda nafaqat *lingvistik*, balki *xaritografik, qiyosiy-chog`ishtirma, stilistik, tarixiy, etimologik, tasviriy, areal, semiotik va statistik* metodlardan kompleks tarzda foydalanish zaruriy deb hisoblanadi. Bu metodlar toponimlarning kelib chiqish manbai, tarixiy qatlamlari, semantik xususiyatlari va hududiy taqsimlanish qonuniyatlarini aniqlashda keng imkoniyat yaratadi. Shu bois toponimlarni o‘rganish jarayonida ularni tahlil etish metodlarini to‘g‘ri tanlash ilmiy natijalarning ishonchliligi va obyektivligini ta’minlaydi. R.Rasulov ta’kidlaganidek, “Har bir fanning

mavjudligini, xulosalari, faolligi uning tadqiqot obyekti, tadqiqot maqsadi va ayni vaqtda, tadqiqot metodlari bilan baholanadi, o`lchanadi”[1].

Morfologik tahlil. Morfologik tahlil deyilganda, so‘zni turkumlarga ajratish, har bir turkumga xos grammatik kategoriyalarni, so‘z shakllarini aniqlash ko‘zda tutiladi. *Lingvistik yondashuv* toponimlarning morfologik tuzilishini va yasama modellari asosini aniqlashga imkon beradi. *Qo‘shtamg‘ali* toponimi qo‘sh + tamg‘a + li komponentlaridan tuzilgan murakkab yasama birlikdir. *Jo‘ymahmud* esa jo‘y (suv yo‘li) va Mahmud (shaxs nomi) komponentlarining semantik uyg‘unligidan tarkib topgan. *Yangibuloq* toponimi sifat + ot modelida yasalgan gidrotoponim bo‘lib, yangi suv manbasining ochilganini bildiradi.

Xaritografik yondashuvga ko‘ra, mazkur toponimlar joylashuvi jihatidan tabiiy landshaft elementlari bilan uzviy bog‘liqdir. *Toshko‘prik* toponimi suv oqimi ustida joylashgan infratuzilmaviy obyektni bildirsa, *Tutli* nomi o‘simlik qoplami zich bo‘lgan pasttekislik hududni ifodalaydi. *Yangibuloq* tabiiy suv manbai mavjud joy nomi sifatida relyef o‘zgarishlarini ko‘rsatadi, *Ko‘ktosh* esa toshli massivlar va geologik tarkibi bilan ajralib turuvchi hudud nomidir. Bunday tahlil toponimlarning tabiiy geografik muhit bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Xaritografik metodning keng imkoniyatlarini, nomlar asosida xaritalar tuzish va ulardan foydalaanishning afzlliklarini Ye.M.Pospelov[2] o`zining ilmiy tadqiqot ishlarida keng yoritib o`tgan.

Qiyosiy-chog‘ishtirma metod xaritografik ma’lumotlar asosida toponimlarni boshqa hududlardagi o‘xshash nomlar bilan solishtirishga imkon beradi. Ushbu metod orqali toponimlarning tarqalish xususiyatlari, kelib chiqishini farqlash hamda hudud toponimiyasining o`ziga xos xususiyatlariga oydinlik kiritiladi. Masalan, Yangibuloq va Toshko‘prik toponimlari respublikaning boshqa viloyatlarida ham uchraydi, bu esa ularning umumxalq toponimik model sifatida shakllanganini anglatadi. Ushbu yondashuv Paxtachi tumani toponimikasini umumiy o‘zbek toponimik tizimi bilan uzviy bog‘laydi.

Stilistik yondashuvda toponimlarning obrazlilik va estetik jihatlari tahlil qilinadi. Ko‘ktosh va Yangibuloq toponimlarida rang, yangilanish va tabiiylik obrazlari mujassam bo‘lib, ularning xalq tilida ijobiy semantik ohang kasb

[1]Расулов Р. Умумий тилшунослик. Тошкент., 2010. - Б.250-251. (328 б.)
[2]Поспелов Е.М. Топонимика и картография. М.: Мысл, 1976. -256 ст.

etganini ko‘rsatadi. Tutli toponimi hayotiylik va barqarorlikni ifodalovchi ramziy ma’noga ega, Qo‘shtamg‘ali esa tarixiy o‘zlik va identifikatsiyani anglatuvchi timsol sifatida xalq xotirasida saqlanib qolgan. *Stilistik* metod. “Toponimlar tilning boshqa birliklariga xos bo‘lgan xususiyatlardan, jumladan, stilistik xususiyatlardan ham holi emas. Ular o‘zining asosiy ma’nosidan tashqari, yana qo‘shimcha ma’nolarni aks ettiradi. Ushbu ma’nolar, odatda, stilistik ma’nolar deyiladi. Shuning uchun ham tilshunoslikda poyetik onomastika tushunchasi mavjud”.

Paxtachi tumani toponimlarini ana shu metodlar asosida tahlil etish shuni ko‘rsatadiki, joy nomlari o‘zida tabiiy-geografik muhit, tarixiy jarayonlar, etnik qatlamlar va xalq tili ifoda vositalarining murakkab uyg‘unligini mujassamlashtirgan. Har bir metod toponimlarning ma’no qatlamlarini turlicha yoritadi, biroq ularning kompleks qo‘llanilishi Paxtachi tumani toponimikasining ilmiy-nazariy asoslarini yanada chuqurroq anglash va o‘zbek toponimik tizimining umumiy qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Tapuxuŭ tahlil metodi. Onomastika sohasida toponimlar tahlilida tarixiy tahlil metodi muhim ahamiyatga ega. Chunki toponimlarda xalqning o`tmish tarixi, etnografiyasi, til unsurlarining o`zgarish davriyligi ildizlarini topish mumkin bo`ladi. Ushbu metodda toponimik birliklar perspektiv (tarixiy holatda hozirgi ko`rinishidagi o`zgarishlar) va retrospektiv (hozirgi holatidan tarixiy holatigacha bo`lgan tarixiy rivojlanish jarayoni) tahlil usullaridan keng foydalaniladi. Toponimlarni tarixiy metod bilan tadqiq etganda, dastlab, ularning talaffuzi hamda ma’nosi qanday bo‘lganligi aniqlanadi va qiyoslanadi. Natijada tahlil qilinayotgan nomlarning eng qadimgi shakllari – tashqi tomoni (etimologik shakli, ya’ni so‘z va qo‘shimchalarning eng qadimgi shakli tiklanadi) hamda ichki tomoni – ma’nosi (etimologik ma’nosi) kelib chiqadi. Masalan, *Qo‘shtamg‘ali* chorvador urug‘ yoki sulolalarning tamg‘a belgilariga ega bo‘lgan davrni aks ettiruvchi etnotoponimdir. *Jo‘ymahmud* esa suv inshooti qurilgan joyni bildiruvchi antroponimik toponim bo‘lib, o‘rta asrlardagi irrigatsion faoliyatni eslatadi. Bu yondashuv toponimlarning ijtimoiy-tarixiy mazmunini ochib beradi.

Shu o`rinda Paxtachi tumani toponimlaridan *Ziyovuddin, Dabusiy qal’asi, Mesit, Qorluq, Bodoy, Bahrin, Bog‘olon, Qo‘shtamg‘ali, Oytamg‘ali, Ko‘ktoshtepa, Karvonsaroy, Nayman, Qarnob, Sultonravot (Sultonobod), Poyonigumbaz, Barlos* (Barlos qadimgi turkiy qabilalardan biri bo‘lib, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonida boshqa turkiy qabilalar

qatorida barloslar ham Doroga qarshi kurashganligini yozgan)[1], *Uchuruv* (ushbu toponim Paxtachi tumanida qishloqning nomi bo‘lib, uch urug‘ – yobi, toma, mesit urug‘laridan tashkil topgan ittifoq bo‘lgan. Uch urug‘ so‘zida -g‘ tovushi -v tovushiga o‘zgarib, fonetik o‘zgarish yuzaga kelgan. Qadimda Zarafshon vodiysining o‘rta qismida joylashgan)[2], *Yobu (jobu)* – turkiy etnonim. “G‘arbiy turklarning oliy hukmdorlik unvonlaridan biri yog‘bu (yabg‘u) deb atalgan. Qadimiy turklarga bu unvon qabila va qabilalar ittifoqi boshlig‘iga berilgan.O‘rta Osiyoning qadimgi xalqlaridan bo‘lmish Qarluq xonlari ham yobg‘u deb atalgan)”[3], *Toma (Toma* – o‘zbek urug‘laridan biri. Toma asli mug‘ul qabilasi bo‘lib, “Dashtqipchoq o‘zbeklari tarkibiga kirgan va XV-XVIasrlarda ko‘chmanchi o‘zbeklar bilan birga Movarounnahrga va Xorazmga kelib o‘rnashgan)”[4], “(Nasabnomayi o‘zbek” kitobida ham toma o‘zbek qavmlaridan biri sifatida qayd etilgan)”[5], “Fay (arablar istilosiga qadar Dabusiya qal’asi Fay (Pay) saltanatining poytaxti bo‘lgan)”[6] kabi toponimlarni tahlil qilishda mazkur metodning samaradorligi ko`rinadi.

Etimologik metod. Geografik nomlarning asl ma’nosi va mazmunini aniqlashda eng qadimiy va hozirda ham toponimika fani uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan etimologik usulni qo‘llash yaxshi samara beradi. Ko‘p yillar davomida etimologiya toponimikaning asosiy vazifasi sanalgan. Hozir ham u boshqa metodlar orasida muhimligi bilan ajralib turadi. E.M.Murzayev ushbu metodning kamchiligi haqida gapirib, joy nomi bilan bog‘liq geografik voqealikka va tarixiy ma’lumotlarga tayanmasdan geografik nomning asl ma’nosi haqida xulosa chiqarish etimologik usulni ishonchsiz va bahstalab qilishi mumkin degan fikrni bayon qilgan. Ayrim mutaxassislarning fikricha, xususan, substrat toponimlarni o‘rganishda etimologik usulga tayanish ko‘pincha chalkashliklarga olib keladi. *Tasviriy metod.* Ushbu metodga ko`ra, tadqiq etilayotgan hudud toponimlari to`planadi va tizmlashtirish asosida tasnif qilinadi, bunda o`lka, shahar, qishloq, mahalla, guzar, ko`cha, muqaddas qadamjo, qabriston, masjid, tog`, qir, tepalik, daryo, ko`l, soy, cho`l, dasht, maydon, yaylov kabilarning

[1]Санаев И. Бу кўҳна дунё. Тошкент, “Адолат”, 1996. - Б.27.
[2] Санаев И. Бу кўҳна дунё. Тошкент, “Адолат”, 1996. - Б.23.
[3]Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. 1988, -В.74.
[4]Қораев С. География номлар маъноси. –В.119.
[4] Sanayev I. Ko‘rsatilgan manba, -B.22.
[5] Qorayev S. Ko‘rsatilgan manba, -B.119.
[6] Sanayev I. Ko‘rsatilgan manba, -B.14.

ro`yxati shakllantiriladi, ularning lisoniy xususiyatlari aniqlanadi[1]. Ma'lumki, tasviriy metod barcha ijtimoiy-tarixiy va tabiiy fanlarda keng qo'llaniladi. Shunga ko'ra bu metod boshqa metodlar orasida qo'llanish ko'lami jihatidan eng yuqori o'ringa guradi. Masalan, daryo, ko'l, buloq, ariq, kanal, soy nomlari ro'yxati gidronimlarni tasviriy metod bilan o'rganishda katta yordam beradi. Ana shu ro'yxatlar materiali asosida keyinchalik onomastik birlik (toponim, gidronim kabi)larning lug'atlari tuziladi. Shu qatorida, mazkur metod asosida toponimlarning ko'pchiligi bevosita joyning tabiiy yoki madaniy belgilari aniqlanadi. Masalan, *Ko'ktosh* toponimi rang va predmet asosida, *Tutli* o'simlikka bog'liq holda, *Toshko'prik* esa inshootning tashqi ko'rinishiga asoslanib yaratilgan.

Areal metod esa toponimlarning hududiy tarqalish qonuniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Paxtachi tumanida gidrotoponimlar *(Jo'ymahmud, Yangibuloq)* suv resurslari boy hududlarda, fitotoponimlar (Tutli, Mevali) o'simlik o'sadigan zonalarda, oronim va geomorfologik toponimlar (Ko'ktosh, Toshko'prik) esa toshli, adirli yerlarda joylashgan. Bu metod toponimlarning mintaqaviy tizimda qanday taqsimlanganini aniqlash imkonini beradi. "Areal toponimika – toponimiyaning turli hududlar bo'ylab tarqalish xususiyatlarini o'rganuvchi tarmog'i"[2]. Bu metod orqali tadqiqotchilar muayyan bir toponimning turli hududlar bo`yicha areal yoyilishiga aniqlik kiritishadi. Masalan, tadqiq etilgan hudud toponimiyasidan "Sarbozor" nomi mazkur metod orqali tahlil qilinganda, ushbu nomning areallari mamlakatimizning Katta qo`rg`on, G`ijduvon, Ishtixon, Oqdaryo, Konimex, G'allaorol va boshqa hududlarida tarqlganligiga guvoh bo`lamiz.

Semiotik metod. Mazkur metod yunon tilidan olingan "semiologiya" so`zi bo`lib, "belgi haqidagi ta'limot" ma'nosini beradi va ijtimoiy muloqot jarayonidagi belgilar tizimi hisoblanadi. Toponimlar lingvomadaniy belgi sifatida xalqning ma'naviy, madaniy, ijtimoiy, tarixiy, etnografik, tabiatga bo`lgan munosabatlarida o`z ifodasini topadi. Toponimik birliklardagi har bir komponent o`zining muayyan mazmun va mohiyatiga ega bo`lib, bu semiotik metod orqali tadqiq etiladi hamda anglashilgan mazmun-mohiyat natijasida nomlanishning xususiyatlari o`rganiladi. Ya'ni semiotik metod asosida tahlil qilishda ba'zi

[1] Ҳакимов Қ.М., Ақчаев Ф.Ш. Топонимика фанининг тадқиқот методлари./Ўзбекистон География жамияти ахбороти. 42-жилд, 2013. – В.44-46.
[2]Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. –Наманган, 2006. 17-б.

nomlarning lug`aviy ma’nosi, etimologiyasi qanday bo`lishidan qat’iy nazar, ularning ma’lum darajadagi uslubiy belgilari anglashilib turadi. Masalan, Istiqlol, Mustaqillik, Yangi diyor, Yangihayot, Bunyodkor, Yangizamin, Yangi turmush, Do‘stlik, Tinchlik kabi toponimlar qo‘llanilishida pozitivlik belgisi, Kal, Kalurgich, Pushaymon qishloq, Bandikuchuk, Qo‘tirbuloq, Jomonjar kabi toponimlarda negativlik belgisi anglashilib turadi.

Statistik metod. Ushbu metod asosida to`plangan materialni qayta ishlash samarador hisoblanadi. mazkur metod orqali muayyan hudud toponimik birliklarining sonini aniqlash, boshqa tip nomlar bilan chog`ishtirish, miqdor jihatidan ustunligini aniqlash va foiz nisbatlarida tadqiq etish imkoniyati mavjud. tistik ma’lumotlar tadqiqotchida mintaqa toponimlari haqidagi tasavvurini aniqlashtiradi va aniq xulosa chiqarishiga ko‘maklashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Begmatov E.A. Ko‘rsatilgan manba. –B.26-28.

2.Gadayev O.Y. O`zbek tilida toponegizlar shakllanishining lingvistik xususiyatlari. Fil.fan.fal.dok.(PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2023.-B.11.

3.Ҳасанов Ҳ. Географик номлар сири. –Т.: “Ўзбекистон”, 1985.

4.Расулов Р. Умумий тилшунослик. Тошкент., 2010. - Б.250-251. (328 б.)

5.Поспелов Е.М. Топонимика и картография. М.: Мысль, 1976. – С.256 ст.

6.Санаев И. Бу кўҳна дунё. - Тошкент, “Адолат”, 1996. -Б.27.

7.Санаев И. Бу кўҳна дунё. - Тошкент, “Адолат”, 1996. - Б.23.

8.Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. 1988, - Б.74.

9.Қораев С. Географик номлар маъноси. –B.119.

10.Санаев И. Бу кўҳна дунё. - Тошкент, Адолат, 1996. -B.22.

11. Қораев С. Географик номлар маъноси. –B.119.

12. Санаев И. Бу кўҳна дунё. - Тошкент, Адолат, 1996. -Б.14.

13.Ҳакимов Қ.М.,Ақчаев Ф.Ш.Топонимика фаниинг тадқиқот методлари.Ўзбекистон География жамияти ахбороти. 42-жилд, 2013. –Б.44-46.

14.Бегматов Э.,Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. –Наманган, 2006. – Б.17.

LEXICAL DIFFUSION AND SEMANTIC FIELDS IN ENGLISH: A HISTORICAL AND CONTEMPORARY ANALYSIS

Saparbaeva Gulandom Masharipovna, f.f.d, (PhD), professor v.b
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
gulandoms1976@gmail.com

Matqurbanova Hurshidabonu Marks qizi,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti stajor-o‘qituvchisi
matqurbanovahurshidabonu@gmail.com

UO‘K 81'36

Abstract. *This article investigates the concept of lexical diffusion as it pertains to semantic fields within the English language. Emphasizing historical and contemporary perspectives, the analysis explores how lexical diffusion contributes to gradual semantic change from Old English through to Modern English. By examining discrete semantic fields—specifically the fields of color, motion, and emotion—this paper illustrates diffusion processes with multiple exemplar cases per field. For each semantic domain, explanations are provided on the mechanisms through which word senses shift and evolve in meaning over time, in connection with broader cultural, social, and linguistic developments.*

The discussion is structured to suit an academic audience consisting of advanced linguistics researchers and postgraduate students. A detailed presentation of theoretical constructs, case analyses, and historical evidence is offered in order to underline the multifaceted nature of lexical diffusion. This article is intended for publication in a peer-reviewed linguistics journal

Keywords: *Lexical Diffusion, Semantic Fields, Semantic Change, Historical Linguistics, Old English, Modern English, Lexicography*

Annotatsiya. *Ushbu maqola ingliz tilidagi semantik maydonlarga taalluqli bo‘lgan leksik diffuziya tushunchasini o‘rganadi. Tarixiy va zamonaviy nuqtai nazarlarga tayangan holda, tahlil leksik diffuziyaning Qadimgi ingliz tilidan Zamonaviy ingliz tiligacha bo‘lgan davrda ma’no o‘zgarishlarining bosqichma-bosqich rivojlanishiga qanday hissa qo‘shishini yoritadi. Rang, harakat va hissiyot semantik maydonlari alohida ko‘rib chiqilib, har bir maydonda diffuziya jarayonlari bir nechta misollar orqali namoyish etiladi. Har bir semantik soha uchun so‘z ma’nolarining vaqt*

o‘tishi bilan qanday siljishi va rivojlanishi, shuningdek, bu jarayonlarning kengroq madaniy, ijtimoiy va lingvistik o‘zgarishlar bilan bog‘liqligi izohlanadi. Muhokama ilg‘or tilshunoslik tadqiqotchilari hamda magistratura va doktorantura bosqichidagi talabalar kabi akademik auditoriya uchun mo‘ljallangan tarzda tashkil etilgan. Leksik diffuziyaning ko‘p qirrali tabiatini yoritish maqsadida nazariy tushunchalar, amaliy tahlillar va tarixiy dalillar batafsil bayon etiladi. Mazkur maqola taqrizdan o‘tadigan (peer-reviewed) tilshunoslik jurnalida chop etish uchun mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: *Leksik diffuziya, semantik maydonlar, semantik o‘zgarish, tarixiy tilshunoslik, qadimgi ingliz tili, zamonaviy ingliz tili, leksikografiya.*

Аннотация. *В данной статье исследуется понятие лексической диффузии применительно к семантическим полям английского языка. Опираясь на исторические и современные подходы, анализ показывает, каким образом лексическая диффузия способствует постепенным семантическим изменениям от древнеанглийского периода до современного английского языка. Рассматривая отдельные семантические поля - цвета, движения и эмоций, - статья демонстрирует процессы диффузии на основе нескольких показательных примеров для каждой области. Для каждого семантического поля объясняются механизмы, посредством которых значения слов смещаются и развиваются с течением времени в связи с более широкими культурными, социальными и языковыми изменениями. Обсуждение структурировано с учетом академической аудитории, состоящей из опытных исследователей-лингвистов и студентов магистратуры и аспирантуры. Подробное изложение теоретических концепций, анализ конкретных случаев и исторические свидетельства представлены с целью подчеркнуть многогранный характер лексической диффузии. Данная статья предназначена для публикации в рецензируемом лингвистическом журнале.*

Ключевые слова: *лексическая диффузия, семантические поля, семантическое изменение, историческая лингвистика, древнеанглийский язык, современный английский язык, лексикография.*

Introduction. Semantic change and lexical diffusion are critical constructs in the study of language evolution. In English, lexical diffusion refers to the gradual spread of a phonological or semantic change through the lexicon rather than affecting all words simultaneously. This process is typically discernible in the patterns of lexical innovation, borrowing, and semantic overlap among related

words. Semantic fields, on the other hand, represent clusters of semantically related words whose interrelations provide insights into historical, cultural, and pragmatic factors that drive lexical evolution.

This article is structured to first introduce the theoretical underpinnings of lexical diffusion and semantic fields, followed by an analysis of these phenomena across three prominent semantic fields in English: color, motion, and emotion. The examples provided are intended to illustrate cases of lexical diffusion within each domain. Integration of both historical perspectives (tracing changes from Old English to Modern English) and contemporary manifestations allows for a comprehensive understanding of diffusion processes. By methodically examining representative word cases within each semantic domain, this study reveals how gradual and selective shifts in meaning highlight the dynamic evolution of the English lexicon.

Theoretical Framework

Lexical Diffusion: Definition and Mechanisms

Lexical diffusion describes a process whereby language change is not uniformly distributed across all potential lexical items but instead diffuses gradually through the lexicon. This phenomenon contrasts with models of abrupt categorical shifts or mass analogical changes. Borrowing from theoretical linguistics, lexical diffusion has been modeled both as a phonetic phenomenon (such as the diffusion of a sound change) and as a semantic mechanism affecting meaning. In the semantic realm, lexical diffusion involves the selective and gradual spread of a change in word meaning to related or semantically proximate words. For instance, when a particular semantic feature begins to be associated with one lexical item, similar items within the same semantic family may eventually acquire this feature as well, though not in a synchronous or uniform vector. The process is influenced by factors such as frequency, register, stylistic variation, and contextual usage.

The selective nature of lexical diffusion also implies that certain words may resist change due to entrenched conventional usage or competing meanings. This introduces the notion of gradient diffusion, where the perceptual or cognitive affinities between words influence the pace and extent of semantic modification.

Semantic Fields in English

Semantic fields are clusters of vocabulary items interconnected by shared meaning or thematic association. In English, as in other languages, semantic fields serve as crucial analytic tools, allowing linguists to identify patterns of lexical

evolution, metaphorical extension, and competitive semantic overlap. Each semantic field can be thought of as a conceptual network where words share a common semantic nucleus yet differentiate into distinct shades of meaning through historical and social processes.

The organization of semantic fields in English is influenced by both internal linguistic dynamics and external cultural influences. Fields such as color, motion, and emotion exhibit distinct patterns of diffusion, with changes often traceable to specific historical epochs, including influences from Old English, Middle English, and Modern English periods. For example, the semantic field of color has seen significant diffusion tied to shifts in artistic representation and scientific inquiry, whereas motion words have been influenced by technological advancements and shifts in cultural metaphor.

Historical Perspectives on Semantic Change in English

The trajectory of semantic change in English offers rich insights into lexical diffusion. From the inflected grammatical forms of Old English to the more analytically oriented Modern English, lexical items have undergone gradual semantic shifts often characterized by diffusion phenomena. Historical linguists have meticulously documented these changes, which are sometimes punctuated by periods of relative stability, followed by sporadic instances of rapid diffusion.

In the Old English period (circa 450-1100 AD), semantic fields were more rigidly defined, with less overlap between word senses. However, as contact with other languages increased—particularly following the Norman Conquest in 1066—the diffusion of new semantic features became evident. Words in semantic fields began to experience shifts in meaning that could be traced to changes in everyday usage, literary influences, and even geopolitical shifts.

As the language evolved into its Modern form (post-1500 AD), semantic fields became more fluid. The gradual incorporation and adaptation of terms from diverse linguistic backgrounds led to multiple cases of lexical diffusion. Detailed case studies from within specific semantic fields reveal that lexical diffusion is rarely instantaneous; rather, it is a consequence of cumulative small-scale changes that together reconfigure the semantic network of English.

Analysis of Lexical Diffusion in Specific Semantic Fields: Semantic Field of Color

The Evolution of Color Terminology

The semantic field of color presents a particularly illuminating case for examining lexical diffusion. Color terms in English have undergone significant evolution influenced by both cultural symbolism and scientific progress. In Old English, basic color terms such as "read" (red) and "geolu" (yellow) were used to designate not only visual attributes but also symbolic meanings. Over time, these terms have diffused into numerous shades and specialized uses.

Lexical diffusion in the color field is observed in the gradual expansion of meanings associated with basic color terms. For example, "red" initially connoted a simple hue, but over centuries, its semantic field widened to include connotations of passion, anger, and even political symbolism (e.g., "red states"). Similarly, the term "blue" evolved in its semantic associations. In earlier stages, blue primarily evoked images of the sky or open waters, but as artistic representations and technological innovations (such as synthetic pigments) emerged during the Renaissance and later periods, "blue" developed extended meanings in contexts including sadness ("feeling blue") and premium quality (e.g., "blue blood").

Case Studies of Lexical Diffusion in the Color Field

Two distinct cases exemplify the diffusion processes within the color field:

Case Study 1: "Red" – In Old English texts, the word "read" was strictly associated with the visual attribute. However, by Middle English, the symbolic implications of passion and warfare started to emerge. Through a process of lexical diffusion, subsets of the lexicon associated with emotional states (such as "blush" or "flushed") began to incorporate the connotative properties of "red", a shift that accelerated during the Renaissance with increased literary usage and metaphorical nuance.

Case Study 2: "Blue" – The semantic evolution of "blue" provides another clear example of diffusion. Originally a straightforward term referring to the color of the sky and sea in Old English and early Middle English, the term's semantic spectrum gradually widened. By the 18th and 19th centuries, "blue" acquired multiple meanings, including its use as a descriptor for mood and temperament. This diffusion is evidenced in literary texts where the mood-associated usage coexists with the primary color description.

In both cases, the mechanism of lexical diffusion is clearly observable: isolated instances of metaphorical or contextual enrichment eventually become integrated into the standard semantic field of the word in question. The diffusion

is neither uniform nor random but follows discernible patterns influenced by cultural and communicative pressures.

Semantic Field of Motion: The Dynamics of Movement Terminology

The semantic field of motion encompasses a variety of verbs and nouns that describe physical movement, changes in state, or metaphorical shifts. In English, movement terms were central in Old English narratives and have retained their importance through successive periods. However, the lexical diffusion within this field often operates at a subtler level than in the color field, with changes marked by incremental semantic shifts and metaphorical extensions.

Early movement terms such as "rinnan" (to run) and "feolan" (to move quickly) were primarily used in physical contexts. With the passage of time, these terms acquired metaphorical uses, thereby extending their semantic fields. For instance, "run" became associated not only with physical activity but also with tasks such as running a business or running for office. This semantic expansion was gradual, and other terms within the same field were diffused in a similarly selective manner.

Case Studies of Lexical Diffusion in the Motion Field

Two illustrative instances are analyzed as follows:

Case Study 1: "Run" – Originally a term referring to rapid physical movement, "run" experienced lexical diffusion beginning in the Middle English period as its usage extended to various metaphorical senses. This diffusion is observable in phrases such as "run into trouble" or "run a risk", where the movement metaphor underpins a conceptual leap from physical displacement to abstract dynamics. The expansion did not occur uniformly across all contexts but diffused through usage in literary and everyday discourse.

Case Study 2: "Fly" – The term "fly", which in Old English primarily indicated movement through the air, gradually adopted metaphorical and extended meanings. By Modern English, "fly" is employed in contexts ranging from the literal sense of flying in an airplane to idiomatic expressions like "time flies". This semantic diffusion illustrates how the original sense of rapid transit has broadened to include non-physical temporal perceptions. The shift, while gradual, reflects broader tendencies in the evolution of language and the symbolic reconfiguration of movement.

These case studies demonstrate that lexical diffusion in the motion domain entails both a change in register and the broadening of a word’s semantic field. A

word's semantic expansion may involve additional inflections and metaphorical overlays that are adopted variably depending on contextual pressures and historical usage patterns.

Semantic Field of Emotion: Lexical Innovations in Affective Terminology

The semantic field of emotion, perhaps more than any other, embodies the complexity of lexical diffusion. Emotion-laden terms in English have not only undergone significant diffusion with respect to their denotative and connotative aspects but have also been subject to cultural reinterpretation over centuries.

In Old English, expressions of affect and sentiment were relatively constrained by the lexicon, with few words available to capture the full spectrum of human experience. Over time, and influenced by shifts in literary style, philosophy, and social dynamics, these terms evolved. Lexical diffusion in this field captures the broadening of emotional categories, from the basic affective states to nuanced gradations of sentiment.

Case Studies of Lexical Diffusion in the Emotion Field

Two distinct examples that illustrate diffusion in the field of emotion are as follows:

Case Study 1: "Love" – The term "love" in Old English (lufu) originally conveyed a primarily interpersonal and familial affection. Over time, however, its semantic field expanded considerably under the influence of Romantic and Enlightenment ideologies. Lexical diffusion has enabled the term to encompass a wider spectrum of meanings, including passionate attraction, altruistic love, and even abstract, non-human appreciations such as an affinity for nature or art. Intermediate words such as "fondness" and "affection" illustrate different stages in this diffusion process, each capturing incremental semantic shifts.

Case Study 2: "Grief" – Originally signifying a deep sense of sorrow and loss, "grief" has in subsequent periods of English evolution acquired extended usage. Myriad related forms now reflect varying intensities and contexts of emotional distress. For example, "mourning" and "sorrow" have diffused within the semantic network to reflect subtle distinctions in the temporal and situational aspects of emotional experiences. The diffusion here is not merely the result of embellishment; rather, it reflects an adaptive lexicon where specific emotional states are dissected and classified in finer gradations.

The lexical diffusion in the domain of emotion thus shows that semantic fields are not static. Emotional vocabulary evolves in response to human

experience, social change, and literary innovation, leading to a complex network of interrelated meanings that often overlap and converge.

Historical Trajectories and Lexical Diffusion from Old English to Modern English

A comprehensive understanding of lexical diffusion in English requires a diachronic perspective that examines the evolution of semantic fields over the past millennium. Beginning with Old English, the linguistic landscape was characterized by a relatively limited set of lexemes, each bearing a concentrated semantic load. During this period, the diffusion of meaning was more constrained due to the smaller lexicon, but the precise boundaries of each semantic field were more clearly maintained.

With the advent of Middle English, several socio-political and cultural transformations facilitated lexical expansion and the diffusion of semantic innovations. The Norman Conquest, for instance, resulted in an influx of Romance vocabulary, leading to semantic overlaps and the gradual diffusion of meanings previously confined to distinct lexical items. For example, many emotion and movement terms derived from Old Norse and Norman sources began to interact with native Old English forms, producing a heterogeneous semantic field with multiple layers of meaning.

By the time the language evolved into its Modern English form, diffusion processes had become more complex. Semantic fields were no longer confined to clear cut or limited categories; rather, they embodied a continuum of meanings that could be traced back to incremental changes in connotation, metaphorical use, and pragmatic contextualization over time. The progressive diffusion of lexical meaning in fields such as color, motion, and emotion demonstrates that the evolution of English is characterized by a layered process of diffusion rather than abrupt, wholesale changes.

Importantly, historical shifts in semantics also relied on sociocultural presentation and technological advancements. The invention of new technologies often necessitated the expansion of lexical fields; for instance, new movement-related terminology in the Industrial Revolution drew on traditional words but applied them to modern contexts. Likewise, the proliferation of art and science during the Renaissance led to intricate diffusion in the color field, where nuances in hue and saturation demanded finer semantic distinctions.

Conclusion. Lexical diffusion offers a powerful lens through which to examine the evolution of semantic fields in the English language. Throughout this article, we have observed that semantic changes are seldom abrupt but instead emerge gradually through diffusion processes influenced by historical, cultural, and linguistic factors. The analysis of semantic fields—color, motion, and emotion—demonstrates that lexical diffusion is characterized by a selective expansion of meaning rather than uniform shifts across all words. From the constrained lexicon of Old English to the heterogeneous network of Modern English, diffusion processes have played a fundamental role in the continuous reconfiguration of semantic fields.

This study has underscored that lexical diffusion is not merely a theoretical concept but a dynamic phenomenon observed in the everyday evolution of language. Specific case studies, such as the semantic trajectories of "red," "blue," "run," "fly," "love," and "grief," illustrate the nuanced processes by which meanings shift as cultural and communicative contexts evolve. Such diffusion is mediated by both external influences—historical events, technological innovations, literary trends—and internal linguistic pressures, including frequency effects and metaphorical extension.

In summary, lexical diffusion remains a critical mechanism in semantic change, as it allows for the incremental adaptation of the English lexicon to the demands of changing communicative environments. By elucidating the processes underlying semantic diffusion across distinct fields, this article contributes to a broader understanding of language change, offering insights that are essential for both historical linguistics and contemporary semantics.

Summary of Main Insights

Lexical diffusion describes gradual, selective semantic change, rather than abrupt, uniform shifts in meaning across a language.

Distinct semantic fields such as color, motion, and emotion exhibit unique patterns of diffusion that reflect historical, cultural, and pragmatic influences.

The diachronic perspective—spanning from Old English to Modern English—demonstrates how incremental changes accumulate, redefining lexical fields over time.

References

1. Bloomfield, L. (1933). *Language*. Holt, Rinehart and Winston. (New York: Holt).

2. Croft, W. (2000). *Explaining language change: An evolutionary approach*. Longman. (London/New York: Longman / Pearson).

3. Goddard, C., & Wierzbicka, A. (Eds.). (2002). *Meaning and universal grammar: Theory and empirical findings* (Vols. 1–2). John Benjamins Publishing Company. (Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins). DOI: https://doi.org/10.1075/slcs.60

4. Nevalainen, T., & Traugott, E. C. (Eds.). (2012). *The Oxford handbook of the history of English*. Oxford University Press. (Oxford/New York). DOI: https://doi.org/10.1093/oxfordhb/9780199922765.001.0001

5. Traugott, E. C. (2010). Internal reconstruction: A historical linguistic method. In S. Luraghi & V. Bubenik (Eds.), *Continuum companion to historical linguistics* (pp. 269–283).

NEYROSETLARNI LINGVODIDAKTIKAGA INTEGRATSIYA QILISH: IMKONIYATLAR VA XAVF-XATARLAR

Sanaqulova Shaxzodaxon Sheraliyevna,
SamDCHTI Ingliz tili o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

UO‘K 811.512.133

Annotatsiya. *Maqolada neyrotarmoq texnologiyalarini lingvodidaktikaga integratsiya qilishning imkoniyatlari va xavflari ko‘rib chiqiladi. Chet tillarini o‘qitishda sun’iy intellektdan foydalanishning didaktik afzalliklari, jumladan, ta’limni individuallashtirish, baholash jarayonini avtomatlashtirish hamda kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘quvchilarda kognitiv qaramlikning shakllanishi, tanqidiy fikrlashning pasayishi va akademik halollik bilan bog‘liq masalalar kabi potensial xavflarga alohida e’tibor qaratiladi. O‘tkazilgan tahlil asosida neyrotarmoqlarni ta’lim jarayoniga samarali va pedagogik jihatdan asoslangan holda joriy etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *lingvodidaktika, neyrotarmoqlar, sun’iy intellekt, chet tillarini o‘qitish, raqamli texnologiyalar, ta’limni individuallashtirish.*

Abstract. *The article examines the opportunities and risks associated with the integration of neural network technologies into linguodidactics. It analyzes the didactic advantages of using artificial intelligence in foreign language teaching, including personalized learning, automated assessment, and the development of communicative skills. Particular attention is paid to potential risks such as learners’ cognitive dependency, the decline of critical thinking, and issues of academic integrity. Based on the analysis conducted, recommendations are proposed for the effective and pedagogically sound implementation of neural networks in the educational process.*

Keywords: *linguodidactics, neural networks, artificial intelligence, foreign language teaching, digital technologies, personalized learning.*

Аннотация. *В статье рассматриваются возможности и риски интеграции нейросетевых технологий в лингводидактику. Анализируются дидактические преимущества использования искусственного интеллекта при обучении иностранным языкам, включая персонализацию обучения, автоматизацию оценивания и развитие коммуникативных навыков. Особое внимание уделяется потенциальным рискам, связанным с когнитивной зависимостью обучающихся, снижением критического мышления и вопросами академической честности. На основе проведённого анализа предлагаются рекомендации по эффективному и педагогически обоснованному внедрению нейросетей в образовательный процесс.*

Ключевые слова: *лингводидактика, нейросети, искусственный интеллект, обучение иностранным языкам, цифровые технологии, персонализация обучения.*

Kirish. Ta’lim rivojlanishining zamonaviy bosqichi raqamli texnologiyalarning faol joriy etilishi bilan tavsiflanadi, ular orasida neyrosetlar va sun’iy intellekt tizimlari alohida o‘rin egallaydi [8; 10]. Jamiyatning globallashuvi va raqamlashuvi sharoitida chet tillarini o‘qitish individuallashtirish, interaktivlik va ta’lim oluvchilarning mustaqilligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yangi yondashuvlarni talab qiladi [5].

Lingvodidaktika tillarni o‘qitish nazariyasi va amaliyoti haqidagi fan sifatida an’anaviy o‘qitish metodlarini qayta ko‘rib chiqish zaruriyatiga duch kelmoqda [1]. Neyroset texnologiyalaridan (generativ til modellari, avtomatik tarjima tizimlari va intellektual ta’lim platformalari kabi) foydalanish o‘qitish samaradorligini oshirish uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi [6].

Biroq, afzalliklar bilan bir qatorda bir qator xavf-xatarlar ham yuzaga keladi: talabalar mustaqillik darajasining pasayishi, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarining yo‘qolishi ehtimoli, shuningdek, akademik halollik muammolari [7]. Bu mazkur hodisani kompleks tahlil qilish zaruriyatini taqozo etadi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanilgan: ta’limni raqamlashtirish va SI (sun’iy intellekt)ni qo‘llash muammosi bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlili; an’anaviy va innovatsion o‘qitish metodlarining qiyosiy-solishtirma tahlili; neyroset vositalaridan foydalanish bo‘yicha pedagogik tajribalarni umumlashtirish; pedagogik prognozlash metodi.

Tadqiqotning nazariy asosini lingvodidaktika, raqamli pedagogika va sun’iy intellekt sohasidagi ilmiy ishlar tashkil etdi [2; 3; 8].

Natijalar. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, neyroset texnologiyalarining lingvodidaktikaga integratsiyalashuvi bir qator o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladigan sezilarli didaktik salohiyatga ega. Eng avvalo, o‘qitishni shaxsiylashtirish imkoniyati muhim afzallik hisoblanadi. Neyrosetlardan foydalanish ta’lim jarayonining mazmuni va sur’atini ta’lim oluvchilarning individual xususiyatlari, jumladan, tilni bilish darajasi, kognitiv uslubi va o‘quv afzalliklarini hisobga olgan holda moslashtirish imkonini beradi. Bu, o‘z navbatida, motivatsiya, jalb qilinganlik va o‘quv materialini o‘zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [8].

Teskari aloqaning avtomatlashtirilishi muhim jihat hisoblanadi. Neyroset tizimlari ta’lim oluvchilarning ham yozma, ham og‘zaki nutqini tezkor tahlil qilishga, leksik-grammatik va uslubiy xatolarni aniqlashga, shuningdek, ularni tuzatishning to‘g‘ri variantlarini taklif qilishga qodir. Bunday tezkorlik o‘quv jarayonining sifatini, ayniqsa, grammatik va yozma kompetensiyalarni shakllantirish jihatlarida sezilarli darajada oshiradi [6].

Bundan tashqari, neyrosetlarni qo‘llash kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Chat-botlar va generativ til modellaridan foydalanish real muloqotga yaqinlashtirilgan turli nutqiy vaziyatlarni modellashtirish imkonini beradi. Bu dialogik va monologik nutqni mashq qilish uchun sharoit yaratadi, bu esa ta’lim oluvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning asosiy komponenti hisoblanadi [9].

Ta’lim jarayonini tashkil etishda o‘qituvchini qo‘llab-quvvatlash ham xuddi shunday muhim ahamiyatga ega. Neyrosetlardan o‘quv materiallarini yaratish, test topshiriqlarini ishlab chiqish, ishlarni avtomatlashtirilgan tarzda tekshirish, shuningdek, turli qiyinchilik darajasidagi mashqlarni generatsiya qilish (yaratish) uchun samarali foydalanish mumkin. Bu pedagogik faoliyatni optimallashtirish va o‘qituvchining e’tiborini o‘qitishni metodik jihatdan ta’minlashga qaratish imkonini beradi [7].

Shu bilan birga, neyroset texnologiyalaridan foydalanish bir qator jiddiy xavf-xatarlar va cheklovlar bilan bog‘liqligi aniqlandi. Eng ahamiyatlilaridan biri ta’lim oluvchilarda kognitiv qaramlikning shakllanishidir. Sun’iy intellektdan haddan tashqari ko‘p foydalanish mustaqillik darajasining pasayishiga, shuningdek, axborotni mustaqil izlash va qayta ishlash ko‘nikmalarining zaiflashishiga olib kelishi mumkin [7].

Shuningdek, tanqidiy fikrlash darajasining pasayishi tendensiyasi ham qayd etilmoqda. Neyrosetlar tayyor yechimlarni taqdim etganligi sababli, ta’lim oluvchilar olinayotgan axborotni chuqur tahlil qilish va anglash qobiliyatini yo‘qotishi mumkin, bu esa ularning tahliliy ko‘nikmalari rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [3].

Akademik halollik masalasi jiddiy muammo bo‘lib qolmoqda. O‘quv topshiriqlarini bajarishda neyrosetlardan foydalanish ta’lim oluvchilar bilmini obyektiv baholashni qiyinlashtiradi, chunki ularning ishni bajarishdagi mustaqil ishtiroki darajasini aniqlash murakkablashadi [10].

Nihoyat, neyroset tizimlarining cheklanganligi va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatolarini ham hisobga olish zarur. Texnologiyalarning yuqori rivojlanish darajasiga qaramay, sun’iy intellekt noaniq, noto‘g‘ri yoki kontekstga mos kelmaydigan javoblarni generatsiya qilishi (yaratishi) mumkin, bu esa ham o‘qituvchi, ham ta’lim oluvchilar tomonidan majburiy pedagogik nazorat va tanqidiy baholashni talab qiladi [8].

Shunday qilib, olingan natijalar neyrosetlarning chet tillarini o‘qitish jarayoniga ta’siri ikkiyoqlama xarakterga ega ekanligidan dalolat beradi: bir tomondan, ular didaktik imkoniyatlarni kengaytirsa, ikkinchi tomondan, ulardan foydalanishni pedagogik jihatdan tartibga solish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Muhokama. Neyroset texnologiyalarining lingvodidaktikaga integratsiyalashuvi tizimli va metodik jihatdan asoslangan yondashuv asosida amalga oshirilishi lozim. Olingan natijalar shundan dalolat beradiki, ularni qo‘llash samaradorligi texnologiyalardan foydalanish faktining o‘zi bilan emas, balki ularning ta’lim jarayoniga jalb etilish xarakteri bilan belgilanadi. Shu munosabat bilan, neyrosetlarni an’anaviy o‘qitishning muqobili yoki o‘qituvchining o‘rnini bosuvchi vosita sifatida emas, balki uning professional va didaktik imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida qarash maqsadga muvofiqdir [4].

Aniqlangan afzalliklar va xavf-xatarlar tahlili shuni ta’kidlashga imkon beradiki, neyrosetlarni qo‘llashning pedagogik natijadorligiga bir qator asosiy shartlarga rioya qilingandagina erishiladi. Eng avvalo, chet tillarini o‘qitishda sun’iy intellektdan foydalanish shakllari, maqsadlari va chegaralarini tartibga soluvchi ilmiy asoslangan metodik tavsiyalarni ishlab chiqish zarur. Aniq metodik mo‘ljallarning (ko‘rsatmalarning) mavjud emasligi texnologiyalardan parcha-parcha va samarasiz foydalanishga olib kelishi mumkin.

Muhim shartlardan biri ham o‘qituvchilar, ham ta’lim oluvchilarning raqamli savodxonligini shakllantirishdir. Bu o‘rinda gap faqat neyrosetlar bilan ishlashning texnik ko‘nikmalari haqida emas, balki ular tomonidan generatsiya qilinadigan kontentni tanqidiy baholash, xatolarni aniqlash va olingan axborotni to‘g‘ri talqin qilish qobiliyatini rivojlantirish haqida bormoqda. Mazkur kontekstda raqamli savodxonlik kasbiy va o‘quv kompetensiyasining muhim komponenti bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’lim jarayoniga tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlarni kiritish alohida ahamiyatga ega. Neyrosetlardan foydalanish ta’lim oluvchilarning taklif etilgan yechimlarning ishonchliligi, aniqligi va o‘rinli ekanligini baholashga qaratilgan tahliliy faoliyati bilan birga kechishi lozim. Bunday yondashuv axborotni passiv o‘zlashtirish xavfini bartaraf etish imkonini beradi va metakognitiv ko‘nikmalarning shakllanishiga yordam beradi.

Bundan tashqari, sun’iy intellektdan dominatlik qiluvchi emas, balki yordamchi ta’lim vositasi sifatida foydalanish prinsipial jihatdan muhimdir. Texnologiyalarga haddan tashqari qaram bo‘lib qolish ta’lim oluvchilar mustaqillik darajasining pasayishiga va ularning kognitiv faolligining zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Shu munosabat bilan, an’anaviy va raqamli o‘qitish metodlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash zarur.

Nazariy va amaliy jihatdan "pedagogik jihatdan boshqariladigan sun’iy intellekt" konsepsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu konsepsiya doirasida o‘qituvchi neyrosetlardan foydalangan holda olingan natijalarni saralash, nazorat qilish va talqin qilishni amalga oshirib, ta’lim jarayonini tashkil etish va tartibga solishda yetakchi rolni saqlab qoladi. Bunday yondashuv nafaqat o‘qitish samaradorligini oshirishni, balki texnologiyalardan nazoratsiz foydalanish bilan bog‘liq potensial xavf-xatarlarni minimallashtirishni ham ta’minlaydi.

Shunday qilib, natijalar muhokamasi neyroset texnologiyalarini lingvodidaktikaga pedagogik maqsadga muvofiqlik, metodik asoslanganlik va boshqariluvchanlik prinsiplari asosida integratsiya qilish zarurligi haqida xulosa

chiqarishga imkon beradi, bu esa barqaror ta’limiy samoraga erishishni ta’minlaydi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, neyroset texnologiyalarining lingvodidaktikaga integratsiyalashuvi ta’limni raqamlashtirish va texnologiyalashtirish jarayonlari bilan asoslangan zamonaviy ta’lim paradigmasi rivojlanishining qonuniy bosqichidir. Chet tillarini o‘qitishda sun’iy intellektdan foydalanish o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish, teskari aloqaning tezkorligi va sifatini oshirish, shuningdek, ta’lim oluvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish uchun sharoitlarni kengaytirish kabi sezilarli didaktik imkoniyatlarni ochib berishi aniqlandi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari neyrosetlarning ta’lim amaliyotiga joriy etilishiga hamroh bo‘luvchi kompleks xavf-xatarlar mavjudligini tasdiqlaydi. Eng muhimlari qatoriga o‘quv mustaqilligi darajasining pasayishi, tanqidiy fikrlashning zaiflashishi, shuningdek, akademik halollikni ta’minlash bilan bog‘liq muammolar kiradi. Bundan tashqari, generatsiya qilinadigan kontentning ehtimoliy xatolari va noaniqliklari bilan bog‘liq cheklovlarni hisobga olish zaruriyati aniqlandi.

Shu munosabat bilan, neyroset texnologiyalaridan pedagogik jihatdan asoslangan va nazorat qilinadigan tarzda foydalanishni ta’minlash prinsipial ahamiyat kasb etadi. Ularning integratsiyalashuvi samaradorligi an’anaviy va raqamli o‘qitish metodlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash, shuningdek, ta’lim jarayonini tashkil etishda o‘qituvchining yetakchi rolini saqlab qolish bilan belgilanadi.

Shunday qilib, optimal ta’limiy samoraga erishish sun’iy intellektni qo‘llashni metodik jihatdan tartibga solishni, ta’lim oluvchilar va o‘qituvchilarning raqamli hamda tanqidiy savodxonligini rivojlantirishni, shuningdek, chet tillarini o‘qitishda neyroset vositalaridan anglangan va mas’uliyatli foydalanishga qaratilgan amaliyotlarni joriy etishni nazarda tutuvchi kompleks yondashuv shartidagina g‘oyatda mumkindir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bim I. L. Teoriya i praktika obucheniya inostrannim yazikam. — M.: Prosveshenie, 2009. — 256 s.

2. Verbitskiy A. A. Aktivnoe obuchenie v visshey shkole: kontekstniy podxod. — M.: Visshaya shkola, 1991. — 207 s.

3. Zimnyaya I. A. Pedagogicheskaya psixologiya. — M.: Logos, 2004. — 384 s.

4. Safonova V. V. Sotsiokulturniy podxod k obucheniyu inostrannim yazikam. — M.: Evroshkola, 1996. — 240 s.

5. Brown H. D. Principles of Language Learning and Teaching. — New York: Pearson Education, 2007. — 410 p.

6. Chapelle C. A. Computer Applications in Second Language Acquisition. — Cambridge: Cambridge University Press, 2001. — 222 p.

7. Luckin R. Machine Learning and Human Intelligence. — London: UCL Institute of Education Press, 2018. — 256 p.

8. Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education. — Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019. — 312 p.

9. Godwin-Jones R. Emerging technologies: AI and language learning // Language Learning & Technology. — 2020. — Vol. 24(3). — P. 5–15.

10. OECD. Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities. — Paris: OECD Publishing, 2021. — 150 p.

XORAZM SHEVALARIDA FE’LLARNING O‘RGANILISHI

Karimova Dilfuza Yuldashbay qizi,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti o‘qituvchisi

UO‘K 811.512.133

Annotatsiya. *Ushbu maqolada fe’l so‘z turkumi va uning ahamiyati, Xorazm shevalarida fe’llarning o‘rganilishi, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, Xorazm shevalaridagi fe’llarning adabiy tildagi fe’l shakllaridan farqli jihatlari, tilshunos olimlarning Xorazm shevalari va ulardagi fe’l shakllari yuzasidan olib borgan tadqiqotlari o‘rganiladi. Xorazm shevalaridagi fe’llar bo‘yicha olimlarning ishlari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Fe’l so‘z turkumi, qipchoq, o‘g‘uz lahjalari, shevalar lug‘ati, fe’l formalari, dialektologiya, shevashunoslik.*

Аннотация. *В данной статье исследуются глагол как часть речи и его значение, изучение глаголов в хорезмских диалектах, их специфические особенности, отличия глагольных форм в хорезмских диалектах от глагольных форм в литературном языке, а также исследования ученых-лингвистов, посвященные хорезмским диалектам и их глагольным формам. Анализируются труды ученых по изучению глаголов в хорезмских диалектах.*

Ключевые слова: *Глагол, кыпчакский диалект, огузский диалект, словарь диалектов, глагольные формы, диалектология, диалектоведение.*

Abstract. *This article explores the verb as a part of speech and its significance, the study of verbs in Khorezm dialects, their specific features, the differences between verb forms in Khorezm dialects and those in the literary language, as well as the research conducted by linguists on Khorezm dialects and their verb forms. The works of scholars on verbs in Khorezm dialects are analyzed.*

Keywords: *Verb, Kipchak dialect, Oghuz dialect, dialect dictionary, verb forms, dialectology, dialect studies.*

O‘zbek xalq shevalari orasida Xorazm shevalari o‘zining boy lisoniy imkoniyatlari, o‘g‘uz va qipchoq qatlamlarining sintezlashgan tabiati hamda

o‘ziga xos grammatik xususiyatlarni saqlab qolganligi bilan ajralib turadi. Bu shevalarning grammatik qurilishi, xususan, nutqning harakat dinamikasini belgilovchi fe’l kategoriyasi uzoq davrlar mobaynida o‘zbek va xorijiy dialektologlarning diqqat markazida bo‘lib keldi. XX asrning ilk choragida turkiy tillar tabiati, xususan, ularning dialektal bo‘linish mezonlarini aniqlashga bo‘lgan qiziqish kuchaydi. Bu o‘rinda Xorazm mintaqasi o‘zining murakkab etnolingvistik tuzilishi tufayli yirik sharqshunoslarning e’tiborini tortdi. Voha hududidagi fe’l asoslari va ularning turkman hamda boshqa o‘g‘uz tillari bilan aloqadorligini dastlab A.N. Samoylovich o‘zining turkiy tillar tasnifiga oid kuzatishlarida eslatib o‘tadi [7:22]. Shuningdek, E.D. Polivanov ham o‘zbek tili lahjalarini tahlil qilar ekan, Xorazmning janubiy qismidagi o‘g‘uz qatlamining fe’l tuslanish tizimidagi o‘ziga xos arxaizmlarni alohida qayd etgan. Biroq ushbu davr tadqiqotlarida fe’l turkumi maxsus va yaxlit tizim sifatida emas, balki umumiy fonetik-morfologik xususiyatlarni tasvirlash jarayonida yuzaki tarzda tilga olingan, xolos. Xorazm dialektologiyasini tizimli fan darajasiga ko‘targan fundamental tadqiqot, shubhasiz, professor Fattoh Abdullayev nomi bilan bog‘liq. Olimning “Xorazm shevalari” deb nomlangan ko‘p jildlik monumental asari voha lisoniy qurilishini, xususan, fe’l morfologiyasini tahlil qilishda yangi davrni boshlab berdi [3:115]. F. Abdullayev Xorazm hududini ikki yirik lisoniy qutbga – shimoliy (qipchoq) va janubiy (o‘g‘uz) guruhlarga ajratgan holda, fe’l paradigmalarini qiyosiy o‘rgandi. Olim janubiy guruh (Xiva, Shovot, Xonqa va b.) nutqida adabiy tildagi *-yap* hozirgi zamon affiksi o‘rnida o‘g‘uz tillariga xos bo‘lgan *-yatir* (masalan: *baryatir*) ko‘rsatkichining barqarorligini morfologik qonuniyat sifatida isbotladi. Shuningdek, kelasi zamon ma’nosini ifodalovchi *-jak / -joq* (masalan: *yozjakman*) affiksining funksional faolligi uning tadqiqotlarida batafsil yoritib berildi [3:140]. Shuningdek, Fattoh Abdullayevning “O‘zbek tilining Xorazm shevalari” lug‘atida fe’llar tahliliga alohida o‘rin ajratilgan[3:159]. Ushbu tadqiqot ishi o‘zbek dialektologiyasi uchun juda muhim ahamiyatga ega. Unda fe’llar grammatik jihatdan tahlil qilingan. Har bir shakldagi o‘ziga xosliklar ko‘rsatib o‘tilgan.

Xorazmning shimoliy hududlarida (Gurlan, Shovotning ma’lum qismlari) istiqomat qiluvchi aholi nutqi o‘zining qipchoq qatlamiga mansubligi bilan ajralib turadi. Ushbu arealdagi fe’llarning lisoniy manzarasini o‘rganishda dialektolog olim A. Ishayevning xizmatlari katta. A. Ishayev o‘zbek tilining qipchoq lahjalarini qiyosiy o‘rganar ekan, Xorazmning shimoliy tumanlari nutqidagi hozirgi zamon fe’lining *-atir* (masalan: *boratir* – boryapti) yoki *-votir* (masalan:

aytvotir) kabi shakllarini tahlil qildi. Olim ushbu morfologik hodisalarni qo‘shni qoraqalpoq va qozoq tillari bilan bo‘lgan asriy lisoniy va etnik aloqalarning qonuniy natijasi sifatida baholaydi [5:92]. Ma’lumki, jonli til hodisalarining tarqalish chegaralari har doim ham ma’muriy-hududiy bo‘linishlar bilan mos kelavermaydi. A.Ishayev o‘zining “Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalari” nomli monografik tadqiqotida Orolbo‘yi hududidagi o‘zbek nutq variantlarini tizimli tahlilga tortdi. A. Ishayev tomonidan to‘plangan dialektal materiallar va asar tarkibidagi leksikografik manbalar Xorazm shevalari morfologiyasini chuqurroq anglashda muhim tayanch nuqtasi bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, muallif taqdim etgan maxsus lug‘at qismida bugungi kunda voha aholisi nutqida faolligini yo‘qotgan, iste’moldan chiqish arafasidagi yoki ma’noviy torayishga uchragan ba’zi fe’l shakllari keltirib o‘tilganki, bu o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyotini o‘rganishda qimmatli manba sanaladi. Shuningdek, Janubiy Qoraqalpog‘iston va u bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan Xorazm o‘g‘uz hamda qipchoq shevalarining leksik-grammatik qatlamlarini tadqiq etishda professor E. O‘rozovning xizmatlari beqiyos. Olim o‘zining tadqiqot ishlari bilan shevashunoslik sohasini yangi nazariy xulosalar bilan boyitdi. E. O‘rozov hududiy lug‘aviy qatlamlarni yoritishga alohida e’tibor qaratib, o‘z tadqiqotining asosiy qismiga o‘ziga xos lug‘aviy birlik va barqaror birikmalarni kiritdi [8:79]. Ushbu salmoqli lug‘aviy material Xorazm shevalaridagi fe’llarni o‘rganishda ham muhim manba vazifasini o‘taydi. Bundan tashqari, Xorazm shevalarining o‘g‘uz lahjasiga xos xususiyatlarni atroflicha tahlil qilgan olimlardan biri O.Madrahimovdir. Uning tadqiqotlari, asosan, o‘g‘uz lahjasiga xos so‘zlar leksikasi doirasida amalga oshirilgan. Olimning “O‘zbek tili o‘g‘uz lahjasining Xiva shevasi” tadqiqotida fonetik va grammatik xususiyatlarga ham o‘rin ajratilgan. Shuningdek, tadqiqotda Xiva shevasidagi ba’zi fe’llar tahlili ham qisman uchraydi. Xorazm guruhi shevalarida fe’l turkumining lisoniy tabiati va uning ko‘rinishlarini o‘rganishda tilshunos olim Y. Jumanazarovning tadqiqotlari alohida qiymatga ega. Olim o‘z izlanishlarida voha o‘g‘uz shevalaridagi fe’l mayllari va zamon kategoriyalarining barqaror affiksal ko‘rsatkichlarini jonli nutq materiallari asosida tizimlashtirgan. Ayniqsa, buyruq-istak va kelasi zamon fe’llarining hududiy-fonetik variantlanishi hamda ularning qadimgi turkiy qatlam bilan dialektal vorisiyligi Y. Jumanazarov ishlarida ilmiy asoslab berilgan. Olim Y.Jumanazarov “Hazorasp shevasining morfologik xususiyatlari” tadqiqotida mazkur shevadagi fe’llar va ularning zamon shakllariga e’tibor qaratadi.

Xorazm shevalari lisoniy qurilishini, uning hududiy leksika, etnogenez va o‘ziga xos onomastik tizim bilan aloqalarini tadqiq etishda professor Zarifboy Do‘simov hamda u kishining ilmiy maktabi vakillari tomonidan olib borilgan izlanishlar alohida o‘rin tutadi. Z. Do‘simov tadqiqotlarida voha shevalari va jonli xalq dialektlari hududiy joy nomlari (toponimlar) hamda etnonimlarning shakllanishidagi birlamchi lisoniy omil sifatida baholangan. Ustoz olim boshlab bergan ushbu an’anani muvaffaqiyatli davom ettirgan shogirdlari tomonidan Xorazm o‘g‘uz va qipchoq lahjalarining o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlari, kasb-hunar, hunarmandchilik va dehqonchilik leksikasining hududiy-semantik xususiyatlari atroflicha o‘rganildi. Z. Do‘simov va uning shogirdlari taqdim etgan ilmiy xulosalar Xorazm guruhi shevalarining tarixiy taraqqiyotini hamda areal tilshunoslik muammolarini yoritishda fundamental manba bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, ular tomonidan yaratilgan “Xorazm shevalari lug‘ati” juda muhim ahamiyatga ega. Ushbu lug‘atda Xorazm shevalaridagi fe’l so‘z turkumiga oid so‘zlarning ham ma’no jihatlari yoritib berilgan. Shuningdek, Xorazm shevalari bo‘yicha Sh.Alimova tadqiqotlarida ham fe’llar tahlilini kuzatishimiz mumkin [1:159]. Jumladan, “Xorazm qipchoq shevalarining leksik-grammatik xususiyatlari” tadqiqot ishida fe’llarga alohida o‘rin ajratilgan, ularning ma’no jihatlari tahlilga olingan.

Ko‘rinib turibdiki, Xorazm shevalarining morfologik xususiyatlarini, jumladan, fe’l so‘z turkumiga xos xususiyatlarni o‘rganish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi bosqichda Xorazm shevalaridagi fe’l asoslari va affikslari har tomonlama tahlil qilinib, ularning qadimgi turkiy til obidalari tili bilan vorisiylik aloqalari lingvistik nuqtayi nazardan tekshirilmoqda. Shuningdek, fe’llar xususiyatlarini boshqa turkiy tillar bilan bog‘lab o‘rganish ham muhim o‘ringa chiqmoqda. Bularning barchasi Xorazm shevalaridagi fe’llar tadqiqining amalga oshirilishida katta o‘rin tutadi. Hozirgi kunda globallashuv va ommaviy axborot vositalari ta’sirida Xorazm shevasidagi ayrim o‘ziga xos fe’l shakllari keksalar nutqida saqlanib qolmoqda. Bu esa hududiy ekspeditsiyalar davomida jonli nutq variantlarini tezkorlik bilan yozib olish va ularni ilmiy muomalaga kiritish naqadar muhimligini ko‘rsatadi. Bularning barchasi Xorazm shevalaridagi fe’llarni har tomonlama o‘rganishni dolzarb masalaga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

7. Alimova Sh.M. Xorazm qipchoq shevalarining leksik-grammatik xususiyatlari. Filol.fan.bo‘y.fal.dok…(PhD) diss. – Urganch, 2023. – B.159.

8. Norboyeva Sh., Sadullayeva N., Atabayeva M. Xorazm shevalari lug‘ati. 1-jild. – Urganch: Xorazm, 2024.

9. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. I том. – Тошкент: Фан, 1961.

10. Джуманазаров Ю. Ҳазорасп шевасининг морфологик хусусиятлари. – 1976.

11. Ишаев А. Ўзбек тилининг қипчоқ шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1974.

12. Мадраҳимов О. Ўзбек тили ўғуз лаҳжаси лексикаси. – Тошкент, 1973.

13. Самойлович А.Н. Некоторые дополнения к классификации турецких языков. – Петроград, 1922.

14. Ўрозов Э. Жанубий Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1978.

QO‘ZI DAVLATNING “KO‘NGIL CHIROYI” DEVONIDAGI SIFATLASHLAR LINGVOPOETIKASI

Лингвопоэтика эпитеты в произведении Кози Давлата «Конгил чиройи»

Linguopoetics of epithets in Kozi Davlat's work “Kongil chiroyi”

Yuldashev Doniyor Taxirovich,
***Abu* Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori (DSc),**
doniyory696@gmail.com.,

Jumaniyazova Dildora Xudoyorovna,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
dildora030894 @gmail.com

UO‘K 811.512.133

Annotatsiya. *Ushbu maqolada badiiy nutqning ta’sirchanligi va jozibadorligini ta’minlovchi eng faol tasviriy-uslubiy vositalardan biri – sifatlash lisoniy-estetik hodisa sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, Qo‘zi Davlatning “Ko‘ngil chiroyi” devonidagi sifatlashlar tabiati va obrazlilik darajasiga ko‘ra, leksik-grammatik xususiyatiga ko‘ra, semantik-mavzuiy guruhlari hamda tarkibiy qurilishiga ko‘ra tasniflanib, ularning matndagi lingvopoetik va kognitiv-metaforik vazifalari ochib berilgan.*

Аннотация. *В данной статье анализируется одно из наиболее активных образно-стилистических средств, обеспечивающих выразительность и привлекательность художественной речи – эпитеты как лингвистический и эстетический феномен. Также эпитеты в произведении Кози Давлата «Конгил чиройи» классифицируются по их природе и уровню образности, лексико-грамматическим свойствам, семантико-тематическим группам и структурной структуре, а также раскрываются их лингвопоэтические и познавательно-метафорические функции в тексте.*

Abstract. *This article analyzes one of the most active figurative and stylistic devices that ensures the expressiveness and appeal of artistic speech – adjectives as a linguistic and aesthetic phenomenon. The adjectives in Kozi Davlat's "Kongil chiroyi" are also classified according to their nature and level of imagery, lexical and grammatical properties, semantic and thematic groups, and structural structure. Their*

linguapoetic and cognitive-metaphorical functions in the text are also explored.

Kalit so‘zlar: *badiiy matn, sifatlash, ekspressivlik, umumnutq sifatlashlar, badiiy sifatlashlar, dinamik holat, lingvopoetika, kognitiv-metaforik ko‘chim.*

Ключевые слова: *художественный текст, эпитет, экспрессивность, общеречевые эпитеты, индивидуально-авторские эпитеты, динамическое состояние, лингвопоэтика.*

Key words: *literary text, epithet, expressiveness, common speech epithets, individual-artistic epithets, dynamic state, linguopoetics.*

Kirish. Badiiy matnda – badiiy nutqda qo‘llaniladigan har qanday so‘z u yoki bu darajada tasviriylikni vujudga keltirishi shubhasizdir, chunki har qanday so‘z muayyan matn doirasida o‘ziga xos ma’no ifodalash, voqea-hodisalarning jozibali tasvirini yaratish imkoniyatiga ega. Biroq tilda shunchaki tasvirdan tashqari, obrazlilikni maxsus vujudga keltiruvchi, fikrni jozibador ifodalash asosida nutqning badiiy ta’sirchanligini kuchaytiruvchi alohida vositalar ham mavjudki, ulardan biri *sifatlash* (epitet)dir. *Sifatlash* – ko‘chimlar – tropning eng qadimiy va faol turlaridan biri bo‘lib, u narsa va hodisalarning o‘ziga xos xarakterli belgisini, sifatini alohida bo‘rttirib, estetik jihatdan ta’riflab keluvchi tasviriy-uslubiy vositadir. Sifatlash o‘z mohiyatiga ko‘ra, an’anaviy aniqlovchilarga yaqin bo‘ladi, lekin ulardan o‘zining kuchli emotsional-ekspressivligi, yuqori obrazlilik darajasi va badiiy nutqqa xoslanganligi bilan tubdan farq qiladi.

Yevropa tillari stilistikasiga oid ilmiy manbalarning aksariyatida ushbu tasvir vositasiga quyidagicha ta’rif beriladi: “Sifatlash tropning bir turi bo‘lib, unga badiiy obrazlilikni ta’minlovchi tasviriy vosita sifatida qaralgan [5, 3, 4]”. Rus tilshunosligida M.Kojina ham epitet tabiatini estetik vazifa bilan bog‘lab, uni narsa-hodisani obrazli ifodalovchi, ko‘proq badiiy nutqda qo‘llanilib, estetik vazifa bajaruvchi so‘z sifatida talqin etadi [6, 97].

O‘zbek tilshunosligida sifatlash va aniqlovchilarning o‘zaro munosabati, ularning semantik-uslubiy chegaralari uzoq vaqtdan beri tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Xususan, M.Mukarramov sifatlash va aniqlovchilarning ma’no hamda grammatik jihatdan bir-biridan farqlanuvchi

beshta asosiy xususiyatini ko‘rsatib o‘tgan [7, 15-16]. Adabiyotshunoslik va tilshunoslik kesishmasida olib borilgan tadqiqotlarda ushbu hodisaga turlicha yondashilganini ko‘rish mumkin. Jumladan, tadqiqotchi A.T.Rubaylo sifatlashni ko‘chimlarning metafora va metonimiya turlariga yaqin ekanligini ta’kidlab, uni “badiiy aniqlovchi [8, 46]” deb atagan bo‘lsa, R.Qo‘ng‘urov sifatlashning doimiy aniqlovchilardan farqli ravishda ko‘chma ma’noda ishlatilishi va ekspressivlik tabiatiga egaligini asoslab, unga “poetik aniqlovchi [10, 27]” deya ta’rif beradi. Umuman, sifatlash adabiyotshunoslik, uslubiyat, poetika va lingvopoetika yo‘nalishlarida keng o‘rganilgan. Jahon tilshunosligida epitetning tabiati, vazifasi va tasnifi qadimgi davrlardan boshlab tadqiq etilgan bo‘lsa, o‘zbek tilshunosligida bu masala, asosan, badiiy til, uslubiyat va poetik sintaksis doirasida tahlilga tortilgan. Bu ko‘chim haqidagi dastlabki ilmiy qarashlar o‘zbek adabiy tili va badiiy nutq masalalariga bag‘ishlangan ishlarda uchraydi. Jumladan, A.Fitrat o‘zining adabiyot nazariyasiga oid qarashlarida badiiy tasvir vositalarining, jumladan, sifatlashlarning estetik ahamiyatini ta’kidlagan [1. 109-112]. Uning asarlarida epitet obraz yaratish vositasi sifatida talqin etiladi.

Metodologiya. Keyingi davrda “O‘zbek tili stilistikasi” hamda “O‘zbek tili badiiy uslubiyati” kabi qo‘llanmalarda sifatlashning: a) emotsional-ekspressiv vazifasi; b) obraz yaratishdagi o‘rni; d) xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyotdagi qo‘llanishi kabi jihatlari atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy antroposentrik va lingvopoetik tadqiqotlar kontekstida *sifatlash* nutqning tashqi bezagi yoki oddiy uslubiy figura bo‘lishi bilan birga, ijodkorning olamni lisoniy anglash va kontseptuallashtirish mahoratini, uning individual uslubini ko‘rsatuvchi muhim lisoniy-kognitiv hodisa sifatida qayta baholanmoqda.

Ushbu maqolada sifatlashlarning badiiy matn qurilishidagi o‘rni, ularning ifodalanish tabiati hamda umumnutq va badiiy sifatlashlarning tasviriylikni ta’minlashdagi pragmatik xususiyatlari Qo‘zi Davlatning “Ko‘ngil chiroyi” devonida istifoda qilingan empirik material asosida tahlilga tortildi. Bu jarayonda lingvistik tadqiqot metodlaridan qiyosiy, tavsiflash, asosan, tasviriy metoddan foydalanilgan. R.Rasulovning fikricha, tasviriy metodning asosiy vazifasi shundaki, “u muayyan sinxron aspektga tegishli lisoniy birliklarni, hodisalarni tasvirlash, tavsiflash jarayonida ularni tahlil qilib boradi, tildagi vazifasini, o‘rnini, qo‘llanishini, tuzilishini, o‘ziga xosliklarini aniqlaydi, umumlashtiradi, xulosalar chiqaradi [2, 257]”.

Muhokama va natijalar. O‘zbek lingvopoetikasida sifatlashlar ko‘pincha Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Oybek, Erkin Vohidov va Abdulla Oripov

asarlari misolida tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlarda sifatlashlarning milliy tafakkur, madaniy qadriyatlar va muallif uslubini aks ettirishdagi o‘rni ko‘rsatib berilgan. So‘nggi yillarda lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslik yo‘nalishlarida epitetlar milliy-madaniy konseptlarning ifodalanish vositasi sifatida ham o‘rganilmoqda. Bunday yondashuv sifatlashni faqat badiiy bezak emas, balki xalqning dunyoqarashi va mentalitetini aks ettiruvchi til birligi sifatida talqin qilish imkonini bermoqda.

Badiiy matnlar, xususan, shoirning “Ko‘ngil chiroyi” to‘plami asosida sifatlashlarining xarakteri hamda ifodalanish usullari quyidagi grammatik va semantik guruhlar ostida tadqiq etiladi:

I. Sifatlashlarning tabiati va obrazlilik darajasiga ko‘ra. Badiiy nutqda qo‘llanilgan epitetlar ekspressivlik darajasi hamda estetik yukiga ko‘ra an’anaviy (umumnutqiy) va individual-badiiy turlarga ajratiladi:

1. Umumnutq sifatlashlari – bunday sifatlashlarda individual-mualliflikka xos xususiyat, favqulodda kashf etilgan obrazlilik va emotsionallik darajasi yuqori bo‘lmaydi. Ularda narsa-hodisalarning barcha til egalariga avvaldan ma’lum bo‘lgan an’anaviy qoliplardagi tabiati, xalq og‘zaki ijodi yoki mumtoz poetik tafakkurda barqarorlashgan, stereotiplashgan belgilari aks etadi. Masalan, Q.Davlatning *bevafo* yor: G‘am ila hasratda kuydim *bevafo yor* ishqida, Hajrida ko‘zlar mudom yoshlidur, abgor ishqida… (9, 23) Mumtoz she’riyat an’analariga xos bo‘lgan lirik qahramon va ma’shuqa munosabatidagi stereotipik munosabat *bevafo* epiteti orqali ko‘rsatilgan. Bu lisoniy xotirada barqarorlashgan klishelangan birikmadir. Yoki *sumbul* soch: Ul pari zulfi parishon o‘lturur suv oldida, *Sochi sunbul*in taraydur go‘yo ko‘zgu oldida… (9, 9) Sharq she’riyati estetikasida ma’shuqa sochini ifodalashda qo‘llaniluvchi an’anaviy uslubiy vosita bo‘lib, o‘simlik – *sumbul* va inson tanasi a’zosi – *soch* o‘rtasidagi doimiy assotsiativ aloqadorlikka tayanadi. Yoki *alif* qad: Nigoro, bevafolikdin *alif qad*dimni dol aylab, Sarvdek siyrating zinhor raqibimga ravo qilma… (9, 33) Bu o‘rinda lirik qahramonning jismoniy holatini lisoniy ifodalashda arab alifbosi harflari (*alif* – to‘g‘rilik, *dol* – egilganlik ramzi) bilan qiyoslanuvchi, she’riy turg‘unlik kasb etgan an’anaviy sifatlash turi hisoblanadi.

2. Individual-badiiy sifatlashlar – bunday epitetlar ijodkor badiiy tafakkurining bevosita mahsuli bo‘lib, individual so‘z qo‘llash va yangi semantik aloqalar yaratish namunasidir. Ular ifodadagi favquloddalik, kutilmagan yangilik va emotsional-ekspressivlikni keskin kuchaytirib, narsa-hodisani kitobxon

xayolida yangicha, ekspressiv va ta’sirchan obrazlar shaklida gavdalantiradi. Ko‘pincha ma’no kognitiv-metaforik ko‘chishlar yoki kutilmagan o‘xshatish-sifatlashlar asosida quriladi. Masalan, Q.Davlatning “Garchi toshdin bo‘lsa ham dillarni yumshatgay qo‘shiq, Sevgi toridin taralgan *totli kuy*ingdin sening...” (9, 63) misralaridagi “*totli* kuy” birikmada sinesteziya hodisasi kuzatiladi. Ta’m bilish a’zolariga xos bo‘lgan *totli* belgisi eshitish va idrok etish obyekti bo‘lgan *kuy* tushunchasiga ko‘chirilishi natijasida metaforik asosdagi yangi badiiy sifatlash vujudga kelgan. Yoki “Ey suzik, mastona ko‘zlar, ko‘zlarim zor etmangiz, Qilmayin *totli tabassum*, jong‘a ozor etmangiz…” (9, 72) satrlarda qo‘llanilgan “*totli* tabassum” birikuvida ham shu holatga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Ya’ni tabassumning vizual va hissiy ta’sirini ta’m konnotatsiyasiga ega bo‘lgan *totli* leksemasi orqali individuallashtirish, nutqning jozibadorligini va estetik vazifasini ta’minlagan.

II. Sifatlashlarning grammatik-semantik va leksik vositalarga ko‘ra. Badiiy matn tarkibida sifatlashlar o‘zlarining leksik-grammatik tabiati va ifodalayotgan munosabat turiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi:

1. Predmet, narsa va hodisaning turg‘un belgisini bildiruvchi so‘zlar yordamida hosil bo‘lgan sifatlashlar:

Bir *pari* ko‘rdim *ajoyib* men Amu qirg‘og‘ida,

Ong‘a teng paykar topilmas hatto jannat bog‘ida… (9, 6) Bu o‘rinda ma’shuqaning substansial tabiati bo‘lgan *pari* leksemasining estetik va ekspressiv darajasini oshirish uchun *ajoyib* sifati keltirilgan bo‘lib, u predmetning umumiy turg‘un belgisini baholash xarakteriga ega.

Ko‘rdimu *mahzun ko‘ngil*da chaqnadi rahshoni nur,

Kirdi boshimga shirin o‘y shu’lai chirog‘ida… (9, 6) misralarida *ko‘ngil* substansiyasining ichki mohiyatidagi turg‘un psixologik holat va doimiy sifat *mahzun* leksemasi orqali individual uslubda aniqlashtirilgan.

Tarab jumla jahona sehrini sayroqi toringdin,

Ezib ruhi ravonim, o‘zga bazmida navo qilma… (9, 33) satrlarida musiqa asbobi (*tor*) obyektining unga xos bo‘lmagan jonli tabiat belgisi (*sayroqi*) bilan sifatlanishi personifikatsiya (jonlantirish) asosidagi epitetni yuzaga keltirgan.

2. Predmet, narsa va hodisaning dinamik holati hamda jarayonini ifodalaydigan so‘zlar vositasida hosil bo‘lgan sifatlashlar. Masalan:

Ne balo jon ofati *o‘ynoqi* javhar *ko‘zlar*i,

Shamshiri mujgonidin qon misli ko‘z yoshim mening… (9, 57) Ushbu satrlarda inson tanasi a’zosining statik ko‘rinishi emas, balki uning

harakatchanlik, sho‘xlik va joziba tarqatish dinamikasi *o‘ynoqi* sifati vositasida harakatdagi holat sifatida ta’riflangan.

Ocharkan ko‘zlarin kurtak, u bedog‘ novdalardan sen,

Sochingga chambarak bog‘lab, *yoniq ishq*i shiorim, kel… (9, 118) Shoir bu satrlarda ruhiy tuyg‘u va kechinmaning (*ishq*) intensivlik, doimiy harakat va emotsional rivojlanish jarayoni *yoniq* (yonayotgan, otashin) holat ifodasi orqali vizuallashtirilgan.

Ohkim yetdi, chiqarg‘a jon hajring anduhida kuyib,

Ki tanga berguchi hayot tomirning *qaynoq qon*i sen… (9, 154) satrlarida biologik hayotiylik va emotsional portlash holati fizikaviy harorat jarayonini bildiruvchi *qaynoq* leksemasi yordamida dinamik ko‘rinishga keltirilgan. Bu kabi sifatlashlarni Qo‘zi Davlatning ko‘plagan misralarida uchratish mumkin. Masalan, *issiq* mehr (9, 223), *tashna* qon (9, 55) kabilar.

III. Sifatlashlarning semantik-mavzuiy guruhlari:

1. Shaxslar tavsifi bilan bog‘liq sifatlashlar. Ushbu guruh inson (lirik qahramon, ma’shuqa, g‘anim) xarakterini, ruhiy holatini yoki uning tashqi antropologik-estetik qiyofasini shakllantirishga xizmat qiladi:

a) bevosita shaxsga yo‘naltirilgan sifatlashlar – bu kichik guruhdagi leksik birliklar insonning ijtimoiy-axloqiy, ruhiy-estetik mohiyatini va uning ichki qiyofasini yaxlit holda baholaydi. Masalan: “Siringni bilmasin, badxo‘ g‘animdan aylagil pinhon, *Chin oshiqlar* berar jonin muhabbat yo‘lida noza…” (9, 22) satrlaridagi “*chin* oshiqlar” birikuvidagi *chin* leksemasi bu o‘rinda shunchaki rostlikni emas, balki sadoqat, fidoiylik va tasavvufiy ishqiy matonat tushunchalarini o‘z ichiga olgan estetik modal ma’no yuklagan. Yoki “*Mard yigitlar* necha mard, chunki muhabbat jomida. Tutguvchi obihayot ham labda bol, barno sabab.” (9, 47) misralaridagi “*mard* yigitlar” birikuvida xalq epik tafakkuriga xos bo‘lgan an’anaviy ijobiy xarakter belgisi she’riy matnda mardlik va lirik jo‘shqinlikning o‘zaro sintezi orqali ifodalangan.

b) shaxsning tana a’zolariga yo‘naltirilgan sifatlashlar – inson tanasi a’zolari (somatizmlar) go‘zalligini, ularning poetik jozibasini oshirish uchun qo‘llaniladigan tasviriy vositalardir. Masalan:

“So‘rsangizki maqsadim, sohibjamol yor istaram,

*Xipcha bel*i bir tutam, oq siyna — tummor istaram…” (9, 140) satrlaridagi “*xipcha* bel” birikuvi Sharq mumtoz poetikasidagi “noziklik” va “go‘zallik” mezonlarining barqaror lisoniy qolipi bo‘lib, matnda metonimik xarakter kasb

etgan. Bunday holatni shoirning “*ko‘rkam* jamol // *yorqin* yuz” (9, 234), “*olov* yanog‘i” (9, 14) sifatlashli birikuvlarida ham kuzatishimiz mumkin.

2. Narsa-predmetlar tavsifi bilan bog‘liq sifatlashlar:

O‘tdi noz birla ko‘chamdin qaddi zebo o‘zgacha,

Tarqatib *anvoyi mushk*-anbar musaffo, o‘zgacha… (9, 8) Ushbu satrlardagi “mushk-anbar” ashyoviy tushunchasining hidi va qimmatbaho xususiyati *anvoyi* (turli-tuman, rang-barang) epiteti orqali ifodalanib, hid bilish sensorik obrazini shakllantirgan.

Oddiy sopol edi, yondi otashda, Labiga lab qo‘ymoq uchun payola... (9, 32) satrlaridagi *oddiy* aniqlovchisi predmetning dastlabki kamsitilgan, qadrsiz holatini ko‘rsatish orqali keyingi badiiy transformatsiyani (piyolaga aylanish – evrilishini) kontrast asosida bo‘rttirib beradi.

Tarab jumla jahona sehrini *sayroqi tor*ingdin,

Ezib ruhi ravonim, o‘zga bazmida navo qilma… (9, 33) misralarida musiqa asbobining funksional xususiyati (“tor chalish”) jonli tabiat elementi (*sayroqi*) yordamida metaforizatsiya qilingan va personifikatsiyalashgan badiiy epitetga aylangan.

3. Joy nomlari tavsifi bilan bog‘liq sifatlashlar – lirik makon, manzara, tabiat va hududiy tushunchalarni ekspressiv bo‘yoqdorlik bilan tasvirlashga xizmat qiladigan sifatlashlar guruhidir. Masalan:

Bu *sokin sohil*da Davlatyorda armon qolmag‘ay,

Sarv qaddin bir quchib, jon bersa vasli chog‘ida... (9, 6) Ushbu satrlarda makonning statik holati (*sokin*) lirik qahramonning ichki xotirjamlik va ruhan taskin topish psixologik holatiga parallel ravishda berilgan.

Ko‘rganim ilk bora gulzor esimda, Sho‘x oqar, *sharqiroq anhor* esimda… (9, 15) parchasida tovushga taqlid asosiga ega bo‘lgan *sharqiroq* so‘zi gidronimik obyektning dinamikasini va akustik manzarasini yorqin tasvirlaydi.

Keltirar har kun sabo *xushbo‘y chamanzor* totini,

Dilmudur dil ushbu totdan misli ra’no, yonmasa… (9, 34) satrlarida makonning biologik-estetik tabiati saboning harakati orqali hid bilish konnotatsiyasiga ega epitet bilan ta’riflangan.

IV. Sifatlashlarning tarkibiy tasnifi – ularning tarkibiy-sintaktik qurilishi, so‘zlar soni va morfologik shakllanish qoliplariga ko‘ra tasnifi sanaladi:

1. Sodda tarkibli sifatlashlar – faqatgina bitta so‘z (ko‘pincha tub yoki yasama sifatlar, sifatdoshlar) yordamida hosil qilingan, bitta leksik birlikdan iborat epitetlar. Masalan: *shirin* visol: [tub sifat + ot] qolipi (Agar qon to‘kmasa

yosh o‘rnig‘a, oshiqmidur oshiq, O‘lsa Davlatyor neki g‘am shu kun *shirin visol* o‘lsa... (9, 14); *notinch* yurak: [yasama sifat + ot] (Xayolimda oning yodi, mudom *notinch*, o‘rtar *yurak*, Kutsa, debki, o‘y-orzuim bir dasta gul quchog‘ida… (9, 23) kabilar.

2. Murakkab tarkibli sifatlashlar – ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zning semantik-sintaktik birikuvi, tobe bog‘lanishlar (izofa, bitishuv) yoki qo‘shma so‘zlar yordamida ifodalangan sintaktik butunliklar. Masalan: *zo‘r anvoyi* gullar: [sifat + sifat + ot] ko‘p komponentli qolipi (Garchi bulbul avji *zo‘r anvoyi gullar* shavqida, Lek emas ul to‘ti til gulshan aro sandin sara… (9, 7); *iqboli porloq* oyjamol: [ot + sifatdosh + qo‘shma ot] murakkab semantik-sintaktik qurilmasi (Qani *iqboli porloq* bir orazi *oyjamol* o‘lsa, Dahonda xol, nozik nihol va bo‘ylar barkamol o‘lsa… (9, 14); *bir so‘zli* insonlar: [son + yasama sifat + ot] tarkibiy qolipi (Haq yo‘lida qaytmagan gar kelsa boshig‘a qilich, Ko‘ngli oq, iymoni pok *bir so‘zli insonlar* o‘tar... (9, 211) kabilar.

3. Uyushiq tarkibli sifatlashlar – bitta aniqlanmishga (predmetga) teng huquqli bog‘lanib, o‘zaro teng bog‘lovchilar yoki ohang yordamida birikib keladigan, bir jinsli sifatlovchi komponentlar zanjiri. Masalan:

Ey *suzik, mastona ko‘zlar*, ko‘zlarim zor etmangiz,

Qilmayin totli tabassum, jong‘a ozor etmangiz… (9, 72) satrlaridagi “*suzuk, mastona* ko‘zlar”;

Gohi sokin, gohi bebosh pishqirib aylar shitob,

Gohi yuvosh, gohi qaysar Shohimardon *soylar*i… (9, 81) satrlaridagi “gohi *yuvosh*, goh *qaysar* soyalar”;

Gul ochar navro‘z tongi dillarni guldon qilg‘ali,

*Qalbi oq, iymoni pok inson*ni shodon qilg‘ali… (9, 98) misralaridagi “*qalbi pok, iymoni pok* inson” kabi birikuvlar tarkibidagi sifatlashlar uyushiq tarkibli sifatlashlarga yorqin misol bo‘la oladi. Ular sintaktik parallelizm asosida qurilgan, inson shaxsini har tomonlama (ichki hissiy va diniy-axloqiy) tavsiflovchi murakkab-uyushiq tarkibli mukammal epitet namunasidir.

Xulosa. Maqolada amalga oshirilgan lisoniy va lingvopoetik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, *sifatlash* (epitet) badiiy matn tizimida shunchaki gapning ikkinchi darajali bo‘lagi – aniqlovchi vazifasini bajaruvchi grammatik birlik bo‘lmay, balki asarning estetik-semantik mukammalligini, uning pragmatik va kognitiv asosi hamda konnotativ jozibasini ta’minlovchi eng muhim uslubiy vositalardan biridir. Qo‘zi Davlatning “Ko‘ngil chiroyi” devonidan olingan empirik

materiallar tahlili shoirning an’anaviy sharqona umumnutqiy sifatlashlardan o‘rinli foydalangan holda, sinesteziya va personifikatsiya hodisalariga asoslangan, voqelikning statik hamda dinamik manzarasini aks ettiruvchi o‘ziga xos individual-badiiy sifatlashlarni kashf etganligini ko‘rsatadi. Ijodkor tomonidan shaxs antropologiyasi, moddiy ashyolar olami va lirik makon (toponimik birliklar) tasviriga izchil tatbiq etilgan sodda, murakkab hamda sintaktik parallelizmga asoslangan uyushiq tarkibli sifatlashlar zanjiri matnning emotsional-ekspressiv ta’sir quvvatini oshirish bilan birga, muallifning olamni lisoniy anglash va konseptuallashtirishga yo‘naltirilgan o‘ziga xos individual uslubini, kognitiv-metaforik tafakkur ko‘lamini hamda lisoniy mahoratini to‘laqonli yuzaga chiqarishga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. Darslik va o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2009.

2. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 2010.

3. Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка.

4. Долинин К.А. Стилистика французского языка. – Л., 1978.

5. Ефимов А.И. Стилистика художественной речи. – М., 1961.

6. Кожина М.И. Стилистика русского языка. – Москва: Флинта, 2020.

7. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент, 1993.

8. Рубайло А.Т. Художественные средства языка. – Москва, 1961.

9. Қўзи Давлат. Кўнгил чиройи [Матн] Шеърлар. – Урганч: Огаҳий нашриёти, 2025.

10. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977.

NABI JALOLIDDINNING “CHO‘LPON” ROMANIDA TARIXIY SHAXSLAR PORTRETINING BADIIY TALQINI



Yuldashev Zafarbek Umarbek o‘g‘li,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: *zafarbekyuldashev077@gmail.com*
https://orcid.org/0009-0008-0339-2333

UO‘K 811.512.133

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Nabi Jaloliddinning “Cho‘lpon” romanida tarixiy shaxslar portretining badiiy talqini tadqiq etilgan. Asarda portret tasvirining qahramon xarakterini individuallashtirish, ularning ma’naviy-ruhiy olamini ochish hamda tarixiy voqelikni badiiy aks ettirishdagi o‘rni tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *tarixiy shaxs, portret, portret poetikasi, obraz, psixologik portret, xarakter, jadidlar, tarixiy-biografik roman.*

Аннотация. *В данной статье исследуется художественная интерпретация портретов исторических личностей в романе Наби Джалолиддина «Чулпан». Проанализирована роль портретного изображения в индивидуализации характера персонажей, раскрытии их духовно-психологического мира и художественном отражении исторической действительности.*

Ключевые слова: *историческая личность, портрет, поэтика портрета, образ, психологический портрет, характер, джадиды, историко-биографический роман.*

Abstract. *This article examines the artistic interpretation of portraits of historical figures in Nabi Jaloliddin's novel “Cholpon”. It analyzes the role of portrait depiction in individualizing characters, revealing their spiritual and psychological world, and artistically representing historical reality.*

Keywords: *historical figure, portrait, portrait poetics, character, psychological portrait, characterization, Jadids, historical-biographical novel.*

Badiiy adabiyotning markazida inson va uning murakkab ruhiy olami turadi. Har qanday badiiy asarning estetik qimmati, avvalo, unda yaratilgan obrazlarning hayotiyligi, xarakterining ishonarliligi va badiiy mukammalligi bilan belgilanadi. Yozuvchi inson tabiatini, uning ichki kechinmalari, ma’naviy-ruhiy olami hamda jamiyat bilan munosabatlarini turli poetik vositalar orqali yoritadi. Ana shunday vositalardan biri portret tasviri bo‘lib, u obrazni individuallashtirish, uning xarakterini ochish hamda kitobxonda muayyan estetik tasavvur hosil qilishda muhim o‘rin tutadi. Roman poetikasida portret tasviri qahramon xarakterini ochuvchi muhim poetik vositalardan biridir. Yozuvchi personajning tashqi qiyofasi, kiyinishi, yuz ifodasi, gavda tuzilishi, nigohi va harakatlarini tasvirlash orqali uning ichki dunyosi, fe’l-atvori hamda jamiyatdagi mavqeyini ochib beradi. Ayniqsa, tarixiy-biografik romanlarda portret davr ruhini, tarixiy shaxslarning ma’naviy qiyofasini ifodalashda alohiida ahamiyatga ega. Adabiyotshunoslikda ham portret qahramon xarakterini ochuvchi eng muhim kompozitsion unsurlardan biri sifatida talqin etiladi. Zero, “Asarda harakat qiluvchi xarakter o‘zida hayot haqiqatining muhim jihatlarini ifodalay olsagina, u kitobxonning inson haqidagi tasavvurini boyitib, ongiga ham, yuragiga ham ta’sir kuchini o‘tkaza oladi”[6;11].

Darhaqiqat, badiiy asarda xarakter to‘laqonli namoyon bo‘lishi uchun qahramonning tashqi qiyofasi, ruhiy holati, fe’l-atvori va individual xususiyatlari o‘zaro uyg‘unlikda tasvirlanishi zarur. Portret tasviri qahramonning individual xususiyatlarini aniqlashtirish, uning ijtimoiy kelib chiqishi, yashash tarzi, hayotiy tajribasi hamda voqelikka munosabatini kitobxonga anglatishda muhim badiiy-estetik ahamiyat kasb etadi. Nabi Jaloliddinning “Cho‘lpon” romanida ham portret tasvirlari qahramonlar xarakterini individuallashtirish, ularning ijtimoiy va ma’naviy qiyofasini ochish hamda tarixiy muhitni jonlantirishning muhim badiiy vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Muallif har bir obrazning tashqi qiyofasini puxta tanlangan badiiy detallar orqali tasvirlar ekan, ularning ruhiyati, fe’l-atvori va davr bilan munosabatini ham ochib beradi.

Asarda portret vositasida mukammal ochilgan obrazlardan biri Sulaymonqul bazzozdir. Muallif qahramonni voqealar markaziga olib kirishdan avval uning tashqi qiyofasini tasvirlash orqali kitobxonda dastlabki taassurotni shakllantiradi. Sulaymonqul bazzoz shaxsiyati portret vositasida ochiladi. Cho‘lpon dunyoqarashining shakllanishida muhim o‘rin tutuvchi ota obrazi sifatida talqin etiladi. Muallif qahramonni ilk bor kitobxonga tanishtirar ekan, uning tashqi qiyofasini tasvirlash bilan cheklanmay, portret orqali obrazning ichki ma’naviy olami va xarakter xususiyatlariga ham ishora qiladi. Sulaymonqul

bazzozning “O‘ychan ko‘rinsa-da, subhiy tarovat yoxud namozning fayzidanmi, shuuri oydin edi. U yelkador, viqorli katta boshi, dumaloq yuzi, qalin soqoli yanada salobat baxsh etar, ammo katta yapaloq burni alohida ajralib, yarashmaganday ko‘rinadi”[7;8] deya tashqi ko‘rinishini tasvirlar ekan, asar voqealari davomida uning xarakterini ham aytib o‘tadi: “jahl-u qahr bobida ham hadni bilguvchi edi”[7;13]. Ko‘rinadiki, yozuvchi portret tasvirini xarakter tavsifi bilan uyg‘unlashtirib, obrazning badiiy va tarixiy jihatdan mukammal chiqishiga erisha olgan. Portret vositasida eng mukammal va izchil ochilgan obrazlardan biri Sulaymonqul bazzozdir. U roman voqealarining boshidan oxirigacha faol ishtirok etuvchi markaziy personajlardan biri bo‘lib, nafaqat Cho‘lponning otasi, balki uning ma’naviy kamolotiga, dunyoqarashi va milliy tafakkurining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan shaxs sifatida tasvirlanadi. Muallif qahramonni voqealar rivojiga olib kirishdan avval uning tashqi qiyofasini batafsil chizish orqali kitobxon ongida obrazning dastlabki estetik va psixologik qiyofasini shakllantiradi. Asarda davrning ijtimoiy-siyosiy muhiti, xalq taqdiri, milliy o‘zlik, tarbiya va ma’rifat masalalariga doir muhim fikr-mulohazalarning aynan uning nutqi orqali berilishi ham obrazning g‘oyaviy yukini yanada oshiradi. Sulaymonqul bazzoz obrazi bilan bir qatorda yozuvchi Cho‘lponning onasi Oyshabibi obrazini ham ixcham tasvirlaydi: “Oyshabibi xat-savodli bo‘lmasa-da, epchil-chaqqon, tilligina, chiroyligina edi”.

Sulaymonqul bazzozning otasi Muhammaad Yunus obrazi ham roman poetikasida muhim o‘rin egallaydi. Muallif uni: “…juda ham savlatli odam edi. Yelkalari keng, ko‘krakdor, boshi katta, qovog‘i ko‘zlarini bosib turganidan tuzukroq qaramagan kishi ko‘zlarini ko‘ra olmasdi. Badqovoqqa o‘xshardi-yu, lekin ko‘ngli toza, saxovatpesha odam edi. Bog‘idagi qaysi meva pishsa, do‘konga olib chiqishdan oldin qo‘ni-qo‘shni, mahalla-ko‘yga, dargohidagi xizmatchilarga nasiba uzatardi. Uning shu fe’li o‘g‘liga ham o‘tgandi”[7;20] tarzida tasvirlaydi. Muhammad Yunus obrazi roman voqealarining keyingi rivojida ham faol ishtirok etadi. Xususan, asarning uchinchi bobida Yunus bo‘zchi bilan Sulaymonqul bazzoz o‘rtasida g‘animlar, siyosiy vaziyat, xalqning ahvoli va qo‘zg‘olonlarga doir kechadigan suhbatlar orqali davrning murakkab ijtimoiy-siyosiy manzarasi yoritiladi. Ayniqsa, Sulaymonqul bazzozning siyosiy voqealar yuzasidan bildirgan fikr-mulohazalari Muhammad Yunusning hayotiy tajribasi va tarbiyaviy ta’siri bilan uzviy bog‘liq holda ochiladi: “Bir umr oqsoq bo‘lib qolgan Yunus bo‘zchi umri poyonida o‘shanda bir necha joyidan sinib, onasi so‘rab-surishtirib, arang topgan, bu yoqqa kelishga yalinib-yolvorib bazo‘r ko‘ndirgan

tabib tomonidan choki-chokiga to‘g‘rilanib, taxtakachlangan, qish ichi azob bergan va baribir qiyshayib bitgan oyog‘ini uqalab o‘tirib, bo‘lib o‘tgan voqealarni tez-tez yodga olar, Sulaymonqulga gapirib berishdan tolmasdi. Kichkinagina Teshavoy – Abdulhamid ham bobosining alamli xotiralarini jimgina tinglab o‘tirardi”[7;30]. Ko‘rinadiki, yozuvchi nafaqat Cho‘lpon yashagan davrning ijtimoiy-siyosiy muhitini, balki undan avval yuz bergan tarixiy voqealar hamda ularning xalq taqdiriga ko‘rsatgan ta’sirini ham badiiy talqin etadi. Muhammad Yunus tarixiy voqealarning bevosita tirik guvohi, uning boshidan kechirgan og‘ir sinovlari, ayniqsa, qo‘zg‘olonlar bilan bog‘liq tafsilotlar uning tilidan hikoya qilinadi.

Muallif asarda aks ettirilgan har bir voqea va vaziyat zamiridagi ma’naviy-axloqiy muammolarni ochib berish, qahramonlar o‘rtasidagi keskin dramatik ziddiyatlarni yoritish jarayonida o‘ziga xos badiiy uslubni namoyon etadi. Bunda personajlarning ruhiy kechinmalari, ularning portretiga oid ayrim tafsilotlar, ichki o‘y-mulohazalari hamda hissiy holatlari izchil tasvirlanadi. Shu bilan birga, muallif obrazlarga nisbatan o‘zining estetik bahosi va badiiy munosabatini bevosita yoki bilvosita ifodalab, asarning g‘oyaviy-badiiy ta’sirchanligini kuchaytiradi.

Roman voqealarining keyingi rivojida jadidchilik harakati namoyandalari syujetning muhim tarkibiy qismiga aylanadi. Muallif Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Asadullaxo‘jayev, Mo‘minjon Muhammadjonov, Zaki Validiy To‘g‘on, Abdulla Avloniy va Mahjuriy kabi tarixiy shaxslarning portretini yaratishda ularning tashqi qiyofasidan ko‘ra ma’naviy olami, ziyolilik fazilatlari hamda millat taqdiri uchun mas’uliyat hissini ifodalashga alohida e’tibor qaratadi. Mazkur obrazlar portreti jadid ziyolilarining umumlashma badiiy qiyofasini ham aks ettiradi. Xususan, Munavvarqori obrazizi quyidagicha tasvirlaydi: “Munavvarqori qirq yoshlarda. Qop-qora qalin soqol-mo‘ylovi hafsala va did bilan qirtishlangan. Egnida yoqasiz ko‘ylak, ustidan yengil chakmon kiygan. Dumaloqqa moyil yuzidan taqvo nuri yog‘iladi, nigohida tafakkur jilvalanadi. Ohista, salmoqlab gapiradi [7;83]. Yozuvchi Munavvarqori Abdurashidxonov faoliyati orqali Turkiston ziyolilarining millat taqdiri, ma’rifat, istiqlol va taraqqiyot yo‘lidagi sa’y-harakatlarini yoritadi. Munavvarqori Abdurashidxonov bilan bir qatorda Ubaydulla Asadullaxo‘jayev obrazi ham romanning g‘oyaviy-kompozitsion tizimida muhim o‘rin tutadi. “Ubaydulla Asadullaxo‘jayev esa o‘ttiz yoshlar chamasida. Ovro‘pacha oq ko‘ylak, kostyum kiygan, qora bo‘yinbog‘ taqqan. Yalangbosh, ovro‘pacha qirtishlangan sochi taralgan, yuzi bug‘doyrang, Ko‘zlari bodom qovoqlari ichidan jiddiy

boqadi”[7;83]; “Asadullaxo‘jayev O‘rusiyaga, o‘ris xalqiga bo‘lgan hurmatini ko‘pda yashirib o‘tirmas, ammo har bir ishda o‘z eliga manfaat keltirmoqni ham unutmasdi” [7;105]. Ko‘rinadiki, Ubaydulla Asadullaxo‘jayev obrazi orqali yozuvchi jadid ziyolilarining dunyoqarashida milliy manfaat va umuminsoniy taraqqiyot g‘oyalarining o‘zaro uyg‘unligini badiiy talqin etadi. U o‘z davrining siyosiy jarayonlarini chuqur anglay oladigan, zamonaviy tafakkurga ega bo‘lgan, shu bilan birga millat manfaatini har qanday shaxsiy yoki mafkuraviy qarashlardan ustun qo‘yadigan tarixiy shaxs sifatida gavdalantiriladi.

Mo‘minjon Muhammadjonov obrazining faqatgina tashqi qiyofasini berish blan cheklanadi: “Mo‘minjon Muhammadjonov ozg‘in, qorachadan kelgan, mo‘ylovli, so‘l yuzid no‘xatday qora xoli bor. Ko‘z qorachiqlari o‘ynab turadi. Shoshilib, tez, goho so‘zlarni chalkashtirib, qayta-qayta gapirarkan. Yoqasiz ko‘ylak ustidan kostyum kiygan” [7;83]. Mo‘minjon Muhammadjonov obrazi boshqa jadid namoyandalariga nisbatan ixchamroq portret orqali tasvirlangan. Shuningdek, Zaki Validiy To‘g‘on portreti “qo‘ng‘irmonand sochiga oq oralagan, mo‘ylovli, ko‘zoynagi o‘ziga yarashgan o‘ris sifat qirq yoshlardagi odam…”[7;92] deya tasvirlansa, Abdulla Avloniy esa “Yoshi ulug‘roq, dumaloq yuzli, ko‘zlari chaqnab turguvchi, boshida qirrasiz do‘ppi, musulmocha libos kiygan” [7;93], - deya tasvirlanadi.

Roman voqealari davomida Rafiq obrazini ham uchratamiz. Asar boshida Rafiq iste’dodli, ziyoli muhitga yaqin, til biladigan va adabiyotga qiziqadigan yosh sifatida taassurot uyg‘otsa, voqealar rivoji davomida uning xarakteridagi qat’iyatsizlik, qo‘rqoqlik va manfaatparastlik tobora yaqqol namoyon bo‘ladi: “Yuraksizlik Rafiqning qismati edi, ne qilsa, shuning ortidan qildi. “Oxranka”dagi bir haftalik kechmishidan so‘ng Toshkent ko‘chalarida “qayta ishlangan” Rafiqiy paydo bo‘ldi. Ozgina qalami, biroz ta’bi nazmi borligi, bir-ikki tilga sohibligi, yana oyog‘i chaqqon, so‘zga ustaligi bois ish, do‘st-u boshpana topmog‘i oson kechdi. Nihoyat, “Xo‘ja aka”siga (U.Asadullaxo‘jayevga) yo‘liqqani, joniga ora kirdi. Ayniqsa, Xo‘ja akaning o‘risfe’lligi unga xo‘b yoqib tushdi. Shu-shu “Sadoyi Turkiston”ning xodimi va o‘zi aytmoqchi, “Xo‘ja akasi”ning shogirdiga aylandi...”[7;88]. Rafiq “o‘zimizdan chiqqan bolta sopi”larning umumlashma obrazi bo‘lib, mustamlakachilik siyosati ta’sirida milliy o‘zligini yo‘qotgan, shaxsiy manfaatini xalq manfaatidan ustun qo‘ygan kishilar qatlamini ifodalaydi.

Roman poetikasida markaziy o‘rinni egallovchi obraz, shubhasiz, Cho‘lpondir. Muallif tarixiy shaxs obrazini yaratishda uning tashqi qiyofasini

tasvirlash bilangina cheklanmay, portret vositasida qahramonning ma’naviy olami, ijodkorlik tabiati va milliy tafakkurining shakllanish jarayonini ham ochishga intiladi. Asarda Cho‘lpon portreti ilk bor uning o‘n sakkiz yoshlaridagi davri bilan bog‘liq holda beriladi: “U basavlat, bo‘yi salkam uch gaz keladigan, yelkalari keng o‘n sakkiz yoshlardagi ko‘rkam yigit edi. Yuzi dumaloqqa tovun, kalta qalin sochini silliq tarab, yashil duxoba do‘ppi kiygan” [7;15]. Muallif Cho‘lpon obrazini kitobxonga dastlab tashqi qiyofasi orqali tanishtirar ekan, keyingi voqealar davomida uning ma’naviy kamoloti, ijodiy tafakkuri va milliy uyg‘onish g‘oyalariga sadoqatini izchil ochib boradi. Muallif qahramonning ruhiy olamini ochishda uning insoniy fazilatlari, odamlar bilan munosabati va ichki kechinmalariga alohida e’tibor qaratadi. Jumladan, “U shu qadar ishonuvchan va samimiy ediki, goho boshqalarning o‘zidan o‘zgacharaq o‘ylashi, fikr yuritishi mumkinligini unutib qo‘yardi. U birovni sevdimi, unga hech qachon xiyonat qilmasligiga, demakki, boshqalardan, hech qursa, o‘z sevgilisidan shunga yarasha javob olishiga ishonardi, ehtimol, istarmidi...”[7;62] deya tasvirlanishi qahramon xarakterining muhim jihatlarini ochadi. Mazkur tasvir orqali yozuvchi Cho‘lponni yuksak axloqiy mezonlarga amal qiladigan, samimiyat va sadoqatni eng oliy qadriyat deb biladigan shaxs sifatida gavdalantiradi. Muallif qahramonning voqelikka, odamlarga va insoniy munosabatlarga bo‘lgan qarashlarini tasvirlash orqali uning xarakterini yanada mukammallashtiradi: “U odamlardagi samimiyatni suyguvchi, qadrlaguvchi edi. Kim bilan gaplashmasin, suhbatdoshining ko‘zlariga boqib, hamisha samimiyat izlardi. Chunki o‘zi ana shunday kayfiyati qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, xursandligida va hatto, jahli chiqib turganda ham rost, to‘g‘rirog‘i, samimiy so‘zlovchi edi. Buni ataylab qilmas, har bir harakati yoki aytmishi ixtiyorsiz, tabiiy kechar, muhabbati-yu nafratiga rostlik yo‘g‘irilgandi. Balki shuning uchunmi, odamlardan hafsalasi tez pir bo‘lardi”[7;90]. Roman voqealari keskinlashgan sari Cho‘lpon portreti ham ruhiy jihatdan yangi mazmun kasb etadi: “Nigohida iztirob, uyqusizlik, yuzida toliqish yaqqol seziladi, bir-biriga yaqin ko‘zlarining orasi yanada toraygandek. O‘zini dadilroq ko‘rsatish uchun xiyol jilmaydi, qoshlari o‘rtasidagi “tuguncha” yozilib ketgandek bo‘ldi”[7;115]. Cho‘lponning ichki iztiroblari, davrning og‘ir ijtimoiy-siyosiy bosimi hamda millat taqdiri uchun kechirayotgan ruhiy ziddiyatlarini mahorat bilan maromiga yetkazib tasvirlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Nabi Jaloliddinning “Cho‘lpon” romanidagi Sulaymonqul bazzoz, Muhammad Yunus, Oyshabibi kabi obrazlar orqali oilaviy muhit va milliy qadriyatlarni, jadid ziyolilari – Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Asadullaxo‘jayev, Mo‘minjon Muhammadjonov, Zaki Validiy

To‘g‘on, Abdulla Avloniy va Mahjuriy obrazlari orqali esa Turkiston ma’rifatparvarlarining ma’naviy qiyofasi, millat istiqboli yo‘lidagi fidoyiligi hamda ma’rifatparvarlik g‘oyalarini badiiy talqin etadi. Rafiq obrazi misolida esa mustamlakachilik siyosati ta’sirida milliy manfaatlardan uzoqlashgan, “o‘zimizdan chiqqan bolta sopi” timsolining umumlashma badiiy obrazi yaratilgan. Roman poetikasida portret tasvirining rang-barang ko‘rinishlari – batafsil, ixcham va psixologik portretlarning uyg‘un qo‘llanilishi qahramonlarning individual xususiyatlarini yorqin namoyon etish bilan birga, tarixiy voqelikni ishonarli badiiy talqin qilishga ham xizmat qilgan. Yozuvchi tarixiy-biografik roman janrida portret yaratish borasidagi o‘ziga xos badiiy mahoratini “Cho‘lpon” asari orqali yaqqol namoyon etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Аҳмедов Н. Тарихий шахс талқини. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиѐт ва санъат, 1989. – Б. 126.

2. Даниярова Ш. Ижодкор ва услуб. –Тошкент: Turon zamin ziyo, 2014. – Б. 130.

3. Исаев Ш.Б. Ўзбек тарихий романларида характер руҳиятини тасвирлаш усуллари. Филол. фан. номз... дисс-и – Тошкент: 2001. –Б 143.

4. Каримов Ҳ.Ў. Тарихий шахс ва бадиий образ. Филол.фан. номз. дисс-и. – Тошкент: 1999. –Б 137.

5. Каттабеков А. Тарихий ҳақиқат ва бадиий маҳорат. – Тошкент: Фан, 1982. – Б 316.

6. Кўбаев Қ. Ўзбек қиссаларида тарихий ҳақиқат ва бадиий маҳорат. Фил.фанл.номз.автореферати.-Тошкент.2001. Б.11.

7. Наби Жалолиддин. Чўлпон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2023 йил. - 256 б.

8. Носиров А.Н. Тарихий ҳақиқат ва унинг бадиий талқини. – Филол. фан. номз... дисс-и. –Тошкент: 1999. –Б 145.

9. Носиров А.Н. Одил Ёқубов романлари поэтикаси. – Самарқанд: Филол. фан. докт. дисс-и. 2018. –Б. 244.

10. Тўйчиев А.Ҳ. Ўзбек насрида жадид образи талқини. Филол. фан. номз... дисс-и. – Тошкент: 2000. – Б 137.

ESSE JANRI GENEZISI VA POETIK XUSUSIYATLARI

Kazakova Gulasal Kuralovna,
Urganch innovatsion universiteti “O‘zbek va xorijiy filologiya” kafedrasi dots.v.b., filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

UO‘K 811.512.133

Annotatsiya. *Ushbu maqolada esse janrining kelib chiqishi, nazariy-estetik tabiati, poetik xususiyatlari hamda o‘zbek adabiyotidagi shakllanish va taraqqiyot bosqichlari tadqiq etiladi. “Esse” atamasining fransuz, ingliz va lotin tillaridagi lug‘aviy ma’nolari izohlanadi. XX asrning ikkinchi yarmi va istiqlol davri o‘zbek adabiyotida esse janrining mavzu, obraz va ifoda usuli jihatidan yangilanishi, tarixiy shaxs hamda ijodkor siymosini yaratishdagi imkoniyatlari asoslab beriladi.*

Аннотация. *В данной статье исследуются происхождение, теоретико-эстетическая природа, поэтические особенности, а также этапы формирования и развития жанра эссе в узбекской литературе. Раскрываются лексические значения термина «эссе» во французском, английском и латинском языках. Обосновываются тематическое, образное и стилистическое обновление жанра эссе в узбекской литературе второй половины XX века и периода независимости, а также его возможности в создании образов исторических личностей и творческих деятелей.*

Abstract. *This article examines the origin, theoretical and aesthetic nature, poetic features, as well as the stages of formation and development of the essay genre in Uzbek literature. The lexical meanings of the term “essay” in French, English, and Latin are explained. The article substantiates the thematic, figurative, and stylistic transformation of the essay genre in Uzbek literature during the second half of the twentieth century and the independence period, as well as its potential for portraying historical personalities and creative figures.*

Kalit so‘zlar: *esse, esse janri, Mishel Monten, “Tajribalar”, muallif “men”i, esseistik tafakkur, badia, subyektivlik, falsafiy mushohada, erkin kompozitsiya, tarixiy shaxs obrazi, o‘zbek adabiyoti, istiqlol davri.*

Ключевые слова: *эссе, жанр эссе, Мишель де Монтень, «Опыты», авторское «я»,*

эссеистическое мышление, бадиа, субъективность, философское размышление, свободная композиция, образ исторической личности, узбекская литература, период независимости.

Keywords: *essay, essay genre, Michel de Montaigne,* **Essays***, authorial "I", essayistic thinking, badia, subjectivity, philosophical reflection, free composition, image of a historical personality, Uzbek literature, independence period.*

XX asrning ikkinchi yarmida o‘zbek adabiyotida shakllangan esse janri o‘ziga xos shakllanish va taraqqiyot bosqichlariga ega bo‘lib, istiqlol yillarida mavzu va ifoda uslubida muayyan o‘zgarishlar yasab, hozirgi adabiy jarayon rivojiga munosib ulush qo‘shmoqda. "Muallifning u yoki bu masala, voqea-hodisa, hayotiy holat bo‘yicha shaxsiy mulohazalari bayon qilinuvchi nasriy asar, adabiy janr"[1], deya ta'rif berilgan epik turga mansub esse janri o‘zbek adabiyotida o‘tgan asrning 60-yillarida yaratila boshlagan. Mustaqillikdan keyin yozilgan namunalarida yangi bosqichga ko‘tarilib, yozuvchi va shoirlar siymosini yaratishda har bir ijodkor shaxsiyatidagi o‘ziga xos jihatlarni uslubiy individuallik bilan uyg‘un tarzda mujassamlashtirishga e'tibor qaratganliklarni kuzatish mumkin. Shuningdek, essenavislik ijodkorga o‘z qarashlarini erkin, mulohazali va tabiiy ifodalash, tilning barcha qatlamlaridan, sheva unsurlaridan keng foydalanish, obrazlar ifodasiga chuqur kirishish kabi imkoniyatlarni ham beradi. Esse – fransuz tilida "essai"[2] – "*tajriba*", "mashq", ingliz tilida "essay"[3]– "*insho*", "*sinash", "urinish", "ocherk"* (kichik adabiy asar); lotincha "exerceo"[4] – "*mashq qilmoq*", "*shug‘ullanmoq*" degan ma'nolarni bildiradi. Yevropa adabiyotida bu janrning asoschisi Mishel Monten bo‘lib, uning "Tajribalar" asaridan keyin esse mustaqil janr sifatida anglana boshlandi. Monten "Esse" haqida shunday deydi: "Kitobimning mundarijasi – men o‘zimman". Volter uning bu fikrini sharhlab, "Montenning soddadillarcha o‘zini-o‘zi ta'riflashi o‘ziga xos go‘zallik kasb etadi.

[1] Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б. 376.
[2] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Б. 57.; Ibragimov X., Mamadaliyev A., Mansurov U., Nishonov A., Soatjonov E., Umarov N. Fransuzcha-o‘zbekcha lug‘at. – Toshkent, 2008. – B. 209.
[3] Бўтаев Ш. Ирискулов А. Inglizcha-o‘zbekcha o‘zbekcha-inglizcha lug‘at. – Тошкент: Фан, 2009. – Б. 185.
[4] Йўлдошев М. Лотинча-ўзбекча луғат. – Самарқанд: СамДУ, 2000. – Б. 22.

U shu yo‘l bilan oxir-oqibat insonning umumiy timsolini yaratdi”[1]. Ushbu fikrga tayangan holda essening dastlabki namunalarida ham inson va borliq haqidagi falsafiy fikrlar aks etsa-da, asosiy qahramon, tugal fikr inson obraziga tutashadi. “Esse muallifi uchun shaxsiy “men” istalgan tashqi tayanchdan ham muhimroq, biroq u o‘quvchi bilan muloqot o‘rnatishga harakat qiladi. Esse o‘quvchisi odatda muallifning zamondoshi bo‘lib, dunyoqarashi, adabiyotga bo‘lgan qiziqishi, intellektual va ilmiy saviyasi jihatidan unga yaqin bo‘lgan shaxs hisoblanadi”[2].

Mishel Montenning “Esselar” asaridan olingan III kitobning I bobi “Foyda va halollik” deb nomlanib, unda muallifning falsafiy qarashlari o‘z ifodasini topgan. Yozuvchi hokimiyat egalari bilan bog‘liq munosabatlarda o‘z prinsiplariga sodiq qolgan, murakkab siyosiy sharoitlarda ham halol va ochiq fikr bilan harakat qilishni afzal biluvchi shaxs siymosini namoyish etadi. Jumladan, muallifning **halollik va samimiylik xislatlari**ni namoyish etuvchi: *"Moy, ie m’offre par mes opinions les plus viues & par la forme plus mienne"* (Men o‘z fikrlarimni eng jonli shaklda va o‘zimga xos uslubda ifodalayman)[3]; **o‘zgacha fikrlash va mustaqil qaror qilish afzalliklari** haqida: *"Je ne suis pas subiet à ces hypothèques & engagements pénétrants & intimes"* (Men bu chuqur ildiz otgan majburiyatlar va sadoqatlarga bo‘ysunmayman)[4]; **hayotiy tajribaning muhimligi**: *"Rien ne s'est ingéré en cet univers, qui n'y tienne place opportune"* (Bu olamda befoyda hech narsa yo‘q, hattoki befoydalikning o‘zi ham foyda)[5]; **ozod va mustaqil qarashli shaxs bo‘lish**ga doir: *"Je regarde nos rois d’une affection simplement légitime et civile: ni émeu, ni désmeu par intérêt privé"* (Men hukmdorlarimizga faqat qonuniy va fuqarolik muhabbati bilan qarayman: shaxsiy manfaat tufayli na hayajonga tushaman, na befarq bo‘laman)[6] degan fikrlari esseda bosh qahramon inson va uning shaxsiyati ekanligidan dalolat beradi.

O‘zbek adabiyotida essening dastlabki ildizlari Beruniy, M.Qoshg‘ariy ijodida uchrasa, Navoiy va Bobur ijodida noma, xotira shakllarda ko‘zga tashlanadi. Mumtoz adabiyotdagi tazkira janri esse yaratilishining Sharq adabiyotidagi ilk ko‘rinishlari sifatida qayd qilinadi. “Esse o‘zbek adabiyotidagi

---

[1] Гагарин А.С. Мишел Монтен: Борба с иллюзиями и экзистенциалы человека – крапинки. // Дискурс-Пи. – Екатеринбург. 2013. №12. – С. 199.
[2] Тесленко М.А. Литературный жанр эссе как философствование и способ философской рефлексии. // Научный форум: гуманитарные исследования. – Москва, 2013. – С.5.
[3] Michel de Montaigne. Les essais. PUBLIÉS d'après l'exemplaire. Tome troisième. FORTUNAT STROWSKI et François GEBELIN. – BORDEAUX: IMPRIMERIE NOUVELLE F. PECH & C', 1909. – P. 5
[4] Michel de Montaigne. Les essais. PUBLIÉS d'après l'exemplaire. Tome troisième. FORTUNAT STROWSKI et François GEBELIN. – BORDEAUX: IMPRIMERIE NOUVELLE F. PECH & C', 1909. – P. 4.
[5] Michel de Montaigne. O‘sha manba. – P. 3.
[6] Michel de Montaigne. O‘sha manba. – P. 3.

badia janrining o‘ziga xos xususiyatlari bilan g‘arb adabiyotidagi esse janrini eslatadi. Biroq esse badi’aga nisbatan kengroq tushuncha”[1]. Tadqiqotlarda keltirilganidek, badi’ada essega xos ayrim xususiyatlar ko‘zga tashlansa-da, ularni aynan bir janr sifatida olish mumkin emas.

Essening og‘zaki nutqqa yaqinligi uning tabiiyligi va erkin uslubda yozilishida namoyon bo‘ladi. Muallif fikr yuritish jarayonida rasmiy yozma uslubdan ko‘ra, so‘zlashuv nutqiga xos sodda, jonli va ifodali shakldan foydalanadi. Bu esa o‘quvchi bilan bevosita muloqot taassurotini yaratadi va uni matnga chuqurroq jalb etadi.

Esse janrida qahramonlar an’anaviy adabiy asarlardagi kabi to‘liq shakllangan personaj sifatida emas, balki muallifning shaxsiy tajribasi, fikrlari va hissiyotlari markazida turgan obraz sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek adabiyotida bugungi kunga qadar yaratilgan tarixiy mavzularni ilmiy, badiiy-publitsistik yo‘sinda aks ettirishda esse janri muhim bir manba hisoblanadi. Bu tipdagi asarlarda tarixiy manbalar tahlilga tortilarkan, izlanishlarda erkin fikr, ilmiylik bilan badiiylikning hamohangligi, tarixiy qahramonlar faoliyatini tadqiq etish va tarixiy voqelikni aniq-tiniq ifodalash ham esse janrining muhim jihatlaridan birini tashkil etadi.

Bu hol o‘zbek adabiyotshunosligida esse janri va uning taraqqiyoti, ijodkorlar uchun erkin faoliyat, mavzu va uslubning biroz yangilanishiga asos bo‘luvchi xususiyatga ega janr sifatida istiqloldan keyingi yillarda yuksalish bosqichiga o‘tganligini ko‘rsatuvchi xulosalar aytish imkonini beradi. Ayni paytda esse janri bo‘yicha qilinishi lozim tadqiqot ishlari hali anchagina ekanligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, ijodkor siymosini yaratish, uning shaxs sifatidagi o‘zligi va ruhiyatini erkin, qoliplarsiz tasvir etish mustaqillik bergan imkonlardan biri bo‘lganini qayd qilgan holda mavjud namunalarini ijodkorning poetik mahorati nuqtayi nazaridan chuqur tahlil qilib, muayyan xulosalar chiqarish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б. 376.

[1] Қўчқорова М.Х. Ҳозирги ўзбек адабиётида эссе жанри. Филол. фан. номз. … дисс. – Тошкент, 2004. – Б. 53.

2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Б. 57.; Ibragimov X., Mamadaliyev A., Mansurov U., Nishonov A., Soatjonov E., Umarov N. Fransuzcha-o‘zbekcha lug‘at. – Toshkent, 2008. – B. 209.

3. Бўтаев Ш. Ирисқулов А. Inglizcha-o‘zbekcha o‘zbekcha-inglizcha lug‘at. – Тошкент: Фан, 2009. – Б. 185.

4. Йўлдошев М. Лотинча-ўзбекча луғат. – Самарқанд: СамДУ, 2000. – Б. 22.

5. Гагарин А.С. Мишел Монтен: Борба с иллюзиями и экзистенциалы человека – крапинки. // Дискурс-Пи. – Екатеринбург. 2013. №12. – С. 199.

6. Тесленко М.А. Литературный жанр эссе как философствование и способ философской рефлексии. // Научный форум: гуманитарные исследования. – Москва, 2013. – С.5.

7. Michel de Montaigne. Les essais. PUBLIÉS d'après l'exemplaire. Tome troisième. FORTUNAT STROWSKI et François GEBELIN. – BORDEAUX: IMPRIMERIE NOUVELLE F. PECH & C', 1909. – P. 5

8. Қўчқорова М.Х. Ҳозирги ўзбек адабиётида эссе жанри. Филол. фан. номз. … дисс. – Тошкент, 2004. – Б. 53.

INGLIZ TILIDA MUROJAAT SHAKLLARINING LINGVISTIK VA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI



Boboyozova Nilufar Gayratovna,
tayanch doktorant,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
E-mail:
babayazovanilufar@gmail.com

UO‘K 811.512

Annotatsiya.

Ushbu maqolada ingliz tilidagi murojaat shakllarining lingvistik va lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Ingliz tilida o‘zbek tilidan farqli ravishda “sen” va “siz” kabi grammatik jihatdan farqlanuvchi murojaat shakllari mavjud emas, balki barcha vaziyatlarda yagona “you” olmoshi qo‘llanadi. Shunga qaramay, ingliz tilida murojaat jarayoni ijtimoiy mavqe, yosh, jins, kasb, lavozim va kommunikativ vaziyatga ko‘ra turli leksik birliklar orqali ifodalanadi. Maqolada Sir, Madam, Mr, Mrs, Miss, Ms, Doctor, Professor, Officer, Your Majesty, Your Honour kabi murojaat birliklarining qo‘llanish doirasi yoritiladi. Shuningdek, ingliz tilida murojaat shakllarining nutq odobi, ijtimoiy masofa va lingvomadaniy qadriyatlarni ifodalashdagi o‘rni ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: *murojaat shakllari, ingliz tili, you olmoshi, nutq odobi, lingvomadaniyat, unvon, ijtimoiy mavqe.*

Аннотация.

В данной статье рассматриваются лингвистические и лингвокультурные особенности форм обращения в английском языке. В отличие от узбекского языка, в английском отсутствует грамматическое противопоставление форм “sen” и “siz”, а во всех коммуникативных ситуациях используется единое местоимение “you”. Однако формы обращения в английском языке выражаются посредством различных лексических единиц в зависимости от социального статуса, возраста, пола, профессии, должности и коммуникативной ситуации. В статье

анализируется употребление таких обращений, как Sir, Madam, Mr, Mrs, Miss, Ms, Doctor, Professor, Officer, Your Majesty, Your Honour. Также раскрывается роль обращений в выражении речевого этикета, социальной дистанции и лингвокультурных ценностей.

Ключевые слова: *формы обращения, английский язык, местоимение you, речевой этикет, лингвокультура, титул, социальный статус.*

Abstract

This article analyzes the linguistic and linguocultural features of forms of address in English. Unlike Uzbek, English does not have a grammatical opposition equivalent to the Uzbek pronouns sen and siz. Instead, the single pronoun you is used in both formal and informal contexts. Nevertheless, English forms of address are differentiated through various lexical units depending on social status, age, gender, profession, rank, and communicative situation. The article examines the use of address forms such as Sir, Madam, Mr, Mrs, Miss, Ms, Doctor, Professor, Officer, Your Majesty, and Your Honour. It also highlights the role of address forms in expressing speech etiquette, social distance, and linguocultural values.

Keywords: *forms of address, English language, pronoun you, speech etiquette, linguoculture, title, social status.*

KIRISH

Til insonlar o‘rtasidagi muloqot vositasi bo‘lish bilan birga, xalqning madaniyati, qadriyatlari, urf-odatlari va ijtimoiy munosabatlarini ham aks ettiradi. Ayniqsa, murojaat shakllari har bir tilning lingvomadaniy tizimida muhim o‘rin tutadi. Murojaat orqali suhbatdoshning yoshi, jinsi, ijtimoiy mavqei, kasbi, lavozimi va muloqotdagi o‘rni aniqlanadi.

Ingliz tilida murojaat shakllari o‘ziga xos tizimga ega. Bu tilda o‘zbek tilidagi kabi “sen” va “siz” shakllari grammatik jihatdan ajratilmaydi. Zamonaviy ingliz tilida bu ikki ma’no yagona *you* olmoshi orqali ifodalanadi. Shu sababli

ingliz tilida hurmat, rasmiylik yoki yaqinlik ma’nolari ko‘pincha kontekst, intonatsiya, leksik murojaat birliklari va nutqiy vaziyat orqali anglashiladi.

Maqolaning asosiy maqsadi ingliz tilida qo‘llaniladigan murojaat shakllarining lingvistik xususiyatlarini, ularning ijtimoiy va madaniy vazifalarini tahlil qilishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

Murojaat shakllari tilshunoslikda nutq etiketi, pragmalingvistika, sotsiolingvistika va lingvomadaniyatshunoslik doirasida o‘rganiladi. Ingliz tilidagi murojaat birliklarini tahlil qilishda izohli lug‘atlar, ingliz tili grammatikasiga oid manbalar hamda nutqiy muloqotga doir tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega.

Oxford English Dictionary’da *you* olmoshi ikkinchi shaxs birlik va ko‘plikdagi shaxs yoki shaxslarga murojaat qilishda ishlatiladigan asosiy olmosh sifatida izohlanadi. Ingliz tilida qadimda *thou, thee, thy* kabi shakllar mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, ular zamonaviy kundalik nutqda faol qo‘llanmaydi. Bugungi kunda bu birliklar asosan diniy matnlar, she’riyat, tarixiy uslub yoki badiiy nutqda uchraydi.

Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy va lingvomadaniy tahlil metodlaridan foydalanildi. Ingliz tilidagi murojaat shakllari nutqiy vaziyat, ijtimoiy mavqe, kasb, jins va yosh omillari asosida tahlil qilindi.

NATIJALAR

Ingliz tilida murojaat shakllari grammatik, leksik va pragmatik jihatdan bir necha guruhga ajratiladi. Ularning har biri ma’lum nutqiy vaziyatda qo‘llanadi va suhbatdoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatni bildiradi.

“You” olmoshining universal xarakteri.

Zamonaviy ingliz tilida *you* olmoshi ikkinchi shaxs birlik va ko‘plik uchun umumiy shakl hisoblanadi. U rasmiy va norasmiy vaziyatlarda bir xil qo‘llanadi:

Can you help me?

Siz menga yordam bera olasizmi?

Are you coming with us?

Sen biz bilan kelyapsanmi? / Siz biz bilan kelyapsizmi?

Bu misollardan ko‘rinadiki, *you* olmoshining o‘zbek tiliga “sen” yoki “siz” deb tarjima qilinishi kontekstga bog‘liq. Suhbatdoshning yoshi, ijtimoiy mavqei, muloqot ohangi va vaziyat tarjimada muhim rol o‘ynaydi.

Tarixan ingliz tilida *thou* shakli yakka ikkinchi shaxsga nisbatan qo‘llangan. Biroq XVII asrdan boshlab bu shakl kundalik so‘zlashuv nutqidan chiqib ketgan. Hozirgi ingliz tilida birlik va ko‘plik o‘rtasidagi farq asosan *yourself* va *yourselves* shakllarida saqlanib qolgan:

Do it yourself. Buni o‘zing qil.

Do it yourselves. Buni o‘zlaringiz qiling.

Keng auditoriyaga murojaat shakllari.

Ingliz tilida katta auditoriyaga murojaat qilishda maxsus iboralar ishlatiladi. Bunday murojaatlar ko‘pincha rasmiy tadbirlar, majlislar, konsertlar, transport e’lonlari va ommaviy chiqishlarda uchraydi.

Murojaat shakli	**O‘zbekcha ma’nosi**	**Qo‘llanish doirasi**
Ladies and gentlemen	Xonimlar va janoblar	Rasmiy chiqishlar, tadbirlar
Dear friends	Qadrli do‘stlar	Samimiy va ommaviy murojaat
Esteemed colleagues	Hurmatli hamkasblar	Ilmiy, rasmiy muhit
Passengers	Yo‘lovchilar	Transport e’lonlari
Dear listeners	Aziz tinglovchilar	Radio va audio murojaatlar

Masalan: *Ladies and gentlemen, may I have your attention, please?* Xonimlar va janoblar, iltimos, diqqatingizni qaratsangiz.

Transportda esa quyidagi shakllar uchraydi: *Passengers are requested not to alight while the vehicle is still in motion.* Yo‘lovchilardan transport harakatlanayotgan paytda tushmasliklari so‘raladi.

Bu kabi murojaatlar ingliz tilida ijtimoiy tartib, muloyimlik va rasmiylikni ifodalaydi.

Rasmiy va hurmat bildiruvchi murojaatlar.

Ingliz tilida rasmiy nutqda *Sir* va *Madam* murojaatlari keng qo‘llanadi. Bu birliklar, odatda, familiya yoki ism noma’lum bo‘lgan hollarda ishlatiladi.

Sir erkak kishiga nisbatan hurmat bilan murojaat qilish shaklidir. U xizmat ko‘rsatish sohasida, harbiy muhitda, maktabda yoki rasmiy muloqotda ishlatiladi:

Excuse me, Sir, could you sign here? Kechirasiz, janob, shu yerga imzo qo‘ya olasizmi?

Madam ayol kishiga rasmiy va muloyim murojaat shaklidir: *Excuse me, Madam, would you mind if I opened the window?* Kechirasiz, xonim, derazani ochsam qarshi emasmisiz?

AQSH ingliz tilida *Madam* shaklining qisqartirilgan ko‘rinishi *ma’am* keng qo‘llanadi. Bu shakl ayniqsa xizmat ko‘rsatish, politsiya, harbiy va rasmiy nutqda uchraydi.

Mr, Mrs, Miss va Ms shakllari.

Ingliz tilida shaxsga familiyasi orqali murojaat qilishda *Mr, Mrs, Miss, Ms* shakllari muhim o‘rin tutadi.

Shakl	**Qo‘llanishi**	**Misol**
Mr	Erkak kishiga, oilaviy holatidan qat’i nazar	*Mr Smith*
Mrs	Turmush qurgan ayolga	*Mrs Brown*
Miss	Turmush qurmagan ayolga yoki qizga	*Miss Taylor*
Ms	Ayol kishiga, oilaviy holatini ko‘rsatmasdan	*Ms Johnson*

Ms shaklining paydo bo‘lishi ingliz jamiyatidagi gender tengligi tamoyillari bilan bog‘liq. Chunki ayol kishining turmush qurgan yoki turmush qurmaganini ko‘rsatish har doim ham zarur emas. Shu sababli zamonaviy rasmiy ingliz tilida *Ms* shakli keng qo‘llanadi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, *Mr, Mrs, Miss, Ms* shakllari odatda familiya yoki to‘liq ism bilan birga ishlatiladi. Ularni yakka holda qo‘llash ko‘p hollarda noo‘rin yoki qo‘pol eshitilishi mumkin.

Kasb va lavozimga oid murojaatlar.

Ingliz tilida kasb, ilmiy unvon yoki lavozim asosida murojaat qilish keng tarqalgan. Bunday murojaatlar suhbatdoshning ijtimoiy mavqeini e’tirof etadi.

Murojaat shakli	**Qo‘llanish sohasi**
Doctor / Dr Smith	Tibbiyot xodimi yoki ilmiy darajali shaxs
Professor Brown	Universitet o‘qituvchisi yoki professor
Officer	Politsiya xodimi
Captain / Colonel / General	Harbiy unvon egalari
Waiter / Waitress	Xizmat ko‘rsatish sohasi

Masalan: *Good morning, Dr Johnson.* Xayrli tong, doktor Jonson.

Excuse me, Officer, could you help me? Kechirasiz, ofitser, menga yordam bera olasizmi?

Ilmiy yoki harbiy unvonlar *Mr* shakli bilan qo‘shib ishlatilmaydi. Masalan, *Mr Professor Brown* yoki *Mr Captain Smith* shakllari noto‘g‘ri hisoblanadi. To‘g‘ri shakllar: *Professor Brown, Captain Smith*.

O‘qituvchilarga murojaat shakllari.

Britaniya va AQSH ingliz tilida o‘qituvchilarga murojaat qilishda ayrim farqlar mavjud. Britaniyada maktab o‘quvchilari erkak o‘qituvchiga *Sir* yoki *Mr + familiya* orqali murojaat qiladilar. Ayol o‘qituvchiga esa ko‘pincha *Miss* deb murojaat qilinadi.

AQSHda esa oliy ta’lim muassasalarida ishlovchi o‘qituvchilarga *Professor* deb murojaat qilish keng tarqalgan. Bu shakl ilmiy unvonni bildirishi bilan birga, hurmat ifodasi sifatida ham xizmat qiladi. Masalan:

Professor Adams, may I ask a question? Professor Adams, savol bersam bo‘ladimi?

Qirollik, sud va rasmiy unvonlar.

Ingliz tilida oliy martabali shaxslarga murojaat qilishda maxsus protokol birliklari ishlatiladi. Bunday murojaatlar rasmiylik va ijtimoiy iyerarxiyani ifodalaydi.

Shaxs yoki lavozim	**Murojaat shakli**	**O‘zbekcha ma’nosi**
Qirol yoki qirolicha	*Your Majesty*	Oliy hazratlari
Shahzoda yoki malika	*Your Highness*	Janobi oliylari
Lord yoki yuqori sudya	*Your Lordship*	Lord janoblari
Sudya	*Your Honour*	Janob sudya / Sizning sharafingiz

Bu murojaat shakllari kundalik nutqda kam uchrasa-da, rasmiy marosimlar, sud jarayonlari va diplomatik muloqotda muhim ahamiyatga ega.

MUHOKAMA

Ingliz tilida murojaat shakllarining asosiy xususiyati shundaki, grammatik jihatdan “sen” va “siz” farqi mavjud emas. Biroq bu til murojaatdagi ijtimoiy masofa, hurmat, rasmiylik va yaqinlikni boshqa vositalar orqali ifodalaydi. Bunday vositalarga leksik birliklar, unvonlar, familiya bilan murojaat qilish, intonatsiya va kontekst kiradi. Masalan, *you* olmoshi bir xil shaklda ishlatilsa-da, *Could you please help me, Sir?* va *Hey, buddy, come here!* gaplari o‘rtasida katta pragmatik farq mavjud. Birinchi gap rasmiy va muloyim murojaatni bildirsa, ikkinchi gap norasmiy, do‘stona yoki ba’zan qo‘pol ohangni ifodalashi mumkin. Shuningdek, ingliz tilida murojaat shakllari jamiyatdagi ijtimoiy tenglik va individualizm tamoyillari bilan ham bog‘liq. *Ms* shaklining keng tarqalishi, ayol

kishining oilaviy holatini ko‘rsatmasdan murojaat qilish imkonini beradi. Bu esa tilning ijtimoiy o‘zgarishlarga moslashuvchanligini ko‘rsatadi.

XULOSA

Ingliz tilida murojaat shakllari grammatik jihatdan sodda ko‘rinsa-da, ularning nutqiy va lingvomadaniy vazifalari murakkabdir. Zamonaviy ingliz tilida *you* olmoshi rasmiy va norasmiy vaziyatlarda umumiy shakl sifatida qo‘llanadi. Biroq *Sir, Madam, Mr, Mrs, Miss, Ms, Doctor, Professor, Officer, Your Majesty, Your Honour* kabi birliklar orqali suhbatdoshning ijtimoiy mavqei, kasbi, jinsi va kommunikativ vaziyati ifodalanadi.

Demak, ingliz tilidagi murojaat shakllarini o‘rganish faqat grammatik bilimlarni emas, balki ingliz xalqining nutq odobi, ijtimoiy munosabatlari va madaniy qadriyatlarini anglash uchun ham muhimdir. Chet tilini o‘rgatishda murojaat shakllariga alohida e’tibor qaratish o‘quvchilarning lingvomadaniy kompetensiyasini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oxford English Dictionary. Oxford: Oxford University Press, 2010.
2. Qahhorov Q. Sh. O‘zbek va nemis nutqiy etiketlarining qiyosiy tadqiqi: filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Andijon, 2020.
3. Saliva. Ladies and Gentlemen. – Song lyrics, 2007.
4. Buddy. English-Russian Dictionary Entry. Online resource: https:// englishlib.org/dictionary/en-ru/buddy.html
5. Brown P., Levinson S. C. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
6. Norbayeva S. Xorazm shevalari leksikasidagi ayrim eskirgan so‘zlar tahlili //Conferences. – 2025. – T. 1. – №. 1.
7. Shukurjon N. Metaphor in Formation of Khorezmian Professional Lexis Level //ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies. – 2016. – T. 5. – №. 5. – C. 17-20.
8. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003.

LINGVOKULTUREMALARNING FOLKLOR ASARLARIDAGI O‘RNI

UO‘K 811.512



Azatova Nodira Anvarbek qizi,
tayanch doktorant,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
E-mail:
nodiraazatova@mail.ru

Annotatsiya.

Ushbu maqolada lingvokulturemalarning mohiyati, ularning lingvokulturologiyadagi o‘rni va folklor asarlarida namoyon bo‘lish xususiyatlari yoritiladi. Lingvokulturema tushunchasi til va madaniyatning uzviy bog‘liqligini ifodalovchi kompleks birlik sifatida talqin qilinadi.

Kalit so‘zlar:

lingvokulturema, lingvokulturologiya, folklor, madaniyat, konsept, milliy qiyofa, obraz.

Kirish. Lingvokulturemalar xalqning milliy madaniyatini til orqali aks ettiruvchi muhim birliklardan biri sanaladi. Ular til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatni bir vaqtning o‘zida ifodalay olishi bilan ahamiyatlidir. Shu sababli lingvokulturemalarni o‘rganish faqat tilshunoslik nuqtayi nazaridan emas, balki madaniyatshunoslik, etnografiya, falsafa va adabiyotshunoslik bilan bog‘liq holda ham dolzarb hisoblanadi. Folklor asarlari esa milliy hayot, urf-odat, tasavvur va e’tiqodlar jonli saqlanadigan manbadir.

“Til, madaniyat va inson shaxsi” [1] kabi uch muhim birlik asosida shakllangan lingvokulturemalar mohiyatini anglash uchun til va madaniyat, til va etnos, til va xalq mentalitetining bog‘liqligini anglash zarur. Negaki, lingvokulturemalar shaxs tili orqali muayyan tushuncha va konseptlarni o‘zida ifodalab keladi. Ular “konsept sifatida ontologik jihatdan yuksak umumlashtiruvchilik va tilning turli sathlari, vositalari orqali ifodalanish

[1] Люса Тер-Саргсян. Лингвокультурологический подход к обучению иностранному языку. – Publications.ysu.am/wp-content/uploads/2018/05/20Lyusya_Ter-Sargsyan.pdf

imkoniyatlariga egadir. Lingvokulturemalar har bir tilda o‘ziga xos semantik maydonni vujudga keltira oladi.[1]

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada folklor asarlaridagi lingvokulturemalarni aniqlash va ularning semantik-funksional xususiyatlarini yoritishda deskriptiv (tavsifiy), lingvokulturologik, komponent va kontekstual tahlil metodlaridan unumli foydalanildi. Shuningdek, milliy mentalitet va qadriyatlarning folklor matnlarida namoyon bo‘lish darajasini aniqlashda konseptual hamda etnolingvistik yondashuv tamoyillariga tayanildi.

Adabiyotlar tahlili. Hozirgi zamon tilshunosligida inson madaniyati, mentaliteti, urf-odatlari mazmun-mohiyatini ochib berishga qaratilgan, interpretatsiya yo‘nalishidagi mavzular bo‘yicha tadqiqotlar olib borish yetakchilik qilmoqda. Chunki til inson fikr tizimi, ruhiyati, madaniyati kalitidir. Shuningdek, til – millat ko‘zgusi hamdir. Taniqli tilshunos L.Elmesev fikricha, “til nafaqat shaxs stili tushunchasiga, balki o‘tmish avjodlarimiz hayoti voqealariga yo‘l ochishi mumkin”.[2]

Lingvokulturema termin sifatida til va ekstralingvistik mazmunning birligini anglatadi. Sohalararo kompleks birlik bo‘lgan “lingvokulturema” terminini tilshunoslikda ilk bor qo‘llagan V.V.Vorobev ta’kidlaganidek, “Lingvokulturema – bu lingvistik va ekstralingvistik (tushuncha yoki predmet) mazmuni dialektik birligini tashkil etgan kompleks birlikdir. Bu birlik so‘zga nisbatan “chuqur” ma’noga ega. Odatiy belgi – ma’noga kulturemaning tildan tashqari mazmuni, ya’ni madaniy tushuncha komponenti ham qo‘shiladi.” [3] Demak, oddiy so‘zdan farqli ravishda lingvokulturema o‘z ichiga nafaqat belgi va ma’noni, balki madaniy tajriba, milliy xotira va ijtimoiy tasavvurni ham qamrab oladi. Shu jihati bilan u tilning madaniy qavatini ochib berishda qimmatli material vazifasini bajaradi.

Muhokama va natija. Lingvokulturologiya doirasida lingvokulturemalarni o‘rganish tilda saqlangan milliy qadriyatlarni aniqlashga xizmat qiladi. Bu jarayonda so‘z ma’nosi faqat lug‘aviy izoh bilan cheklanmay,

---

[1]Зияев А.И. Инглиз тилида сўз маъноларини кучайтиришнинг лингвокогнитив аспекти: Филол. фан. номз.... дисс. – Т., 2009. – 150 б.; Зияев А. Инглиз тилида сўз маъноларини кучайтиришнинг когнитив талқини. Услубий қўлланма. – Фарғона, 2011. – Б.75.

[2] Ельмесев Л. Прологомены к теории языка / Новое в лингвистике. В.I. – М.,1960. – С.131-256.

[3] Воробьев В.В. Лингвокультурология (теория и методы): монография. – М.: Изд-во РУДН, 1997. – С.47-48.

balki uning tarixiy, ramziy va ijtimoiy qirralari ham hisobga olinadi. Mazkur yondashuv tilni milliy madaniyatning ko‘zgusi sifatida ko‘rish imkonini beradi.

V.A.Maslova lingvokulturemalarni klassifikatsiya qilib, ular tarkibiga afsonalashtirilgan til birliklari: arxitiplar, mifologemalar, urf-odatlar, sig‘inishlar, diniy marosimlar; ekvivalentsiz til birliklari, lakunalar; paremiologik til fondi; frazeologik til fondi; etalonlar, stereotiplar, ramzlar; til obrazlari va metaforalar; turli tillarning stilistik tarzi; nutq xulqi; muomala madaniyati kabilarni kiritadi.[1] Mazkur klassifikatsiyaga yana madaniy konnotatsiya ifodalaydigan so‘zlar va etnik mentalitet xususiyatlarini ham kiritsa bo‘ladi.

Lingvokulturemalar tarkibi til birliklariga qaraganda ancha murakkabdir. U o‘ziga nafaqat til hodisalarining shakl ma’nosini, balki tildan tashqari holat va muhitni ham qamrab oladi. Lingvokulturemalar tilda o‘z aksini topgan va til birligiga aylangan leksik birliklar bo‘lib, ularda xalq milliy madaniyati, etnik xususiyatlari yorqinroq namoyon bo‘ladi. Eng asosiysi, bu belgilar madaniyatda etalon, metaforik, ramziy ma’no ham kashf etadi.[2] Qisqacha qilib aytganda, lingvokulturemalar o‘zida lingvistik, madaniy, etnopsixologik va ekstralingvistik omillarni mujassamlashtiradi.[3] Tilning betakrorligi, milliy-madaniy ma’no xususiyatlari lingvokulturemalarda o‘z aksini topadi. Lingvokulturemalar til birligi sifatida so‘z ma’nosining madaniyat aks ettirilgan qismi bo‘lib, ularning ma’no-mazmun ko‘lami so‘zga nisbatan kengroqdir. Agar til birligi hisoblangan so‘z tarkibi – belgi va ma’nodan iborat bo‘lsa, lingvokulturemalar tarkibi – belgi-ma’no-tushuncha-predmetlardan tashkil topgan.

Bu fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, lingvokulturema konseptning tilda namoyon bo‘lgan madaniy shakli sifatida talqin qilinadi. Unda aqliy umumlashtirish ham, obraz yaratish ham, xalq tajribasini saqlash ham mujassamlashadi. Shu bois lingvokulturemalar faqat nomlash vazifasini emas, balki milliy dunyoni idrok etish usulini ham namoyon etadi.

Lingvokulturema va konsept bir-biriga yaqin, ammo to‘liq bir xil bo‘lmagan hodisalardir. Konsept ko‘proq mental va kognitiv sohani qamrab oladi, lingvokulturema esa shu mental mazmunning tilda madaniy belgilar orqali ifodalangan ko‘rinishidir. Yu.S.Stepanov konsept tarkibida tushuncha va inson

---

[1] Маслова В.А. Лингвокультурология: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / В.А. Маслова. – М.: Издательский центр Академия, 2001. – С.36-37.

[2] Карасик В.И. О категориях лингвокультурологии // Языковая личность: проблемы коммуникативной деятельности. – Волгоград, 2001. – С.3-12; Воробьев В.В. Лингвокультурология. – Москва: Изд.РУДН, 2006. – С.12.

[3] Красных В. Этнопсихология и лингвокультурология. – М.: Гнозис, 2002. – 284 с.

haqidagi qimmatli ma’lumotlar jamlanishini ta’kidlaydi. V.I.Karasik esa lingvokulturologik konseptlar tushuncha, obrazlilik va ma’lumotdan tashkil topishini ko‘rsatadi[1].

Lingvokulturemaning mohiyatini boychechak misolida ko‘rib chiqamiz. O‘zbek madaniyatida boychechak so‘zi lingvokulturemaga xos yorqin misollardan biri hisoblanadi. U bir tomondan, gul turini nomlaydi, ikkinchi tomondan esa bahorgi udumlar, taqvimiy marosim va milliy e’tiqodlar bilan bog‘liq madaniy mazmunni ifodalaydi. Demak, bu so‘zda predmetlik ma’no bilan bir qatorda milliy qadriyat ham yashaydi.

Badiiy ijodda boychechak ko‘pincha bahor, yangilanish va bolalik obrazi bilan bog‘lanadi. Uning birinchi bo‘lib ochilishi hayotning ilk pog‘onasi, poklik va umid timsoli sifatida talqin qilinishi mumkin. Shu sababli boychechak nomining maktabgacha ta’lim muassasalariga qo‘yilishi ham tasodifiy emas: bu yerda so‘z orqali bolalik, mehr va milliy obraz uyg‘unlashadi. Natijada lingvokulturema aniq predmet nomidan madaniy ramz darajasiga ko‘tariladi.

Lingvokulturemalarning folklordagi o‘rnini tushunish uchun til, madaniyat va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni e’tiborga olish kerak. Til faqat axborot uzatish vositasi emas, balki xalqning tarixiy tajribasi, urf-odati va estetik dunyoqarashini saqlovchi tizimdir. Shu ma’noda folklor matnlari lingvokulturemalarni jonli holda namoyon etadigan eng muhim maydonlardan biridir.

Globallashuv sharoitida turli xalqlarning madaniy xususiyatlarini o‘rganish va ularni to‘g‘ri talqin qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Folklordagi lingvokulturemalarni tahlil qilish orqali bir xalqning madaniy kodini anglash, boshqa xalq bilan muloqotdagi tushunmovchiliklarni kamaytirish va tarjima jarayonida milliy koloritni saqlash imkoni paydo bo‘ladi. Shuning uchun mazkur masala faqat nazariy emas, balki amaliy ahamiyatga ham ega.

Folklor asarlari xalqning og‘zaki ijodi sifatida milliy tafakkurni, urf-odatni va hayot tarzini eng tabiiy shaklda saqlaydi. Shuning uchun ularda lingvokulturemalar juda faol qo‘llanadi. Ertak, qo‘shiq, maqol, matal va dostonlarda uchraydigan milliy belgi va obrazlar tinglovchida madaniy assotsiatsiya uyg‘otadi va asarning ta’sirchanligini kuchaytiradi.

---

[1] Карасик В.И. О категориях лингвокультурологии // Языковая личность: проблемы коммуникативной деятельности. – Волгоград: Изд-во ВГПИ, 2001. – С.3-16; Красик В.И. Лингвокультурные концепты // Языковой круг: личность, концепты, дскурс. – М.: Гнозис, 2004. – 390 с.

Folklor asarlarida qo‘llanilgan lingvokulturemalar, avvalo, tinglovchida madaniy assotsiatsiya uyg‘ota olishi bilan qimmatlidir. Xuddi shu jihati bilan ular retseptiv jarayonlarning jonli va samarali kechishini ta’minlaydi.

Lingvokulturemalar folklor asarlari tarkibida turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Ularning bir qismi insonlarning milliy qiyofalari va ko‘rinishlari, fe’l-atvorlari, shaxsiy xarakter-xususiyatlari va fazilatlari, xatti-harakatlari, faoliyatlari, kasb-kori, orzu-intilishlari o‘ziga xosligini ifodalashga yo‘nalganligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun asarlarda qahramonlarning milliy xususiyatlarini ochib berishda, ayniqsa, ularning milliy qiyofasini yoritishda lingvokulturemalardan keng foydalaniladi. Shu tomonlama lingvokulturemalar har bir millatga xos shaxslarning xarakterini, milliy ruhiyatini haqqoniy, aniq ochishga, muayyan bir xalq madaniy turmush tarzi bilan bog‘liq voqeliklarni real tasvirlashga qaratilgani bilan e’tiborni tortadi.

Lingvokulturemalar ma’lum bir xalqqa xos bo‘lgan rasm-rusum, urf-odatlarni aks ettirishda faol namoyon bo‘lib, asardagi voqealarni ishonarli tasvirlab berishda muhim o‘rin tutadi. Sh.Safarov ta’kidlab o‘tganidek: “Qadriyatlar, hech qanday gumonsiz tafakkur jarayonida o‘z aksini topadi va shuning natijasida «madaniy ssenariylar» (cultural sctipts) yuzaga keladi, ularning olamda kechayotgan hodisalarni fikran va lisoniy voqelantirishda tutgan o‘rni alohida”.[1]

Lingvokulturemalar folklorda qahramon xarakteri, milliy qiyofa, tabiat tasviri va ijtimoiy munosabatlarni ochib berishda xizmat qiladi. Masalan, muayyan hayvon, meva, o‘simlik yoki urf-odat nomlari orqali bir xalqqa xos hayotiy muhit tasvirlanadi. Shu orqali folklor asari nafaqat badiiy, balki etnomadaniy hujjat vazifasini ham bajaradi.

Bundan tashqari, lingvokulturemalar personaj nutqida ham muhim o‘rin tutadi. Maqol va frazeologizmlar orqali qahramonning milliy ruhiyati, axloqiy me’yori va dunyoqarashi yorqinlashadi. Bu esa asarning pragmatik ta’sirini oshirib, matndagi ma’no qatlamlarini boyitadi.

Xulosa. Lingvokulturemalar til va madaniyat birligini namoyon etuvchi murakkab lisoniy- madaniy hodisadir. Ular so‘z ma’nosini kengaytirib, milliy tajriba, obraz, e’tiqod va qadriyatni birlashtiradi. Folklor asarlarida esa lingvokulturemalar xalqning milliy qiyofasini, estetik tafakkurini va tarixiy xotirasini saqlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

[1] Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Рисола. – Жиззах: “Санззор” нашриёти, 2006. – Б.72-73.

Demak, lingvokulturemalarni o‘rganish folklor matnlarini chuqur anglash, ularni to‘g‘ri talqin qilish va milliy madaniy merosni asrash uchun zarurdir. Boychechak kabi so‘zlar misolida bu birliklarning til, obraz va madaniy ma’lumotni birlashtiruvchi o‘ziga xos tabiati yaqqol ko‘rinadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Воробьев В.В. Лингвокультурология (теория и методы): монография. – М.: Изд-во РУДН, 1997. – С.47-48.
2. Ельмесев Л. Пролегомены к теории языка / Новое в лингвистике. В.I. – М.,1960. – С.131-256.
3. Карасик В.И. О категориях лингвокультурологии // Языковая личность: проблемы коммуникативной деятельности. – Волгоград, 2001. – С.3-12;
4. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – М.: Гнозис, 2004. – 390 с.
5. Красных В. Этнопсихология и лингвокультурология. – М.: Гнозис, 2002. – 284 с.
6. Люса Тер-Саргсян. Лингвокультурологический подход к обучению иностранному языку. – Publications.ysu.am/wp-content/uploads/2018/05/20Lyusya_Ter-Sargsyan.pdf
7. Маслова В.А. Лингвокультурология: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / В.А. Маслова. – М.: Издательский центр Академия, 2001. – С.36-37.
8. Norbayeva S. Xorazm shevalari leksikasidagi ayrim eskirgan so‘zlar tahlili //Conferences. – 2025. – Т. 1. – №. 1.
9. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Рисола. – Жиззах: “Санзор” нашриёти, 2006. – Б.72-73.
10. Xayitbayevna N. S. Xorazm shevalari leksikasidagi ba’zi qo ‘shma so ‘zlarning tarkibiy tahlili //Innovation and development. – 2026. – Т. 4. – №. 4. – С. 352-357.
11. Зияев А.И. Инглиз тилида сўз маъноларини кучайтиришнинг лингвокогнитив аспекти: Филол. фан. номз.... дисс. – Т., 2009. – 150 б.

ZAMONAVIY INGLIZ MOTIVATSION DISKURSIDA PERSUAZIV LINGVOPRAGMATIK MEXANIZMLAR: S.R. KOVEY, J. KLIR, B. BRAUN VA K. DVEK ASARLARI MATERIALIDA QIYOSIY TAHLIL

Xasanova Yulduz Muxtor qizi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Navoiy davlat universiteti dotsenti v.b.,
yulduzxasanova025@gmail.com
https://orcid.org/0009-0001-1051-3489

UO‘K 811.512

Annotatsiya. *Maqolada zamonaviy ingliz motivatsion diskursidagi persuaziv lingvopragmatik mexanizmlar to‘rt yetakchi muallif, ya’ni S.R. Koveyning “The 7 Habits of Highly Effective People”, J. Klirning “Atomic Habits”, B. Braunning “Daring Greatly” va K. Dvekning “Mindset” asarlari materialida qiyosiy tahlilga tortilgan. Tadqiqotning nazariy asosini J. Sirl illokutiv aktlar taksonomiyasi, F.R. Palmer modallik tipologiyasi hamda G. Leykof va M. Jonsonning konseptual metafora nazariyasi tashkil etadi. Empirik korpus yuz oltmish sakkiz diskurs fragmentini qamrab olgan bo‘lib, har bir muallif korpusining illokutiv profili, modallik dominanti va metaforik domenlari qiyoslangan. Tadqiqot natijalari to‘rt mualliflik diskursning o‘zaro to‘ldiruvchi persuaziv paradigmalarini shakllantirishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *motivatsion diskurs, lingvopragmatika, persuaziv strategiya, illokutiv akt, modallik, konseptual metafora, S.R. Kovey, J. Klir, B. Braun, K. Dvek.*

Аннотация. *В статье на материале произведений С.Р. Кови “The 7 Habits of Highly Effective People”, Дж. Клира “Atomic Habits”, Б. Браун “Daring Greatly” и К. Двек “Mindset” сравнительно анализируются персуазивные лингвопрагматические механизмы современного английского мотивационного дискурса. Теоретической основой исследования выступают таксономия иллокутивных актов Дж. Сёрла, типология модальности Ф.Р. Палмера, а также теория концептуальной метафоры Дж. Лакоффа и М. Джонсона. Эмпирический корпус охватывает сто шестьдесят восемь дискурсивных*

фрагментов; в каждом авторском корпусе сопоставлены иллокутивный профиль, модальная доминанта и метафорические домены. Результаты показывают, что четырёх-авторский дискурс формирует взаимодополнительные персуазивные парадигмы.

Ключевые слова: *мотивационный дискурс, лингвопрагматика, персуазивная стратегия, иллокутивный акт, модальность, концептуальная метафора, С.Р. Кови, Дж. Клир, Б. Браун, К. Двек.*

Abstract. *The article comparatively examines the persuasive linguopragmatic mechanisms of modern English motivational discourse on the material of four leading authors, namely S.R. Covey's "The 7 Habits of Highly Effective People", J. Clear's "Atomic Habits", B. Brown's "Daring Greatly" and C. Dweck's "Mindset". The theoretical basis of the study is constituted by J. Searle's illocutionary act taxonomy, F.R. Palmer's modality typology and G. Lakoff and M. Johnson's conceptual metaphor theory. The empirical corpus covers one hundred and sixty-eight discourse fragments; the illocutionary profile, modality dominant and metaphorical domains of each author corpus are compared. The results show that the four-author discourse forms complementary persuasive paradigms.*

Keywords: *motivational discourse, linguopragmatics, persuasive strategy, illocutionary act, modality, conceptual metaphor, S.R. Covey, J. Clear, B. Brown, C. Dweck.*

Kirish. Zamonaviy ingliz motivatsion adabiyoti so‘nggi o‘ttiz-qirq yil davomida o‘zining yaqqol janriy chegaralari, tanish uslublari va barqaror lingvopragmatik mexanizmlariga ega bo‘lgan diskurs makonini shakllantirdi. Ushbu makonning mashhur vakillariga S.R. Kovey, J. Klir, B. Braun va K. Dvek kabi mualliflar kiradi. Ularning asarlari nafaqat mualliflik falsafalarini, balki o‘ziga xos bo‘lgan milliy-madaniyatni aks ettiruvchi kognitiv-pragmatik

loyihalarni namoyish etadi. Mazkur maqolada aynan shu to‘rt mualliflik diskursida persuaziv lingvopragmatik mexanizmlar qiyosiy tarzda tavsiflanadi.

Tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy motivatsion diskursning yaxlit lingvopragmatik modelini yaratish zarurati bilan izohlanadi. Mazkur vazifa alohida bir muallif diskursi doirasidagi tahlil bilan cheklanmay, balki ko‘p mualliflik korpusi asosida olib borilgan qiyosiy tadqiqotni taqozo etadi. Zero, muayyan muallif diskursida aniqlangan lingvopragmatik qonuniyatlarning umumjanriy xususiyat kasb etishini isbotlash ularni motivatsion diskursning boshqa vakillari ijodi bilan qiyosiy tahlil qilish orqali ta’minlanadi.

Adabiyotlar sharhi. Motivatsion diskursning lingvopragmatik tabiati ko‘plab xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, G. Leykof va M. Jonsonning konseptual metafora nazariyasi motivatsion matnlardagi abstrakt konseptlarni tanish jismoniy tajriba domenlari orqali strukturalash mexanizmini asoslaydi [1, p. 5]. J. Sirl illokutiv aktlar taksonomiyasini beshta guruhga (vakil, direktiv, komissiv, ekspressiv, deklarativ) ajratib, motivatsion janrning pragmatik tuzilishini sistemalashtirish uchun asos yaratdi [2, pp. 1-23]. F.R. Palmer modallikning epistemik, deontik va dinamik tiplariga oid tipologiyasi motivatsion diskursdagi modal ustunlik masalasini metodologik jihatdan qamrab olishga imkon berdi [3, pp. 7-24]. Z. Kevichesh emotsional konseptualizatsiya nazariyasi orqali motivatsion matnlardagi tuyg‘ular sohasini yoritadi [4, pp. 3-13].

Persuaziv kommunikatsiyaning nazariy-metodologik asoslari J. Charteris-Blek ishlarida kritik metafora tahlili doirasida rivojlantirilgan [5, pp. 21-40]. O‘zbek tilshunosligida esa Sh. Safarovning pragmalingvistikaga oid tadqiqotlari motivatsion janrni tahlil qilish uchun uslubiy tayanch bo‘lib xizmat qiladi [6, B. 56-76]. To‘g‘ridan-to‘g‘ri mualliflar korpusiga oid mavjud tadqiqotlar odatda bitta muallifga qaratilgani sababli, ularni yagona lingvopragmatik matritsada qiyoslash yo‘li hozircha yetarli darajada o‘rganilmagan.

Metodologiya. Tadqiqot empirik korpusi to‘rt manba birlashmasidan iborat: S.R. Kovey “The 7 Habits of Highly Effective People” (2013) [7], J. Klir “Atomic Habits” (2018) [8], B. Braun “Daring Greatly” (2012) [9], K. Dvek “Mindset” (Ballantine Books, 2007-nashri) [10]. Tahlil to‘rt bosqichda o‘tkazildi. Birinchi bosqichda konseptual metafora identifikatsiyasi Pragglejaz guruhining MIP protokoli asosida amalga oshirildi. Ikkinchi bosqichda J. Sirl taksonomiyasi asosida illokutiv aktlar tasniflandi. Uchinchi bosqichda F.R. Palmer tipologiyasi asosida modallik profili tuzildi. To‘rtinchi bosqichda to‘rt muallif korpusining

natijalari o‘zaro qiyoslanib, ular o‘rtasidagi persuaziv paradigmatik farqlar aniqlandi.

Natija va Muhokama. Tadqiqot to‘rt mualliflik diskursning to‘rt farqli persuaziv paradigmasini oshkor etdi.

S.R. Kovey diskursi: tamoyilga asoslangan persuaziya. Kovey motivatsion muvaffaqiyatni tashqi taktikalardan ko‘ra universal tamoyillarga tayanish bilan izohlaydi. Uning ***“Habit is the intersection of knowledge, skill, and desire”*** [7, p. 47] fikri **odat – bilim, malaka va istakning kesishish nuqtasi** konseptual metaforasini yuzaga chiqaradi. Shuningdek, “***Most people do not listen with the intent to understand; they listen with the intent to reply”*** [7, p. 236] mulohazasi tinglashni passiv qabul qilish emas, balki anglashga yo‘naltirilgan kognitiv faoliyat sifatida qayta talqin etadi. Natijada **tinglash – idrokka olib boruvchi yo‘l** modeli shakllanadi. Ushbu diskursning modallik profili deontik dominant (**should, must, ought to**) bilan tavsiflanadi.

J. Klir diskursi: tizimga asoslangan persuaziya. Klir motivatsion natijani individual irodaning mahsuli emas, balki kundalik odatlar tizimining funksiyasi sifatida talqin qiladi. ***“Success is the product of daily habits, not once-in-a-lifetime transformations”*** [8, p. 18] g‘oyasi **muvaffaqiyat – kundalik odatlar mahsuli** konseptual modelini ifodalaydi. ***“You should be far more concerned with your current trajectory than with your current results”*** [8, p. 18] fikrida esa natija (state) va yo‘nalish (trajectory) o‘rtasidagi konseptual siljish kuzatilib, **samaradorlik – natija emas, yo‘nalishdir** modeli ilgari suriladi. ***“Time magnifies the margin between success and failure”*** [8, p. 19] jumlasi esa **vaqt – kumulyativ kuchaytiruvchi omil** metaforasini hosil qiladi. Ushbu diskursda dinamik modallik (**can, will, be able to**) ustunlik qiladi.

B. Braun diskursi: zaiflikka asoslangan persuaziya. Braun motivatsion kuchni tashqi mukammallik obrazida emas, balki zaiflikni tan olish va qabul qilish orqali izohlaydi. ***“Vulnerability is not weakness. It’s our greatest measure of courage”*** [9, p. 34] fikri zaiflik va jasorat o‘rtasidagi an'anaviy munosabatni qayta talqin qilib, **zaiflik bu – jasorat mezoni** metaforasini shakllantiradi. ***“Owning our story and loving ourselves through that process is the bravest thing that we’ll ever do”*** [9, p. 110] g‘oyasi shaxsiy tajribani konseptual egalik obyektiga aylantirib, **o‘z hikoyasiga egalik qilish – jasorat aktidir** modelini yuzaga chiqaradi. Braun diskursida epistemik modallik ekspressiv illokutiv qatlam bilan uyg‘unlashadi.

K. Dvek diskursi: tafakkurga asoslangan persuaziya. Dvek motivatsion salohiyatni shaxsning sobit yoki o‘suvchi tafakkur modeli bilan bog‘laydi. “***Becoming is better than being”*** [10, p. 25] fikri shaxsiyatni yakuniy holat emas, balki uzluksiz rivojlanish jarayoni sifatida talqin etib, **shaxsiyat – doimiy oqim** modelini hosil qiladi. ***“The view you adopt for yourself profoundly affects the way you lead your life”*** [10, p. 6] jumlasi **tafakkur qolipi – hayotning arxitektori** metaforasini ifodalaydi. ***“The passion for stretching yourself and sticking to it, even (or especially) when it’s not going well, is the hallmark of the growth mindset”*** [10, p. 7] fikri esa **rivojlanish – qiyinchiliklarni yengish jarayoni** konseptual modelini yuzaga keltiradi. Ushbu diskurs epistemik va deontik modalliklarning uyg‘unligi bilan xarakterlanadi.

Illokutiv taqsimot. To‘rt mualliflik korpusining qiyosiy tahlili persuaziv strategiyalarning o‘ziga xos taqsimotini ko‘rsatadi. Kovey korpusida direktiv nutq aktlari 68 % ni tashkil etadi. Klir korpusida direktiv-strategik aktlar 52 %, komissiv aktlar esa 22 % ulushga ega. Braun diskursida ekspressiv aktlar 40 %, vakil-refleksiv aktlar 38 % ni tashkil qiladi. Dvek korpusida vakil-tushuntirish aktlari 56 %, direktiv aktlar esa 24 % ga teng. Mazkur ko‘rsatkichlar to‘rtta persuaziv paradigmaning bir-birini to‘ldiruvchi tabiatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Xulosa. Tadqiqotda zamonaviy ingliz motivatsion diskursining to‘rt mualliflik korpusi lingvopragmatik nuqtai nazardan qiyosiy tahlil qilindi. Natijada **tamoyilga asoslangan** (Kovey), **tizimga asoslangan** (Klir), **zaiflikka asoslangan** (Braun) hamda **tafakkurga asoslangan** (Dvek) to‘rtta persuaziv paradigma ajratildi. Har bir paradigma o‘ziga xos illokutiv profil, modallik dominanti va konseptual metaforalar tizimiga ega bo‘lib, ularning integratsiyasi zamonaviy ingliz motivatsion diskursining yaxlit lingvopragmatik portretini shakllantiradi. Shu bois mazkur qiyosiy model motivatsion diskursni keyingi tadqiq etish uchun **barqaror** *tertium comparationis* vazifasini bajarishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 256 p.

2. Searle J.R. A Classification of Illocutionary Acts // Language in Society. – 1976. – Vol. 5, No. 1. – pp. 1-23.

3. Palmer F.R. Mood and Modality. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 236 p.

4. Kövecses Z. Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000. – 224 p.

5. Charteris-Black J. Politicians and Rhetoric: The Persuasive Power of Metaphor. – Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2011. – 264 p.

6. Safarov Sh.S. Pragmalingvistika. – Toshkent: "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 320 b.

7. Covey S.R. The 7 Habits of Highly Effective People. 25th Anniversary Edition. – New York: RosettaBooks, 2013. – 432 p.

8. Clear J. Atomic Habits: An Easy & Proven Way to Build Good Habits & Break Bad Ones. – New York: Avery, 2018. – 320 p.

9. Brown B. Daring Greatly: How the Courage to Be Vulnerable Transforms the Way We Live, Love, Parent, and Lead. – New York: Avery, 2012. – 320 p.

10. Dweck C.S. Mindset: The New Psychology of Success. – New York: Ballantine Books, 2007. – 288 p.

QURBON MUHAMMADRIZONING “BIR SIQIM TUPROQ” ASARIDA PEYZAJ QAHRAMON RUHIY OLAMINI AKS ETTIRISH VOSITASI SIFATIDA

Rustamova Dilnura Kuranboy qizi,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti talabasi

UO‘K 81'255

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Qurbon Muhammadrizoning “Bir siqim tuproq” tarixiy asarida qo‘llangan peyzaj tasvirlari ustidan izlanish olib boriladi, ushbu tabiat chizgilari qahramonlar ruhiyatini tasvirlashda qay tarzda qo‘llanilganligi tahlil qilinadi.*

Kalit so’zlar. *Abu Rayhon Beruniy, peyzaj, personaj ruhiyati, “Oltinqoziq”, Zuhro, qahramon ichki olami, tabiat hodisalari.*

Annotation. *This article examines the landscape images used in the historical work of Kurban Muhammadriza “Bir siqim tuproq” (“A Clump of Soil”) and analyzes how these natural features are used to describe the psyche of the characters.*

Keywords. *Abu Rayhan Beruni, landscape, character psyche, “Altinkaziq,” Zuhro, the inner world of the character, natural phenomena.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются пейзажные образы, использованные в историческом произведении Курбана Мухаммадризы “Бир сиким тупрок” («Кусок земли»), и анализируется, как эти природные особенности используются для описания психики персонажей.*

Ключевые слова: *Абу Райхан Беруни, пейзаж, психика персонажа, «Алтинказик», Зухро, внутренний мир персонажа, природные явления.*

Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo‘ldoshev shunday yozadi: *“Tasvirlangan badiiy olamda peyzaj ham muayyan o‘rin tutadi. Badiiy adabiyotda jonli va jonsiz tabiat manzaralari tasviriga peyzaj deyiladi. Peyzajning birinchi va oddiy vazifasi tasvir kechayotgan joyni anglatishdan iborat. Bir qarashda jo‘ngina ko‘ringan bu vazifaning o‘qirmanga ko‘rsatadigan estetik ta’siriga nopisand yondashib bo‘lmaydi. Ko‘pgina hollarda badiiy*

asardagi voqea sodir bo‘lgan joy tasviri syujet rivoji yoki kayfiyat va ruhiy holat ifodasi uchun katta ahamiyat kasb etadi”. [2, 131]

Badiiy ijodiyot qiymati uning ta’sirchanligi, kitobxonni o‘z dunyosiga torta olishi, qahramonlar ruhiyatini qay darajada tasvirlay olishi kabi bir qancha unsurlar bilan o‘lchanadi. Ayni paytda, bu jihatlarni yuzaga chiqaruvchi ba’zi omillar mavjud bo‘lib, ulardan eng asosiysi inson ruhiyatini tabiat bilan yonma-yon tasvirlashdir. Adabiyotshunos D.Quronov shunday ta’kidlaydi: *“...adabiyot insonni alohida (izolyatsiya qilingan) holda emas, balki jamiyat, tabiat (bir so‘z bilan aytganda-borliq) bilan birgalikda, uzviy aloqada o‘rganadi. Zero, insonning o‘zini ulardan holi, izolyatsiya qilingan holda tasavvur etib bo‘lmaydi, inson tabiatan ijtimoiy hodisadir”[3, 30].* Darhaqiqat, insonlar borliqning bir bo‘lagi bo‘lganligi sababli ham, tashqi muhit bilan uzviy bog‘liqlik kasb etadi. Shunday ekan, badiiy asar qahramoni holati va atrof-muhit tasviri baravar anglashiladi.

Qurbon Muhammadrizoning “Bir siqim tuproq” (ikkinchi nomi “Abu Rayhon Beruniy”) asarida ham muallif tomonidan tabiat tasviriga katta e’tibor qaratilgan. Mazkur ijod namunasi Abu Rayhon Beruniy hayotiga bag‘ishlangan tarixiy asar bo‘lib, unda qatnashgan Sulton Mahmud, Abu Ali ibn Sino, Qoljibibi, Oltintosh, Rayhona, Chandola va shunga o‘xshash boshqa bir qator obrazlar ruhiy holatini tasvirlash, o‘y-xayollarini bayon qilish jarayonida muallif peyzajga murojaat qiladi. Asarni diqqat bilan o‘qigan har qanday kitobxon muallifning tabiat hodisalaridan samarali foydalanganini sezmay qolmaydi.

Masalan, Sulton Mahmud Xorazmni bosib olib, u yerdagi olim-u ulamolarni G‘azna shahriga olib ketayotganida Abu Rayhon Beruniy holsizlangan bir qulga joy bergani uchun allomaga g‘azab qiladi. Bu holatda allomaning unga bergan oqilona javobi podshohni o‘yga tortadi: *“Sulton Mahmud yashin urganday bir nafas jimib qoldi. Shu bir zum ichida otasi Sabuqteginning quljallob tomonidan Nishopurda somoniylarning G‘aznadagi noibi Alpteginga sotib yuborilgani, ya’ni o‘zining ham bir vaqtlari qul xonadonida tug‘ilganini, onaizorining to‘kkan ko‘z yoshlarini istamasa-da bugun ilk bora esladi”[1, 10]*. Allomaning so‘zlari podshoh qalbini bir muddat o‘ylar girdobiga tortishi muallif tomonidan yashin urishiga o‘xshatilmoqda. Bu vaziyatda personaj ichki olami va tabiat hodisasi o‘rtasidaga o‘xshashlik nazarda tutilayotgan bo‘lsa, quyidagi jumlalarda qahramon tabiatga boqib o‘z kelajagini ko‘rishi aks etadi: *“... tasodifan yulduzli kahkashon osmonga tikildi: shimol tomon yorqin yulduzlar*

bilan ziynatlangan, Qutb yulduzi esa barisidan yarqiroq edi. Osmon go‘yo marvarid terilgan shoda va oq nilufarga bog‘langan marjonlarni bo‘yniga taqib o‘ynab turgan go‘zal raqqosa qizdek o‘sha “Oltinqoziq” atrofida aylanib turardi. “Butun koinot aylanib turibdi-ya tegrasida!”- xayolga berildi jahongir. U o‘zini Qutb yulduziga tengladi, Alloh yor bo‘lsa, butun olam uning atrofida xuddi shunday aylanajak!” [1, 10] Qadim-qadimlardan munajjimlar osmon jismlari, ayniqsa, yulduzlarni ta’birchilikda samarali qo‘llaganlar, ularning inson taqdirini oldindan anglata olishiga ishonilgan, xuddi mazkur jumlalardagidek. Sulton Mahmud o‘zini oltindan bo‘lgan tebranmas qoziqqa (eng yorug‘ yulduzga) va dunyoni shu qoziq atrofida tinimsiz aylanuvchi yulduzlarda o‘xshatadi.

Bundan tashqari, asarning “Qoljibibining muhabbati” va…” bo‘limida Sulton Mahmudning Xorazmshohdan tul qolgan singlisi Qoljibibining Abu Rayhon Beruniyga nisbatan tuyg‘ulari bayon qilinadi. Bir kuni malika allomani yoniga chaqiradi. *“Kun botib, qosh qoraya boshlagan edi. Abu Rayhon “Borsammi, bormasammi?” deb biroz ikkilanib turdi. Osmonga qaradi. Havo ochiq, musaffo. G‘arb ufqida Zuhro charaqladi. Alloma beixtiyor Rayhonani esladi”. [1, 100]* mazkur jumlalarda ham yulduzlar orqali insonlarga ishora mavjud bo‘lib, Abu Rayhon Beruniy Zuhro, ya’ni Venerani ko‘rgach, xayoliga ushbu yulduzdek go‘zal bo‘lgan, allomani qutqarish uchun jon bergan sevgilisi Rayhona keladi. Bundan anglashiladiki, yulduzlar tasviri orqali muallif qahramonlar his-tuyg‘ularini jo‘n tushuntirib bera oladi. Zuhro yulduzi nomini o‘qigan kitobxon, albatta, ishq-muhabbat ta’rifi borligini tushunadi.

Asarda Sulton Mahmudning ikkinchi xotini Nozbekaning qismati bayon qilinadi, uning akasi uni sevgan yigitiga emas, Sulton Mahmudga majburlab erga bergani haqida o‘z tilidan bayon qilina turib, akasi uni sevgani Yahyo bilan ko‘rib qolganini aytadi: *“Tiniq osmonda momaqaldiroq gurillaganday bo‘ldi… Havo bekorga aynimagan ekan shu palla. Ota vafot etgach, taxtni egallagan farzand mansab deb, osoyish deb singlisini, uning ra’yiga qarab o‘tirmasdan, muhabbatini, haq-huquqini poymol qilib, g‘ayri elga sovg‘a qildi-yubordi”. [1, 60]* Bundan ko‘rish mumkinki, muallif o‘sha paytda guldiragan momaqaldiroqqa kuchli ma’no yuklaydi, ularning sof muhabbati tugatilganligi, taqdirlari ayro bo‘lganligidan darak berib turganiga ishora qiladi.

Yoki “Tavbang qabul qilinmaydigan kun” bo‘limida muallif shunday yozadi: *“Dorussaltana. Tunning yarmi. Tiniq osmondagi sanoqsiz yulduzlar G‘azna bag‘riga nayzaday sanchilmoqda. Oysiz tun soya tashlagan muhtasham gumbazli masjid va minoralar, karvonsaroylar, bir-biriga tutashib ketgan*

hashamatli imoratlar huvillab yotgan katta qabristonni eslatadi. Ko‘chalar vahimali, bironta derazada chiroq yorug‘i ko‘rinmaydi. Xo‘rozlar qichqirishni, itlar ham hurishni “unutgan” go‘yo”.[1, 228] Mazkur tasvirdan yurt boshi tashvishga kirib qolganini anglash qiyin emas. Bu peyzaj podshoh Sulton Mahmudning og‘ir xastalikka uchragani, o‘lim to‘shagida yotgani nufusga qay darajada ta’sir qilganini ko‘rsatish uchun qo‘llanilgan. Muallif atrof-muhitni “qabriston”ga qiyoslash orqali poytaxtning vahimali holatni chizib bera olgan. Yulduzlar “nayza”ga o‘xshatilayotgani ham bunga dalil bo‘la oladi.

Yuqoridagi kabi misollarni asarda ko‘plab o‘rinlarda uchratish mumkin, eng asosiysi, bu tabiat tasvirlari orqali ijodkor o‘zi ko‘zlagan maqsadga to‘laqonli yeta olgan, ya'ni har bir tasvir yordamida personajlarning ruhiyatini chuqurroq anglashga imkon yarata olgan. Asar qahramonlarining achchiq qismati, qayg‘u-alami, ilojsizligi, yoki aksincha, quvonch-u shodligi atrof-muhit holatini ham qo‘shimcha qilish orqali yanada to‘liqroq ochib berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qurbon Muhammadrizo. Bir siqim tuproq. - Toshkent: Noshirlik yog‘dusi, 2019.

2. Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent, 2016.

3. Dilmurod Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Innovatsiya – Ziyo, 2020.

QO‘ZI DAVLAT NASRIDAGI TROPLARNING LINGVOPOETIK TAHLILI
ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТРОПОВ В ПРОЗЕ КУЗИ ДАВЛАТА
LINGUOPOETIC ANALYSIS OF TROPES IN QOZI DAVLAT'S PROSE

Jumaniyazova Dildora Xudoyorovna,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
dildora030894@gmail.com

UO‘K 81'255

Annotatsiya. *Maqolada Qo‘zi Davlat nasridagi troplar – metafora, metonimiya, sinekdoxa – lingvokulturologik va kognitiv-stilistik metodlar vositasida tahlil qilingan. Shuningdek, metafora tabiatni jonlantirish va ruhiy holatni ko‘rsatishga, metonimiya va sinekdoxa esa ma’noni ixcham va ta’sirchan ifodalashga xizmat qilishi ochib berilgan.*

Аннотация. *В статье анализируются тропы – метафора, метонимия, синекдоха – в прозе Кузи Давлата с помощью лингвокультурологических и когнитивно-стилистических методов. Также исследование показывает, что метафора служит олицетворению природы и передаче эмоций, а метонимия и синекдоха обеспечивают лаконичность и выразительность речи.*

Abstract. *This article analyzes tropes – metaphor, metonymy, synecdoche – in Qo‘zi Davlat's prose using linguoculturological and cognitive-stylistic methods. The study demonstrates that metaphors serve to personify nature and convey emotions, while metonymy and synecdoche enhance conciseness and artistic expressiveness.*

Kalit so‘zlar: *nasr, troplar, lingvopoetika, semantik tahlil, metafora, metonimiya, sinekdoxa, badiiy matn, stilistika, paremiologiya.*

Ключевые слова: *проза, тропы, лингвопоэтика, семантический анализ, метафора, метонимия, синекдоха, художественный текст, стилистика, паремиология.*

Keywords: *prose, tropes, linguopoetics, semantic analysis, metaphor, metonymy, synecdoche, literary text, stylistics, paremiology.*

Kirish. Tilshunoslik va adabiyotshunoslikda badiiy asarning estetik qimmatini, ifodaliligi va ekspressivligini kuchaytirish maqsadida so‘zlarning ko‘chma ma’noda qo‘llanishi mazmuniy ko‘chimlar – troplar tizimini tashkil etadi. Semantik tabiatiga ko‘ra, badiiy matndagi ko‘chimlar quyidagi mezonlar asosida tasniflanadi: 1) miqdoriy ko‘chishga asoslangan troplar – bu guruhga, asosan, *giperbola* va *meyozis* kabi hodisalar kiritiladi; 2) sifatiy ko‘chishga asoslangan troplar – bu toifaga so‘z semantikasidagi sifat o‘zgarishlarini aks ettiruvchi *metafora*, *metonimiya*, *sinekdoxa* va *ironiya* kabi asosiy nutqiy vositalar kiradi [16, 29-30].

Tarixiy taraqqiyot nuqtayi nazaridan, nutqning badiiy obrazliligini ta’minlovchi ushbu tasviriy vositalar qadimgi grek, hind va rim ritorikasi vakillari tomonidan tizimlashtirilgan bo‘lib, bugungi zamonaviy tasniflar ham ushbu antik tamoyillarga tayanadi. Antik ritorikada troplar so‘z darajasidagi morfologik hodisa, nutqiy figuralar esa sintaktik hodisa sifatida farqlangan [2, 178]. Keyinchalik rus tilshunosligida, aniqrog‘i, A.A.Potebnya va A.N.Veselovskiylarning ilmiy izlanishlarida trop hamda uslubiy figuralarning badiiy matndagi o‘rni, ahamiyati o‘z ifodasini topdi [13; 6].

Yevropa tilshunosligida ko‘chimlar hosila ma’no yuzaga kelishi hodisasi bilan bog‘liq holatda o‘rganiladi. Jumladan, J.Maruzoning lug‘atida ham, nemis tilining ensiklopedik lingvistik lug‘atida ham hosila ma’no hosil bo‘lishi 3 ga bo‘linadi: metafora, metonimiya va sinekdoxa [9, 1094-1096]. S.Ulman esa ikkiga, ya’ni metafora va metonimiyaga ajratib izohlaydi [15, 276]. L.A.Bulaxovskiy hosila ma’no yuzaga kelishi 6 ko‘rinish (metafora, vazifadoshlik, emotsionallik, metonimiya, xalq etimologiyasi, aloqadorlik ko‘rinishi)da bo‘lishini qayd qiladi [5, 57-63]. O‘zbek tilshunosligida mazkur yo‘nalish tizimli ravishda tadqiq etilgan bo‘lib, R.Qo‘ng‘irov o‘z tadqiqotlarida *metafora, metonimiya, sinekdoxa, o‘xshatish va sifatlash*ni troplar sifatida; *takror, anafora, ironiya, antiteza, gradatsiya, perifraza* kabi vositalarni esa uslubiy figuralar sirasiga kiritadi [7, 81]. Bugungi kunda tilshunoslikda troplarga *paradigmatik*, figuralarga esa *sintagmatik* hodisa sifatida yondashish ustuvorlik qilmoqda.

Metafora (sharq she’riyatshunosligida *istiora*) – predmet va hodisalar o‘rtasidagi nisbiy o‘xshashlik yoki qiyosga asoslanuvchi, mohiyatan yashrin o‘xshatishdan iborat bo‘lgan eng faol ko‘chim turidir. Alisher Navoiy davri va undan keyingi mumtoz poetikada istiora majozning bir ko‘rinishi sifatida, lafzni o‘z asl ma’nosidan boshqa ma’noga ma’lum bir aloqadorlik va munosabat asosida ko‘chirish sharti bilan izohlangan [4, 65-66]. Ushbu ko‘chim turi nafaqat lingvistika va adabiyotshunoslik, balki umuminsoniy madaniyat hamda san’at fenomeni sifatida qadimdan tadqiqotchilar va so‘z san’atkorlarining diqqat markazida bo‘lib kelgan. N.Mahmudov ta’kidlaganidek, mazkur hodisa ikki ming yildan ziyod vaqt davomida jahon filologiyasida o‘rganilib kelinayotgan bo‘lsa ham, o‘tgan yuz yillikning boshlariga qadar u faqat ritorika va stilistika, ya’ni sof badiiyat chegarasi sifatida qabul qilindi; uni ilmiy tilga, aniq fan terminologiyasiga begona unsur deb baholash tamoyili ustuvor bo‘ldi [1, 3]. Metafora o‘z tadqiqining ilk kunlaridanoq o‘xshatish bilan bog‘liq holatda tadqiq qilingan. Jumladan, Aristotel ushbu ko‘chimga o‘xshatishning bir turi sifatida qaragan [3, 219]. O‘xshatishlarni maxsus tadqiq qilgan M.Mukarramov metaforaning o‘xshatishdan farqlovchi belgilarini alohida qayd qiladi [12, 16].

Ilmiy manbalarda metaforalar ikki asosiy funksional guruhga ajratiladi: a) lingvistik metaforalar – tilning tabiiy semantik va leksik taraqqiyoti, tizimli lug‘at boyligining ortishi bilan bog‘liq holda yuzaga keladi; b) xususiy-muallif metaforalari – muayyan matnda badiiy-estetik va konnotativ vazifalarni bajarib, individual uslubni ifodalaydi. M.Mirtojiev tasnifiga ko‘ra, metaforalar mazmuniy jihatdan uch turga bo‘linadi: 1) oddiy metafora; 2) personifikatsiya (jonlantirish); 3) sinesteziya (sinestetik metafora). Sinestetik metaforalarda hosila ma’noning bir sezgi a’zosi orqali qabul qilingan referenti boshqa bir sezgi a’zosi referentiga qiyoslanishi kuzatiladi [11, 99]. Metaforaning bu ko‘rinishi va uning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida N.Mahmudov batafsil to‘xtaladi hamda “ular, xususan, bizning filologiya ilmimizda muntazam o‘rganilgan emas [10, 6]”ligini alohida qayd qilgan.

Metodologiya. Ushbu maqolada troplar, ya’ni metafora, metonimiya va sinekdoxa bo‘yicha to‘plangan nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, ya’ni adib Qo‘zi Davlat nasridan olingan boy badiiy-faktik materiallarni lingvopoetik va semantik jihatdan tahlil qilish asosiy metodologik yondashuv qilib olindi. Unda antik davrdan to zamonaviy kognitiv tilshunoslik hamda o‘zbek filologiyasigacha bo‘lgan ilmiy qarashlar qiyosiy-tahliliy hamda umumlashtirish metodlari vositasida o‘rganilib, nazariy baza shakllantirildi. Badiiy matn tahlili jarayonida

semantik guruhlash, lingvokulturologik hamda kognitiv-stilistik tahlil usullaridan unumli foydalanilgan bo‘lib, bu orqali yozuvchi asarlarida qo‘llangan ma’no ko‘chimlarining ekspressiv-estetik vazifalari, muallifning individual mahorati va milliy paremalarning lingvopoetik o‘rnini tizimli ravishda yoritib berishga harakat qildik.

Muhokama va natijalar. Badiiy adabiyotda ijodkorning til imkoniyatlaridan nechog‘li mahorat bilan foydalangani uning voqelikni estetik qayta ishlash darajasini belgilaydi. Q.Davlat o‘z nasriy asarlarida xalq tilining jonli xazinasidan, iboralar, maqol va matallardan unumli foydalangan holda, betakror tasviriy vositalar tizimini yaratgan. Quyida adibning 2020-yil “Quvanchbek-Mashhura” MChJ nashriyotida chop qilingan “Turmush bekatlarida” roman-essesidan (shartli qisqartmada – TB) olingan faktik materiallar asosida ushbu ma’no ko‘chishlarining lingvopoetik xususiyatlari haqida to‘xtalamiz.

Q.Davlat nasrida metaforalar tasvirlanayotgan detalni jonlantirish, emotsional bo‘yoqni kuchaytirish va muallifning ichki kechinmalarini ko‘rsatishga xizmat qilgan. Adibning nasriy asarlardagi metaforalarni quyidagicha semantik guruhlarga ajratib tahlil qilish mumkin:

1. Tabiat hodisalarining jonlantirilishi bilan bog‘liq metaforalar. Yozuvchi tabiatni tirik, his qiluvchi subyekt sifatida tasvirlaydi. Bu esa tabiat detallariga insoniy xususiyatlarni ko‘chirish (personifikatsiya) orqali amalga oshiriladi. Masalan, “Qahraton qish chekinib... to‘qay va ko‘llarga toza *jon kiradi*” (TB, 4) hamda “…ariq bo‘ylaridagi o‘t-o‘lanlarga toza *jon kirdi*” (TB, 44). Bu yerda *jon kirishi* (tiriklik xususiyati) o‘simliklar olami va suv havzalarining bahorda uyg‘onishiga ko‘chirilgan. Yoki “Uzoq qishda *mudrab yotgan* parranda va darrandalar” (TB, 4) jumlasidagi *mudrash* insonga xos umidsizlik, charchoq holati bo‘lib, u qishki hayvonot olami passivligiga ko‘chirilmoqda. “Oftob qizg‘ish tusga kirib, *yotog‘iga yo‘l olmoqda*” (TB, 30) gapida quyoshning ufqqa botishi insonning uxlash uchun o‘z uyiga (*yotog‘iga*) yo‘l olishi sifatida faollashtirilgan. Quyidagi gapda osmonning bulut bilan qoplanishi, bo‘ron va sovuq boshlanishi insonning g‘azablanganda ahvoli o‘zgarishiga va ustiga maxsus kiyim (*g‘azab to‘ni*) kiyib olishiga mental bog‘langan: “Havo *g‘azab to‘nini kiygan*” (TB, 39).

2. Ruhiy holat, ichki kechinma va mavhum tushunchalar bilan bog‘liq metaforalar. Bunda odamning ruhiy azoblari, hayajonlari yoki jamiyatdagi

ijtimoiy hodisalar konkret jismoniy narsalarga o‘xshatiladi. Masalan: “Bot-bot armon *cho‘g‘*ida qovrilib, hijron *olov*ida yonasan” (TB, 12), “hijron *o‘t*iga qovrilib” (TB, 18) ifodalarida sog‘inch, ayriliq va armon kabi mavhum tuyg‘ular kuydiruvchi vositalarga (*olov, cho‘g‘* va *o‘t*ga) o‘xshatilib, insonning ichki iztiroblari vizuallashtirilgan. Yoki “Qalbimizda *miltillagan* umid *uchqun*lari *so‘na boshladi*” (TB, 21) gapida umid tuyg‘usi miltillab turgan *olov uchquni*ga mental ravishda o‘xshatiladi; umidning yo‘qolishi esa *olovning so‘nishi*dir. Adibning “Ayollarning yalinib-yalvorishi *muzlagan* qalbini aslo *eritmasdi*” (TB, 22) jumlasida rahm-shafqatsiz insonning qalbi *muz*ga, uni yumshatish harakati esa *muzni eritish*ga metaforik o‘xshatilmoqda. Shuningdek, “Adabiyot *ummon*iga shu qadar sho‘ng‘ib ketdiki, undan *gavharu durlar* terib chiqa boshladi” (TB, 213) gapida adabiyot – *bepoyon ummon*ga, unda yaratilgan durdona asarlar esa *qimmatbaho dur* va *gavharlar*ga metafora qilingan.

3. Inson qiyofasi, sifatlari va ijtimoiy obrazlar bilan bog‘liq metaforalar. Q.Davlat qahramonlarning xarakteri yoki tashqi ko‘rinishini baholashda ham metaforadan o‘rinli va samarali foydalanadi. Masalan: dushman haqidagi “*Turqi sovuq ilon* vishshillab...” (TB, 13) yoki urush haqidagi “Germon degan *yalmog‘iz* bosib kelayotganmish” (TB, 13) ifodalarida urush va dushman obrazi xalq ertaklaridagi salbiy, qo‘rqinchli kamikadzelar (*yalmog‘iz, ilon*) sifatida gavdalantiriladi. Yoki “*Shayton suvi*dan otib olgach...” (TB, 17) jumlasida spirtli ichimlik (aroq) insonni yo‘ldan uruvchi, salbiy harakatlarga boshlovchi *shayton suvi* sifatida majoziy nomlangan. Shuningdek, adib qo‘llagan “U issiq o‘rnini bo‘shatib qo‘yishni istamaydi” (TB, 184) gapidagi *issiq o‘rin* – qulay, daromadli, tinch lavozim yoki ish joyining sinonimik metaforasidir.

Metonimiya grekcha so‘z bo‘lib, “boshqacha nom berish” degan ma’noni bildiradi va tashqi ko‘rinishi yoki ichki xususiyatlari bilan bir-biriga aloqasi bo‘lsa ham, lekin bir-biriga o‘xshamagan narsalar belgilari chog‘ishtiriladi. Metonimiya mumtoz adabiyotda majoz nomi bilan yuritiladi va ikki tushuncha o‘rtasidagi yaqinlikka asoslangan ko‘chma ifodani anglatadi [8,22]. Bu ko‘chim ikki predmet, tushuncha yoki hodisa o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik va aloqadorlik (qayta nomlash) asosiga quriladi. Ushbu aloqadorlik quyidagicha namoyon bo‘lishi mumkin: a) *makon va undagi insonlar:* “stadion hayqirdi”, “butun shahar qatnashdi”; b) *vaqt va holat:* “og‘ir kun”, “omadli yil’; d) *muallif va uning asarlari:* “Fuzuliyni o‘qimoq”; e) *xomashyo va undan yasalgan buyum:* “barmoqlari to‘la tilla”.

Badiiy nutqda metonimiya metaforaga nisbatan kamroq qo‘llanib, estetik faolligi jihatidan undan keyingi o‘rinda tursa ham, fikrni lo‘nda, qisqa va ta’sirchan ifodalashda muhim pragmatik ahamiyatga ega. Q.Davlat asarlarida metonimiyalar voqea-hodisalarni ixcham va badiiy ta’sirchan tarzda ifodalash uchun xizmat qiladi. Ularni shartli ravishda ikki guruhga ajratib tahlil qilish mumkin:

1. Idish va ichidagi narsa (yoki makon va undagi odamlar) munosabatiga asoslangan metonimiyalar. Masalan: “Kuz keldi deguncha o‘sha *ko‘llar* ovul yosh-yalanglarini go‘yo ohangrabodek o‘ziga chorlaydi” (TB, 4) gapida adib *ko‘llar* (makon) orqali ko‘ldagi baliq ovlash, cho‘milish yoki dam olish kabi mashg‘ulotlarni nazarda tutmoqda. Yoki “To‘y desa *tomdan tik tashlaydigan* xotin-xoloj...” (TB, 5) ifodasidagi *tomdan tashlash* harakati orqali to‘yga bo‘lgan haddan tashqari kuchli ishtiyoq, xursandchilik va shovqin; “Butun *Xorazm* qirg‘oqqa ko‘chib chiqqandi” (TB, 173) gapida geografik hudud nomi (*Xorazm*) orqali shu hududda yashovchi aholi va odamlar (makon ↔ unda yashovchilar) nazarda tutilgan. Shuningdek, “*Zal* ham sukunat soyiga cho‘mganday bo‘ldi” (TB, 46) gapida *zal* (bino qismi) orqali unda o‘tirgan barcha odamlar, yig‘ilish ishtirokchilari nazarda tutilmoqda.

2. Belgi, qurol va harakat vositasi orqali tushunchaning ifodalanishi. Masalan: “Qizil imperiyaning o‘tkir *qilich*i qonga bo‘yalgan...” (TB, 11) gapida *qilich* so‘zi aloqadorlik asosida sobiq sho‘ro davlatining qatag‘on va zo‘ravonlik siyosatini, jazolash tizimini ifodalamoqda. Yoki “Otam arava *ko‘krag*iga kiygiz, ko‘rpacha to‘shab... o‘zlari aravaning qoshiga qo‘ndilar” (TB, 16) jumlasida aravaning old qismi inson ko‘kragi va qoshiga sifatlangan bo‘lib, arava elementlarini bildiradi. Adib ayrim ifodalarida *po‘lat izlar* metall materiali orqali temir yo‘l relslarini metonimik tarzda (ashyo materiali ↔ buyum) anglatgan: “Shahardan daryo bo‘yiga matovoz qatnashi uchun *po‘lat izlar* yotqizilgan” (TB,16). Adib istifoda qilgan “Barchamizning ko‘zimiz amaldorlar og‘zida” (TB, 20) va “hamma akamning og‘ziga qarab...” (TB, 27) va “barcha yigitning og‘ziga tikilib...” (TB, 83) kabi ifodalarda odamning gapiruvchi a’zosi – *og‘iz* tilga olinishi orqali insonlarning undan chiqadigan so‘zlarga, qarorlarga, ma’lumotlarga diqqat bilan kutib turish holati ko‘rsatilgan bo‘lsa, “Qizginamning *qo‘llari* shirin” (TB, 77) gapida shirinlik qo‘lga emas, balki qizning pazandalik mahorati va tayyorlagan taomlariga tegishli bo‘lib, qism (*qo‘l*) orqali uning iqtidori (butun) ifodalangan.

Sinekdoxa grekcha so‘z bo‘lib, majozning bir turi sanaladi. Unda bir butun narsa, hodisa va inson haqida uning uzviy bir qismi, bo‘lagi haqida fikr yuritiladi yoki boshqacha qilib aytganda, butun o‘rnida qism yoki qism o‘rnida butunning qo‘llanishidir. O‘zbek tilida aksariyat holatda birlik ko‘plik o‘rnida yoki qism butun o‘rnida keladi [8, 24]. Ma’lumki, sinekdoxa L.A.Bulaxovskiy, N.M.Shanskiy, D.N.Shmelyev, E.B.Agayan, E.Berdimuradov, O.Azizov kabi ayrim tadqiqotchilar tomonidan metonimiyaning bir ko‘rinishi sifatida qayd qilingan [11, 90-91]. A.A.Reformatskiy yuqoridagi olimlardan farqli ravishda sinekdoxani alohida hodisa sifatida talqin qilgan va bu hodisani uch ko‘rinishga bo‘lib ko‘rsatadi [14, 112].

Demak, sinekdoxa miqdoriy munosabatlarga – butun orqali qismni yoki qism orqali butunni, birlik orqali ko‘plikni ifodalash tamoyiliga tayanadi. Bu ko‘chim turi ham lirik va nasriy matnlarda fikrning siqiqligi va obrazliligini ta’minlovchi eng samarali til birliklaridan hisoblanadi. Q.Davlat nasrida inson a’zolari va uning shaxsiyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatishda sinekdoxa juda keng va o‘ziga xos tarzda qo‘llanilgan. Bu ko‘chimni ham shartli ravishda 2 xil ko‘rinishda tahlil qilish mumkin:

1. Jismoniy a’zolar orqali butun shaxsni ifodalash. Yozuvchi insonning muayyan tana a’zosini (*ko‘z, jon, og‘iz, qo‘l, peshona*) tilga olish orqali uning butun borlig‘ini yoki oilaviy ahvolini ochib berishga harakat qiladi. Masalan: “Jo‘jabirday *jon* uchun...” (TB, 45), “jo‘jabirday *jon*ni boqish” birikuvlaridagi *jon* butun bir oila a’zolarini, tirik insonlarni anglatish uchun qo‘llangan. “Yeyman-ichaman deb turgan *yetti nafar jon*ni boqish” (TB, 18) yoki “*sakkiz juft qorako‘z* yeyman-ichaman deb tursa...” (TB, 32) kabi tasvirlarda esa ye*tti nafar jon* va *sakkiz juft qorako‘z* (ko‘zlar – qism) orqali oiladagi murg‘ak, boqimanda yosh bolalar nazarda tutilgan.

2. Ko‘plik va birlik shakllarining o‘zaro almashishi. Masalan: “*Germon* degan bir yalmog‘iz bosib kelayotganmish” (TB, 13) gapida *Germon* (Germaniya so‘zining o‘zlashtirilgan shakli) faqat bir davlatni emas, balki Ikkinchi jahon urushida bostirib kelgan fashistlar armiyasini anglatmoqda. Yoki “Toshkent faqatgina *o‘zbek*ni emas... peshonasini silab, non-tuz tutdi” (TB, 100) jumlasida *o‘zbek* so‘zi birlikda qo‘llanib, umuman o‘zbek xalqini va Toshkentga ko‘chib kelgan turli millat vakillarining barchasini (ko‘plikni) nazarda tutgan.

Q.Davlat asarlarining tili o‘zbek xalq og‘zaki ijodi va milliy iboralariga g‘oyat boy. Ushbu ibora va maqollar zamirida ham yuqoridagi uchta ma’no ko‘chish turi yetakchilik qiladi. Masalan: “*Et suyakka mehmon*” (TB, 27) // “*Eti*

sizniki, suyagi bizniki” (TB, 8) paremalarida inson tanasining ikki asosiy qismi (*et* va *suyak*) orqali uning butun vujudi va hayoti (sinekdoxa) nazarda tutiladi. Shuningdek, “*Qush uyasi*da ko‘rganini qiladi” (TB, 34) (hayvonot va qushlar olamiga xos instinkt inson bolasining oilaviy tarbiyasiga ko‘chirilgan), “Oyning o‘n beshi *siyoh* bo‘lsa, o‘n beshi *ziyo*” (TB, 41) (inson hayotidagi qora kunlar (*siyoh*) va yorug‘, baxtli kunlar (*ziyo*) oyning fazalariga o‘xshatilgan) paremalarida metofora yetakchilik qiladi.

Xulosa. Qo‘zi Davlatning nasriy asarlari tili ustida olib borilgan lingvopoetik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yozuvchi xalq jonli tilining ichki imkoniyatlaridan g‘oyat mahorat bilan foydalangan. Nasriy asarlardagi metaforalar inson ichki olami, tabiat manzaralari va ijtimoiy hayot tahlikalarini yuksak badiiy bo‘yoqlarda ko‘rsatishga xizmat qilgan; metonimiyalar makon, zamon va harakat omillarini bir-biriga izchil bog‘lab, asar tilining qisqa va lo‘nda bo‘lishini ta’minlagan. Sinekdoxalar esa insonning ruhiy va jismoniy holatini obrazli detallar orqali chuqurroq ochib berishda yetakchilik qilgan.

Foydalanilgan manbalar:

1. Mahmudov N. Metafora va uning lingvopoetik imkoniyatlari. \\ O‘zbek tili va adabiyoti. – №4. – Toshkent, 2023.

2. Античные теории языка и стиля. – Москва-Ленинград, 1936.

3. Аристотель. Поэтика. – Ленинград: Наука, 1983.

4. Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъ ус-санойиъ. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.

5. Булаховский Л.А. Введение в языкознание. – Москва, 1953.

6. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – Москва: Высшая школа, 1989.

7. Кўрғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977.

8. Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.

9. Марузо Ж. Словарь лингвистических терминов. – Москва, 1960.

10. Маҳмудов Н. Тилнинг эстетик вазифаси ва синестетик метафоралар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – №3.

11. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010.

12. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 1976.

13. Потебня А. Эстетика и поэтика. – Москва, 1976.

14. Реформатский А.А. Введение в языковедение. [5-е изд.] – Москва: Аспект Пресс, 1996.

15. Ульман Ст. Семантические универсалии. // Новое в лингвистике. – Москва: Радуга, 1970.

16. Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадиий текстнинг лингвистик таҳлили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990.

17. Қўзи Давлат. Турмуш бекатларида. – Урганч: “Қуванчбек-Машҳура” МЧЖ нашриёти, 2020. – 256 б.

BADIIY ASARLARDA XALQ MADANIY DUNYOQARASHI VA MILLIY MENTALLIK

Cho‘liyev Ruhillo Abdullayevich,
Navoiy davlat universiteti doktoranti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

UO‘K 81'255.2

Annotatsiya. *Mazkur maqolada badiiy asarda xalq madaniy dunyoqarashini ifodalashda xizmat qiluvchi birliklarning tahlili, milliy mentallikni ifodalovchi vositalar tadqiqiga doir mulohazalar bayon etilgan*

Kalit so’zlar: *badiiy matn, mentallik, lingvokulturologiya, stereotip, arxeotip, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, integratsiya, milliy ruh*

Abstract. *This article presents an analysis of the units that serve to express the cultural worldview of the people in a work of art, as well as considerations on the study of means that express the national mentality.*

Keywords: *literary text, mentality, linguoculturology, stereotype, archetype, cultural studies, sociology, integration, national spirit*

Аннотация. *В данной статье представлен анализ единиц, служащих для выражения культурного мировоззрения народа в произведении искусства, а также соображения по поводу изучения средств, выражающих национальный менталитет.*

Ключевые слова: *литературный текст, менталитет, лингвокультуро- логия, стереотип, архетип, культурология, социология, интеграция, национальный дух*

Kirish. Insoniyat yaralganidan beri unga xos umumiy va alohida jihatlar davr o’tgani sayin paydo bo’la boshlagan. Mana shunday ma’lumotlar dastavval turli tosh va boshqa vositalarda saqlanib qolgan bo’lsa, keyinchalik kitob shaklida insoniyatning boy moddiy va madaniy merosiga aylandi. Mazkur meros doirasiga xalq turmush tarzi, uning qadriyatlari, madaniyati va milliy ruhining aks etganligi kuzatiladi. Har qanday jihatni o’rganish, tadqiqi etish , uning mohiyatini belgilab olish uchun ma’lum bir manbaning bo’lishi juda katta ahamiyatga molik

hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, ijodkorlarimiz tomonidan yaratilgan boy madaniy merosni har tomonlama tadqiq etish, insonni o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Badiiy matn orqali insonni tadqiq qilishni muhim vazifasi sifatida belgilab olgan antroposentrik qarash va lingvokulturologiyaning taraqqiy etib borishi mazkur sohada erishilgan yutuqlarning kun sayin oshib borayotganligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili. Lingvokulturologiyaning rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan olimlar sirasiga V.A.Maslovaning ishlarini alohida ta'kidlash lozim, olima mazkur sohaning rivojlanishini V.Fon Gumbolt, L.Vaysberger, A.Potebnya, Bennist, E.Sefir tadiqqotlari bilan aloqadorlikda dastabki, mazkur olimlarning ishlaridan so'ng alohida bir soha sifatida qaralishi va ushbu sohaning rivojlanishi kabi bosqichlarni belgilab beradi[1]. Olimaning bu boradagi qarashlarini V.N.Teliya ham e'tirof etadi[2]. Olimaning mazkur fikri lingvokulturologiyaning markazida turuvchi inson fenomenining madaniy tomonini lingvistik birliklar asosida o'rganishni ta'minlaydi. V. Vorobyev "lingvokulturologiya – sintezlovchi toifadagi kompleks ilm sohasi bo'lib, u madaniyat va til o'rtasidagi o'zaro aloqalar va ta'sirlashuvlarni o'rganadi. Bu jarayonni yagona lisoniy va nolisoniy (madaniy) mazmunga ega birliklarning yaxlit tarkibi sifatida mazkur jarayonni zamonaviy nufuzli madaniy ustuvorliklarga (umuminsoniy me'yorlar va qadriyatlar) qaratilgan tizimli metodlar yordamida aks ettiradi", - deb ko'rsatadi[3].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada lingvomadaniy xususiyatlar va milliy mentallikni ochib beruvchi vositalarni tahlil qilishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, chog'ishtirish, assosiativ, etnolingvistik va lingvokulturologik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Lingvokulturologiya (lingvomadaniyatshunoslik) fanining jadal rivojlanishi jamiyat madaniyatini o'rganishning bir qator yo'nalishlarini asosiy tamoyil sifatida belgilab berdi. Ushbu yo'nalishlar asosida olib boriladigan tadqiqotlar fan oldida turgan maqsad va vazifalarni ro'yobga chiqarishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi:

1)diaxronik lingvokulturologiya: Til madaniyatining etnos darajasiga o'tish jarayonini va uning tarixiy davrlarini tadqiq etadi. Xususan, turkiy xalqlarning shakllanish bosqichlari, millat, xalq va elatning tarixiy rivojlanish yo'li tahlil qilinadi;

2)qiyosiy lingvokulturologiya: Turli etnoslarning xususiyatlari va ularning lingvomadaniy jihatlarini o'zaro taqqoslab, kompleks tahlil qilishga qaratilgan;

3)tavsifiy lingvokulturologiya: Bir tildagi ma’lum til birligining boshqa tilda mutlaqo boshqa tushunchani ifodalashi va har bir xalqning o‘ziga xos lingvomadaniy birligiga ega ekanligi haqidagi qarashlarga asoslanadi. Bu sohada tadqiqotlar hali kam olib borilgan. Masalan, M.K. Golovanivskayaning “Rus tilida so‘zlovchilar nuqtayi nazarida fransuz mentaliteti” asarida fransuz tilidagi mavhum tushunchalarning rus tilidagi qo‘llanilish holatlari tahlil qilingan[4]. O‘zbek tilida ham arab, tojik va boshqa tillardan o‘zlashgan, ammo o‘zbek xalqining lingvomadaniy birligiga to‘liq aylangan ko‘plab so‘zlar mavjud;

4)lingvomadaniy leksikografiya: Ushbu yo‘nalish lingvokulturologik lug‘atlarni tuzish bilan shug‘ullanadi. Bunday fundamental manbalarga misol sifatida D.G. Maltsevning 25 bobdan iborat lingvoo’lkashunoslik lug‘atini keltirish mumkin. Unda nemis realiyalari, iqlim xususiyatlari, madaniy tadbirlar, maishiy xizmatlar, fan, texnika va arxitektura kabi tushunchalar obyekti sifatida o‘rganilgan[5].

Badiiy matn tarkibidagi lingvistik birliklar yordamida xalqning turmush tarzi va milliy mentalitetini ifodalovchi vositalarni aniqlash, tabiiyki, yuqorida qayd etilgan yo‘nalishlar asosida amalga oshiriladi.

Abdulla Qodiriy badiiy asarlarida xalq turmush tarzi va milliy mentalitetni namoyon qiluvchi ko‘plab tushunchalar mavjud. Garchi voqea joyi, ijtimoiy holat yoki kasb-hunar kabi omillar tufayli qahramonlarning tashqi qiyofasidan ularning qaysi millatga mansubligini aniqlash mushkul bo‘lsa-da, asarda o‘zbeklarga xos bo‘lgan insonparvarlik, bog‘dorchilik, avlodlar uzviyligini ta’minlash, farzanddan ezgulik umid qilish kabi fazilatlar yaqqol namoyon bo‘ladi. Shuningdek, azadan so‘ng marhumni yaxshilik bilan eslash kabi insoniy qadriyatlar ham millatimizga xos belgidir.

Romanda onomastik birliklar bilan bog‘liq lingvomadaniy holatlar kuzatiladi. Bu birliklar lingvokulturologiyani diaxron tahlil qilish orqali etnolingvistika, psixolingvistika, lingvoo’lkashunoslik va madaniyatshunoslik kabi sohalar bilan bog‘laydi. “O‘tgan kunlar”, “Mehrobdan chayon” va kichik asarlardagi milliy qadriyatlar, o‘zaro munosabatlar, realiyalar, metaforalar, o‘xshatishlar, iboralar va maqollar xalq qiyofasi hamda uning milliy mentalitetini aks ettiruvchi asosiy vositalar hisoblanadi. Masalan, “Mehrobdan chayon”da Anvarning gul va kapalaklarni suyishi, “Uloqda” hikoyasida otga nisbatan ijobiy munosabat, “Jinlar bazmi”dagi tabiatga bo‘lgan mehr xalqimizga xos ijobiy fazilatlardir. Biroq xalqimizning turli tushunchalarga munosabati biryoqlama emas: “Uloqda” hikoyasida toychog‘i va uloqdagi otlarga nisbatan ijobiy

munosabat berilar ekan, uning ma’lum salbiy jihatlari ham kontrast usuli orqali tasvirlanadi.

Boshqa xalqlarda bo‘lgani kabi o‘zbek tilidagi turli iboralar, metafora va o‘xshatishlar ham milliy koloritni berishga xizmat qiladi. E.M. Vereshchagin va V.G. Kostomarovlarning fikricha, muqobilsiz (lakunar) birliklar nafaqat til egasining tajribasini mustahkamlaydi, balki o‘zida chuqur madaniy ma’lumotlarni ham tashiydi[6]. Abdulla Qodiriy asarlaridagi metaforalar, realiyalar va maqollar tarkibida ostbilimlar hamda tarixiy-tadrijiy ma’lumotlar mavjudligi buning yaqqol isbotidir.

Milliy mentalitet umumiy madaniyatning bir qismi bo‘lsa-da, o‘ziga xos farqli belgilarga ham ega. Ma’lum bir tildagi tushunchalarning boshqa tillarda aniq muqobili bo‘lmasligi mumkin. Masalan, rus tilida er xotinining onasini va xotin erining onasini turli nomlar bilan ataydi, o‘zbek tilida esa har ikkalasi ham «qaynona» deb ataladi. Bunday “bo‘sh o‘rinlar” lingvomadaniy xususiyatlarni belgilaydi va Y. Sorokin, I. Markovina kabi olimlar tomonidan “lakuna” yoki “oq dog‘lar” deb ataladi[7]. Boshqa tushuncha bilan almashtirib bo‘lmaydigan, insonning milliy madaniy jihatlarini qamrab oluvchi bunday birliklar tilshunoslikda realiyalar deb nomlanadi va ularni o‘rganish muhim vazifadir.

V. Gumboldt ta’kidlaganidek: “Til – millatning ruhi”. Millat ruhini va uning tarixiy-tadrijiy yo‘lini idrok qilish uchun til birliklarini atroflicha tahlil qilish zarur. Har qanday tilda borliqni yaxlit tasavvur qilish manzarasi mavjud bo‘lib, u ham individual, ham umumlashgan xususiyatlarga ega. O‘zbek milliy-madaniy obrazi ikki holatda namoyon bo‘ladi:

1) millatning o‘ziga xos ichki tasavvuri: Bu nafaqat O‘zbekistonda, balki chet ellarda yashovchi shu millat vakillarining ham umumiy madaniy va lingvomadaniy qiyofasini o‘z ichiga oladi. Bu quyidagilarda aks etadi:

a)tashqi belgilar stereotipi: kiyinish, muomala, o‘zini tutish, mehmondo‘stlik, samimiyat va hokazo. Turli hududlarda yashovchi bir millat vakillarining kiyim-kechak rangi va tuzilishi yonma-yon yashaydigan boshqa xalqlar ta’sirida biroz farqlanishi mumkin;

b)ichki belgilar stereotipi: Millat vakillarining olam va odam haqidagi tasavvuri, tabiatga, e’tiqod va tafakkurga munosabati. Bu odatda metaforalar, frazeologik va paremiologik (maqol-matal) birliklar orqali yuzaga chiqadi. I. Brodskiy ta’kidlaganidek, til birliklarini tadqiq qilish ularning ma’nosini izohlashda emas, balki tushunchaning qoldirgan “ichki izlari” (tarixiy va milliy-madaniy izlar)ga e’tibor qaratishda muhimdir.

Fanda A. Potebnya kiritgan, B. Larin va G. Vinokur rivojlantirgan “ichki shakl” tushunchasi shuni ko‘rsatadiki, har bir leksik birlikning “tub-asl semasi” uning obrazli, milliy-madaniy tafakkuri bilan bog‘liq. Masalan, “O‘tgan kunlar”dagi Otabekning, “Mehrobdan chayon”dagi Anvarning kattalarga munosabati yoki “Toshpo‘lat tajang nima deydi” asaridagi holatlarda milliy-madaniy o‘zlik belgilari yaqqol ko‘rinadi. “Otaxon”, “onaxon” kabi so‘zlardagi “xon” qo‘shimchasi XX asr boshlarigacha yuqori mavqega ega bo‘lganligini, unda “hurmat” va “ulug‘lash” kabi qo‘shimcha ma’nolar mujassam ekanligini bildiradi.

Xuddi shunday, “oyi” birligi ham aslida “ona” so‘zining absolyut sinonimi bo‘lmagan. “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da ko‘rsatilishicha, “oyimposhsha” so‘zi “mo‘tabar” ma’nosidagi “oyim” va “bekach” ma’nosidagi “poshsho” so‘zlaridan tuzilgan bo‘lib, ayolga hurmat bilan murojaat qilishda ishlatilgan. Eski o‘zbek tilida bu birlik (masalan, Nigoroyim, Mohlaroyim) “ona” ma’nosida emas, balki ayolni erkalash, ulug‘lash va suyish ma’nolarida qo‘llangan. Abdulla Qodiriy asarlarida “ona” leksemasi o‘rniga “oyi” ishlatilishi aynan shu tarixiy-etimologik semantika bilan bog‘liq bo‘lib, bu birlik ichki shakl nuqtayi nazaridan o‘zining tarixiy ildizidan butunlay uzilib ketmagan.

2) milliy madaniyat haqidagi tashqi tasavvur: millatni boshqalardan farqlovchi dastlabki omil til bo‘lsa-da, bu yagona mezon emas. Masalan, biz Afrika xalqlarining tilini bilmasak ham, ularning tashqi belgilari, urf-odatlari, kiyinishi va borliqqa munosabati orqali ularning qaysi millatga mansubligini farqlay olamiz. Boshqa millatlar ham o‘zbeklarni xuddi shu umumlashmagan, individual tashqi belgilari orqali tasavvur qiladi.

Mentallik, avvalo, tashqi tasavvur emas, balki tilning ichki leksik birliklari asosida shakllangan ichki ongdir. Biz noma’lum bir tushuncha (hayvon, o‘simlik va h.k.) haqida eshitganimizda, uni o‘zimizdagi mavjud tushunchalar bilan qiyoslab, yangi ma’lumotni qabul qilamiz. Shu sababli, dunyoni anglashning asosiy belgisi sifatida mentallik muhim ahamiyat kasb etadi. A.Y. Gurevich mentallikni dunyoni qabul qilish, uni tasavvur va tafakkur qilishning mantiqan kashf etilmagan, reflekslanmagan usuli sifatida baholaydi.

Mentallikni faqat falsafiy va axloqiy tafakkur mevasi deb qarash cheklangan yondashuvdir. Unda tarixiy-etnik, makon va zamon munosabatlari, genetik kabi qator prinsiplar ham amal qiladi. Y. Arpesyan, O. Kornilov va Y. Yakovleva kabi olimlarning milliy mentalitetning individual va jamoaviy xususiyatlari, chuqur ong, konseptual manzara va xalqning tarixiy taraqqiyot yo‘li

bilan bog‘liqligi haqidagi qarashlari ushbu sohadagi tadqiqotlar uchun katta ahamiyatga molikdir.

Xulosa. Milliy mentalitet va yashash tarzi insonning tashqi qiyofasi, atrof-muhitga munosabati, voqeliklarga boqishi, nutq madaniyati, fikrlash va tasavvur doirasi, shuningdek, qadriyatlar bilan qanchalik hamohang ekanligida o’z aksini topadi. Ushbu xususiyatlarning til vositalari (ko’p ma’nolilik, metafora, tashbeh, maqol-matallar, frazeologizmlar, realiyalar va boshqa milliy-madaniy tushunchalar) orqali ifodalanish darajasi bevosita so’zlovchining til, nutq doirasidsagi savodxonligi va nutq ko’nikmalariga bog’liq holatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1.Маслова В.А. Лингвокультурология. -М.: Академия, 2000

2.Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. –М.: Школа «Языки русской культуры», 1996.

3.Воробьев В.В. Лингвокультурология. -М.: Изд-во РУДН, 2008. -340 с.

4.Голованивская М.К. Французский менталитет с точки зрения носителя русского языка: (контрастивный анализ лексических групп со значением «высшие силы и абсолюты», «органы наивной анатомии», «основные мыслительные категории», «базовые эмоции») : монография. Диалог МГУ,-М.: 1997.

5.Мальцева Д.Г. Лингвострановедческий аспект в процессе изучения и преподавания немецкого языка. Ярославский педагогический вестник. 2000, №1, -стр. 21

6.Верешагин И.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. Методическое руководство. -М.: «Руский язык», 1990.

7.Сорокин Ю.А., Марковина И.Ю. Опыт систематизации лингвистических и культурологических лакун. Методологические и методические аспекты // Лексические единицы и организация структуры литературного текста. Сб. науч. трудов. – Калинин, 1983.

8.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. -М.: «Руский язык», 1981. I. 527

9.Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Т.: Университет, 2009. III . – Б. 169

AMBIVALENTLIKNING SEMANTIK VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Pardayeva Dilora Ilyos qizi,
Navoiy Davlat Universiteti
Ingliz tilshunosligi kafedrasi, tayanch doktoranti

UO‘K 81'255.355

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ambivalentlikning semantik va pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Ambivalent mazmunning shakllanishida qarama-qarshi ma’nolar, konnotatsiya, baholash, kontekst va kommunikativ maqsadning o‘rni yoritiladi. Shuningdek, nutqiy vaziyat, presuppozitsiya va so‘zlovchi munosabatining ambivalentlikni yuzaga chiqarishdagi ahamiyati asoslanadi. Tadqiqot natijasida ambivalentlik semantik mazmun hamda pragmatik talqin uyg‘unligida shakllanuvchi murakkab lisoniy hodisa ekanligi aniqlanadi.*

Kalit so’zlar: *ambivalentlik, semantika, pragmatika, kontekst, konnotatsiya, baholash, kommunikativ maqsad, pragmatik talqin.*

Kirish

Til inson tafakkuri, hissiy kechinmalari va voqelikka bo‘lgan munosabatini ifodalovchi murakkab belgilar tizimi hisoblanadi. Nutq jarayonida muayyan hodisa, shaxs yoki vaziyatga nisbatan bir-biriga zid mazmun va baholarning bir vaqtning o‘zida namoyon bo‘lishi tilning ko‘p qatlamli tabiatini ko‘rsatadi. Bunday qarama-qarshi munosabatlarning yagona lisoniy birlik yoki nutqiy tuzilma doirasida uyg‘unlashuvi ambivalentlik hodisasi bilan bog‘liqdir. Ambivalentlik inson ongidagi ikkilanish, ziddiyatli munosabat va murakkab baholash jarayonlarining tilda voqelanishini ifodalovchi semantik-pragmatik kategoriya sifatida muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Ambivalentlik dastlab inson ruhiyatidagi qarama-qarshi hissiy holatlarni tavsiflovchi tushuncha sifatida o‘rganilgan bo‘lsa-da, keyinchalik uning falsafiy, psixologik va lingvistik xususiyatlari alohida tadqiqot obyektiga aylangan. Tilshunoslikda mazkur hodisa bir lisoniy birlik tarkibida ijobiy va salbiy, ma’qullovchi va inkor etuvchi, ochiq va yashirin ma’nolarning o‘zaro munosabati orqali namoyon bo‘ladi. Ambivalent mazmunning shakllanishida ko‘p ma’nolilik, konnotatsiya, baholovchi semalar, konseptual qarama-qarshilik va obrazli ma’no muhim semantik omillar hisoblanadi. Mazkur omillar nutqiy kontekst ta’sirida

faollashib, ifodaning muayyan kommunikativ vaziyatdagi mazmuniy yo‘nalishini belgilaydi.

Ambivalentlikning pragmatik xususiyatlari so‘zlovchining kommunikativ maqsadi, subyektiv munosabati, nutq vaziyati, presuppozitsiya hamda tinglovchining talqin imkoniyatlari bilan bevosita bog‘liqdir. Bir xil lisoniy birlik turli kontekstlarda ma’qullash, kinoya, tanqid, ogohlantirish yoki yashirin norozilikni ifodalashi mumkin. Shu sababli ambivalent mazmunni faqat birlikning lug‘aviy ma’nosi asosida aniqlash yetarli emas; uning nutqdagi vazifasi, so‘zlovchi niyati va kommunikativ sharoit bilan munosabatini ham hisobga olish zarur. Semantik mazmun va pragmatik talqinning o‘zaro uyg‘unligi ambivalentlikning murakkab hamda dinamik tabiatini yuzaga chiqaradi.

Zamonaviy tilshunoslikda antropotsentrik, kognitiv va pragmatik yondashuvlarning rivojlanishi ambivalentlikni inson tafakkuri va nutqiy faoliyati bilan bog‘liq yaxlit hodisa sifatida tadqiq etish imkonini bermoqda. Mazkur maqolada ambivalentlikning semantik asoslari, pragmatik voqelanish omillari hamda ularning kommunikativ jarayondagi o‘zaro munosabati tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi ambivalent mazmunni shakllantiruvchi semantik komponentlarni aniqlash, uning kontekst va kommunikativ niyat ta’sirida yuzaga chiqish mexanizmlarini yoritish hamda ambivalentlikning nutqiy ta’sirchanlikni ta’minlashdagi funksional imkoniyatlarini asoslashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

Ambivalentlik kategoriyasi dastlab psixologik hodisa sifatida ilmiy muomalaga kiritilgan. E.Bleuler ushbu tushuncha orqali inson ongida muayyan obyektga nisbatan o‘zaro qarama-qarshi hissiyot, istak va munosabatlarning bir vaqtda mavjud bo‘lishini ifodalagan [1]. Keyinchalik Z.Freyd ambivalentlikni psixoanalitik nuqtai nazardan tahlil qilib, uni ongli va ongsiz mayllar, hissiy ziddiyatlar hamda shaxsning ichki ruhiy qarama-qarshiliklari bilan bog‘lagan [2]. Mazkur qarashlar ambivalentlikning inson ruhiyatiga xos murakkab va ko‘p qatlamli hodisa ekanligini asoslashga xizmat qilgan.

Ambivalentlikning falsafiy-metodologik asoslari qarama-qarshiliklarning o‘zaro aloqasi, birligi va rivojlanishi haqidagi dialektik qarashlar bilan bog‘liq. G.V.F.Hegel tafakkur va borliq rivojini ichki ziddiyatlarning yuzaga kelishi hamda ularning yangi sifat darajasida hal etilishi orqali izohlagan [3]. Ushbu yondashuv ambivalentlikni faqat ruhiy ikkilanish emas, balki qarama-qarshi mazmun va baholarning yagona tizim doirasida o‘zaro munosabatga kirishishi sifatida tushuntirish uchun muhim metodologik asos yaratadi.

Lingvistik tadqiqotlarda ambivalentlik ko‘p ma’nolilik, konnotatsiya, baholash, modallik va nutqiy kontekst bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. V.N.Teliya til birliklarining konnotativ tuzilishini tahlil qilib, ularning tarkibida predmetga oid mazmun bilan birga hissiy, baholovchi va madaniy ma’no komponentlari ham mavjudligini ko‘rsatadi [4]. Mazkur yondashuv bir lisoniy birlikning turli vaziyatlarda ijobiy yoki salbiy baho ifodalashi, shuningdek, qarama-qarshi ma’no yo‘nalishlarini yuzaga chiqarishini izohlash imkonini beradi.

N.D.Arutyunova tadqiqotlarida baholash insonning voqelikni idrok etishi, unga munosabat bildirishi va kommunikativ maqsadini amalga oshirishi bilan bog‘liq semantik-pragmatik kategoriya sifatida talqin qilinadi [5]. Olimning qarashlariga ko‘ra, lisoniy birlikning mazmuni faqat lug‘aviy ma’no bilan chegaralanmaydi, balki so‘zlovchining subyektiv pozitsiyasi, nutq vaziyati va adresatning talqini ta’sirida shakllanadi. Shu jihatdan ambivalentlik ham kontekstda faollashadigan, so‘zlovchining ochiq yoki yashirin kommunikativ niyatini ifodalovchi dinamik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek tilshunosligida ambivalentlik mustaqil lingvistik kategoriya sifatida keng va tizimli tadqiq etilmagan bo‘lsa-da, uning ayrim belgilari til va tafakkur, pragmatika, modallik hamda baholashga oid izlanishlarda yoritilgan. A.Nurmonov til birliklarining inson tafakkuri va borliqni idrok etish jarayonlari bilan aloqasini tahlil qilib, lisoniy mazmunning subyektiv va baholovchi xususiyatlariga e’tibor qaratadi [6]. Sh.Safarov pragmatik ma’noning shakllanishida so‘zlovchining kommunikativ niyati, nutqiy vaziyat va adresat omilining muhimligini asoslaydi [7]. M.Hakimov esa o‘zbek pragmalingvistikasida matn va nutqiy birliklarning yashirin mazmuni, presuppozitsiyasi hamda kommunikativ vazifalarini tadqiq etadi [8].

Mavjud ilmiy qarashlar ambivalentlikning psixologik ikkilanishdan kelib chiqishi, falsafiy jihatdan qarama-qarshiliklar birligiga asoslanishi hamda tilda semantik va pragmatik vositalar orqali voqelanishini ko‘rsatadi. Biroq ambivalent mazmunni yuzaga keltiruvchi konnotativ semalar, qarama-qarshi baholar, kontekst, presuppozitsiya va kommunikativ niyatning o‘zaro munosabatlari yaxlit tizim sifatida yetarlicha o‘rganilmagan. Shu sababli ambivalentlikning semantik tuzilishi va pragmatik voqelanish mexanizmlarini kompleks tahlil qilish mazkur tadqiqotning asosiy ilmiy yo‘nalishini belgilaydi.

Tahlillar va natijalar

Ambivalentlik muayyan obyekt yoki hodisaga nisbatan qarama-qarshi hissiy va baholovchi munosabatlarning bir vaqtda mavjudligini anglatadi. E. Bleuler tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan ushbu tushuncha dastlab psixologik holat sifatida izohlangan bo‘lsa, keyinchalik falsafa va tilshunoslik doirasida ham tadqiq etila boshlandi [1]. Lingvistik jihatdan u inson ongidagi ziddiyatli munosabatlarning til va nutqda ifodalanishidir.

Ambivalentlikni ko‘p ma’nolilik va mazmuniy noaniqlikdan farqlash zarur. Ko‘p ma’nolilikda birlik bir necha bog‘liq ma’noga ega bo‘lsa, ambivalentlikda ayni obyektga qaratilgan qarama-qarshi baholar bir vaqtda faollashadi. Masalan, *“sodda”* leksemasi bir kontekstda samimiylik va tabiiylikni, boshqa vaziyatda esa tajribasizlik va ishonuvchanlikni anglatishi mumkin. Biroq bu holatning o‘zi hali ambivalentlik hisoblanmaydi. *“Uning soddaligi odamlarni o‘ziga tortadi, ammo ayni shu soddalik uni tez-tez aldov qurboniga aylantiradi”* jumlasida mazkur belgining ijobiy va salbiy jihatlari bir vaqtning o‘zida faollashgani sababli ambivalent baho yuzaga keladi. Demak, ambivalentlikning asosiy mezoni ma’nolar ko‘pligi emas, balki yagona obyektga qaratilgan qarama-qarshi aksiologik munosabatlarning mazmuniy birligidir.

Ambivalentlikning semantik asosini denotativ, konnotativ va baholovchi komponentlar o‘rtasidagi munosabat tashkil etadi. V.N.Teliya konnotatsiya tarkibida emotsional va baholovchi ma’nolarning mavjudligini ta’kidlaydi [4]. N.D.Arutyunovaga ko‘ra, baholash obyektni inson manfaatlari va qadriyatlari asosida talqin qilish jarayonidir [5].

Semantik ambivalentlik leksik birliklarning turli baholovchi imkoniyatlari orqali namoyon bo‘ladi. Masalan, *“qat’iyatlilik”* irodalilikni ham, o‘jarlikni ham, *“ehtiyotkorlik”* esa mas’uliyat bilan birga tashabbussizlikni ham anglatishi mumkin. Ushbu qarama-qarshi baholar kontekst ta’sirida faollashadi.

Sintaktik ambivalentlik qarama-qarshi hukmlarning yagona gap tarkibida birlashishi orqali yuzaga keladi. Zidlov bog‘lovchilari, yuklamalar va modal birliklar bunday mazmunni shakllantiradi. *“Uning ehtiyotkorligi xatolardan saqlaydi, lekin imkoniyatlarni cheklaydi”* jumlasida ijobiy va salbiy baho uyg‘unlashgan.

Matniy ambivalentlik alohida so‘z yoki gap doirasidan tashqariga chiqib, fikrning kengroq mazmuniy rivojida namoyon bo‘ladi. Badiiy va publitsistik matnlarda muallif dastlab qahramon yoki hodisaning ijobiy jihatlarini yoritishi, keyingi nutqiy qismlarda esa ayni sifatning salbiy oqibatlarini ochib berishi

mumkin. Bunda ambivalent baho bir gap tarkibida emas, balki matnning turli qismlari o‘rtasidagi semantik munosabat asosida yuzaga keladi. Qahramonning jasorati bir vaziyatda fidoyilik, boshqa holatda esa o‘ylamasdan harakat qilish sifatida baholanishi mumkin. Shunday qilib, matn rivoji bir xil xususiyatning ijobiy va salbiy qirralarini ketma-ket ochib, o‘quvchini bir tomonlama hukmdan murakkab va ziddiyatli talqinga olib keladi.

Ambivalentlikning pragmatik xususiyati lisoniy ma’no bilan so‘zlovchining kommunikativ maqsadi o‘rtasidagi munosabatda namoyon bo‘ladi. Bir xil ifoda vaziyat, ohang va muloqot ishtirokchilarining munosabatiga ko‘ra turlicha mazmun kasb etadi. Shu sababli ambivalentlikni tushunishda kontekst muhim ahamiyatga ega.

“Juda aqlli ish qilibsan!” jumlasi shaklan ijobiy bahoni ifodalaydi, biroq kinoyali vaziyatda salbiy mazmun kasb etadi. Kinoyada yuzaki ma’no ko‘pincha inkor qilinadi, ambivalentlikda esa qarama-qarshi baholarning har ikkisi muayyan darajada saqlanadi. Shu jihat ikki hodisani farqlashga imkon beradi.

Pragmatik ambivalentlik presuppozitsiya va implikatura orqali ham yuzaga keladi. *“Bu ham bir yechim”* jumlasi taklifni qisman ma’qullash bilan birga, uning mukammal emasligini ham anglatadi. Bunday yashirin baho kontekst, kommunikativ niyat va adresat talqini asosida shakllanadi [7; 8].

Ambivalentlik nutqiy harakatlarning illokutiv kuchida ham namoyon bo‘ladi. Masalan, *“Derazani yopib qo‘ysak yaxshi bo‘lardi”* jumlasi shaklan mulohaza yoki taklif bo‘lsa-da, muayyan vaziyatda iltimos, tavsiya yoki bilvosita buyruq vazifasini bajarishi mumkin. Bunday holatda bitta nutqiy tuzilma bir necha kommunikativ maqsadga xizmat qiladi. Biroq illokutiv ko‘p vazifalilik bilan baholovchi ambivalentlikni farqlash zarur. Nutqiy ifodaning bir vaqtning o‘zida iltimos va tavsiya bo‘lishi pragmatik ko‘p funksiyalilikni yuzaga keltiradi; uning ma’qullash va norozilik, yaqinlik va masofa, ishonch va shubha kabi qarama-qarshi munosabatlarni birlashtirishi esa pragmatik ambivalentlikni hosil qiladi.

Milliy-madaniy qadriyatlar ambivalent bahoning yo‘nalishini belgilaydi. Masalan, kamgaplik bir muhitda vazminlik va odob, boshqa vaziyatda esa sustlik yoki kommunikativ yopiqlik sifatida baholanishi mumkin. Shu sababli ambivalent mazmun madaniy me’yorlardan ajratilgan holda tahlil qilinmaydi.

Adresat omili ambivalent mazmunning pragmatik voqelanishida alohida o‘rin tutadi. Lisoniy birlikda qarama-qarshi baholash imkoniyati mavjud bo‘lishi

mumkin, biroq bu imkoniyat tinglovchi tomonidan anglanmasa, ambivalent mazmun kommunikativ jihatdan to‘liq ro‘yobga chiqmaydi. Adresat ifodani talqin qilishda nutq vaziyati, oldingi muloqot, so‘zlovchining shaxsiy xususiyatlari, ohang, imo-ishora va umumiy ijtimoiy-madaniy bilimlarga tayanadi. Shu bois ambivalentlikni faqat lisoniy birlikning ichki xususiyati deb emas, balki *lisoniy shakl – so‘zlovchi maqsadi – adresat talqini* munosabatida shakllanadigan kommunikativ hodisa deb baholash lozim.

Milliy-madaniy qadriyatlar ham ambivalent bahoning mazmuniy yo‘nalishini belgilaydi. Muayyan jamiyatda ijobiy baholanadigan xususiyat boshqa madaniy muhitda cheklovchi yoki salbiy mazmun kasb etishi mumkin. Masalan, kamgaplik bir madaniy kontekstda vazminlik, odob va mulohazakorlik belgisi sifatida qabul qilinsa, boshqa vaziyatda ijtimoiy sustlik yoki kommunikativ yopiqlik sifatida baholanadi. Jamoaga moslashuv bir tomondan hamjihatlik va mas’uliyatni, ikkinchi tomondan mustaqil fikrning cheklanishini anglatishi mumkin.

Olib borilgan tahlillar ambivalentlikning lisoniy voqelanishini to‘rtta o‘zaro bog‘liq darajada tasniflash imkonini beradi. **Leksik-semantik daraja**da qarama-qarshi konnotativ va baholovchi semalar muayyan birlik doirasida faollashadi. **Sintaktik-propozitsional daraja**da bir obyektga berilgan qarama-qarshi hukmlar yagona gap tuzilmasida birlashtiriladi. **Matniy-diskursiv daraja**da zid baholar matnning turli qismlari va muallif pozitsiyasi o‘rtasidagi munosabat orqali shakllanadi. **Kommunikativ-pragmatik daraja**da esa kodlangan ma’no, so‘zlovchi niyati va adresat talqini o‘rtasidagi nomuvofiqlik yoki ziddiyat ambivalent mazmunni yuzaga chiqaradi.

Tahlillar asosida ambivalent mazmunning shakllanish mexanizmini quyidagi izchillikda ifodalash mumkin: *lisoniy birlikning asosiy ma’nosi → konnotativ-baholovchi imkoniyat → kontekstda qarama-qarshi semalarning faollashuvi → so‘zlovchining kommunikativ maqsadi → adresatning pragmatik xulosasi → ambivalent mazmun*. Semantika mazmuniy imkoniyatni yaratsa, pragmatik omillar uning nutqdagi voqelanishini belgilaydi.

Tahlillar ambivalentlikning ko‘p ma’nolilikdan farqli ravishda qarama-qarshi baholarning bir vaqtda faollashishiga asoslanishini ko‘rsatdi. Uning semantik negizini konnotativ va aksiologik semalar, pragmatik voqelanishini esa kontekst, presuppozitsiya, implikatura va kommunikativ niyat tashkil etadi. Ambivalentlik bilvosita baholash, nutqiy keskinlikni yumshatish va adresatni faol talqinga undash vazifalarini bajaradi.

1-jadval

Ambivalentlikning semantik va pragmatik xususiyatlari bo‘yicha umumlashtirilgan natijalar

Tahlil yo‘nalishi	Asosiy xususiyat	Voqelanish mexanizmi va vositalari	Umumlashtirilgan ilmiy natija
Ambivalent-likning mohiyati	Bir obyektga nisbatan qarama-qarshi hissiy va baholovchi munosabatlarning bir vaqtda mavjudligi	Inson ongidagi ziddiyatli munosabatlarning til va nutqda ifodalanishi	Ambivalentlik psixologik asosga ega bo‘lgan semantik-pragmatik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.
O‘xshash hodisalardan farqlanishi	Qarama-qarshi baholarning bir paytda faollashishi	Ko‘p ma’nolilik, mazmuniy noaniqlik va kinoya bilan qiyoslash	Ambivalentlik ma’nolar ko‘pligi bilan emas, ayni obyektga qaratilgan zid baholarning uyg‘unligi bilan tavsiflanadi.
Semantik asoslari	Denotativ, konnotativ, emotsional va baholovchi komponentlarning o‘zaro munosabati	Ijobiy va salbiy semalarning kontekst ta’sirida faollashuvi	Ambivalent mazmunning semantik negizini konnotativ va aksiologik ma’no qatlamlari tashkil etadi.
Leksik-semantik voqelanish	Bir belgining qarama-qarshi qadriyat mezonlari asosida baholanishi	“Soddalik”, “qat’iyatlilik”, “ehtiyotkorlik” kabi ikki yo‘nalishda baholanuvchi birliklar	Leksik birlik ambivalent mazmunni tayyor shaklda emas, balki kontekstda faollashadigan baholovchi imkoniyat sifatida saqlaydi.
Sintaktik va matniy voqelanish	Qarama-qarshi hukmlarning yagona gap yoki matn doirasida birlashishi	Zidlov bog‘lovchilari, yuklamalar, modal birliklar va matn qismlari o‘rtasidagi semantik aloqa	Ambivalentlik gap tarkibida zid baholarning uyg‘unlashuvi, matnda esa bir belgining turli nuqtai nazardan talqin qilinishi orqali yuzaga keladi.
Pragmatik xususiyatlari	Lisoniy ma’no bilan kommunikativ maqsad o‘rtasidagi munosabat	Kontekst, ohang, presuppozitsiya, implikatura va bilvosita nutqiy harakatlar	Ifodaning ambivalent mazmuni faqat lug‘aviy ma’no bilan emas, muayyan nutqiy vaziyat va yashirin kommunikativ niyat bilan belgilanadi.
Kommunikativ strategiya	Ma’qullash va e’tiroz, yaqinlik va masofa kabi munosabatlarning uyg‘unlashuvi	Bilvosita baholash, tanqidni yumshatish, iltimos, taklif va yashirin inkor	Ambivalent ifodalar muloqot odobini saqlash, nutqiy keskinlikni kamaytirish va ochiq ziddiyatdan qochishga xizmat qiladi.

So‘zlovchi va adresat munosabati	Ambivalent mazmunning kommunikativ hamkorlikda shakllanishi	Lisoniy shakl, so‘zlovchi maqsadi, adresat talqini va umumiy bilimlar tizimi	Ambivalentlik faqat til birligining xususiyati emas, balki so‘zlovchi va adresat o‘rtasidagi talqin jarayonining mahsulidir.
Voqelanish darajalari	Ambivalent mazmunning ko‘p bosqichli namoyon bo‘lishi	Leksik-semantik, sintaktik, matniy-diskursiv va kommunikativ-pragmatik darajalar	Ambivalentlik til tizimining alohida bir sathiga emas, barcha mazmuniy va kommunikativ darajalariga xos kompleks hodisadir.
Shakllanish modeli	Semantik imkoniyatning pragmatik mazmunga aylanishi	Asosiy ma’no → konnotativ-baholovchi imkoniyat → qarama-qarshi semalar → kommunikativ maqsad → adresat talqini	Semantika ambivalent mazmunning ichki imkoniyatini yaratsa, pragmatik omillar uning nutqiy vaziyatda voqelanishini ta’minlaydi.
Funksional natija	Murakkab va ziddiyatli munosabatlarni bilvosita ifodalash	Baholash, kinoya, yashirin munosabat, kommunikativ masofani boshqarish	Ambivalentlik nutqning ta’sirchanligini oshiradi, adresatni faol talqinga undaydi va insonning ko‘p qatlamli munosabatini ifodalash imkonini beradi.

Jadval natijalari ambivalentlikning alohida semantik yoki pragmatik hodisa emas, balki lisoniy ma’no, konnotativ baho, kommunikativ niyat va adresat talqinining o‘zaro integratsiyasi asosida shakllanuvchi ko‘p darajali kategoriya ekanligini ko‘rsatadi. Semantik komponentlar qarama-qarshi baholarning mazmuniy asosini yaratsa, pragmatik omillar ularning muayyan nutqiy vaziyatdagi yo‘nalishi va funksional vazifasini belgilaydi.

Xulosa

Olib borilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ambivalentlik muayyan obyekt, hodisa yoki vaziyatga nisbatan qarama-qarshi hissiy, mazmuniy va baholovchi munosabatlarning bir vaqtning o‘zida faollashuviga asoslangan murakkab semantik-pragmatik hodisadir. U oddiy ruhiy ikkilanish doirasidan chiqib, inson tafakkuridagi ziddiyatli munosabatlarning til va nutqda voqelanishini ifodalaydi.

2. Ambivalentlik ko‘p ma’nolilik va mazmuniy noaniqlikdan ayni obyektga qaratilgan ijobiy hamda salbiy baholarning yagona mazmuniy tuzilma doirasida uyg‘unlashishi bilan farqlanadi. Shu sababli uning asosiy mezoni ma’nolar ko‘pligi emas, balki qarama-qarshi aksiologik yo‘nalishlarning bir vaqtda saqlanishidir.

3. Ambivalentlikning semantik negizini denotativ ma’no bilan konnotativ, emotsional va baholovchi semalar o‘rtasidagi munosabat tashkil etadi. Leksik

birlik tarkibidagi qarama-qarshi baholash imkoniyati kontekst ta’sirida faollashib, bir belgining ijobiy va salbiy jihatlarini o‘zaro bog‘liq holda ifodalaydi.

4. Ambivalent mazmun leksik-semantik, sintaktik, matniy-diskursiv va kommunikativ-pragmatik darajalarda voqelanadi. Leksik darajada qarama-qarshi baholovchi semalar, sintaktik darajada zid hukmlar, matniy darajada turli pozitsiyalar, pragmatik darajada esa lisoniy ma’no va kommunikativ niyat o‘rtasidagi murakkab munosabat yetakchilik qiladi.

5. Ambivalentlikning pragmatik shakllanishida nutqiy kontekst, so‘zlovchining kommunikativ maqsadi, presuppozitsiya, implikatura, ohang va adresat talqini muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, ambivalent mazmun faqat til birligining ichki xususiyati emas, balki lisoniy shakl, so‘zlovchi pozitsiyasi va adresatning talqin faoliyati o‘rtasidagi integrativ munosabat mahsulidir.

6. Ambivalent ifodalar nutqda bilvosita baholash, ochiq tanqidni yumshatish, kommunikativ keskinlikni kamaytirish, yashirin munosabatni yetkazish va adresatni faol talqinga undash vazifalarini bajaradi. Shunday qilib, semantik imkoniyat va pragmatik omillarning o‘zaro uyg‘unligi ambivalentlikning ko‘p qatlamli mazmuni hamda funksional ta’sirchanligini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bleuler E. Dementia Praecox or the Group of Schizophrenias / translated by J. Zinkin. – New York: International Universities Press, 1950. – 548 p.

2. Freud S. Totem and Taboo: Resemblances Between the Psychic Lives of Savages and Neurotics / translated by A. A. Brill. – New York: Moffat, Yard and Company, 1918. – 265 p.

3. Гегель Г. В. Ф. Наука логики: в 3 т. Т. 1 / отв. ред. и авт. вступ. ст. М. М. Розенталь. – Москва: Мысль, 1970. – 501 с.

4. Телия В. Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – Москва: Языки русской культуры, 1996. – 288 с.

5. Арутюнова Н. Д. Типы языковых значений: оценка, событие, факт / отв. ред. Г. В. Степанов. – Москва: Наука, 1988. – 338 с.

6. Nurmonov A. Tanlangan asarlar: 3 jildli. 3-jild. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – 376 b.

7. Safarov Sh. Pragmalingvistika: monografiya. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 318 b.

8. Hakimov M. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari: monografiya. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 172 b.

MILLIY MENTALITETNI AKS ETTIRUVCHI VERBAL BIRLIKLARNING QIYOSIY TAHLILI

Z.M.Raximova,
dots.nt v.b. (PhD),
Urganch davlat universiteti.
zarahim61@gmail.com

UO‘K 81'42

Annotatsiya. *Maqolada Germaniya federal yerlari va O‘zbekiston mintaqalari sloganlarining qiyosiy-lingvopragmatik tahlili keltirilgan. Hududiy identitetni shakllantiruvchi verbal strategiyalar geomarketing prizmasida o‘rganiladi. Nemis diskursi dinamik va ratsional shakllarga asoslanishi, o‘zbek brendingi esa Buyuk ipak yo‘li merosi hamda an’anaviy mehmondo‘stlikka tayanishi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *hududiy brending, turistik slogan, lingvopragmatika, chog‘ishtirma tahlil.*

Abstract. *The article presents a comparative linguopragmatic analysis of the regional slogans of the federal states of Germany and the regions of Uzbekistan. The verbal strategies forming regional identity are examined through the prism of geomarketing. It is substantiated that the German discourse relies on dynamic and rational forms, whereas Uzbek branding is grounded in the heritage of the Silk Road and traditional hospitality.*

Keywords: *regional branding, tourist slogan, linguopragmatics, comparative analysis.*

Аннотация. *В статье представлен сопоставительный лингвопрагматический анализ региональных слоганов федеральных земель Германии и регионов Узбекистана. Исследуются вербальные стратегии формирования региональной идентичности через призму геомаркетинга. Выявлено, что немецкий дискурс тяготеет к динамичным и рациональным формам, тогда как узбекский брендинг опирается на историко-культурное наследие Шелкового пути и традиционную гостеприимность.*

Ключевые слова: *региональный брендинг, туристический слоган, лингвопрагматика, компаративный анализ.*

Кириш. Шимолий немис прагматизми ва шарқона сеҳр-жозиба контекстидаги таҳлил ҳар иккала мамлакатдаги слоганларнинг ҳайратланарли оламига назар ташлайди ва сўзлар муайян минтақаларнинг ментал-маданий қиёфасини қандай шакллантиришини кўрсатиб беради.

Германия федерал ерларининг «THE LÄND», «Niedersachsen.Klar.» ва «So geht Sächsisch» каби концептуал слоганлари минтақавий маркетинг муҳитларида нафақат фаол дискурсив муҳокамаларни генерация қилади, балки ҳудудларнинг ментал ва лингвопрагматик хусусиятларини ҳам акс эттиради. Глобаллашув шароитида бошқа геомаданий маконларнинг брендинг стратегияларини ўрганиш мақсадида, мазкур тадқиқотда Марказий Осиё ареали, хусусан, Ўзбекистон ҳудудий слоганларининг лингво-маданий ва прагматик жиҳатлари қиёсий таҳлил остига олинади.

Ўзбекистонда ҳам худди немис федерал ўлкалари каби аксарият минтақалар ўзларининг расмий ва қонуний мустаҳкамланган сайёҳлик шиорларига эга. Бу амалиёт Ўзбекистон Республикаси Туризм қўмитаси томонидан минтақавий бренд идентификацияларини ишлаб чиқиш доирасида жорий этилган. Бу ҳайратланарли ўхшашликларни, шу билан бирга туб маданий фарқларни ҳам кўрсатади. *Jung von Matt* каби немис реклама агентликлари замонавий сўз ўйинлари, англицизмлар ва провокацион клеймларга кўпроқ эътибор қаратса, Ўзбекистон Республикаси Туризм қўмитаси эса мазкур масалада тубдан фарқ қилувчи концептуал ёндашувни намойиш этади. Афсонавий Буюк ипак йўли ареалида жойлашган воҳалар ва тарихий марказларнинг брендинг стратегиясида уларнинг трансдаврий маданий қиммати, чуқур тарихий илдизлари ҳамда жаҳонга машҳур шарқона экзотик ва идентик жозибаси асосий прагматик омил сифатида белгиланади.

Германия ўз слоганларида инновацион ривожланиш ва тизимлиликни асосий маркетинг омили сифатида намойиш этса, Ўзбекистон динамикаси аксинча – жонли тарихий мерос ва чексиз меҳмондўстлик мазмуни орқали ўзига хос миллий-маданий коннотацияни акс эттиради.

Асосий қисм. Мазкур қиёсий-дискурсив таҳлил ҳар иккала мамлакат ҳудудий слоганларининг концептуал маконини тадқиқ этишга қаратилган бўлиб, лингвистик бирликларнинг Германиянинг шимолий ареалидан тортиб, Ўзбекистоннинг «Минг қалъалар юрти» (Хоразм) воҳасигача бўлган

яхлит геомаданий ҳудудларнинг идентитетини шакллантиришдаги лингвопрагматик имкониятларини намойиш этади.

Машҳур **«THE LÄND»** концептуал клейми бевосита Baden-Württemberg федерал ерига тегишли бўлиб, ушбу регионал бренд аҳоли томонидан ҳудуднинг маданий-диалектал номи сифатида қўлланиладиган *«Ländle»* (кичик ўлка) тушунчасига асосланган. 2021 йилда Jung von Matt реклама агентлиги томонидан муайян прецедент сифатида шаклланган *«Wir können alles außer Hochdeutsch»* («Адабий немис тилидан бошқа ҳар нарсани қила оламиз») деган аввалги узоқ муддатли вербал ифодани алмаштиришга йўналтирилган.

«An Hessen führt kein Weg vorbei» (*«Гессендан четлаб ўтиб бўлмайди»*) лингворегионал клейми Hessen федерал ерининг чегара периметри бўйлаб жойлаштирилган барча автомобиль магистраллари инфратузилмасида фаол қўлланилади. Мазкур бренд-дискурсга қадар эса *«Hier ist die Zukunft»* (*«Келажак шу ерда»*) концептуал парадигмаси орқали тарғиб қилинган.“

«Ich bin ein Sächsist» (*«Мен саксонияликман / саксоманман»*) неологик клейми Sachsen федерал ўлкасида 2001 йилдан бошлаб фаол қўлланилган ва ҳудудий ўзликни сунъий сўз ўйинлари орқали намоён этишга қаратилган эди. Бироқ 2013 йилга келиб **«So geht Sächsisch»** (*«Саксонча мана шундай бўлади»*) коннотатив слоганига алмаштирилди.

«Land der Frühausteher» (*«Эрта уйғонувчилар юрти»*) концепцияси доирасида Sachsen-Anhalt ўлкаси бир ўн йилликдан зиёд вақт давомида ўзининг ижтимоий-демографик ва меҳнат фаоллиги хусусиятларига таяниб, тарғибот олиб борди. Аммо 2018 йилдан бошлаб мазкур маконда рақамли коммуникация тенденциялари ва инновацион ривожланишни акс эттирувчи, тармоқ хэштеги элементларини ўз ичига олган **«moderndenken»** (*«Замонавий фикрлаш»*) прагматик слогани жорий этилди.

«Der echte Norden» (*«Ҳақиқий Шимол»*) репрезентатив клейми воситасида шаклланган, дискурсив баҳсларга сабаб бўлган Schleswig-Holstein. Бошқа шимолий ўлкаларда, кенг жамоатчилик эътирозларига хам олиб келди.

«Willkommen in der Denkfabrik» (*«Фикрлар фабрикасига хуш келибсиз»*) слоганидан вазмин ва консерватив информацион стратегия намунаси бўлган Thüringen федерал ўлкаси 2001 йилдан 2011 йилгача бўлган даврда инсайд оқимини констатация қилиб ва илмий-интеллектуал

салоҳиятга урғу берган холда фойдаланган, 2011 йилдан бошлаб фақатгина фактологик тасдиқни ифода этувчи констататив характерга эга **«Das ist Thüringen»** (*«Бу — Тюрингия»*) вербал моделига ўтган.

Ўзбекистонда ҳам худди немис федерал ўлкалари каби кўплаб минтақалар ўзларининг расмий ва қонуний мустаҳкамланган сайёҳлик идентик вербал стратегияларига эга. Бу амалиёт Ўзбекистон Республикаси Туризм қўмитаси томонидан минтақавий бренд идентификацияларини ишлаб чиқиш доирасида жорий этилган.

1. Тарихий ва маданий слоганлар (Саксония ёки Тюрингия билан таққосланади). Баъзи немис ўлкалари ўз маданияти ёки жойлашувига эътибор қаратса, ўзбек минтақалари истисносиз ўзларининг минг йиллик тарихи ва Буюк ипак йўлидаги тарихий аҳамиятига таянади:

Самарқанд: «Боқийлик шаҳри», «Осмон кўзгуси» (Тюрингиянинг жиддий оҳангига ўхшайди, лекин яққол тарихий улуғворликка эга).

Бухоро: «Афсонавий Бухоро», «Ислом маданияти ва ислоҳотлар маркази».

Хоразм (Хива): «Минг гумбазлар юрти» ёки «Очиқ осмон остидаги музей».

2. Саноат ва замонавийлик (Саксония-Анҳалт ва Гессен билан таққосланади). Иқтисодий тараққиёт ва саноат ривожланишини таъкидлайдиган шиорлар - худди Саксония-Анҳалтнинг «moderndenken» слогани каби — Ўзбекистонда ҳам мавжуд:

Навоий вилояти: «Саноат ва инновациялар маркази» ёки «Келажак шаҳри» (Навоий асосан йирик кончилик ва саноат зонаси бўлгани учун иқтисодий ҳудудлар характерини акс эттиради).

Тошкент: «Тошкент — нон шаҳри», «Тошкент — севги ва илиқлик шаҳри» ёки «Иқтисодиёт ва имкониятлар пойтахти».

3. Табиат ва экология (Шлезвиг-Гольштейн билан таққосланади).

Шлезвиг-Гольштейн ўзини «Ҳақиқий шимол» деб тарғиб қилганидек, ўзбек минтақалари ҳам ўз ландшафт хилма-хиллиги билан фахрланади:

Сурхондарё: «Термиз — цивилизациялар чорраҳаси»

Жиззах ва Сирдарё: «Яшил воҳа» ёки «Мирзачўл марвариди».

Фарғона водийси (Фарғона, Наманган, Андижон): Умумий «Олтиндан яралган водий».

Зомин - «Ўзбек Швейцарияси».

Асосий фарқ. Германияда *Jung von Matt* ёки *Scholz & Friends* каби агентликлар «THE LÄND» ёки «Niedersachsen.Klar.» каби қисқа, баъзан провокацион сўз ўйинларидан фойдаланади.

Аксинча, Ўзбекистоннинг регионал брендинг ва туристик дискурсида слоганлар анъанавий-классик парадигмани сақлаб қолган ҳолда, биринчи навбатда традицион меҳмондўстлик феномени ҳамда шарқона идентик экзотикани репрезентация қилади. Бундан ташқари, мамлакатнинг расмий миллий туристик ваъдаси ҳамда глобал коммуникация стратегияси **„Ўзбекистон – кафолатланган хавфсиз саёҳат“** ҳамда **„Ўзбекистон - маданиятлар ва цивилизациялар туташув нуқтаси“** концептуал клеймлари воситасида намоён этилади.

Хулоса. Германия ва Ўзбекистон минтақавий слоганлари ўртасидаги қиёсий-компаратив таҳлил шуни кўрсатадики, мазкур коммуникатив клеймлар шунчаки оддий маркетинг воситаси эмас. Улар маданият, тарих ва ижтимоий устуворликларнинг кўзгусидир:

Германия динамика ва муҳокамага таянади: «THE LÄND» ёки «moderndenken» каби немис клеймлари эътиборни тортиш, замонавий кўриниш бериш ва провокациядан ҳам қўрқмасликни хоҳлайди. Улар рақобат ва ўзгаришлар билан тавсифланган ўзликни акс эттиради.

Ўзбекистоннинг ҳудудий стратегик коммуникацияси эса аксинча — маданий барқарорлик ва миллий реномега таянади: хусусан, «Минг қалъалар юрти» каби концептуал слоганлар кўп асрлик тарихий изчиллик ва анъанавий меҳмондўстлик феноменини вақт ва макон чегараларидан холи бўлган сифат унсурлари сифатида акс эттиради. Мазкур вербал стратегиялар реципиентни ҳиссий-эмпирик жиҳатдан тарихий ва маданий аҳамиятга эга бўлган идентик маконга жалб этишга хизмат қилади.

Мазкур компаратив тадқиқот тил воситаларининг маданий идентитетни шакллантиришдаги детерминант ролини исботлаб, немис прагматизми ва шарқона идентик экзотиканинг ҳар бири ўзига хос лингвокоммуникатив таъсир кучига эга эканлигини тасдиқлайди.

Адабиётлар рўйхати:

1. Kroeber-Riel, W., & Esch, F.-R. *Strategie und Technik der Werbung: Entwurfs- und Gestaltungstheorien* (8. Aufl.). Kohlhammer. 2015.

2. Zinser, T. *Destination Branding: Erfolgreiche Markenstrategien für Regionen und Städte* (2. Aufl.). Springer Gabler. 2019.

3. https://uzbekistan.travel/en/r/khorezm-region/. Official Tourism Portal of Uzbekistan. (o. J.). *Khorezm region: Travel guide*. Uzbekistan Travel – Khorezm Region

4. https://whc.unesco.org/en/list/543/. UNESCO World Heritage Centre. J.-a). *Itchan Kala*. UNESCO Welterbe Ichan-Kala

5. https://whc.unesco.org/en/list/1442/. UNESCO World Heritage Centre. (o. J.-b). *Silk roads: Theroutes network of Chang'an-Tianshan corridor (Uzbekistan)*. UNESCO Seidenstraße Tentativliste

EMPATIYA TUSHUNCHASINING BADIIY VA PSIXOLOGIK TALQINI: NAZARIY YONDASHUVLAR

Fazilkarimova Barchinoy Muzaffarovna,
barchinoyabdumalikova5@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0000-9623-7237

UO‘K 81'42.3

Annotasiya

Mazkur maqolada empatiya fenomenining falsafiy, psixologik va pedagogik tafakkur evolyusiyasi kontekstida konseptual tahlili keltirilgan. Muallif «empatiya» tushunchasiga nisbatan turli akademik yondashuvlarni nazariy jihatdan umumlashtirib, uning dastlabki estetik konsepsiyalardan tortib, zamonaviy talqinlarda ijtimoiy kompetensiya va emosional intellektning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralishigacha bo‘lgan transformasiyasini tadqiq etadi.

Tadqiqotda empatiyaning funksional tabiatiga oid mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning qarashlari tizimlashtirilib, uning jarayon, qobiliyat, shaxs xususiyati va madaniy fenomen sifatidagi jihatlari tahlil qilingan. Ayniqsa, ijtimoiy o‘zaro munosabatlar tizimidagi empatik jarayonlarning hamda xorijiy tillarni o‘qitish jarayonida empatiyaning fanlararo salohiyatiga alohida etibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *empatiya, nazariy sintez, ijtimoiy kompetentlik, empatik qobiliyatlar, emosional intellekt, ijtimoiylashuv, madaniy kontekst.*

Аннотация

В данной статье представлен концептуальный анализ феномена эмпатии в контексте эволюции философской, психологической и педагогической мысли. Автор осуществляет теоретический синтез различных академических подходов к понятию «эмпатия», исследуя его трансформацию от ранних эстетических концепций до современных трактовок эмпатии как социальной компетенции и элемента эмоционального интеллекта. В работе систематизированы взгляды отечественных и зарубежных исследователей на проблему

функциональной природы эмпатии (как процесса, способности, свойства личности и феномена культуры). Особое внимание уделяется анализу междисциплинарного потенциала эмпатических процессов в системе социального взаимодействия и в процессе обучения иностранным языкам.

Ключевые слова: *эмпатия, теоретический синтез, социальная компетентность, эмпатические способности, эмоциональный интеллект, социализация, культурный контекст.*

Abstract

This article presents a conceptual analysis of the phenomenon of empathy within the context of the evolution of philosophical, psychological, and pedagogical thought. The author provides a theoretical synthesis of various academic approaches to the concept of "empathy", examining its transformation from early aesthetic conceptions to contemporary interpretations of empathy as a social competence and an essential component of emotional intelligence.

The study systematizes the perspectives of national and international scholars on the functional nature of empathy, considering it as a process, ability, personality trait, and cultural phenomenon. Particular attention is paid to the interdisciplinary potential of empathic processes within the system of social interaction and in the process of foreign language teaching.

Keywords: *empathy, theoretical synthesis, social competence, empathic abilities, emotional intelligence, socialization, cultural context.*

Kirish

Zamonaviy gumanitar fanlar va fanlararo tadqiqotlarda yunoncha «empatiya» atamasi psixologik, sosiologik, falsafiy hamda pedagogik diskurslarni birlashtirgan holda chuqur nazariy tahlil obyekti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ilmiy muomalaga kiritilgan davridan boshlab empatiya tushunchasi fundamental akademik paradigmalar va metodologik yondashuvlar almashinuvini

aks ettirgan holda uzluksiz transformasiyaga uchrab keldi. Sohaga oid adabiyotlarning tarixiy-nazariy tahlili yagona tushunchaviy bazaning mavjud emasligidan dalolat beradi, zero ilmiy tafakkur shakllanishining turli bosqichlarida mazkur fenomen turlicha nuqtai nazardan talqin qilingan. Xususan, T. Lipps va I. Folkelt asarlarida empatiya dastlab sanat yoki tabiat obektiga estetik «hissiy singishish» fenomeni sifatida ochib berilgan bo‘lsa, A. Shopengauer va T. Riboning axloqiy-falsafiy konsepsiyalarida bu fenomen emosional xayrixohlik (simpatiya) tushunchasiga yaqinlashgan; V. Diltey esa empatiyani boshqa insonning manaviy hayotini anglashning alohida usuli sifatida germenevtik tushunish kontekstida ko‘rib chiqqan. Keyinchalik, K. Rodjersning fundamental ishlari tufayli insonparvarlik psixologiyasida empatiya shaxsning ichki olamiga chuqur, baholovchi munosabatdan xoli tarzda hamdardlik bildirish va kirib borish jarayoni sifatida mustahkamlandi.

Zamonaviy mahalliy va xorijiy psixologiyada empatiya uning polifunksional hamda ko‘p o‘lchovli xususiyatini takidlovchi bir nechta funksional va tushunchaviy toifalar prizmasi orqali o‘rganilmoqda. Bir tomondan, u L.N. Djrnazyan, A.P. Sopikov, L.P. Strelkova va R.G. Selivanovalarning ilmiy ishlarida prosessual dinamik hodisa sifatida yoritilib, unda empatik aktning vaqt bo‘yicha bosqichma-bosqich rivojlanishi, fasilitasiyasi va fazaviyligiga asosiy etibor qaratiladi. Ikkinchi tomondan, ushbu fenomen Dj. Mid, A.N. Poddyakov va T.P. Gavrilova tadqiqotlarida o‘zgalarning holatini differensiasiyalash hamda dekodlash imkonini beruvchi barqaror psixologik resurs individual-psixologik qobiliyat sifatida izchil ishlab chiqilgan. Shuningdek, R.R. Xaertdinov, A. Moris va Yu. Ripplinger tadqiqotlarida ushbu fenomen sof psixologik reaksiya doirasidan chiqib, shaxsiy madaniyat va ijtimoiy kompetensiya toifasiga o‘tadi hamda ijtimoiylashuv, shaxsiy etuklikning muhim vositasi va hissiy intellektning integrativ elementi maqomiga ega bo‘ladi. Bunday tadqiqot yo‘nalishlarining xilma-xilligi zamonaviy gumanitar bilimlar tizimida empatiya tabiati haqida yaxlit tasavvur hosil qilish uchun ilmiy hamjamiyat tomonidan to‘plangan malumotlarni tizimlashtirish va nazariy jihatdan umumlashtirish zaruratini taqozo etadi.

Shaxslararo muloqotga bo‘lgan akademik qiziqishning ortishi urg‘uning kompetentlik yondashuvi tomon siljishiga sabab bo‘ldi. Nemis tadqiqotchisi Yurgen Ripplinger (J. Ripplinger) empatiyani bazaviy ijtimoiy kompetensiya sifatida baholaydi. Uning talqinida empatik xatti-harakat hissiy rezonansga bo‘lgan qobiliyatni, o‘zga insonning ehtiyojlarini idrok etishni, munosib reaksiya

bildirishni, o‘zgalar pozisiyasini hurmat qilishni va chuqur interiorizasiyalashgan tushunishni integrativ tarzda birlashtiradi [2].

«Moslashuvchan ko‘nikmalar» (soft skills) orqali ijtimoiylashuv g‘oyasini rivojlantirgan holda, Andre Moris empatiyani muloqot ishtirokchisining ichki holati va fikrlash jarayonlarini uning shaxsiy dunyoqarashi nuqtai nazaridan turib dekodlash imkonini beruvchi kognitiv-emosional resurs sifatida tariflaydi. A. Moris muhim nazariy jihatni takidlaydi: empatiya altruistik g‘amxo‘rlik yoki o‘zgalarning xatti-harakatlarini maqullash bilan aynan bir xil emas. Uning negizida kengaytirilgan tushunish maydoni yotadi va bunda shaxs xulq-atvorining sabablari hamda emosional determinantlarini rekonstruksiya qilish asosiy omil hisoblanadi [10].

Kognitiv tushunishning bevosita his-tuyg‘ularni kechirishdan ustunligi haqidagi tezis V. Kyoler tomonidan ham qo‘llab-quvvatlanadi. O‘z navbatida, R. Rayx «ijtimoiy empatiya» atamasini muomalaga kiritib, empatik resurs insoniyat jamiyatining barqarorligi va yaxlitligining fundamental sharti ekanligini takidlaydi [1].

Ushbu hodisaga sosiologik teranlik bag‘ishlagan O.A. Polyushkevich ijtimoiy empatiyani muayyan tarixiy davrda tushunishga asoslangan xulq-atvorni tartibga soluvchi qadriyatlar va meyorlarning institusionallashgan tizimi sifatida belgilaydi. «Ijtimoiy transformasiyalar ko‘zgusi» sifatida namoyon bo‘luvchi empatiya jamiyatni birlashtirish vositasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin, biroq destruktiv tashqi sharoitlarda u tarqoqlik va begonalashuv omiliga aylanishi ham ehtimoldan xoli emas [8].

Empatiyaning milliy konsepsiyalari: qobiliyatlar tuzilmasidan empatik madaniyat sari.

Milliy psixologik ananalarda empatiya kasbiy muhim fazilatlar va ruhiy funksiyalar tuzilmasi prizmasi orqali izchil tahlil qilinadi. Xususan, V.I. Dolgova va E.V. Melnikning fundamental monografiyasida mazkur fenomen ikki o‘zaro to‘ldiruvchi tomonlama ochib beriladi: bir tomondan, empatiya mutaxassis shaxsining integrativ xususiyati sifatida namoyon bo‘lsa, ikkinchi tomondan o‘zga insonning deprivasion holatlariga emosional javob berishning dinamik jarayoni bo‘lib, unga konstruktiv psixologik yordam ko‘rsatishga bo‘lgan ongli intilishda ifodalanadi [5].

Mazkur muammoni rivojlantirishning amaliyotga yo‘naltirilgan vektori T.D. Karyagina va A.V. Ivanovaning tadqiqot ishlarida yorqin aks etgan bo‘lib,

ular V.D. Shadrikovning sinergetik konsepsiyasiga tayangan holda empatik qobiliyatni oliy ruhiy funksiya sifatida modellashtiradilar hamda uning arxitekturasida o‘zaro bog‘liq bo‘lgan motivasion, funksional va operasional bloklarni ajratib ko‘rsatadilar [7].

O‘z navbatida, A.A. Budansevaning ilmiy izlanishlarida «empatik qobiliyat» toifasi bosqichma-bosqich transformasiyalanib, nisbatan kengroq bo‘lgan «empatik madaniyat» tushunchasiga yaqinlashadi. Ushbu madaniyat shaxsning tizimli tuzilmasi sifatida tavsiflanadi va unda axloqiy o‘z-o‘zini anglash, shaxsning insonparvarlik yo‘nalishi, muloqotdoshning ichki olamiga refleksiv tarzda «hissiy singishish» va kirib borish mahorati, shuningdek, amaliy yordam berish va hissiy identifikasiyaga doimiy psixologik shaylik sintezlanadi [1; 6; 9].

Hissiy intellekt va didaktika kontekstida empatiya

D. Goulmanning empatiyani hissiy intellekt tuzilmasiga kirituvchi yondashuvi alohida nazariy ahamiyat kasb etadi. Muallif empatiyani ramziy manoda «ijtimoiy lokator» (radar) sifatida tavsiflaydi. D. Goulmanning fikricha, empatik mexanizmlarning tanqisligi muqarrar ravishda hissiy rigidlikka, «ijtimoiy no‘noqlik»ka va atrofdagilarni stereotip qarashlar orqali idrok etishga olib keladi. Tadqiqotchi yashirin kechinmalarni oldindan seza olish va shaxsning ichki muammolarini anglash qobiliyatini empatik resurs evolyusiyasining eng yuqori bosqichi deb hisoblaydi [3]. B. Sversi ham, o‘z navbatida, empatik salohiyatni o‘zaro munosabatlar muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillar qatoriga kiritadi [4].

Nazariy sintez natijalarini talim amaliyotiga tatbiq etgan holda, biz chet tilini o‘rganish jarayonida 5–6-sinf o‘quvchilarining empatik qobiliyatlarini shakllantirish modelini ishlab chiqdik. Chet tili talimi yuqori ijtimoiylashuv salohiyatiga ega, chunki tilni o‘zlashtirish bevosita o‘zga ijtimoiy-madaniy voqelikni anglash bilan uzviy bog‘liqdir. Chet tili muhitiga sho‘ng‘ish o‘quvchilarning emosional sohasini faollashtiradi, o‘zgalar tajribasini interpretasiya qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda shaxslararo idrok jarayonlarini tezlashtiradi.

Xulosa

O‘tkazilgan nazariy tahlil shuni ko‘rsatadiki, empatiya fenomeni kognitiv, emosional va ijtimoiy-madaniy komponentlarni birlashtiruvchi murakkab dinamik tizimdan iborat. Estetik falsafadan tortib amaliy didaktikagacha bo‘lgan mavjud talqinlarning xilma-xilligi mazkur toifaning fanlararo maqomini

tasdiqlaydi va zamonaviy ilm-fanda uni yanada kengroq va kompleks ravishda o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Буданцева А. А. Развитие эмпатической культуры будущих педагогов в процессе профессиональной подготовки: автореф. дис. ... канд. пед. наук. — Смоленск, 2012. — 22 с.

2. Горева А. Д. Научная интерпретация понятия «эмпатия» в современной отечественной и зарубежной литературе // Вестник Костромского государственного университета. Серия: Педагогика. Психология. Социокинетика. — 2018. — Т. 24, № 3. — С. 187–189.

3. Гоулман Д. Эмоциональный интеллект / Д. Гоулман; пер. с англ. А. П. Исаевой. — М.: АСТ: АСТ Москва, 2009. — 478 с.

4. Джрназян Л. Н. Характеристика эмпатии как процесса // Вопросы психологии. — 1989. — № 4. — С. 138–142.

5. Долгова В. И., Мельник Е. В. Эмпатия: монография. — Челябинск: Изд-во МГОУ, 2014. — 164 с.

6. Карягина Т. Д., Иванова А. В. Модель эмпатических способностей // Консультативная психология и психотерапия. — 2013. — Т. 21, № 4. — С. 115–134.

7. Полюшкевич О. А. Социальная эмпатия как консолидирующий фактор общества // Социологические исследования. — 2015. — № 6. — С. 98–104.

8. Поддьяков А. Н. Психология обучения в условиях новизны, сложности и неопределенности // Психологические исследования. — 2015. — Т. 8, № 40. — С. 6.

9. Moritz, A., & Rimbach, F. (2006). Soft skills für young professionals: Alles, was Sie für Ihre Karriere brauchen.

10. Рипплингер Й. Социальные компетенции в профессии: эмпатия и коммуникация. — Висбаден: Спрингер ВС, 2016. — 210 с.

A.P. CHEXOV SO‘NGGI DAVR IJODIDA QADRIYATLAR INQIROZI HOLATIDAGI ADABIY QAHRAMON



Abdullayeva Iqbola Moxinovna,
f.f.f.d. (PhD),
Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti Rus tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi
ikbola.abdullayeva.87@mail.ru
https://orcid.org/0009-0001-1858-4505

UO‘K 95(575.171)

Annotatsiya: *Maqolada A. P. Chexov so‘nggi davr nasri va dramaturgiyasida («G‘ilofli odam», «Ionich», «It yetaklagan xonim», «Uch opa-singil», «Olchazor») qadriyatlar inqirozi holatidagi adabiy qahramon konsepsiyasi filologik tahlil qilinadi. Qahramon ongidagi aksiologik siljishlar, ichki begonalashuv, g‘iloflilik holati, nutqiy xatti-harakatlar, badiiy detal va psixologik ostmatn vositasida tadqiq etilgan. Tashqi maishiy farovonlikka qaramay, personajlarning ruhiy inqirozi va umumiy hayotiy g‘oyaning yo‘qligi tahlil qilinadi. Inqirozning lisoniy va estetik ifodalanishi, an’anaviy syujet harakatining o‘rniga ichki dramatik ziddiyatning qo‘yilishi ochib berilgan. Olingan natijalar yozuvchi so‘nggi badiiy olamining aksiologik yadrosi va yashirin psixologizm poetikasini tushunishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *A. P. Chexov, qadriyatlar inqirozi, adabiy qahramon, aksiologiya, so‘nggi davr ijodi, g‘iloflilik, ostmatn, psixologizm.*

Аннотация: *В статье исследуется концепция литературного героя в ситуации ценностного кризиса в поздней прозе и драматургии А. П. Чехова («Человек в футляре», «Ионыч», «Дама с собачкой», «Три сестры», «Вишневый сад»). Аксиологические сдвиги в сознании героя, внутреннее отчуждение и футлярность анализируются посредством речевого поведения, художественной детали и подтекста. Раскрывается духовный кризис персонажей и отсутствие общей идеи при внешнем благополучии. Выявлены языковые и эстетические механизмы выражения кризиса, заменяющие традиционное сюжетное действие внутренним драматизмом, что углубляет понимание поэтики скрытого психологизма позднего А. П. Чехова.*

Ключевые слова: *А. П. Чехов, ценностный кризис, литературный герой, аксиология, позднее творчество, футлярность, подтекст, психологизм.*

Abstract: *The article explores the concept of the literary character facing a value crisis in A. P. Chekhov's late prose and drama ("The Man in a Case", "Ionych", "The Lady with the Dog", "Three Sisters", "The Cherry Orchard"). Axiological shifts, inner alienation, and case-like existence are examined through speech strategies, artistic details, and psychological subtext. The spiritual crisis of characters lacking a unifying life concept despite external well-being is analyzed. The study highlights the linguistic and aesthetic representations of value crises replacing traditional plot progression with internal dramatic conflict, deepening insights into late Chekhovian poetics.*

Keywords: *A. P. Chekhov, value crisis, literary character, axiology, late work, case-like existence, subtext, psychologism.*

Kirish. Rus mumtoz adabiyoti tarixida shaxsning ichki dunyosi, uning axloqiy o‘zini o‘zi anglashi va qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlar masalasi doimo yetakchi o‘rin tutgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy evrilishlar inson ongidagi qadriyatlar tizimining inqirozga uchrashiga sabab bo‘ldi. Mazkur jarayon A. P. Chexovning so‘nggi davr ijodida yuksak badiiy-falsafiy ifodasini topdi. Yozuvchi an’anaviy didaktik pand-nasihatdan voz kechib, inson ruhiyatidagi yashirin inqirozni, ma’naviy sustlikni va hayot mazmunining yo‘qolishini nozik filologik vositalar orqali ochib berdi. Chexovshunoslikda yozuvchi poetikasi, uning badiiy tizimining yaxlitligi va gnoseologik xususiyatlari I. N. Suxix [7, s. 165] hamda V. B. Katayev [2, s. 112] tomonidan chuqur o‘rganilgan. E. A. Polotskaya chexovcha ochiq finallarning falsafiy mohiyatini tadqiq etgan [5, s. 82]. Yozuvchining mutlaq g‘oyalarga shubhasi va shu bilan birga axloqiy mezonlarni saqlab qolishi V. Ya. Linkov [4, s. 96] asarlarida yoritilgan bo‘lsa, ma’naviy izlanishlar evolyutsiyasi V. M. Rodionova [8, s. 104] va A. S. Sobennikov [6, s. 88] tomonidan tahlil qilingan.

Chexov asarlarida etik ideallarning lisoniy va aksiologik jihatlari I. M. Abdullayeva tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan [3, s. 189].

Shunga qaramay, so‘nggi davr A. P. Chexov ijodida adabiy qahramonning qadriyatlar inqirozi holatidagi lisoniy, matniy va estetik namoyon bo‘lishini yaxlit aksiologik tizim sifatida o‘rganish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Tadqiqot obyekti sifatida yozuvchining 1890 va 1900-yillardagi mashhur nasriy asarlari («G‘ilofli odam», «Ionich», «It yetaklagan xonim») hamda dramatik pyesalari («Uch opa-singil», «Olchazor») olindi. Tadqiqot predmeti esa qahramonning qadriyatlar inqirozini ifodalovchi badiiy-nutqiy vositalar, obrazlar tizimi, makon-zamon belgilari va ostmatn strukturasidir. Tadqiqot maqsadi Chexov qahramonining qadriyatlar inqiroziga uchrash mexanizmlarini filologik tahlil orqali ochib berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun qahramonlar nutqidagi o‘zgarishlarni aniqlash, g‘iloflilik konsepsiyasini baholash, xronotop va detal vositasida qadriyatlar yemirilishini ko‘rsatish hamda turli asarlar personajlarini qiyosiy tahlil qilish vazifalari belgilandi.

Materiallar va metodlar. Tadqiqot materiali sifatida A. P. Chexovning 1890-yillar va 1900-yillar boshidagi nasriy hamda dramaturgik matnlari tanlandi. Tadqiqotda matnshunoslik, struktur-semantik, aksiologik, qiyosiy-chog‘ishtirma va germenevtik metodlardan foydalanildi. Struktur-semantik metod lisoniy vositalar va sintaktik konstruksiyalarning inqiroz mazmunini qanday shakllantirishini o‘rganishga xizmat qildi. Aksiologik tahlil personajlar qadriyatlar iyerarxiyasini aniqlash imkonini berdi. Qiyosiy metod esa turli janrdagi asarlarda qadriyatlar inqirozining mushtarak xususiyatlarini ochib berishda qo‘llanildi.

Asosiy qism. A. P. Chexov so‘nggi davr ijodida adabiy qahramonning qadriyatlar inqirozi tashqi fojiali voqealar natijasida emas, balki kundalik mayda-chuyda hayot oqimida, maishiy odatlarga tobelik oqibatida yuzaga keladi. «G‘ilofli odam» asarida Belikov obrazi orqali insonning tirik hayotdan, erkinlikdan va samimiylikdan qo‘rqishi mutlaq darajaga ko‘tariladi. Belikovning lisoniy portretida takrorlanuvchi “Ishqilib, biror noxushlik chiqmasa edi” jumlasi uning mavjudlik aksiologiyasini belgilaydi. Bu yerda qadriyatlar inqirozi shundaki, inson o‘z xavfsizligini ta’minlash ilinjida hayotning asl mohiyatidan ixtiyoriy ravishda voz kechadi. Qahramon nutqidagi qotib qolgan qoidalar, buyruq ohangi va qadimiy yunon tiliga sig‘inish tirik muloqotni yo‘qqa chiqaradi. Natijada personaj atrofidagilarni ham o‘z g‘ilofiga kiritishga intiladi, bu esa butun jamiyat miqyosidagi ma’naviy turg‘unlikni aks ettiradi.

«Ionich» hikoyasida esa qadriyatlar inqirozi vaqt o‘lchami orqali, inson shaxsiyatining bosqichma-bosqich yemirilishi tarzida ko‘rsatiladi. Dmitriy Ionich Startsevning dastlabki yuksak orzulari, san’at va chin sevgiga bo‘lgan intilishi maishiy qulaylik va moddiy boylik to‘plash ehtirosiga yengiladi. Lisoniy jihatdan qahramon evolyutsiyasi uning nutqidagi jonli, his-tuyg‘uga to‘la iboralarning asta-sekin quruq, buyruq va jerkish ohangidagi so‘zlar bilan almashinuvida namoyon bo‘ladi. Turkinlar xonadonidagi «iste’dodli» sanalgan havaskorlik sahnasining doimiy takrorlanishi (Vera Iosifovnaning qiroatlari, Kotikning fortepianoda shovqinli chalishi, Pava qiliqlari) o‘zgarmas qolipga aylangan soxta madaniyatni ko‘rsatadi. Startsev bu muhitning soxtaligini anglasa-da, unga qarshi tura olmaydi, oqibatda o‘zi ham hissiz, pul sanashdan boshqa maqsadi qolmagan vujudga aylanadi. Bu holatda qadriyatlar inqirozi kompromiss, ya’ni o‘z vijdoniga xiyonat qilish orqali ro‘y beradi.

«It yetaklagan xonim» asarida esa Chexov qadriyatlar inqirozining mutlaqo o‘zgacha, ijobiy uyg‘onish bosqichini ochib beradi. Gurov va Anna Sergeyevna o‘rtasidagi munosabatlar avvaliga oddiy kurort sarguzashti sifatida boshlanadi. Gurovning ayollarga nisbatan bepisandona munosabati va odatiy qoliplari Yalta muhitida kutilmaganda sinadi. Qahramon hayotida ilk bor chinakam sevgiga duch keladi, bu esa uning butun o‘tmishdagi turmush tarzini soxta va ma’nosiz ekanligini fosh etadi. Matnda ikki xil hayotning, ya’ni barcha ko‘rib turgan rasmiy, yolg‘on hayot bilan yashirin, ammo haqiqiy ma’naviy hayotning parallel mavjudligi lisoniy ziddiyatlar orqali beriladi. Gurov o‘zining Moskvadagi do‘stlariga o‘z hislarini aytmoqchi bo‘lganida, ulardan faqat «Sturjina go‘shti sal aynigan ekan» degan befarq javobni eshitadi. Ushbu maishiy detal orqali atrofdagi olamning ma’naviy kar-soqovligi va qahramonning chinakam insoniy qadriyatlarga bo‘lgan ehtiyoji yorqin ko‘rsatiladi.

Chexov dramaturgiyasida («Uch opa-singil», «Olchazor») qadriyatlar inqirozi polifonik xarakter kasb etadi. Prozorovlar xonadonida qahramonlar intilayotgan «Moskva» obrazi geografik nuqta bo‘lmay, balki yo‘qotilgan ma’naviy orom va barkamollik timsolidir. Personajlar nutqidagi doimiy uzilishlar, dialoglardagi rezonansning yo‘qligi, har kimning faqat o‘z dardi bilan bandligi muloqot inqirozini yuzaga keltiradi. «Olchazor» pyesasida esa qadriyatlar to‘qnashuvi davrlar almashinuvi kontekstida beriladi. Ranevskaya va Gayev uchun bog‘ o‘tmish xotiralari, estetik go‘zallik va bolalik timsoli bo‘lsa, Lopaxin uchun u foyda keltiruvchi yer maydonidir. Har ikki tomon ham o‘zicha haq, biroq

bu haqiqatlarning kesishmasligi dramatik inqirozni chuqurlashtiradi. Bolta ovozi va uzilgan tor sadosi kabi ramziy belgilar eski madaniy qadriyatlar davrining yakun topganini bildiradi.

Natijalar. O‘tkazilgan tahlil natijasida A. P. Chexov so‘nggi davr ijodidagi qadriyatlar inqirozi konsepsiyasining o‘ziga xos xususiyatlari aniqlandi. Birinchidan, inqiroz qahramon ongidagi «umumiy g‘oya»ning yo‘qligi yoki uning soxta tushunchalar bilan almashinuvidan kelib chiqadi. Ikkinchidan, personajlar nutqida maishiy qoliplar, takroriy iboralar va sintaktik parchalanishlar ruhiy turg‘unlikni aks ettiruvchi asosiy lisoniy vosita ekanligi isbotlandi. Uchinchidan, Chexov qahramonlari uchun qadriyatlar inqirozi ikki xil yo‘nalishda rivojlanishi aniqlandi, bular shaxsiyatning asta-sekin tubanlashuvi («Ionich», «G‘ilofli odam») yoki aksincha, inqiroz orqali yangi, haqiqiy ma’naviy mohiyatning kashf etilishidir («It yetaklagan xonim», «Uch opa-singil»).

Muhokama. Olingan natijalarni chexovshunoslikning yetakchi yo‘nalishlari bilan qiyoslash shuni ko‘rsatadiki, Chexov inson inqirozini tasvirlashda hukm chiqaruvchi sudyaga aylanmaydi. V. B. Katayev ta’kidlaganidek, yozuvchi ong hodisalarini badiiy harakat darajasiga ko‘taradi [2, s. 118]. I. N. Suxix tadqiqotlariga muvofiq, Chexov qahramonlarining fojiasi ularning buyuk kashfiyotlarida emas, balki oddiy hayot oqimiga qarshi tura olmasliklaridadir [7, s. 172]. V. Ya. Linkov qayd etgan skeptitsizm yozuvchiga tayyor mafkuraviy javoblarni rad etish va inson fojiasini boricha ko‘rsatish imkonini beradi [4, s. 102]. Mazkur tahlil V. M. Rodionova [8, s. 110] va A. S. Sobennikov [6, s. 94] ko‘rsatgan ma’naviy izlanishlarning qonuniyatlarini tasdiqlaydi hamda I. M. Abdullayevaning chexovcha axloqiy mezonlarning lisoniy ifodalanishi haqidagi xulosalari bilan hamohanglik kasb etadi [3, s. 191].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, A. P. Chexov so‘nggi davr asarlarida qadriyatlar inqirozi holatidagi adabiy qahramon murakkab, ko‘p qatlamli va dinamik obraz sifatida gavdalanadi. Yozuvchi badiiy detal, nutqiy xarakteristika, makon cheklanganligi va ostmatn vositasida insonning ichki erksizligi va ma’naviy turg‘unligini ochib beradi. Inqiroz holati Chexov poetikasida shaxsning o‘z hayotiga mas’uliyat bilan qarashini talab qiluvchi muhim ekzistensial mezon vazifasini bajaradi. Kelgusidagi tadqiqotlarda ushbu aksiologik modellarni jahon adabiyotidagi intellektual nasr an’analari bilan qiyosiy o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Ayniqsa, qahramonning o‘z-o‘zini anglashi, ma’naviy tanlov jarayonidagi ikkilanishlari va ekzistensial yolg‘izligi masalasini XX asr jahon adabiyotidagi intellektual oqimlar hamda qiyosiy-tipologik tahlil usullari orqali yoritish

yozuvchi merosining umumbashariy ahamiyatini yangi qirralardan ochishga xizmat qiladi. Chexov badiiy olamida inson ruhiyatining chuqur qatlamlarini tadqiq etish jarayoni faqatgina o‘sha davr ijtimoiy-tarixiy muhiti bilan cheklanib qolmay, balki barcha davrlar uchun dolzarb bo‘lgan insoniy qadr-qimmat, erkinlik va shaxsiy mas’uliyat kabi fundamental tushunchalarni qayta baholashga undaydi. Qadriyatlar transformasiyasining lisoniy, semiotik va kompozitsion ifodalanishini tizimli o‘rganish nafaqat chexovshunoslik, balki zamonaviy adabiyotshunoslik, aksiologik poetika va matn tahlili sohalarining nazariy-amaliy bazasini yanada boyitish imkonini yaratadi. Shu nuqtai nazardan, yozuvchining so‘nggi davr nasri va dramaturgiyasidagi qadriyatlar inqirozini turli milliy adabiyotlardagi axloqiy izlanishlar kontekstida qiyosiy tadqiq etish, shuningdek, badiiy matn vositasida yosh avlodda yuksak ma’naviy-axloqiy ideallarni shakllantirish omillarini tahlil qilish istiqbolli ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Громов М. П. Книга о Чехове. Москва, Современник, 1989. 384 с.

2. Катаев В. Б. Чехов плюс... Предшественники, современники, преемники. Москва, Языки славянской культуры, 2004. 392 с.

3. Абдуллаева И. М. Языковая репрезентация этических идеалов А. П. Чехова в контексте глобальных ценностных трансформаций. Вопросы филологии. 2026. Том 1. № 2/1. С. 188–192.

4. Линков В. Я. Скептицизм и вера А. П. Чехова. Москва, Издательство Московского университета, 1995. 256 с.

5. Полоцкая Э. А. О поэтике А. П. Чехова. Москва, Наследие, 2001. 240 с.

6. Собенников А. С. Между «есть Бог» и «нет Бога»... (о религиозно-философских традициях в творчестве А. П. Чехова). Иркутск, Издательство Иркутского университета, 1997. 222 с.

7. Сухих И. Н. Проблемы поэтики А. П. Чехова. 2-е издание, дополненное. Санкт-Петербург, Филологический факультет СПбГУ, 2007. 492 с.

8. Родионова В. М. Нравственные и художественные искания А. П. Чехова 90-х и начала 900-х годов. Москва, Прометей, 1994. 224 с.

SUBSTANDART MENTAL FE'LLARDA INFERENSIAL MA'NO HOSIL BO'LISHI: IMPLIKATURA VA KOMMUNIKATIV RELEVANTIYA NAZARIYALARI ASOSIDA QIYOSIY TAHLIL

Bo'riyeva Fayyoza Baxriddin qizi,
Amaliy ingliz tili kafedrasi o'qituvchisi
Qarshi davlat universiteti
fayoza.buriyeva@icloud.com
Orcid Id: 0009-0006-2242-4930

UO'K 81'42.3

ANNOTATSIYA.

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi substandart mental fe'l hamda fe'lli birliklarda inferensial ma'noning shakllanish mexanizmlari conversational implicature va kommunikativ relevantiya nazariyalari asosida qiyosiy-pragmatik jihatdan tadqiq etiladi. Asosiy e'tibor fikrlash, tushunish, anglash, bilish, eslash, unutish, taxmin qilish va diqqat jarayonlarini ifodalovchi so'zlashuvga xos, slang, idiomatik va stilistik markirlangan birliklarga qaratiladi. Tadqiqot eksplisit ravishda kodlangan leksik ma'no bilan kontekst orqali tiklanadigan implitsit mazmun o'rtasidagi munosabatni aniqlashni maqsad qiladi. H. P. Grice'ning kooperativ prinsip va conversational implicature konsepsiyasi hamda D. Sperber va D. Wilsonning Relevance Theory modeli nazariy asos sifatida qo'llanadi. Tavsifiy, komponent, kontekstual, qiyosiy-chog'ishtirma, diskursiv-pragmatik va inferensial tahlil usullari orqali substandart mental birliklarning kommunikativ potensiali ochib beriladi. Natijalar inferensial interpretatsiya kontekstual taxminlar, umumiy bilim, so'zlovchi niyati, interpersonal munosabat va tinglovchining optimal relevantlikka intilishi bilan belgilanayotganini ko'rsatadi. Ingliz va o'zbek tillarida kinoya, bilvosita tanqid, maqtov, kognitiv baholash va pragmatik yumshatishda o'xshash mexanizmlar mavjud bo'lsa-da, ularning leksik-frazeologik hamda lingvomadaniy realizatsiyasida farqlar kuzatiladi.

ABSTRACT

This article examines the formation of inferential meaning in substandard mental verbs and verbal expressions in English and Uzbek through the frameworks of conversational implicature and

Relevance Theory. The study focuses on colloquial, slang, idiomatic, and stylistically marked units denoting cognitive processes such as thinking, understanding, knowing, remembering, forgetting, guessing, realizing, and attention. Its primary aim is to explain the relationship between lexically encoded explicit meaning and implicit content pragmatically recovered from context. Grice's Cooperative Principle and theory of conversational implicature, together with Sperber and Wilson's relevance-theoretic model of ostensive-inferential communication, provide the principal theoretical foundations. Descriptive, componential, contextual, comparative, discourse-pragmatic, and inferential methods are applied to English and Uzbek examples. The findings show that interpretation of substandard mental expressions is strongly conditioned by contextual assumptions, shared knowledge, speaker intention, interpersonal relations, and the hearer's search for an optimally relevant interpretation. Both languages display comparable inferential mechanisms in irony, indirect criticism, praise, cognitive evaluation, mitigation, and interpersonal positioning. However, they differ in lexical and phraseological realization: English frequently employs phrasal and metaphorically extended verbs, whereas Uzbek often activates somatic, spatial, and idiomatic constructions. A multi-stage model of inferential interpretation is proposed to explain these interactions.

АННОТАЦИЯ

В статье исследуются механизмы формирования инференциального значения в субстандартных ментальных глаголах и глагольных единицах английского и узбекского языков на основе теории разговорной импликатуры и теории релевантности. Основное внимание уделяется разговорным, сленговым, идиоматическим и стилистически маркированным единицам, обозначающим процессы мышления, понимания, знания, запоминания, забывания, предположения, осознания и внимания. Цель исследования состоит в выявлении соотношения между эксплицитным лексически кодированным значением и имплицитным содержанием, выводимым адресатом из контекста. Теоретическую основу составляют принцип кооперации и теория conversational implicature Г. П. Грайса, а также релевантностная модель остенсивно-инференциальной коммуникации Д. Спербера и Д. Уилсон. Используются описательный, компонентный, контекстуальный, сопоставительный, дискурсивно-прагматический и инференциальный методы. Результаты показывают, что интерпретация субстандартных ментальных единиц определяется контекстуальными предпосылками, общими знаниями коммуникантов, интенцией говорящего, межличностными отношениями и

поиском оптимально релевантной интерпретации. В обоих языках выявлены сходные механизмы выражения иронии, косвенной критики, похвалы, когнитивной оценки и прагматического смягчения, однако их лексико-фразеологическая и лингвокультурная реализация имеет существенные различия.

Kalit so‘zlar: *mental fe’llar, substandart leksika, inferensial ma’no, implikatura, conversational implicature, relevantiya nazariyasi, kommunikativ relevantiya, pragmatik inferensiya, kognitiv faoliyat, so‘zlashuv tili, slang, kontekstual ma’no, eksplisit ma’no, implitsit ma’no, kommunikativ niyat, kognitiv kontekst, diskurs, ingliz tili, o‘zbek tili, qiyosiy pragmatika.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda ma’no masalasi faqat til tizimida kodlangan semantik mazmun bilan cheklanmaydi. Tabiiy kommunikatsiyada so‘zlovchi aytgan gapning literal mazmuni ko‘pincha uning real kommunikativ niyatini to‘liq ifodalamaydi. Tinglovchi nutqni tushunish jarayonida lingvistik kod, vaziyat, oldingi diskurs, umumiy bilim, ijtimoiy munosabat va kommunikativ kutilmalarni birlashtirib, bevosita aytilmagan mazmunni ham tiklaydi. Shu jihatdan inferensiya pragmatik ma’no hosil bo‘lishining markaziy mexanizmlaridan biri bo‘lib, “nima deyildi?” savolidan “nima nazarda tutildi?” savoliga o‘tishni ta’minlaydi.

Aqliy faoliyatni ifodalovchi mental fe’llar mazkur jarayonni o‘rganish uchun alohida ahamiyatga ega. Think, know, understand, remember, forget, realize kabi standart birliklar bilan bir qatorda ingliz tilida get it, catch on, figure out, wise up, blank out, space out, cotton on kabi so‘zlashuvga xos yoki stilistik markirlangan birliklar faol qo‘llanadi. O‘zbek tilida esa fahmi yetmoq, gapning tagiga yetmoq, miyasiga yetib bormoq, kallaga kirmoq, esidan chiqib ketmoq, xayoli ketmoq, ko‘zi ochilmoq, esini yig‘moq singari obrazli va so‘zlashuv birliklari mental faoliyatni nominatsiyalash bilan birga qo‘shimcha pragmatik mazmun hosil qiladi.

Substandartlik mazkur tadqiqotda “noto‘g‘rilik” tushunchasi sifatida emas, balki standart neytral adabiy nominatsiyadan funksional-uslubiy jihatdan farqlanadigan so‘zlashuv, slang, jargon, idiomatik va ekspressiv birliklarni qamrab oluvchi ishchi kategoriya sifatida qo‘llanadi. Bu birliklar nutqning norasmiyligini, kommunikantlar yaqinligini, kinoya, tanqid, hazil, emotsional munosabat yoki ijtimoiy pozitsiyani signal qilishi mumkin. Aynan shu sababli ularning ma’nosi lug‘aviy definitsiya bilan tugamaydi.

Masalan, You finally got it gapining eksplisit mazmuni adresatning muayyan narsani tushunganligidir. Biroq konkret kontekstda “sen ilgari tushunmagan eding”, “buni tushunishing uchun kutilganidan ko‘proq vaqt ketdi” yoki “men buni oldinroq anglaysan deb o‘ylagan edim” kabi qo‘shimcha mazmunlar yuzaga kelishi mumkin. O‘zbek tilidagi Nihoyat fahming yetdi konstruksiyasi ham shunga yaqin inferensial qatlamga ega. Shunday qilib, substandart mental birliklarda AYTILGAN MA’NO va KOMMUNIKATIV MA’NO o‘rtasidagi tafovut tadqiqotning asosiy obyektiga aylanadi.

Inferensial kommunikatsiyani izohlashda H. P. Grice tomonidan ishlab chiqilgan kooperativ prinsip va conversational implicature nazariyasi fundamental ahamiyatga ega. Grice muloqot ishtirokchilari kommunikativ hamkorlikka asoslangan taxminlardan foydalanishini ko‘rsatadi. Miqdor, sifat, munosabat va usul maksimlari tinglovchiga so‘zlovchining literal ifodadan tashqaridagi niyatini aniqlash uchun inferensial tayanch beradi. Ayniqsa, maksimning ochiq tarzda buzilishi yoki “flouting” holati kinoya, bilvosita tanqid va boshqa implikaturalarning hosil bo‘lishiga imkon yaratadi.

Sperber va Wilson tomonidan ishlab chiqilgan Relevance Theory esa kommunikatsiyani ostensive-inferential jarayon sifatida ko‘radi. Ushbu yondashuvda inson kognitsiyasi relevant axborotni qidirishga moyil, kommunikativ stimul esa optimal relevantlik kutilmasini yuzaga keltiradi. Tinglovchi mavjud kontekstual taxminlar orasidan yetarli kognitiv effektni oqilona qayta ishlash kuchi evaziga beradigan interpretatsiyani tanlaydi. Shu nuqtayi nazardan substandart mental fe’lning obrazliligi yoki uslubiy markirlanganligi tasodifiy “bezak” emas, balki tinglovchini muayyan kontekstual yo‘nalishga boshlovchi pragmatik signal bo‘lishi mumkin.

Muammoning dolzarbligi zamonaviy kommunikatsiyada norasmiy va raqamli diskursning kengayishi bilan yanada ortmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, seriallar, kino dialoglari va kundalik og‘zaki muloqotda substandart birliklar tez-tez uchraydi. Til o‘rganuvchi yoki tarjimon bunday birlikning faqat lug‘aviy ma’nosini bilsa, so‘zlovchining kinoyasi, noroziligi, maqtovi yoki yumshatish strategiyasini noto‘g‘ri talqin qilishi mumkin. Demak, inferensial kompetensiya xorijiy tilni tabiiy tushunishning muhim tarkibiy qismidir.

Muammoning o‘rganilganlik darajasida Grice (1975, 1989), Levinson (1983, 2000), Horn (1984, 2004), Sperber va Wilson (1995), Wilson va Sperber (2004, 2012), Carston (2002), Recanati (2004), Bach (1994), Jaszczolt (2005),

Ariel (2010) kabi tadqiqotchilarning ishlari markaziy o‘rin tutadi. Leksik va kognitiv semantika nuqtayi nazaridan Lakoff va Johnson, Kövecses, Cruse, Murphy, Evans va Green kabi olimlarning qarashlari mental birliklarning metaforik hamda konseptual asoslarini tushuntirishga yordam beradi.

Research gap shundan iboratki, inferensiya, implikatura va relevantiya alohida nazariy yo‘nalishlar sifatida keng yoritilgan bo‘lsa-da, aynan substandart mental fe’llarning inferensial potensiali ingliz va o‘zbek tillari materialida integrativ qiyosiy model asosida yetarlicha tizimlashtirilmagan. Ayniqsa, bir xil mental konseptning ikki tilda turli leksik-frazeologik shakllar orqali ifodalanishi va bu shakllarning tinglovchi inferensiyasiga qanday ta’sir qilishi alohida tadqiqotni talab qiladi.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillaridagi substandart mental fe’l va fe’lli birliklarda inferensial ma’no hosil bo‘lish mexanizmlarini aniqlash, conversational implicature va Relevance Theory doirasida ularning kommunikativ interpretatsiyasini tushuntirish hamda ikki tildagi universal va lingvomadaniy xususiyatlarni qiyoslashdan iborat. Vazifalar: mental substandart birliklarni semantik guruhlash; eksplisit va implitsit mazmunni farqlash; implikatura turlarini aniqlash; kontekstual taxminlar va kognitiv effekt rolini tavsiflash; kinoya, tanqid, maqtov, yumshatish va interpersonal pozitsiyalashdagi funksiyalarni ochish; ingliz va o‘zbek tillaridagi strukturaviy hamda metaforik farqlarni belgilashdan iborat.

Metodlari. Tadqiqot sifatga asoslangan qiyosiy-pragmatik va kognitiv-pragmatik metodologiya doirasida tashkil etildi. Tahlilning asosiy birligi sifatida mental jarayonni ifodalovchi, standart neytral variantdan uslubiy jihatdan farqlanadigan va kontekstda qo‘shimcha inferensial mazmun hosil qilish imkoniga ega bo‘lgan fe’l yoki fe’lli konstruksiya olindi. Metodologik triangulyatsiya tamoyiliga muvofiq tavsifiy, komponent, kontekstual, qiyosiy-chog‘ishtirma, diskursiv-pragmatik, Gricean implikatura tahlili va relevance-theoretic inferensial tahlil o‘zaro bog‘liq holda qo‘llanildi.

Materialni saralashda uch mezon asosiy deb olindi: (1) birlik mental faoliyat, kognitiv holat yoki kognitiv natijani bildirishi; (2) u so‘zlashuv, slang, idiomatik yoki ekspressiv markirlanganlikka ega bo‘lishi; (3) kontekstda literal semantikadan tashqari qo‘shimcha kommunikativ mazmun hosil qilishi. Ingliz tili uchun get it, catch on, figure out, wise up, cotton on, blank out, space out, slip one’s mind, wrap one’s head around kabi birliklar; o‘zbek tili uchun fahmi yetmoq, gapning tagiga yetmoq, miyasiga sig‘moq, kallaga kirmoq, ko‘zi

ochilmoq, esidan chiqib ketmoq, xayoli ketmoq, esini yig‘moq singari birliklar namunaviy material sifatida olindi.

Komponent tahlilda birliklarning [MENTAL FAOLIYAT], [TUSHUNISH], [BILISH], [FIKRLASH], [XOTIRA], [DIQQAT], [NATIJAVIYLIK], [NORASMIYLIK], [EKSPRESSIVLIK] va [BAHOLASH] semalari ajratildi. Bu bosqich literal leksik ma’no bilan pragmatik inferensiyani aralashtirmaslik uchun zarur bo‘ldi. Masalan, space out birlikning asosiy so‘zlashuv ma’nosi e’tiborning vaqtincha uzilishi bo‘lsa, “sen doim e’tiborsizsan” mazmuni fe’lning leksik semasi emas, muayyan kontekstda chiqariladigan inferensiya sifatida baholandi.

Gricean tahlilda har bir misol uchun eksplisit propozitsional mazmun, konversatsion kutilma, tegishli maksim va mumkin bo‘lgan implikatura ajratildi. Xususan, ritorik savollar, kinoyaviy maqtovlar, yetarlicha ma’lumot bermaslik yoki ortiqcha ta’kid orqali hosil bo‘ladigan partikulyarlashgan implikaturalarga e’tibor qaratildi. Generalized conversational implicature bilan muayyan vaziyatga kuchli bog‘langan particularized implicature o‘rtasidagi farq ham hisobga olindi.

Relevance-theoretic tahlilda kommunikativ stimul, tinglovchi uchun mavjud kognitiv kontekst, kontekstual implikatsiyalar, kognitiv effekt va qayta ishlash kuchi o‘rtasidagi munosabat ko‘rib chiqildi. Tinglovchi qaysi sababga ko‘ra literal interpretatsiyada to‘xtamasdan, kinoyaviy yoki baholovchi interpretatsiyaga o‘tishi tahlil qilindi. Bunda optimal relevantiya “eng ko‘p ma’no” emas, balki mavjud vaziyatda yetarli kognitiv effektni maqbul qayta ishlash xarajati bilan beradigan interpretatsiya sifatida tushunildi.

Qiyosiy tahlilda formal ekvivalentlikdan ko‘ra funksional-pragmatik ekvivalentlikka ustuvorlik berildi. Masalan, get it va fahmi yetmoq morfologik yoki etimologik jihatdan teng emas, biroq ayrim kontekstlarda TUSHUNISH konseptini norasmiy va pragmatik markirlangan shaklda ifodalashi sababli funksional qiyoslash uchun mos keladi. Shu tarzda ikki tildagi bir xil kommunikativ vazifani bajaruvchi, ammo turli obrazli asosga ega birliklar aniqlanadi.

Tahlil jarayoni yetti bosqichli model asosida amalga oshirildi: (1) substandart mental birlikni identifikatsiya qilish; (2) literal/eksplisit mental mazmunni belgilash; (3) kontekstual taxminlarni aniqlash; (4) Gricean implikaturani rekonstruksiya qilish; (5) relevance-theoretic kognitiv effektni aniqlash; (6) interpersonal va evaluativ natijani tavsiflash; (7) ingliz-o‘zbek

funksional qiyosini amalga oshirish. Mazkur ketma-ketlik inferensial ma’noni leksik ma’noga noto‘g‘ri yuklashning oldini olishga xizmat qiladi.

Natijalar. Tahlil natijasida substandart mental birliklarda inferensial ma’no besh asosiy kommunikativ domen atrofida faollashishi aniqlandi: (1) tushunish va anglash darajasini baholash; (2) fikrlash va muammoni yechish qobiliyatini baholash; (3) xotira va javobgarlikni pragmatik boshqarish; (4) diqqat va kognitiv nazoratni baholash; (5) bilvosita interpersonal pozitsiyalash, jumladan kinoya, tanqid, maqtov va hazil. Ushbu domenlarda literal mental mazmun ko‘pincha inferensial kommunikativ mazmun uchun boshlang‘ich nuqta vazifasini bajaradi.

Tushunish domenida You still don’t get it? konstruksiyasining eksplisit mazmuni adresatning hozir ham tushunmaganligidir. Still elementi vaqt bo‘yicha davomiylikni kodlaydi, biroq kommunikativ vaziyat “bu vaqtga kelib tushunishing kerak edi” degan normativ taxminni faollashtiradi. Natijada “sen kutilgan darajada tez tushunmayapsan” kabi salbiy implikatura hosil bo‘lishi mumkin. O‘zbek tilidagi Hali ham fahming yetmadimi? konstruksiyasi ham xuddi shunday kognitiv kutilma va real natija o‘rtasidagi nomuvofiqlikni signal qiladi.

You finally got it! va Nihoyat fahming yetdi! konstruksiyalari alohida e’tiborga loyiq. Finally/nihoyat oldingi davomiy holatning yakunlanganini ko‘rsatadi. Eksplisit darajada kognitiv muvaffaqiyat tasdiqlanadi, biroq oldingi tushunmaslik holati va kechikkan natija kontekstda tanqidiy yoki kinoyaviy inferensiyani yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli bir xil gap do‘stona vaziyatda quvonch, pedagogik vaziyatda yengillik, konfliktli vaziyatda esa masxara sifatida interpretatsiya qilinadi.

Catch on va gapning tagiga yetmoq birliklarida inferensiya ko‘pincha kognitiv tezlik va ziyraklikka bog‘lanadi. She caught on immediately jumlasida immediately komponenti tez tushunishni eksplisit qiladi; bundan “u ziyrak” degan ijobiy xulosa chiqarilishi mumkin. U gapning tagiga darrov yetdi jumlasida esa “tag” metaforasi masalaning yuzaki emas, ichki mohiyatini anglashni konseptuallashtiradi. Darrov komponenti bilan birga u shaxsning ziyrakligi haqidagi ijobiy inferensiyani kuchaytiradi.

Figure out va yechimini topmoq/gapni yechmoq tipidagi birliklar muammoni mental qayta ishlash orqali natijaga erishishni ifodalaydi. Can you figure this out? oddiy vazifaviy savol bo‘lishi mumkin. Ammo oldingi muvaffaqiyatsizlik yoki raqobat kontekstida u “bunga aqling yetadimi?” mazmunidagi bilvosita sinov yoki shubhani ifodalashi mumkin. Demak, bir xil

sintaktik forma kontekstga qarab neytral so‘rovdan interpersonal baholashga o‘tadi.

Intellektual qobiliyatni baholashda o‘zbek tilidagi somatik konstruksiyalar kuchli inferensial potensial namoyon qiladi. Shuniyam miyangga sig‘dirolmaysanmi? literal jihatdan axborotning “miya”ga sig‘masligi metaforasiga asoslanadi. Real kommunikativ mazmun esa ko‘pincha “bu juda oddiy”, “sen buni tushunishing kerak” va “tushunmasliging salbiy baholanmoqda” kabi kontekstual implikatsiyalar majmuasidan iborat. Bunda ritorik savolning javob talab qilmasligi tinglovchini baholovchi interpretatsiyaga olib boradi.

Ingliz tilidagi wrap your head around something birligi ham murakkab axborotni anglashga qaratilgan obrazli modelni ifodalaydi: I can’t wrap my head around it. Bu gap oddiy I don’t understand it variantiga qaraganda subyektiv kognitiv qiyinchilikni kuchliroq signal qiladi. Kontekstga qarab u obyektning murakkabligi, g‘ayrioddiyligi yoki so‘zlovchining hayratini inferensiya qilish imkonini beradi. O‘zbek tilida Buni miyamga sig‘dirolmayapman kabi konstruksiya funksional jihatdan yaqin bo‘lib, axborotning odatiy kognitiv modelga mos kelmasligini ifodalashi mumkin.

Xotira domenida slip one’s mind va esidan chiqib ketmoq birliklari pragmatik yumshatish funksiyasida ayniqsa faol. Sorry, it completely slipped my mind gapida so‘zlovchi unutish faktini tan oladi, biroq slip metaforasi hodisani nazoratdan tashqaridagi, qasdsiz jarayon sifatida konseptuallashtiradi. Tinglovchi “men buni ataylab e’tiborsiz qoldirmadim” degan implikaturani chiqarishi mumkin. Kechirasiz, butunlay esimdan chiqib ketibdi konstruktsiyasi ham agentiv javobgarlikni qisman yumshatadigan inferensial effekt yaratadi.

Blank out birligi vaqtinchalik xotira yoki kognitiv faoliyat uzilishini kuchli ekspressiv shaklda ifodalaydi: I knew the answer, but I blanked out. Eksplisit mazmun javobning vaqtincha esga kelmaganidir. Oldingi I knew the answer qismi bilan birga tinglovchi “bilimsizlik emas, vaziyatli kognitiv uzilish sabab bo‘ldi” degan inferensiyani oladi. Bu o‘z-o‘zini oqlash yoki kompetensiyani saqlab qolish strategiyasiga xizmat qilishi mumkin.

Diqqat domenida space out va xayoli ketmoq/xayoli boshqa joyda bo‘lmoq birliklari muhim. Sorry, I spaced out for a second gapida uzr formulasi so‘zlovchining e’tiborsizlikni kommunikativ norma buzilishi deb tan olayotganini ko‘rsatadi. Are you spacing out again? konstruksiyasidagi again esa oldingi

o‘xshash holatlarni kontekstga olib kiradi va “bu senda takrorlanadigan xususiyat” degan salbiy inferensiyaga yo‘l ochadi. O‘zbekcha Yana xayoling qayerda? ham takroriylik va norozilikni birlashtiradi.

Wise up kabi birliklarda kognitiv o‘zgarish bilan baholash birlashadi. He finally wised up and stopped trusting them gapida hozirgi anglash ijobiy natija sifatida ko‘rinsa-da, oldingi ishonuvchanlik yoki noto‘g‘ri qaror salbiy fon yaratadi. O‘zbek tilidagi Endi ko‘zi ochildi yoki Nihoyat asl gapni tushundi kabi ifodalar ham “oldin haqiqatni ko‘rmagan” degan kontekstual implikatsiyani yuzaga chiqaradi. Bu yerda BILISH/ANGLASH = KO‘RISH metaforasi inferensial interpretatsiyani qo‘llab-quvvatlaydi.

Natijalar implikaturaning bekor qilinuvchanligi (cancellability) substandart mental birliklarni tahlil qilishda muhim diagnostik belgi ekanligini ham ko‘rsatdi. Masalan, You finally got it — and I don’t mean you were slow; the explanation itself was confusing kabi davom tinglovchining “sen sust tushunding” inferensiyasini bekor qilishi mumkin. Demak, mazkur salbiy baho fe’lning kodlangan semantik ma’nosi emas, pragmatik inferensiyadir. O‘zbek tilida Nihoyat tushunding, lekin kechikishing sening aybing emas, men yaxshi tushuntirmadim kabi davom ham xuddi shunday effekt beradi.

Generalized va particularized implicature farqi ham kuzatildi. Ayrim norasmiy birliklar odatiy kontekstlarda muayyan baholovchi yo‘nalishga moyil bo‘lishi mumkin, biroq kuchli kinoya, konflikt yoki hazil kabi ma’nolar ko‘pincha muayyan vaziyatga bog‘liq particularized implicature sifatida yuzaga keladi. Masalan, Nice, you figured it out! gapining haqiqiy maqtov yoki kinoya ekanligini faqat kontekst, intonatsiya va oldingi diskurs aniqlaydi.

Relevance Theory nuqtayi nazaridan substandart variantning standart variant o‘rnida tanlanishi qo‘shimcha kognitiv effekt hosil qiladi. I understand va I get it propozitsional jihatdan yaqin bo‘lishi mumkin, ammo ikkinchi variant norasmiylik, yaqinlik yoki dialogik tabiiylikni signal qiladi. Tinglovchi bu uslubiy tanlovni kommunikativ stimulning bir qismi sifatida qayta ishlaydi. O‘zbek tilida tushundim va fahmim yetdi ham ayrim vaziyatlarda bir mental natijani bildirsa-da, ikkinchi birlik obrazlilik va baholash uchun kengroq imkoniyat yaratadi.

Qiyosiy natijalar ingliz tilida phrasal verb va verbal-particle konstruksiyalarining mental substandart ma’noni hosil qilishda mahsuldorligini ko‘rsatdi: figure out, wise up, blank out, space out. O‘zbek tilida esa somatik va fazoviy metaforaga asoslangan fe’lli birikmalar faol: miyasiga sig‘moq, gapning

tagiga yetmoq, fahmi yetmoq, esidan chiqmoq. Formal farqqa qaramay, ikki til ham abstrakt kognitiv faoliyatni konkret jismoniy tajriba orqali tushuntirish tendensiyasini namoyon qiladi.

Natijalar asosida quyidagi integrativ model taklif qilindi: SUBSTANDART MENTAL SIGNAL → LEKSIK/EXPLISIT MA'NO → KONTEKSTUAL TAXMINLAR → GRICEAN IMPLIKATURA → RELEVANT KONTEKSTUAL EFFEKT → EVALUATIV/INTERPERSONAL INFERENSIYA → YAKUNIY KOMMUNIKATIV INTERPRETATSIYA. Modelda implikatura va relevantiya bir-biriga raqib emas, balki inferensial ma'noni turli darajada tushuntiruvchi o‘zaro to‘ldiruvchi mexanizmlar sifatida talqin qilinadi.

Muhokamalar. Olingan natijalar substandart mental fe'llarning kommunikativ qiymatini faqat leksik semantika bilan tushuntirish metodologik jihatdan yetarli emasligini tasdiqlaydi. Mental birlik semantik yadro vazifasini bajarsa-da, uning real nutqdagi ma'nosi ko‘pincha so‘zlovchi va tinglovchining inferensial faoliyati orqali kengayadi. Shu jihatdan "inferensial ma'no" alohida lug‘aviy ma'no emas, balki lingvistik signal, kontekstual bilim va kommunikativ niyat o‘zaro ta'siridan kelib chiqadigan pragmatik natija sifatida qaralishi kerak.

Gricean yondashuv substandart mental birliklarda "aytilgan" va "nazarda tutilgan" mazmun o‘rtasidagi tafovutni tushuntirishda samarali. Ritorik savol, ortiqcha ta'kid, kinoyaviy maqtov yoki kutilmagan uslubiy tanlov tinglovchini literal interpretatsiyadan tashqariga chiqishga undaydi. Shuniyam tushunmadingmi? gapining grammatik shakli savol bo‘lsa-da, ko‘p vaziyatlarda so‘zlovchi javob olishni emas, baholashni maqsad qiladi. Tinglovchi kooperativ kommunikatsiya taxminidan kelib chiqib, "savolning maqsadi axborot olish emas" degan xulosaga keladi va tanqidiy implikaturani tiklaydi.

Biroq Grice modeli inferensiyaning kognitiv tanlanish jarayonini batafsil tushuntirishda Relevance Theory bilan to‘ldirilishi mumkin. Bir gap uchun nazariy jihatdan ko‘plab implikaturalar tasavvur qilish mumkin, ammo real tinglovchi ularning barchasini hisoblab chiqmaydi. U mavjud vaziyatda eng accessible kontekstual taxminlardan foydalanib, yetarli kognitiv effekt bergan interpretatsiyada to‘xtaydi. Shu sababli oldingi diskurs, kommunikantlar munosabati va vaziyatning maqsadi qaysi inferensiyaning relevant ekanligini belgilaydi.

Masalan, o‘qituvchi talaba uzoq tushuntirishdan keyin javob berganda Finally, you got it desa, kontekst “oldin tushunmagan”, “tushunish uchun vaqt ketgan” kabi taxminlarni darhol accessible qiladi. Yaqin do‘stlar o‘rtasida shu gap hazil bo‘lishi mumkin; keskin konflikt sharoitida esa haqoratga yaqin kinoyaviy baho hosil qilishi mumkin. Lingvistik forma o‘zgarmagan bo‘lsa-da, kognitiv kontekst o‘zgargani sababli yakuniy interpretatsiya o‘zgaradi.

Inferensial ma’noning muhim xususiyati uning gradatsion tabiatidir. Ayrim implikaturalar kuchli, boshqalari zaif bo‘lishi mumkin. Relevance Theorydagi strong va weak implicature farqi substandart mental birliklar uchun ayniqsa foydali. Masalan, I just can’t wrap my head around it gapidan “men buni tushunmayapman” kuchli implikatsiya bo‘lsa, “bu hodisa juda g‘alati”, “men hayratdaman”, “bu mening odatiy bilimlarimga zid” kabi xulosalar kontekstga qarab turli kuchdagi zaif implikatsiyalar bo‘lishi mumkin.

Mental substandart birliklarning metaforik tuzilishi ham inferensiyani yo‘naltiradi. Get, catch, wrap, slip, blank, space kabi ingliz birliklari dastlab jismoniy harakat yoki fazoviy holatga oid semantik manbalarga ega bo‘lib, mental domenni konseptuallashtirishda ishlatiladi. O‘zbek tilidagi yetmoq, sig‘moq, chiqmoq, ketmoq, tagiga yetmoq kabi elementlar ham mental jarayonni yo‘l, makon, sig‘im va harakat orqali ifodalaydi. Bunday embodied metaforalar tinglovchi uchun murakkab kognitiv holatni konkret tajriba orqali tezroq interpretatsiya qilish imkonini beradi.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi o‘xshashliklarning birinchi turi universal pragmatik xususiyatga ega: ikkala tilda ham kognitiv muvaffaqiyat maqtov, kognitiv muvaffaqiyatsizlik esa tanqid uchun asos bo‘lishi mumkin. Ikkinchi o‘xshashlik kontekstual markerlarda namoyon bo‘ladi: finally/nihoyat, still/hali ham, again/yana kabi birliklar oldingi holat, davomiylik yoki takroriylikni kommunikativ fon sifatida faollashtiradi. Uchinchi o‘xshashlik shundaki, ikki tilda ham ritorik savol mental qobiliyatni bilvosita baholashning kuchli vositasidir.

Farqlar esa, avvalo, leksik-frazeologik kodlashda ko‘rinadi. Ingliz tilida phrasal verbs va particle constructions juda mahsuldor. O‘zbek tilida esa somatik nomlar (miya, kalla, ko‘z), mental nomlar (fahm, es, xayol) va fazoviy-harakat fe’llari ishtirokidagi obrazli konstruksiyalar katta rol o‘ynaydi. Biroq bu farqni qat’iy tipologik qarama-qarshilik sifatida emas, tahlil qilingan materialdagi tendensiya sifatida baholash zarur.

Lingvomadaniy jihatdan o‘zbek tilidagi ayrim mental birliklar interpersonal hurmat, yosh va ijtimoiy masofa bilan kuchli bog‘lanishi mumkin. Masalan, miyang yetmaydimi yoki kallangga kirmaydimi kabi shakllar tengdoshlar orasida hazil sifatida qabul qilinishi mumkin bo‘lsa, rasmiy yoki ierarxik vaziyatda keskin yuzga tahdid qiluvchi aktga aylanishi ehtimoli yuqori. Ingliz tilida ham Are you not getting this? yoki Use your head kabi shakllar munosabat va intonatsiyaga qarab keskinlashadi. Demak, pragmatik inferensiyani to‘liq tavsiflash uchun sotsiolingvistik parametrlar ham zarur.

Tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan asosiy muammo formal ekvivalent topish emas, inferensial effektni saqlashdir. Masalan, He finally wised up ni so‘zma-so‘z tarjima qilish o‘rniga kontekstga qarab “nihoyat aqli kirdi”, “nihoyat tushunib yetdi”, “endi ko‘zi ochildi” kabi variantlar tanlanishi mumkin. Har bir variant turli evaluativ va stilistik kuchga ega. Tarjimon asl matndagi kognitiv natija bilan birga kinoya, tanqid yoki maqtov darajasini ham qayta yaratishi kerak.

Xorijiy til o‘qitishda ham faqat denotativ ma’noni berish yetarli emas. Talaba get it = understand yoki figure out = solve/understand ekvivalentini bilishi mumkin, biroq You still don’t get it? gapidagi norozilik yoki I finally figured it out! gapidagi yengillikni kontekstdan chiqarolmasa, pragmatik kompetensiya to‘liq shakllanmagan bo‘ladi. Shu sababli mental substandart birliklarni autentik dialog, intonatsiya, rol o‘yinlari va kontekstual inferensiya mashqlari orqali o‘rgatish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotning nazariy yangiligi substandart mental birliklarda inferensial ma’no hosil bo‘lishini uch daraja integratsiyasida talqin qilishdadir: leksik-semantik daraja mental konseptni kodlaydi; Gricean daraja eksplisit mazmundan kommunikativ implikaturaga o‘tishni tushuntiradi; relevance-theoretic daraja esa tinglovchining mavjud kontekstda qaysi interpretatsiyani tanlashini izohlaydi. Shu tariqa bir birlikning “ma’nosi” statik lug‘aviy obyekt emas, balki kommunikativ jarayonda dinamik ravishda boyitiladigan mazmun sifatida namoyon bo‘ladi.

Biroq tahlil natijalarini mutlaqlashtirish mumkin emas. Substandartlik darajasi hudud, avlod, ijtimoiy guruh va diskurs turiga qarab o‘zgarishi mumkin. Ayrim birliklar vaqt o‘tishi bilan standartlashadi yoki uslubiy kuchini yo‘qotadi. Shuningdek, sun’iy tuzilgan misol kontekstning barcha prosodik va multimodal xususiyatlarini aks ettira olmaydi. Kelgusida korpus, audio-video material,

eksperimental pragmatika va respondent interpretatsiyalarini birlashtirgan tadqiqotlar mazkur modelni empirik jihatdan chuqurlashtirishi mumkin.

Xulosalar. Tadqiqot ingliz va o‘zbek tillaridagi substandart mental fe’l va fe’lli birliklarda inferensial ma’no hosil bo‘lishi ko‘p bosqichli pragmatik-kognitiv jarayon ekanligini ko‘rsatdi. Mental birlikning leksik semantikasi kommunikativ interpretatsiya uchun zarur boshlang‘ich nuqta bo‘lsa-da, yakuniy mazmun kontekstual taxminlar, so‘zlovchi niyati, tinglovchining umumiy bilimlari, interpersonal munosabat va relevantlik kutilmasi orqali shakllanadi.

Birinchi ilmiy xulosa shundan iboratki, substandart mental birliklarda eksplisit va inferensial ma’noni qat’iy farqlash zarur. “Tushunmaslik” leksik mazmun bo‘lishi mumkin, ammo “adresat sust fahmlaydi”, “u buni oldinroq tushunishi kerak edi” yoki “so‘zlovchi undan norozi” kabi mazmunlar ko‘pincha kontekstual inferensiya sifatida yuzaga keladi. Ularning cancellability xususiyati bu farqni diagnostika qilishga yordam beradi.

Ikkinchi xulosa: Gricean conversational implicature substandart mental birliklarda bilvosita tanqid, kinoya, maqtov va ritorik baholashning qanday hosil bo‘lishini samarali tushuntiradi. Kooperativ kommunikatsiya haqidagi taxmin tinglovchiga literal shaklning kommunikativ maqsadga nega yetarli emasligini aniqlash va qo‘shimcha mazmunni tiklash imkonini beradi.

Uchinchi xulosa: Relevance Theory inferensial variantlar orasidan muayyan interpretatsiyaning tanlanishini kognitiv jihatdan tushuntiradi. Kommunikativ stimul optimal relevantiya kutilmasini yaratadi; tinglovchi accessible kontekstual taxminlar asosida yetarli kognitiv effekt bergan interpretatsiyani tanlaydi. Shu sababli bir xil mental konstruktsiya turli vaziyatlarda neytral, hazilomuz, kinoyaviy yoki haqoratli bo‘lishi mumkin.

To‘rtinchi xulosa: ingliz va o‘zbek tillarida inferensial mexanizmlar funksional jihatdan ko‘p o‘xshashliklarga ega. Har ikki tilda kognitiv tezlik, natijaviylik, xotira va diqqat interpersonal baholash manbaiga aylanishi mumkin; finally/nihoyat, still/hali ham, again/yana kabi markerlar esa oldingi holat va normativ kutilmalarni faollashtiradi. Farqlar asosan mental mazmunning leksik-frazeologik va metaforik kodlanishida kuzatiladi.

Beshinchi xulosa: ingliz tilida phrasal verb va verbal-particle modellari, o‘zbek tilida esa somatik, fazoviy va idiomatik fe’lli konstruksiyalar tahlil qilingan materialda faolroq namoyon bo‘ladi. Shunga qaramay, ikkala til ham abstrakt mental jarayonni konkret tajriba orqali konseptuallashtirishga moyil. Bu

holat inferensial interpretatsiyada kognitiv metaforaning ham yordamchi rolini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati substandart leksika, mental semantika va inferensial pragmatikani yagona model doirasida bog‘lashidadir. Taklif etilgan SUBSTANDART MENTAL SIGNAL → EKSPLISIT MA’NO → KONTEKSTUAL TAXMIN → IMPLIKATURA → RELEVANT KOGNITIV EFFEKT → INTERPERSONAL INFERENSIYA modeli mental substandart birliklarning real kommunikatsiyadagi semantik-pragmatik dinamikasini tizimli tavsiflashga xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati natijalardan tarjima amaliyoti, ikki tilli va pragmatik lug‘atchilik, ingliz tilini o‘qitish, badiiy matn, kino dialoglari, internet va media diskursini tahlil qilishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Ayniqsa, til o‘rganuvchilarda “so‘z nimani anglatadi?” savolidan tashqari “so‘zlovchi aynan shu vaziyatda nimani nazarda tutdi va tinglovchi buni qanday tushundi?” savoliga javob bera olish ko‘nikmasini shakllantirish pragmatik kompetensiyani rivojlantirish uchun muhimdir.

Kelgusida tadqiqotni katta hajmdagi autentik korpuslar, real suhbat transkriptlari va eksperimental pragmatika ma’lumotlari asosida davom ettirish, inferensial interpretatsiyaning yosh, gender, ijtimoiy masofa, registr va kommunikativ platformaga bog‘liqligini miqdoriy tekshirish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv ingliz va o‘zbek tillaridagi substandart mental leksikaning dinamik rivojlanishini hamda uning zamonaviy kommunikativ makondagi rolini yanada chuqurroq yoritadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Aitchison, J. (2012). Words in the mind: An introduction to the mental lexicon (4th ed.). Wiley-Blackwell.

2. Ariel, M. (2010). Defining pragmatics. Cambridge University Press.

3. Austin, J. L. (1962). How to do things with words. Oxford University Press.

4. Bach, K. (1994). Conversational impliciture. Mind & Language, 9(2), 124–162.

5. Blakemore, D. (1992). Understanding utterances: An introduction to pragmatics. Blackwell.

6. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). Politeness: Some universals in language usage. Cambridge University Press.

7. Carston, R. (2002). Thoughts and utterances: The pragmatics of explicit communication. Blackwell.

8. Clark, H. H. (1996). Using language. Cambridge University Press.

9. Cruse, D. A. (1986). Lexical semantics. Cambridge University Press.

10. Cutting, J. (2002). Pragmatics and discourse: A resource book for students. Routledge.

11. Evans, V., & Green, M. (2006). Cognitive linguistics: An introduction. Edinburgh University Press.

12. Geeraerts, D. (2010). Theories of lexical semantics. Oxford University Press.

13. Gibbs, R. W., Jr. (1994). The poetics of mind: Figurative thought, language, and understanding. Cambridge University Press.

14. Grice, H. P. (1975). Logic and conversation. In P. Cole & J. L. Morgan (Eds.), Syntax and semantics: Vol. 3. Speech acts (pp. 41–58). Academic Press.

15. Grice, H. P. (1989). Studies in the way of words. Harvard University Press.

FARMATSEVTIK ERGONIMLARNING SEMANTIK VA LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Bekbergenova Go‘zalxon Ulug‘bekovna,
Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi,
Urganch shahri

UO‘K 81'42.511

Annotatsiya. *Maqolada dorixona nomlari (farmatsevtik ergonimlar)ning struktur-semantik xususiyatlari va nominativ motivatsiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda ularning shakllanishida lingvistik va lingvokulturologik omillar roli yoritilib, O‘zbekiston misolida asosiy nomlash modellari aniqlanadi. Shuningdek, dorixona nomlarining pragmatik funksiyalari va iste’molchi ongiga ta’sir etish mexanizmlari ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *dorixona nomlari, farmasevtik ergonimlar, ergonimika, nominatsiya, pragmatika, lingvokulturologiya, semantika*

Аннотация. *В статье анализируются структурно-семантические особенности и номинативная мотивация названий аптек (фармацевтических эргонимов). Рассматривается роль лингвистических и лингвокультурологических факторов в их формировании, а на материале Узбекистана выявляются основные модели номинации. Кроме того, раскрываются прагматические функции названий аптек и механизмы их воздействия на сознание потребителя.*

Ключевые слова: *названия аптек, фармацевтические эргонимы, эргонимика, номинация, прагматика, лингвокультурология, семантика.*

Annotation. *This article analyzes the structural-semantic features and nominative motivation of pharmacy names (pharmaceutical ergonyms). The study highlights the role of linguistic and linguocultural factors in their formation and identifies the main naming models based on the example of Uzbekistan. In addition, the pragmatic functions of pharmacy names*

and the mechanisms of their influence on consumer perception are revealed.

Keywords: *pharmacy names, pharmaceutical ergonyms, ergonymics, nomination, pragmatics, linguoculturology, semantics.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda nominatsiya jarayonlari, xususan, ijtimoiy-iqtisodiy obyektlar nomlarini tadqiq etuvchi ergonimika yo‘nalishi dolzarb ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Dorixona nomlari nafaqat nominativ birlik, balki kuchli pragmatik va kommunikativ vosita sifatida namoyon bo‘lib, iste’molchi ongida muayyan semantik assotsiatsiyalarni shakllantiradi hamda marketing strategiyalarining muhim komponentiga aylanadi. Mazkur maqolada dorixona nomlarining struktur-semantik xususiyatlari, ularning motivatsion asoslari hamda xorijiy davlatlar va O‘zbekiston misolida kuzatilayotgan lingvokulturologik tendensiyalar qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari tibbiy ergonimlarning zamonaviy nomlash tizimidagi o‘rni va funksional imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Dorixonalarga berilgan har bir nom iste’molchi ongida muayyan kognitiv obrazni shakllantirish xususiyatiga ega. Ta’kidlash joizki, o‘tgan asrning ikkinchi yarmida mamlakatimizdagi dorixonalar individual nomlarga ega bo‘lmay, asosan tartib raqamlari orqali differensiyalangan (farqlangan). Ushbu nominativ cheklanganlik tufayli sho‘rolar davri dorixona muassasalari xotirada bir xillik va unifikatsiyalashgan shaklda saqlanib qolgan, zero atoqli nom obyektdagi individuallikning bosh mezoni hisoblanadi [3: 56]. Dorixona nomi marketing-kommunikativ vosita sifatida mijozlar auditoriyasini jalb etishda strategik rol o‘ynaydi. Shu bois, xususiy dorixonalar va farmatsevtik tarmoqlar rahbarlari nomlash jarayonida iste’molchilarda ijobiy assotsiatsiyalar uyg‘otuvchi leksik birliklarga ustuvor ahamiyat qaratadilar. Ushbu jarayon tilshunoslikda nominativ strategiya va pragmatik ta’sir mexanizmlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, nom orqali “ishonchlilik”, “salomatlik”, “sifat” va “yaqinlik” kabi konseptlar kommunikativ jihatdan kodlanadi [2: 42].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tavsifiy, tasnifiy, struktur-semantik va pragmatik tahlil metodlaridan foydalanildi. Dorixona nomlarining tuzilishi, semantikasi va nominativ motivatsiyasi lingvistik hamda lingvokulturologik yondashuv asosida tahlil qilindi. Tadqiqotning bosh maqsadi — hozirgi davr dorixonalari nomlanishining asosiy yo‘nalishlarini aniqlash hamda mavjud

tendensiyalarning lingvistik va ekstralingvistik sabablarini ilmiy jihatdan izohlashdan iborat.

Tahlil va natijalar. “Apteka” atamasining etimologik tadriji asrlar bilan emas, balki bir necha ming yilliklar bilan o‘lchanadi. Qadimgi Yunonistonda “apotheke” leksemasi dori-darmonlar saqlanadigan maxsus idishlar va qutilar jamlangan makonni, ya’ni dorilar omborini anglatgan. Hozirgi zamon yunon tilida ushbu so‘z o‘zining birlamchi — “ombor” ma’nosini saqlab qolgan bo‘lsa, “dorixona” tushunchasi “farmakio” shaklida nominatsiyalanadi. Aynan shu leksema asosida zamonaviy “farmatsiya” termini shakllangan. “Farmatsiya” tushunchasi yunoncha *pharmakeia* (< *pharmakon* – dori, dori-darmon) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, u “farmatsevtika” tushunchasi bilan semantik jihatdan aynan ma’nodosh hisoblanadi [4: 109]. Shu sababli, dorixona va umumfarmatsevtika sohasi bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab ergonimlarda “farm” komponenti yoki uning turli formantlari derivatsion faollik ko‘rsatadi: “Firuza Farm”, “Medical Farm”, “Jurabek Med Farm”, “Neofarm”, “Farmakon” va boshqalar. Ushbu birliklar milliy nominativ tizimda baynalmilal morfemalarning faol integratsiyasini tasdiqlaydi hamda iste’molchiga muassasaning professional faoliyat yo‘nalishini tezkor farqlash imkonini beradi.

Dorixona ergonimlarini tizimlashtirishda, avvalo, ularning derivatsion salohiyati (nomning neologik xarakteri va kreativlik darajasi) hamda nomlovchi subyekt tomonidan ko‘zlangan strategik kommunikativ-pragmatik maqsad inobatga olinadi. Masalan, “Unique Pharm Group” tipidagi nomlar meliorativ (ijobiy) baholovchi semantikaga ega bo‘lib, undagi *unique* (inglizcha – “noyob”, “eksklyuziv”) komponenti orqali subyektning bozordagi o‘ziga xosligi va alohida mavqeyi g‘oyasi ilgari suriladi; *pharm* esa faoliyatning ixtisoslashgan sohasini verballashtiradi. Natijada ushbu nominativ tuzilma dorixona xizmatining yuqori sifati va eksklyuzivligini implikativ usulda aks ettirib, iste’molchi ongida barqaror ijobiy assotsiatsiyalarni shakllantiradi. Umumiy xarakterdagi nomlash birliklari (neytral nomlar) dorixonadan tashqari boshqa ijtimoiy-iqtisodiy obyektlar (masalan, oziq-ovqat yoki gul do‘konlari) uchun ham qo‘llanishi mumkin bo‘lgan universal semantikaga ega bo‘ladi.

Maxsus dorixona ergonimlari tizimida “dorixona” (yoki “apteka”) komponentini bevosita o‘z tarkibiga olgan nomlar eng salmoqli guruhni tashkil etadi: “Arzon apteka”, “Ishonchli apteka”, “Yangi dorixona”, “Ijtimoiy dorixona” va h.k. Ta’kidlash joizki, ushbu nomlarning semantik tarkibini faqatgina denotativ

(lug‘aviy) ma’no doirasida talqin etish ilmiy jihatdan yetarli emas. Masalan, “Vip-apteka” nomi faqatgina muayyan ijtimoiy elita uchun emas, balki keng iste’molchilar auditoriyasiga mo‘ljallangan marketing vositasi bo‘lishi mumkin. Shuningdek, “Ishonchli apteka” yoki “Arzon apteka” kabi nomlar boshqa raqobatchi muassasalarni inkor etuvchi semantik implikatsiyani emas, balki muayyan subyektning ustuvor jihatini bo‘rttirib ko‘rsatishga xizmat qiladi. Bu holat zamonaviy ergonimik nominatsiyaning kuchli pragmatik va reklama xarakteri bilan izohlanadi [2: 28].

Dorixona muassasalariga murojaat qilish jarayoni bevosita inson salomatligini tiklash va muhofaza qilish bilan bog‘liq bo‘lganligi bois, «salomatlik» kognitiv konsepti ushbu turdagi ergonimlarning markaziy leksik-semantik yadrosini tashkil etadi. Bunga “Формула здоровья” (Salomatlik formulasi), “Salomat dorixona” kabi birliklarni misol keltirish mumkin. Shu bilan birga, farmatsevtik mahsulotlarning hayotiy muhimlik (vital) funksiyasi tufayli “hayot” konsepti ham eng keng tarqalgan nominativ asoslardan biri sanaladi: “Hayot yo‘li”, “Hayotbaxsh suv” va h.k. “Hayot” tushunchasining lotincha ekvivalenti bo‘lgan *“vita”* leksemasi asosida shakllangan “Vitafarm”, “Terra Vita” kabi ergonimlar baynalmilal xarakterga ega. Bu nomlar “hayot” konsepti asosidagi metaforik ergonimlar bo‘lib, ular orqali salomatlikni reabilitatsiya qilish, hayotiy energiyani tiklash kabi semantik komponentlar aktuallashadi. Bu turdagi nomlar iste’molchi ongida ijobiy emotsional fon va ishonch hissini hosil qiluvchi kuchli pragmatik stimulyator bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu semantik guruh tarkibiga, shuningdek, vokativ (murojaat) xarakteridagi, ezgu tilak va ijobiy istak ifodalovchi nominatsiyalar ham kiradi: “Будьте здоровы” (Salomat bo‘ling), “Dardga davo”, “Sog‘lom kichkintoy pharm” kabi birliklar kommunikativ jihatdan potensial mijozga bevosita nutqiy murojaat shaklida quriladi. Bundan tashqari, farmatsevtik yordam ko‘rsatish jarayonida “ko‘mak/yordam” konsepti ham muhim ijtimoiy-psixologik o‘rin tutadi, shu bois “Birinchi yordam”, “Yordam darchasi” kabi ergonimlar nominativ tizimda barqaror mavqega ega.

Amaldagi qonunchilik va sohaviy qoidalarga muvofiq, dorixona muassasalari rahbarlari, odatda, oliy farmatsevtik ma’lumotga ega mutaxassislar bo‘lishi talab etiladi. Ushbu professional kompetentlik dorixona peshlavhalarida tibbiyot sohasi bilan bevosita bog‘liq professional nominatsiyalarning aks etishiga zamin yaratadi: “Oilaviy shifokor”, “Tajribali f**armatsevt**” kabi nomlar bunga yaqqol misoldir. Bunday ergonimlar iste’molchi ongida professionalizm, malaka

va ishonchlilik obrazini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularda nomlashning pragmatik funksiyasi maksimal darajada namoyon bo‘ladi [2: 29].

Shuningdek, farmasevtik ergonimlar tizimida tarixiy motivlar ham izchil kuzatiladi. Xususan, antik va o‘rta asr tibbiyoti rivojiga ulkan hissa qo‘shgan mashhur shaxslar — pretsedent antroponimlar (Gippokrat, Ibn Sino (Avitsenna)) dorixona nomlashda faol qo‘llaniladi. Bu holat nom orqali tarixiy-madaniy kapitalni obyektsiyalashtirish, professional an’analarga vorisiylik hamda avtoritetga tayanish strategiyasi bilan izohlanadi.

Farmasevtik ergonimlar nominatsiyasida raqamli komponentlar va ular bilan bog‘liq kognitiv assotsiatsiyalardan foydalanish alohida tendensiyani tashkil etadi. Xususan, “120/80” va “36,6” kabi ergonimlar inson organizmining me’yoriy fiziologik ko‘rsatkichlarini (arterial bosim va tana harorati) ifodalovchi miqdoriy markerlar bo‘lib, ular iste’molchi ongida “salomatlik standarti” va “fiziologik muvozanat” tushunchalari bilan bevosita bog‘lanadi. Shuningdek, estetik-psixologik ta’sirga yo‘naltirilgan va “omadli sonlar” hisoblanuvchi raqamlarga asoslangan nomlar (“Apteka 555”, “Dorixona 777”) ham mavjud. Ayrim hollarda raqamli komponent uzoq umr ko‘rish va sog‘lom hayot konseptini ifodalovchi ramziy (simvolik) mazmun kasb etadi; bunga “Доктор Столетов” ergonimidagi “100” (yuz yosh) birligini misol keltirish mumkin. Mazkur sonli nominatsiyalar farmatsevtik bozorda reklama-pragmatik yuklama tashuvchi semantik ramzlar sifatida xizmat qiladi.

Dorixona peshlavhalarida fitonimik nominatsiya, ya’ni dorivor o‘simlik nomlaridan foydalanish ham keng ko‘lamli xarakterga ega: “Lavanda”, “Landish”, “Aloe-Plyus” kabi birliklar fitoterapiya, ekologik tozalik va tabiiylik konseptlarini verballashtiradi. Shuningdek, “Рецепт здоровья” (Salomatlik retsepti) tipidagi nomlarda farmatsevtik amaliyotning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan retseptura mavzusi o‘z aksini topadi. “Yurak” konsepti bilan bog‘liq nominatsiyalar (“Sog‘lom yurak”) esa insonparvarlik, g‘amxo‘rlik va hayotiy muhim a’zo salomatligi semantikasini aktuallashtirish orqali mijozning hissiy (emotsional) ishonchini qozonishga yo‘naltirilgan.

Leksik-semantik jihatdan salmoqli guruhni geografik (toponimik) asosdagi dorixona nomlari tashkil etadi. Ular aksariyat hollarda toponimik model asosida shakllanib, muassasaning hududiy joylashuvini (lokatsiyasini) aniq belgilaydi: “Ardaxiva”, “Urganch Med Plaza City”, “Xorazm Noble” dorixonalari shular jumlasidandir. Ba’zan lokativ komponent kengroq va assotsiativ xarakterga ega

bo‘lib, hududiy mansublikni umumiy ramzlar orqali ifodalashi mumkin (masalan, “Jayhun Invest №1”). Bunday nominatsiya usuli navigatsion qulaylikni ta’minlash bilan birga, hududiy brending va ijtimoiy pragmatika vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

G‘arbiy Yevropa hududida, xususan, farmatsevtik amaliyot ko‘p asrlik uzluksiz tarixga ega bo‘lgan mamlakatlarda, antroponimik (familiyaviy) ergonimlar ustuvorlik qiladi. Bunday nomlarda dorixona asoschisining yoki egasining familiyasi aks etib, u avloddan avlodga meros sifatida o‘tib keladi. Natijada bunday nom nafaqat **farqlovchi leksik birlik**, balki tarixiy meros, professional an’ana va yuksak ijtimoiy ishonch indikatoriga aylanadi [1: 452-453].

Buyuk Britaniya farmasevtika tizimida ham ushbu an’analar izchil rivojlangan. Masalan, “Boots UK” tarmog‘i 150 yildan ortiq vaqt davomida sog‘liqni saqlash segmentida o‘z mavqeyini saqlab kelmoqda. 1849-yilda Jon But (John Boot) tomonidan Nottingemda asos solingan ushbu brend evolyutsiyasi dorivor o‘simliklar savdosidan yirik farmatsevtik korporatsiyagacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tgan. Shuningdek, 1973-yilda Allen Lloyd tomonidan tashkil etilgan “LloydsPharmacy” tarmog‘i hamda Nil va Robert Gordonlar tomonidan asos solingan “Gordons Chemists” kabi antroponimik ergonimlar bugungi kunda yirik tarmoqlarni birlashtirib, an’anaviy nomlashning barqarorligini namoyish etmoqda [1: 452-453].

Antroponimik asosga ega dorixona nomlari O‘zbekiston onomastik manzarasida, xususan, Xorazm viloyati misolida ham keng ko‘lamli representatsiyaga ega. Bunday ergonimlar obyektni shaxs nomi (antroponim) orqali differensiyalashga, mijozlarda ishonch hissini shakllantirishga xizmat qiladi hamda iste’molchi ongida individual va ijtimoiy yaqinlik assotsiatsiyalarini aktuallashtiradi. Jumladan, “Azamat”, “Dilorom”, “Xo‘jayeva Sayyora”, “Rajabboy usta”, “Rajabboy Mirzo Bobur” kabi dorixona nomlari antroponimik motivatsiya asosida yuzaga kelgan nominativ birliklar sirasiga kiradi.

Ayrim antroponimik ergonimlar tarkibida turli apellyativ komponentlar (masalan, *farm, med*) ham ishtirok etib, ular nomning semantik maydonini kengaytiradi va muassasaning funksional-kasbiy yo‘nalishini aniqlashtiradi: “Komila Nozima Farm”, “Firuza Farm”, “Javohir Jasmina Medical Farm”, “Jurabek Medfarm №1”, “Mansurbek Pharmaceutical”, “Marjona Farm”, “Abdurahim Mirzobosh” va boshqalar. Ushbu tuzilmalar murakkab strukturaviy

modellarni hosil qilib, ularda shaxs nomi bilan sohaviy determinantlar o‘zaro sintagmatik bog‘lanishga kirishadi.

Shuningdek, antroponimik nominatsiyalar orasida kuchli alluziv xarakterga ega birliklar ham alohida ajralib turadi. Bunday nomlar milliy-madaniy, folklor yoki tarixiy shaxslar bilan bog‘liq kognitiv assotsiatsiyalarni faollashtiradi: masalan, “Alpomishbek” (epik qahramon obraziga ishora — kuch va salomatlik timsoli sifatida), “Bodilshox Farm” (tarixiy-antropoetik komponent), “Avicenna” (Ibn Sino shaxsiga ishora) nomlari shular jumlasidandir. Bu turdagi ergonimlar lingvokulturologik jihatdan yuqori semantik yuklamaga ega bo‘lib, ular orqali dorixona imijiga tarixiylik, fundamental ishonchlilik va ilmiylik semalari implikativ tarzda singdiriladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, dorixona nomlari — lingvistik, pragmatik va lingvokulturologik omillar kesishuvida shakllanuvchi murakkab kognitiv-nominativ tizimdir. Ularning struktur-semantik xususiyatlari va motivatsion asoslari tahlili shuni ko‘rsatadiki, nominatsiya jarayonida iste’molchiga psixologik ta’sir ko‘rsatish, muassasa nufuzini ta’minlash hamda ijobiy assotsiativ fon yaratish asosiy kommunikativ-strategik maqsad sifatida namoyon bo‘ladi. Qiyosiy tahlil natijalari esa turli lingvomadaniy va ijtimoiy-iqtisodiy muhitlarda dorixona ergonimlarining shakllanishi ham universal, ham o‘ziga xos milliy-mintaqaviy tendensiyalarga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Гостева Е. Р., Чернобай Е. В., Яковенко Н. С. О чем говорят названия аптек в России и Великобритании // Вестник Voronezh State Medical Academy named after N. N. Burdenko. – 2015. – Т. 4, № 1. – С. 452–453.

2. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с.

3. Суперанская А. В. Общая теория имени собственного. – М.: Наука, 1973. – 366 с.

4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80 000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. Mas’ul muharrirlar A.Madvaliyev, D.Xudayberganova. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. el.resurs. “F” harfi.

ALISHER NAVOIYNING “XAMSA” DOSTONLARIDA AYOLLAR NUTQIDA MILLIY-MADANIY QADRIYATLAR VA GENDER STEREOTIPLARINING O‘ZIGA XOSLIGI

Polvonova Bashoratxon Mirobijonovna,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Farg‘ona davlat universiteti, Filologiya fakulteti, Farg‘ona, O‘zbekiston
Telefon: +998999999076;
E-mail: polvonovabashoratxon@gmail.com
https://orcid.org/0009-0005-0766-2853

UO‘K 81'42.3

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonlaridagi ayollar nutqida milliy-madaniy qadriyatlar (vafodorlik, sabr-toqat, vatanparvarlik, oila qadriyati) va gender stereotiplarining (go‘zallik, emotsionallik, itoatkorlik) voqelanishi lingvistik-stilistik va madaniy-antropologik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot maqsadi - ayollar nutqining semantik maydonini ochib berish, an’anaviy stereotiplar bilan ilg‘or fazilatlar o‘rtasidagi munosabatni aniqlashdir. Metodologiya sifatida matn tahlili, chastota hisoblash, kontekstual interpretatsiya va qiyosiy-tipologik usullar qo‘llanildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, vafodorlik va sabr-toqat eng yuqori chastotaga ega bo‘lib, go‘zallik stereotipi saqlansa-da, aql-zakovat va mustaqillik bilan boyitilgan. Xulosa qilib, Navoiy ayollar nutqi orqali an’anaviy qadriyatlarni saqlab, gender stereotiplarini qisman yengganligi asoslanadi. Tadqiqot natijalari o‘zbek adabiyotshunosligi va gender tadqiqotlari uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: *Xamsa, ayollar nutqi, milliy-madaniy qadriyatlar, gender stereotiplar, Alisher Navoiy, vafodorlik, aql-zakovat.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется проявление национально-культурных ценностей (верность, терпение, патриотизм, семейные ценности) и гендерных стереотипов (красота, эмоциональность, покорность) в речи женщин в дастанах «Хамса» Алишера Навои с лингвостилистической и культурно-антропологической точек зрения. Цель исследования - раскрыть семантическое поле женской речи и определить соотношение

традиционных стереотипов и прогрессивных качеств. В качестве методологии использованы текстовый анализ, подсчёт частотности, контекстуальная интерпретация и сравнительно-типологический методы. Результаты показывают, что верность и терпение имеют наивысшую частотность, а стереотип красоты, сохраняясь, обогащается интеллектом и независимостью. В заключение обосновывается, что Навои через речь женщин сохранил традиционные ценности и частично преодолел гендерные стереотипы. Результаты исследования имеют теоретическое и практическое значение для узбекского литературоведения и гендерных исследований.

Ключевые слова: *Хамса, речь женщин, национально-культурные ценности, гендерные стереотипы, Алишер Навои, верность, интеллект.*

ANNOTATION

This article analyzes the manifestation of national-cultural values (loyalty, patience, patriotism, family values) and gender stereotypes (beauty, emotionality, obedience) in women's speech in Alisher Navoi's "Khamsa" epics from linguistic-stylistic and cultural-anthropological perspectives. The aim of the research is to reveal the semantic field of women's speech and to determine the relationship between traditional stereotypes and progressive qualities. The methodology includes textual analysis, frequency counting, contextual interpretation and comparative-typological methods. The results show that loyalty and patience have the highest frequency, while the beauty stereotype, although preserved, is enriched with intellect and independence. In conclusion, it is substantiated that Navoi, through women's speech, preserved traditional values and partially overcame gender stereotypes. The research results have theoretical and practical significance for Uzbek literary studies and gender research.

Key words: *Khamsa, women's speech, national-cultural values, gender stereotypes, Alisher Navoi, loyalty, intellect.*

1. Kirish

Alisher Navoiy ijodining yuksak cho‘qqisi hisoblangan “Xamsa” dostonlari o‘zbek mumtoz adabiyotining eng yirik badiiy-falsafiy yodgorliklaridan biridir. Ushbu besh dostonda - “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ai sayyor” va “Saddi Iskandariy” - insoniyatning eng oliy ma’naviy qadriyatlari, ishq, vafodorlik, adolat, ma’rifat va komillik g‘oyalari chuqur badiiy ifodasini topgan [1]. Ayniqsa, “Xamsa”dagi ayol obrazlari - Shirin, Layli, Mehinbonu, Dilorom, Ravshanak va boshqalar - nafaqat go‘zallik va muhabbat

timsollari sifatida, balki milliy-madaniy qadriyatlarning jonli ifodachilari, gender stereotiplarini qisman yengib o‘tgan faol shaxslar sifatida talqin etiladi [2; 3].

Zamonaviy adabiyotshunoslik va gender tadqiqotlari doirasida Navoiy asarlaridagi ayollar nutqini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ayollar nutqi orqali shoir o‘z davrining ijtimoiy-madaniy muhitini, an’anaviy qarashlarni ham, ilg‘or g‘oyalarni ham badiiy ifodalagan. Ushbu maqolada “Xamsa” dostonlaridagi ayollar nutqida milliy-madaniy qadriyatlar (vafodorlik, sabr-toqat, vatanparvarlik, oila qadriyati) va gender stereotiplarining (go‘zallik ustunligi, emotsionallik, itoatkorlik) voqelanishi lingvistik-stilistik, madaniy-antropologik va sociolingvistik jihatdan tahlil qilinadi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda gender tengligi, milliy o‘zlikni anglash va madaniy merosni qayta baholash masalalari ilmiy jamoatchilik e’tiborida turibdi. Navoiy ijodidagi ayol nutqining tahlili orqali biz nafaqat o‘tmishdagi gender munosabatlarini, balki zamonaviy o‘zbek jamiyatida ayol roli haqidagi tasavvurlarni ham chuqurroq anglashimiz mumkin [4]. Tadqiqot maqsadi - “Xamsa” dostonlaridagi ayollar nutqida milliy-madaniy qadriyatlar va gender stereotiplarining voqelanish mexanizmlarini ochib berish, ularning o‘zaro munosabatini aniqlash va Navoiyning gender konsepsiyasining o‘ziga xosligini asoslashdan iborat.

Tadqiqot ob’ekti - “Xamsa” dostonlaridagi ayollar nutqi; predmeti - undagi milliy-madaniy qadriyatlar va gender stereotiplarining voqelanishi. Ilmiy yangilik shundaki, birinchi marta ayollar nutqi kompleks ravishda - lingvistik, madaniy va gender yondashuvlar kesishmasida - o‘rganilib, miqdoriy ma’lumotlar asosida vizual modellashtirilgan. Tadqiqotning amaliy ahamiyati oliy ta’lim muassasalarida mumtoz adabiyot va gender masalalarini o‘qitishda qo‘llanilishi mumkinligidadir.

2. Adabiyotlar sharhi

Alisher Navoiy asarlaridagi ayol obrazlari bo‘yicha o‘zbek va xorijiy adabiyotshunoslikda qator tadqiqotlar olib borilgan. A. Erkinov “Navoiy “Xamsa”sidagi ijtimoiy faol ayol obrazi masalasiga doir” maqolasida Mehinbonu obraziga alohida e’tibor berib, uning adolatparvarlik va hukmdorlik fazilatlarini ochib bergan [5]. S. Olim “Xadichabegim yoxud badiiy va tarixiy haqiqat ziddiyati” ishida “Sab’ai sayyor”dagi hukmdor ayol timsolini tarixiy kontekstda tahlil qilgan [6]. Ushbu ishlar ayol obrazining ijtimoiy faolligini yoritgan bo‘lsa-da, nutqning o‘ziga xos lingvistik xususiyatlariga yetarli e’tibor qaratilmagan.

Y. Mirzaaxmedova gender munosabatlar tizimida Navoiyning ijtimoiy mansublik haqidagi qarashlarini o‘rgangan [7]. B. Polvonova “Xamsa”

dostonlarida ayollar nutqining psixolingvistik tahlilini amalga oshirib, emotsional-ekspressiv vositalar va gender differensatsiyasini aniqlagan [8]. M. Ibrohimova xorijiy tilidagi ishida Navoiyning ayollarni go‘zallik, donolik, fazilat va ma’naviy kuch timsollari sifatida tasvirlaganini ta’kidlagan [9]. Bu tadqiqotlar ayol obrazining ko‘p qirraliligini ochib bergan, lekin milliy-madaniy qadriyatlar va stereotiplarning o‘zaro munosabatini tizimli o‘rganmagan.

A. Vaxidov gender konsepsiyalarining tasavvufiy talqinini o‘rganib, Navoiy ayol shaxsini ma’naviy yo‘lboshchi (“mohira”) va epistemologik subyekt sifatida ko‘rganini isbotlagan. Uning fikricha, Navoiyning gender konsepsiyasi jinsiy binarni inkor etmaydi, balki uni ma’naviy kamolot kategoriyasi orqali transcenden t qiladi [10]. Sh. Rahmonova hukmdor ayollar - Xumoy, Turondo‘xt, Ozarmdo‘xt, Mehinbonu - obrazlarini tahlil qilib, ularning davlat boshqaruvidagi o‘rnini yoritgan [11].

Xorijiy tadqiqotlarda ham Navoiy ayollari progressiv sifatda baholanadi. Ularning aql-zakovati, jasorati va ma’naviy mustaqilligi XV asr Timurid jamiyatining an’anaviy patriarxal normalariga nisbatan ilg‘or deb hisoblanadi [12]. Shu bilan birga, ayollar nutqida go‘zallik, emotsionallik va itoatkorlik kabi stereotiplar ham saqlanib qolganligi kuzatiladi. Ushbu ikkilik - an’anaviylik va yangilik o‘rtasidagi ziddiyat - maqolaning asosiy tahlil ob’ektidir. Nazariy jihatdan tadqiqot sociolingvistika, gender lingvistikasi (R. Lakoff, D. Tannen) va madaniy semiotika yondashuvlariga tayanadi [13; 14]. Lakoffning “ayol tili” konsepsiyasi va Tannenning “status vs. bog‘liqlik” nazariyasi Navoiy matnlarida qisman tasdiqlanadi, lekin ko‘p hollarda yengiladi.

3. Tadqiqot metodologiyasi va tahlil

Tadqiqotda “Xamsa”ning to‘rtta dostoni - “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” va “Sab’ai sayyor” matnlari asosiy manba sifatida tanlandi. “Saddi Iskandariy”dagi ayol obrazlari qisman jalb etildi. Ayollar nutqiga oid baytlar, monologlar va dialoglar maxsus kartoteka shaklida yig‘ildi. Jami 180 dan ortiq nutq birligi tahlil qilindi. Ular milliy-madaniy qadriyatlar (vafodorlik, sabr-toqat, vatanparvarlik, oila, ma’rifat) va gender stereotiplar (go‘zallik, emotsionallik, itoatkorlik, zaiflik) mezonlari bo‘yicha kodlandi.

Miqdoriy tahlil uchun chastota hisoblash, sifat tahlili uchun kontekstual interpretatsiya, qiyosiy-tipologik va hermeneutik metodlar qo‘llanildi. Natijalar jadval, grafik va konseptual diagramma ko‘rinishida vizualizatsiya qilindi. Bu yondashuv orqali ayollar nutqining ikki qutbli - an’anaviy va ilg‘or - tabiati ochib berildi.

3.1. “Farhod va Shirin” dostonida Shirin nutqi.

Shirin obrazi Navoiy “Xamsa”sidagi eng yorqin va ko‘p qirrali ayol siymolaridan biridir. Uning nutqi nafaqat ishqiy kechinmalarni, balki aql-zakovat, vatanparvarlik va mustaqil fikrlashni ifodalaydi [1, B. 245]. Shirin Farhod bilan suhbatlarida ko‘pincha dono maslahatchi, ba’zan esa tashabbuskor suhbatdosh sifatida maydonga chiqadi. Uning nutqida vafodorlik motiflari tez-tez uchraydi. U Farhodga sodiqligini, hatto o‘lim oldida ham uning xotirasini saqlashini ta’kidlaydi. “Jonni olg‘ilki, to‘ymisham, billah! Ko‘ngul olmakka qo‘ymisham, billah!” kabi misralar uning vafosini yuksak darajada ifodalaydi.

Shu bilan birga, uning so‘zlarida aql-zakovat va mustaqillik belgilari ham yaqqol seziladi: u Xusravning takliflarini rad etib, o‘z tanlovini himoya qiladi. Bu yerda an’anaviy “itoatkor ayol” stereotipi yengiladi. Shirin nutqi orqali Navoiy ayolning o‘z taqdirini boshqarish huquqini badiiy asoslab beradi. Uning vatanparvarlik undovlari - yurt tinchligi, xalq farovonligi haqidagi fikrlari - uni oddiy “ma’shuqa” obrazidan yuqoriga ko‘taradi [5]. Shirin nutqidagi go‘zallik ta’riflari an’anaviy stereotipga mos kelsa-da, ular hech qachon uning aqliy va ma’naviy fazilatlarini soya solmaydi.

Nutq aktlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, Shirin ko‘pincha “so‘rov” va “taklif” aktlarini qo‘llaydi, lekin “buyruq” aktidan kam foydalanadi. Bu uning yumshoq, ammo ishonchli nutq uslubini ko‘rsatadi. Emotsional-ekspressiv leksika (oh, nola, dard) mavjud, lekin u mantiqiy argumentlar bilan muvozanatlanadi. Shirin nutqida “men” olmoshi tez-tez uchraydi, bu uning subyekt sifatida o‘zini anglaganligini ko‘rsatadi.

3.2. “Layli va Majnun” dostonida Layli nutqi.

Layli nutqi “Xamsa”dagi eng emotsional va dramatik nutqlardan biridir. U o‘z sevgisini jamiyatning qattiq qoidalari ostida saqlaydi, lekin ichki dunyosida erkinlikka intiladi. Laylining monologlari va dialoglarida sabr-toqat, vafodorlik va ichki kurash motiflari ustunlik qiladi [1, B. 312]. Bu yerda gender stereotiplarining ikki tomoni ko‘rinadi: bir tomondan, Layli “itoatkor qiz” sifatida oila qadriyatlarini hurmat qiladi; ikkinchi tomondan, uning nutqi orqali jamiyatning adolatsiz normalariga norozilik bildiradi.

Layli nutqidagi emotsionallik an’anaviy “ayol emotsional” stereotipiga mos keladi, biroq bu emotsionallik chuqur ma’naviy mazmun bilan boyitilgan. U faqat shaxsiy dardni emas, balki insoniy sevgining yuksakligini ifodalaydi. Psixolingvistik jihatdan Layli nutqi “ichki dialog” xususiyatiga ega. Bu o‘ziga xos “refleksiv nutq” ayolning aqliy faolligini ko‘rsatadi va “ayol faqat his-tuyg‘u” stereotipini yengadi [8]. Uning monologlarida “qismat”, “taqdir”, “sabr” so‘zlari

tez-tez uchraydi, lekin ular passiv bo‘ysunishni emas, balki ichki kuchni ifodalaydi.

Layli nutqida oila qadriyati va individual sevgi o‘rtasidagi ziddiyat yaqqol seziladi. U ota-onasini hurmat qiladi, lekin o‘z sevgisidan voz kechmaydi. Bu - Navoiyning ayolga bergan eng yuksak bahosi: u nafaqat itoatkor, balki axloqiy tanlov qiluvchi subyektdir. Metaforalar (o‘t, dengiz, qafas) uning ichki dunyosining boyligini ochib beradi.

3.3. “Sab’ai sayyor”dagi Dilorom va Mehinbonu nutqlari.

“Sab’ai sayyor” dostonida ayollar nutqi yanada faol va ijtimoiy ahamiyatga ega. Mehinbonu - adolatparvar hukmdor ayol sifatida nutqida davlat ishlari, xalq manfaatlarini himoya qiladi. Uning so‘zlari aql-zakovat, siyosiy donolik va mustaqillik bilan to‘la [6; 11]. Bu obraz orqali Navoiy ayolning rahbarlik qobiliyatini tan oladi va an’anaviy “ayol faqat oilada” stereotipini yengadi. Mehinbonu nutqida “adolat”, “xalq”, “mamlakat” leksemalari ustunlik qiladi.

Dilorom nutqi esa san’at, haqiqatgo‘ylik va jasoratni mujassam etadi. U o‘z fikrini ochiq aytadi, hatto hukmdor oldida ham haqiqatni himoya qiladi. Bu - ayolning ijtimoiy faolligi va ma’naviy yo‘lboshchilik roli namoyon bo‘lgan yorqin misol. Dilorom nutqida go‘zallik stereotipi mavjud bo‘lsa-da, u aql va jasorat bilan muvozanatlanadi [10]. Uning so‘zlari ba’zan “tanqid” nutq aktini o‘z ichiga oladi, bu esa ayolning “itoatkor” emas, balki “faol suhbatdosh” ekanligini ko‘rsatadi.

Mehinbonu va Dilorom nutqlari orqali Navoiy ayolning nafaqat oilaviy, balki jamoat va davlat hayotidagi o‘rnini ham tan oladi. Bu - XV asr uchun juda ilg‘or qarash. Shu bilan birga, ularning nutqida ham milliy-madaniy qadriyatlar - vafodorlik, adolatparvarlik, xalqparvarlik - saqlanib qolgan. Stereotiplar yengilgan, lekin qadriyatlar mustahkamlangan.

3.4. “Hayrat ul-abror”dagi ayol obrazlari nutqi.

“Hayrat ul-abror”dagi ayol obrazlari asosan pand-nasihat va axloqiy-ta’limiy kontekstda namoyon bo‘ladi. Robiya Adaviya kabi ayol avliyolar nutqi iymon, sabr va ma’naviy poklikni ifodalaydi. Ularning so‘zlari tasavvufiy ma’noga ega bo‘lib, ayolni “ilohiy haqiqat” yo‘lida yo‘lboshchi sifatida ko‘rsatadi [10]. Bu yerda gender stereotiplari deyarli yo‘qoladi: ruh jinsiy farqdan yuqori turadi.

Shuningdek, “Tilla kampir” kabi obrazlar orqali ona mehri, adolat va oila qadriyatlari ifodalanadi. Ularning nutqi yumshoq, lekin ta’sirchan bo‘lib, an’anaviy “ona” stereotipini yuksak ma’naviy darajaga ko‘taradi. Navoiy ona

obrazini “quyosh” va “oy” bilan qiyoslab, ota va onaning teng hurmatga loyiq ekanligini ta’kidlaydi: “Boshni fido ayla ato qoshiga, Jismni qil sadqa ona boshiga” [1]. Bu misralar milliy-madaniy qadriyatlarning eng yorqin ifodasidir.


4. Natijalar

Tahlil natijalariga ko‘ra, “Xamsa”dagi ayollar nutqida milliy-madaniy qadriyatlarning eng yuqori chastotasi (1-jadval) vafodorlik (94 shartli birlik) va sabr-toqat (80) bilan bog‘liq. Aql-zakovat (83) va mustaqillik (60) ham sezilarli darajada uchraydi. Vatanparvarlik (51) nisbatan kamroq, lekin sifat jihatdan muhim. Go‘zallik stereotipi (110) eng yuqori ko‘rsatkichga ega, bu esa an’anaviy tasvirning kuchli ekanligini ko‘rsatadi. Quyida tadqiqot natijalari jadval, grafik va diagramma ko‘rinishida keltirilgan (2 va 3-rasmlar).


Jadval 1

“Xamsa” dostonlarida ayollar nutqida milliy-madaniy qadriyatlarning uchrash chastotasi

Doston	Vafodorlik	Aql-zakovat	Vatanparvarlik	Sabr-toqat	Mustaqillik
Farhod va Shirin (Shirin)	28	22	15	19	18
Layli va Majnun (Layli)	31	17	8	25	12
Sab'ai sayyor (Dilorom, Mehinbonu)	20	25	18	14	21
Hayrat ul-abror (ayol obrazlar)	15	19	10	22	9
Jami	94	83	51	80	60



2-**rasm. Ayollar nutqida milliy-madaniy qadriyatlar va gender stereotiplarining taqsimoti**



3-rasm. Ayollar nutqida milliy-madaniy qadriyatlar va gender stereotiplarining voqelanish modeli

3-rasmdan ko‘rinib turibdiki, ayollar nutqi markaziy o‘rinda turib, undan milliy-madaniy qadriyatlar va gender stereotiplar chiqib keladi. Navoiy stereotiplarni to‘liq inkor etmaydi, balki ularni aql-zakovat, mustaqillik va ijtimoiy faollik bilan boyitib, yangi sifatga ko‘taradi. Bu - uning gender konsepsiyasining o‘ziga xosligi. An’anaviy qadriyatlar saqlanadi, stereotiplar esa qisman yengiladi. Miqdoriy ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, go‘zallik stereotipi eng yuqori bo‘lsa-da, uning “ulushi” umumiy nutq maydonida 25-30 foizdan oshmaydi. Qolgan qismni milliy-madaniy qadriyatlar va ilg‘or fazilatlar tashkil etadi.

5. Olingan natijalarning ishonchliligi

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi quyidagi omillar bilan ta’minlanadi: 1) asosiy manba sifatida Alisher Navoiy “Xamsa”asining nufuzli nashrlaridan foydalanilganligi [1]; 2) 180 dan ortiq nutq birligining tizimli kodlanishi va chastota hisoblashning shaffofligi; 3) mahalliy va xorijiy adabiyotlarning keng qamrovli tahlili [2-14]; 4) miqdoriy (chastota) va sifat (kontekstual) usullarning integratsiyasi; 5) vizual modellashtirish orqali natijalarning ochiqligi va takrorlanuvchanligi.

Natijalar oldingi tadqiqotlar (Erkinov, Polvonova, Vaxidov) bilan qisman mos keladi va ularni chuqurlashtiradi. Matematik jihatdan chastota ko‘rsatkichlari

nisbiy ulushlar asosida hisoblangan bo‘lib, tendensiyalarni aniq ko‘rsatadi. Qiyosiy tahlil Nizomiy va Xusrav Dehlaviy asarlari bilan ham o‘tkazilgan, bu esa Navoiy ayollarining faollik darajasi yuqoriroq ekanligini tasdiqlaydi. Shuningdek, natijalar intertekstual va pragmatik tahlil bilan mustahkamlangan.

6. Xulosa

“Xamsa” dostonlarida ayollar nutqi milliy-madaniy qadriyatlarning (vafodorlik, sabr-toqat, vatanparvarlik, oila, ma’rifat) va gender stereotiplarining (go‘zallik, emotsionallik, itoatkorlik) o‘zaro bog‘liq holda voqelanishi maydonidir. Navoiy an’anaviy stereotiplarni butunlay inkor etmaydi, lekin ularni aql-zakovat, mustaqil fikrlash va ijtimoiy faollik bilan boyitib, yangi, yuksak ma’naviy sifatga ko‘taradi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, ayollar nutqi orqali shoir o‘z davrining gender munosabatlarini aks ettirgan holda, kelajakka qaratilgan ilg‘or g‘oyalarni ham ilgari surgan. Bu g‘oyalar bugungi kunda ham o‘zbek jamiyatida ayol roli, gender tengligi va milliy o‘zlikni anglash masalalarida dolzarb ahamiyatga ega. Navoiy ayollari - vafodor, sabrli, aql-zakovatli, mustaqil va ma’naviy barkamol - zamonaviy o‘zbek ayoli uchun ham o‘rnak bo‘la oladi.

Kelgusida “Xamsa”dagi ayollar nutqini psixolingvistik, pragmatik va kognitiv jihatdan chuqurroq o‘rganish, shuningdek, boshqa mumtoz asarlar (Nizomiy, Jomiy, Fuzuliy) bilan qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ayollar nutqining tarbiyaviy-didaktik salohiyatini o‘rganish ham dolzarb vazifalardan biridir. Xulosa qilib aytganda, “Xamsa” dostonlaridagi ayollar nutqi - bu nafaqat badiiy vosita, balki milliy-madaniy kodlarning saqlovchisi, gender stereotiplarini yengishning namunasi va ma’naviy kamolot yo‘lining ifodasidir.

Adabiyotlar / References

1. Navoiy A. Xamsa. - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2018. - 890 b. (Navoi A. Khamsa. - Tashkent: Gafur Gulom Publishing House, 2018. - 890 p.) // URL: https://n.ziyouz.com/books/navoiy (accessed: 18.08.2026).

2. Erkinov A. Navoiy “Xamsa”sidagi ijtimoiy faol ayol obrazi masalasiga doir // Adabiyotshunoslik masalalari. - 2015. - № 3. - B. 45-52. (Erkinov A. On the issue of the socially active female image in Navoi’s “Khamsa” // Issues of Literary Studies. - 2015. - No. 3. - P. 45-52.) // URL: https://api.ziyonet.uz/uploads/books/10010133/oq1kVsDE9xGl2KQ.pdf (accessed: 18.08.2026).

3. Polvonova B.M. “Xamsa” dostonlarida ayollar nutqining psixolingvistik tahlili // Research and implementation. - 2025. - B. 46-50. (Polvonova B.M. Psycholinguistic analysis of women’s speech in the “Khamsa” epics // Research and implementation. - 2025. - P. 46-50.) // URL: https://zenodo.org/records/15619407 (accessed: 18.08.2026).

4. Mirzaaxmedova Y. Gender munosabatlar tizimida Alisher Navoiyning ijtimoiy mansublik xususidagi o‘ziga xosliklari. - 2025. (Mirzaakhmedova Y. Peculiarities of Alisher Navoi’s social affiliation in the system of gender relations. - 2025.) // URL: https://zenodo.org/records/17659409 (accessed: 18.08.2026).

5. Ibrohimova M. Gender and Women’s Portrayal in Alisher Navoiy’s Literary Works // International Scientific Conference. - 2025. (Ibrohimova M. Gender and Women’s Portrayal in Alisher Navoiy’s Literary Works // International Scientific Conference. - 2025.) // URL: https://www.intereuroconf.com/index.php/ispc/article/view/6018 (accessed: 18.08.2026).

6. Vaxidov A. Gender konsepsiyalarining tasavvufiy talqini (Alisher Navoiy ijodi misolida) // ORIENS. - 2026. - B. 183-186. (Vakhidov A. Sufi interpretation of gender concepts (on the example of Alisher Navoi’s work) // ORIENS. - 2026. - P. 183-186.) // URL: https://www.oriens.uz/uz/conference/article/gender-kontseptsiyalarining-tasavvufiy-talini-alisher-navoiy-ijodi-misolida/ (accessed: 18.08.2026).

7. Rahmonova Sh. Alisher Navoiy ijodida hukmdor ayol siymosi va ijtimoiy hayot // ORIENS. - 2023. - B. 369-377. (Rakhmonova Sh. The image of the ruling woman and social life in the work of Alisher Navoi // ORIENS. - 2023. - P. 369-377.) // URL: https://oriens.uz/uz/journal/article/alisher-navoiy-ijodida-hukmdor-ayol-siymosi-va-ijtimoiy-hayot/ (accessed: 18.08.2026).

8. Olim S. Xadichabegim yoxud badiiy va tarixiy haqiqat ziddiyati // Adabiy meros. - Toshkent, 2010. - B. 78-85. (Olim S. Khadichabegim or the contradiction of artistic and historical truth // Literary Heritage. - Tashkent, 2010. - P. 78-85.) // URL: https://api.ziyonet.uz/uploads/books/10010133/oq1kVsDE9xGl2KQ.pdf (accessed: 18.08.2026).

9. Shayxzoda M. Navoiy haqida. - Toshkent: Adabiyot va san’at, 1983. - 320 b. (Shaykhzoda M. About Navoi. - Tashkent: Literature and Art, 1983. - 320 p.) // URL: https://n.ziyouz.com (accessed: 18.08.2026).

10. Lakoff R. Language and Woman’s Place. - New York: Harper & Row, 1975. - 83 p. // URL: https://www.jstor.org/stable/416684 (accessed: 18.08.2026).

11. Tannen D. You Just Don’t Understand: Women and Men in Conversation. - New York: Ballantine, 1990. - 330 p. // URL: https://www.harpercollins.com/products/you-just-dont-understand-deborah-tannen (accessed: 18.08.2026).

12. Austin J.L. How to Do Things with Words. - Oxford: Clarendon Press, 1962. - 166 p. // URL: https://archive.org/details/howtodo thingswit00aust (accessed: 18.08.2026).

13. Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. - Cambridge: Cambridge University Press, 1969. - 203 p. // URL: https://www.cambridge.org/core/books/speech-acts/ (accessed: 18.08.2026).

14. The Representation of Women in the Works of Alisher Navoi // Academia.edu. - 2024. - URL: https://www.academia.edu/120691796/The_Representation_of_Women_in_the_Works_of_Alisher_Navoi (accessed: 15.08.2026).

15. Nosirov A. Alisher Navoiy asarlarida ayol obrazi. - Toshkent: Fan, 1999. - 156 b. (Nosirov A. The image of woman in the works of Alisher Navoi. - Tashkent: Fan, 1999. - 156 p.) // URL: https://n.ziyouz.com (accessed: 18.08.2026).

THE PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF DEVELOPING FREELANCING SKILLS AMONG SCHOOL STUDENTS

Purxanova Tolganay Jumanazarovna, Computer Science teacher at Secondary School No. 48 with advanced instruction in selected subjects, Nukus, Republic of Karakalpakstan

UO‘K 81'42.511

Abstract

This article examines the pedagogical significance of developing freelancing skills among general secondary school students, their role within the contemporary education system, and the importance of preparing students for independent professional activities in the context of the digital economy. It also analyzes the nature of freelancing and its contribution to fostering students' creative thinking, independent learning abilities, and entrepreneurial competencies. The study employs pedagogical analysis, comparative analysis, and generalization as its primary research methods.

Keywords: *freelancing, digital education, competence, independent learning, school students, pedagogical significance, digital technologies.*

Introduction

In recent years, the rapid advancement of digital technologies has transformed the global labor market and led to the emergence of new forms of employment. One of these is **freelancing**, a modern form of work based on independent and remote professional activity. Supported by Internet technologies, freelancing enables individuals to provide a wide range of services remotely.

Today, preparing young people to participate effectively in the digital economy has become one of the primary objectives of educational systems worldwide. In particular, general secondary education should focus on developing students' competencies in independent learning, creative thinking, problem-solving, and the effective use of digital technologies.

Developing freelancing skills not only prepares students for modern professional careers but also fosters entrepreneurship, responsibility, time management, and communication competencies. Therefore, investigating the pedagogical foundations of freelancing skill development within general secondary education represents an important research priority [1].

The term **freelancer** refers to an independent professional who provides services to multiple clients rather than working permanently for a single employer. Freelancers typically perform project-based work through Internet platforms.

In today's digital economy, freelancing is widely practiced in areas such as:

- Programming and IT services;
- Graphic design;
- Translation services;
- Content creation;
- Marketing and advertising;
- Web design.

The main characteristics of freelancing include:

1. Independent work;
2. Flexible working hours;
3. Remote employment;
4. Extensive use of digital technologies.

These characteristics make freelancing an increasingly attractive career option for young people. Consequently, integrating freelancing skills into the educational process contributes to preparing students for future professional activities.

Pedagogical Significance of Developing Freelancing Skills

Developing freelancing skills among general secondary school students has considerable pedagogical value.

First, freelancing promotes **independent learning**. Freelancers must continuously acquire new knowledge and improve their professional competencies independently, which increases students' engagement and self-directed learning abilities [2].

Second, freelancing enhances **creative thinking**. Working on diverse projects encourages students to generate innovative ideas and develop original solutions to practical problems.

Third, developing freelancing skills contributes to students' **entrepreneurial competencies**. Throughout the learning process, students acquire experience in marketing their services, communicating with clients, and managing projects.

Fourth, freelancing strengthens students' **information and communication technology (ICT) competencies**, which constitute one of the essential requirements of modern education [3].

The rapid development of information and communication technologies has fundamentally transformed education. Digital technologies not only modernize teaching and learning processes but also create new opportunities for developing students' competencies. Among these competencies, freelancing skills occupy a particularly important place [4].

Freelancing has become one of the most widespread forms of employment in the digital economy, enabling professionals to work remotely, provide services online, participate in project-based work, and access international labor markets. Consequently, integrating freelancing competencies into general secondary education has become increasingly important for preparing students for future careers.

Digital learning environments provide favorable conditions for acquiring modern knowledge, promoting independent learning, encouraging creative thinking, and implementing innovative ideas. Therefore, studying the opportunities offered by digital educational environments for developing freelancing skills possesses significant pedagogical and scientific relevance.

Opportunities of the Digital Educational Environment

Digital educational environments create broad opportunities for developing freelancing skills among school students. Through various digital platforms, students can participate in authentic learning activities and practical projects.

Examples include:

- Online learning platforms;
- Freelance marketplaces;
- Graphic design and programming platforms;
- Online collaboration tools.

Within the educational process, the following pedagogical approaches are particularly effective:

- Project-based learning;
- Problem-based learning;
- Interactive instructional methods;
- Digital learning technologies.

These approaches significantly contribute to students' practical skill development.

Directions for Developing Freelancing Skills

Digital educational environments facilitate the development of the following competencies.

1. DIGITAL LITERACY

Digital literacy is one of the fundamental requirements for successful freelance work. Students learn to use software applications, online platforms, and information systems effectively.

2. CREATIVE THINKING

Freelancing requires generating innovative ideas and proposing creative solutions. Digital educational technologies effectively foster students' creativity.

3. PROJECT-BASED WORK

Freelancers primarily work on projects. Consequently, implementing project-based learning within schools enhances students' practical and professional competencies.

4. COMMUNICATION COMPETENCE

Successful freelancers must communicate effectively with clients. Participation in online collaborative environments helps students improve their communication and teamwork skills.

5. TIME MANAGEMENT

Effective time management is essential for freelance professionals. Independent completion of learning tasks enables students to develop planning and organizational skills.

Personal Development and the Teacher's Role

Freelancing also contributes positively to students' personal development.

First, it cultivates a strong sense of **responsibility**, as every project involves deadlines and clearly defined objectives.

Second, freelancing strengthens **time management skills**, thereby improving students' academic performance.

Third, freelancing enhances **communication competencies**, enabling students to express their ideas clearly and interact effectively with clients and collaborators.

Teachers play a decisive role in developing freelancing skills. They should assist students by:

- teaching the effective use of digital technologies;

- organizing independent project-based learning activities;
- fostering creative thinking;
- increasing students' motivation for continuous learning.

Furthermore, teachers should integrate contemporary pedagogical technologies into the educational process.

Research Findings

The findings indicate that developing freelancing skills significantly improves students':

- independent thinking abilities;
- creative approaches to problem-solving;
- digital literacy;
- communication competencies.

Moreover, freelancing education facilitates students' successful adaptation to the demands of the modern labor market.

Conclusion

Developing freelancing skills among general secondary school students has become one of the strategic priorities of contemporary education. Freelancing education promotes independent thinking, creativity, entrepreneurship, and digital competence while preparing students for future professional activities.

The integration of digital technologies, project-based learning, and interactive teaching methods provides an effective pedagogical framework for developing these competencies.

Future research should focus on designing specialized pedagogical programs aimed at developing freelancing skills, which may further improve the quality and effectiveness of school education while better preparing students for the evolving digital labor market.

REFERENCES

1. Halikov, A.T. (2024). Student Competencies on Freelancing Pedagogical Conditions for the Use of Information and Educational Environments in the Formation. International Journal of Pedagogics, 4(12), 279-281.

2. Muslimov N.A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent.

3. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalari. – Toshkent.

4. Polat E.S. Novye pedagogicheskie i informatsionnye texnologii v sisteme obrazovaniya. – Moskva.

5. SourceForge. (2025). Best Training Software for Freelancers. https://sourceforge.nett

6. Parker, A. (2022). Pedagogical Practices and Digital Tools Used by Online Tutors with Students in Grades K-5. ProQuest LLC, Walden University.

7. Haruna, M.A. (2025). Design and Implementation of Students Skill Sharing and Freelancing Platform. Bayero University, Kano.

INGLIZ VA O‘ZBEK BOLALAR NUTQIDA NOMINATSIYA VOSITALARINI LINGVOKOGNITIV TADQIQ ETISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Mirzayeva Moxigul Baxromjon qizi,
mirzayeva.moh96@gmail.com
ORCID ID: 0009-0001-3753-4132
Farg‘ona vil., Farg‘ona sh., 13-maktab ingliz tili o‘qituvchisi

UO‘K 81'42

ANNOTATSIYA

Maqolada ingliz va o‘zbek bolalar nutqida qo‘llaniladigan nominatsiya vositalari lingvokognitiv nuqtayi nazardan qiyosiy tarzda o‘rganiladi. Mavzuning dolzarbligi asoslanadi, mavjud adabiyotlar tanqidiy tahlil qilinadi, tadqiqot bo‘shlig‘i aniqlanadi, shuningdek NOM- kodlash tizimi va gibrid metodologik model taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *nominatsiya vositalari, bolalar nutqi, lingvokognitiv yondashuv, chog‘ishtirma psixolingvistika, o‘zbek tili, til ontogenezi, kategoriyalash.*

АННОТАЦИЯ

В статье на сопоставительной основе рассматриваются средства номинации в детской речи английского и узбекского языков с позиций лингвокогнитивного подхода. Обосновывается актуальность темы, критически анализируется имеющаяся литература, определяется исследовательский пробел, а также предлагаются система кодирования NOM- и гибридная методологическая модель.*

Ключевые слова: *средства номинации, детская речь, лингвокогнитивный подход, сопоставительная психолингвистика, узбекский язык, онтогенез языка, категоризация.*

ABSTRACT

This article offers a comparative examination of nomination devices in English- and Uzbek-speaking children's speech from a linguocognitive standpoint. It justifies the relevance of the topic, critically reviews the existing literature, identifies a research gap, and

proposes a NOM- coding system together with a hybrid methodological model.*

Keywords: *nomination devices, child speech, linguocognitive approach, contrastive psycholinguistics, Uzbek language, language ontogenesis, categorization.*

1. KIRISH

Bola biror predmetga nom berganda, bu shunchaki lug‘aviy hodisa emas, balki kognitiv jarayondir: nom berish orqali bola borliqni o‘z ongida kategoriyalaydi va shakllangan mental modelni til belgisiga ko‘chiradi. Aynan shu xususiyati tufayli nominatsiya vositalari lingvokognitiv paradigmada markaziy o‘rganish obyektlaridan biriga aylangan (Ibbotson, 2020; Langacker, 1987; Tomasello, 2019).

Xalqaro miqyosda bolalar leksikasini egallash masalasi ancha yaxshi o‘rganilgan. Frank va boshqalar (2021) 36 ta tildagi leksik rivojlanishni qiyosiy tahlil qilishgan, Yu va Smit (2019) birgalikdagi diqqat orqali so‘z o‘rganish mexanizmini eksperimental isbotlashgan, Klark (2021) esa leksik strukturaning shakllanish qonuniyatlarini aniqlagan. Shunga qaramay, o‘zbek tili bunday xalqaro qiyosiy tadqiqotlar doirasidan deyarli chetda qolib kelmoqda — CHILDES ma'lumotlar bazasida hozircha o‘zbek tili korpusi mavjud emas (MacWhinney, 2020).

O‘zbek tilshunosligida bolalar nutqi Sayidirahimova (2004) tomonidan birinchi marta monografik tarzda o‘rganilgan, Kurbonova (2009, 2018) va Hamidova (2016) esa uning pragmatik va psixolingvistik jihatlarini yoritishgan. Kognitiv yo‘nalishda Safarov (2006, 2021) va Mengliyev (2022) muhim hissa qo‘shgan. Biroq bu ishlarning birortasida ham nominatsiya vositalari alohida lingvokognitiv kategoriya sifatida, ustiga-ustak ingliz tili bilan qiyosiy tarzda o‘rganilmagan.

Tadqiqot bo‘shlig‘i va maqsadi

Shunday qilib, quyidagi tadqiqot bo‘shlig‘ini aytish mumkin: o‘zbek va ingliz bolalar nutqida nominatsiya vositalarining lingvokognitiv xususiyatlarini qiyosiy-tipologik jihatdan o‘rganuvchi ilmiy ish bugungi kunga qadar mavjud emas.

Maqolaning maqsadi — ushbu bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qiladigan nazariy-metodologik bazani ishlab chiqishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: (1) lingvokognitiv yondashuv asosida

nominatsiya vositalarini talqin qilish tamoyillarini asoslash; (2) qiyosiy tadqiqot uchun metodologik ramka taklif etish; (3) NOM-* kodlash tizimi va konseptual modelni ishlab chiqish.

2. METODLAR

2.1. Tadqiqot dizayni

Tadqiqot qiyosiy-longityud dizaynga tayanadi. O‘zbek tili bo‘yicha ma'lumotlar tabiiy kuzatuv (12 bola, 1;6–5;0 yosh, Toshkent va Farg‘ona, 6 qiz va 6 o‘g‘il bola) hamda yarim tuzilgan chaqiruv vaziyatlari — rasm ko‘rsatish, o‘yinchoq bilan o‘ynash, kitob varaqlash — orqali to‘planadi. Ingliz tili uchun esa CHILDES/TalkBank bazasidagi Providence Corpus (Demuth va boshqalar, 2006) tanlab olindi, chunki u bir xil yosh diapazonini (0;11–4;0) qamrab oladi va ochiq kirish imkoniyatiga ega.

Transkripsiya CHAT standarti (MacWhinney, 2000) asosida olib boriladi. Har bir seans 30–45 daqiqa davom etadi va oyiga 1–2 marta o‘tkaziladi. Seanslar audio (WAV, 44.1 kHz) va video (1080p) formatida qayd etiladi. Kodlashning ishonchliligi Cohen's Kappa ko‘rsatkichi ($\kappa > 0.80$) orqali tekshiriladi.

2.2. Lingvokognitiv tahlil

Lingvokognitiv tahlil jarayonida har bir nominatsiya vositasi bo‘yicha quyidagilar aniqlanadi: (a) qaysi konseptual maydon profillashtirilayotgani (Langacker, 1987); (b) qaysi freym tuzilmasi faollashayotgani (Fillmore, 1985); (c) hodisa prototipikmi yoki atipikmi (Rosch, 1978); (d) nominatsiya metaforik yoki metonimik xarakterga egami (Lakoff & Johnson, 1980); (e) tipologik xususiyatlar, ya'ni agglyutinativ va analitik til tizimlarining ta'siri (Slobin, 1996).

2.3. NOM-* kodlash tizimi

Nominatsiya vositalarini izchil tarzda kategoriyalash maqsadida NOM-* kodlash tizimi ishlab chiqildi (1-jadvalga qarang). Tizim Klark (2016), Tomasello (2003) va lingvokognitiv nazariyaning umumiy tamoyillarini sintez qiladi.

Kod	Kategoriya	Ta'rif	Misol (o‘z/ingl)
NOM-REF	Referensial	Predmetni to‘g‘ridan-to‘g‘ri nomlash	mushuk / cat
NOM-ATR	Atributiv	Belgi, sifat bildiruvchi nom	katta / big
NOM-PRD	Predikativ	Harakat, jarayonni ifodalovchi nom	yugurdi / ran
NOM-REL	Relatsion	Munosabat, egalik bildiruvchi nom	meniki / mine
NOM-SOC	Ijtimoiy	Rol, qarindoshlik nomi	buvi / grandma

NOM-MET	Metaforik	O‘xshashlikka asoslangan nom	oy-chiroq / moon-lamp
NOM-OVR	Kengaytirilgan qo‘llanish	Nomni haddan tashqari keng qo‘llash	it = barcha hayvon
NOM-UND	Torlashtirilgan qo‘llanish	Nomni haddan tashqari tor qo‘llash	oy = faqat to‘liq oy
NOM-SYM	Simvolik	O‘yin jarayonidagi shartli nom	tayoq = ot / stick = sword
NOM-NEW	Neologizm	Bola o‘zi yasagan yangi so‘z	ochadigan / fixer-thing
NOM-DXT	Deiksis + nom	Ko‘rsatish bilan birga nomlash	bu it / this dog

1-jadval. NOM- nominatsiya vositalarini kodlash tizimi*

3. NATIJALAR: NAZARIY MODEL

3.1. Lingvokognitiv model

Taklif etilayotgan to‘rt qatlamli model bolalar nominatsiyasini quyidagicha tavsiflaydi: (1) kognitiv substrat — sensor-motor tajriba asosida mental model shakllanadi (Piaget, 1952); (2) ijtimoiy-pragmatik mediatsiya — so‘z birgalikdagi diqqat orqali o‘rganiladi (Tomasello, 2019; Yu & Smith, 2019); (3) lingvokognitiv operatsiya — shakllangan mental model til belgisiga ko‘chiriladi, bunda prototipik kategoriyalash va profillashtirish ishga tushadi (Langacker, 1987; Rosch, 1978); (4) tilga xos shakllantirish — o‘zbek tilidagi agglyutinativ morfologiya yoki ingliz tilidagi analitik tizim nominatsiya vositasining shaklini belgilaydi (Slobin, 1996).

To‘rtinchi qatlam ikkala tilda sezilarli farqni namoyon qiladi: o‘zbek bolasi affektiv nominatsiyani kichraytirish qo‘shimchalari (-cha, -gina) orqali ifodalasa, ingliz bolasi buning o‘rniga atributiv konstruksiyalarga (little, tiny + N) tayanadi. Birinchi uch qatlam esa universal kognitiv substrat tufayli ikkala tilda ham o‘xshash dinamikani ko‘rsatadi.

3.2. Rivojlanish bosqichlari va gipotezalar

1-bosqich (0–1;6). Pre-nominativ bosqich: bola ko‘rsatish va intonatsiya orqali murojaat qiladi.

2-bosqich (1;6–2;6). Birlamchi nominatsiya bosqichi: NOM-REF va NOM-SOC ustunlik qiladi, keng ko‘lamli overextension kuzatiladi, o‘zbek tilida erkalash shakllari ko‘p uchraydi.

3-bosqich (2;6–3;6). Kengaytirilgan bosqich: lug‘at portlashi ro'y beradi, NOM-ATR va NOM-MET paydo bo‘ladi, ijodiy so‘z yasalishi (NOM-NEW) kuzatila boshlaydi.

4-bosqich (3;6–5;0). Differensial bosqich: semantik chegaralar aniq shakllanadi, giperonim-giponim munosabatlari yuzaga keladi.

Shu modelga tayanib, beshta tekshiriladigan gipoteza ilgari suriladi: (H1) NOM-REF barcha nominatsiyalarning 40–50 foizini tashkil qiladi, bu universal kognitiv substrat bilan bog‘liq; (H2) o‘zbek tilida erkalash qo‘shimchali nominatsiyalar ingliz tiliga nisbatan 2–3 baravar ko‘p uchraydi, bu tipologik ta'sirni ko‘rsatadi; (H3) NOM-SOC kategoriyasida o‘zbek bolalarida qarindoshlik atamalarining ulushi sezilarli darajada yuqori bo‘ladi, bu lingvomadaniy o‘ziga xoslikdan dalolat beradi; (H4) NOM-OVR 1;6–2;6 yosh oralig‘ida eng yuqori ko‘rsatkichga chiqadi, bu prototipik kategoriyalash bilan izohlanadi; (H5) NOM-NEW kategoriyasida o‘zbek bolalar nutqi morfologik jihatdan murakkabroq shakllarni hosil qiladi, bu esa agglyutinativ ijodkorlikning natijasidir.

4. MUHOKAMA

Taklif etilgan metodologiya bir necha nazariy yo‘nalishning uyg‘un sintezi hisoblanadi. Vygotskiyning (1978) yaqin rivojlanish zonasi tushunchasi bolaning kattalar bilan muloqotda nominatsiya vositalarini qanday o‘zlashtirishini tushuntirib beradi; Tomasello (2019) bu jarayonning aynan birgalikdagi diqqat orqali sodir bo‘lishini eksperimental yo‘l bilan tasdiqlagan. Piagetning (1952) sensomotor bosqich nazariyasi esa dastlabki funksional nominatsiyalarning — masalan, «ichadigan» yoki «the drinking thing» kabi so‘zlarning — sensor tajribaga asoslanishini izohlaydi. Klark (2021) tomonidan ilgari surilgan leksik kontrast printsipi bir ob'ektga bir nom berish tamoyilini asoslab, nominatsiya vositalarining qanday barqarorlashishini tushuntiradi. Slobinning (1996) «gapirish uchun tafakkur» konsepsiyasi esa o‘zbek va ingliz bolalar nutqidagi tipologik farqlarni izohlashda asosiy metodologik kalit vazifasini bajaradi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi uch jihatda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, o‘zbek bolalar nutqidagi nominatsiya vositalari birinchi marta alohida lingvokognitiv kategoriya sifatida tizimli o‘rganilmoqda. Ikkinchidan, ishlab chiqilgan NOM-* kodlash tizimi o‘zbek bolalar nutqi materialini xalqaro CHILDES standartlariga moslashtirish imkonini beradi. Uchinchidan, agglyutinativ va analitik til tipologiyasining bolalar nominatsiyasiga ta'sirini sinovdan o‘tkazuvchi ushbu qiyosiy tadqiq xalqaro miqyosda ham yangi qadam hisoblanadi.

Amaliy nuqtayi nazardan, tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim metodikasini, logopediyani va ikki tilli ta'lim dasturlarini takomillashtirishda

foydali bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, tadqiqotning muayyan cheklovi ham bor: 12 nafar boladan iborat namuna hajmi statistik umumlashtirish uchun nisbatan kichik hisoblanadi, shu sababli keyingi bosqichda namuna hajmini kengaytirish rejalashtirilmoqda.

5. XULOSA

Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek bolalar nutqida nominatsiya vositalarini lingvokognitiv jihatdan tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari bayon etildi. Adabiyotlar tahlili natijasida mavjud bo‘shliq — ya'ni o‘zbek tilining xalqaro qiyosiy tadqiqotlar doirasidan chetda qolayotgani — yaqqol namoyon bo‘ldi. Ushbu bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida uchta asosiy hissa taklif etildi: (1) 11 toifadan iborat NOM-* kodlash tizimi; (2) to‘rt qatlamli lingvokognitiv model; (3) beshta tekshiriladigan gipoteza. Kelgusi empirik tadqiqot ushbu nazariy poydevorga tayangan holda longityud kuzatuv ma'lumotlari asosida gipotezalarni sinovdan o‘tkazishi va o‘zbek bolalar nutqi bo‘yicha milliy korpus yaratilishiga hissa qo‘shishi rejalashtirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ambridge, B. (2020). Against stored abstractions: A radical exemplar model of language acquisition. First Language, 40(5–6), 509–559. https://doi.org/10.1177/0142723719869731

2. Bassano, D., & Maillochon, I. (2020). Early referential production in French. Journal of Child Language, 47(3), 601–635. https://doi.org/10.1017/S0305000919000849

3. Clark, E. V. (2016). First language acquisition (3rd ed.). Cambridge University Press.

4. Clark, E. V. (2021). Acquisition of lexical structure. Annual Review of Linguistics, 7, 51–72. https://doi.org/10.1146/annurev-linguistics-090420-102929

5. Cohen, J. (1960). A coefficient of agreement for nominal scales. Educational and Psychological Measurement, 20(1), 37–46.

6. Demuth, K., Culbertson, J., & Alter, J. (2006). Word-minimality, epenthesis and coda licensing in the early acquisition of English. Language and Speech, 49(2), 137–174.

7. Fillmore, Ch. J. (1985). Frames and the semantics of understanding. Quaderni di Semantica, 6(2), 222–254.

8. Frank, M. C., Braginsky, M., Yurovsky, D., & Marchman, V. A. (2021). Variability and consistency in early language learning: The Wordbank project. MIT Press.

9. Gelman, S. A., & Brandone, A. C. (2022). Conceptual development. Annual Review of Developmental Psychology, 4, 407–432. https://doi.org/10.1146/annurev-devpsych-121020-023347

10. Hamidova, S. N. (2016). Til va tafakkur munosabatining psixolingvistik jihatlari. Fan.

11. Ibbotson, P. (2020). What it takes to talk: Exploring developmental cognitive linguistics. De Gruyter Mouton. https://doi.org/10.1515/9783110636826

12. Kurbonova, M. (2009). O‘zbek bolalar nutqi leksikasining sosiopsixolingvistik tadqiqi. Fan.

13. Kurbonova, M. (2018). O‘zbek bolalar nutqining pragmalingvistik aspekti. Adabiyot uchqunlari.

14. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors we live by. University of Chicago Press.

15. Langacker, R. W. (1987). Foundations of cognitive grammar: Vol. 1. Stanford University Press.

16. Lieven, E. (2016). Usage-based approaches to language development. Language and Cognition, 8(3), 333–353. https://doi.org/10.1017/langcog.2016.13

17. MacWhinney, B. (2000). The CHILDES project: Tools for analyzing talk (Vol. 1). Lawrence Erlbaum.

18. MacWhinney, B. (2020). Computational models of child language learning. Journal of Child Language, 47(1), 127–152. https://doi.org/10.1017/S030500091900008X

19. Mengliyev, B. R. (2022). O‘zbek tilining kognitiv imkoniyatlari. Akademnashr.

20. Menn, L., & Stoel-Gammon, C. (2019). Phonological development. In J. Berko Gleason & N. Ratner (Eds.), The development of language (9th ed., pp. 59–101). Pearson.

21. Piaget, J. (1952). The origins of intelligence in children. International Universities Press.

22. Rosch, E. (1978). Principles of categorization. In E. Rosch & B. B. Lloyd (Eds.), Cognition and categorization (pp. 27–48). Lawrence Erlbaum.

23. Safarov, Sh. S. (2006). Kognitiv tilshunoslik. Sangzor.

24. Safarov, Sh. S. (2021). O‘zbek tilshunosligida kognitiv paradigma. TDUTI nashriyoti.

25. Sayidirahimova, N. S. (2004). Maktabgacha yoshdagi o‘zbek bolalar nutqining lingvistik xususiyatlari [Nashr etilmagan dissertatsiya avtoreferati]. Toshkent davlat universiteti.

26. Slobin, D. I. (1996). From 'thought and language' to 'thinking for speaking'. In J. J. Gumperz & S. C. Levinson (Eds.), Rethinking linguistic relativity (pp. 70–96). Cambridge University Press.

27. Sloutsky, V. M. (2021). Conceptual development and category learning. Annual Review of Developmental Psychology, 3, 181–207. https://doi.org/10.1146/annurev-devpsych-051120-010632

28. Stoll, S., & Lieven, E. (2022). Crosslinguistic perspectives on language development. In E. L. Bavin & L. R. Naigles (Eds.), Cambridge handbook of child language (3rd ed., pp. 51–79). Cambridge University Press.

29. Tomasello, M. (2003). Constructing a language: A usage-based theory of language acquisition. Harvard University Press.

30. Tomasello, M. (2019). Becoming human: A theory of ontogeny. Harvard University Press.

31. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society. Harvard University Press.

32. Waxman, S. R., Fu, X., Arunachalam, S., Leddon, E., Geraghty, K., & Song, H. J. (2020). Are nouns learned before verbs? Child Development Perspectives, 7(3), 155–159. https://doi.org/10.1111/cdep.12083

33. Yo‘ldoshev, M. M. (2021). Tilning kognitiv asoslari va o‘zbek tilshunosligida lingvokognitiv tadqiqotlar. Fan va taraqqiyot.

34. Yu, C., & Smith, L. B. (2019). Embodied attention and word learning by toddlers. Cognition, 177, 44–54. https://doi.org/10.1016/j.cognition.2018.03.002

ILOHIYOT VA DUNYOVIYLIKNI MUVOFIQLASHTIRGAN TA’LIMOT

Nusratullo Jumaxo’ja
filologiya fanlari doktori, professor
UO‘K 81'42

Buxoro viloyatining G'ijduvon shahriga borgan ziyoratchilaru tijoratchilar xalq e'tiqodi va tilidan darhol tushunadilarki, bu ko'hna shahar ikki nom bilan yuritiladi. Shaharning rasmiy nomi G'ijduvon. G'ijduvon juda qadimiy nom, uning kelib chiqishi va ma'nosi haqida turli taxminu rivoyatlar bo'lsa-da, ilmda hanuz aniq asosli javob yo'q. Shaharning norasmiy, ammo tub aholi tilida faol qo'llanadigan nomi Xo'jayi jahon. Ushbu nomning tarixiy asosi aniqroq. Ko'pchilik buni bilmasada, tabarruk nomda ajib hikmat ko'radi. Xo'jayi jahon - gavjum shahar. Ayniqsa, dam olish kunlari chor-atrofdagi qishloqlaru tumanlardan odamlar Xo'jayi jahon sari yo'l oladilar. G'ijduvon bozorining dovrug'i yetti iqlimga taralgan. Bozor kunlari bozorda oyoq qo'yishga joy topilmaydi. U yerda hamma narsa mavjud va arzon. G'ijduvon bozoridan murodi hosil bo'lmay, baraka topmay chiqadigan odam topilmasa kerak. G'ijduvonning mol bozoriga yaqin-atroflardangina emas, olis Samarqandu Qarshidan mol keltirib, mol olib ketadilar. Savdo juda qizg'in bo'ladi. Tub aholi qo'shni-qarindoshlar, olisdan kelgan mehmonlar bari baraka topganlar ushbu shahardagi fayzu futuh, xayru barakani bir piri buzrukvor Xo'jayi Jahon nomi bilan bog'lab gapiradilar.

“Xo’jayi jahon” forsiy izofali birikma bo'lib, uning o'zbekchasi "Jahon xo'jasi" demakdir. Xo'sh, Xo'jayi jahon - G'ijduvonni shuhratini jahoniy mavqega ko'targan, ona-Vatani nazarkarda maskanga aylanishiga sabab bo'lgan zot kim o'zi? U Xo'jayi Xizr siylovi bilan jahon xo'jalari sarvari maqomiga ko'tarilgan Xo'ja Abduxoliq G'ijduvoniydir. Payg'ambar siylagan bu valiy zot o'tmishda hamma vaqt hukmdor va allomalar e'tibori, ardog'ida bo'lgan, Temuriylar saltanati davrida Xo'ja Abduxoliq G'ijduvoniy yaratgan ta'limot Xo'ja Ahrori Vali rahnamoligida butun mamlakat mafkurasida ustuvor mavqeyida turgan. Mana shunday ixlos, muhabbat, sadoqatning ramzi sifatida shavkatli temuriyzoda Mirzo Ulug’bek Xo'ja Abduxoliq G'ijduvoniyning mazori shariflarida masjid va madrasa qurdirgan. Ushbu me'moriy obida asrlar mobaynida dunyo musulmonlarinnig qutlug' ziyoratgohiga aylangan. Viloyatning uzoq-yaqinidan qariyalar juma namoziga shu makonga oshiqadilar. Ular Xo'jayi jahon deganda shu manzilni tushunadilar.

Xo'ja Abduxoliq G'ijduvoniy 1103 yili G'ijduvonda tavallud topib, 1179 yilda o'z Vatanlarida vafot etganlar. Mustaqillik davrida birinchi marta 1985 yili Xo'ja Abduholiq G'ijduvoniy hazratlarining tavalludlariga 890 yil to'lishi kata tantanalar bilan nishonlandi. Xalqimiz bu to'yni munosib nishonladi. Mazkur sana G'ijduvon shahri Xo'jayi jahon nomi bilan ham yuritilayotganiga sakkiz yuz yildan ortiq fursat o'tganidan dalolat beradi. Xo'ja Abduxoliq G'ijduvoniy Sharq falsafiy tafakkuri tarixida mumtoz o'rin tutadi. Uning ta'limoti tasavvuf silsilalaridan biri - Xojagon (Xojalar) halqasida shakllangan. Biroq Xo'ja Abduxoliq G'ijduvoniy Xo'jagon silsilasininggina emas, balki keyinchalik shu halqa o'zagida paydo bo'lib, olamshumul ravnaq topgan Naqshbandiyya silsilasining ham asoschilaridandir. Tasavvuf tarixida naqshbandiylikni Xo'jagon shajarasining shoxchasi degan qarash ham bor. Ul zoti sharif mo'tabar kitoblarda «shayxushshuyux» (shayxlar shayxi) unvoni bilan ta'riflanadi. Bu ulug'vor unvon Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoyilar tomonidan Xo'ja Yusuf Hamadoniy, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Xo'ja Abduxoliq G'ijduvoniy singari pirlarga nisbatangina qo'llangan. Xo'ja Abduxoliq G’ijduvoniydan «Risolayi sohibiyya», «Risolayi shayxushshuyux Hazrati Abu Yusuf Hamadoniy», «Maqomoti Xo’ja Yusuf Hamadoniy» kabi asarlar yodgor qolgan. Ammo, hali bu merosni xalqimiz o'zlashtirib, ma'naviy mulkiga aylantira o’lganicha yo'q. Jahon xo'jalari sarvari qanday karomat va fazilatlar sohibi edilar? Ushbu savol javobida mavlono Abdurahmon Jomiyning «Nafahot ul-uns min hazarot ul-quds” hamda Nizomiddin Alisher Navoyining «Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat» asarlariga tayaniladi. Asl manbalarning kafolat berishicha, «alarning ravishi tariqatda hujjatdur». Bu bahoni tushunish uchun tariqat nimaligini muxtasar izohlar o'tmoq joiz. Ma'lumki, islomiy tasavvufiy ta'limot nuqtayi nazaridan insonning ma'naviy-ruhiy komillikka erishishi shariat, tariqat, haqiqat bosqichlaridan iboratdir. Islom yoxud xudojuylik yo'liga kirgan solik, ya'ni yo'lovchi, izlovchi mana shu bosqichlarni bosib o'tishi zarur. Bu uchala bosqich bir-birini qat'iy taqozo etadi. Shariatsiz tariqatga kirib bo'lmaydi, tariqatsiz haqiqatga erishilmaydi. Tariqat shariat qonun-qoidalarini bajarish va Olloh muhabbatiga muyassar bo'lish jarayonidagi yo'ldir. Shariat-nazariya, tariqat amaliyotdir. Haqiqat - maqsad, tariqat uslub, faoliyat shaklidir. Ta'limotda: «shariat yong'oqning po'chog'i bo'lsa, tariqat po'choq ichidagi po'stloqdir, haqiqat esa po'stloq ichidagi mag'iz»; «shariat yer, tariqat mazkur yerda ungan daraxt, haqiqat esa shu daraxtning mevasi»; «tariqat - fano, ya'ni o'zdan kechish, haqiqat - baqo, ya'ni botil (buzilgan, behuda ishlardan kechib haq ishlarga bog'lanmoq); «shariat - qonun, tariqat - yo'l», «Qonun» vujud va qalbni tarbiyalaydi, «yo'l» ko'ngilni poklab, ruhni nurlantiradi» kabi turfa ta'riflar ham mavjud.

Insoniyatga ibrat bo'lgan fazilatlaridan yana biri shuki, Xo'ja Abduxoliq G'ijduvoniy «pok ravishlarin ag'yor ko'zidin yashirubturlar». Bundan shu narsa anglashiladiki, odam faqat o'z aybinigina yashirib yurmasdan, pok xislatini ham pinhon tutgani ma'qul. Bu, birinchidan, pokiza siyratini yomon ko'zdan asrash, ikkinchidan, dushmanning g'ayir g'ashini qo'zg'amaslik, uchinchidan, kamtarlik, ya'ni o'z fazilatini ko'z-ko'z qilib maqtanishdan saqlanish uchun zarur. Tasavvuf adabiyotidagi mana bu bayt shu ma'noda mashhur:

Az darun shav oshnovu vaz berun begonavash,
Inchunin zebo ravish kam mebuvad andar jahon.

Ya'ni, ichdan, ko'ngilning tubida Ollohga do'st bo'l, ammo buni sirtingga chiqarishing muhabbatingni oshkora izhor etaverishing shart emas. Tashqaridan, begonavash ko'ringaning ma'qul.

Naqshbandiyya ta'limotidagi «botinan haq birla, zohiran xalq birla» bo'lmoq ravishi hamda xufya zikr usuli Xo'ja Abduxoliq G'ijduvoniyning «pok ravishini ag'yor ko'zidin yashirmoq» fazilatidan vujudga kelgan. Mavlaviyya sulukidagi oshkora ovoz chiqarib zikr tushish, zikri samo bu uslubga muvofiq kelmas edi.

Xo'ja Abduxoliq G'ijduvoniy jahriya usulidagi bunday zikrning ofatidan ogohlantiradi:

Ey so'fiyi sof, ki kuni mayli samo,
Hosil zi samo' chun nifoq astu vido.
Yo tarki samo kun, ki sofi gardi,
Yo on, ki hayoti dili xud soz vido'.

Vaholonki, so'fiy zikrining asl mohiyat-muddaosi qarama-qarshilik, yakkalanish va bo'linish emas, aksincha, murosayu madoro, vahdat birlashishdir. Shuning uchun yo zikri samoni tark etgilkim, to g'ururdan poklangaysan. Yoki o'z hayotingu diling bilan vidolashaver». Xo'ja Abduxoliq G'ijduvoniyning bu sabog'i tasavvuf tarixidagi talafotlardan chiqarilgan oqilona xulosadir. Bu fikrga mashhur Mansur Hallojning foje qismati dalil bo'la oladi. Ma'lumki, Mansur Halloj «Anal haq» (Men xudoman) deya baralla mag'rurlangani uchun dorga osilgan edi. Alisher Navoyi Mansur Halloj halokatini izohlashicha, ustodi Abu Amir binni Usmon Makkiy tavhid ilmida o'ziga xos yangicha ma'no kashf etgan bo'ladi. U ma'no nihoyatda nozik va so'zi yashirin ekan. Mansur uni yashirincha olib oshkor ma'no kashf etgan bo'ladi. U ma'no nihoyatda nozik va so'zi yashirin ekan. Mansur uni yashirincha olib oshkor etadi. Ma'no benihoya nozikligidan, el uni tushunmadi, inkor etdi va Mansurni mahjur etdi, Ustozi uni qarg'adi. Qarg'ishi tutib, u dorga osildi. Aslida, uning «Men - haqman» deganida «Men haq bilan birgaman» degan nozik ma'no mujassam edi. Ammo, bu nazokatni zikri samo'

saqlayolmas edi. Shuning uchun Xo'ja Ali Rometaniy: «Agar yer yuzida Xo'ja Abduxoliq farzandlaridin biri bo'lsa erdi, Mansur hargiz dor ostiga bormag'ay erdi», deya xufya zikrning afzalligiga imon keltiradi.

Xufya zikr hamda Xo'ja nasabi Abduxoliq G'ijduvoniyga payg'ambar Xizr alayhissalomdan merosdir. Nasabshunoslikda «Xo'ja» nisbasi kishining nasl-nasabi payg'ambar avlodiga borib taqalishini bildiradi. Hazrat Navoyi naql qilishlaricha: «Alarg'a ko'ngil zikri sabaqi yigitlikda Xo'jayi Xizrdin bo'lubtur va ul sabaqqa muvozabat ko'rguzubturlar va Xo'ja alardin farzandlik qabul qilibturlar va buyurubturlarki, xoslug' suvg'a kirib, g'o'ta ur va ko'nglungda «Loiloha illallohu Muhammadur rasulullo» degil. Alar Xo'ja buyurg'ondek qilibturlar va ishga mashg'ul bo'lubturlar va kushodlar topibdurlar va avvaldin oxirg'acha alarning ro'zgori barcha xalq qoshida maqbul va mahmud ekandur". Ayon bo'ladiki, Abduxoliq G'ijduvoniy yigitlikda Xizr alayhissalomga yo'liqadi. Xizr alayhissalom ul zotni farzandlikka qabul qiladilar. Ko'ngil zikridan ta'lim beradilar.

Endi shuni ham aniqlashtirib o'tmoq lozimki, zikrning mohiyati nimayu Ko'ngil zikrining xosiyati qanday? Zikrni tasavvuf ahli maqomlar sayri jarayonida fikriy-ruhiy quvvatni, tafakkur malakasini shakllantirishning eng yaxshi yo'li deb bilganlar. Zikrning mohiyati tangri-taoloning nomini tilga keltirishdir. Tasavvufdagi bu hol Qur'onning «faazkaruni azkarukum («Meni yod etinglar, toki men sizlarni yod etay») oytidan oziqlangan. Zikr so'fiyga shunday imkoniyat berganki, u kamoli mushohadaga berilgan. Zikr holatida so'fiy butun ruhiy qobiliyatini Ollohning nomini zikr etishga safarbar etgan, unga nisbatan shu qadar ichki shavq paydo qilganki, qolgan hamma narsani, hattoki, shariat farzlarini ham unutish darajasiga yetgan. Ba'zi so'fiylar xudoning nomini sidqidildan zikr etishni ibodat va besh vaqt namozdan afzal deb hisoblaganlar. Xo'ja Abduxoliq G'ijduvoniyning ko'ngil zikri juda katta tarbiyaviy, ma'rifiy, insonparvarlik mohiyatiga ega. Avvalo, u so'fiyni xo'jako'rsinga, namoyishkorona taqvodorlikdan saqlaydi. Ko'ngil zikri ham taqvo, ammo riyosiz taqvodir. Unda riyoga yo'l yo'q. Ikkinchidan, xufya zikr eng samimiy va oliy muhabbat ko'ngilda kamol topishidan ma'rifatlantiradi. Uchinchidan, zikri xavofiy inson ko'nglini eng mo'tabar sajdagoh darajasida ilohiylashtiradi. Chunki ko'ngil zikriga moyil har bir inson qalbida Olloh yashaydi. Bunday solik ko'ngli xudoning uyidek muqaddas sanaladi. Adabiyotimizda ana shu asosda ko'ngil Ka'basi degan timsol paydo bo'lgan. Mumtoz adiblarimiz shu timsol vositasida umuminsoniy ezgu g'oyalarni kuylayganlar.

Kimki bir ko'ngli buzug'ning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa, obod aylagay.

Alisher Navoyi mazkur baytda, har bir ko'ngil Ollohning oshiyonidir, degan aqidadan kelib chiqib, kimda-kim bir shikasta ko'ngilni shod etsa, u mabodo Ka' ba buzilgan bo'lsa, Ka'bani qayta qurgandek savob ish qilgan bo'ladi, degan insonparvar fikrni ifodalaydi.

Tavofi olami dil qil jahonda har bashardin sen,
Agar bir dilni sen buzsang , yuzar Ka'ba buzulmazmu?!

Boborahim Mashrab esa inson dilini Ollohning uyi qadar tabarruk ziyoratgohdek e'zozlab tavof etishga chorlaydi. Biror inson dilini og'ritish yuzlab Ka'bani vayron etishdek gunohi azim ekanligidan ogohlantiradi. Xizr alayhissalomdan ko'ngil zikri sabog'ini olganidan so'ng. Xo'ja Abduxoliq G'ijduvoniy Buxoroga yo'l oladi. O'sha mahalda Xo'ja Yusuf Hamadoniy hazratlari Buxoroda bo'ladilar. Xo'ja Abduxoliq G'ijduvoniy ularning suhbatlariga yetganida, ma'lum bo'ladiki, ularda ham ko'ngil zikri bor ekan. Xo'ja Abduxoliq G'ijduvoniy Yusuf Hamadoniydan ta'lim ola boshlaydi. Yusuf Hamadoniyning suhbatdoshlari orasida to'rt izdosh shogirdi bor edi: Xo'ja Abdullo Barqiy, Xo'ja Hasan Andoqiy, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Xo'ja Abduxoliq G'ijduvoniy. Xo'ja Yusufdan so'ngra bu to'rt kishidan har biri pir va murshidlik maqomida turdilar. Muridlar ularning xizmatlarida odob bilan mulozim bo'ldilar. Xo'ja Ahmad Yassaviy Turkiston sari ketganidan keyin barcha suluk ahli Xo'ja Abduxoliq rahnamoligida qoldilar. Ul zotning avliyolik xislatlari ko'p edi. Shomda u kishiga ko'p muridlar paydo bo'ldi, xonaqoh va ostona vujudga keldi.

Xo'ja Abduxoliq G'ijduvoniy ulug' falsafiy ta'limot naqshbandiyyaning asoschisi Bahovuddin Naqshbandning piri va ustozidir. Bu ikki yirik donishmand oralig'ida ikki asrlik zamon masofasi yotsa-da, Navoyi ta'biricha, Bahovuddin Naqshband Xo'ja Abduxoliq G'ijduvoniyning uvaysiy shogirdidir.

Bahovuddin Naqshband Abduxoliq G'ijduvoniy ko'rsatmalarini to'la-to'kis bajardilar va naqshbandiyya ta'limoti ravnaq topib, yangi bosqichga ko'tarildi.

Naqshbandiyya ta'limotidagi rukn yoxud rashhalarning o'n biridan sakkiztasi Xo'ja Abduxoliq G'ijduvoniy tafakkuri mahsulidir. Ali Safiyning "Rashahotu aynul hayot" ("Obihayot tomchilari") asaridan o'rin olgan bu qatralar quyidagilardir: 1. «Hush dar dam». 2. «Nazar bar qadam». 3. «Safar dar vatan". 4. «Xilvat dar anjuman». 5. «Yodkard». 6. «Bozgasht». 7. «Nigohdosht». 8. «Yoddosht». Naqshbandiyya ta'limotining umumiy shiori bo'lmish «Dil ba yoru dast ba kor" ham, manoqiblarda keltirilishicha, Xo'ja Abduxoliq G'ijduvoniy ijodiga mansubdir. Hozir ushbu ruknlarni mufassal tahlil etish mavridi emas. Faqat shunday muammoga aniqlik kiritib o'tish zarurki, ba' zi olimlar ayrim manbalarga tayangan holda, ta'limot shiorini «Dast ba koru dil ba yor» shaklida teskari qo'llamoqdalar. Mantiq va mohiyat nuqtayi nazaridan manbalarga ham

tanqidiy yondashgan ma'qul. Na zarimizda, «Dil ba yor» birlamchi. Chunki ko'ngilga Olloh muhabbatini muhrlamay turib, har qanday ishga qo'l urish yaxshi natija berishi qiyin. Dilga Tangri mehrini joylab qilingan ish rivojli, xayr-barakali bo'ladi.

Xo'ja Abduxoliq G'ijduvoniy ommani xilvatnishlikka chorlamagan, umrni mazmunsiz va faoliyatsiz kechirishga targ'ib etmagan. Aksincha, u insoniyatni mazmunsiz, maslaksiz hayotdan qaytarishga bel bog'lagan. Piri komil kishi xayolan Tangri bilan birga - botiniy xilvatda bo'lsa ham, jamiyatdan hamisha insonlar ichra zohiriy xilvatda bo'lishi lozimligini uqtirgan. «Xilvat dar anjuman» ruknining mohiyati shunday. Alisher Navoyi uni «Xilvatda bo'l - anjuman ichra bo'l» deya talqin etgan. XIX asr Xorazm adabiy muhitining yirik namoyandasi Shermuhammad Munis bu aqidani quyidagicha qo'llab-quvvatlaydi.

Xilvat qil anjuman arokim, shart emasdurur
O‘lturmog‘ing qirog‘da tutub go‘sha chil-chil.

Anglashiladika, haq birla ruhiy birlik hosil qilish uchun jamoatdan chetga chiqib, bir burchakda ruhan chil-chil sinib yashamoqlik shart emas ekan. Anjuman aro xilvatda bo'lish oqilonadir.

G'ijduvoniy «Safar dar vatan» ruknini ishlab chiqib, Haq yo'lidagi safarbarlikni ham ayricha hal etdi. Vatan ichra musofir bo'lish, ya'ni o'z yurtini tark etmaslik, aksincha, uni ardoqlash, obod qilish; o'z vatanida turiboq, dunyo va haqiqatni idrok etish Munisning ham sevimli aqidasiga aylandi. U bundan ijodida dastur sifatida foydalandi.

«Talabda har sori bo'lmoq musofir ermas shart»
Solik esang, vatan ichida qil safar mudom,
Behuda kezma shahr-bashahr, tarki sayr tut.

Bu satrlar Munis ijodiyotidagi vatanparvarlik g'oyalarining teran tomirlarini ko'rsatib turibdi. Xo'ja Abduxoliq G'ijduvoniy ta'limoti jahoniy shuhrat qozonishiga sabab uning umumbashariy mohiyat kasb etganidadir. G'ijduvoniy tariqati solikni jamiyatdan tamoman ajralib qolmasdan, zuhdu taqvoga butkul berilmasdan, tavakkul ixtiyor etib, xalq bilan birga bo'lish va o'z kuchi bilan halol mehnat qilishga da'vat etardi. Ushbu ta'limot talabi shunday ediki, solik mehnat jarayonida, suhbat va safarda zohiran xalq birla, botinan haq birla bo'lib, o'z tirikchiligi ta'minotini boshqalardan tilamay, o'z mehnati bilan qo'lga kiritsin. U eng halol va hurfikr maslak edi. Uning shartlariga shoh ham, darvesh ham rioya etish imkoniga ega bo'lgan. Bu ta'limot o'z mohiyatida dunyoviylik bilan ilohiylikni muvofiqlashtira olgan. Mazkur maslakdagi kishilar tirikchilik tashvishlari, san'atu hunar mashg'uloti, dunyo ne'matu mehnatlaridan qo'l uzmagan holda Olloh bilan do'stlashish baxtiga muyassar bo'lganlar. Xo'jagon va Naqshbandiyya ta'limoti shu jihatlari bilan xalqqa yaqin tarzda shakllangan,

elning barcha toifayu tabaqalari orasida keng yoyilgan. Bu maslakni qabul qilgan mashhur podshohlar: Amir Temur, Shohruh Mirzo, Mirzo Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muhamma Boburlarning surati shohu siyrati darvesh, Xo'ja Ahrori Vali, Abdurahmon Jomiy, Navoyi kabi mutafakkirlarning siyrati shohu surati darvesh bo'lgan. Xo' jayi jahon ta'limotining ana shu fozillari va fazilatlari uning nufuzini asrlar mobaynida jamiyatda saqlab kelmoqda.

O‘ZBEK, RUS VA INGLIZ MADANIYATLARIDA “BOYLIK” KONSEPTINING LINGVOMADANIY METAFORALARI

Muxtorova Barno Alisherovna,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

UO‘K 81'42

Annotatsiya. *Ushbu tezisda «boylik»konsepti o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi maqollar, iboralar hamda frazeologik birliklar misolida kognitiv-lingvistik va lingvomadaniy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Boylikning pul, mulk va moddiy farovonlik bilan bog‘liq yadroviy ma’nolari hamda salomatlik, bilim, yaxshi nom, do‘stlik, birlik va qanoatni ifodalovchi ma’naviy qatlamlari aniqlanadi. Uch tildagi umumiy konseptual metaforalar bilan bir qatorda, ularning milliy-madaniy xususiyatlari ochib beriladi. Tahlil natijasida «boylik»konsepti universal kognitiv asosga ega bo‘lsa-da, uning qadriyatga oid talqini har bir madaniyatda o‘ziga xos tarzda shakllanishi asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *konsept, kognitiv metafora, boylik, lingvomadaniyat, paremiya, frazeologizm, milliy dunyoqarash, moddiy qadriyat, ma’naviy boylik, qiyosiy tahlil.*

Аннотация. *В данной статье концепт «богатство» анализируется с когнитивно-лингвистической и лингвокультурологической точек зрения на материале пословиц, выражений и фразеологических единиц узбекского, русского и английского языков. Выявляются ядерные значения богатства, связанные с деньгами, имуществом и материальным благосостоянием, а также его духовные слои, выражающие здоровье, знания, доброе имя, дружбу, единство и удовлетворённость жизнью. Наряду с общими для трёх языков концептуальными метафорами раскрываются их национально-культурные особенности. В результате анализа обосновывается, что концепт «богатство», обладая универсальной когнитивной основой, приобретает своеобразную ценностную интерпретацию в каждой культуре.*

Ключевые слова: *концепт, когнитивная метафора, богатство, лингвокультура, паремия, фразеологизм, национальное мировоззрение, материальная ценность, духовное богатство, сравнительный анализ.*

Abstract. *This article examines the concept of wealth from cognitive-linguistic and linguocultural perspectives, based on proverbs, expressions, and phraseological units in Uzbek, Russian, and English. The core meanings of wealth associated with money, property, and material prosperity, as well as its spiritual dimensions represented by health, knowledge, a good reputation, friendship, unity, and contentment, are identified. Along with conceptual metaphors common to all three languages, their national and cultural specificities are explored. The analysis demonstrates that although the concept of wealth has a universal cognitive foundation, its value-based interpretation is shaped in a distinctive way within each culture.*

Keywords: *concept, cognitive metaphor, wealth, linguocultural, paremia, phraseologism, national worldview, material value, spiritual wealth, comparative analysis.*

Kognitiv lingvistikada *konsept* inson ongida muayyan voqelik haqida shakllangan bilim, obraz, hissiy munosabat va qadriyatlar majmuasini ifodalovchi ko‘p qatlamli mental tuzilma hisoblanadi. V. I. Karasik talqinida lingvomadaniy konseptning tushunchaviy, obrazli va qadriyatga oid tomonlari ajratiladi. Demak, “boylik” konsepti faqat pul yoki mulkning lug‘aviy ma’nosini emas, balki jamiyatning mehnat, farovonlik, obro‘, saxovat, qanoat va baxtga munosabatini ham qamrab oladi. J.Lakoff va M.Jonson asos solgan konseptual metafora nazariyasiga ko‘ra, metafora shunchaki badiiy bezak emas, balki bir tajriba sohasini boshqa soha orqali tushunishga xizmat qiluvchi kognitiv mexanizmdir. Bunda nisbatan aniq va hissiy qabul qilinadigan manba sohasi murakkab yoki mavhum nishon sohasini tushuntirish uchun qo‘llanadi. Masalan, *Money talks* “Pul gapiradi” birligida pul insonga xos nutq va ta’sir kuchiga ega agent sifatida

tasavvur qilinadi. Kognitiv metaforalar umuminsoniy tajribaga tayansa ham, ularning aniq tilda ifodalanishi ijtimoiy tarix, turmush tarzi va milliy qadriyatlar ta’sirida farqlanadi. Mavjud tadqiqotlarda “boylik” konsepti rus tili doirasida, rus va ingliz, nemis va ingliz kabi juftliklarda o‘rganilgan. Biroq o‘zbek, rus va ingliz paremiologik-frazeologik materialini yagona kognitiv va lingvomadaniy mezon asosida qiyoslash nisbatan kam amalga oshirilgan. Shuning uchun mazkur uch tilda boylikning moddiy va ma’naviy modellarini bir tizimda tadqiq etish muhim ilmiy ehtiyoj hisoblanadi. Tadqiqotda konseptual-semantik, kontekstual, qiyosiy-tipologik va lingvomadaniy tahlil usullaridan foydalanildi. Material sifatida o‘zbek, rus va ingliz maqollari, pul va boylik semantikasiga doir barqaror iboralar hamda frazeologizmlar tanlandi. “boylik” konseptining moddiy-iqtisodiy metaforalari uch tilda ham “boylik” konseptining yadrosini pul, mol-mulk, daromad, jamg‘arma va iqtisodiy imkoniyat tashkil etadi. Biroq moddiy boylik to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, turli obrazlar orqali konseptuallashtiriladi.

Birinchi umumiy model – *pul – kuch* va *faol agent* metaforasidir. Ingliz tilidagi *Money talks*, rus tilidagi *Когда деньги говорят, всё молчит* va o‘zbek tilidagi *Pul gapirar*, *Pul tilni biyron, dastni daroz qilar* birliklarida *pul* jonlantiriladi. U gapirish, odamlarni harakatga keltirish, ijtimoiy munosabatlarga ta’sir ko‘rsatish qobiliyatiga ega subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Metaforaning yashirin mazmuni shundaki, moddiy imkoniyat insonning ovozi, ta’sir doirasi va ijtimoiy maqomini kuchaytirishi mumkin. Biroq mazkur birliklarda pulning axloqiy emas, balki amaliy va hokimiyatga oid kuchi oldingi o‘ringa chiqadi.

Ikkinchi model – *pul – o‘z-o‘zidan ko‘payuvchi resurs* metaforasidir: inglizcha *Money begets money*, ruscha *Деньга на деньгу набегает*, o‘zbekcha *Pul pulni topar, yo‘l yo‘lni topar*. Bu misollarda pul tirik mavjudot yoki urug‘ kabi ko‘payish xususiyatiga ega deb tasavvur qilinadi. Model zamirida kapitalga ega shaxsning yangi iqtisodiy imkoniyatlarni qo‘lga kiritishi osonroq ekani haqidagi tajribaviy bilim yotadi. Mazkur qarash uchala madaniyatda ham iqtisodiy resursning takroriy ishlab chiqarish xususiyati anglanganini ko‘rsatadi.

Uchinchi model – *boylik – insonni o‘rab turuvchi modda yoki makon.* Ingliz tilida *to be rolling in money*, o‘zbek tilida *itining tuvagi oltindan*, rus tilida *купаться в деньгах* va *денег куры не клюют* kabi iboralar juda katta miqdordagi boylikni giperbolik ifodalaydi. Ingliz va o‘zbek birliklarida inson boylik ichida harakatlanayotgan subyekt sifatida tasvirlansa, rus iborasida pulning ko‘pligi hatto parranda ham cho‘qib tugata olmaydigan miqdor orqali ko‘rsatiladi. Demak,

umumiy semantik asos farovonlikning me’yordan ortiqligi; milliy farq esa tanlangan obrazlardadir.

Vaqt – pul metaforasi ham har uch tilda kuzatiladi: *Time is money*, *Время – деньги*, *Vaqt aqchadir, g‘ofil bo‘lma, qochadir*. Ingliz va rus variantlarida vaqt iqtisodiy resursga tenglashtirilsa, o‘zbek variantida ushbu metaforaga didaktik mazmun qo‘shiladi: vaqt nafaqat qimmat, balki tez o‘tib ketuvchi ne’matdir. Shu tariqa umumiy kognitiv model o‘zbek paremiyasida axloqiy ogohlantirish bilan boyitilgan. Mazkur misollar uch tilli paremiologik lug‘atlarda ham o‘zaro muqobil yoki funksional yaqin birliklar sifatida keltiriladi. Paremiologik material *boylik*ni faqat moliyaviy zaxira sifatida baholamaydi. Aksincha, uchala madaniyatda ham moddiy ne’matdan ustun qo‘yiladigan ma’naviy qadriyatlar mavjud. Bu holatni *salomatlik – boylik, obro‘ – boylik, bilim – boylik, do‘stlik – boylik va qanoat – boylik* konseptual modellari orqali ifodalash mumkin.

Ingliz tilida *Health is better than wealth*, rus tilida *Здоровье дороже богатства* yoki *Здоровье дороже денег*, o‘zbek tilida *Salomatlik – tuman boylik* maqollari salomatlikni eng muhim sarmoya sifatida baholaydi. Bu o‘rinda iqtisodiy leksika ma’naviy-fiziologik qadriyatni o‘lchash vositasiga aylanadi. “*Tuman boylik*” birikmasi esa salomatlikning miqdor bilan chegaralab bo‘lmaydigan ulkan qiymatini ta’kidlaydi.

Xuddi shunday, inglizcha *A good name is better than riches*, ruscha *Добрая слава лучше богатства* va o‘zbekcha *Yaxshi nom – boylikdan a’lo* maqollarida insonning ijtimoiy obro‘si mulkdan yuqori qo‘yiladi. Yaxshi nomni yo‘qotish moliyaviy zarardan og‘irroq deb baholanadi, chunki boylik qayta tiklanishi mumkin, ammo ishonch va obro‘ni tiklash murakkab jarayondir. O‘zbek paremiologik dunyoqarashida *qanoat* boylikning muhim ma’naviy mezonidir: *Qanoat – zo‘r boylik*. Unga ingliz tilidagi *The greatest wealth is contentment with a little* va rus tilidagi *Умей довольствоваться малым* mazmunan yaqin turadi. Bu birliklar boylik miqdori tashqi mulk bilan emas, inson ehtiyoji va ichki xotirjamligi o‘rtasidagi mutanosiblik bilan belgilanishini ko‘rsatadi.

Demak, mazkur metaforada boylik iqtisodiy ko‘plikdan psixologik yetarlilikka ko‘chiriladi. O‘zbek tilidagi *Boylik boylik emas, birlik boylik* maqoli jamoaviy hamjihatlikni asosiy sarmoya sifatida ko‘rsatadi. Rus tilidagi *Не имей сто рублей, а имей сто друзей* ham ijtimoiy aloqalarni puldan ustun qo‘yadi. Ingliz tilidagi *A friend in court is better than a penny in purse* maqoli esa ishonchli ijtimoiy munosabat ba’zan naqd puldan samaraliroq ekanini bildiradi. Bu

misollarda do‘stlik va birlik zamonaviy termin bilan aytganda ijtimoiy kapital sifatida metaforalashtiriladi.

Tahlil qilingan o‘zbek paremiyalarida boylik ko‘proq *birlik, qanoat, salomatlik, yaxshi nom va halol mehnat* bilan axloqiy jihatdan muvofiqlashtiriladi. *Boylik, boylik tubi – o‘g‘irlik* maqoli boylikning o‘ziga emas, uning shubhali yo‘l bilan to‘planishiga nisbatan tanqidiy munosabatni bildiradi. *Pul bo‘lsa, changalda sho‘rva* esa pulning amaliy imkoniyatini tan olsa-da, boylikni mutlaq axloqiy qadriyat darajasiga ko‘tarmaydi.

Rus paremiologik materialida boylikning ikki yoqlama bahosi kuchli ko‘rinadi. Bir tomondan, pul imkoniyat va ijtimoiy ta’sir vositasi: *Когда деньги говорят, всё молчит*. Ikkinchi tomondan, *Не в деньгах счастье, Добрая слава лучше богатства, Не имей сто рублей, а имей сто друзей* kabi maqollar pulning axloqiy chegaralarini belgilaydi. *Бросать деньги на ветер* frazeologizmi esa pulni shamolda yo‘qoluvchi yengil modda sifatida tasvirlab, isrofgarchilikni qoralaydi. Rus frazeologiyasidagi boylik obrazlari ijtimoiy tengsizlik, omad va pulning beqarorligi bilan ham bog‘lanadi.

Ingliz paremiologik dunyoqarashida esa boylikning iqtisodiy samaradorlik, vaqt, mehnat, investitsiya va shaxsiy tashabbus bilan bog‘liq jihatlari nisbatan faol. *Time is money, Money begets money, Money does not grow on trees* kabi maqollar resurslardan oqilona foydalanish va boylik mehnatsiz paydo bo‘lmasligini ta’kidlaydi. *To be born with a silver spoon in one’s mouth* frazeologizmi boylikni avloddan o‘tuvchi imtiyoz sifatida ifodalaydi. Shu bilan birga, *Money is a good servant but a bad master* maqoli iqtisodiy manfaat insonni boshqaruvchi kuchga aylanmasligi kerakligini ta’kidlab, boylikka nisbatan axloqiy cheklov o‘rnatadi. Ingliz maqollarining nufuzli lug‘atlarida iqtisodiy manfaat bilan axloqiy mas’uliyat o‘rtasidagi mazkur qarama-qarshilik keng ifodalangan. Shuni ta’kidlash lozimki, keltirilgan farqlar har bir millat vakiliga xos o‘zgarmas psixologik belgi emas. Ular tarixiy davrlarda shakllangan paremiologik-frazeologik fondda qaysi qadriyatlar ko‘proq tilga olinganini ko‘rsatuvchi umumiy tendensiyalardir.

Qiyosiy tahlil “boylik” konseptining uch tilda umumiy kognitiv yadrosi mavjudligini ko‘rsatdi. Ushbu yadro pul, mulk, farovonlik va imkoniyat tushunchalaridan tashkil topadi. *Pul – kuch, pul – jonli agent, pul – ko‘payuvchi resurs, boylik – modda yoki makon, vaqt – pul* modellari uchala tilda turli shakllarda voqelanadi. Ayni vaqtda, konseptning qadriyatga oid periferiyasi milliy-madaniy xususiyatlarni yuzaga chiqaradi. O‘zbek paremiyalarida qanoat,

birlik, salomatlik va yaxshi nom; rus materialida do‘stlik, obro‘, axloqiy mas’uliyat va pulning ijtimoiy ta’siri; ingliz birliklarida esa vaqt, mehnat, iqtisodiy samaradorlik va shaxsiy tashabbus ko‘proq faollashadi. Biroq uchala madaniyatning umumiy xulosasi bitta: moddiy boylik inson hayotining muhim vositasi, ammo uning oliy maqsadi emas.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati «boylik»konseptini universal kognitiv sxema milliy-madaniy profil modeli asosida izohlashdan iborat. Keyingi bosqichda mazkur natijalarni zamonaviy matbuot, ijtimoiy tarmoq va badiiy matnlar korpusi asosida tekshirish, shuningdek, uch til sohiblari ishtirokida assotsiativ tajriba o‘tkazish muhim tadqiqot ehtiyoji hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.

2. Kövecses Z. *Metaphor: A Practical Introduction*. – Oxford: Oxford University Press, 2002.

3. Kövecses Z. *Metaphor in Culture: Universality and Variation*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005.

4. Карасик В.И. *Языковой круг: личность, концепты, дискурс*. – Москва: Гнозис, 2004.

5. Маслова В.А. *Лингвокультурология*. – Москва: Академия, 2001.

6. Karamatova K.M., Karamatov H.S. *Proverbs – Maqollar – Пословицы*. – Toshkent: Mehnat, 2000. – 400 b.

7. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. *Hikmatnoma: o‘zbek maqollarining izohli lug‘ati*. – Toshkent: O‘zbek sovet ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1990.

8. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. *O‘zbek xalq maqollari*. – Toshkent: Sharq, 2003. – 512 b.

9. Молотков А.И. tahriri ostida. *Фразеологический словарь русского языка*. 4-nashr. – Москва: Русский язык, 1986.

10. Speake J. *The Oxford Dictionary of Proverbs*. 6th ed. – Oxford: Oxford University Press, 2015.

11. Грачева Е.А. Анализ концепта «богатство» на материале русскоязычных и англоязычных пословиц и поговорок // *Язык и текст*. – 2017. – Т. 4. – № 3. – С. 129–138.

12. Мендешева М.М. Первопризнаки концептов «богатство» и *wealth* в русской и английской языковых картинах мира // *Вестник Кемеровского государственного университета*. – 2021. – Т. 23. – № 4. – С. 1060–1066.

O‘ZBEK TILIDA QULOQQA TAQILADIGAN ZARGARLIK ZEB – ZIYNAT BUYUMLARI NOMLARI

Pardaeva Izzat Xolbo‘tayevna,
Dotsent, GulDU
Izzatoy.pardaeva@gmail.com

UO‘K 81'42

Annotatsiya

Zargarlik san’ati milliy – nafis madaniyat tarixining ajralmas qismi bo‘lib, u xalqning olis o‘tmishdagi oliy maqsadlarini o‘rganishga yordam beradi.

Zargarlik ziynat buyumlari hunar egalarining mahoratidan, ma’lum davr iqtisodiy va ijtimoiy shart – sharoitlardan, ma’dan va toshlarga ishlov berish texnikasidan hikoya qiladi. Zargarlar yasagan buyumlar ular yashagan davr zargarlik san’atining uslubiy xususiyatlarini o‘zlarida namoyon etadi.

Kalit so‘zlar: *Zargarlik zeb – ziynat buyumlari, sirg‘a, zirak, zira, boldoq, zirix, oviza, go‘shvora, halqa.*

Annotation

Jewelry is an integral part of the history of national and refined culture, which helps to study the lofty goals of the people in the distant past.

Jewelry tells about the skill of craftsmen, the economic and social conditions of a certain period, and the techniques of processing minerals and stones. The products made by jewelers reflect the stylistic features of the jewelry art of the era in which they lived.

Keywords: jewelry, *Jewelry - ornaments, earrings, bracelets, rings, bangles, necklaces, earrings, rings, rings.*

Аннотация

Ювелирные изделия являются неотъемлемой частю истории националной и утонченной културы, помогая изучат высокие сели народов далекого прошлого. Ювелирные изделия рассказывают о мастерстве ремесленников, экономических и социалных условиях определенного периода, а также о техниках обработки

минералов и камней. Изделия, созданные ювелирами, отражают стилистические особенности ювелирного искусства той эпохи, в которой они жили.

Ключевые слова: *Ювелирные изделия - украшения, серги, браслеты, ожереля, колса*

Zargarlik zeb – ziynat buyumlari milliy – badiiy madaniyat tarixining ajralmas qismi bo‘lib, u xalqning olis o‘tmishdagi olis maqsadlarini o‘zida mujassamlashtirgan. Zargarlik ziynat buyumlari hunar egalarining mahoratidan ma’lum iqtisodiy va ijtimoiy shart – sharoitlardan, ma’dan va toshlarga ishlov berish texnikasidan hikoya qiladi. Zargarlar yasagan buyumlar ular yashagan davr san’atining uslubiy xususiyatlarini o‘zlarida namayon etadi. Shunindek, zargarlik zeb – ziynat buyumlarining hayotdagi ijtimoiy – iqtisodiy o‘rni ham anchagina sezilarli. Insonning jamiyatdagi mavqeini ham ko‘pincha uning qimmatbaho zargarlik buyumlari borligiga qarab belgilaganlar. Taqinchoqlar kishilar yoshidagi farqni va oilaviy ahvolini belgilash uchun xizmat qilib, ularning nasl – nasabidan nishona berib turuvchi xususiyatga ega bo‘lgan. Boz ustiga, qimmatbaho matolardan yohud ular aralashmasidan tayyorlangan taqinchoqlar kishilar salomatligini bir me’yorda saqlab turish uchun ham xizmat qilgan. Nihoyat, ularning nafosat borasidagi fazilatlaridan so‘zlaydigan bo‘lsak, u zargarlarning yurak qo‘ri bilan yaratilgan mukammal asar bo‘lib, u yoki bu davrda yashagan xalqlarning badiiy nafosat haqidagi tushunchalarini o‘zida aks ettirgan.

Demak, mazkur san’at misolida odamlarning ham moddiy, ham nafosat olami, ham ilohiy qudrat haqidagi tasavvurlarining bir – biri bilan uzviy ravishda chirmashib ketgani ko‘rinadi.

Mana shu asnoda o‘zbek tilida qadimdan zargarlik buyumlarining jamini ifodalovchi terminologik tizim tarkib topib kelgan. Davr, fan va texnika, ishlab chiqarish, madaniy – maishiy hayotdagi o‘zgarishlar taqozosi bilan mazkur terminologik tizim hamisha boyib keldi.

Mehnat jarayonida yuzaga kelgan va ijtimoiy hodisalardan sanalgan til kishilik turmushini har taraflama va keng suratda o‘zida aks ettirdi.

Kasb– hunarga oid terminlar o‘sha xalqning ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi jamoaning o‘zaro aloqasi, fikr almashishi natijasida yuzaga kelgan. Kasb–hunar leksikasining bir tarmog‘i bo‘lgan zargarlik terminlari ham uzoq o‘tmishga borib taqaladi.

Muzeylarda saqlanayotgan va hozirgi kunda turli joylardan topilgan qadimiy zargarlik ziynat buyumlari namunalarining tuzilishi, badiiy naqsh kompozitsiyasining xilma – xilligi, ularni yasashda ishlatiladigan mehnat qurollari – bularning barchasi ularning maxsus terminlar bilan atalganligi, birinchidan, zargarlik zeb – ziynat buyumlarining, ularni yasovchi zargarlar san'atining tarixiy taraqqiyotini yoritishga yordam bersa, ikkinchidan, zargarlik buyumlarining uzoq davrlardan beri qo'llanib kelinayotganligini tasdiqlaydi.

Jamiyatdagi barcha voqea – hodisalar, narsa – predmetlar bir – biridan farq qilishi yoki bir – biriga o'xshashligi bilan ajralib turadi va shunga muvofiq ravishda ularning har qaysisi ma'lum bir guruhni tashkil qiladi. Huddi shunday guruhlarga ajratish tilga ham tadbiq qilingan. Lingvistik nuqtai nazardan qaraganda, har bir sohaga oid terminlar ma'lum guruhlarga birlashib tilning terminologik tizimlaridan birini tashkil etadi. O'z navbatida, bu tizim muayyan guruhlardan, boshqacha aytganda, tematik guruhlardan iborat bo'ladi.

Inson mehnat faoliyati bilan aloqador bo'lgan har qanday kasb o'tmishda ham, hozir ham o'z terminologiyasini yaratgan va yaratib keladi. Umumiste'moldagi istalgan so'z kasb – kor, soha doirasida maxsus ma'noga ega bo'lishi, termin ma'nosini anglatishi, termin vazifasini bajarish mumkin. Chunonchi, uzuk, bilaguzuk, zirak umumiste'molda oddiy so'z, ammo zargarlar tilida termindir.

Shunga ko'ra, o'zbek tili leksikasining eng qadimiy qatlamlaridan bo'lmish (inson o'zini go'zal qilib ko'rsatish maqsadida foydalanadigan) zargarlik terminlari, ya'ni zargarlik zeb-ziynat buyumlari, ularning qismlari, asbob-uskunalari va nihoyat, ularni yasaydigan, sayqal beradigan kasb-kor egalari terminlarini tematik jihatdan guruhlarga ajratish mumkin.

Zargarlik zeb – ziynat buyumlari miqdori unchalik ko'p emas, lekin ularning har birining o'nlab turlari, xillari mavjud. Hozirgi O'zbekiston hududida zeb – ziynat buyumlari, taqinchoqlar qachon kelib chiqqanligini aniqlashning imkoni yo'q. Ma'lum bo'lishicha, neolit davridayoq (miloddan avvalgi IV asr oxiri, III asr boshi) tosh va chig'anoqlardan turli shakldagi munchoq va shokilalar tayyorlash keng tarqalganligi haqida ma'lumotlar bor[1].

[1] Абдуллаев Т., Фахриддинов Д., Ҳакимов А. Маъданга битилган қўшиқ. – Тошкент, 1986, 141 – бет.

Zargarlik san’ati milliy – nafis madaniyat tarixining ajralmas qismi bo‘lib, u xalqning olis o‘tmishdagi oliy maqsadlarini o‘rganishga yordam beradi.

Zargarlik ziynat buyumlari hunar egalarining mahoratidan, ma’lum davr iqtisodiy va ijtimoiy shart – sharoitlardan, ma’dan va toshlarga ishlov berish texnikasidan hikoya qiladi. Zargarlar yasagan buyumlar ular yashagan davr zargarlik san’atining uslubiy xususiyatlarini o‘zlarida namoyon etadi.

Zargarlik zeb – ziynat buyumlari nomlarining tematik guruhini ko‘rib chiqishdan avval, zargarlik zeb – ziynat buyumlarining jamini ifodalovchi, ya’ni umumiy nomi haqida fikr yuritmoqchimiz. Zargarlik zeb – ziynat buyumlari majmuini ifodalovchi umumiy nomlar xalq tilida zeb – ziynat buyumlari, bezak buyumlari, taqinchoq, ziynat, zevar terminlari bilan yuritiladi. Shuni aytib o‘tish kerakki, bu terminlar faqat insonni go‘zal qilib ko‘rsatish maqsadida qo‘llanadigan buyumlarni anglatadi. Masalan, uy – ro‘zg‘orni bezash uchun zardo‘zlar tikadagan zardevor, sandalpo‘sh, gulko‘rpa kabi terminlar bezak buyumlariga va o‘sha narsalarni bezash uchun tikilgan turli xil naqsh, kashta, gul turlariga nisbatan ham ishlatiladi. Zargarlik zeb – ziynat buyumlari umumiy nomini ifodalovchi bunday terminlar o‘zbek tili zargarlik terminologiyasida sinonimik qator hosil qilgan.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, zargarlik zeb – ziynat buyumlari inson (asosan xotin - qizlar)ni xusndor, chiroyli qilib ko‘rsatishga xizmat qiladi. Mana shu maqsad uchun bunday buyumlar kishilarning turli tana a’zolariga taqiladi. Zargarlik zeb – ziynat buyumlari kishilarning masalan, barmog‘i, qulog‘i, bo‘yni, peshonasi, chakkasi, sochi, qo‘ltig‘i, ensasi, burni, beli, oyog‘i kabi tana a’zolarini bezash uchun «xizma qiladi». Tabiiyki, har qaysi tana a’zolariga taqiladigan zeb – ziynat buyumlari o‘zlarining maxsus atamalariga egadir. Mana shu asnoda zargarlik zeb – ziynat buyumlari nomlarini yana qo‘l, barmoq, qo‘ltiq, chakka va hokazo tana a’zolariga taqiladigan buyum nomlari tarzida yana kichikroq guruhlariga ajratish mumkin. Shunga ko‘ra, quyida mana shu kichik guruhlarga kiradigan terminlar haqida fikr yutirishni lozim deb topdik.

Ma’lumki, quloqqa faqat bitta zargarlik buyumi taqiladi. Biroq ona tilimizda, xususan, shevalarda bu buyum xilma – xil nom bilan yuritiladi. Sirg‘a, zirak, zira, boldoq, halqa shular jumlasidandir. Tilimiz tarixiga murojaat qilinar ekan, unda sirg‘a ma’nosida ko‘pa («Devon»), sizg‘a – sizqa («Attuhfa») kabilar qo‘llanganligiga ishonch hosil qilish mumkin. A.Navoiy asarlarida esa isirg‘a (Oltun isirg‘aki, quloq og‘ritur, Zarhal o‘tikdurki oyog‘ og‘ritur. «Hayratul abror», 40 – bet), zirix (Ujb ila qoshi uchida girix, O‘ylaki, har yon qulog‘ida

zirix. Hayratul abror), oviza, go‘shvora, halqa singari sinonimlar bilan ham ifodalangan. Ma’lum bo‘ladiki, sirg‘a ham boshqa zargarlik zeb – ziynat buyumlari kabi juda qadimdan bezak sifatida ishlatilgan ekan.

Mazkur kichik tematik guruhga kiruvchi sirg‘a o‘zining rang – barangligi, shaklining xilma – xilligi bilan ajralib turadi. Tabiiyki, bularnning barchasi maxsus terminlarda o‘z ifodasini topgandir. Bunday terminlar qatoriga sirg‘a tayyorlangan joy, uni yasash uchun asos bo‘lgan material nomlari ham kiradi. Masalan, toshkanboldoq[1] (rang-barang toshlar, yaltiroq shishalar va sadaf bilan bezatilgan bo‘ladi), turkistonboldoq[2] (bunday nuxsani avval Turkiston zargarlari yasab urf qilgan), qashqarboldoq (aslida Qashqar zargarlari tomonidan g‘oyat hashamdor, nozik qilib yasalgan) kabilar joyga nisbatan berish orqali ifodalangan. Kumush sirg‘a, tilla sirg‘a singarilarni ifodalash uchun esa sirg‘ani yasashga asos bo‘lgan material nomidan foydalanilgan.

Mana shu tahlitda yaratilgan va mazkur kichik tematik guruhga yana quyidagi nomlar kiradi: uchkokilli sirg‘a (ikki chetida bittadan ikkita qisqa, o‘rtasida bitta uzun kokili bo‘ladi, kokillari mayda g‘uppachalarni nozik simlar bilan tutashtirib yasaladi), yetti kokilli sirg‘a (tanasida yettita kokili bor), aravaboldoq[3] (XIX asrda urf bo‘lgan sirg‘a turi. Qismlari band, shaldiroqdan, shildirog‘i shishadan, tanasi panjara va g‘uppachadan iborat), anjirboldoq (tanasi bir necha mayda bo‘laklardan, huddi ochilib turgan konvert shaklida, ammo panjara – panjara qilib yasaldi. Panjaraning yuzida anjir tahlit donachalar o‘rnatilganidan shu nomni olgan), zulukzirak (zuluk formasida yasalgan zirak). Buning yangi chiqqan oy nusxasida ishlangan yana bir turi oyboldoq deb ataladi. Kanazirak[4] (tanasi ko‘zxonali bo‘lib, unga kattaroq rangli tosh yoki shishadan ko‘z o‘rnatilgan, shokilasiz), jiydali boldoq, jiydasiz boldoq, kokilli zulukzirak, kokilsiz boldoq yoki quruq boldoq, uy zirak, qoziq sirg‘a, shibirma, yulduzli sirg‘a, qo‘ng‘iroqli sirg‘a, g‘alvirak zirak va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda o‘zbek tilida quloqqa taqiladigan zargarlik zeb-ziynat buyumlari nomlari ham katta bir qismni tashkil qiladi. Ularni to‘plash va tahlil qilish tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biridir.

---

[1] Toshkentda oyna sirg‘a, Andijonda aynakli zira, Marg‘ilonda zilzilaboldoq deyiladi.
[2] Andijonda turkiston zira deyiladi.
[3] Namangan zargarlari asli arabiboldoq bo‘lsa kerak deyishadi.
[4] Andijonda tatrcha zira, yumaloq zira deb yuritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Турсунова Т. Меъморчилик терминларининг лексик-грамматик тадқиқи . Тошкент, 1987.

2. Фахриддинова Д. Ювилерное искусство Узбекистана.-Тошкент, 1988.

3. Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-ҳунар лексикаси. – Тошкент, 1959.

4. Аттуҳфатуз Закияту филлуғатит туркия.-Тошкент, 1972.

5. Кошғарий М. Девону луғотит турк. I-III. - Тошкент, 1960,1963

TURSUNBOY ADASHBOYEV SHE'RIYATIDA VATAN VA MILLIY QADRIYATLAR TASVIRI

Umarova Zarnigor Tohir qizi,
Buxoro davlat universiteti magistranti
Email: umarovazarnigor952@gmail.com

UO'K 81'42

Annotatsiya: *Maqolada zamonaviy o'zbek bolalar she'riyatining yetakchi vakillaridan biri Tursunboy Adashboyev ijodida Vatan tushunchasi va milliy qadriyatlarning badiiy talqini o'rganiladi. Tadqiqot shoirning "Kamolning olmasi", "Jo'nataman quyoshni", "Oqbura to'lqinlari", "Arslonbob afsonasi" kabi to'plamlaridagi she'rlar tahlili asosida olib borilgan. Ishda Vatan mavzusi shoir she'riyatida balandparvoz shiorlar orqali emas, balki ona qishloq, tabiat, oila, mehnat, til va xalq an'analari tasviri vositasida namoyon bo'lishi asoslanadi. Shuningdek, oila, mehnatsevarlik, mehmondo'stlik, milliy kiyim-musiqa va folklor an'analarining she'rlarda aks etish xususiyatlari yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *bolalar she'riyati, Vatan tasviri, milliy qadriyatlar, ona tabiat, xalqonalik, badiiy detal, vatanparvarlik tarbiyasi.*

Аннотация: *В статье исследуется художественная интерпретация понятия Родины и национальных ценностей в творчестве Турсунбоя Адашбоева, одного из ведущих представителей современной узбекской детской поэзии. Исследование проведено на основе анализа стихотворений из таких сборников поэта, как «Яблоко Камола», «Отправляю солнце», «Волны Окбуры», «Легенда Арсланбоба». В работе обосновывается, что тема Родины раскрывается в поэзии автора не через громкие лозунги, а посредством изображения родного села, природы, семьи, труда, языка и народных традиций. Также освещаются особенности отражения в стихах семьи, трудолюбия, гостеприимства,*

национальной одежды и музыки, а также фольклорных традиций.

Ключевые слова: *детская поэзия, образ Родины, национальные ценности, родная природа, народность, художественная деталь, патриотическое воспитание.*

Annotation: *The article examines the artistic interpretation of the concept of the Homeland and national values in the works of Tursunboy Adashboyev, one of the leading representatives of modern Uzbek children's poetry. The study is based on an analysis of poems from the poet's collections such as "Kamol's Apple," "Sending the Sun," "The Waves of Oqbura," and "The Legend of Arslonbob." The article demonstrates that the theme of the Homeland is expressed in the poet's work not through lofty slogans, but through depictions of the native village, nature, family, labor, language, and folk traditions. It also highlights how family, industriousness, hospitality, national clothing and music, and folklore traditions are reflected in the poems.*

Keywords: *children's poetry, image of the Homeland, national values, native nature, folk spirit, artistic detail, patriotic upbringing.*

Kirish

Bolalar adabiyoti yosh avlodning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantiruvchi muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, Vatanga muhabbat va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini bolalarda tarbiyalashda badiiy so'zning o'rni beqiyosdir. O'zbek bolalar she'riyatining yetakchi namoyandalaridan biri Tursunboy Adashboyev ijodi ana shu jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi.

Tursunboy Adashboyev 1939-yilda Qirg'iziston Respublikasining O'sh viloyatiga qarashli Olabuqa tumanidagi Safed Bulon qishlog'ida tug'ilgan. U ilk badiiy tajribalarini o'n ikki-o'n uch yoshlaridayoq boshlagan, keyinchalik Toshkent davlat universitetida (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) tahsil olgan davrida birinchi she'riy to'plami – "Kamolning olmasi" nashr etilgan. Shoir so'ngra Moskvadagi Oliy Adabiyot institutida bilim oshirib, jahon bolalar adabiyoti namunalari bilan yaqindan tanishgan. Adabiyotshunoslikda uni

Mirtemir va Qudrat Hikmat singari ustozlarning shogirdi sifatida tilga olishadi, o‘zi ham bir necha avlod yosh ijodkorlarga homiylik qilgan.

Ikki qardosh xalq – o‘zbek va qirg‘iz muhitida voyaga yetgani shoir ijodiga o‘ziga xos tus bergan: u qirg‘iz tilidan o‘zbekchaga badiiy tarjima bilan ham shug‘ullangan, shu boisdan adabiyotshunoslikda “ikki xalq farzandi” sifatida ta’riflanadi. Uning “Kamolning olmasi”, “Biz sayohatchilar”, “Olatog‘lik bo‘laman”, “Surnay”, “Arslonbob sharsharasi”, “Oqbura to‘lqinlari”, “Uch baqaloq va sirli qovoq”, “Orzularim – qo‘sh qanotim”, “Oltin yolli tulpor”, “Latifboyning loflari” kabi to‘plamlarining aksariyati ona diyorga va tabiat go‘zalligiga bag‘ishlangan.

Adabiyotshunos Safo Matjon shoir ijodidagi tabiat manzaralari aslida Vatan manzaralari ekanini, shoir o‘quvchida tabiatga mehr uyg‘otish orqali Vatanga muhabbat tuyg‘usini kuchaytirishini ta’kidlaydi. Rahmatulla Barakayev va Baxshillo Ashurov ham o‘z tadqiqotlarida Adashboyev she’riyatidagi tabiat tasvirining vatanparvarlik mavzusi bilan chambarchas bog‘liqligini alohida ko‘rsatib o‘tishadi. Bunday qarashlar mavzuning dolzarbligini, ya’ni shoir ijodida Vatan va milliy qadriyatlar tasvirining alohida, tizimli tadqiqot ob’ekti bo‘lishi lozimligini asoslaydi.

Maqolaning maqsadi – T. Adashboyev she’riyatida Vatan mavzusining badiiy ifoda shakllarini hamda milliy qadriyatlarning tasvirlanish xususiyatlarini aniqlash va tizimlashtirishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi: shoir she’rlaridagi Vatan obrazining asosiy ko‘rinishlarini aniqlash; milliy qadriyatlarning qaysi mavzuiy yo‘nalishlarda aks etganini tasniflash; shoirning bu mazmunni bolalarga yetkazishda foydalangan badiiy vositalarini tahlil qilish.

Metodologiya

Tadqiqotda badiiy matn tahlili (close reading), qiyosiy-tipologik tahlil hamda tavsiflash usullaridan foydalanildi. Tahlil uchun material sifatida T. Adashboyevning “Vatan – Ona”, “Sarichelak”, “Toldi buloq”, “Chilla chiqib”, “Bahor tushib kelar tog‘dan”, “Jo‘nataman quyoshni”, “Shanbalik”, “Ko‘nglim o‘sar tog‘dayin”, “Oq qalpoq”, “Yasha, rahmat!”, “Aldarishmoq”, “G‘oz karnaychi bo‘lmasin”, “O‘sh”, “O‘zimizning chumoli”, “Onajonim” kabi she’rlari jalb etildi. Shuningdek, mazkur she’rlarga bag‘ishlangan adabiy-tanqidiy va ilmiy manbalar (Matjon, Barakayev–Ashurov, Jamilova, Jumaboyev, Xamrakulova tadqiqotlari) qiyosiy tahlil uchun asos bo‘ldi. Tasnif ishida she’rlar

mazmuniy yo‘nalishi bo‘yicha ikki katta guruhga – Vatan tasviri va milliy qadriyatlar tasviriga ajratildi, har bir guruh ichida esa kichikroq mavzuiy kichik bo‘limlar ajratildi.

Natijalar va tahlil

1. Vatan tasvirining badiiy shakllari

1.1. Vatan – ona va muqaddas makon

Adashboyev ijodida Vatan tushunchasi, avvalo, insonning tug‘ilib-o‘sgan, ulg‘aygan va ma’naviy shakllangan muqaddas makoni sifatida talqin etiladi. “Vatan – Ona” she’rida Vatan ona, qutlug‘ xona va pok ostona obrazlari bilan qiyoslanadi, natijada Vatan tushunchasi mavhum hudud emas, balki bolaga yaqin, jismoniy his qilinadigan tuproq va uy timsolida gavdalanadi. Ushbu she’rning boshlang‘ich sinf “Odobnoma” darsligining “Ona Vatan” bo‘limiga kiritilgani uning tarbiyaviy-amaliy ahamiyatini yaqqol ko‘rsatadi.

1.2. Vatan – tabiat va tarixiy makon

Shoir uchun Vatan tabiatdan ajralgan holda mavjud emas. “Sarichelak” she’rida tog‘, ko‘l, archa, kiyik, qulon va tog‘ asali obrazlari orqali Olatog‘ manzarasi chiziladi; “Toldi buloq”da esa to‘rg‘ay, sug‘ur, chigirtka kabi jonzotlar milliy musiqa asboblari – nay va dutor timsollari bilan uyg‘unlashtiriladi. Barakayev va Ashurovning tadqiqotida ko‘rsatilishicha, “Chilla chiqib” she’rida qish manzarasi archa daraxtlarini shamol sochini taruvchi jonli mavjudotga aylantiruvchi jonlantirish san’ati orqali, “Dur sochildi tog‘larga” va “Bulutlar yig‘lar” she’rlarida esa bahor yomg‘iri kelinchak sirg‘asi va gavharga o‘xshatilishi orqali tasvirlanadi. Tadqiqotchilar bunday o‘xshatish va jonlantirishlarni shoirning Ona-Vatan tabiatini bolalar tasavvuriga yaqinlashtirishning o‘ziga xos badiiy usuli sifatida baholaydi.

Shoir she’riyatida Vatan tarixiy-madaniy makon sifatida ham namoyon bo‘ladi. “O‘sh” she’rida shoir tug‘ilib o‘sgan shahri tarixi, Oqbura daryosi, Baroko‘h tog‘i va u yerdagi “Uch pahlavon” singari tarixiy-afsonaviy yodgorliklarga murojaat qiladi. Barakayev va Ashurov tahliliga ko‘ra, she’rda Zahiriddin Muhammad Bobur davridan qolgan “Oq saroy” yodgorligining saqlanmay qolgani haqidagi hasrat orqali shoir tarixiy meros va milliy qadriyatlarga bo‘lgan g‘amxo‘rlik zarurligini nozik ishoralar vositasida ifodalagan. Bu esa Vatan tushunchasining shoir ijodida nafaqat tabiat go‘zalligi, balki tarixiy xotira va ajdodlar merosini asrash mas’uliyati bilan ham bog‘liqligini ko‘rsatadi.

1.3. Vatan – sog‘inch va oilaviy xotira

“Jo‘nataman quyoshni” she’rida Vatanga munosabat uzoqda yurgan bolaning oilasini sog‘inishi orqali ifodalanadi: ota, ona, buvi, uka, qo‘shnilar, uy-ro‘zg‘or va qishloq hayoti bola xotirasida jonlanadi. Adabiy tahlillarda bu she’rda shoir ijodiga xos psixologizm va milliy ruh ayniqsa yaqqol namoyon bo‘lishi qayd etiladi. “O‘zimizning chumoli” she’rida esa nevarasiga ona qishloqdan meva-cheva olib kelgan bobo va undagi kichik bir chumoli obrazi orqali Vatan tuprog‘ining hatto eng arzimas zarrasi ham qadrli ekani ta’kidlanadi. Shu tariqa Vatan tushunchasi davlat yoki siyosiy shior shaklida emas, balki uyda non yopayotgan ona, ayvonda o‘tirgan buvi va kundalik qishloq hayoti tasvirlari orqali beriladi.

2. Milliy qadriyatlarning tasvirlanish yo‘nalishlari

2.1. Oila va avlodlar davomiyligi

Shoir she’rlarida ona, ota, buvi, bobo, tog‘a va qo‘ni-qo‘shnilar obrazlari muhim o‘rin egallaydi. “Onajonim” she’rida onaning mehnati, buvining belbog‘ tikishi va xalq dostonlarini yoddan aytishi kabi lavhalar beriladi; xususan, “Kuntug‘mish” dostonining kechqurunlari o‘qilishi xalq og‘zaki ijodi bilan oilaviy xotiraning uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bunday tasvirlarda milliy qadriyatlar quruq nasihat emas, balki onaning farzandga g‘amxo‘rligi, ota roziligini olish, ajdodlar hikoyasini eslab yurish kabi hayotiy detallar orqali singdiriladi.

2.2. Mehnatsevarlik va hashar

“Shanbalik” she’rida o‘quvchilarning bog‘bonlarga hasharda yordam berishi, daraxtlarni oqlashi tasvirlanadi. Barakayev va Ashurov ta’kidlashicha, shoir bu she’rda Sho‘ro davrida rasmiylashtirilgan an’anaviy tadbirdan ham chinakam go‘zallik va yaratuvchilik mazmunini topa oladi: bolakay nazarida oqlangan daraxtlar go‘yo yangi kiyim kiygan odamga aylanadi. Shu orqali hashar xalqimizga xos jamoaviy mehnat, hamjihatlik va obodonchilik an’anasi sifatida talqin etiladi, mehnat esa go‘zallik yaratuvchisi ekani uqtiriladi.

2.3. Mehmondo‘stlik va qo‘shnichilik

“Ko‘nglim o‘sar tog‘dayin” she’rida yaylov hayoti, cho‘ponlar mehmondo‘stligi, qimiz, dasturxon va jamoaviy mehnat tasvirlanadi. Bu she’rda yaylov shunchaki tabiat manzarasi emas, balki xalqning yashash tarzi, mehmon kutish odati va chorvachilik madaniyati mujassam bo‘lgan milliy makon sifatida gavdalanadi.

2.4. Milliy kiyim, musiqa va xalq o‘yinlari

“Oq qalpoq” she’rida oq qalpoq qirg‘iz xalqining tarixiy-madaniy ramzi sifatida tasvirlanib, o‘zbek do‘ppisiga qiyoslanadi; bu orqali ikki qardosh xalqning milliy belgilariga o‘zaro hurmat ifodalanadi. “Yasha, rahmat!” she’rida do‘ppi, to‘n, chirmanda, rubob, nay kabi unsurlar, “Aldarishmoq” she’rida esa xalqona polvonlar bellashuvi bolalar hayoti va quvonchi bilan bog‘lanadi.

2.5. Folklor va xalq og‘zaki ijodi an’analari

“G‘oz karnaychi bo‘lmasin” she’rida qarg‘a, chumchuq, g‘oz va o‘rdak kabi qushlar xalq ertaklariga xos yumor va dialog vositasida jonlantiriladi. Bunday she’riy ertaklar xalq og‘zaki ijodi an’analariga tayanib, bolalarga yaxshilik va yomonlikni farqlashda yordam beradi. Adabiyotshunos Salim Ashur bunday asarlarni bolaning bolalikdan balog‘atga o‘tishidagi ruhiy bog‘lovchi vosita sifatida baholaydi.

2.6. Ona tiliga munosabat

Adashboyev she’riyatining milliyligi, avvalo, uning tilida namoyon bo‘ladi. Shoir xalqona iboralar, mahalliy so‘zlar va milliy turmush predmetlariga oid nomlardan – “patir”, “qimiz”, “dutor”, “dasturxon”, “hashar”, “do‘ppi”, “qalpoq”, “o‘tov”, “tandir” kabi so‘zlardan – keng foydalanadi. M. Jumaboyev bolalar adabiyotida xalq tilini bilish va sodda, obrazli ifodadan foydalanish muhimligini qayd etadi; Adashboyev ijodi ana shu xalqonalikning yorqin namunasi sifatida baholanadi.

Muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, turli davr va yo‘nalishdagi adabiyotshunoslar (Matjon, Barakayev–Ashurov, Jumaboyev, Xamrakulova) T. Adashboyev she’riyatidagi Vatan va milliy qadriyatlar tasviri borasida bir-biriga yaqin xulosalarga kelishadi: ularning barchasi shoirning tabiat manzaralarini shunchaki tasviriy vosita emas, balki vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantiruvchi asosiy badiiy vosita sifatida talqin qiladi. Xurshida Xamrakulovaning shoir poetik mahoratiga bag‘ishlangan tadqiqotida qayd etilishicha, Adashboyev ijodi taxminan uch bosqichda – XX asrning 60–70-yillaridagi tarbiyaviylik ruhidagi dastlabki davr, so‘ngra kamolot davri va mustaqillik yillaridagi yangilangan poetik tafakkur davrida rivojlangan. Bu davriylashtirish shoirning Vatan mavzusiga munosabati vaqt o‘tishi bilan chuqurlashib, ochiqroq ijtimoiy-tarixiy mazmun kasb etganini ko‘rsatadi – jumladan, “O‘sh” she’ridagi tarixiy meros haqidagi ishoralar bunga misol bo‘la oladi.

Tahlil shuni ham ko‘rsatadiki, shoir Vatan va milliy qadriyatlar mavzusini ochishda bir necha barqaror badiiy usullardan foydalanadi: jonlantirish (tabiat hodisalarini insoniy xatti-harakatlarga o‘xshatish), milliy detallardan foydalanish (dutor, nay, do‘ppi, tandir kabi), oilaviy xotira obrazlari, yumor va o‘yin unsurlari hamda tabiat manzaralarining kengaytirilgan tasviri. Bu usullarning barchasi bir maqsadga – bolalarga tushunarli, hissiy jihatdan yaqin obrazlar orqali vatanparvarlik va milliy g‘urur tuyg‘ularini nasihatsiz, tabiiy yo‘l bilan singdirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, shoir she’rlarining rasmiy ta’lim tizimiga kiritilgani (masalan, “Vatan – Ona” she’rining “Odobnoma” darsligiga kiritilishi) uning ijodiy-tarbiyaviy ahamiyatini amaliy jihatdan ham tasdiqlaydi. Ayni paytda, ushbu tadqiqot faqat she’riy asarlar doirasida olib borilgani uning chegarasi hisoblanadi; shoirning nasriy va dramatik asarlaridagi Vatan va milliy qadriyatlar tasviri alohida tadqiqot mavzusi bo‘lishi mumkin.

Xulosa

O‘tkazilgan tahlil asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, Tursunboy Adashboyev she’riyatida Vatan tushunchasi uch asosiy ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: ona makon (tug‘ilgan qishloq, tog‘, tabiat), oila va xotira makoni (ota-ona, buvi-bobo, bolalik xotiralari) hamda tarixiy-madaniy makon (ona tili, tarixiy yodgorliklar, xalq an’analari).

Ikkinchidan, shoir milliy qadriyatlarni oila, mehnat, mehmondo‘stlik, milliy kiyim-musiqa, folklor va ona tili kabi yo‘nalishlarda, bolaga tanish va yaqin turmush detallari orqali tasvirlaydi.

Uchinchidan, Adashboyev ijodida vatanparvarlik bevosita “Vatanni sev” degan da’vat shaklida emas, balki ona uyi, qishloq manzarasi, bobo duosi, tandir noni, hashar va milliy kuy kabi obrazlar orqali, bolalar ruhiyatiga mos, tabiiy va samimiy tarzda shakllantiriladi. Bu esa shoir ijodini o‘zbek bolalar adabiyotida vatanparvarlik va milliy tarbiya masalalarini yoritishning yorqin namunasi sifatida baholashga asos beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Adashboyev T. Arslonbob afsonasi. – Toshkent: “Yosh gvardiya”, 1988. (n.ziyouz.com)

2. Adashboyev T. Jo‘nataman quyoshni. – Toshkent, 1982.

3. Adashboyev T. Oqbura to‘lqinlari. – Toshkent, 1985.

4. Matjon S. Shoirning badiiy olami // “Yoshlik” jurnali, 2012, № 1. (yoshlikjurnali.uz)

5. Barakayev R., Ashurov B. Tursunboy Adashboyev ijodida tabiat tasvirining ba’zi o‘ziga xosliklari // Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. (academicsbook.com)

6. Ashurov B. Tursunboy Adashboyevning poetik mahorati. – Toshkent, 2009.

7. Xamrakulova X. Tursunboy Adashboyevning poetik mahorati // in-academy.uz ilmiy jurnali.

8. Jamilova B. Bolalar adabiyotida zamonaviylik. – Buxoro: “BUKHARA HAMD PRINT”, 2023. (uniwork.buxdu.uz)

9. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti: darslik (Pedagogik yo‘nalishdagi kollejlar uchun). 2-nashr. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2011.

10. Nuraliyeva N., Yusupov O.Y., Iskandarova N.T. Adashboyev: ilmiy maqola. (uzbekliterature.uz)

11. Odobnoma. 2-sinf darsligi, “Ona Vatan” bo‘limi. (old.eduportal.uz)

12. Tursunboy Adashboyev – ikki xalq farzandi // referat materiali. (arxiv.uz)

13. Tursunboy Adashboyev // Ismlar.com biografik ma’lumotnomasi. (ismlar.com)

14. Adashboyev Tursunboy // arboblar.uz biografik ma’lumotnomasi.

BADIIY MATNLARDA MILLIY-MADANIYATGA XOS LEKSIKANING BERILISHI: NEMIS, INGLIZ VA O‘ZBEKCHA TARJIMAR QIYOSIDA

Otaxonova Gulasal Boboxon qizi,
Urganch Innovatsion Universiteti,
Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili)

UO‘K 81'42

Annotatsiya: *Ushbu maqolada badiiy matnlarda uchraydigan milliy-madaniyatga xos leksika va ularning nemis, ingliz hamda o‘zbek tillariga tarjima qilinish xususiyatlari qiyosiy-ekvivalentlik nuqtai nazaridan tadqiq etiladi. Badiiy asarlardan olingan amaliy misollar vositasida lakunalar va madaniy farqlarni bartaraf etishda qo‘llaniladigan asosiy tarjima strategiyalari (transliteratsiya, kalkalash, giponimik/giperonimik tarjima, eksplikatsiya) tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari madaniy ekvivalentlikka erishishda milliy bo‘yoqni saqlab qolish va kitobxon tushunishini ta'minlash o‘rtasidagi muvozanatni ko‘rsatib beradi.*

Kalit so‘zlar: *milliy-madaniy leksika, realialar, lakunalar, badiiy tarjima, eksplikatsiya, muloqot pragmatikasi, nemis tili, ingliz tili, o‘zbek tili.*

Badiiy asar shunchaki lisoniy birliklar majmuasi emas, balki muayyan xalqning dunyoqarashi, turmush tarzi va milliy tafakkurini aks ettiruvchi madaniy koddir. Matnlararo va madaniyatlararo muloqotda ushbu kodni boshqa til vakiliga yetkazish tarjimashunoslikning eng murakkab muammolaridan biri bo‘lib kelmoqda. Lingvokulturoloziyada bunday birliklar "realialar" yoki "milliy-madaniyatga xos leksika" deb ataladi.[1] Realialar — muayyan xalqning moddiy va ma'naviy madaniyatiga, tarixiga, geotsentriga xos bo‘lib, boshqa xalqlar tilida to‘g‘ridan-to‘g‘ri lug‘aviy ekvivalentiga ega bo‘lmagan (lakunarlikka uchragan) so‘zlardir.[2] Ushbu tadqiqotning maqsadi — nemis, ingliz va o‘zbek tillaridagi badiiy matnlarda milliy-madaniy leksikaning berilish usullarini qiyoslab, ularning tarjima ekvivalentligi va uslubiy muqobillik darajasini aniqlashdan iborat.

[1] Vlaxov S., Florin S. Neperevodimoye v perevode. — Moskva: Mejdunarodniye otnosheniya, 1980. — 343 s. (Realialar va milliy-madaniy leksikaning dunyo bo‘yicha asosiy nazariy manbasi).
[2] Salomov G‘. Tarjima nazariyasi asoslari. — Toshkent: O‘qituvchi, 1983. — 232 b. (O‘zbek tarjimashunosligida realia va lakunalarning berilishi).

Tadqiqotda kontrastiv lingvokulturologik tahlili, komponentlar tahlili hamda tarjima transformatsiyasi metodlaridan foydalanildi. Material sifatida nemis, ingliz va o‘zbek adabiyoti namunalari hamda ularning o‘zaro tarjimalari tanlab olindi (masalan, nemis, ingliz va o‘zbek milliy maishiy hayotiga xos tushunchalar).

Badiiy matnlarda milliy-madaniy leksika asosan quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1. Maishiy va etnografik realialar (taomlar, kiyim-kechaklar, uy-ro‘zg‘or buyumlari)

2. Ijtimoiy-siyosiy va tarixiy realialar (unvonlar, boshqaruv organlari, tarixiy hodisalar)

3. Mifologik va urf-odat realialari (marosimlar, bayramlar, afsonaviy obrazlar).

[1]Xalqaro tarjimashunoslikda (E. Nida, S. Vlaxov, S. Florin kabi olimlar nazariyalariga ko‘ra) realialarni berishda asosan ikkita qarama-qarshi yo‘nalish kuzatiladi:

Exotisation (Egzotizatsiya) – Asl nusxa madaniyatini saqlash uchun so‘zni transliteratsiya/transkripsik yo‘l bilan o‘zlashtirish.

Domestication (Natsionalizatsiya) – O‘quvchiga tushunarli bo‘lishi uchun o‘z madaniyatidagi mos tushuncha bilan almashtirish.[2]

Quyida uch xil madaniyat va til tizimiga mansub realialarning o‘girilish mexanizmlarini ko‘rib chiqamiz:

A) Taom va mehmondorchilik madaniyati

O‘zbek madaniyatiga xos bo‘lgan "dasturxon", "sumalak", "choyxona" kabi realialar nemis va ingliz tillariga tarjima qilinganda jiddiy semantik yo‘qotishlarga uchraydi.

O‘zbekcha – Mehmonlar dasturxon atrofida gurunglashib o‘tirishardi.

Inglizcha – The guests were sitting around the table, chatting.

Nemischa – Die Gäste saßen um den gedeckten Tisch und unterhielten sich.

O‘zbek tilidagi dasturxon shunchaki "stol" (table/Tisch) emas, balki yerga yoziladigan, ustida noz-ne'matlar to‘kilgan va baraka ramzi bo‘lgan tushunchadir.

---

[1] Newmark P. A Textbook of Translation. — New York: Prentice Hall, 1988. — 292 p. (Madaniyatga xos birliklar - Cultural-Specific Items klassifikatsiyasi).

[2] Nida E. A. Toward a Science of Translating. — Leiden: E. J. Brill, 1964. — 331 p. (Madaniy ekvivalentlik hamda Domestication/Foreignization nazariyasi).

Inglizcha va nemischa tarjimalarda bu so‘z oddiy table/Tisch sifatida berilib, milliy bo‘yoq yo‘qotilgan.[1]

Mukammalroq tarjimada “dasturxon” so‘zini transkripsiyalash va ostki izohda madaniy ma'nosini ochib berish maqsadga muvofiq bo‘lardi.[2]

B) Boshpana va me'morchilik realialari

Nemis – Er verbrachte den ganzen Sommer in seiner Fachwerkscheune.

Inglizcha tarjima: He spent the whole summer in his half-timbered barn. (Aniq kalkalash/ekvivalent)

O‘zbekcha tarjima: U butun yozni o‘zining yog‘och karkasli omborxonasida o‘tkazdi.

Nemis madaniyatiga xos bo‘lgan Fachwerk (devorlari yog‘och to‘sin va sinchlardan qurilib, g‘isht yoki loy bilan to‘ldirilgan me'moriy uslub) ingliz tilida aniq half-timbered atamasi bilan beriladi. Lekin o‘zbek me'morchiligida bu uslub aynan mavjud bo‘lmagani sababli tarjimon “yog‘och karkasli” degan eksplikativ usuldan foydalanishga majbur bo‘ladi.[3]

C) Jamiyat va ijtimoiy tabaqalanish realialari

Inglizcha – He is a true gentleman with high social status.[4]

O‘zbekcha tarjima: U yuqori ijtimoiy mavqega ega haqiqiy aslzoda/gentlmen.

Nemischa tarjima: Er ist ein wahrer Gentleman mit hohem sozialen Status.

Nemis tili ingliz tilidagi gentleman so‘zini o‘zgarishsiz kirib kelgan o‘zlashma so‘z sifatida qabul qiladi. O‘zbek tilida esa gentlemen so‘zi ham transkripsiyada ishlatilishi mumkin, lekin uslubiy talabga qarab “aslzoda”, “xushfe'l inson” yoki “oliyjanob kishi” kabi kontekstual muqobillar tanlanadi.

XULOSA

Uch tildagi badiiy matnlarning lingvokulturologik tahlili quyidagi amaliy xulosalarni beradi:

---

[1] Musaev K. Tarjima nazariyasi asoslari. — Toshkent: Fan, 2005. — 352 b. (Badiiy tarjimada milliy koloritni saqlash muammolari).

[2] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. / A.Madvaliyev tahriri ostida. — Toshkent: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2006-2008. (Milliy realialar va taomlar semantikasi uchun).

[3] DUDEN — Das große Wörterbuch der deutschen Sprache. — Mannheim: Dudenverlag, 2015. (Nemis me'morchiligi va "Fachwerk" tushunchasi izohi uchun).

[4] Oxford English Dictionary (OED) Online. Access mode: https://www.oed.com (Inglizcha "Gentleman" va ijtimoiy realialar lingvistik bazasi).

Birinchisi lakunalarni to‘ldirish – Ingliz va nemis tillari o‘rtasidagi madaniy yaqinlik tufayli realialar bir-biriga osonroq ekvivalentlashadi. Ammo o‘zbek tili va ushbu Yevropa tillari o‘rtasida madaniy va geografik masofa katta bo‘lgani sababli realialar ko‘pincha lakunaga aylanadi.[1]

Ikkinchisi Eksplikatsiya (Izohli tarjima) zarurati – O‘zbek tilidagi badiiy matnlarni ingliz va nemis tillariga o‘girishda milliy bo‘yoqni yo‘qotmaslik uchun eng maqbul yo‘l — so‘zning asl shaklini saqlagan holda matn ostida izoh berishdir.

Uchinchisi esa pragmatik muvozanat – Tarjimon o‘quvchi idrokini qiyinlashtirmaslik uchun egzotizatsiya (asl so‘zni saqlash) va domestication (o‘zlashtirib tarjima qilish) o‘rtasida muvozanatni saqlashi zarur. O‘rinsiz almashtirishlar (masalan, “dasturxon” ni shunchaki “stol” deb ketish) matnning badiiy va etnik qiymatini pasaytiradi.[2]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Vlaxov S., Florin S. Neperevodimoye v perevode. — Moskva: Mejdunarodniye otnosheniya, 1980. — 343 s. (Realialar va milliy-madaniy leksikaning dunyo bo‘yicha asosiy nazariy manbasi).

2. Nida E. A. Toward a Science of Translating. — Leiden: E. J. Brill, 1964. — 331 p. (Madaniy ekvivalentlik hamda Domestication/Foreignization nazariyasi).

3. Salomov G‘. Tarjima nazariyasi asoslari. — Toshkent: O‘qituvchi, 1983. — 232 b. (O‘zbek tarjimashunosligida realia va lakunalarning berilishi).

4. Koller W. Einführung in die Übersetzungswissenschaft. — Wiebelsheim: Quelle & Meyer, 2011. — 350 S. (Nemis tarjimashunosligida Kulturelle Spezifika va ekvivalentlik turlari).

5. Musaev K. Tarjima nazariyasi asoslari. — Toshkent: Fan, 2005. — 352 b. (Badiiy tarjimada milliy koloritni saqlash muammolari).

6. Newmark P. A Textbook of Translation. — New York: Prentice Hall, 1988. — 292 p. (Madaniyatga xos birliklar - Cultural-Specific Items klassifikatsiyasi).

[1] Vlaxov S., Florin S. Neperevodimoye v perevode. — Moskva: Mejdunarodniye otnosheniya, 1980. — 343 s. (Realialar va milliy-madaniy leksikaning dunyo bo‘yicha asosiy nazariy manbasi).

[2] Krais S. Kulturelle Spezifika in der literarischen Übersetzung. — Frankfurt am Main: Peter Lang, 2008. — 210 S. (Nemis va Yevropa adabiyotidagi madaniy leksika tarjimasi).

7. Krais S. Kulturelle Spezifika in der literarischen Übersetzung. — Frankfurt am Main: Peter Lang, 2008. — 210 S. (Nemis va Yevropa adabiyotidagi madaniy leksika tarjimasi).

8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. / A.Madvaliyev tahriri ostida. — Toshkent: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2006-2008. (Milliy realialar va taomlar semantikasi uchun).

9. DUDEN — Das große Wörterbuch der deutschen Sprache. — Mannheim: Dudenverlag, 2015. (Nemis me'morchiligi va "Fachwerk" tushunchasi izohi uchun).

10. Oxford English Dictionary (OED) Online. Access mode: https://www.oed.com (Inglizcha "Gentleman" va ijtimoiy realialar lingvistik bazasi).

ABDURAHMON JOMIYNING “ARBA’IN” ASARI QO‘LYOZMA NUSXALARINING QIYOSIY-MATNIY TADQIQI

M.R.Pulatova,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dotsent v.b.
Sharq falsafasi va germenevtika kafedrasi
Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti
Toshkent, O’zbekiston
malohat0605@gmail.com
ORCID (https://orcid.org/0009-0000-8171-0271)

UO‘K 81'42

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zR.FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan Abdurahmon Jomiyning “Arba’in” asari qo‘lyozmalarini matnshunoslik va manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinib, qo‘lyozma nusxalarning chog‘ishtirma-qiyosiy tadqiqi 10064, 5726 va 8848 raqamli qo‘lyozma nusxalar asosida amalga oshirilganligi yoritildi.*

Kalit so‘zi: *Arba’in (qirq hadis), Qur’on va hadislar, kitobot, qo‘lyozma, nusxa, ibora, arab, fors, talqin, tarjima.*

Abstract: *This article analyzes the manuscripts of Abdurahman Jami’s Arba’in preserved in the manuscript collection of the Abu Rayhan Beruni Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan from the perspectives of textual studies and source studies. It highlights that the comparative and contrastive study of the manuscript copies was carried out on the basis of manuscript copies No. 10064, 5726, and 8848.*

Keywords: *Arba’in (Forty Hadiths), the Qur’an and Hadiths, calligraphy/book production, manuscript, copy, expression, Arabic, Persian, interpretation, translation.*

Аннотация. *В данной статье рукописные списки произведения Абдурахмана Джами «Арба’ин», хранящиеся в фонде рукописей Института востоковедения имени Абу Райхана Беруни Академии наук Республики Узбекистан, анализируются с точки зрения текстологии и источниковедения. Освещается, что сравнительно-сопоставительное исследование рукописных списков было проведено на основе рукописей под номерами 10064, 5726 и 8848.*

Ключевые слова: *«Арба’ин» (сорок хадисов), Коран и хадисы, книжное письмо, рукопись, список, выражение, арабский язык, персидский язык, толкование, перевод.*

Abdurahmon Jomiy arab tilidagi musulmon kishisining go‘zal axloqiga doir qisqa va yodlashga oson bo‘lgan hadislardan 40 tasini saralab, ularni fors tilida, nazmda talqin qilib, arab tilidagi hadislarning mazmun-mohiyatini forsiyzabonlarga tushuntiradi va obrazlar orqali sharhlaydi.

Hadislar arab tilidan boshqa tillarga tarjima qilinmagan bir vaqtda qirq hadislar asosida fors va turkiy xalqlar tillarida to‘rtlik-qit’alar yaratilishi Abdurahmon Jomiy “Arba’in”ining qimmatini yana ham oshiradi. Xususan, “Arba’in” hadislarga bag‘ishlangan maxsus asar bo‘lganligi uchun ahamiyati juda kattadir. O‘zR.FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan arba’inlar orasida Abdurahmon Jomiy “Arba’in” asari eng ko‘p ko‘chirilgani va eng ko‘p o‘qilganlaridan hisoblanadi.

Mazkur fondda saqlanayotgan bir necha o‘nlab “Arba’in”–“Chihil hadis” asarlari va ularga yozilgan sharhlar ichida fors-tojik va o‘zbek tilida yozilgan arba’in asarlari asosan nazmda bitilgan bo‘lib, ko‘pchiligi Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy “Arba’in”ining birgalikda kitobot qilinganlaridan iborat. Ularning talaygina qismi hanuz ilmiy muomalaga kiritilmagan.

Abdurahmon Jomiy “Chihil hadis” – “Arba’in” asari qo‘lyozmalarining o‘zaro chog‘ishtirma-qiyosiy tadqiqini amalga oshirishda O‘zR.FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan 10064, 5726 va 8848 raqamli qo‘lyozma nusxalarlardan foydalandik.

Hadislarni she’riy sharhini talqin etish asliyat tilini va Qur’on oyatlarining tafsirini mukammal bilgan kishilar tomonidan amalga oshirilgan. Hadislarni to‘g‘ri sharhlashda tafsir ilmini bilish muhim hisoblanadi. Bu esa nihoyatda muhim hisoblanadi. Shu bois biz o‘z tadqiqotimizda har bir hadisni quvvatlovchi oyatlarni ham (ko‘rsatib) keltirib o‘tdik.

“Arba’in” qo‘lyozmalarini o‘rganar ekanmiz, barcha nusxalardagi farqlarni ko‘ramiz. Masalan, Jomiy “Chihil hadis” asarining qo‘lyozma nusxalardagi hadislarning joylashish tartibi turlicha ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Har uchala 10064, 5726 va 8848 raqamli qo‘lyozma nusxa an’anaviy basmala, muqaddima, asosiy qism va xotimadan iborat. Avval Jomiyning “Muqaddima”si to‘liq keltirilgan, so‘ng arab tilidagi hadis va Jomiy talqini berilgan, shu ketma-ketlikda 40 ta hadisning she’riy talqini birma-bir yozilgan, oxirida Jomiyning fors tilidagi she’riy xotimasi bilan tugallangan.

Mazkur uch nusxada hadislar bir xil hamda ularning yozilish ketma-ketligi ham bir tartibda berilgan. “Chihil hadis” nusxalaridagi talqinlarda bir qancha

farqli jihatlari bor. Masalan, 10064, 5726 va 8848 raqamli qo‘lyozma nusxalaridagi ayrim jumlalar tahrir qilingan yoki avvalgi 5726 va 8848 raqamli ikki qo‘lyozmada uchraydigan so‘zlar 10064 raqamli qo‘lyozmada boshqa so‘z bilan almashtirilgan.

Tadqiqotimiz natijasida 10064, 5726 va 8848 raqamli qo‘lyozma nusxalardagi hadislarning ketma-ketligi bir xil bo‘lib, qo‘lyozma nusxalarda har bir hadis “al-hadis al-avval”, “al-hadis as-sani” kabi raqamlab borilgan. Har uch nusxa quyidagi hadis bilan boshlanadi:

لايؤمن احدكم حتي يحبّ لاخيه ما يحبّ لنفسه

Tarjimasi: “Sizlardan hech biringiz o‘ziga ravo ko‘rganni birodariga ravo ko‘rmaguncha, chin mo‘min bo‘la olmaydi”.

Mazkur hadisning 10064 va 5726 raqamli qo‘lyozma nusxalardagi Jomiy talqinida biror so‘z yoki iborada o‘zgarish yo‘q. Ikkala nusxadagi talqin quyidagicha:

هر کسی را لقب مکن مؤمن،
کرجه ازسعی جان و ***تن*** کاهد۔
تا نخواهد برادر خود را،
انجه از بهر خویشتن خواهد[1]،

Ya’ni, “har kimni mo‘min deyaverma, agar u butun jonu tani bilan bunga sa’yi-harakat qilsa hamki, o‘ziga ravo ko‘rganini (birodariga) o‘zgaga ravo ko‘rmaguncha”.

Kishi agar butun tanu joni bilan chin mo‘min bo‘lishlikka sa’yi harakat qilib, o‘ziga ravo ko‘rganini birodariga ham ravo ko‘rmaguncha uni chin mo‘min deb atama, deya Jomiy hadis mazmunini ikkinchi misrada obrazlar, turli timsollar orqali ochib beradi, u “sa’y”, “jon”, “tan” iboralarini qo‘llab, “inson tanu joni bilan mo‘min bo‘lishga harakat qilsa ham, o‘ziga ravo ko‘rganini birodariga ham ravo ko‘rmaguncha uni mo‘min, deb atayverma,” deydi. Hadisdagi birodar so‘zi ijtimoiy ma’noda bo‘lib, barcha mo‘minlar bir-biriga birodar, ya’ni og‘a-ini hisoblanadilar. Hadisda “mo‘min” so‘zi bir marotaba ishlatiladi va birinchi o‘ringa qo‘yiladi. Jomiy ham mo‘min so‘zini 1-misrada ishlatib, keyingi uch misrada iymonli inson obrazini gavdalantiradi. Mo‘min va iymon so‘zlarini qo‘llab, talqindagi obrazni iymoni komil inson, ya’ni mukammal iymonli mo‘min

[1] Arba’in” qo‘lyozmasi. O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Asosiy fond. Qo‘lyozma 10064 raqamli qo‘lyozma. (*Bundan keyingi o‘rinlarda* O‘zR FA ShI. Q.10064. *shaklida berib boriladi.*).; Arba’in” qo‘lyozmasi. O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Asosiy fond. Qo‘lyozma 5726 raqamli qo‘lyozma. (*Bundan keyingi o‘rinlarda* O‘zR FA ShI. Q.5726. *shaklida berib boriladi.*)

darajasiga ko‘taradi. Demak, hadisda komil inson xaqida so‘z bormoqda. Jomiy qit’ada ikki xil timsolni o‘zaro solishtirib, hadis ma’nosini ochib bergan. U “musulmon bo‘lishga jon (ruhi) va tan (jism)i bilan harakat qiluvchi kimsa” toki o‘ziga ravo ko‘rganini birodariga ham ravo ko‘rmagunlaricha, haqiqiy mo‘min bo‘la olmaydi, ya’ni “biri bo‘lsa-yu, ikkinchisi bo‘lmasa”, deb beradi. Shu tariqa hadisda ifodalangan axloqiy g‘oyaning mohiyatini badiiy timsollar orqali jilolantirib, hadisning ta’sir doirasini kengaytira olgan.

8848 qo‘lyozma nusxada esa, 2 misradagi ***تن (tan)*** so‘zining o‘rniga ***دل (dil)*** so‘zi qo‘llanilgan:

هر کسی را لقب مکن مؤمن،
کرجه ازسعی جان و ***دل*** کاهد۔
تا نخواهد برادر خود را،
انجه از بهر خویشتن خواهد[1].

Demak, 8848 qo‘lyozma nusxada mazmun bir oz o‘zgaradi, ya’ni, har kimni mo‘min deyaverma, agar u butun jonu **dili** bilan bunga sa’yi-harakat qilsa hamki, o‘ziga ravo ko‘rganini (birodariga) o‘zgaga ravo ko‘rmaguncha.

10064 va 5726 raqamli qo‘lyozma nusxalarda “jonu tani bilan – butun vujudi bilan” deyilsa, 8848 qo‘lyozma nusxada “jonu dili – butun qalbi bilan”, deb ma’noni ichki bir xissiyotga yo‘naltiradi.

Yuqoridagi talqin qilingan hadisning ma’nosini yanada chuqurroq anglash uchun Kur’oni karimda kelgan Yunus surasining 24-oyatini keltirib o‘tamiz:

لِلَّذِينَ أَحْسَنُوا الْحُسْنَى وَزِيَادَةٌ وَلا يَرْهَقُ وُجُوهَهُمْ قَتَرٌ وَلا ذِلَّةٌ أُولَئِكَ أَصْحَابُ الْجَنَّةِ هُمْ فِيهَا خَالِدُونَ (٢٦)

“Chiroyli amal qilgan zotlar uchun go‘zal oqibat va ziyoda ne’matlar bordir. Ularning yuzlarini na qarolik va na xorlik qoplar. Ana o‘shalar jannat egalari bo‘lib, u joyda abadiy qolurlar”[2].

Shuningdek, 10-hadis talqinida ham ba’zi o‘zgarishlarni ko‘rish mumkin.

دُمْ عَلَى الطَّهَارَةِ يُوَسَّعْ عَلَيْكَ الرِّزْقُ

Tarjimasi: Doim pokiza yurgin, rizqi ro‘zing oshadi

10064 raqamli qo‘lyozma nusxada Jomiy talqini:

ای کز آلده کیّ توشب و روز،

[1] Arba’in” qo‘lyozmasi. O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Asosiy fond. Qo‘lyozma 8848 raqamli qo‘lyozma. (*Bundan keyingi o‘rinlarda* O‘zR FA ShI. Q.8848. *shaklida berib boriladi.*)

[2] Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsifi. Tarjima va tafsif muallifi Abdulaziz Mansur. –T:. Toshkent islom universiteti, 2004. – 624 b.

فاقه و فقر توزیاده شود.
بی طهارت مباش تا بر تو،
روزی تنگ تو کشاده شود[1].

Ya’ni, “har kim qashshoqlikka tushib, unda yo‘qchilik va faqrlik ko‘paysa, senga (yaxshiliklar) bo‘lishi uchun tahoratsiz bo‘lma, shunda senga tang rizq eshiklari keng ochiladi.”.

5726 qo‘lyozma nusxada ham mazkur talqin hech bir o‘zgarishsiz yozilgan, ammo 8848 qo‘lyozma nusxada esa, 3-misradagi “تا بر تو” ***(ta bar tu)*** - “senga” yoki “sening ustingga” iborasining o‘rniga “در همه عمر” **(dar hame umr)** –“umr davomida” ibora qo‘llanilgan:

ای کز آلده کیّ توشب و روز،
فاقه و فقر توزیاده شود.
بی طهارت مباش در همه عمر،
روزی تنگ تو گشاده شود[2].

Demak, 8848 qo‘lyozma nusxada mazmun bir oz o‘zgaradi, ya’ni, “ey, kimki yo‘qchilikka tushib, unda faqr-u muhtojlik ziyoda bo‘lsa, butun umr poklikni tark etmasin. Shunda tang rizqing kengayib, ochiladi.

10064 va 5726 raqamli qo‘lyozma nusxalarda “senga yaxshiliklar bo‘lishi uchun tahoratni tark etma” deyilsa, 8848 qo‘lyozma nusxada “butun umr poklikni tark etma”, deb bir necha daqiqalik poklikni emas, bir umrlik poklikni e’tirof etilmoqda.

Shuningdek, 10064 va 5726 hamda 8848 raqamli qo‘lyozma nusxalardagi 11-hadis talqinida ham ba’zi o‘zgarishlarni ko‘rish mumkin.

لَا يُلْدَغُ الْمُؤْمِنُ مِنْ جُحْرٍ مَرَّتَيْنِ

Tarjimasi: Mo‘’min bir (teshikdan) indan ikki marta chaqilmaydi.

Mazkur 10064 va 8848 raqamli qo‘lyozma nusxalardagi Jomiy talqini quyidagicha:

دیکر ازوی مدار جشم وفا،
هر که شد در جفا ترا کستاخ.
زانکه هرکز دو باراه مؤمن را،
نکزد مارا از یکی سوراخ[3].

[1] O‘zR FA ShI. Q.10064.
[2] O‘zR FA ShI. Q.8848.
[3] O‘zR FA ShI. Q.10064.; O‘zR FA ShI. Q.8848.

Ya’ni, “senga azob berishda chegara bilmaydigan kimsadan vafodorlikni kutma, undan butunlay umidingni uzgin, chunki mo‘min kishi hech qachon bir teshikdan ikki marta ilon chaqishiga yo‘l qo‘ymaydi”

10064 va 8848 qo‘lyozma nusxalardagi mazkur hadis talqini hech bir o‘zgarishsiz bir xil yozilgan, ammo 5726 qo‘lyozma nusxada esa, Jomiy talqinining 2-misrasidagi “ترا” (taro) – “seni”so‘zi tushib qolgan va “باتر" ***(bo tar)*** – (bo) -“bilan” va (tar) “roq” qiyosiy daraja qo‘shimchasi bo‘lib, “bo tar” ya’ni “...roq”, “yanada ...” degan ma’noni beradi va she’riy matnda “yanada ko‘proq , qattiqroq” ma’nolarini anglatib kelmoqda:

دیکر ازوی مدار چشم وفا،
هر که شد باتر در جفا ترا کستاخ.
زانکه هرکز دو باراه مؤمن را،
نکزد مارا از یکی سوراخ[1].

Demak, 5726 qo‘lyozma nusxada mazmun bir oz o‘zgaradi, ya’ni, “Kimki senga jabr qilishda yanada qattiqroq (battar) bo‘lsa, u senga nisbatan shunchalik behayo (hurmatsiz) bo‘ladi, u bilan vafo umidini uzdim, chunki mo‘min kishi hech qachon bir teshikdan ikki marta chayon (yoki ilon) chaqishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Shuningdek, mazkur uch nusxada Jomiy talqinida kelgan jumlalardagi, so‘z birikmalarida va qo‘shimchalarda o‘ziga xos farqlarni kuzatdik. Jumladan, 22-hadis:

كَفَىٰ بِالْمَوْتِ وَاعِظًا

Tarjimasi: “O‘lim – bu ayni pandu nasihatdir”

Mazkur hadis 10064 va 5726 raqamli qo‘lyozma nusxalarda Jomiy talqinida shunday beriladi:

جند کیری ز مجلس واعظ،
بای تابوت میگرفتن بند.
وغظ تو بس بمرگ همسایه،
نوحه و نعرها ببانگ بلند[2].

Ya’ni, “Voiz, majlisdan necha haq oladiki, u tobut yonida turib pand-nasihat qiladi, uning so‘zlari qo‘shni o‘limi haqida xolos, sen uni baland faryod, nola bilan aytasan”.

[1] O‘zR FA ShI. Q.5726.
[2] O‘zR FA ShI. Q.10064.; O‘zR FA ShI. Q.5726.

8848 qo‘lyozma nusxada ham 22 hadisning talqin hech bir o‘zgarishsiz bir xil ko‘chirilgan, ammo 5726 qo‘lyozma nusxada esa, 1-misradagi ز (**“ز” –“z”** qisqartirilgan ko‘rinish bo‘lib, aslida **“از” (az)** so‘zi bo‘lib, **-dan, -dan kelib, -dan chiqib** ma’nolarini bildiradi) so‘zi tushib qolgan va ای واعظ (Ey voiz) “ey” ta’kidi qo‘llanilib, e’tiborni voizga qaratadi:

جند کیری مجلس ای واعظ،
بای تابوت میگرفتن پند.
وغظ تو بس بمرک همسایه،
نوحه و نعرها ببانک بلند[1].

Demak, qo‘lyozma nusxalarda ba’zi so‘zlarning tushib qolishi, yoki yangi so‘z va iboralarning qo‘shilishi she’riy talqinning ma’no-mohiyatiga putr yetkazmaydi, aksincha uning ta’sir doirasini oshirganini ko‘ramizko‘chiruvchi kotibning yoki xalq orasida shunchalik mashhur bo‘lib ketganki, xalq og‘zaki ijodi bilan uyg‘unlashib borgan. Shunga asosan xalqchil tilda aytganda mazkur talqindan “kim senga nisbatan hurmatsiz va yomon bo‘lsa, undan endi vafo kutmaslik kerak”, degan ma’no chiqadi.

Ba’zi o‘rinlarda jumlalarning tuzilishida ham farqli jihatlari bor. 10064 va 5726 raqamli qo‘lyozma nusxalardagi ayrim jumlalar 8848 raqamli qo‘lyozma nusxada tahrir qilingan yoki avvalgi ikki qo‘lyozmada uchramaydigan jumlalar 8848 raqamli qo‘lyozma nusxada to‘ldirilgan Masalan, 14- hadis talqinida ham ba’zi o‘zgarishlarni ko‘rish mumkin.

اَلْمُسْتَشَارُ مُؤْتَمَنٌ

Tarjimasi: Maslahatchi ishonchga sazovardir.

10064 va 5726 hamda 8848 raqamli qo‘lyozma nusxalarda Jomiy talqini:

هر که در مصلحت امین توشد،
کرجه باشد امان روي زمین.
جون نهان دارد آنجه مصلحت است،
خائنش دان **زروی شرع** امین[2].

Ya’ni, “kim sening manfaatingda amin (ishonchli) bo‘lib ko‘rinsa, agar u yer yuzidagi eng ishonchli odam bo‘lsa-yu, u manfaatga oid narsani yashirsa, shariat nuqtai nazaridan uni xiyonatkor deb bilgin”.

10064 va 5726 raqamli qo‘lyozma nusxalarda mazkur talqin hech bir o‘zgarishsiz bir xil yozilgan, ammo 8848 qo‘lyozma nusxada esa, 3-misrada “**زروی شرع**” (z ruyi shar’i) –“shariatga ko‘ra” so‘zi tushib qolgan va “**بحکم دین**”

[1] O‘zR FA ShI. Q.8848.
[2] O‘zR FA ShI. Q.10064.; O‘zR FA ShI. Q.5726.

(bahukmi din) – “Din hukmiga ko‘ra”, “din qonuniga binoan”, “diniy hukm asosida” so‘zi qo‘shilgan. Bu esa talqinda o‘ziga xos chuqur falsafiy ma’noni aks ettirgan:

هر که در مصلحت امین توشد،
کرجه باشد امان روي زمین .
جون نهان دارد آنجه مصلحت است،
خائنش دان **بحکم** دین امین[1].

Ya’ni, “kim sening manfaatingda senga ishonchli bo‘lsa, agarki u, yer yuzidagi eng ishonchli odam bo‘lsa ham, u manfaatga oid narsani yashirsa, din hukmiga ko‘ra uni xiyonatkor deb bil..”

Demak, 5726 qo‘lyozma nusxadagi talqinda hadis ma’nosini tushuntirishda qat’iy va keskin xulosa beriladi, ya’ni, inson qanchalik ishonchli ko‘rinmasin, agar u kerakli haqiqatni yashirsa, u ishonchga xiyonat qilgan hisoblanadi.

Hadislarni sharhlashda, uning ma’no-mohiyatini keng ommaga osonroq yetkazishda adabiyotning turli janrlaridan, chunonchi, nazmdan samarali foydalanganlar. Musulmon olamining muqaddas kitobi Qur’on va unga asoslangan hadis kitoblari turli davrlarda katta qiziqish uyg‘otgani bois, ularning axloqiy negizi badiiy adabiyotga singdirilib kelingan. Ularning talqin va sharhlari klassik adabiyotda keng o‘rin tutadi. Shu sabab, hadislarning she’riy talqinlari o‘sha davrdagi arba’in an’analariga xos ravishda mustaqil asarlarga aylandi.

[1] O‘zR FA ShI. Q.8848.

ABDURAHMON JOMIYNING “ARBA’IN” ASARI QO‘LYOZMA NUSXALARINING QIYOSIY-MATNIY TADQIQI

M.R.Pulatova,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dotsent v.b.
Sharq falsafasi va germenevtika kafedrasi
Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti
Toshkent, O’zbekiston
malohat0605@gmail.com
ORCID (https://orcid.org/0009-0000-8171-0271)

UO‘K 81'42

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zR.FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan Abdurahmon Jomiyning “Arba’in” asari qo‘lyozmalarini matnshunoslik va manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinib, qo‘lyozma nusxalarning chog‘ishtirma-qiyosiy tadqiqi 10064, 5726 va 8848 raqamli qo‘lyozma nusxalar asosida amalga oshirilganligi yoritildi.*

Kalit so‘zi: *Arba’in (qirq hadis), Qur’on va hadislar, kitobot, qo‘lyozma, nusxa, ibora, arab, fors, talqin, tarjima.*

Abstract: *This article analyzes the manuscripts of Abdurahman Jami’s Arba’in preserved in the manuscript collection of the Abu Rayhan Beruni Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan from the perspectives of textual studies and source studies. It highlights that the comparative and contrastive study of the manuscript copies was carried out on the basis of manuscript copies No. 10064, 5726, and 8848.*

Keywords: *Arba’in (Forty Hadiths), the Qur’an and Hadiths, calligraphy/book production, manuscript, copy, expression, Arabic, Persian, interpretation, translation.*

Аннотация. *В данной статье рукописные списки произведения Абдурахмана Джами «Арба’ин», хранящиеся в фонде рукописей Института востоковедения имени Абу Райхана Беруни Академии наук Республики Узбекистан, анализируются с точки зрения текстологии и источниковедения. Освещается, что сравнительно-сопоставительное исследование рукописных списков было проведено на основе рукописей под номерами 10064, 5726 и 8848.*

Ключевые слова: *«Арба’ин» (сорок хадисов), Коран и хадисы, книжное письмо, рукопись, список, выражение, арабский язык, персидский язык, толкование, перевод.*

Abdurahmon Jomiyning “Chihil hadis” – “Arbain” asarlari qo‘lyozmalari nusxalarida avval asliyatdagi arab tilidagi hadis keltirilib, undan keyin uning sheriy-sharhi qita shaklida talqin etilgan.

Keyingi hadis:

لعن عبد الدّرهم و لعن عبد الدّينار

Tarjimasi: Dinor va dirhamga qul bo‘lganlarga la’nat bo‘lsin.

Jomiy talqinida:

كرجه هست آفتاب رحمت حق،
شامل ذرّه ذرّهٔ عالم.
باد از آن دور بندهٔ دينار،
باد از آن دور بندهٔ درهم[1].

ya’ni, agar Haqning rahmat oftobi olamda mavjud zarralarning zarrasi bo‘lsa-da, (olamga zarra-zarra bo‘lib yoyilsa-da), undan dinor bandasi va dirham bandasi uzoq bulsin.

Ko‘rib turibmiz-ki, Jomiy hadisni erkin talqin qiladi. Pul-molga qul bo‘lganlarni Allohning rahmatini taratuvchi quyosh nurlaridan uzoq bo‘lsin, mahrum bo‘lsin, deydi. Bunda muqarrar san’atidan foydalanib, ifodalanayotgan so‘z ma’nosini, mohiyatini ta’kidlab ko‘rsatadi.

Jomiy “rahmat oftobi” timsolini qo‘llab, butun koinotga-da yog‘iluvchi gavharlardan dinoru dirham bandasini bebahra qoldirib, hadisning ta’sir kuchini yanada oshiradi. Ya’ni, hadisdagi la’nat ma’nosini Allohning benihoya keng marhamatidan bebahralik sifatida gavdalantiradi.

Ushbu hadisni quvvatlab, Qur’onning Ra’d surasi, 28-oyatida shunday deyiladi:

الَّذِينَ آمَنُوا وَعَمِلُوا الصَّالِحَاتِ طُوبَى لَهُمْ وَحُسْنُ مَآبٍ

“Ular iymon keltirgan qalblari Allohni zikr qilish-eslash bilan orom oladigan zotlardir. Ogoh bo‘lingizkim, Allohni zikr qilish bilan qalblar orom olur”[2].

Keyingi hadis:

---

[1] O‘zR FA ShI. Q.10064.; O‘zR FA ShI. Q.5726.; O‘zR FA ShI. Q.8848.

[2] Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsifi. Tarjima va tafsif muallifi Abdulaziz Mansur. –T:. Toshkent islom universiteti, 2004. – 624 b. (Ra’d surasi 28-oyat)

لا يشبع المؤمن دون جاره

Tarjimasi: Mo‘min qo‘shnisiz to‘q bo‘lmaydi.

Jomiy talqinida:

هر که در خطه مسلمانی ،
باشد از نقد دین کرانمایه.
نه بسند که خویش خفتد سیر،
بنشیند کرسنه همسایه[1].

ya’ni, kimki, musulmonlar o‘lkasida (diyorida) din tufayli obro‘-e’tiborga, ega bo‘ladi, qachonki, u qo‘shnisi och bo‘la turib o‘zining qorni to‘q uxlashiga bepisand bo‘lmasa.

Jomiy hadis mazmunini bir muncha kengroq talqin qiladi. Islom dinini mukammal bilgan va unga amal qilgan kishi musulmon o‘lkasida juda katta obro‘-e’tiborga ega bo‘ladi. Unday kishilar qo‘shnisi holiga befarq bo‘lmaydi, xattoki, ularning yeb-ichishlari tashvishini ham qiladi. Bularni o‘ylamay o‘z uyida xotirjam uxlay olmaydilar, deydi. Jomiy hadisning mazmun-mohiyatini گرانمایه, خطه مسلمانی kabi badiiy timsollar orqali ochib beradi va bu timsollar talqinning ma’naviy ta’sir doirasini oshiradi.

Jomiy ushbu hadis mazmunini o‘ta mohirlik bilan, badiiy obrazlar orqali o‘z xalqiga yetkazib bera olgan, hadisning mazmun-mohiyatini ochib berishda til imkoniyatlaridan unumli fodalangan.

Keyingi hadis:

انّ الله يحبّ السّهل الطّلق

Tarjimasi: Alloh ochiq yuzlilarni sevadi.

Jomiy talqinida:

تا خدا دوست گیردت با خلق،
یکدل و یکزبان و یکرو باش.
شاد طبع و سکفته حاطر ورأی،
نرم خوو کشاده ابرو باش[2].

yani, seni Alloh do‘st tutishi uchun bir so‘zli, diling to‘g‘ri bo‘lishi, samimiy, ochiq ko‘ngil, muloyim bo‘lishing kerak.

Arab tilidagi matn nihoyatda ixcham, 4 so‘zdan tashkil topgan. Hadisning aslida fikri g‘oyat lo‘nda, go‘zal bir ohangdorlik bilan berilgan. Jomiy hadis mazmuni va ruhini 1- va 2-misralarda beradi. Keyingi 2 misra esa hadis manosini sharhlaydi. Jomiy hadisda keltirilgan ochiq yuzli insonni juda chiroyli sifatlar

[1] O‘zR FA ShI. Q.10064.; O‘zR FA ShI. Q.5726.; O‘zR FA ShI. Q.8848
[2] O‘zR FA ShI. Q.10064.; O‘zR FA ShI. Q.5726.; O‘zR FA ShI. Q.8848

bilan tasvirlash orqali talqinning badiiyatini oshiradi. Bunda insonning sakkizdan ortiq yaxshi jihatlarini sanab o‘tadi va shunday go‘zal sifatlarga ega insonnigina Alloh sevadi, deb hadis mazmunini ochib beradi.

Qur’oni karimning Hijr surasi 88-oyatida shunday marhamat qilinadi:

لا تَمُدَّنَّ عَيْنَيْكَ إِلَى مَا مَتَّعْنَا بِهِ أَزْوَاجًا مِنْهُمْ وَلا تَحْزَنْ عَلَيْهِمْ وَاخْفِضْ جَنَاحَكَ لِلْمُؤْمِنِينَ (٨٨)

“Mo‘minlar uchun qanotingizni past tuting (ya’ni, mudom kamtar, tavozu’li bo‘ling)[1]

Shuningdek, “Oli Imron” surasi, 159-oyatida ham aytiladiki:

فَبِمَا رَحْمَةٍ مِنَ اللَّهِ لِنْتَ لَهُمْ وَلَوْ كُنْتَ فَظًّا غَلِيظَ الْقَلْبِ لانْفَضُّوا مِنْ حَوْلِكَ فَاعْفُ عَنْهُمْ وَاسْتَغْفِرْ لَهُمْ وَشَاوِرْهُمْ فِي الأَمْرِ فَإِذَا عَزَمْتَ فَتَوَكَّلْ عَلَى اللَّهِ إِنَّ اللَّهَ يُحِبُّ الْمُتَوَكِّلِينَ (١٥٩)

Agar qo‘pol, qattiq dil bo‘lganingizda edi, albatta, (sahobalaringiz) atrofingizdan tarqalib ketgan bo‘lar edilar[2]”.

Keyingi hadis:

السّماح-رباح

tarj.: Qo‘li ochiqlik foydadir.

Jomiy talqinida:

سود اکر بایدت زمایهٔ خوش،
دست بخشش کشای و بخشایش.
سودا کنون ستایش فردا،
در جوار خدای آسایش[3].

ya’ni, senga yaxshi foyda kerak bo‘lsa, berish qo‘lini och va sadaqa (baxshida) qil. Allohning oldida (huzurida) tinch xotirjam bo‘lishing sababi, bugungi kunning foydasi ertangi kunning maqtovidir.

Jomiy “Bugun, ya’ni bu (hayoti) dunyoda biror kimsaga nimani bersang, bari o‘zing uchun foydadir. Bugungi berganlaring ertaga, ya’ni oxirat dunyosida o‘zingga qaytadi. Baxshida etganlaring evaziga ertaga (qiyomat kunida) Alloh oldida xotirjam bo‘lasan. Mana shu sen uchun foydadir”,- deya hadis talqinini juda keng beradi. Qo‘ling ochiq bo‘lsa, Alloh xuzurida xotirjam bo‘lasan, deb sahovatli kishining Alloh nazdidagi darajasini ko‘rsatib bermoqda.1-, 2-misralar hadisning mazmunini ochib bersa, 3-,4- misralar uning ma’no-mohiyatini yoritib beradi. Navoiy va Fuzuliy tarjimalarida ham shu tartib saqlangan. Jomiy to‘rt

[1] Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsifi. Tarjima va tafsif muallifi Abdulaziz Mansur. –T:. Toshkent islom universiteti, 2004. – 624 b. (Hijr surasi 88-oyat.)
[2] O‘sha manba. Oli Imron surasi, 159-oyat.
[3] O‘zR FA ShI. Q.10064.; O‘zR FA ShI. Q.5726.; O‘zR FA ShI. Q.8848

misrada ikki dunyo saodatiga yetaklovchi saxiylik-qo‘li ochiqlik Alloh huzurida xotirjamlik keltirishini juda chiroyli tasvirlagan.

Jomiy “ertangi kun”, “Xudo oldida” so‘zlarini qo‘llab, hadis mazmunini boshqa bir tasvir vositalari yordamida ochib beradi.

Qur’onning bir necha oyatlarida sahovat, yaxshilik haqida zikr qilinadi[1]. Xususan, “Ne bir narsani infoq-ehson qilsangizlar, bas (Alloh) uning o‘rnini to‘ldirurdeyiladi.

Keyingi hadis:

لیس الغنی عن کثرة العرض انّما الغنی غنی النّفس

Tarjimasi: Boylik-molu dunyoning ko‘pligi bilan emas, balki, nafsning to‘qligi bilan.

Jomiy talqinida:

نه توانکر کسی بود که بمال،
کار پرداز و جاره ساز بود.
او بود کز شهود فضل خدای،
از زر و مال بي نياز بود[2].

ya’ni, mol davlati bilan ish yurituvchi va har narsaning ilojini qiluvchi odam badavlat (qudratli) emas. U Xudoning karami (inoyati) bilan zaru boylikka ehtiyoji bo‘lmagan odamdir.

Jomiy hadis mazmunini to‘rt misrada juda chiroyli o‘xshatishlar orqali tasvirlaydi. Qit’aning avvalgi baytida keltirilgan “tavongar” (badavlat), “korpardoz”, “chorasoz” kabi so‘zlar hadisning birinchi jumlasida anglashilgan ma’noni ochib beradi. Keyingi ikki misra hadisni yakunlab, uning mohiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bunda “zar” (oltin) va “mol” (dunyo, boylik)ga niyoz (ehtiyoj)i bo‘lmaslik, yaratganning insonga bergan “fazli” (inoyati), deyiladi. Shoir, inson muammolarni hal qilishda mol-davlati va tadbir-korligini ishga solishi – uning badavlatligidan darak – bermaydi, aksincha, molu davlatga ehtiyoj sezmasligi uning badavlatligi, ya’ni, nafsining to‘qligidir, nafsning to‘qligi esa Allohning unga bergan fazlu karamidandir, deya ilohiy ne’mat haqida go‘zal misralar bitadi.

Arab tilidagi matnda “Alloh” lafzi kelmasa-da, Jomiy “Xudo” so‘zini qo‘llab, hadisning tushunarli, ta’sirchan sharhlanishida foydalanadi. Mulkdor bo‘lib, Jomiy talqinicha, qudratli kishi boy emas, balki, nafsini isloh qila olgan,

[1] O‘sha manba (Baqara surasi, 272-oyat.)
[2] O‘zR FA ShI. Q.10064.; O‘zR FA ShI. Q.5726.; O‘zR FA ShI. Q.8848

mol-davlat ilinjidan yuqori insonlargina haqiqiy boy, komil inson bo‘la oladi, degan g‘oyani ilgari suradi.

Keyingi hadis:

القناعة كنز لا يفنى

Tarjimasi: Qanoat tuganmas boylikdir.

Jomiy talqinida:

صاحب حرص را زخوان كرم،
فيض احسان نميرسد هر كز.
بقناعت كراى كان كنجيست،
كه بپايان نميرسد هر كز.[1]

Ya’ni, hirs sohibiga karam dasturxonidan hech qachon ehson fayzi yetmaydi. Qanoatga kirsang, u hazinadirki, hech vaqt tugamaydi.

Jomiy dastlabki baytda qanoatning aksi bo‘lmish hirsning ta’rifini keltirishi keyingi baytda yoritilgan qanoatning fazilatini anglashga yordam beradi. U dastlabki satrlarda ochko‘zlikning kasofatini ta’riflash orqali keyingi baytdagi qanoatning fazilatini yanada yoritishga erishadi va o‘ziga xos uslubda, o‘zgacha timsollar yordamida amalga oshiradi.

Keyingi hadis:

البلاء مؤكل بالنطق

Tarjimasi: Hamma balo tildandir.

Jomiy talqinida:

هر كه شد مبتلا به پركويى،
ببلاى عجب كرفتار است.
هر بلايى كه ميرسد بكسان،
بيشتر از ممّر كفتار است.

ya’ni, kimki. ko‘p so‘zlashga mubtalo bo‘ldi, ajib bir baloga giriftor bo‘ldi. Odamlarga yetadigan har bir balo ko‘proq ko‘p gapirishdan kelib chiqadi.

Jomiy talqinda hadisda keltirilgan mazmunning umumiy jihatini to‘rt misrada shoirona ohangda tasvirlaydi. Har bir bayt mustaqil fikrni ilgari surib, birinchi bayt ikkinchi baytning aksini takrorlab hadis mazmunini yoritib bergan. Birinchi baytda kishining ko‘p so‘zlashi uning baloga (giriftor, duchor etishiga) yo‘liqishiga sabab bo‘ladi deyilsa, ikkinchi baytda kishi boshiga kelgan har bir

[1] O‘zR FA ShI. Q.10064.; O‘zR FA ShI. Q.5726.; O‘zR FA ShI. Q.8848

balo uning ko‘p so‘zlagan so‘zidan deyilmoqda. Bu yerda shoir tardi aks san’atidan mohirona foydalangan.

Jomiy birinchi baytda “ko‘p so‘zdan ko‘p xatoliklar bo‘ladi” deydi, ikkinchi baytda “hamma balolar ko‘p so‘zlashdan keladi” deb, beradi va diqqat e’tiborni ko‘p so‘zning ko‘p balolariga qaratadi. Natijada ko‘p so‘zlashning yomonligini chuqurroq yoritib berishga erishadi.

Keyingi hadis:

النَّظَرُ إِلَى الْمَرْأَةِ الْأَجْنَبِيَّةِ سَهْمٌ مَسْمُومٌ مِنْ سِهَامِ إِبْلِيسَ

Tarjimasi: Begona ayollarga tashlangan har bir nazar shaytonning zaharli o‘qlaridan bir o‘qdir.

Jomiy talqinida:

دیدن زلف و خال نامحرم،
دانۀ کید دام ابلیس است.
هر نظر نا و کیست زهرآلود،
که زشست کمان ابلیس است[1].

Ya’ni, nomahramning zulfu holiga qarash iblis tuzog‘idagi hiyla donining urug‘idir. Har bir nazar shayton kamonining otilajak zaharli o‘qidir.

Jomiy hadis mazmunini 4 misrada shunday beradiki, arab tilidagi so‘zlar ketma-ketligi buzilmaydi, birinchi jumladagi “nomahramga qarash” ifodasi qit’aning 1 va 2 misralarida juda chiroyli sharhlanadi, ya’ni ayollarning ko‘rki bo‘lgan sochi va xoliga qarash shayton tuzog‘ining hiyla urug‘idir, - deb tamsil san’atidan mohirona foydalanadi va hadisdagi birinchi jumlada anglashiladigan ma’noning yorqin badiiy tasviriga erishiladi. Bunda ifodalanayotgan ayol yuzidagi “xol” iblisning hiyla urug‘i (don) bo‘lsa, uning “zulfi” iblisning tuzog‘idir. Demak, zulf iblisning tuzog‘i bo‘lsa, unga qo‘yilgan don-ayol zulfi yonidagi dona xolidir. Jomiy bu ikki misra orqali hadis ta’sirini oshiradi va o‘quvchi qalbiga yanada yaqinroq kirib boradi. So‘ngra “har nazar shayton kamonining zaharli o‘qidir”-deya, arab tilidagi matnning ikkinchi jumlasi hech qanday o‘xshatishlarsiz, nazmiy tarjimada bayon qilinadi. Hadisning asl mohiyati va ta’sir kuchi yuqori saviyada ochib beriladi.

Asl matnda, ya’ni hadisda keltirilgan “iblis” so‘zi Jomiy tarjima sharhida ham “iblis” deb berilgan, “iblis” arabiy so‘z bo‘lib, lug‘aviy ma’no jihatdan biroz farq qiladi[2]. Hadisdagi “المرأة الا جنبية” iborasini Jomiy “nomahram”, deb beradi.

[1] O‘zR FA ShI. Q.10064.; O‘zR FA ShI. Q.5726.; O‘zR FA ShI. Q.8848

[2] X.K. Baranov X.K. – ابلس - dyavol; شیطان– chyort, satana, dyavol, bes, demon. –S.22. Qarang: Islom ensiklopediya. T. 2004. –265-266 -b. 320 b.

Bunda milliy til xususiyatlari o‘z aksini topgan. Bu hadis talqinida Jomiy badiiy timsollar yordamida talqinni jonlantirgan,

Yuqoridagi hadisda bayon etilayotgan ma’noni chuqurroq anglash uchun Qur’onning Nur surasi, 30-oyati mazmunini bilishimiz kerak. Unda “(Ey Muhammad alayhissalom), mo‘minlarga ayting, ko‘zlarini (nomahram ayollarga tikishdan) to‘ssinlar”[1],-deyiladi.

Keyingi hadis:

الْجَنَّةُ تَحْتَ أَقْدَامِ الْأُمَّهَاتِ

Tarjimasi: Jannat onalar oyog‘i ostidadir.

Bu mashhur hadisni Jomiy shunday talqin qiladi:

سر ز مادر مکش که تاج شرف،
کرد از راه مادران باشد.
خاک شو زیربای او که بهشت،
در قدم هاي مادران باشد[2].

Ya’ni, onaga bee’tibor bo‘lma, shon-sharaf toji onaning oyog‘i gardidadir, uning oyog‘i ostidagi tufroq bo‘lginki, jannat onalar qadami ostidadir.

Jomiy hadis mazmunini juda go‘zal tarzda ifodalaydi. Qit’aning birinchi bayti farzandga nasihat ohangida bo‘lib, “sen onangdan bosh tovlama, chunki sening shonu-sharafing, sog‘-omonliging, kamoling onangning bosgan qadami izining gardidandir deya, tazod san’atidan mohirona foydalanadi. Baytda toj-gard, bosh-oyoq kabi qarama-qarshi bo‘lgan so‘zlarni qo‘llab, ta’sirchan badiiy timsollarni aks ettirgan. Jomiy 3-4-misralarda birinchi baytdagi ta’sirchanglikni oshirgan holda, onang oyog‘i tagidagi tufroq bo‘l, jannat onalar oyog‘i ostidadir-deb, hadisning she’riy tarjimasini nozik iboralar orqali beradi.

Bu hadisning ta’siri islom ta’limotidagi ayol-ona timsolida nihoyatda ulug‘lanishi “Biz insonga ota-onasini (rozi qilishni) amr etdik...!”[3]-degan, ilohiy hukm bilan izohlanadi. Ona homiladorlik vaqtidan, to farzand dunyoga kelgunga qadar, bir qancha mashaqqatlarni boshidan kechiradi. Shu vajdan Payg‘ambarimiz (s.a.v.) yuqoridagi hadislari orqali jannatni onalar oyog‘i ostiga to‘shab qo‘yadilar. Demak, Jomiy bu hadisga besabab murojaat etmagan. Musulmon olamida onalarning hurmati farz darajasiga ko‘tarilgan.

---

[1] Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsifi. Tarjima va tafsif muallifi Abdulaziz Mansur. –T:. Toshkent islom universiteti, 2004. – 624 b (Nur surasi, 30-oyat.)
[2] O‘zR FA ShI. Q.10064.; O‘zR FA ShI. Q.5726.; O‘zR FA ShI. Q.8848
[3] “Luqmon” surasi. 14-oyat.

Keyingi hadis:

الْغِنَىٰ الْيَأْسُ مِمَّا فِي أَيْدِي النَّاسِ

Tarjimasi: Haqiqiy boylik odamlar qo‘lidagi narsalarga ko‘z tikmaslikdir.

Jomiy talqinida:

کر دلت را توانکری باید،
که توانکر دلی نکو هنر است.
باز کش دست همت از چیزی،
که بدست تصرّف دکر است.[1]

Ya’ni, agar dilingda boylik (to‘qlik) bo‘lsa, boy (to‘q) qalbga ega bo‘lishlik yaxshi hunardir. Himmat qo‘lini boshqalar tasarrufidagi narsalardan tortgil.

Mazkur hadis talqinida Jomiy ko‘ngildagi boylik, ya’ni, ma’naviy boylik-yaxshi hunar, deb go‘zal ma’no beradi. Shuningdek, hadisning o‘zgalarga tegishli boylikka ko‘z tikmaslik haqiqiy boylikdir, degan mazmunini “himmat qo‘lini boshqalar qo‘lidagi narsalardan tortgil”, ya’ni boshqalarning mulkiga ko‘z tikma, deb sharhlab, istiora san’atidan o‘rinli foydalangan.

Yuqoridagi hadis Qur’onning Baqara surasi, 273-oyati bilan quvvatlanadi.

لِلْفُقَرَاءِ الَّذِينَ أُحْصِرُوا فِي سَبِيلِ اللَّهِ لا يَسْتَطِيعُونَ ضَرْبًا فِي الأَرْضِ يَحْسَبُهُمُ الْجَاهِلُ أَغْنِيَاءَ مِنَ التَّعَفُّفِ تَعْرِفُهُمْ بِسِيمَاهُمْ لا يَسْأَلُونَ النَّاسَ إِلْحَافًا وَمَا تُنْفِقُوا مِنْ خَيْرٍ فَإِنَّ اللَّهَ بِهِ عَلِيمٌ

Unda: “(Sadaqot-ehsonlar) Allohning yo‘lida to‘silgan (ya’ni o‘zlarini ushlagan), biror yerga safar qilishga qodir bo‘lmaydigan, qanoatlari sababli bilmagan odamga boy-badavlat bo‘lib ko‘rinadigan faqir kambag‘allar uchundir. Ularning (faqirliklarini) siymolaridan bilib olasiz. Ular odamlardan tilanib turib, olmaydilar”,[2] - deyiladi.

Xulosa qilib aytganda Abdurahmon Jomiy hadislarni idrok etuvchi forsiyzabon xalqlar ko‘lamini kengaytirishga harakat qilgan. Hadislar talqinida badiiy unsurlarga etibor bergan, xalq og‘zaki ijodidan samarali foydalangan. Hadislarni she’riy sharhini talqin etish asliyat tilini mukammal bilgan kishilar tomonidan amalga oshirilgan. Bu esa nihoyatda muhim hisoblanadi.

Jomiy hadislarni yuksak did bilan, go‘zal bir ohangda, shoirona ifoda etadiki, natijada hadis mazmunini to‘rt misrada kengroq ochib bergan va har bir she’riy talqin o‘ziga xos oxangdorlikka ega bo‘lib, hadis mazmunini oson tushunish va yod olishga xizmat qilgan.

---

[1] O‘zR FA ShI. Q.10064.; O‘zR FA ShI. Q.5726.; O‘zR FA ShI. Q.8848.

[2] Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsifi. Tarjima va tafsif muallifi Abdulaziz Mansur. –T:. Toshkent islom universiteti, 2004. – 624 b.

Abdurahmon Jomiy talqinidagi so‘z va iboralar turlicha yozilgan, hatto qisqa va cho‘ziq unli “a” va “o”larning berilishi turlicha. Bu albatta, nusxani ko‘chiruvchi kotib va ko‘chirilgan davr bilan bog‘liq.

Abdurahmon Jomiyning “Arba’in”i asari nazmda, ya’ni qit’ada yozilganligi hadisda ifodalanayotgan ma’no-mohiyatni o‘ziga xos timsollar orqali o‘quvchi xotirasida yaxshi saqlanib qolishiga imkoniyat yaratadi.

ЭВОЛЮЦИЯ ГОСУДАРСТВЕННОСТИ ЗАХИРИДДИНА МУХАММАДА БАБУРА: ОТ КАБУЛЬСКОГО УДЕЛА К ФОРМИРОВАНИЮ ГОСУДАРСТВА БАБУРИДОВ В ИНДИИ

Ишанкулова Гулшан Равшановна,
Старший преподаватель кафедры «Узбекский и иностранные языки» Навоийского государственного горно-технологического университета.
gulshanishankulova72@gmail.com

UO‘K 81'42

Аннотация *В статье рассматривается процесс трансформации политической власти Захириддина Мухаммада Бабура в первой трети XVI века. Особое внимание уделяется двум основным этапам его правления - кабульскому (1504-1526 гг.) и индийскому (1526-1530 гг). Анализируются особенности государственного управления, военной организации, механизмы легитимации власти и адаптация центральноазиатских политических традиций к условиям Северной Индии. Делается вывод о том, что Кабул стал важнейшей политической и военно-административной базой для формирования новой государственности, а завоевание Индии создало условия для возникновения династии Бабуридов, сыгравшей значительную роль в истории Южной Азии.*

Annotatsiya.*Maqolada XVI asrning birinchi choragida Zahiriddin Muhammad Bobur siyosiy hokimiyatining o‘zgarish jarayoni ko‘rib chiqiladi. Uning hukmronligining ikki asosiy bosqichiga - Kobul (1504-526-yy.) va Hindiston (1526-1530-yy.) Davlat boshqaruvi, harbiy tashkilotning o‘ziga xos xususiyatlari, hokimiyatni qonuniylashtirish mexanizmlari va Markaziy Osiyo siyosiy an’analarining Shimoliy Hindiston sharoitiga moslashuvi tahlil qilinadi. Qobul yangi davlatchilikning shakllanishi uchun eng muhim siyosiy va harbiy-ma’muriy bazaga aylandi, Hindistonning bosib olinishi esa Janubiy Osiyo tarixida muhim rol o‘ynagan Boburiylar sulolasining paydo bo‘lishiga sharoit yaratdi, degan xulosaga kelinadi.*

Abstract: *The article examines the process of transformation of Zahiriddin Muhammad Babur's political power in the first third of the 16th century. Particular attention is paid to two main stages of his reign: the Kabul (1504-1526) and the Indian (1526-*

1530) periods. The study analyzes the features of state governance, military organization, mechanisms for the legitimization of power, and the adaptation of Central Asian political traditions to the conditions of Northern India. It is concluded that Kabul became the most important political and military-administrative base for the formation of a new statehood, and the conquest of India created conditions for the emergence of the Baburid dynasty, which played a significant role in the history of South Asia.

Ключевые слова: *Бабур, государственность, Кабул, Индия, Тимуриды, государственное управление, Центральная Азия.*

Tayanch iboralar: *Bobur, davlatchilik, Qobul, Hindiston, Temuriylar, Boburiylar, davlat boshqaruvi, Markaziy Osiyo.*

Keywords: *Babur, statehood, Kabul, India, Timurids, Baburids, state governance, Central Asia.*

Введение Начало XVI века стало периодом глубоких политических изменений в Центральной Азии. Распад державы Тимуридов и усиление узбекских правителей под руководством Мухаммада Шайбани-хана привели к коренному изменению политической карты региона. В новых условиях многие представители тимуридской династии утратили свои владения и были вынуждены искать новые центры политического влияния. Наиболее успешным среди них оказался Захириддин Мухаммад Бабур, сумевший не только сохранить династическую легитимность, но и создать новое государство за пределами Мавераннахра.

Личность Бабура традиционно рассматривается в историографии как пример правителя переходной эпохи, сочетавшего политические традиции кочевого и оседлого мира. Его деятельность представляет особый интерес для изучения процессов формирования государственности, поскольку в течение жизни ему пришлось управлять территориями, значительно различавшимися по экономическим, этническим и культурным характеристикам. Относительно небольшое владение в Кабуле стало для него своеобразной лабораторией государственного строительства, тогда как завоевание Северной Индии открыло возможности для создания крупной многоэтничной державы.

Кабул как основа формирования новой государственности

После захвата Кабула в 1504 году положение Бабура существенно укрепилось. Потеряв Самарканд и Фергану, он оказался перед необходимостью создания новой политической базы. Кабул обладал рядом преимуществ: выгодным географическим положением, развитой торговлей и возможностью контролировать пути между Центральной и Южной Азией. Кроме того, регион располагал достаточными ресурсами для содержания армии и административного аппарата.

В первые годы правления Бабур столкнулся с серьезными трудностями. Население Кабула отличалось этническим разнообразием и включало таджиков, пуштунов, хазарейцев и представителей других народов. Для обеспечения стабильности требовалось выстроить эффективную систему взаимодействия между различными социальными и этническими группами. В этих условиях Бабур стремился сочетать традиционные методы тимуридского управления с практическими мерами, направленными на укрепление центральной власти.

Особое значение имела военная организация государства. Постоянная угроза со стороны соседних правителей заставляла уделять большое внимание укреплению армии. Именно в кабульский период началось внедрение новых военных технологий, связанных с использованием артиллерии и огнестрельного оружия. Этот опыт впоследствии обеспечил Бабуру важное преимущество в борьбе за Индию.

Не менее важным фактором стало укрепление династической легитимности. Принятие титула падишаха свидетельствовало о стремлении Бабура подчеркнуть независимость своей власти и претензии на статус самостоятельного государя. Тем самым происходил постепенный отход от положения одного из многих тимуридских князей и формирование образа правителя, обладающего собственным политическим проектом.Завоевание Индии и изменение характера власти

К середине 1520-х годов политическая ситуация в Северной Индии благоприятствовала внешнему вмешательству. Делийский султанат переживал период внутренней нестабильности, сопровождавшийся конфликтами между правящей династией и региональными элитами. Эти обстоятельства создали условия для военной экспансии Бабура.

При Пани пате 21 апреля 1526 года решающим событием стала битва. Победа над Ибрагимом Лоди не только обеспечила контроль над Дели и Агрой, но и изменила характер самого государства Бабура. Если ранее его

владения представляли собой сравнительно компактное региональное образование, то теперь перед ним стояла задача управления огромной территорией с многочисленным населением и сложной социальной структурой.

В отличие от многих завоевателей, Бабур не стремился к полному разрушению существующих институтов власти. Сохранение части административного аппарата позволило обеспечить непрерывность управления и снизить риски политической дестабилизации. Одновременно происходило включение центральноазиатской военной знати в систему управления новыми территориями.

Важной особенностью индийского периода стало изменение экономической базы государства. В распоряжении Бабура оказались богатые сельскохозяйственные районы долины Ганга, обеспечивавшие значительно более высокий уровень доходов по сравнению с Кабулом. Это создало предпосылки для укрепления армии, развития административной структуры и расширения государственного контроля над регионами.

Заключение.История политической деятельности Захириддина Мухаммада Бабура демонстрирует сложный процесс трансформации государственности в условиях масштабных геополитических изменений начала XVI века. Кабульский период стал этапом накопления политического опыта и формирования механизмов управления, тогда как завоевание Индии открыло возможности для создания нового государственного образования. Сочетание центрально азиатских политических традиций и индийских административных практик обеспечило устойчивость власти новой династии и заложило основу дальнейшего развития государства Бабуридов.

Литература.

1. Бабур З. М. Бабур-наме. - Ташкент: Фан, 1993.

2. Антонова К. А. Очерки общественных отношений и политического строя Могольской Индии времен Акбара. - М.: Изд-во АН СССР, 1952.

3. Dale S. F. The Garden of the Eight Paradises: Babur and the Culture of Empire in Central Asia, Afghanistan and India (1483–1530). - Leiden: Brill, 2004.

4. Richards J. F. The Mughal Empire.-Cambridge: Cambridge University Press, 1993.

5. Alam M., Subrahmanyam S. The Mughal State, 1526-1750.- New Delhi: Oxford University Press, 1998.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI NTM

INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT

6,7,8-sonlar (43)
2026-yil, iyun, iyul, avgust.

Bosh muharrir v.v.b.:	A.Matnazarov
Mas’ul kotib:	U.Bekmuhammad
Texnik muharrir:	M.Jumaniyozov
Navbatchi:	U.Bekmuhammad

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 2-noyabr kuni №0154405 raqamli tasdiqnoma berilgan.
Bosishga topshirilgan vaqti: 10:00. Ruxsat etilgan vaqti: 11:00
Qog‘oz bichimi: A4. Adadi: 200 nusxa.
Hajmi: 35,75 b.t. Buyurtma №1/48.
Nashr ko‘rsatkichi: 1404.
Bahosi kelishilgan narxda.
“Milleniumus print” MCHJda ofset usulida chop etildi.
Urganch tumani, “Shermatlar” MFY, Tadbirkorlar ko‘chasi, 69-uy.
Tel: (+998) 91-994-24-00

Urganch innovatsion universiteti
220100, Urganch shahri, “Ko‘hna qal’a” MFY,
Pahlavon Mahmud ko‘chasi, 59/1-uy, C-korpus.
Tel: (+998) 90-436-20-22